



Jek
London

Martin Iden



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2016

UO‘K: 82-312.6(410.1)

KBK: 84(7)

L — 75

London, Jek

Martin Iden/Jek London. Ruschadan Qodir Mirmuhamedov tarjiması. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 608 b.

ISBN 978-9943-27-717-5

«Kamolot kutubxonasi» ruknida chop etilayotgan Jek Londonning «Martin Iden» romani ko‘pchilikning talab va istaklari asosida nashrga tayyorlandi. Uni muallifning o‘ziga xos avtobiografik asari deyish mumkin. Chunki J. Londonning o‘zi ham asar qahramoni kabi qashshoq oiladan chiqqan va o‘zining sa‘y-harakatlari hamda iroda kuchi bilan adabiyot olamida dovrug‘ qozondi.

Inson va jamiyat, jamiyatdagi keskin sinfiy tabaqalanish, uning inson hayotidagi falsafiy-ijtimoiy ahamiyati bundan yuz yillar avval qanchalar dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, ayni damda ham shunday dolzarb sanaladi.

Boy xonadon qizini sevib qolgach, sof muhabbat tufayli ro‘yodek tuyilgan orzuga intilgan Martin o‘sha orzusiga erishganda, uning sarob ekanini anglab yetadi. Bu orzuni u emas, sevgan qizi Ruf emas, balki jamiyat va uning shafqatsiz qonunlari sarobga aylantiradi. Martin tushungan narsani Ruf hech qachon anglab yetolmaganidek, qiz ardoqlagan qadriyatlar ham Martin uchun hamisha begona bo‘lib qolaveradi.

Asar mutolaasidan so‘ng kitobxon har qanday jamiyat va tuzumda chin inson bo‘lish, buni anglay olish eng yuksak va oliy qadriyat ekanini his qiladi.

UO‘K: 82-312.6(410.1)

KBK: 84(7)

**Ruschadan
QODIR MIRMUHAMEDOV
tarjiması**

ISBN 978-9943-27-717-5

© Jek London, «Martin Iden». Ikkinchi nashri. «Yangi asr avlodi», 2016.

BIRINCHI BOB

Oldinda kelayotgan yigit yassi kalit bilan eshikni ochdi. Uning ortidan kelayotgan sherigi ostonani hatlab o'tishdan avval, boshidan kepkasini apil-tapil yulqib oldi. Egnidagi dag'al odmi kiyimdan dengiz hidi anqib turardi; yigit kattakon zalga kirdi-yu, noqulay vaziyatga tushib qoldi. Kepkasini qayoqqa qo'yishni bilmay, uni buklab cho'ntagiga tiqib qo'ymoqchi bo'lgan edi, hamrohi qo'lidan oldi, buni u shunday oson, shunday tabiiy harakat bilan bajardiki, yigitning ko'ngli tog'dek ko'tarilib ketdi. «Ahvolim qanaqaligini tushunyapti, – degan xayol lip etib o'tdi miyasidan, – u meni sharmanda qilmaydi».

Oyoq ostidagi pol yigitga go'yo dengiz to'liqinida dam pastga tushib, dam balandga ko'tarilayotgan palubaday tuyulganidan, hamrohi orqasidan oyoqlarini kerib, har qadamda chayqalib yurib borardi. Palubada ayqalib-chayqalib yurishga odatlanib qolgan yigit uchun bu keng xonalar judayam tor tuyuldi, u har qadamda yelkasi bilan eshikning yondoriga tegib ketishdan, yo kamin ustiga qo'yilgan bezak ashyolaridan birontasini turtib tushirib yuborishdan qo'rqardi. U o'zini goh u tomonga, goh bu tomonga tashlar va shu harakati bilan o'z tasavvuridagina mavjud

boʻlgan xatarni yana zoʻraytirardi. Kitob uyulib yotgan stol bilan royal orasidan olti kishi bemalol oʻtishi mumkin edi, lekin u bu oraliqdan yuragini hovuchlab oʻtdi. Uning besoʻnaqay qoʻllari shalvirab turar, ularni qayerga qoʻyishni bilolmasdi. Birdan oʻzini stol ustida yotgan kitoblarga tegib ketayotganday his qilib, xuddi hurkkan otdek orqaga tisarildi-da, sal boʻlmasa royal oldidagi kursini agʻdarib yuborayozdi. Shunda u shaxdam odim otib borayotgan hamrohiga qaradi-yu, umrida birinchi marta oʻzining qadam tashlashi besoʻnaqay va boshqalarnikiga oʻxshamasligini fahmladi, xijolatdan bir zumga choʻgʻ boʻlib yondi. Manglayida ter tomchilari paydo boʻldi va toʻxtab, dastroʻmoli bilan oftobda qoraygan yuzini artdi.


– Artur, azizim, birpas sabr qilsangiz, – dedi u oʻzining xijolat boʻlganini yashirish uchun hazilomuz ohangda. – Dabdurustdan bunchalik dabdaba men uchun judayam ortiqcha boʻlib ketdi. Nafasimni rostlab olay. Oʻzingiz bilardingiz, bu yerga kelishni istamovdim, undan keyin, oila aʼzolaringizniyam meni koʻrishga koʻzlari uchib turgan boʻlmasa kerak.

– Parvo qilmang! – dedi hamrohi unga taskin berib. – Siz hech tortinmang. Biz sodda odamlarmiz... E-he! Menga xat kelganga oʻxshaydi.

Artur stolga yaqin bordi, konvertni ochib, xatni oʻqiy boshladi, bu bilan mehmonning oʻziga kelib olishiga imkon tugʻdirgan edi. Mehmon ham buni tushunib, undan minnatdor boʻldi. U tabiatan sezgir va odamshavanda edi, shuning uchun, parishonxotir koʻrinsa ham, aslida sez-

girligini, odamshavandaligini yo'qotmagan edi. U peshanasini yana artib, xonaga diqqat bilan razm solib chiqdi, lekin uning ko'zlari qopqonga tushishdan xavfsirayotgan yovvoyi hayvonning ko'zlaridek taka-puka edi, u notanish buyumlar qurshovida qolgan, bu yerda yuz berishi kerak bo'lgan voqealardan hayiqar, nima qilishini bilmasdi, u o'zining beso'naqayligini, yurish-turishi va xatti-harakatlari ham beso'naqay ekanligini tushunardi. Uning sezgirligi shu qadar o'tkirlashdi, shu qadar xijolat chekdiki, Arturning maktub osha tashlagan mug'ombirona nigohi uning diliga bamisoli xanjardek botdi. Garchi bu qarashni payqagan bo'lsa ham, o'zini sezmaganga oldi, chunki u endi ancha-muncha narsaga, birinchi galda intizomga odatlangan edi. Ammo bu xanjar uning g'ururini jarohatladi. Bu yerga kelgani uchun o'zini koyidi, lekin shu zahotiyoc: «Bo'lganicha bo'ldi, kelishga keldimmi, oxirigacha chidayman», – deb jazm qildi. Chehrasi jiddiy tus oldi, ko'zlarida g'azab uchqunlari chaqnadi. U yana atrofga ko'z tashladi, bu safar o'zini qurshab olgan uy jihozlarini ikir-chikirigacha xotirasida saqlab qolish uchun birmuncha dadilroq mushohada qila boshladi. Uning katta-katta ochilgan ko'zlaridan hech narsa chetda qolmadi; bu nafis buyumlarga qaragan sari ko'zidagi g'azab uchqunlari so'nib, yoqimli ifoda paydo bo'la boshladi. U hech qachon nafosatga befarq qaray olmasdi, bu yerda esa befarq qarab bo'lmaydigan buyumlar juda ko'p edi.

Uning e'tiborini devordagi moybo'yoq bilan ishlangan surat o'ziga tortdi. Bu suratda qudratli



dengiz to'liqini sohildagi qoyaga urilib parcha-parcha bo'layotgani tasvirlangan edi; momaqaldiroqdan darak beruvchi past suzib yurgan qora bulutlar butun osmonni qoplagan, quturgan to'liqlar sathida esa botib borayotgan quyosh shu'lasini bilan yoritilgan kichkinagina shxuna¹ suzib borar, u bir tomonga chunonam og'ib ketgan ediki, butun palubasi ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Bu go'zal manzara edi, go'zallik esa uni hamma vaqt o'ziga rom qilardi. U o'zining beso'naqay qadam tashlashini unutib, surat yoniga yaqin keldi. Lekin boyagi go'zallik birdan g'oyib bo'ldi-qo'ydi. Endi u har xil bo'yoqlar bilan chaplab tashlangan rasmga hayron tikilib turardi. Keyin u uzoqlashdi. Shu zahotiyiq surat boyagi go'zal shaklga kirdi. «Nayrangli surat ekan, – degan fikrga keldi u yuzini suratdan o'girib va yopirilib kelgan yangi taassurotlar ichida, – shunday nafosatni betayin nayrangbozlik uchun qurbon qilishibdi», – deb qahri kelib o'ylab qo'ydi. U rassomlik san'ati haqida hech qanday tushunchaga ega emas edi. Shu paytgacha u faqat xromolitografiyani² bilardi, bunday suratlar uzoqdan ham, yaqindan ham bir xilda ko'rinaverardi. Rost, do'kon vitrinalarida bo'yoq bilan ishlangan rasmlarni ham ko'rgan, lekin vitrina oynasi ularni yaqindan ko'rishga imkon bermasdi.

U xat o'qiyotgan do'stiga o'girilib qaradi-yu, stol ustida yotgan kitoblarga ko'zi tushdi. Uning ko'zlari xuddi ovqat ko'rib qolgan och odamni-

¹ Shxuna – uch machtali va qayrilma yelkanli kema.

² Xromolitografiya – litografiya yo'li bilan uch-to'rt xil rangda bosilgan surat.

kiday chaqrab ketdi. Beixtiyor stol tomon yurdi va hayajon ichida kitoblarni birma-bir ko'zdan kechira boshladi. U kitobning va muallifning nomini, undagi ayrim jumalarni o'qir, ularga zavq bilan tikilib silab qo'yardi, birdan kitoblar orasida o'zi yaqinda o'qigan kitobni ko'rib qoldi. Lekin shu kitobdan boshqa hamma kitoblar hamda ularning mualliflari unga tamomila notanish edilar. Uning qo'liga Suinberning kitobi tushib qolgan edi, u o'zining qayerdaligini ham unutilib qo'yib, kitobni o'qiy boshladi; yuzi cho'g'dek qizarib ketdi. U muallifning nomini bilish maqsadida ikki marta barmog'ini o'qiyotgan sahifasiga qo'yib, kitobni yopdi. Suinbern! Bu nomni eslab qoladi. Suinbern deganlari, aftidan, mushohadasini o'tkir odam bo'lsa kerak, har narsaning shaklini ham, rangini ham aniq tasvirlagan. Lekin kim o'zi u? Ko'pchilik shoirlar singari bundan yuz yil burun o'lib ketganmi yoki hozir tirikmi, haliyam yozyaptimi? U kitobning ikkinchi betini ochdi. Ha, bu Suinbern boshqa kitoblar ham yozgan ekan. Yaxshi, u ertaga ertalaboq xalq kutubxonasiga boradi-da, bu muallifning asarlaridan birontasini olib o'qiydi.

U o'qishga shu qadar berilib ketgan ediki, xonaga yosh bir qiz kirib kelganini ham payqamadi. U Arturning ovozi eshitib o'ziga keldi:

– Ruf! Bu mister Iden bo'ladi.

Kitob shartta yopildi va yigitning butun vujudini yangi bir notanish sezgidan seskanib ketdi, u xonaga qiz kirib kelganidan emas, balki qizning akasi aytgan gapdan shu holatga tushgan edi. Bu muskuldor gavda haddan tashqari hassos

edi. Tashqi muhitning sezilar-sezilmas ta'siri ostida uning tuyg'ulari va tafakkuri xuddi alangadek lop etib yonib ketardi. U benihoya hassos va nazokatli qalb egasi edi, uning otashin xayoli esa muttasil ishlab, narsa-buyumlar orasidagi munosabatlarni, ularning bir-biridan farqi va o'xshashliklarini belgilab turardi. Uni «mister Iden» degan so'z seskanib ketishga majbur etgan edi. Umr bo'yi «Iden», «Martin Iden» yoxud soddagina qilib «Martin» deb yuritilgan bu yigitni to'satdan «mister» deb aytishdi. «Shu so'zning o'ziyam chakki emas», – deb qo'ydi u o'ziga o'zi. Uning tushunchasi birdan ulkan fotokameraga aйландi va ko'z o'ngida o'ziga tanish bo'lgan lavhalar: o'txonalar, tryumlar, doklar, pristanlar, qamoqxonalar va traktirlar, kasalxonalar va xaroba uylar manzaralari bir-birini quvalashib o'ta boshladi; birin-ketin xayolida jonlangan bu joylarda u shunday muomalaga ko'nikib qolgan edi.

Lekin xuddi shu payt orqaga o'girildi-yu, qizga ko'zi tushdi. Uning xotirasida g'ujg'on o'ynab yotgan pala-partish lavhalar birdaniga g'oyib bo'ldi. Ro'parasida porlab turgan moviy ko'zlari shahlo, oltin sochlari qalin, rangpar, nazokatli bir jonon turardi. Yigit qizning qanaqa kiyimda ekanligini payqamadi, ammo uning libosi ham o'zi singari g'oyat ajib ekanligiga ishonardi. U xayolan qizni nozik bandli och sariq oltin rang gulga o'xshatdi. Yo'q, aniqrog'i, u ilohiy ruh, pari, ma'buda edi – negaki bunday oliyjanob nafasat yer yuzida uchramaydi. Yoxud kitoblarda chindanam to'g'ri yozilganmikin, jamiyatning o'zga kibor doiralarida shu qizga o'xshagan go'zallar ko'pmikin? Anavi

Suinbern shu qizni tarannum etsa qoyil qilar-di-da. Ehtimol, Suinbern anavi stolda yotgan kitobidagi Izoldani tasvir etayotganda, aynan unga o'xshagan bir go'zalni ko'z oldiga keltirgandir. Bu fikrlar, tasavvur va hissiyotlar bir onda xayolidan o'tib ketdi. Tashqi hodisalar esa to'xtamay davom etayotgan edi. Ruf qo'lini yigitga uzatdi, ular bir-birlarining qo'lini erkakchasiga mahkam siqishib ko'rishayotgan chog'da, u qizni o'ziga tik qarab turganini sezdi. U bilgan ayollar hech bunday qo'l siqishib ko'rishmasdi. Ular, umuman, kamdan-kam qo'l berib ko'rishardilar. Yana uni xayol chulg'ab olib, rang-barang manzaralar, har turli ayollar bilan uchrashgani va topishgani xotirasida jonlandi. Lekin yigit ularning barchasini xayolidan quvib, qizning chehrasiga boqardi. Bunday qizni u hech qachon ko'rmagan edi. U bilgan ayollar... «u» ayollar darhol qizning yonida saf tortib turdilar. U bamisoli abadiyatdek tuyulgan bir lahza ichida, o'zini portretlar gale-reyasiga kirib qolgandek his qildiki, bu yerda qiz markaziy o'rinni egallagan, atrofida esa son-sanoqsiz ayollar uymalanardi, darhol ularning har birini baholab, qiz bilan taqqoslash lozim edi. Uning ko'z oldida fabrikada ishlovchi ozg'in va rangi bo'zargan ayollar va shahar ko'chalarida uchratgan sho'x qizlar, ulkan chorvachilik rancholarida ishlovchi batrak ayollar va og'zidan sigaretasi tushmaydigan meksikalik bug'doyrang ayollar namoyon bo'ldi. So'ng, oyoqlariga yog'och kavush kiygan, qo'g'irchoqsifat yapon ayollari pildirab o'tdi, nasli ayniy boshlagani nozik yuz bichimidan yaqqol ko'rinib turgan Yevroosiyo

ayollari, ulardan keyin qora badanlariga husn bergan gulchambarlarni boshlariga taqib, Tinch okeani orollarining barvasta qomat ayollari ko'z oldidan o'tdi. Va nihoyat, qabih va mudhish olomon – Uaytchepel yo'lkalarida uchrovchi sochlari hurpaygan fohishalar, ovloq islovatxonalarda yashovchi, hamma yog'idan qo'lansa aroq hidi anqib turadigan shallaqi xotinlar, jirkanch va badaxloq alvastilar, dengizchilarning yo'lini poylab turuvchi xotinnamo ayanchli maxluqlar, xullas, limanlarning chiqindilari, odamzot qozonidan chiqqan ko'pik va quyqalar ayollar qiyofasini siqishtirib, chetga surib qo'ydi.

– O'tiring, mister Iden, – dedi qiz. – Arturning hikoyasidan so'ng siz bilan judayam tanishish istagida edim. Siz g'oyat zo'r jasorat ko'rsatibsiz.

Martin qo'l harakati bilan qizning gapini bo'ldi va: «Bu hammasi behuda narsa, mening o'rnimda boshqa odam bo'lsa, u ham xuddi shunday qilgan bo'lardi», – deb g'o'ldirab qo'ydi. Qiz yigitning ko'targan qo'li endi bitib kelayotgan yara-chaqalar bilan qoplanganini ko'rди; ikkinchi qo'lga qaragan edi, u ham xuddi shunaqa ekan. Keyin sinovchan ko'zlari bilan yigitning chehrasiga tez nazar tashlab chiqib, uning yonog'ida, peshanasida, sochlari ostida va nihoyat, bo'ynida kraxmallangan yoqasi ostidagi chandiqa ko'zi tushdi. U yigitning qora mag'iz bo'yni kraxmal yoqadan qizarib ketganini ko'rib, kulgisini yashirdi. Martin, aftidan, yoqa taqishga odatlanmagan bo'lsa kerak. Qizning ayollarga xos sinchkov ko'zlari yigitning halpillatib tikilgan beso'naqay kostyumiga, yelkalarining qatqatiga,

baquvvat mushaklari turtib turgan yenglarining g'ijimiga tushdi.

Martin e'tiborga loyiq hech qanday ish qilmaganini yana aytib, itoatkorlik bilan kreslo tomon yo'naldi. Bu asnoda u qizning nozik bir harakat ila kresloga o'tirishini zavq bilan kuzatdi va o'zining beso'naqay qiyofasini tasavvur etib, yana ham xijolat bo'ldi. Bu holat uning uchun yangilik edi. U o'zining epchil yoki beso'naqay ekanligi haqida hech qachon o'ylab ko'rmagan edi. Shu nuqtai nazardan, o'zining qanaqaligi to'g'risida bosh qotirmagan edi. U kresloning chetiga omonatgina o'tirarkan, qo'llarini qayoqqa qo'yishni bilmasdi. Qo'llarini qayga qo'ymasin, baribir xalaqit qilardi unga. Buning ustiga, Artur ham xonadan chiqib ketdi va Martin Iden uning orqasidan g'ayriixtiyoriy hasrat bilan tikilib qoldi. Endi u ayol qiyofasidagi bu rangpar pari bilan xonada yolg'iz qolgach, tamomila dovdirab qoldi. Do'stona suhbatni erkin davom ettirish uchun kishiga dalda beruvchi biron ichkilik zarur ediyu, ammo afsuski, bu yerda jin³ so'rash uchun na peshtaxta yoki pivoga yuborish uchun na yugurdak bola bor edi.

– Bo'yingizda chandiq bor ekan, mister Iden,
– dedi qiz. – Qayerda bo'lgan? Balki u bironta g'aroyib sarguzasht oqibatidir?

– Bir meksikalik pichoq urgan edi, miss, – deb javob qildi u lablarini yalab va xirqiroq ovozini tozalash uchun yo'talib olib. – Mushtlashgandik. Keyin, qo'lidan pichoqni tortib olganimda, u burnimni tishlab olmoqchi bo'luvdi.

³ Jin – araq.

Martin bu soʻzlarni soddagina qilib aytdi, ammo uning koʻz oldida Salina Krutsdagi yulduzlar charaqlagan dim kecha manzarasi: oppoq sohil chizigʻi, qand ortilgan paroxodlarning chiroqlari, sal nariroqdan eshitilayotgan sarxush matroslarning ovozlari, meksikalik yigitning gʻazabdan burushgan basharasi, yulduzlar yorugʻida koʻzining vahshiyona chaqnashi, boʻyniga sanchilgan poʻlatning sovuqligi, tizillab oqayotgan qon, olomon va shovqin-suron, bir-biriga chirmashib, qum ustida u yoqdan-bu yoqqa dumalayotgan ikki gavda va qayerdandir uzoqdan eshitilayotgan gitaraning ohanrabo sadosi jonlandi. Bu voqea shunday sodir boʻlgandi, lekin Martin buni eslagan zahoti seskanib ketdi va anavi devorda osilib turgan rasmni chizgan rassom bu hodisani ham rango-rang boʻyoqlar bilan tasvirlay olarmidiykin deb oʻyladi. Oq sohil, yulduzlar, yuk tashuvchi paroxodlarning chiroqlari – bular hammasi suratda juda chiroyli chiqsa kerak – suratning oʻrtasida qum ustida mushtlashayotganlarni oʻrab olgan qora olomon. Rasmda pichoqni ham tasvirlasa boʻlardi, negaki yulduzlar shuʻlasida poʻlat juda chiroyli yaraqlaydi degan fikrga keldi u.

Lekin bular haqida bir ogʻiz ham gapirmadi.

– Ha, u burnimni tishlab olmoqchi boʻlgan edi, – deb takrorladi, xolos.

– Oʻ! – deb yubordi qiz, Martin uning ovozida ham, chehrasida ham sarosimalik alomatini his qildi. Martinning oʻzi ham dovdirab qoldi, uning oftobda qoraygan yuzlariga rang yugurdi, qon quyildi, lekin uning nazarida, goʻyo bir soatdan

beri langʻillab yonib turgan oʻchoq oldida oʻtirganidan yuzlari shunday lovillab yonayotganga oʻxshab tuyuldi. Pichoqbozlik singari xunuk narsalar haqida kibor xonimga hikoya qilish munosibmikin. Kitoblarda yozilishicha, bunday qizlar davrasida hech qachon bunaqa mavzuda suhbat qilmasdilar, – ehtimol, ular bunday narsalardan bexabardirlar ham.

Endigina jonlanib kelayotgan suhbat xiyolgina uzilib qoldi. Shunda Ruf yana savol berdi, bu safar savol uning yonogʻidagi chandiq haqida edi. Qiz yigitga yaqin boʻlgan narsalar toʻgʻrisida gaplashishga urinayotgan edi, buni sezgan Martin darhol qizning savoliga javob berdi-yu, suhbatni qizga yaqin boʻlgan mavzuga burishga qaror qildi.

– Shunaqa bir voqea boʻlgan edi, – dedi u qoʻli bilan yonogʻini silarkan. – Bir kun kechasi kuchli toʻlqin paytida grot⁴ hamma lash-lushlari bilan dabdala boʻlib ketdi. Tross simdan edi, u ilonday toʻlgʻanib duch kelganni qamchilay boshladi. Vaxtadagilarning hammasi uni ushlashga otildi. Men ham unga tashlanib, tutib bogʻladim, oʻshanda yuzimga sharaqlab kelib tekkan edi.

– Oʻ! – dedi qiz yana, bu safar birmuncha hamdardlik bilan, lekin baribir u «grot», «tross» soʻzlarining maʼnosiga aslo tushunmas edi.

– Haligi... Svaynbern, – deb Martin oʻz rejasini amalga oshirishga kirishdi-yu, ammo bu soʻzni yanglish talaffuz etdi.

– Kim?

– Svaynbern, – deb takrorladi yigit, – shoir.

⁴ Grot – oʻrta machtaga oʻrnatilgan pastki qiygʻoch yelkan.

– Suinbern, – deb qiz uning soʻzini tuzatdi.

– Ha, oʻsha, – deb gapira boshladi Martin yana choʻgʻdek qizarib, – oʻlganiga ancha boʻlganmi?

– Uning oʻlganini eshitgan emasman, – qiz unga ajablanib boqdi. – Siz u bilan qayerda tanishgansiz?

– E, men uni hecham koʻrmaganman, – deb javob qildi yigit. – Siz kirmasingizdan oldin ana-vi stolda yotgan kitobni ochib, bir-ikkita sheʼrini oʻqigandim. Uning sheʼrlari sizga yoqadimi?

Qiz Martinni qiziqtirgan narsa toʻgʻrisida erkin va ravon gapira ketdi. Yigit oʻzini xiyla durust his eta boshladi va hatto kresloga bahuzur oʻtirib oldi, shunga qaramay, goʻyo kreslo tagidan sirgʻalib chiqib ketib, yerga «tap» etib oʻtirib qoladiganday, uning ikki yondoridan mahkam ushlab oʻtirardi. U qizga tanish boʻlgan mavzuni oʻrtaga tashlashga muyassar boʻldi, endi esa qizning bu jaji goʻzal boshida nechogʻli koʻp aql borligidan taajjublelanib va ayni vaqtda, uning zarif lato-fatidan zavqlanib, gaplariga diqqat bilan quloq solardi. U qizning dudoqlaridan osongina otilib chiqayotgan soʻzlarning maʼnosini anglashga harakat qilsa ham, bu soʻzlar uni taajjublantirsa ham eshitganlarining barini anglashga tiri-shardi. Ruf aytgan gaplarning bari uning miyasi-ni ishlashga majbur etardi. Aqliy hayot bu yoqda ekan, deb oʻylardi u, yetti uxlab tushimga kirma-gan porloq va ajib hayot bu yoqda ekan. Martin atrofini oʻrab olgan barcha buyumlarni mutlaqo unutilib, haris koʻzlarini qizga tikdi. Ha, bu qiz shu qadar ajib bir xilqat ediki, u deb yashasa, unga intilsa, uning uchun kurashsa va uning

yo'lida jon fido qilsa arziydi. Kitoblarda to'g'ri yozilgan ekan. Dunyoda mana bunaqa ayollar bo'larkan-u. Mana o'shalardan biri. Bu qiz Martinning xayoliga qanot baxsh etdi, natijada yigitning ko'z oldida ulkan va porloq lavhalar namoyon bo'ldi va u lahzalarda sehrli va romantik obrazlar, ishq-muhabbat manzaralari va zarrin chechak yanglig' shu so'lim ayol yo'lida qilingan mardonavor ishlar bir-biriga qorishib ketdi. Martin ana shu antiqa sarob singari jimirlab, mavjlanib turuvchi lavhada o'zi bilan san'at va adabiyot haqida suhbat qurib o'tirgan ayolni ko'rdi. Yigit qizga tikilib o'tirib, uning gaplarini tinglarkan, o'z ko'zlarida, qizga tikilgan o'tkir ko'zlarida erkak kishi tabiati aks etib turganini payqamasdi. Lekin hayotni va erkaklar tabiatini yaxshi bilmagan bu qiz yigitning o'tdek chaqnab turgan ko'zlariga ko'zi tushdi-yu, ayollarga xos ehtiyotkorlik bilan o'zini tutib oldi. Shu paytgacha bironta ham erkak unga bu tarzda tikilmagan edi, shuning uchun hozir qiz uyalib ketdi. Qiz suhbat kalavasining uchini yo'qotib, duduqlandi va gapdan to'xtadi. U bu odamdan qo'rqardi va ayni vaqtda uning bu tarzda tikilishi negadir qizga xush yoqardi. Tarbiya bilan singdirilgan odatlar qizni bu sehrli, makrli jozibaning tahlika va qudratidan ogohlantirardi; biroq savqi tabiiy sezgisi uning qonini jo'sh urdirar va undan o'zining kim va nima ekanligini unutishni talab qilar, bu boshqa muhit odami bo'lgan mehmon sari, qo'llari yara-chaqa va yoqa taqishga odatlanmagan bo'ynida qirmizi dog' bo'lgan, ya'ni to'pori odamlar orasida yashab, qo'pol hayotning chir-

kin izlarini saqlab qolgani siymosida ochiqdan-ochiq sezilib turgan yigit sari otilishini talab etardi. U iffatli qiz edi va ana shu ma'sumaligi tufayli nafratlanardi, lekin u ayni vaqtda ayol edi va boz ustiga ayollik tabiatining o'ziga xos ajib xislatlarini endigina anglay boshlagan ayol edi.

– Demak, men aytgandek... ha, nimani gapirayotgan edim? – dedi birdan qiz so'zini bo'lib va o'zi sho'x kulib yubordi.

– Siz, Suinbern shuning uchun ham buyuk shoir bo'la olmadiki, deytuvdingiz. Ha... xuddi shu juhlada to'xtagan edingiz, miss...

Shu gapni aytdi-yu, go'yo to'satdan qorni ochiqib ketgandek bo'ldi. Qizning kulgisidan yigitning vujudi yoqimli jimirlab ketdi. Xuddi kumushdek, deb o'yladi u, xuddi jajji kumush qo'ng'iroqchalardek jarangli ekan kulgisi; ayni shu damda va faqat bir zumgagina yigitning tasavvurida uzoq o'lka namoyon bo'ldi – Martin u yerda pushti rang gulga burkangan olcha daraxti ostida papiros chekib o'tirar va poxol sandal kiygan qavmlarini ibodatga chaqiruvchi mezana-li budda ibodatxonasining qo'ng'iroqchalari sadosiga quloq solardi.

– Ha, ha... Minnatdorman sizdan, – deb javob berdi qiz. – Suinbern shuning uchun ham buyuk shoir bo'la olmadiki, ochig'i, u ba'zida xiyla qo'pol yozadi. Uning o'qishga arzimaydigan she'rlari ham bor. Chinakam shoirning har bir misrasi go'zal haqiqat bilan boyitilgan bo'ladi va insonni eng yuksak va oliyjanob tuyg'ular sari chorlaydi. Buyuk shoirning asaridan bir misrasini ham olib tashlab bo'lmaydi. Unday qilinsa, jahon ko'p narsani yo'qotgan bo'lur edi.

– Mana bu yerda o‘qiganlarim, – taraddudlanib gapira boshladi yigit, – judayam yaxshi she‘rga o‘xshadi... Mening xayolimgayam kelgani yo‘q edi uning bunaqa... bunaqa betayinligi. Ehtimol, uning boshqa kitoblari shunaqadir.

– Siz o‘qigan shu kitobda ham chiqarib tashlansa hech ziyon yetmaydigan misralar ko‘p, – dedi qiz hech e‘tirozga yo‘l qo‘ymaydigan qat‘iy ohangda.

– Aftidan, men u misralarni uchratmagan bo‘lsam kerak, – dedi Martin. – Men o‘qigan she‘rlar juda yaxshi yozilgan. Xuddi quyosh yoki projektordek dilingni yoritadi. Menga shunday tuyuldi, miss, balki men she‘rda hech vaqoga tushunmasman-a.

U o‘zining poyma-poy gapirayotganini noiloj e‘tirof etarkan, birdan sukutga toldi. U hozir o‘qigan she‘rlarida hayot kuchini va uning iliq nafasini his etgan edi, biroq buni tan olish uchun unda zabon yo‘q edi. U o‘zini yot bir kemaga tushib qolgan va qorong‘i tunda notanish uskuna-anjomlarga qoqilib-suqilib yurgan matrosga o‘xshatardi. Yaxshi, deb jazm qildi u, demak, qanday qilib bo‘lmasin, bu begona muhitga ko‘nikishim kerak. Hali hech qachon u o‘z istagiga erishmay qolgan vaqt bo‘lmagan, hozir esa u o‘z tuyg‘u va fikrlarini Ruf tushunadigan qilib ifoda etishni astoydil xohlardi. Qiz uning ko‘z oldidagi ufqni to‘sib qo‘ygan edi.

– Mana, masalan, Longfelloni olaylik... – deb gap boshladi qiz.

– Ha, ha. Uni o‘qiganman, – deb Martin sharta qizning so‘zini bo‘ldi, o‘zining adabiyot sohasidagi oz bo‘lsa-da butun bilganlarini tezroq izhor etish niyatida. Qiz ham Martinning unchalik omi

emasligini bilib qo'ysin. – Men uning «Hayot suralari»ni, «Eks syelsior»ini... o'qiganman, vassalom.

Qiz kulimsirab bosh irg'adi, yigit uning tabasumidan uni ayab muruvvat qilayotganini payqadi. Martin o'zini bilag'on ko'rsatishga urinib tentaklik qilib qo'ydi. Axir bu Longfello son-sanoqsiz asarlar yozgan bo'lsa kerak.

– Siz bilan suhbat qurishga jur'at etganim uchun meni kechiring, miss, – dedi yigit. – Ochig'ini aytsam, bunday narsalarga kam tushunaman. Bularga mening aqlim yetmaydi... Lekin ularga aqlim yetadigan bo'lguncha qo'ymayman...

Uning oxirgi so'zlari xuddi tahdid singari yangradi. Ovozi jaranglar, ko'zlari chaqnar, lablari chekkasidagi ajinlar ko'zga yaqqol tashlanardi. Qizning nazarida hatto quyi jag'i ham oldinga turtib chiqqandek, shu sababdan butun yuzi allaqanday yoqimsiz, hayosiz qiyofa kasb etgandek bo'ldi. Ayni vaqtda, yigit qalbida mavj urayotgan jasorat to'lqinlari qizga kelib urilgandek bo'ldi.

– Men ishonamanki... aminmanki, siz ularga aqlingiz yetadigan bo'lguncha qo'ymaysiz, – deb ta'kidladi qiz kula-kula. – Siz juda kuchlisiz!

Uning ko'zi bir lahzaga yigitning quyoshda qorayib bronza tusiga kirgan, kuch-quvvat yog'ilib turgan, buqaniki singari yo'g'on va muskuldor bo'yniga tushdi. U qizning qarshisida xijolat chekib, tortinchoqlik bilan o'tirgan bo'lsa ham, Rufni yana o'ziga jalb etdi. Birdan qizning xayoliga telba bir fikr kelib qoldi. Qizning tasavvurida, agar hozir yigitning bo'ynidan quchoqlasa, uning butun kuch va qudrati o'ziga o'tadigandek edi. Qiz bu fikridan uyali ketdi. Go'yo uning tabia-

tidagi yashirin illat birdan oshkor bo'lib qolgan-dek edi. Bundan tashqari, jismoniy kuch unga ba'zi jihatdan doimo tubanlik va beso'naqaylikni eslatardi. Erkak kishining husni uning kelishgan qomatida deb hisoblardi Ruf shu paytgacha. Biroq antiqa bir fikr hech xayolidan ketmasdi. Unda qanday qilib bu oftobda qoraygan bo'yinni quchoqlash orzusi tug'ilganiga hech tushunolmasdi. Holbuki, buning javobi oppa-oson edi. Qiz tabiatan juda nozik edi, shu sababli ham o'z jismida yetishmayotgan kuch-quvvat sari butun vujudi va qalbi bilan talpinishi tabiiy edi. Lekin qiz buni tan olmasdi, u faqat hech bir erkak uning qalbiga mana shu noto'g'ri talaffuzi quloqqa dag'al botuvchi yigitchalik kuchli ta'sir etganini bilardi, xolos.

– Ha, umuman, men otdek sog'man, – dedi Martin. – Lozim bo'lsa, zanglagan temirniyam hazm qilib yuboraman. Lekin mana hozir go'yo hech nimani hazm qilolmayotganga o'xshayman. Siz aytayotgan gaplarning ko'pini hazm qilishga qurbim yetmaydi. Bilasizmi, hech qachon meni bunday narsalarga o'rgatishmagan. Men kitoblarni, she'rlarni yaxshi ko'raman, vaqt topilgan paytlarda o'qib turaman. Lekin u kitoblar haqida men hech qachon sizdek mulohaza yuritmayman. Shuning uchun ham ular haqida gapirishga qiynalaman. Men misoli notanish dengizda xaritasiz, kompassiz suzib ketayotgan dengizchiga o'xshayman. Holbuki, men bu masalalarning ma'nosiga tushunishni istardim. Balki siz menga yordamlasharsiz? O'zingiz qayoqdan bilasiz shuncha ko'p narsani?

– Men maktabda o‘qiganman, – deb javob qildi qiz.

– Bolaligimda men ham maktabga borganman, – deb e‘tiroz bildirdi yigit.

– To‘g‘ri, lekin men o‘rta maktabni bitirganman, keyin universitetga qatnaganman, leksi-yalar eshitganman.

– Siz universitetda o‘qiganmisiz? – deb Martin oshkora taajjub bilan takror so‘radi. Shu zahotiy-oq ular bir-biridan million mil masofaga uzoq-lashib ketdi.

– Men hozir ham o‘sha yerda o‘qiyman. Men ingliz filologiyasidan maxsus kurs tinglayman.

Martin «filologiya» nimaligini bilmasdi, shunga ko‘ra o‘z nodonligini tan olib so‘radi:

– Universitetga kirish uchun qancha vaqt o‘qisam bo‘ladi?

Qiz uning ilmga intilishini ma‘qullab, dalda bermoqchi bo‘ldi.

– Bu sizning ilgari qancha o‘qiganingizga bog‘liq. Siz o‘rta maktabda hech o‘qimaganmisiz? Ha, albatta o‘qimaganisiz... Lekin boshlang‘ich maktabni bitirgandirsiz?

– Bitirishimga atigi ikki yil qolganda tashlab ketganman... – dedi Martin. – Lekin hamisha mukofot olib o‘qirdim.


U maqtanchoqlik qilgani uchun shu zahotiy-oq o‘zini koyib, kresloning bandlarini shunday mahkam siqdiki, barmoqlari uvushib qoldi. Ayni vaqtda, u xonaga bir xonimning kirib kelganini ko‘rdi. Qiz dik etib o‘rnidan turib, o‘sha ayol-ga peshvoz yurdi. Ular o‘pishib ko‘rishdilar va bir-birlarini quchoqlaganicha Martin tomon kela

boshladilar. Onasi bo'lsa kerak, deb o'yladi yigit. Bu baland bo'lyli, malla rang sochli, sarvqomat, ulug'vor va go'zal ayol shu badavlat xonadonning bekasiga munosib libos kiygan edi. Xonimning egnidagi ko'ylakning nafis bichimi kishini rom qilardi. Xonimning butun siymosi Martin Idenga u sahnada ko'rgan ayollarni eslatardi. Keyin u xuddi shunday basavlat va bashang xonimlarni London teatrlarining vestibyullarida ko'rganini esladi; unday chog'larda, Martin to polismen ko'chaga, yomg'irga quvib chiqarmaguncha, ulardan ko'zlarini uzmay tomosha qilib turardi. Shundan keyin Yokogamaning Grand Oteli xayolida jonlandi; u yerda ham Martin bu singari xonimlarni uzoqdan tomosha qilar edi. Shu zahotiyoq Yokogama shahrining va limanning yuzlab manzaralari Martinning ko'z oldidan lip-lip o'ta boshladi. Lekin u xotira kaleydoskopini yopishga va hozirgi muhitga e'tibor berishga urindi.

U xonimga o'zini tanitish maqsadida o'rnidan turishi kerakligini payqadi va shimining tizzalari beso'naqay pufak bo'lib turganini his qilib, zo'r-bazo'r o'rnidan turdi. Qo'llari beixtiyor shalvirab yoniga tushdi, hozir sinovdan o'tajagini eslashi bilan chehrasi tumtayib ketdi.

IKKINCHI BOB

Yemakxonaga o'tish Martin uchun o'limdan qattiq bo'ldi. U har daqiqa turtinib ketishi mumkin bo'lgan bu uy anjomlari orasidan o'tib borarkan, qadamini sekinlashtirar, qoqilar, to'xtar va ba'zan o'zini hech ham manzilga yeta olmay-



digandek his qilardi. Shunga qaramay, Martin bu tahlikali yo'lni axiyri bosib o'tdi; endi u qizning yonida o'tirarkan, pichoq-sanchqilarning ko'pligidan vahimaga tushdi. Bu buyumlar unga qandaydir xatardek tuyuldi; Martin yaraqlab yotgan pichoq-sanchqilarga ko'zlari qamashib ketguncha mahliyo bo'lib tikilib qoldi; ana shu yaraqlagan lavha fonida matros kubrigidagi tanish manzara namoyon bo'ldi; o'zi ham, o'rtoqlari ham kubrikda buklama pichoq bilan, ba'zida to'g'ri qo'l bilan tuzlangan go'sht yer yoki hammalari qing'ir-qiyshiq temir qoshiq bilan bir tovoqdan bo'tqa bo'lib qolgan no'xat sho'rva ichar edilar. Uning dimog'iga sasigan go'sht hidi, qulog'iga esa matroslarning chapillatib ovqat yeyishi va bunga jo'r bo'layotgan kema anjomlarining g'ijir-g'ijiri eshitilayotganga o'xshadi. Matroslar xuddi to'ng'izga o'xshab shapillatib ovqat yerkan, degan fikrga keldi Martin; mayli, bu yerda u o'ziga ehtiyot bo'ladi. Ovqatni chapillatmasdan chaynashga urinadi, buni doim eslab turadi.

U stol atrofida o'tirganlarga bir-bir nazar tashlab chiqdi. Qarshisida Artur bilan akasi Norman o'tirardi. Rufning akalari, deb o'yladi ichida va ularga nisbatan qalbida samimiy husni tavajjuh hissi uyg'ondi. Bu oila a'zolari bir-birlariga naqadar mehribon-a! U Rufning o'z onasini qarshi olganini, qanday samimiy o'pishganini, bir-birlarini quchoqlaganicha uning oldiga qanday yurib kelishganini xotirlay boshladi. Martin tug'ilib o'sgan muhitda ona bilan bola o'rtasidagi bu singari mehribonlik odat tusiga kirmagan edi. Uning uchun bu ma'lum darajada yangi bir

kashfiyot edi, bu – zodagonlar sinfigina nazokat hissiga musharraf bo'lishini isbotlar edi. Bu yangi muhitda u ko'rishga muyassar bo'lgan barcha narsalar ichida eng go'zali shu edi. U behad ta'sirlanib ketdi va qalbi mehribonlik tuyg'usi bilan to'ldi. Martin butun umr muhabbatga mushtiq edi. Uning tabiati ishq-muhabbatga o'ch. Butun vujudi shuni talab etar edi. Lekin u ishq-muhabbatsiz yashab kelar va oqibatda yolg'izlikda yuragi toshga aylanib borardi. Holbuki, u hech qachon muhabbatga ehtiyoji borligini fahmlamas edi. Buni hozir ham payqamasdi. U ko'z o'ngida faqat muhabbatning sharpasinigina ko'rди, hozir ana shu oliyjanob, sernash'a va nafis tuyulgan sharpa uning qalbini hayajonga solgan edi.

Martin dasturxon tepasida mister Morzning yo'qligidan xursand edi. Ruf bilan, uning onasi va akasi Norman bilan tanishganining o'zi unga kifoya edi, Artur bilan esa bir oz tanish. Buning ustiga yana otasi bilan tanishish juda ortiqcha bo'lardi. Nazarida, u hech qachon mehnat qilib bunchalik ko'p charchamagandek edi. Eng og'ir mehnat ham bugun bu yerda qilayotgan harakatlari oldida bolalar o'yinidek oson tuyulardi. Yigitning peshanasini mayda ter tomchilari qopladi, ko'ylagi esa odatlanilmagan juda ko'p masalalarni echishga urinish natijasida jiqqa ho'l bo'lgan edi. U ilgari ovqatlanishiga mutlaqo o'xshamagan yangicha tarzda ovqatlanishi, qaysi birining nimaga ishlatilishini ilgari bilmagan pichoq-sanchqilardan to'g'ri foydalanish uchun yashirincha boshqalarga qarashi va ayni vaqtda seldek tinmay oqib kelayotgan taassurotlarini mi-

yasiga singdirib olishi lozim edi (xayolida bu taassurotlarni tasnif qilishga zo'rg'a ulgurayotgandi); shu bilan birga u yana Rufga nisbatan kuchli mayli borligini his qilardiki, bu mayl uning qalbini noaniq va iztirobli hayajon bilan to'ldirgan edi; yana u Ruf yashab turgan hayot pog'onasiga ko'tarilishni zo'r ehtiros bilan orzu qilardiki va bu maqsadga qanday qilib muyassar bo'lish haqida zo'r berib, to'xtovsiz o'ylardi. U qaysi vaqtda qaysi pichoq yo sanchqini ishlatish kerakligini bilish uchun ro'parasida o'tirgan Normanga yoki ovqatlanayotgan boshqa biron odamga ko'z qirini tashlarkan, ayni zamonda davrada o'tirgan har bir kishining xususiyatini xotirasida aniq saqlab qolishga va uning Rufga nisbatan munosabatini aniqlashga urinardi. Bundan tashqari, u gapirishi, o'ziga qarata aytilgan gaplarga yoki davrada o'tirganlarning suhbatiga quloq solishi, zarur bo'lgan chog'da javob berishi va javob qilayotgan paytda adabsiz gaplarga odatlangan tilini biron-ta noma'qul gap aytib yuborishdan tiyishi lozim edi. Bu ham yetmaganday, yana kursi ortiga sezdirmay kelib, misoli bir tasqaraday serrayib turuvchi va jumboq aytib, darhol javob talab qiluvchi malay Martinni doim tahlikaga solib turardi. Martinni yana barmoqlarni chayish uchun qo'yilgan idish haqidagi fikr muttasil bezovta qilardi. O'sha idishlar hadeganda g'ayriixtiyoriy ravishda esiga tushar, ular qanday idish ekan, qachon stolga qo'yisharkin, deb o'ylardi. Shu paytgacha u shunday idishlar mavjudligini faqat eshitgan edi, endi bo'lsa mana, bir-ikki daqiqadan so'ng ularni o'z ko'zi bilan ko'radi, axir u asilzoda

kishilar bilan o'tiribdi-ku, axir ular ovqatdan keyin barmoqlarini chayishga odatlangan-ku, endi Martin ham – ha, uning o'zi ham shunday qilishi lozim. Lekin hammadan ko'ra, bu odamlar bilan qanday muomalada bo'lishim kerak, degan sarkash bir fikr hech xayolidan ketmasdi. Qanday munosabatda bo'lish kerak? Bu masalani hal qilishga zo'r berib, astoydil harakat qilardi. Ba'zan o'zini boshqacha odam qilib ko'rsatish istagi uni vasvasaga solardi, lekin shu zahotiyoyq qo'lidan hech ish kelmasligi, mug'ombirlikni eplay olmasligi va bir zumda sharmanda bo'lishi mumkinligini eslab, fikridan qaytardi.

Xayoli shu fikrlar bilan band bo'lgan Martin ovqatning birinchi yarmini sukutda o'tkazdi. Shu xatti-harakati bilan u Arturning aytganlarini inkor etgan edi, chunki u, ovqatga bir yovvoyi odamni boshlab kelaman, lekin qo'rqmanglar, o'sha yovvoyi juda antiqa odam, deb uyidagilarini ogohlantirib qo'yg'an edi. Kelib-kelib Rufday qizning akasi Martinga shunday xiyonat qila olishi, xususan, Martin uni falokatdan qutqarib qolgandan keyin shunday xiyonat qilishi ikki dunyoda ham bu sodda yigitning xayoliga kelmasdi. Shunga ko'ra, Martin o'zining nochorligidan ezilar va atrofida yuz berayotgan hodisalarga mahliyo bo'lib o'tirardi.

U umrida birinchi daf'a taomning faqat jismoniy ehtiyojni qondiruvchi narsa emasligini tushundi. Avvallari nima yeyayotganiga hech qachon e'tibor bermasdi. U narsalar taom edi, vassalom. Bu yerda, bu stol davrasida esa, u go'zallikni his etuvchi tuyg'usini qondirar, chunki bu yerda taom

nafosat talablariga javob berardi. Nainki nafosat, balki aqliy ehtiyoj talablarini qanoatlantirardi. Martinning miyasi zo'r berib ishlardi. Atrofida o'tirganlar u tushunmaydigan so'zlar bilan yoki u faqat kitoblardagina uchratgan va Martinga mansub bo'lgan muhit kishilarining hatto gapirishga ham tili kelishmaydigan so'zlarni ishlatishardi. U bu ajoyib oila, ya'ni, qiz oilasi a'zolarining bunday so'zlarni erkin talaffuz etishlariga quloq solib o'tirarkan, hayajonlanganidan titrardi. Martin kitoblarda o'qigan jamiki jozibali, yuksak va latif narsalar haqiqat bo'lib chiqdi. U shirin xayollari birdaniga xayol olamidan chiqib, haqiqatga aylangan va shuning uchun xursand bo'lgan kishi vaziyatiga tushib qolgan edi.

U hali hech qachon hayotning bu qadar yuksak pog'onasiga chiqmagan, shu sababli atrof-dagilarning e'tiborini mumkin qadar o'ziga kamroq jalb etishga urinar va stol davrasida o'tirganlarni kuzatib, gaplariga quloq solarkan, agar qiz unga murojaat etsa, «ha, miss» va «yo'q, miss» deb, agar uning onasi murojaat qilib qolsa, «ha, mem», «yo'q, mem» deb qisqa-qisqa javob berardi. Agar unga qizning akalari murojaat qilguday bo'lsa, dengizchilar intizomi qoidasiga binoan «eshitaman, ser» deb yuborishdan o'zini zo'rg'a tutib qolardi. Shu xatti-harakati bilan u o'zini yerga urishini his qilar, agar u qizga yoqmoqchi bo'lsa, bunday qilmasligi kerak edi. Bundan tashqari, Martindagi viqor ham bunga yo'l bermas edi. Xudo haqqi, men ulardan kam emasman, deb o'ylardi u; agar ular men bilmagan ko'p narsalarni bilishsa, men ham ularni ba'zi

bir narsalarga o'rgatishim mumkin. Lekin shu payt qiz yoki uning onasi «mister Iden» deb unga yuzlansa, mag'rurligini unutib, terisiga sig'may jilmayardi. Hozir u madaniy odam edi va ilgari-lari faqat kitoblardagina o'qigan kishilar davrasi-da ovqatlanardi. Go'yo u o'zi kitobga tushgan-u, endi qalin kitob sahifalari bo'ylab sayr qilib yur-gandek edi.

Lekin Martin ayni damda Artur tasvirla-gan yovvoyi odamga qaraganda ko'proq yuvosh qo'zichoqni eslatib o'tirarkan, o'zimni qanday tutishim kerak, degan savol ustida hamon bosh qotirardi. U aslo yuvosh qo'zichoqqa o'xshamas, uning mustahkam irodasi ikkinchi daraja-li rol o'ynashga rozi emas edi. U faqat zarurat tug'ilgandagina gapirar va uning nutqi meh-monxonadan yemakxonaga o'tish paytidagi ho-latni esga tushirardi – u gapda ham boya yur-gandagidek qoqilar, o'zining ko'p tillar qorishma-sidan tashkil topgan so'z boyligini titkilab, zarur so'zlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslikdan qo'rqar, o'ziga tanish so'zlar esa bu asilzodalarga qo'pol tuyulishi yoki ular tushunmay qolishidan qo'rqib, to'xtab qolardi. So'z topolmagani o'ziga ziyon yet-kazayotgani, aslida his qilayotgan va o'ylayotgan fikrlarini bayon etishga xalal berayotgani uni muttasil azoblardi. Buning ustiga, qotirma yoqa bo'ynini bo'g'ayotgani kabi bu so'zlar ham uning erksevar ruhini jilovlab qo'ygan edi. U uzoq chi-day olmasligini bilardi. Uni chulg'ab olgan his va tushunchalar zo'r berib sirtga chiqib, muayyan bir shakl kasb etishga intilardi; nihoyat, Martin o'zining qayerda o'tirganini unutib qo'ydi va o'zi

ko'p takrorlashga odatlanib qolgan eski tanish so'z og'zidan chiqib ketdi.

Martin orqasida qaqqayib turib, xiralik bilan ovqat taklif etayotgan lakeyning qo'lidagi idishni rad etdi va qisqa hamda aniq qilib:

– Pau, – dedi.

Stol atrofida o'tirganlarning hammasi, bir narsani kutgandek, bir zum qotib qolishdi, xizmatkor zaharxanda qilishdan o'zini zo'rg'a tutib turardi, Martinning o'zi esa, dahshatga kelib, hang-mang bo'ldi. Lekin zudlik bilan o'zini qo'lga oldi.

– Bu kanakcha so'z, – dedi u, – «yetar», «bas» degan ma'noda. Bexos og'zimdanda chiqib ketdi.

Ruf Martinning qo'llariga qiziqsinib tikilib o'tirardi, buni sezgan yigit suhbatga berilib ketib, gapida davom etdi:

– Men yaqinda Tinch okeanida yuruvchi pochta paroxodlaridan birida keldim. U manzilga kechikayotgan edi, biz Pyudjet ko'rfazining portlarida rosa terlab-pishib yuk ortdik. O'shanda qo'limning terisi shilinib ketgandi.

– Men aslo bunga qarayotganim yo'q edi, – dedi qiz shosha-pisha. – Shunday basavlat yigit bo'la turib, qo'llaringiz juda kichkina ekan.

Martin, go'yo yana bir nuqsonini yuziga solishgandek, qizarib ketdi.

– Ha, – dedi u ma'yus ohangda, – to'g'ri, mush-tumlarim kichkina. Lekin mushaklarim zo'r, urgan odamimni omon qo'ymayman. Agar birontasining tumshug'iga o'xshatib tushirsam bormi, qo'lim qonga bo'yalmay qolmaydi.

Shu gap og'zidan chiqdi-yu, Martin pushaymon bo'ldi. U o'zidan o'zi nafratlana boshlagani-

ni sezdi, chunki tilini tiya olmay, xiyla yoqimsiz narsalar to'g'risida gapirib yuborgan edi.

– Siz Arturga, sizga mutlaqo begona bo'lgan odamga yordamga otilib, g'oyat mardlik ko'rsatgansiz, – dedi Ruf nazokat bilan, uning xijolat bo'lganini payqasa ham, sababiga tushunolmay.

Martin esa bu gaplar odob yuzasidan aytilganiga tamomila tushunib xursand bo'ldi hamda minnatdorlik hissiga berilib, yana tiliga erk berdi.

– Bo'lmagan gapni qo'ying, – dedi u, – har kim ham mening o'rnimda bo'lsa, shunday qilardi. O'sha ablahlar janjalni uch pulga sotvolisharkan. Artur ularga tekkani ham yo'q. Arturga tashlanishgan edi, men ular ustiga otildim, rosa po'staklarini qoqdim o'zimam. Rost, qo'llarim xiyla jarohatlandi-yu, ammo ba'zilarining tishini qoqib qo'liga berdim. Shunday bo'lganiga juda xursandman. Agar men...

U birdan o'zining naqadar tuban odam ekanligidan hayratga kelib, bu qiz bilan hatto bir havodan nafas olishga ham loyiq emasligini sezgan holda, og'zini lang ochganicha jim bo'lib qoldi. Artur gapni ilib ketib, paromda yuz bergan voqeani – allaqanday mast bezorilar unga yopishganini, Martin Iden ularga tashlanib, uni qutqarganini – endi yigirmanchi marta hikoya qilarkan, bu mojaro qahramoni xo'mrayib, o'zining kallavaramligini namoyish qilgani haqida churq etmay o'ylab o'tirar va bunday kishilar davrasida o'zimni qanday tutishim kerak axir, degan savol ustida yana ham ko'proq bosh qotirib qiynalardi. U yakkash qilish kerak bo'lmagan ishni qilardi.

U bu odamlar toifasidan emasdi va ularning tilida gaplashishni bilmasdi. Bunga shak-shubha yo'q edi. Nima, ularga taqlid qilsinmi? Lekin bundan naf yo'q, mug'ombirlik uning tabiatiga to'g'ri kelmaydi. Uning qalbida aldamchilik va soxtalikka o'rin yo'q. Bo'lganicha bo'lar, u o'z qi-yofasida qolishi kerak. Hozir Martin ular singari gapira olmaydi, lekin vaqti kelganda bu narsa qo'ldan keladi; bu uning qat'iy qarori. Hozir-chi, gung bo'lib o'tira olmaydi-ku axir! Hozir o'z tilida, albatta, nutqini atrofida qilarni xijolat qilmaydigan va ularga tushunarli holda yumshatib gapiraveradi. Buning ustiga, u sukut saqlash bilan o'zi aslida tushunmagan narsalarni tushunganday qilib ko'rsatmoqchi emas. Shunga ko'ra, aka-ukalar universitet haqida gapirib o'tirib, bir necha bor «trig» so'zini ishlatishgan edi, Martin Iden o'z ahdiga amal qilib ulardan so'radi:

– «Trig» nima degani?

– Trigonometriya, – deb javob qildi Norman. – Oliy «matika»ning bir qismi.


– Xo'sh, «matika» nima? – deb Martin navbatdagi savolni bergan edi, bu safar negadir hamma Nopmanga qarab kulib yubordi.

– Matematika, ya'ni, arifmetika, – deb javob berdi u.

Martin Iden bosh irg'atdi. U birinchi qaraganda nihoyatda poyonsiz tuyulgan hikmat ufqiga nazar tashlagan edi. Lekin u ko'rgan narsalar aniq bir shaklga kirdi. Martinning g'ayrioddiy tasavvur kuchi mujarrad tushunchalarni muayyan tushunchalar shaklida gavdalantirardi. Uning miyasida trigonometriya bilan matematika va shu

soʻzlar bilan ifodalangan bilimning barcha sohalari yorqin manzara kasb etdi. Goh quyoshning zarrin nurlariga choʻmgan, goh u shuʼlalnarni oʻziga singdirib yuborgan yashil yaproqlarni, oʻrmon orasidagi yalangliklarni Martin xuddi koʻz oldida rasm koʻrayotgandek tasavvur qilardi. Uzoqdan hamma narsa harir qirmizi parda bilan oʻralgandek tuyulardi, lekin bu parda ortida nomaʼlum oʻlka, xayoliy moʻjiza oʻlkasi mavjud ekanligini u qatʼiy bilardi. Bularning hammasi bamisoli shahardek kayf bagʻishlardi kishiga. Bu yerda jaso-rat koʻrsatish uchun zamin, tafakkur va mehnat uchun keng maydon, zabt etish uchun olam bor edi – oqibat, shu onning oʻzida yigit tafakkurining eng teran yeridan: shu qiz uchun, shu yonida oʻtirgan nilufar singari soʻlgʻin qiz uchun bu olamni zabt etish kerak degan fikr qalqib chiqdi.

Charaqlab turgan bu manzarani Artur barbod qildi, chunki u Martin Iden nihoyat yovvoyiligini bir koʻrsatsa edi deb astoydil urinardi. Martin oʻz ahdini unutmagan yoʻq edi. U shu oqshom birinchi marta shinavandalik bilan ish koʻrdi va ijod zavqiga berilib ketib, avvaliga zoʻr-bazoʻr, keyin bemalol, hayotni oʻzi bilgan tarzda tasvirlashga urinib, hikoya qila boshladi. Bojxona kateri «Alkion» degan kontrabanda shxunasini tutganda, Martin oʻsha shxunada matros boʻlib ishlardi. Martinda koʻrish qobiliyati va buning ustiga koʻrganlarini hikoya qilib berish qobiliyati zoʻr edi. U dengiz poʻrtanasini, kemalarni, komanda aʼzolarini tasvirlarkan, oʻz tasavvuri kuchi bilan tinglovchilarni uning koʻzi bilan koʻrishga majbur etardi. U xuddi hassos sanʼatkordek, son-sanoq-



siz tafsilotlar ichidan eng yorqin, eng g'aroyiblarini tanlar, o'ziga xos so'zamolligi, ilhomi va qudrati bilan tinglovchilarni rom qilib, nur, rang va harakatga boy manzaralarni ularning ko'z oldida namoyon qilardi. Ba'zan hikoyaning hayotiyligi yoki ayrim jumla tuzilishlari tinglovchilarni xijolatga solib qo'yardi, lekin uning hikoyasidagi qo'pollik albatta go'zallik bilan, fojia esa hajviya bilan, dengizchilarga xos hozirjavoblikning ajoyib va sho'x namunalari bilan almashinib turardi.

Martin Idenning hikoyasi davomida Ruf unga zavq bilan tikilib o'tirdi. Qiz uning taftida isinardi. Ruf umrida ilk daf'a, shuncha yildan beri qalb otashi nimaligini bilmay yashaganini payqadi. U kuch va sihat bamisoli lavadek qaynab toshayotgan bu yuragida o'ti bor, baquvvat yigitning bag'riga o'zini otgisi kelardi. Bu istak shu qadar kuchli ediki, qiz o'zini zo'rg'a bosib turardi. Lekin ayni vaqtda, allaqanday his uni Martindan chetlatardi. Qizni hamma yog'i yara-chaqa bo'lib, terisiga hayot kiri singib ketgandek tuyulgan qadoq qo'llar, bo'rtib turgan mushaklar, yoqasi qizartirib yuborgan bo'yin o'zidan chetlatardi. Yigitning dag'alligi qizni cho'chitardi. Har bir qo'pol so'z qizning qulog'iga haqoratdek eshitilar, uning hayotining har bir qo'pol tafsiloti qizning hissiyotini tahqirlar edi. Lekin shunday bo'lsa ham qandaydir, nihoyatda dahshatli bir kuch qizni unga jazb etardi. Qizning ongiga mustahkam o'rnashib olgan narsalar, birdaniga tebrana boshladi. Yigitning romantika va sarguzashtlarga boy hayoti uning uchun odat tusini olgan barcha shartli tasavvurlarni ostin-ustun qilib yubordi.

Qiz uning kulgisini, xatarli hodisalar haqidagi quvnoq hikoyalarini tinglarkan, hayot endi unga aslo jiddiy ham, mashaqqatli ham bo'lmay qoldi, bil'aks, u hayot go'yo bir o'yinchoqqa o'xshardi-ki, uni o'ynab, har tomonga aylantirib ko'rishdan lazzat olish va hech achinmasdan qurbon berish mumkin edi. «Mana, sen ham o'yna, – derdi unga doxildan chiqqan ovoz, – uning bag'riga suqil, agar istasang, bo'ynidan quchoqla». Qiz bu istaklarning nechog'lik beandishaligidan hayratga keldi, lekin u o'zini, o'z ma'sumaligi, madaniyati, xullas, o'zini yigitdan ajratib turgan barcha xususiyatlar haqida qancha o'ylamasin, bari-bir, befoyda edi. Ruf atrofida o'tirganlarga nazar tashlab, ularning ham Martinga mahliyo bo'lib quloq solayotganini ko'rди, lekin qiz onasining ko'zida ham dahshat alomatini, zavq aralash bo'lsa ham, har holda dahshat alomati borligini payqadi va bu hol qizga madad berdi. Ha, bu zulmatdan chiqqan odam – baloyi azim. Onasi ham shuni ko'rib turibdi, demak, shu to'g'ri. Ruf doimiy odati bo'yicha hozir ham onasining so'ziga quloq solishga tayyor edi. Martinning o'tli harorati qizni isitmay qo'ydi, uning ta'sirida tug'ilgan dahshat ham kuchini yo'qotdi.

Ovqatdan so'ng qiz pinhona e'tiroz bildirish va ikkovlarini ajratib turgan jarlikni ongsiz ravishda yana ham kengaytirish istagida unga royal chalib berdi. Qiz chalgan musiqa Martinni esankiratib qo'ydi, boshiga tushgan kuchli bir zarbadek ta'sir etdi, lekin esankiratib zarba berish bilan birga qalbini ham uyg'otdi. U Rufga ehtirom bilan boqardi. Martin ham Rufga o'xshab, oralaridagi jar-

lik yanada kengayganini his qildi, ammo shunga qaramay, Martinda bu jordan hatlab o'tish istagi ham tobora ortib borardi. U shu qadar serzavq va serg'ayrat yigit ediki, oralarida paydo bo'lgan bu jarlikka, yana boz ustiga, musiqa sadosi yangrab turgan paytda mute odamlarday jimgina mo'ltirab o'tira olmasdi. Musiqa unga doim juda kuchli ta'sir qilardi. U xuddi o'tkir sharob singari qonini qizdirar, kayfini oshirar va osmoni falakka uchirib olib ketardi. Uning yelkasida go'yo qanot o'sib chiqqanday bo'lardi. Manfur voqelik o'rnini nafosat va g'ayritabiiy narsalarga bo'shatib berib, o'zi g'oyib bo'lardi. Martin Rufning nima chalayotganini tushunmasdi, albatta. Bu musiqa sadosi Martin matroslar bazmida eshitgan buzuq pianinoning ovozigga yoki orkestrning quloqni kar qiluvchi zil ovozigga aslo o'xshamasdi. Lekin u ba'zi-ba'zida kitoblarda shunday musiqa borligi haqida o'qirdi, shuning uchun Ruf chalayotgan musiqada o'zi eshitib odatlangan oddiy va aniq bir ohangni ilg'ab ololmay, uni shu holicha inobatga olaverdi. Onda-sonda u ohangdor kuy eshitib qolganday bo'lar va ko'z oldida jonlangan qator obrazlarni shu ohangga moslashtirishga shaylanardi, lekin shu onning o'zida aralash-quralash tovushlar olamiga tushib garang bo'lar va uning tasavvuridagi o'ylar, tayanchini yo'qotgan og'ir buyumdek nochor yerga gursillab tushardi.

Hatto bir marta Martinning xayoliga, bu qiz meni mazax qilmayaptimikin tag'in, degan fikr ham keldi. Qizning chalishida adovat borga o'xshab tuyulardi, shu sababli u qizning pianino

klavishlariga urilayotgan qoʻllari nima demoqchi boʻlayotganini anglashga harakat qilardi. Lekin bu nomaqbul mulohazani shosha-pisha miyasidan haydadi va erkinlik bilan oʻzini musiqa ixtiyoriga topshirishga urindi. Boyagi shavq-zavq uni yana sekin-asta qamrab oldi. Uning oyoqlari goʻyo yerdan uzilgandek, jismi ruhga aylangandek, koʻz oldida nurga gʻarq boʻlgan ajib bir manzara namoyon boʻlgandek tuyuldi. Atrofida gi butun borliq koʻzdan gʻoyib boʻldi, u endi koʻp zamonlardan beri oʻzi orzu qilib yurgan nomaʼlum bir olam uzra parvoz qilib yurardi. Koʻzdan nari ketmaydigan bu manzarada barcha tanish va tanish boʻlmagan narsalar ayqash-uyqash boʻlib ketdi. U nomaʼlum jazirama mamlakatlarning gavanlariga tushar, hech kimga maʼlum boʻlmagan yovvoyi qabilalarda yashovchi qishloqlarning gavjum maydonlarida tentirab yurardi. U yana jazirama kechalarda dengizda suzib yurganida odatlangan janub orollarining xushboʻy hidlarini his qila boshladi, yana uzundan-uzun tropik kunlari firuza ummon sathida goh yoʻqolib, goh yana qalqib chiquvchi xurmo daraxtlari bilan burkangan marjon qoyalar oralarida garm-sel bilan olishardi. Manzaralar goʻyo xayoldek tez paydo boʻlar va tezda koʻzdan yoʻqolardi. Goh Arizonaning quyoshda qovjiragan sahrosida ot choptirib borar, goh bir zumdan keyin choʻgʻdek qizigan havoning harir pardasi orqali Kaliforniyaning Ajal vodiysidagi oq dahmaga nazar tashlar yoki ulkan muz parchalari quyoshda yarqirab yotgan Muz okeani toʻlqinlari ustida eshkak solib borardi. Goh Marjon orolida dengiz toshqinining

bir me'yordagi shovillashiga quloq solib, kokos palmasi soyasida yotardi. Falokatga uchragan eski kemanding uskunasi ko'kimtir alanga olib yonar va shu sirli o't shu'lasida ashulachilarning serzavq xonishlari, Gavay gitarasining sadosi va tam-tamlarning do'pir-do'piri ostida raqqoslar «gulu» raqsiga o'yinga tushardi. Kishini lohas qiluvchi tun har yoqni chulg'ab olgan. Uzoqda, yulduzlar charaqlagan osmon ostida, vulqon ko'linkasi gavdalanardi. So'lg'in oy odamlar boshi uzra asta-sekin suzib borar, ufqda zamin va samo qariyb tutashgan joyda esa tarozi yulduzi charaqlardi.

Martin go'yo Eol arfasiga⁵ aylangandek bo'ldi. U o'z hayotida ko'rib, boshidan kechirgan narsalar arfaning torlari, musiqa esa – shu torlarni tebratayotgan shamol edikim, bu torlar titrarkan, xotiralarni uyg'otib, yangi orzularni tug'dirardi. U shunchaki his qilibgina qolmasdi. Uning har bir tuyg'usi muayyan bir shakl va rang kasb etar va allaqanday g'aroyib va sirli yo'l bilan obrazlarga aylanar edi. O'tmish, hozirgi zamon va kelajak bir-biriga qorishib ketar; u bepoyon, jazirama va go'zal o'lkalarga parvoz qilar, qizga muyassar bo'lish uchun buyuk qahramonliklar ko'rsatardi. Mana u orzusiga erishdi, qizga muyassar bo'ldi, uni o'z bag'riga bosib, endi xayol o'lkasi sari olib ketadi.

Ruf yelkasi osha Martinga qarab, uning yuzidan nimani his qilayotganini bilib oldi. Yigitning yuzi hozir butunlay boshqa odamning yuzi-

⁵ Eol arfasi (grek) – torlari shamol esishidan chalinuvchi afsonaviy cholg'u.

ga o'xshar, katta-katta o'tdek chaqnab turgan ko'zlari tikilib go'yo musiqa sadosi pardasini teshib o'tib, u yerdagi jo'shqin hayotni va uning bahaybat sharpalarini mushohada qilayotganday edi. Qiz hayratga keldi. Qo'pol, beso'naqay yigit g'oyib bo'lganday edi. Beo'xshov tikilgan kostyum, yara-chaqa qo'llar, oftobda qoraygan yuz hamon qizning ko'z oldida turardi-yu, lekin endi bularning hammasi unga faqat qamoqxona panjarasidek gap ediki, qiz bu panjara orqasida ojiz va lol qolgan buyuk qalbni ko'rdi; u shuning uchun lol ediki, bu qalb his etgan narsalarni ifoda etishga qodir so'z topolmas edi. Lekin bu manzaralar Rufning ko'z oldida bir zumgina namoyon bo'ldi-yu, so'ng yana beso'naqay yigit gavdalandi. Shunda qiz o'zining xom xayollaridan kulib yubordi. Biroq ana shu bir zumlik taassurot xotirada saqlanib qolgan edi, shuning uchun Martin Ruf bilan xayrlashgani uning oldiga o'ng'aysizlik bilan yaqinlashganda, u yigitga Suinbern va Brauningning kitobini berdi – u ingliz adabiyotidan hozir Brauningni o'tayotgan edi. Martin uning qarshisida turib, g'o'ldirab minnatdorlik bildirarkan, birdaniga qizning ko'ziga kichkina boladek tuyulib ketdi va qizda unga nisbatan beixtiyor onalik mehri va shafqat hissi uyg'ondi. Endi Ruf qo'pol yigitni ham, uning asir bo'lgan qalbini ham, qizni hayajonlantirib va ayni vaqtda o'z qarashi bilan sarosimaga solib, erkakchasi-ga tikilib turgan bu yigitni ham unutilib yubordi. Hozir qizning qarshisida faqat go'dak bir bola turardi, bu bola uning qo'lini metindek qattiq va dag'al qo'li bilan siqarkan, duduqlanib derdi:

– Bugun umrimda eng ajoyib kun bo‘ldi. Bilasizmi, bularning hammasiga, – u parishonlik bilan atrofga alangladi, – bunday kishilarga, bunday uylarga uncha odatlanmaganman. Bularning hammasi men uchun tamomila yangi... bular menga yoqadi.

– Umid qilamanki, biznikiga yana kelasiz, – dedi qiz, Martin uning akalari bilan xayrlashayotganda.

Martin kepkasini bostirib kiydi, ostonaga qoqilib ketib, tashqariga chiqdi.

– Xo‘sh, senga yoqdimi u? – deb so‘radi Artur.

– Juda g‘alati yigit ekan. Biz uchun u misoli shabada esib kelgandek bo‘ldi, – deb javob qildi qiz. – Yoshi nechada uning?

– Yigirmada, yaqinda yigirma birga kiradi. Bugun so‘rovdim. Bunchalik yosh deb sira o‘ylamagan edim.

«Demak, men undan rosa uch yosh katta ekanman-da», – deb o‘yladi Ruf akalarini o‘pib, ularga tinch uyqu tilar ekan.

UCHINCHI BOB

Martin Iden zinadan tushib, qo‘lini cho‘ntagiga tiqdi va sholi qipig‘idan ishlangan bir parcha sarg‘ish qog‘oz bilan bir chimdim Meksika tamakisini oldi-da, papiros o‘radi. U huzur qilib tamaki tutunini ichiga yutdi va asta-sekin og‘zidan chiqara boshladi.

– Voy, jin urgur-e! – dedi u, shu xitobning o‘zida ham ajablanish, ham zavq-shavq mavjud edi. – Voy, jin urgur! – deb takrorladi u va bir oz su-

kutdan so'ng yana g'oldiradi: – Voy, jin urgur! – keyin ko'ylak yoqasini yechib olib, cho'ntagiga tiqib qo'ydi. Sovuq yomg'ir savalab yog'ardi, lekin Martin atrofida hech nimani payqamay, bosh yalang, kamzulining oldi ochiq ketib borardi. Yomg'ir yog'ayotganini sal-pal sezardi, xolos. U o'zini yo'qotib qo'yg'an, hozirgina ko'rganlarini xayolan boshdan kechirib, o'ngida tush ko'ra boshlagan edi.

Nihoyat, u o'zi orzu qilgan ayolni uchratdi; rost, ayollar to'g'risida ko'p o'ylamas edi, chunki ayollar haqida bosh qotirish uning tabiatiga to'g'ri kelmasdi, ammo aynan shunday ayolga duch kelishni, uncha aniq bo'lmasa ham, doimo umid qilardi. Martin u bilan bir stolda yonma-yon o'tirdi, uning qo'llarini siqdi, ko'zlariga tikilarkan, go'zallikda shu ko'zlarning o'ziga teng, shu ko'zlarda aks etib turuvchi qalbining latofatini, ruhining maskani bo'lmish nafis vujudni ko'rdi. Lekin Martin qizning jismi haqida o'ylamasdi – bu uning uchun yangilik edi – chunki shu paytgacha ayollar haqida faqat shunday o'ylardi. Ammo Rufning jismi tamomila g'ayritabiiy bir jism edi; go'yo bu badan hatto oddiy jismoniy xastaliklarga muhtalo bo'lmaydigandek tuyulardi. Bu jism qiz ruhining maskanigina emas, ayni vaqtda, qiz ruhining zuhuri, ilohiy mohiyatning eng musaffo, eng latif ifodasi edi. Bu uzviy taassurot Martinni hayratga keltirdi va uning xayollarini yeldek sovurib, diqqatini bir qadar jiddiy fikrlarga jalb qildi. Shu choqqacha ilohiyot masalasiga doir na bir og'iz so'z, na biron mulohaza, na bironta ishora uning ko'ngliga ta'sir qilgan edi. Martin ilohiy

kuchga hech ishonmas edi. U hech qachon dindor boʻlgan emas va inson ruhining boqiyliqi haqida vaʼxonlik qiluvchi ruhoniylar ustidan begʻaraz kulib yurardi. «U yerda hech qanday hayot yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas, – derdi u oʻziga oʻzi, – hayot faqat bu dunyoda – u yogʻi zulmat». Lekin Martinga qizning koʻzida koʻringan narsa aynan oʻsha ruh, hech qachon oʻlmaydigan, boqiy ruh edi. Ilgari bironta erkak yo bironta ayol unga boqiy hayot haqida gapirib, soʻzini oʻtkaza olmagan edi. Lekin bu qiz shu ishni qildi! U yigitga bir nigoh tashlashning oʻzida bu fikrni soʻzsiz talqin etdi. Qizning chehrasi, uning rangpar va jiddiy, mehribon va maʼnodor, faqat farishtalargagina xos mayin va iztirobli tabassum qilib turgan va yigitning tasavvuriga ham sigʻmagan iffat nuri bilan yoritilgan chehrasi hanuzgacha uning koʻz oldida porlab turardi. Qizning musaffoligi uni hayratga keltirdi va dovdiratib qoʻydi. U yaxshilik va yovuzlik degan narsa borligini bilardi, lekin har bir tirik jonning muhim xususiyatlaridan biri hisoblangan musaffolik haqidagi fikr hech qachon xayoliga kelmagan edi. Endi boʻlsa, Martin bu qiz timsolida shu musaffolikni, eng yuksak ezgulik va iffatni koʻrdi, bu fazilatlar mujassami boqiy hayotni ifodalardi.

Shunda birdan uni ana shu boqiy hayotga vosil boʻlish havasi qamrab oldi. U Rufdek qizning qoʻliga hattoki suv quyishga ham loyiq emasligini juda yaxshi bilardi; u bilan butun kech yonma-yon oʻtirib suhbatlashganining oʻzi hech kutilmagan afsonaviy bir baxt edi, albatta. Bu baxtga muyassar boʻlmoq uchun, u hech qanday

zahmat chekkani yo'q. U bunday baxtga loyiq emas edi. Martin diniy kayfiyatga berilib ketdi. U mo'min va qobil, fidoyilikka va boshiga tuproq sochishga tayyor bo'lib qoldi. Gunohkor banda bunday vaziyatda tavba-tazarru qiladi. Uning gunohkorligi fosh bo'ldi. Lekin har qanday osiy banda qilgan gunohlari uchun tavba qilib, iztirob chekib, rohatga erishganidek, Martin ham qizga erishish uchun imkon beruvchi baxtni o'z qarshisida ko'rib turardi. Lekin erishish to'g'risidagi fikr allaqanday tuman bilan qoplangan va xayolga keladigan odatdagi fikrlarga aslo o'xshamasdi. Izzattalab orzular Martinga qanot baxsh etar, uning tasavvurida ikkovlari ruh osmonida parvoz qilib yurgandek, jamiki go'zallik va huzur-halovatdan birgalikda bahramand bo'layotgandek, qiz bilan hamdardlashayotgandek edi. Bu barcha qo'polliklardan ozod bo'lgan qandaydir ruhiy vasl edi, o'zi oxirigacha hech tushunib yeta olmagan ozod ko'ngillar hamrozligi edi. U bu haqda o'ylamasdi ham. Umuman, hech nima to'g'risida o'ylamasdi. Uning tuyg'ulari idrokidan ustun chiqayotgan edi, natijada u o'zini ilgarilari hech qachon boshdan kechirmagan tuyg'ular ixtiyoriga topshirib, oliyjanob va nafis tuyg'ular daryosida oqimga qarab suzib borar va tobora haqiqiy hayotdan uzoqlashardi. U xuddi mast kishidek gindiraklab borar va eshitilar-eshitilmas g'o'ldirardi:

– Voy, jin urgur! Voy, jin urgur!

Muyulishda turgan polismen unga shubhali nazar tashlab, oyoq olishidan matros ekanligini bildi.

– Qayerda urib olding? – deb so‘radi polismen.

Martin Iden shu zahoti samodan yerga qaytib tushgandek bo‘ldi. U tabiatan juda ziyrak va vaziyatga tez moslasha olish qobiliyatiga ega edi. Polismen chaqirishi bilan darhol o‘ziga keldi.

– Salom, – dedi kulib. – Ovoz chiqarib o‘zim bilan o‘zim gaplashayotganimni payqamabman ham.

– Yana qittay otib olsang, qo‘shiq ham ayta boshlaysan, – deb polismen uning qay holda ekanini aniqlagan bo‘ldi.

– Yanglishasiz, qo‘shiq aytmayman. Gugurtin-gizni bering, hoziroq tramvayga tushib, uyimga ketaman.

U papirosini tutatib oldi va polismenga, «tuningiz xayrli o‘tsin», deb nari ketdi.

– Buni qarang-a – deb g‘o‘ldiradi o‘ziga o‘zi, – bu ovsar meni g‘irt mast deb o‘yladi, shekilli! – u jilmayib qo‘ydi va: «Axir men chindanam mastman-da, ayol kishining jamoli meni mast qiladi deb hech o‘ylamagan edim», deb o‘yladi.

U Telegraf Avenyuda Berkliga borayotgan tramvayga sakrab chiqib oldi. Vagonda yosh-yalanglar ko‘p edi, ular talabalar ashulasini ayti-shardi. Martin ularni zavq bilan kuzata boshladi. Ular universitet talabalari edi. Bular ham Ruf qatnaydigan leksiyalarga qatnashar, Ruf bilan bir jamiyatga mansub edilar. Ruf bilan tanishishlari, agar istasalar, uni har kuni ko‘rishlari mumkin edi. Ammo ular buni istamaganligi, bu oqshomni u bilan suhbatda o‘tkazish, uning jamolini zavq va ehtirom bilan tomosha qilish o‘rniga, vaqtlarini allaqayerlarda bekorga o‘tkazganlari Mar-

tinni ajablantirdi. U ko'zlari qisiq, labi osilgan bir yigitchaga nazar tashladi. Bena'ni, axloqsiz bola bo'lsa kerak, deb o'yladi. Kemada bunaqa odam qo'rqqoq, landavur va chaqmachaqaq bo'lardi. O'zining shu boladan ming marta afzalligini o'ylab, Martin benihoya sevinib ketdi. Bu fikr uni go'yo Rufga yaqinlashtirayotgandek tuyuldi. U o'zini bu talabalar bilan taqqoslab ko'ra boshladi. Martin o'zining baquvvat, muskuldor ekanini o'ylab, jismoniy jihatdan bularning hammasi ham menga aslo teng kela olmaydi degan qarorga keldi. Lekin talabalarning miyasi ilmga to'la, shunga ko'ra, ular Ruf bilan bir tilda suhbatlasha olardilar, Martinni iztirobga solgan fikr ham aynan shu edi. Ammo mening miyam nima uchun yaratilgan, deb qizishib o'yladi Martin. Rost-da, bu talabalar erishgan ilmga nahotki u erisha olmasa? Ular hayotni kitob orqali o'rganishgan, holbuki, Martin bevosita shu hayotning ichida yashaydi. Uning boshi ham ilm bilan limmo-lim, ammo bu ilm boshqa ilm edi. Bularning qaysi biri elkan tortishni, rul boshqarishni, vaxtada turishni biladi? Hayotning xavf-xatar, mardlik, muhtojlik va mehnat bilan to'lgan sahifalari ko'z oldidan bir-bir o'ta boshladi. U hayot maktabida imtihon berayotganida, boshidan kechirgan barcha mashaqqatlarni esladi. Ha, har holda, u yutqazgani yo'q. Vaqti kelib, bu talabalar hayot bilan to'qnashib, Martinning boshidan kechirganlarini ko'rsalar, ajab emas. Juda soz. To ular Martinga allaqachon tanish bo'lgan narsalarni o'rganib olguncha, u kitob mutolaa qilib, hayotning boshqa tomonlarini o'rganib oladi.

Tramvay Oklend bilan Berkli o'rtasida tez-tez uchrab turadigan xaroba yerlar yonidan o'tib borardi. Martin Iden tramvay o'ziga yaxshi tanish bo'lgan ikki qavatli uyning ro'parasiga kelishini kutib turardi. Bu uyning oldiga «Xigginbotamning chakana savdo do'koni» deb tumtaroqli peshlavh osilgan edi. U shu uy oldida tramvaydan sakrab tushdi va bir daqiqacha peshlavhga tikilib turdi. Unga yozilgan so'zlarning tagida ko'p ma'no bor edi. Bu harflardan go'yo pastkashlik, xudbinlik va razillik hidi anqib turganga o'xshardi. Bernard Xigginbotam opasining eri, Martin uning fe'lini juda yaxshi o'rganib olgan edi. Martin o'z kaliti bilan eshikni ochdi va zindandan uyning ikkinchi qavatiga chiqdi. Pochchasi shu yerda yashardi. Do'kon pastda edi, lekin chirigan sabzavotlarning qo'lansa hidi bu yerga ham yetib kelardi. Martin zim-ziyo yo'lakdan o'tib borarkan, bir gala jiyanlaridan kimdir unutilib qoldirgan o'yinchoq aravaga qoqilib ketdi-da, eshikka o'zini qattiq urib oldi. «Xasis, – deb o'yladi u, – uydagilar peshanalarini g'urra qilmasin deb, gazga ikki sent ortiqcha to'lashga qizg'anchilik qiladi». U eshikning bandini timirskilab topib ochdi-da, yoritilgan xonaga kirdi; u yerda opasi bilan Bernard Xigginbotam o'tirardi. Opasi erining shimini yamar, er esa eskirgan latta shippak kiygan qoqsuyak oyoqlarini uzatib, ikki kursini egallab o'tirar va gazeta o'qirdi. Martin xonaga kirganda, gazeta osha pismiq bit ko'zlari bilan unga yeb qo'ygudek bo'lib tikildi. Bernardni ko'rganida har doim Martin Idenda g'ayriixtiyoriy ravishda jirkanish hissi uyg'onardi. Opasi-

ga bu odamning nimasi yoqqan ekan? Bernard Martinga allaqanday zaharli ilonni eslatardi va Martin uni poshnasi bilan ezib tashlagisi kelardi. «Bir kun emas, bir kun uni boplab tumshug'iga tushiraman-ku», deb o'ziga-o'zi tasalli berar va faqat shu fikr pochchasining huzurida chidab o'tirishga imkon berardi. Hozir uning badjahl, vahshiyona bit ko'zlari yovuzlik bilan tikilardi.

– Ha, – deb so'radi Martin, – nima bo'ldi?

– Bu eshikni bo'yashganiga hali bir haftayam bo'lgani yo'q, – dedi mister Xiggenbotam, u noliyaptimi, g'azablanyaptimi, bilib bo'lmasdi, – uyushmalarning qanaqa xizmat haqi olishini, shilishini o'zing bilasan. Sal ehtiyot bo'lib yursang ham bo'lardi!

Martin unga javob bermoqchi bo'ldi-yu, lekin bundan hech naf chiqmasligini tushunib, fikridan qaytdi. U jirkanish tuyg'usidan o'zini xalos etish niyatida devorda osilib turgan xromolitografiyaga qaradi. Qaradi-yu, taajjublandi. Bu surat hamma vaqt unga yoqardi, lekin hozir uni go'yo birinchi marta ko'rayotgandek bo'ldi. Bu kulbadagi barcha narsalar singari shu surat ham uchinchi darajali bema'ni bir matax edi. Birdan uning ko'z oldida hozirgina o'zi chiqib kelgan uy gavdalandi, shunda u avvaliga devorlardagi suratlarni, keyin esa, xayrlashuv paytida navozish tabassum bilan qo'lini siqqan qizni ko'rди. U o'zining qayerdaligini, Bernard Xigginbotamning shu yerda o'tirganini ham unutib qo'ydi, faqat nomi yuqorida zikr etilgan jentelmenning unga:

– Nima, ko'zingga arvoh ko'rindimi deyman? – deb bergan savolidan keyingina esini yig'ib oldi.

Martin o'ziga keldi va pochchasining johil, ayyor bit ko'zlariga tikilib, birdan bu ko'zlar xaridorga mol sotayotgan paytda yaltoqilik bilan, mulozamat bilan, ko'r-ko'rona xushomad bilan qarashini esladi.

– Ha, – deb javob berdi Martin, – ko'zimga arvoh ko'rindi. Xayrli tun! Xayrli tun, Gertruda!

U eshik tomon yurdi, yo'l-yo'lakay chang bosgan gilamning taxiga qoqilib, sal bo'lmasa yiqilayozdi.

– Eshikni qattiq yopma, – deb qichqirdi mister Xigginbotam ogohlantirib.

Qon Martinning miyasiga urildi, lekin o'zini tutdi va chiqa turib eshikni ohista yopdi.

Mister Xigginbotam xotiniga «gapim to'g'ri chiqdimi?» deganday qarab qo'ydi.

– Mast, – dedi u xirqiroq ovoz bilan pichirlab, – g'irt mast bo'lib keladi deb aytuvdim-a.

Xotin itoatkorona bosh irg'atdi.

– To'g'ri, ko'zlari chaqnab turibdi, – deb tan oldi u, – yoqasiyam qayoqqadir yo'l olibdi; uydan yoqa taqib chiqib ketuvdi. Lekin unchalik ko'p ichmagandir deyman.

– Oyog'ida zo'rg'a turibdi, – deb e'tiroz bildirdi er, – razm solib turuvdim. Qoqilmasdan bir qadam ham qo'ya olmadi. Yo'lakda yiqilib tushishiga sal qolganini eshitdingmi o'zing?

– Alisaning aravachasiga qoqilib ketgan bo'lsa kerak, – deb javob qildi xotini, – qorong'ida ko'rmagandir.

Mister Xigginbotam xuruj qilib kelayotgan g'azabiga erk berib, o'shqira boshladi. U kun bo'yi xaridorlar oldida kamtarlik bilan qo'l qo-

vushtirib turar va nihoyat, oilasi davrasida o'zini ko'rsatish uchun kech kirishini kutardi.

– Mehribon ukang mast deb aytyapman senga!

U har bir so'zni go'yo dastgohda muhrlayotgandek lo'nda-lo'nda qilib, yoqimsiz va qat'iy ohangda talaffuz etardi. Xotini ma'yuslanib jim qoldi. U hamisha pala-partish kiyinadigan, hamisha o'z gavdasining, ishining og'irligidan va erining badfe'lligidan tinka-madori qurigan baq-baqaloq, xomsemiz ayol edi.

– Mayxo'rlikda otasiga tortdi buning, – deb gapida davom etdi er prokurorlarga xos ohangda. – Bu ham birorta pastqam yerda ichkilikdan o'lib ketadi. Esingda bo'lsin!

Xotin yana bosh irg'atdi va chuqur xo'rsinib, yamog'ini yamashga kirishdi. Ikkovlari ham Martinni uyga mast bo'lib keldi deb o'ylashgandi. Ularning qalbi har qanday nafosatga nisbatan ham beparvo edi, aks holda, bu chaqnab turgan ko'zlar, lov-lov yonib turgan yonoqlar ilk yoshlik muhabbatining aksi ekanligini tushungan bo'lardilar.

– Bolalarga juda yaxshi o'rnak ko'rsatyaptida! – deb mister Xigginbotam birdan qichqirib yubordi, xotininining jim o'tirganidan xunob bo'lib. Ba'zan u xotininining tez-tez e'tiroz bildirib turishini istab qolardi. – Agar yana bir marta shu alfozda kelsa, uyimdan yo'qolsin. Bidingmi? Begunoh bolalar uning badmast basharasiga qarab, axloqsiz bo'lib ketishini istamayman! – Mister Xigginbotam hozirgina gazetada o'qigan so'zlarini gapda ishlatishni yaxshi ko'rardi. – Ha, axloqsiz bo'lib ketishini. Boshqacha ta'riflab bo'lmaydi buni.

Lekin xotin boyagi-boyagicha faqat xo'rsinar, bosh chayqar va yamoq yamashda davom etardi. Mister Xigginbotam yana qo'liga gazetani oldi.

– O'tgan hafta uchun haq to'laganmi o'zi? – deb so'radi birdan, gazeta osha qarab.

Xotin «ha» degandek boshini egdi.

– Uning puli bor hali.

– Qachon dengiz safariga jo'nab ketarkan?

– Hamma pulini sarflab bo'lgandan keyin ketsa kerak, – deb javob qildi xotin. – Durustroq kema yo'qmikin deb kecha San-Fransiskoga ham borib keldi. U yonida puli bor vaqtida duch kelgan kema yollanavermaydi. Mulohazali yigit.

– Obbo! Paluba shipirgisiga kekkayishni kim qo'yibdi! – Mister Xigginbotam zaharxanda qildi. Mulohazali emish! Gapini qara-ya!

– Uzoq ellarga xazina qidirgani boradigan bir shxuna bor ekan. Agar shu shxuna jo'naguncha yeb-ichib turishga puli yetsa, o'shanda ketmoqchi.

– Agar shu yerda ishga joylashishni xohlasa, o'zimga aravakash qilib olardim, – dedi er, lekin uning so'zlarida xayrixohlikdan asar ham yo'q edi. – Tom bo'shab ketdi.

Xotin yuragi taka-puka bo'lib, unga savol nazari bilan qaradi.

– Bugun hisob-kitob qildi. U Karruzerslarga ishga o'tyapti. Ular ko'proq haq to'larkan. Men uncha to'lolmayman.

– Ana, ko'rdingmi! – deb chinqirib yubordi xotin. – Aytmovdimmi senga. Ishi og'ir bo'lsa ham juda oz haq to'larding unga.

– Menga qara, kampir, – deb jerkib berdi mister Xigginbotam, – aralashma deb senga ming marta aytganman. Endi takrorlab o'tirmayman.

– Menga-ku baribir, – deb mingʻirladi xotin, – faqat Tom yaxshi bolaydi-da.

Er dargʻazab koʻzlari bilan xotiniga yalt etib qaradi. Bu – erga nisbatan hurmatsizlik edi.

– Agar ukang yalqov boʻlmaganda aravakashlikni oʻzi qilardi.

– U ovqat bilan kvartira pulini vaqtida toʻlab turibdi, – deb eʼtiroz bildirdi xotin. – U mening ukam, sendan hech qanday qarzi yoʻq, unga tirqʻilishga haqqing yoʻq. Keyin, men ham odamman, sen bilan rosa yetti yildan beri bekorga bir yostiqqa bosh qoʻyib kelayotganim yoʻq.

– Kechalari kitob oʻqiydigan boʻlsang, gaz haqini toʻlaysan deb aytdingmi unga? – deb soʻradi er.

Missis Xigginbotam hech nima demadi. Uning gʻazabi endi soʻngan, ruhi esa yana tinkasi qurigan jasadining bir burchiga kirib yashiringan edi. Er mamnun edi. U ustun chiqdi. Uning munchoqdek bit koʻzlari gʻarazli sevinchdan chaqnab ketdi. U xotinini ipakdek muloyim qilishdan behad zavqlanardi; keyin, ochigʻini aytganda, hozir bu hech qiyin emas edi, lekin turmush qurishgandan soʻng dastlabki yillar er unga osonlikcha soʻzini oʻtkaza olmasdi, chunki na har yili bola tugʻish, na erning muttasil injiqliklari hali xotinning kuchini qirqmagan edi.

– Ha, ertaga aytib qoʻy, – dedi er. – Aytganday, ertalab Martenga odam yuborish esingdan chiqmasin, bolalarga qarab turadi. Endi, Tom yoʻgʻida, mol olgani oʻzim borishimga toʻgʻri keladi, sen doʻkonda mening oʻrnimda savdo qilib turasan.

– Ertaga kir yuvishim kerak, – deb eʼtiroz bildirdi xotin qoʻrqa-pisa.

– Vaqtliroq tursang, hammasiga ulgurasan... Men soat o'nsiz ketmayman.

U jahl bilan gazeta sahifasini aylantirdi va yana o'qishga kirishdi.

TO'RTINCHI BOB

Martin Iden pochchasi bilan bo'lgan mojarodan hamon o'ziga kela olmay, qorong'i yo'lakdan paypaslab o'z xonasiga kirib bordi. Bu torgina hujrada faqat karavot, chanoq va bir kursi bor edi, xolos. Mister Xigginbotam shu qadar xasis ediki, xotining qo'lidan ish kelishini bilib, xizmatkor ayol yollashni aslo xayoliga keltirmas edi. Buning ustiga, o'sha xizmatkor turadigan xonani ham ijaraga qo'yish mumkin edi. Martin Suinbern va Brauningning kitoblarini kursiga qo'ydi, kamzulini yechib karavotga o'tirdi. Karavot prujinalari uning og'ir gavdasidan g'ijirlab ketdi, ammo Martin bunga parvo qilmadi. U botinkasini yechmoqchi bo'lib engashgan edi, birdan ko'zi ro'parasidagi devorga tushib qoldi-yu, oqlangan devorda chakkaning uzun-uzun dog'laridan ko'zini uzolmay qoldi. Shu isqirt devorda har turli manzaralar goh paydo bo'lar, goh g'oyib bo'lardi. U botinkasini yechishni ham unutib, ancha vaqtgacha devorga tikilib o'tirdi, keyin lablari qimirladi, «Ruf!» deb pichirladi.

«Ruf!» Oddiy bir tovushning bu qadar nafis bo'lishini Martin hech qachon o'ylamagandi. Bu tovush uning qulog'iga muloyim eshitilar va u lazzatlanib takrorlardi: «Ruf, Ruf». Qizning

ismi misoli tilsim edi, sehrli afsun edi; har safar uning ismini tilga olganda, Martinning ko'z oldida butun devorni zarrin nur bilan yoritib, qizning jamoli namoyon bo'lardi. Bu shu'la nainki devorni yoritar, u cheksiz ufq sari quloch yozardi, yigit qalbi esa o'sha yoqlarda, oltin vodiya qizning qalbini axtarardi. Martinning vujudida mavjud jamiki yaxshi fazilatlar lava singari sirtga otilib chiqdi. Qiz haqida o'ylashning o'zi Martinda ajib hislar uyg'otar, uni samoga ko'tarar, yana ham yaxshiroq odamga aylantirib, dilida yana ham yaxshiroq bo'lish istagini uyg'otardi. Bu uning uchun yangilik edi. Martin ayol kishi bilan uchrashganda o'zini biron marta bo'lsin yaxshi odam bo'lganini his qilganini hech bilmaydi. Aksincha, hamma xotinlar odatda Martinni qo'pol bir hayvonga aylantirar edilar. Ammo aynan o'sha xotinlar o'zlarining zaif, ezgu tuyg'ularini unga baxsh etardilarki, buni Martin bilmasdi. U hech qachon o'zi haqida o'ylamas, o'zining ayollar qalbida muhabbat uyg'otadigan allaqanday xislati borligidan va ayollar aynan shu sababli uning e'tiborini jalb qilishga astoydil intilishlaridan aslo bexabar edi. U hech qachon xotin qidirmas, xotinlarning o'zlari Martinni qidirib topardilar, lekin ba'zi xotinlar shu Martin tufayli odam bo'lib qolishganini xayoliga ham keltirmas edi. Shu chog'gacha Martin ayollarni mensimay, ularga parvo qilmas edi, endi bilsa, ana shu ayollar o'zlarining nopok qo'llari bilan uni ko'proq ushlab turishga intilisharkan. Martin ayollar haqida ham, o'zi haqida ham noto'g'ri fikrda ekan. Lekin bunga uncha tushuna olmas,


chunki o'zi haqida mulohaza yuritishga hali odatlanganicha yo'q edi, faqat endi, o'zi uchun uyatdek tuyulgan narsani eslab, cho'g'dek qizarib ketardi.

U dik etib o'rnidan turdi va chanoq tepasidagi pashshalar o'tirib ketgan ko'zguga qaradi. U sochiqni qo'liga olib, ko'zguni hafsula bilan artdi va ancha vaqtgacha o'z aksiga diqqat bilan tikilib qarab qoldi. Aslini olganda, u umrida birinchi dafa o'zini bunchalik diqqat bilan kuzatayotgan edi. Uning ko'zlari o'tkir va o'ychan edi, ammo shu paytgacha u tashqi dunyoning xilma-xil tomonlariga mahliyo bo'lib, o'ziga nazar tashlashga vaqt topolmagan edi. Endi u o'z qarshisida yigirma yashar yigitning chehrasini ko'rib turar, lekin bu chehra chiroylimi, yo'qmi, hal qila olmasdi, chunki u hali qaysi andazaga qarab baho berishni bilmasdi. U keng va do'ng peshanasi ustidagi bir tutam jingalak qo'ng'ir sochga nazar soldi. Martinning jingalak sochlarini xotirlar yoqtirardi, ular uning sochini tatalashni va silashni yaxshi ko'rardilar. Lekin Martin sochini u qiz uchun hech qanday ahamiyati yo'q deb hisoblab, sochiga ortiq qarab o'tirmadi-da, diqqat va o'ychanlik bilan o'z peshanasiga tikildi: u go'yo o'tkir nigohlari bilan o'z peshanasini teshib, uning ichida nima borligini bilmoqchiga o'xshardi. U zo'r berib o'ziga o'zi savol berardi: «Miyam qanaqa o'zi? Bu miyam menga nima bera olarkin? Shu miyam bilan nimaga erisha olaman? U qizga muyassar bo'la olarmikinman?»

Martin ko'pincha, xuddi quyosh shu'lasiga g'arq bo'lgan dengizdek lojuvard tusga kiruvchi

bu qoʻy koʻzlarimda qalbim aks etarmikin, deb oʻzidan oʻzi soʻrardi. Koʻzlarim unga yoqarmikin, yoʻqmi, deb savol berardi Martin. U oʻz koʻzlariga chetdan turib, uning koʻzlari bilan qarashga urinib koʻrdi, lekin bundan hech ish chiqmadi. U, odatda, boshqa odamlarning dilidagini osonlik bilan topib olardi, negaki Martin u odamlarning hayotini juda yaxshi bilardi. Rufning hayoti esa uning uchun bir sir va moʻjiza edi – Martin uning bironta ham fikrini bilishga ojiz edi. Nima qipti, dedi u nihoyat, koʻzlarim nomusli odamning koʻzi, ularda na razolat va na makr bor. U oʻz badanining qoraligidan taajjublanardi, bunchalik qora ekanligi haqida hech qachon oʻylamagan edi. U yenglarini shimarib, tirsagidan yuqoriroq yeridagi oq badanini yuzining qoraligi bilan taqqoslay boshladi. Yoʻq, u har holda oq tanli odam. Ammo qoʻllari oftobda xiyla qoraygan. Shunda u qoʻlini bukib, hech oftob tegmagan yerlarini koʻrishga urindi. U yerlar judayam oppoq edi. Koʻzguda aks etib turgan bugʻdoy rang yuzim ham bir vaqtlar mana shunday oppoq boʻlgan, degan fikr uning miyasiga kelib, kulib yubordi; oʻz badanining Martinnikidek oqligi (oftob tegmagan yerlari, albatta) bilan maqtana oladigan ayollar dunyoda juda kamdan-kamligi uning xayoliga ham kelmas edi.


Agar Martin achchiqlangan chogʻlarida ehtiros uygʻotadigan lablarini mahkam qimtitish odati boʻlmaganda edi (bu odat uning qiyofasiga allaqanday qahrli, qariyb zohidlarga xos keskin tus berardi), uning ogʻzi suratdagi malaklar ogʻziga oʻxshab ketardi. Bu jangchi va oshiqning



dudoqlari edi. Bu dudoqlar hayotning butun laz-zatini totib ko'rgan, ammo zarur bo'lgan chog'da amirona bir qiyofaga kirishi ham mumkin edi. Martinning iyagi va bir oz salobatli pastki jag'i bu amirona qiyofani ta'kidlardi. Undagi kuch ehtirosini muvozanatda saqlab turardi, shuning uchun ham sog'lom go'zallikni yoqtirar va sog'lom tuyg'ulargagina berilardi. Hali biron marta ham tish doktorining yordamiga muhtoj bo'lmagan sog'lom tishlari lablari orasida yiltillab ko'rinardi. Tishlari oppoq, baquvvat va tep-tekis edi – Mar-tin tishlarini sinchiklab kuzatgandan keyin shu qarorga keldi. Lekin shu zahotiyoyq xijolat chekdi. Xotirasining allaqaysi bir yerida, ba'zi odamlar har kuni tishlarini tozalaydilar, degan g'ira-shira fikr paydo bo'ldi. O'sha tishini tozalab turuvchi-lar kiborlar davrasiga, qizning davrasiga mansub odamlar edi. Qiz ham, ehtimol, tishini har kuni tozalab turar. Agar u Martin umrida bir marta ham tishini tozalamaganini eshitsa, nima deb o'ylagan bo'lardi. Martin ertagayoq tish cho'tkasi sotib olib, har kuni tish tozalashni odat qilmoq-chi bo'ldi. Faqat jasorat ko'rsatish bilan u qizni maftun qila olmayсан. Martin o'zining tashqi qi-yofasida tish tozalashdan tortib, qotirma yoqa taqib yurishgacha (holbuki, qotirma yoqa taqqa-nida o'zini ozodlikdan mahrum odamday his qilardi) o'zgartirish kiritishi lozim.

Martin qo'lini ko'tarib, barmoqlari bilan qadoq bosgan kaftini qashladi, kir terisi orasiga shu qa-dar singib ketgan ediki, uni cho'tka bilan ham qashlab tozalash qiyin edi. Qizning kaftlari qan-day! Hatto eslashning o'zi ham ko'ngilga xush

yoqardi. Misoli qizil gul bargi singari nafis, qor parchasi yanglig' sarin va latif. Ayol kishining qo'li bu qadar yumshoq va nozik bo'lishini u hech qachon xayoliga ham keltirmagan edi. Bunday qo'lning navozishi nechog'lik ajib bo'larkin, deb o'yladi u va xayolining shunday fikr bilan band bo'lganini payqab qolib, uyalganidan cho'g'dek qizarib ketdi. Bu haddan tashqari jasurona xayol edi va ayni vaqtda, qizning ruhiy go'zalligini tahqirlash edi. Axir u qiz bu olamdan juda yiroqlarda parvoz qilib yuruvchi so'lim bir ruh, shaffof ko'lanka edi. Shunday bo'lsa ham, Martin uning momiq kaftlari haqidagi xotirani xayolidan chiqara olmadi. U fabrikada ishlovchi ayollarining va uy ishlari bilan qiynalgan xotinlarning qattiq, dag'al qo'llariga odatlanib qolgan edi. Ha, nima sababdan ularning qo'llari bunchalik dag'alligini tushunardi, albatta. Rufning qo'li... u qo'l mehnat nimaligini bilmaydi, shuning uchun ham nozik va yumshoq. Martin dunyoda yashash uchun ishlashlari shart bo'lmagan odamlar ham borligi haqida o'ylagan zahoti Ruf bilan o'zi o'rtasidagi jar yana teranlashdi. Birdan uning ko'zi oldida mehnat nimaligini bilmaydigan oqsuyaklar qiyofasi namoyon bo'ldi. Bu qiyofa isqirt oq devorda takabbur va ulug'vor bronza haykal sifatida namoyon bo'ldi. Martin esini taniganidan beri muttasil ishlardi; uning hamma oila a'zolari ham mehnat bilan kun ko'rardi. Chunonchi, Gertrudani olaylik. Uning zahmatkash qo'llari kir yuvishdan shishib, xuddi pishgan go'shtdek qip-qizarib ketardi. Yo boshqa opasi Meriyenni olaylik. U konserva zavodida ishlar, uning jajjigi-



na chiroyli qo'llari pomidor to'g'rovchi pichoqdan shilini ketgan edi. Buning ustiga, o'tgan qishda, karton fabrikasida ishlayotganida, qo'lining ikkita barmog'ini mashina olib ketdi. Martin tobutda yotgan onasining ko'ksiga chalishtirilgan g'udrush qo'llarini esladi. Martinning otasi ham umrining oxirgi kunigacha mehnat bilan yashadi, uning kaftlari qalin qadoq bilan qoplangan edi. Rufning esa qo'llari nozik, faqat uning emas, onasining ham, akalarining ham qo'llari nozik. Ayniqsa, shu hol Martinni hayratga soldi; bu ularning tamomila boshqa toifadan ekanligining yorqin dalili, Martin bilan ularni ajratib turgan masofa nihoyatda yiroq ekanligining isboti edi.

Martin achchiq istehzo bilan yana karavotga o'tirdi va nihoyat botinkasini yechdi. U o'zini yo'qotib qo'ygani edi, ayol kishining jamolidan, uning nozik qo'llaridan mast edi u. Shu choq to'satdan uning ko'z oldida yangi manzara namoyon bo'ldi. U tunda Londonning Ist End ko'chasida kattakon bir beo'xshov bino oldida turardi, yonida o'n besh yoshlar chamasi ishchi qiz, Marji. Martin uni sayr-tomoshadan keyin uyiga kuzatib qo'ymoqda. Qiz mana shu ulkan molxonaga o'xshagan isqirt binoda turadi. Martin qiz bilan xayrlasharkan, unga qo'lini uzatdi. Qiz esa o'pishish uchun labini tutdi, lekin Martinning o'pgisi kelmadi. U qizning allanimasidan hayiqib turardi. Shunda qiz hayajon bilan titrab-qaqshab yigitning qo'lini siqdi. Martin uning jajji kaftidagi qadoqlarni his qildi-yu, birdan rahmi kelib ketdi. Uning ko'zlari qizning yolveruvchi ehtirosli ko'zlariga, uning endi balog'atga yeta

boshlagan zaif gavdasiga tushdi; bu siymoda ayol kishining hurkak, ammo ehtirosli tuygʻulari uygʻona boshlagan edi. Shunda qizga rahmi kelib ketdi-yu, uni mahkam bagʻriga bosib, labidan boʻsa oldi.

U qizning sevinch toʻla nidosini eshitdi; qiz shoʻx mushuk bola singari Martinning pinjiga suqildi. Murgʻakkina, nimjon qiz! Martin uzoq oʻtmishda sodir boʻlgan bu lavhaga tikilib turardi. Oʻsha vaqtda qiz uning pinjiga suqilganida yuz berganidek, hozir ham badanlari jimirlab ketdi va achinganidan yuragi ezildi. Bu koʻngilsiz manzara edi; oʻsha kuni havo ham bulutli, tosh koʻchaning iflos xarsanglariga koʻngilni gʻash qiluvchi yomgʻir savalab yogʻardi. Lekin shu payt birdan devorni porloq shuʻla yoritib yubordi; oltin sochlarini boshiga chambarak qilib olgan uning oppoq chehrasi Martinning koʻz oldida namoyon boʻlib, barcha qiyofalar va lavhalarni xiralashtirib yubordi va hech erishib boʻlmaydigan olis yulduz yangligʻ porlay boshladi.

U kursida yotgan Suinbern bilan Brauning kitoblarini olib oʻpdi. Har holda, meni uyiga taklif qildi-ku, deb oʻyladi yigit. Keyin yana koʻzguga qarab, oʻz aksini tomosha qildi-da, baland ovoz bilan magʻrurlanib dedi:

– Martin Iden, ertaga ertalab turib birinchi qiladigan ishing – tekin qiroatxonaga borib, yaxshi xulq-atvor qoidalari haqida biron narsa olib oʻqiysan. Tushundingmi?

Shundan soʻng u chiroqni oʻchirdi, oʻrniga yotarkan, gavdasining vazminligidan karavot prujinasi gʻijirlab ketdi.

– Eng muhimi, Martin, sen kamroq soʻkini-shing kerak! Buni qulogʻingga quyib ol!

Shu soʻzlar bilan asta uyquga ketdi, koʻrgan tushi taryak chekuvchi kishining xayolidek jurʼatli va gʻayritabiiy edi.

BESHINCHI BOB

Ertasiga ertalab uyqudan uygʻongach, Martin-ning dimogʻiga sovun va kir kiyim hidi urildi-yu, shirin tushlarini unutdi. Quloqlari shu zahotiyoyoq ogʻir va koʻngilsiz hayotning betartib shov-shu-vidan qomatga keldi. U oʻz xonasidan chiqishi bi-lan opasining baqirgan ovozini va alamini tarqa-tish uchun bolalaridan bittasini shapaloqlab ur-ganini eshitdi. Bolaning chinqirigʻi uning yura-giga tigʻdek sanchildi. Bu yerdagi hamma nar-sa, hattoki oʻzi nafas olayotgan havo ham unga jirkanch boʻlib tuyuldi. Bu muhit Ruf istiqomat qilayotgan uyda hukm surgan osoyishtalik va uygʻunlikka naqadar zid! U yerda hamma narsa koʻtarinki maʼnaviy ruh bilan sugʻorilgan; bu yer-da esa moddiy, nihoyatda qoʻpol moddiy manfaat ustun edi, xolos.

– Bu yoqqa kel, Alfred! – deb chaqirdi u yigʻlab turgan jiyanini va yon choʻntagiga qoʻlini tiq-di. U pulga befarq edi, bu uning qoʻli ochiqli-gini koʻrsatardi. U bolaning qoʻliga yigirma besh sentlik tanga tutqazdi-da, uni ovutish uchun qoʻliga oldi.

– Qani endi gʻizilla, «chaynamay shiming» olib, aka-ukalaring bilan boʻlashib yegin. Lekin ogʻiz-da tez eriydigani boʻlmasin.

Martinning opasi kir tog'ora tepasida bir zumgagina qaddini rostlab, unga o'girildi.

– O'n sent bersang ham yetardi, – dedi u, – pulning qadriga hech yetmaysan-da. Endi u bo'kib qolguncha yeydi.

– Hechqisi yo'q, – deb sho'x ohangda javob qildi Martin. – Mening pulim o'z qadrini o'zi biladi. O'zing yaxshi yotib turdingmi, opa, agar unchalik band bo'lmaganingda, xudo haqqi, seni o'pib olgan bo'lardim.

U opasi bilan shirinso'z bo'lgisi kelardi; bu ko'ngli yumshoq ayol ukasini o'ziga xos tarzda yaxshi ko'rardi – buni Martin bilardi. Rost, vaqt o'tishi bilan Gertruda avvalgi qiyofasini tobora yo'qotib, jag'iga suyanib, serzarda bo'lib qolgan edi. Bu o'zgarishga og'ir mehnat, oilaning kattaligi va erining badfe'lligi sabab bo'lsa kerak, degan qarorga keldi Martin. Birdan, shuncha yildan beri opamning badaniga achigan sabzavot, mag'zava va o'zi peshtaxta oldida turib sanaydigan, qo'ldan qo'lga o'taverib kir bo'lib ketgan chaqalarning qo'lansa hidi urib qolibdi, deb o'yladi.

– Undan ko'ra kirib nonushtangni qil, – dedi opasi sirdan achchiqlanganday ko'rinsa ham, ichida xursand bo'lib. Uning darbadar ukalari orasida Martin eng sevimlisi edi.

– Qani, beriroq kel, seni bir o'pib qo'yay, – deb ilova qildi opasi iyib ketib.

U avval bir qo'lidan, so'ng ikkinchi qo'lidan sovun ko'piklarini barmoqlari bilan sidirib tashladi. Martin uning yo'g'on belidan quchoqladi-da, terlab ketgan nam lablaridan o'pdi. Opasining

ko'zlarida yosh paydo bo'ldi; nainki zo'r hissiyot ta'siridan, balki muttasil horg'inlik oqibatida sodir bo'ladigan ojizlikdan ko'ziga yosh kelgan edi. U Martinni itarib yubordi, lekin Martin opasining ko'zlari yoshlanganini baribir ko'rib qoldi.

– Ovqat pechkada, – shosha-pisha dedi opasi.
– Jim ham o'rnidan turgan bo'lsa kerak. Bugun kir yuvaman deb, kallai saharlab turdim. Tezroq borib ovqatingni yegin-da, uydan chiqib ket; bugun uyda judayam ish ko'p. Tom ketib qoldi chog'i. Endi Bernardning o'zi arava qo'shib molga boradi.

Martin yuragi ezilib oshxonaga yo'l oldi. Opasining qizarib ketgan yuzi va butun isqirt qiyofasi uning ko'z o'ngidan nari ketmas edi. Agar opamning vaqti bo'lganda, meni erkalagan bo'lardi, deb o'yladi Martin. Lekin u ishlab toliqadi. Bu Bernard Xigginbotam g'irt hayvon ekan, opamni hech ayamay ishlatgani-ishlatgan. Ayni vaqtda, opamning o'pishida hech qanday go'zallik yo'q, degan fikr hech Martinning xayolidan ketmasdi. Rost, uning o'pishi g'alati. Opasi juda ko'p yillardan beri uni faqat dengiz safariga kuzatayotganda yoki safardan qaytganda, kutib olib, o'pard. Ammo bu o'pishda sovun ko'pigining mazasi bor edi, lablari esa so'lib burushgan edi. Bu lablar, o'pishga tayyorlangan labga o'xshab, lablarga tez va chippa yopishmasdi. Holbuki, bu – qanday o'pishishni unutib yuborgan, mehnatdan juda horigan ayolning bo'sasi edi. Martin, beixtiyor, opasining turmushga chiqmasdan oldin kun bo'yi ishlab, kechasi bilan tinmay raqs tushishini, ertalab yana xuddi hech nima bo'lmaganday, to'ppa-to'g'ri raqsdan o'z kirxonasiga ishga

jo'nashini esladi. Shunda Martinning esiga yana Ruf keldi, uning lablari o'zi singari ma'suma bo'lsa kerak, deb o'yladi yigit. Uning qarashi tetik, qo'lni qattiq siqib samimiy ko'rishadi, bo'sasi ham shunday bo'lsa kerak. U jur'at etib, hatto qizning dudoqlarini o'z dudoqlari bilan tutashayotganini tasavvur qildi. Bu manzarani shunday aniq tasavvur etdiki, boshi aylanib ketdi. Martin muattar hidi bilan kishini mast qiluvchi atirgul barglaridan tashkil topgan bulut parchasi ustida ohista parvoz qilib ketayotganday his qildi o'zini.

Oshxonada Martin Jimni uchratdi, u ham opasinikida ijaraga yashardi. Jim bo'shliqqa ma'nisiz loqayd tikilib, suli yormasidan pishirilgan bo'tqani bahuzur yeb o'tirardi. U chilangar shogirdi edi; iyagi yalqov tabiatligi va irodasizligidan darak berar, irodasizligi bir qadar aqliy qoloqligi bilan qo'shilib, yashash uchun kurash jarayonida muvaffaqiyat qozonolmasligidan xabar berardi.

– Nega yemayapsan? – deb so'radi u Martinning yaxshi pishmagan va sovib qolgan suli bo'tqasini istar-istamas kovlab o'tirganini ko'rib.
– Yo, kecha yana ichib keluvdingmi?

Martin «yo'q» deganday bosh chayqab qo'ydi. Atrofidagi narsalarning faqironaligidan ko'ngli xasta edi. Endi Ruf Morz undan yana ham uzoqlashib ketgandek bo'ldi.

– Men rosa ichibman, – dedi Jim asab bilan tirjayib, – o'zim ham g'irt mast bo'lib qolibman. Oh, juda quling o'rgilsin qiz ekan-da! Meni uyga Bill sudrab keldi.

Martin «eshityapman» degan ma'noda bosh irg'ab qo'ydi, hamsuhbatining kim bo'lishidan qat'i

nazar, gapiga e'tibor bermayotganini shu yo'sinda namoyish qiladigan g'ayrushuuriy odati bor edi uning. Keyin u o'ziga ilib qolgan qahva quydi.

– Bugun «Nilufar»ga raqs tushgani boramizmi? – deb so'radi Jim. – Pivo bo'ladi. Temeskaldan yigitlar kelishsa, mushtlashish bo'lmay iloji yo'q. Men, albatta, parvo ham qilmayman bunga. Baribir, qizimni boshlab boraman. Ufl.. Og'zim judayam bemaza bo'lib ketibdi-da. Nima balo bo'ldi o'zi!

U aftini bujmaytirib, bir qultum qahva bilan shosha-pisha og'zini chayib tashladi.

– Sen Juliyani taniysanmi?

Martin bosh irg'adi.

– U hozir men bilan yuribdi, – deb tushuntirdi Jim. – Qiz emas, xuddi popuk deysan! Sen bilan tanishtirardim-u, lekin o'zingga og'dirib olasan-da. Nimaga qizlar nuqul senga osilisharkin, o'lay agar tushunsam. Har qanaqa qizni ham bir boqishda o'zingga og'dirib olganingni ko'rsam, shunaqayam alam qiladiki kishiga.

– Sening bitta ham qizingni o'zimga og'dirib olganim yo'q hali, – dedi Martin loqaydlik bilan. – Nonushta qilib bo'lmaguningcha, baribir ketmaysan deyman.

– Nega endi, – deb e'tiroz bildirdi Jim, – Meggi-chi?

– E, u bilan hech qanday aloqa qilmaganman. O'sha safardan keyin u bilan hatto raqsga ham tushmaganman.

– Ana shunaqa-da, – deb yubordi Jim, – sen u bilan faqat raqsga tushib, bir-ikki marta ko'z qiringni tashlab qo'ygansan-u, qiz tayyor

bo'lgan-qolgan! Ehtimol, ko'nglingga hech nima kelmagandir ham. Ammo u o'shandan keyin menga qiyo ham boqmay qo'ydi. Qachon qarasang, faqat seni so'raydi. Agar xohlasang, sen bilan darrov uchrashishga rozi bo'lardi.

– Lekin men uchrashishni xohlamadim-ku!

– Ahamiyati yo'q. Baribir meni iste'foga chiqarib yubordi, – Jim Martinga havas bilan tikildi.

– Qanaqa qilib rom qilasan-a, Mart?

– Ularga uncha parvo qilmayman, vassalom.

– Bundan chiqdi, o'zingni ular bilan hech ishing yo'qday qilib ko'rsatarkansan-da, a? – deb surishtirardi Jim.

Martin nima javob qilsam ekan deb, bir daqiqacha o'ylab qoldi.

– Balki, shu ham ta'sir qilar. Lekin meni chindan ham ular bilan hech ishim yo'q. Sen ham o'zingni shunaqa ko'rsatishga urinib ko'r, zora kor qilsa.

– Es-siz, kecha Raylinikida yo'q eding-da, – deb yubordi birdan Jim. Uning gapida na mantiq va na ma'no bor edi, – u yerga G'arbiy Oklenddan Kalamush laqabli bir olifta yigit keluvdi. Mushtlashishni unga chiqargan ekan! Yigitlarimizdan bittasi ham uni yiqita olmadi! Hamma sening yo'qligingga achindi! Kecha qayoqda daydib yuruvding o'zing?

– Oklendda edim, – deb javob qildi Martin.

– Teatrdamidig deyman?

Martin oldidagi taqsimchani nari surib qo'yib, eshik tomon yurdi.

– Xo'sh, raqs tushgani borasanmi? – deb qichqirdi Jim uning orqasidan.

– Ha, yo‘q, borolmasman, – dedi Martin.

Unda toza havodan nafas olish ehtiyoji tug‘ilib, zinadan g‘irillab pastga tushdi-da, ko‘chaga chiqdi. Bu xonadon muhitida uning nafasi shundoq ham qaytib ketayotgan edi, Jimning bema‘ni safsatalari esa g‘azablantirib yubordi. U dik etib turib, mahmadona yigitning tumshug‘ini bo‘tqa solingan taqsimchaga tiqmoqchi ham bo‘ldi. Jim vaysagan sari, Ruf ham Martindan shuncha uzoqlasha boshlagan edi. Axir, mana shunday hayvonlar orasida yashab turib, bir kunmas bir kun Rufning visoliga yetishishni umid qilib bo‘larmidi? O‘z qarshisidagi vazifaning mushkuligi Martinni umidsizlantirardi, u o‘z ahvolining, ya‘ni ishchilar sinfidan chiqqan kishining ahvoli benajot ekanligini his qila boshlagan edi. Go‘yo tevarak-atrofidagi hamma narsa, o‘zi ko‘nikib qolgan hamma odamlar, o‘z hayoti bilan bevosita chambarchas bog‘langan opasi, uning uyi, oilasi, chilangar Jim – hammalari xarsangtoshdek yelkasidan bosib yotar va qaddini rostlab o‘rni-dan turishiga imkon bermasdi. Uning uchun hayotning zavqi qolmagan edi. Shu paytgacha u hayotni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilgandi. Martin hayotining yaxshi-yomonligi haqida hech qachon o‘ylab ham ko‘rmas, faqat kitob o‘qigan chog‘laridagina bu haqda bosh qotirar edi. Lekin ular kitob edi, xolos, mavjud bo‘lmagan ajoyib dunyo haqidagi ajoyib ertaklar edi. Endi bo‘lsa, o‘sha dunyo – o‘rtasida Ruf ismli guljamol turgan dunyo uning ko‘z oldida haqiqatan namoyon bo‘ldi. Endi u bundan buyon hasrat va umidsizlikka mahkumdir, bu umidsizlik

nihoyat darajada iztirobli, negaki Martin umid bilan oziqlanib kelardi.

Martin, qaysi qiroatxonaga borsamikin: Berkleydagi ommaviy qiroatxonagami yo Oklend qiroatxonasigami, deb ancha vaqtgacha o'ylanib qoldi va nihoyat, Oklend qiroatxonasiga borishga jazm qildi, chunki Oklendda Ruf yashardi. Kim bilsin! Qiroatxona – Rufga juda mos joy va Martin uni o'sha yerda uchratib qolsa ham ajab emas. Qiroatxona bo'limlarining qay tarzda joylashgani unga butunlay ma'lum emas edi, shuning uchun, to oriqqina, aftidan, fransuzga o'xshagan bir qiz unga ma'lumot kutubxonasi yuqori qavatda ekanligini aytmaguncha, belletristika kitoblari terilgan son-sanoqsiz javonlar orasida sandiraqlab yurdi. Stol ortida o'tirgan kishiga murojaat qilish uning aqliga kelmadi va o'zi tusmollab yurib, falsafa bo'limiga kirib qoldi. U falsafa haqida kitoblar borligini eshitgan edi, ammo bu fan haqida shuncha ko'p kitob yozilgan deb hech o'ylamagan edi. Qalin-qalin jildlar bilan to'lgan baland shkaflar uni bosib qolayotganga o'xshar va ayni paytda, uning tafakkurini hayajonga solardi. Bu yerda miyani ishlatish uchun imkoniyat to'lib yotardi. Matematika bo'limida ko'zi trigonometriyaga oid kitoblarga tushdi va hech ma'nosiz bo'lib tuyulgan formula va chizmalarga ancha vaqtgacha tikilib qoldi. U inglizcha so'zlarni o'qidi, lekin bu so'zlarning ma'nosini sira tushunmasdi. Bu qandaydir boshqa til edi. Norman bilan Artur bilishardi bu tilni. Ularning shu tilda so'zlashganini Martin o'z qulog'i bilan eshitgan. Ular esa Rufning aka-

lari. Martin falsafa bo'limidan hafsalasi pir holda chiqib ketdi. Insoniyat bilimining bu qadar teran va cheksiz ekanligi hech qachon xayoliga kelmagan edi. Shularning hammasini o'qib ulgurarmikinman, deb o'yladi-yu, uni qo'rquv bosdi. Lekin bu ilmlarni o'zlashtira olgan odamlar ko'p bo'lgani esiga tushib ketdi. Shunda u, boshqa odamlar muyassar bo'lgan hamma ilmni men ham o'rgana olaman, deb ont ichdi.

U bir umidsizlikka tushib, bir zavq-shavqqa to'lib, hikmat xazinalari jamlangan javonlar orasida tentirab yurdi. Umumiy bo'limda u Norrining «Xulosa kursi»sini topdi. Bu kitobni u zo'r ixlos bilan varaqlab chiqdi. Har holda, bu kitob unga qadrdon edi. Chunki muallif Martin singari dengizchi edi. Keyin u Boudichning «Navigatsiya haqidagi ma'lumotlar»ini va Lekki bilan Marshalning asarlar majmuasini topdi. Juda soz bo'ldi-da! U navigatsiyani o'rganishga kirishadi. Ichishni tashlaydi, astoydil mehnat qilib, kapitan bo'ladi. Shu choq Ruf unga juda yaqinlashgan-day bo'lib tuyuldi. Kapitan bo'lib olgandan keyin, agar Ruf xohlasa, unga uylanishi mumkin. Bordi-yu, xohlamasa – nachora, shu qiz tufayli yaxshi va bama'ni hayot kechira boshlaydi, lekin ichishni baribir tashlaydi. Keyin u kapitanning ikkita xo'jayini – sug'urtachi bilan kema xo'jayinini esladi, kapitan bilan ularning ko'zlagan manfaatlari hech qachon bir-birlarinikiga mos tushmas edi: shundan so'ng Martin, ularning har qaysisi uni xarob qilishi mumkinligini va xarob qilishi muqarrar ekanligini o'ylay boshladi. U xonaga ko'z yugurtirib chiqib, o'n ming jild-

lik salobatli kitob javonlari oldida hatto ko'zlari qamashib ham ketdi. Yo'q, dengizga barham berildi. Bu yerda, bu son-sanoqsiz kitoblarda benihoya ulkan qudrat mavjud, agar u chindan ham buyuk ishlarga bel bog'lamoqchi ekan, ularni quruqlikda ro'yobga chiqarishi lozim! Buning ustiga, kapitanlar xotinlarini o'zlari bilan dengiz safariga olib borishiga ruxsat berilmaydi.

Tush payti bo'ldi. Vaqt o'tib borardi. Martin ovqatni ham unutib, hamon kitoblarning nomlarini o'qib, axloq qoidalari yozilgan kitobni axtarish bilan ovora edi. Uning miyasi yuqori martabaga erishish orzusidan boshqa yana eng oddiy vazifani hal qilish bilan ham band edi: agar-da yosh xonim siz bilan xayrlasha turib, yana tashrif buyurishingizni iltimos qilsa, qancha vaqt o'tkazib borish mumkin unikiga? Nihoyat, zarur kitobni uchratdi-yu, biroq o'z savoliga bu kitobdan ham javob topa olmadi. U axloq qoidalarining nechog'lik murakkab va rango-rang ekanligini ko'rib hayron qoldi, kiborlar jamiyatida odat bo'lgan taklifnomalar almashish qoidalari haqidagi qo'llanmalarni o'qiyverib, miyasi g'ovlab ketdi va ma'yus bir qiyofada bu yerdan uzoqlashdi. U o'zi qidirgan narsani topa olmadi, lekin har jihatdan nazokatli bo'lish uchun juda ham ko'p vaqt kerakligini va bularning hammasini o'zlashtirmoq uchun dastavval butun umr yashash kerakligini tushundi.

– Qalay, qidirgan kitobingizni topdingizmi? – deb so'radi chiqib ketayotgan Martindan stol ortida o'tirgan kishi.

– Ha, ser, kutubxonangiz judayam yaxshi ekan, – deb javob berdi Martin.

U kishi bosh irgʻitib qoʻydi.

– Tez-tez kelib turing. Siz dengizchimisiz?

– Ha, ser. Yana vaqt topib bir kelarman.

«Mening dengizchi ekanimni qayoqdan bildiykin?» – deb soʻradi Martin oʻzidan oʻzi, zinadan pastga tushganda.

Shundan keyin, koʻchaga chiqib, besoʻnaqay chayqalmasdan bir tekisda yurishga urindi. Yana oʻyga tolmaguncha bu niyati esida edi, keyin esa oʻzining odatdagi yurishini qilib ketaverdi.

OLTINCHI BOB

Martinning vujudini ochlik azobiga oʻxshash behalovat iztirob tuygʻusi qamrab olgandi. U qizni qayta koʻrish istagida oʻrtanardi, chunki qiz nihoyatda zoʻr abjirlik bilan Martinning butun hayotini oʻzining nozik qoʻllarida mahkam ushlab turardi. Unikiga borishga Martinning yuragi betlamasdi. Hali juda ham vaqtli boʻlsa kerak, degan fikrga borib, nazokat qoidalari majmuasini buzib qoʻyishdan qoʻrqardi. U Oklend va Berkley kutubxonalarida bir necha soatlab qolib ketardi; u yerda Martin oʻz nomiga, Gertruda, Meriyen va hatto Jimning ham nomiga yozilib qoʻygan edi. Jim bunga Martin olib bergan pivoga rosa miriqib toʻygandan keyin rozi boʻldi. Martin shu toʻrttala obunachi nomiga birtalay kitob oldi, endi uning hujrasida har kuni kechasi tong otguncha chiroq oʻchmaydigan boʻldi, mister Xigginbotam esa buning evaziga Martindan haftasiga yana ellik sent ortiqcha haq ola boshladi.

Lekin Martin oʻqigan kitoblar uni yana koʻproq bezovta qilardi. Yangi kitobning har bir sahifa-

si uning uchun misoli ilm bo'stoniga kiradigan bir eshik edi. U kitoblarni o'qigan sari ilmga bo'lgan ishtiyoqi ham orta bordi. Buning ustiga, u nimadan boshlash zarurligini bilmas, shu bilan birga, tayyorgarlikning yo'qligi unga ko'p xalal berardi, u har qanday kitobxon xabardor bo'lgan eng oddiy narsalarni ham bilmasdi. Martin g'oyat zo'r ishtiyoq bilan she'r o'qishga kirishgan, lekin bu sohada ham ko'p narsani bilmasdi. U Suinbernning Ruf bergan kichik bir to'plamidagi she'rlarini o'qish bilan cheklanib qolmadi. U shoirning «Dolores»ini ham o'qib chiqdi va unga mukammal tushundi. Ruf bu asarni tushunmagan bo'lsa kerak, degan qarorga keldi u. Bunday nozik, yengil hayot kechiruvchi qiz uni qanday ham tushunsin? Keyin qo'liga Kiplingning she'rlari tushib qoldi va kitobni o'qirkan, o'ziga nihoyatda tanish narsalarni bir maqomda juda ohangdorlik bilan, jozibali tarzda ifodalovchi satrlarga maftun bo'ldi. Kiplingning jamiki she'rlariga xos bo'lgan narsa – hayotga muhabbat, psixologik tahlil Martinni hayratda qoldirgan edi. «Psixologiya» Martin Idenning so'z boyligiga kirgan yangi so'z bo'ldi. U o'ziga izohli lug'at sotib olib, bu bilan moddiy ahvolini yanada mushkul-lashtirdi va quruqlikda yashash muddatini bir-muncha qisqartirdi; buning ustiga, mister Xigginbotamning ham achchig'ini chiqardi, chunki lug'atga to'langan shu pulni ijara haqi uchun olishni afzal ko'rardi.

Kunduz kunlari u Ruf istiqomat qilib turgan uyga hatto yaqin yo'lashga ham jur'at eta olmasdi, lekin kechalari chiroq yonib turgan derazalar-

ga yashirincha ko'z tashlab, hatto Rufni qurshab turgan devorlarga ham suqlanib boqib, Morzlar uyining atrofida xuddi o'g'ri odamday tentirab yurardi. Bir necha marta u Rufning akalariga to'qnash kelib qoldi, bir kun esa ancha yergacha mister Morzning orqasidan ergashib bordi; Martin uni kuzatib borarkan, muyulishlarda, ko'cha fonuslarining yorug'ida Morzning yuz bichimini o'rganar va qani endi bu muhtaram jentelmen hozir katta bir falokatga uchrasa-yu, bu falokatdan uni qutqarib qolsam, deb astoydil orzu qilardi. Boshqa safar u birdan ikkinchi qavat derazasi oldida Rufni ko'rib qoldi. Qizning faqat boshi ko'rinib turardi, yelkasi bilan qo'llarining harakatidan soch tarayapti, shekilli deb o'yladi. Bu hol faqat bir lahzagina davom etdi, lekin shu lahza ham butun vujudidagi qonni qaynatib, uni mast qiluvchi sharobga aylantirish uchun kifoya edi. To'g'ri, qiz shu zahotiyuq deraza pardasini yopdi, lekin Martin uning xonasi qayerga joylashganini bilib oldi va shu voqeadan so'ng har safar uy ro'parasidagi yo'lkadagi daraxt tagida hech ketini uzmay son-sanoqsiz papiros chekib, soatlab derazaga tikilib turadigan bo'ldi. Kunlarning birida u Rufning onasini ko'rib qoldi, u bankdan chiqib kelayotgan ekan, shunda Martin o'zi bilan Rufni ajratib turgan masofani hech qanday o'lchov bilan ham o'lchab bo'lmasligiga yana bir marta ishonch hosil qildi. Ruf pulini bankda saqlovchilar davrasiga mansub edi! Martin esa umrida biron marta ham bank ostonasidan hatlab ichkari kirmagan va bunday mahkamaga faqat juda ham badavlat va qudratli odamlargina kira oladi deb bilardi.

Martinning hayotida tom ma'nosi bilan katta o'zgarish sodir bo'layotgan edi. Rufning beg'ubor va ma'sumaligi Martinga shunday qattiq ta'sir qilgan ediki, endi u tamomila ozodalik shaydosi bo'lib qoldi. Agar u Ruf bilan hamnafas bo'lishni istasa, o'zini ozoda tutishi lozim. U tishlarini tozalar va idish-tovoq cho'tkasi bilan tinmay qo'llarini qashlardi; u magazin oynasida tirnoq cho'tkchasini ko'rib, uning nimaga ishlatilishini tushunib oldi. Gumashta uning tirnoqlarini ko'rib, yana tirnoq tozalovchi cho'tka ham tavsiya qildi; shunday qilib, Martinning pardozi ashyolari soni yana bittaga ko'paydi. U kutubxonadan shaxsiy gigiyena haqida kitob olib kelib, undan har kuni ertalab sovuq suv bilan yuvinish haqidagi maslahatni o'qib chiqdi. O'qib chiqdi-yu, Jimni juda ham sevintirib, mister Xigginbotamni esa tang qoldirib, shu maslahatga amal qila boshladi; ammo bunday antiqa qiliqlarga beparvo pochchasi, Martindan suv uchun alohida haq olsammikin, deb jiddiy o'ylanib qoldi. Taraqqiyot yo'lida qo'yilgan ikkinchi qadam shimning tashvishi bo'ldi. Bu masalaga qiziq boshlagan Martin tez orada ishchilarning qopga o'xshab halviragan shimlari bilan oliy tabaqa kishilari kiygan tizzadan to pochagacha tep-tekis tax tushgan shimlar o'rtasidagi farqni darrov aniqlab oldi. Buning siri nimadaligiga tushungan Martin dazmol bilan dazmol taxtasini olgani oshxonaga kirdi; lekin dastlabki urinish muvaffaqiyatsiz chiqdi, u shimini kuydirib qo'yib, yangi shim sotib olishga majbur bo'ldi, bu hol uning dengiz safariga jo'nash muddatini yana qisqartirdi.

Sirtqi o'zgarish bilan masala cheklanib qolmadi. U hamon papiros chekar, ammo ichkilikni tashlagan edi. Shu choqqacha u mayxo'rlikni erkaklar uchun eng munosib mashg'ulot deb bilar va hatto o'zining baquvvatligidan, aroqxo'r o'rtoqlarining aksariyati mast bo'lib, stol ostida dumalab qolganda ham ichishni davom ettiraverishidan juda g'ururlanardi. San-Fransiskoda oldingi dengiz safarlarida hamroh bo'lgan o'rtoqlari ko'p edi, uchrashib qolsa, hali ham ularni mehmon qilar, lekin o'zi uchun faqat bir krujka kuchsiz pivo yoki zanjabil limonadi buyurib, o'rtoqlarining istehzolariga muloyimgina jilmayib o'tiraverardi. U ichib mast bo'lgan o'rtoqlarining bora-bora hayvondan farq qilmay qolishlarini kuzatarkan, endi ularga o'xshamasligidan sevinardi. O'rtoqlarining har birining o'z dardi bor edi, ichkilik esa mavjud hayotni unutishga, orzu va xayollar olamiga parvoz qilishga yordamlashardi. Lekin Martinga endi mast qiluvchi ichimlik darkor emas. U juda qattiq mast bo'lgan vaqtlar bo'lgan edi – u qalbida muhabbat tuyg'usini uyg'otgan va yangi, go'zal hayotga intilish uchun qanot baxsh etgan Rufdan mast edi; uning dilida son-sanoqsiz yangi orzular tug'dirgan kitoblardan mast edi; u yangidan odatlangan ozodaligidan mast edi; ozodalik sog'lomlikni ilgarigidan ham mukammalroq his qilishga imkon berdi va butun vujudini jismoniy hayot quvonchidan hayajonlanishga majbur etdi.

Bir kuni Martin zora Rufni ko'rib qolsam degan umidda teatrqa bordi va balkonning ikkinchi yarmida o'tirib, chindan ham qizni ko'rib qoldi.

U Artur va yana qandaydir notanish yosh yigit bilan parterdan ketib borardi; bu – sochini kalta qilib oldirgan, ko‘zoynak taqqan yigit shu zahotiy oq Martinning dilida hayajon va rashk uyg‘otdi. Ruf birinchi qatorga borib o‘tirdi, shu paytdan boshlab Martin butun kech qizning xushbichim yelkalari va uzoqdan xuddi tutun orasidan ko‘zga chalinganday oltin rang sochlaridan boshqa hech nima ko‘rmadi hisob. Ammo shunday bo‘lsa ham bir-ikki marta atrofiga alanglab qarab qo‘ydi, shunda o‘zidan bir necha o‘rin narida o‘tirgan ikkita qizni ko‘rib qoldi; u qizlar tabassum bilan unga noz-ishva qilishardi. Martin hamma vaqt odamga el bo‘lib ketardi, bunday iltifotni e‘tiborsiz qoldirish odati yo‘q edi uning. Sal ilgariroq, u ham albatta jilmayib javob qilgan bo‘lardi, keyin ilakishib ketardi. Lekin endi hamma narsa o‘zgarib ketgan. To‘g‘ri, u qizlarga jilmayib javob qildi, biroq shu zahotiy oq yuzini teskari o‘girib oldi va ular tomonga boshqa qaramaslikka urindi. Ammo u qizlarni tamomila unutmagan holda, yana bir necha marta tasodifan ularning tabassumlariga ko‘zi tushdi. Bir kunda o‘zgarish juda qiyin, buning ustiga, u tabiatan dilkash va xushmuomala yigit edi, shuning uchun ham qizlarga javoban beixtiyor iljayar, beg‘araz do‘stona iljayardi. Bu xatti-harakatlarining hammasi unga tanish edi. Qizlar odatdagi ayollar o‘yinini qilayotgan edilar – buni Martin yaxshi bilardi. Lekin uning uchun endi hamma narsa o‘zgargan. Huv anavi yerda, birinchi qatorda dunyoda yagona qiz o‘tirardi, u Martin mansub bo‘lgan sinfnig qizlariga sira o‘xshamas,

bular bir-biriga shu qadar o'xshamas edilarki, Martinda endi bu qizlarga achinishdan boshqa hech qanday his qolmagan edi. U Rufning go'zaligi va ma'naviy yuksakligidan hech bo'lmasa ozginagina hissasini bu qizlarga nasib bo'lishini chin yurakdan tilardi. Martin qizlarning bu qadar dadillik bilan xushomad qilishgani uchun hech qachon ta'na qilmagan bo'lardi. Lekin bu xushomadlar uni maftun qila olmasdi; aksincha, bu narsa go'yo Martin mavqeining pastligini ta'kidlayotganday tuyulardiki, bu uning uchun ko'ngilsiz bir hol edi. Agar u Ruf yashab turgan muhitga mansub bo'lganida edi, bu qizlar u bilan o'ynashmagan bo'lardi – buni Martin juda yaxshi tushunadi. Shuning uchun qizlar unga har nigoh tashlaganda, o'z muhitining chayir panjalari uni mahkamroq ushlab, tobora pastga tortayotganini his qilardi.

Martin tomosha tugashiga ozgina qolganda, Rufni ko'chaga chiqayotgan chog'ida yana bir ko'rish ishtiyoqida o'rnidan turib ketdi. Teatr oldida bekorchi odamlar doim uymalashib yurishardi, shunga ko'ra, agar kepkanı bostiribroq kiyilsa-yu, bitta-yarimtaning orqasiga o'tib turilsa, hech kim uni payqamaydi. U deyarli hammadan oldin chiqdi va olomon orasiga kirib ketdi, lekin yo'lka yoqasidan o'ziga endigina qulay joy topgan edi, boyagi qizlar chiqib qolishdi. Martin qizlar uni qidirishayotganini bildi, shu choq u ayollarni maftun etuvchi kuchiga la'natlar o'qidi. Avvaliga qizlar o'zlarini ko'rmaganga soldilar, lekin bu faqat yo'li edi – buni Martin bilardi. Qizlar yaqinroq kelib, qadamlarini sekinlatdilar va ni-

hoyat, bittasi Martinning yonidan o'tib keta turib, yelkasi bilan uni turtib yubordi-da, o'girilib uni xuddi endi tanigan odamday qaradi. Bu qaddi-qomati kelishgan, qop-qora ko'zlari ayyorona o'ynab turgan qoracha qiz edi. Ikkala qiz yana unga tabassum qilishdi, Martin ham ularga javoban jilmaydi.

– Salom berdik! – dedi yigit.

Bu gap mutlaqo g'ayriixtiyoriy tarzda og'zidan chiqib ketgan edi – u ko'pincha shu yo'sinda tanishardi. Ochig'ini aytganda, uning tabiatidagi dilkashlik va xushfe'llik xislatlari uning boshqacha harakat qilishiga imkon bermas edi ham. Qora ko'z qiz sho'x va behayolik bilan kuldi, dugonasini qo'ltiqib olib, to'xtamoqchi ekanini bildirdi; dugonasi qiqirlab kulib qo'ydi, bu alomati rizo edi. Martin, hozir Ruf chiqadi-yu, mana bu qizlar bilan hiringlashib turganimni ko'rib qoladi, deb qo'rqib ketdi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak edi. U xuddi shunday qilishi kerakday, qora ko'z tomon qadam tashladi va u bilan yonma-yon yurib ketdi. Bu muhitda u o'zini o'ng'aysiz his qilmas, poyma-poy ham gapirmasdi. Bular bilan u o'zini erkin his qilardi, u o'zining ham so'zamoliligini ko'rsatishi, ham umumning tilidan farq qiladigan sheva bilan qizlarni og'ziga qaratishi, tez va tasodifiy tanishishgan kishilardek kulishi, og'ziga kelgan hamma narsa to'g'risida vaysashi mumkin edi. Muyulishga borganida u orqaroqda qolib, tor ko'chaga kirib ketishga urinib ko'rdi. Lekin qora ko'z qiz dugonasining qo'lini qo'yvor-magan holda, Martinning tirsagidan ushlab qoldi va:

– To‘xta, Bill, – deb qichqirdi. – Nega muncha shoshmasang? Yo bizlarni tashlab juftagingni rostlamoqchisan deyman?

Martin to‘xtadi-da, kulib yuzini ularga o‘girdi. Orqalarida, ko‘cha fonuslarining charog‘on shu‘lalari ostida odamlar daryodek oqib kelardi. Martin hozir turgan yer bir qadar qorong‘i edi, shuning uchun ham u o‘zi panada turib, agar Ruf shu yerdan o‘tgudek bo‘lsa, uni ko‘rishi mumkin edi. U albatta shu yo‘ldan o‘tishi muqarrar edi, negaki uning uyiga shu yo‘ldan borilardi.

Martin qora ko‘z qizga ishora qilib, uning hiringlab turgan dugonasidan:

– Uning oti nima? – deb so‘radi.

– O‘zingiz so‘rayvering, – dedi u piqirlab kulib.

– Xo‘sh, otingiz nima? – deb so‘radi yigit qora ko‘z qizga o‘girilib.

– O‘zingizning otingizni aytmadingiz-ku men-ga! – deb e‘tiroz bildirdi qiz.

– O‘zingiz so‘ramadingiz-da, – dedi Martin jil-mayib, – lekin topdingiz. Mening otim chindanam Bill! Rost, rost!

– Qo‘ysangiz-chi! – dedi qiz fusunkor va osh-kora ehtirosli nigoh bilan yigitga uzoq tikilib. – Yo‘q, rostdanmi? Ayta qoling!

Keyin qiz yana g‘amza qildi. Uning bu qarashi-da asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan butun xotinlik tabiati aks etardi. Shuning uchun Martin bu yog‘i nima bo‘lishini bilardi: endi tavoze bilan, qo‘rqa-pisa chekina boshlaydi-yu, lekin Martin-dagi ta‘qib etuvchi otashin ehtiros so‘na bosh-lashi bilan hujumga o‘tishga shay bo‘lib turadi. Har ne bo‘lganda ham, erkak emasmi, qizning

dilbar chiroyiga befarq qaray olmasdi, keyin, qizning ehtirosli nigohlari Martinning izzat-nafsi-ga xush yoqardi. O, bu qizaloqlarni yaxshi bilar, ularni juda mukammal o'rgangan edi! Ular shu tabaqa qizlarining eng dilbar va eng yoqimtoylari edi. Og'ir mehnat bilan kun ko'rishga odatlangan va o'z navozishlarini pulga sotmaydigan bu takabbur qizlar, ertangi hayotga parvo qilmaslikka va najotsiz qotib qolgan mehnatni yoki yaxshi haq to'lanadigan-u, lekin dahshatli yo'lni, axloqiy tushkunlik yo'lini tanlash muddatini orqaga surishga urinib, bu hayot sahrosida ozgina bo'lsa ham baxtli kun kechirishni orzu qilardilar.

– Bill, – deb javob qildi yana Martin. – Xudo haqi! Otim Bill, vassalom.

– Hazillashyapsizmi? – qayta so'radi qiz.

– Hecham Bill emas-da, – deb gapga aralashdi ikkinchi qiz.

– Siz qayoqdan bilasiz? Meni hech qachon ko'rmagansiz-ku.

– Ko'rmagan bo'lsam nima qipti. Yolg'on gapirayotganingizni shundoq ham bilib turibman!

– Xo'sh, nima, Billmi? – deb so'radi birinchi qiz.

– Mayli, Bill bo'la qolsin, – dedi Martin samimiyyat bilan.

Qiz uning yelkasidan ushlab olib, zavq bilan silkidi.

– Yolg'on gapirayotganingizni biluvdim. Shunday bo'lsa ham durust yigit ko'rinasiz.

Martin qizning paypaslayotgan qo'lini siqdi va uning kaftida o'ziga tanish bo'lgan chaqa va chandiq izi borligini sezdi.

– Konserva zavodidan ketganingizga ancha boʻldimi? – deb soʻradi u.

– Siz qayoqdan bilasiz? Avliyo boʻlmang tagʻin! – deb chinqirib yuborishdi ikkala qiz.

Martin qizlar bilan boʻlar-boʻlmas siyqa hazil-huzul gap qilib turarkan, birdan xayolan koʻz oldida asrlar hikmatini jamlagan kutubxonaning koʻp qavatli kitob javonlari namoyon boʻldi. Yigit bemavrid koʻziga koʻringan bu manzaradan achchiq kulib qoʻydi va yana shubhalar girdobiga gʻarq boʻldi. Lekin oʻzi safsatabozlik va xayol surish bilan band ekan, koʻchadan oʻtayotgan odamlar oqimini kuzatishni qoʻymadi. Mana nihoyat, Martin fonuslarning yorugʻ nurida uni koʻrib qoldi, qiz akasi bilan koʻzoynak taqqan notanish yigit oʻrtasida kelardi. Martinning yuragi urishdan toʻxtadi. Bu damni u uzoq kutgan edi. U qizning viqorli boshi atrofida allaqanday yengil va nafis bir narsa borligini, sarvdek tik qomatini, xironomon odim otishini, koʻchadan oʻtib ketayotgan chogʻda zoʻr nazokat bilan yubkasini xiyol koʻtarishini koʻrishga ulgurgan edi. Mana, u oʻtib ketdi, Martin esa fabrikada ishlaydigan bu ikki qiz bilan qolib, ularning tuzukroq yasanish uchun zoʻr berib uringanlari sezilib turgan koʻylaklarining bichimiga, arzon botinkalariga, arzon tasmalariga, dagʻal barmoqlariga taqilgan arzon uzuklariga tikilib turardi. Kimdir uning qoʻliga turtdi, shunda u:

– Uxlamang, Bill. Sizga nima boʻldi oʻzi? – degan ovozni eshitdi.

– Menga gapirdingizmi? – deb soʻradi Martin.

– Shunday, oʻzim, – dedi qora koʻz qiz boshini bir silkib qoʻyib. – Shunchaki xayolinga bir narsa keldi...

– Nima?

– Agar unga ham, – deb qiz dugonasiga ishora qildi, – bironta yigit topsangiz yomon boʻlmasdi, keyin qahva ichganimi, yo muzqaymoq yeganimi, biron joyga borardik.

Birdan Martinning koʻngli aynib, allanechuk behuzur boʻlib ketdi. Ruf haqidagi xayollardan bu mavjud narsalarga oʻtish ancha mushkul boʻlgan edi. Bu qizning behayolik bilan ochiqdan-ochiq oʻziga chorlayotgan koʻzlari yonida Martin birdan Rufning nur taratib turgan shahlo koʻzlarini, yaʼni, nihoyatda olis begʻubor fazodan unga nigoh tashlab turgan sanamning koʻzlarini koʻrib qoldi. Shunda u oʻz vujudida qudratli kuch paydo boʻlganini sezdi. U bularning hammasidan yuksakda edi. Hayot Martin uchun orzu-istaklari yigitlar-u muzqaymoqdan nariga oʻtmaydigan mana bu qizlardan koʻra buyukroq narsa edi. Aslini olganda, u ilgari ham xayolan alohida sirli hayot kechirardi. U baʼzida fikrlarini boshqalar bilan oʻrtoqlashishga urinib koʻrardi, lekin shu choqqacha fikrlariga tushuna oladigan biron-ta ham ayolni, nainki ayolni, erkak kishini ham uchrata olmadi. U oʻz fikrlarini ochiq soʻzlagan paytda gapini tinglayotganlar unga taajjublanib qarardi. Hay mayli, modomiki, uning fikrlari oʻz atrofidagi odamlarga yetib bormas ekan, demak, uning oʻzi ham ulardan yuksakroqdadir. Oʻzini kuchli his qilish Martinga quvonch bagʻishlard; u mushtlarini qisdi. Bas, hayot uning uchun muhim narsa ekan, u ham hayotdan koʻproq neʼmat talab qilishga haqlidir, lekin faqat bu yerda, mana bu odamlar qurshovida emas, albat-

ta. Bu qora ko'zlar Martinga hech narsa baxsh etolmaydilar. Bu nigohlarda qanday orzular aks etishini Martin bilardi – bu ko'zlar muzqaymoq va yana ba'zi bir narsalarni orzu qilardi, xolos. Holbuki, Rufning samoviy nigohi Martin intilgan jamiki narsalarni va yana son-sanoqsiz boshqa narsalarni va'da etayotgan edi. U ko'zlar kitoblar, suratlar, go'zallik va hamohanglik, oliyjanob va nafosatli hayot va'da qilardi. Martinga tikilib turgan qora ko'zlarda aks etayotgan fikrlar esa unga butun tafsiloti bilan ayon. Bu nigoh bamisoli soat mexanizmi edi-yu, Martin uning ichidagi har bir murvatni mushohada qila olardi. Bu ko'zlar kishini jondan bezdirib, oqibati qabristonga eltuvchi qabih, razil erkaklar sari choralardi. U samoviy nigoh esa aql bovar qilmaydigan sirlarni, boqiy hayot mo'jizalarini tahlil qilishga choralardi. U nigohda Martin qiz qalbining, shuningdek, o'z qalbining ham aksini ko'rardi.

– Dasturilamalda bitta xato o'tibdi, – dedi Martin baland ovoz bilan, – bugun men bandman.

Qiz hafsalasi pir bo'lganini yashirmay, achitib dedi:

– Balki, kasal yotgan do'stingizni borib ko'rmoqchidirsiz?

– Yo'q, nega endi... – Martin tutilib qoldi, – bir qiz bilan uchrashishim kerak.

– Rost aytyapsizmi? – deb so'radi qiz jiddiy ohangda.

Yigit uning ko'ziga tikilib turib javob berdi:

– O'lay agar, rost. Lekin biz boshqa safar uchrashishimiz mumkin. Har holda, otingiz nima o'zi? Qayerda turasiz?

– Otim Lizzi, – deb javob qildi qiz Martinni qoʻltiqlab olarkan, uning pinjiga kirib. – Lizzi Konolli. Uyim Market-strit bilan Beshinchi koʻchaning muyulishida.

Ular xayrlashishdan oldin yana bir necha daqiqa gaplashib turishdi. Martinning toʻgʻri uyga borgisi yoʻq edi. U tanish daraxt oldiga borib, uning derazasi tagida, oʻzi odatlangan yerda turdi va hayajon bilan pichirladi:

– Men siz bilan uchrashgani keldim, Ruf. Boshqa hech kim bilan uchrashishni istamayman.

YETTINCHI BOB

Martinning Ruf bilan tanishganiga bir hafta boʻldi, lekin Martin hamon uning oldiga borishga jurʼat eta olmasdi. Baʼzida u borishga juda shaylansa ham, har safar taraddudga tushib qolardi. Qancha vaqt oʻtgandan keyin qiznikiga borish odobga muvofiq ekanligini u bilmasdi, ayni vaqtda, unga buni tushuntiradigan odam ham yoʻq edi, Martinning oʻzi esa tuzatib boʻlmaydigan xatoga yoʻl qoʻyishdan qoʻrqardi. U avvaliga hamma ulfatlari bilan munosabatni uzdi, eski odatlarini ham tark etdi, ammo uning hali yangi doʻstlari yoʻq edi, shunga koʻra, faqat kitob mutolaa qilish bilan kifoyalanardi. Shu qadar koʻp mutolaa qilardiki, oddiy odam koʻzlari allaqachon bunday ogʻir vazifaga bardosh bera olmagan boʻlard. Lekin u koʻzlari oʻtkir, jisman baquvvat yigit edi. Bundan tashqari, u hanuzgacha mujarrad kitobiy tafakkurlardan bexabar holda yashagan edi, uning miyasi bamisoli qoʻriq yerga, ekin bita-

digan serunum tuproqqa o'xshardi. U ilm olib charchamagan edi, shuning uchun ham endi kitobiy hikmatlarga astoydil yopishib oldi.

Haftaning oxirida – Martinga oradan bir asr vaqt o'tganday tuyuldi – avvalgi hayot va mavjud muhitga bo'lgan avvalgi munosabat shunchalik yiroqlashib ketgan edi. Lekin hamma vaqt unga tayyorgarligi yetarli emasligi xalaqit berardi. Negaki ko'p yillar davomida maxsus mashg'ulotlar orqali tayyorgarlik ko'rishni talab etuvchi kitoblarni mutolaa qilardi. Bugun u qadimgi dunyo falsafasi, ertaga eng yangi falsafaga doir kitoblarni o'qirdi, natijada miyasi g'ovlab ketardi. Iqtisodiy ta'limotga doir asarlarni o'qiganda ham shu ahvolga tushdi. U kutubxonadagi bir kitob javonining o'zida Karl Marksning ham, Rikardonning ham, Adam Smitning ham, Millning ham asarlarini uchratdi, ammo ulardan birining Martin uchun mavhum bo'lgan dasturlari ikkinchisining da'vosini rad etmasdi. U butunlay gangib qoldi, shunday bo'lsa ham hamma narsani bilishni istardi. U iqtisod, sanoat va siyosat masalalariga qiziqardi. Bir kuni u Siti Xoll – parkdan o'tib keta turib, besh-olti nafar kishining atrofini o'rab olgan olomonga ko'zi tushdi; o'rtadagi odamlar, chamasi, qizg'in mubohasa bilan mashg'ul edilar. Martin yaqinroq bordi va umrida birinchi marta o'ziga notanish bo'lgan xalq faylasuflarining so'zini eshitdi. Bahslashayotganlardan biri – darbadar, ikkinchisi – kasaba uyushmasi tashviqotchisi, uchinchisi – yuridik fakultet talabasi, qolganlari – munozaraga ishqiboz ishchilar edi. Martin bu yerda birinchi marta

anarxizm, sotsializm, yagona soliq to'g'risidagi bahslarni eshitdi, ijtimoiy falsafaning bir-biriga zid turli tarmoqlari mavjudligini bildi. U o'zining qashshoq ilm xazinasiga hali kirmagan fanlar olamiga xos, ammo o'zi uchun hali notanish bo'lgan yuzlab atamalarni eshitdi. Shunga ko'ra u mubohasaning mag'zini chaqa olmas va faqat g'alati so'zlar bilan ifoda etilgan g'oyalarni o'z fahm-farosati bilan ilg'ab olardi. Bahslashuvchilar orasida restoranda ishlovchi qora ko'zli lakey-teosof⁶, novvoylar kasaba uyushmasining a'zosi – agnostik⁷, o'zining jamiki mavjud narsa adolatli degan nazariyaga asoslangan ajoyib falsafasi bilan hammani mot qilgan allaqanday chol va fazo haqida, ota atom va ona atom haqida mufassal muhokama yuritayotgan yana bir chol bor edi.

Bu muhokamalardan Martin Idenning miyasi g'ovlab ketdi va xotirasida qattiq o'rnashib qolgan o'nlab so'zlarning ma'nosini aniqlab bilgani kutubxonaga shoshildi. U kutubxonadan qaytayotganida qo'ltig'ida to'rtta qalin kitob bor edi. Bular Blavatskaya xonimning «Maxfiy ta'limot» asari, shuningdek: «Taraqqiyot va qashshoqlik», «Sotsializmning mohiyati», «Din va ilm urushi» degan kitoblar edi. Baxtga qarshi, Martin mutolaani «Maxfiy ta'limot»dan boshladi. Kitobning har bir satriida unga notanish son-sanoq-

⁶ Teasof – muroqaba yo'li bilan xudoni bilish mumkin degan diniy-mistik ta'limot namoyandasi.

⁷ Agnostik – obyektiv dunyoning tub mohiyatini anglash mumkin ekanligini inkor qiluvchi idealistik falsafiy ta'limot namoyandasi.

siz soʻzlar uchrardi. U karavotida oʻtirarkan, kitobdan koʻra lugʻatga koʻproq qarardi. Notanish soʻzlar shu qadar koʻp ediki, birini eslab qolsa, ikkinchisi yodidan koʻtarilardi va yana lugʻatdan axtarishga tushardi. U yangi soʻzlarni alohida bir daftarga yozib borishga ahd qildi va xiyol vaqt oʻtar-oʻtmas daftarning yigirma betini toʻldirib qoʻydi. Lekin baribir hech nimaga tushuna olmadi. U ertalabki soat uchgacha oʻqidi; miyasi aynib ketdi-yu, lekin oʻqiganlaridan bironta ham muhim fikrning magʻzini chaqa olmadi. U boshini kitobdan koʻtargan edi, hujraning devorlari ham, shifti ham xuddi toʻlqin paytidagi kema kabi chayqalayotganday tuyuldi. Shunda soʻkinib, «Maxfiy taʼlimot»ni uloqtirib tashlab, chiroqni oʻchirdi va uxlamochi boʻldi. Qolgan uchta kitob oldingisidan beshbattar edi. Martinning miyasining mazasi yoʻq yoki zehni past deb boʻlmasdi, u bu kitoblarda yozilgan hamma narsalarni oʻzlashtira olishi mumkin edi, ammo fikr yuritishga hali odatlanmagan, lugʻati qashshoq edi. Nihoyat, shu narsaga tushundi-da, bir qancha vaqtgacha, to notanish soʻzlarning hammasini yod bilib olmaganimcha faqat lugʻat oʻqiyman, degan fikr bilan oʻzini yupatib yurdi.

Martin uchun birdan-bir tasalli beradigan narsa poeziya edi; har bir misrasi tushunarli boʻlgan shoirlarning sheʼrlarini zavq bilan oʻqirdi. U goʻzallikni yaxshi koʻrardi, sheʼriyat esa goʻzallikka boy edi. Poeziya unga xuddi musiqa singari qattiq taʼsir etardi va sezdirmasdan uning aqlini boʻlgʻusi ogʻir ishlarga tayyorlar edi. Uning xotira sahifalari top-toza edi, shuning uchun ham

u she'rlarni misrama-misra osonlik bilan yodlab oldi, tez orada kitoblarning jonli satrlari ohangidan lazzatlanib, butun-butun she'rlarni yoddan o'qiy boshladi. Bir kun u tasodifan Geylining «Klassik afsonalar»ini, Bulfinchning «Afsona asri»ni topib oldi. Nodonlik zulmatini birdan porloq nur yorib o'tganday bo'ldi, shundan boshlab, uning she'riyatga bo'lgan ishtiyoqi yana ortdi.

Stol yonida o'tirgan odam Martinni tanib olgandi, u bilan samimiy gaplashar, Martin kutubxonaga kelganda unga do'stona bosh silkitib qo'yardi. Shuning uchun ham Martin bir kun dadil ish ko'rishga bel bog'ladi. Uyiga olib ketish uchun bir necha kitob oldi va kutubxonachi uning obuna daftarchasiga muhr bosayotganida Martin g'o'ldirab dedi:

– Menga qarang, sizdan bir narsani so'rasam maylimi?

Kutubxonachi jilmaydi va unga dalda berayotganday bosh irg'adi.

– Bordi-yu, siz yosh bir ledi bilan tanishib qoldingiz-u, u sizni uyiga taklif qildi... shunday qilib... qachon borsa bo'ladi unikiga?

Martin hayajondan terga botgan yelkasiga ko'ylagi yopishib qolganini sezdi.

– Menimcha, istagan vaqtingizda borishingiz mumkin, – deb javob qildi kutubxonachi.

– Yo'q, siz tushunmayapsiz, – deb e'tiroz bildirdi Martin. – U qiz... gapning po'skallasi, uyida bo'lmasligi mumkin. U universitetda o'qiydi.

– Unda, boshqa safar kirasiz.

– Ochig'i, gap bunda ham emas, – deb e'tirof etdi Martin nihoyat, hamsuhbatining marha-

matiga sig'inishga ahd qilib, – bilasizmi, men od-diy bir matrosman, kiborlar jamiyatiga hali ur-cha odatlanmaganman. U qiz menga sira o'xshamaydi, men ham unga o'xshamayman. Tag'in meni jinnilik qilyapti deb o'ylamang, – deb u bir-dan o'z so'zini o'zi bo'ldi.

– Yo'q, yo'q, nima deyapsiz, – deb kutubxona-chi unga dalda berdi. – To'g'ri, sizning iltimosin-giz ma'lumot beruvchi sho'baning salohiyatiga oid emas, lekin men sizga bajonu dil ko'mak-lashaman.

Martin unga zavq bilan tikilib qoldi.

– Eh, qani endi men ham gapni shunaqa do'ndirsam, qoyilmaqom bo'lardi-da, – dedi u.

– Afv etasiz...

– Aytmoqchimanki, sizga o'xshab men ham shunday kelishtirib nazokat bilan gapira olsam, qanday yaxshi bo'lardi.

– A! – deb xayrixohlik bildirdi kutubxonachi.

– Qachon borgan yaxshi? Kunduzimi? Lekin ovqat vaqtiga to'g'ri kelmaslik kerak-a? Yo kech-qurun borgan ma'qulmi? Balki, yakshanba kuni borgan yaxshidir?

– Sizga bir maslahat beray, – dedi kutubxona-chi kulimsirab, – siz unga telefon qilib so'rab ko'ring.

– Ha, rost-a! – deb qichqirib yubordi Martin, so'ng kitoblarini yig'ishtirib olib, eshik tomon yurdi.

U ostonaga borganda o'girilib so'radi:

– Yosh ledi bilan, masalan, miss Lizzi Smit bi-lan gaplashganingizda unga qanday murojaat qi-lish kerak: miss Lizzi debmi yo miss Smit debmi?

– «Miss Smit» deb ayting, – dedi kutubxonachi qat’iy ishonch bilan, – to u bilan yaqinroq tanishib olmaguningizcha «miss Smit» deb murojaat qiling.

Shunday qilib, masala hal bo’lgan edi.

Martinning: «Sizdan olgan kitoblarni qachon qaytarib berishim mumkin», – deb qo’rqa-pisa bergan savoliga, telefon orqali Ruf:

– Xohlagan paytingizda kelavering. Tushki ovqatdan keyin doim uydaman, – deb javob qildi.

Martinni eshikda qizning o’zi qarshi oldi va uning ayollarga xos o’tkir ko’zlari yigitning dazmollangan shimining tekis qatini ham, uning qiyofasidagi allaqanday aniqlab bo’lmaydigan umumiy o’zgarishni ham payqadi. Lekin Martinning yuz ifodasi ajoyib edi. Go’yo bu sog’lom yigitning kuch-quvvati oshib-toshib ketayotganday va o’sha kuch oqimi to’lqinlari Rufga ham kelib urilayotgandek tuyulardi. Qiz o’z dilida yana uning pinjiga kirish, badanining haroratini his qilish ishtiyoqi uyg’onganini sezdi, shu bilan birga, bu yigit yonida bo’lganida o’zi bundan qanchalik kuchli ta’sirlanishini payqab, yana hayratga keldi. Martin esa qizning qo’lini siqib ko’risharkan, o’z navbatida, yana vujudi huzur bilan jimirlab ketganini sezdi. Ular o’rtasidagi farq shu ediki, qiz o’z hayajonini aslo sirtga chiqarmasdi, Martin esa tirnog’ining uchigacha cho’g’dek qizarib ketgan edi.

U Rufning orqasidan avvalgi safargidek beso’naqay chayqalib bordi. Lekin ular mehmonxonaga kirib joylashib o’tirishgandan keyin, Martin hech kutilmaganda o’zini birmuncha er-

kin his qila boshladi. Qiz har turli vosita bilan uning qalbida yana shu bamaylixotirlik hissini uyg'otishga urinar, uyg'otganda ham, shunday nazokat va ehtiyotkorlik bilan harakat qilardiki, natijada u Martinga yana yuz karra jozibaliroq bo'lib tuyuldi. Avvaliga ular kitoblar haqida, Martinning zavqini keltirgan Suinbern, u tushuna olmagan Brauning haqida suhbatlashishdi. Ruf suhbat mavzuini zarur tomonga burarkan, qanday qilib bu yigitga yordam bersam ekan, deb o'ylardi. Birinchi dafa uchrashganlaridan beri u bu to'g'rida tez-tez o'ylab turardi. Ruf unga albat-ta yordam berishni orzu qilardi. Qiz unga mehribonlik qilishni istar, unga achinardi, lekin bu achinish hissida kishini tahqirlovchi hech narsa yo'q edi: bil'aks bu – Ruf ilgari hech qachon boshidan kechirmagan, qariyb onalik hissiga yaqin bir tuyg'u edi. Chindan ham, bu oddiy achinishga hech o'xshamasdi, chunki qizni o'ziga maftun qilayotgan kishining kuch-qudrati shu qadar zo'r ediki, u yaqinlashishi bilan qiz qalbida g'ayriixtiyoriy qo'rquv hissi uyg'onar, ajib xayol va hislardan yuragi gurs-gurs ura boshlardi. Qiz ko'nglida yana uning bo'ynidan quchoqlash yoki uning yelkasiga qo'llarini qo'yish orzusi tug'ildi. U hali ham buni istaganidan ilgarigidek xijolat tortardi-yu, lekin endi bu hisga ko'nikib qolgan edi. Endi nish otib kelayotgan muhabbat shunday shakl kasb etishi qizning xayoliga ham kelmagan edi. Shuningdek, uni qamrab olgan tuyg'uni muhabbat tuyg'usi deb atash ham aqliga kelmagan edi. Nazarida, Martin ulkan imkoniyatlarga boy, zo'r iste'dodli shaxs sifatida uni shunchaki

qiziqtirgan-u, u Martinga nisbatan oddiy inson-parvarlik munosabatida edi.

Qiz o'zining yigitga ishtiyoqmandligini tushunmasdi, ammo yigitning ahvoli boshqacha edi. Martin Rufni sevishini bilardi; nainki sevishini, balki yana o'z hayotida shu paytgacha hech kimni va hech narsani Rufni qo'msagandek qo'msamagandi. U ilgari ham jamiki go'zalliklarni sevganidek, she'riyatni sevar edi, lekin Ruf bilan uchrashgandan so'ng, ko'z oldida ishq lirikasining bepoyon bo'stonidagi darvoza lang ochildi. Ruf unga Bulfinchdan ham, Geylidan ham ko'proq narsa baxsh etdi. Bundan bir hafta burun, chunonchi, mana bunday misra ustida bosh qotirib ham o'tirmasdi: «Muhabbat shaydosi – baxtiyor yigit bo'sa ola turib jon bergusidir», holbuki, endi bu so'zlar hech xayolidan ketmasdi. Bu so'zlardan xuddi eng ulkan kashfiyotdan zavqlanganday zavqlanardi; u Rufga tikilib o'tirarkan, uni o'pa turib, jon-jon deb o'lishga tayyorligi haqida o'ylardi. Shu bilan o'zini «muhabbat shaydosi» bo'lgan «baxtiyor yigit» deb his qilardi va bundan shunday faxrlanardiki, rit-sarlik lavozimiga muyassar bo'lganda ham, bu qadar faxrlanmagan bo'lardi. Mana, nihoyat, u hayotning ma'nosiga va nima uchun yashayotganiga tushundi.

Martin qizga tikilganda, uning gaplarini tinglaganda tetik mulohaza qila boshlardi. U qizning qo'lini siqib ko'rishganda olgan lazzatini eslab, yana shuni his qilishni istardi. Ahyon-ahyonda qizning dudoqlariga harislik bilan, hasrat bilan tikilardi. Vaholanki, bu hasratli boqish-

da beadablik va tahqiromuz hech qanday alo-
mat yo'q edi. Qiz so'zlayotganda dudoqlarining
har bir harakatini kuzatish unga benihoya zo'r
lazzat baxsh etardi; bu hamma ayol va erkak-
lardagidek oddiy dudoqlar emas edi. Bu dudoq-
lar tan va jondan yaratilmagan edi. Bu jismsiz
malikaning dudoqlari edi va bu dudoqlardan
bo'sa olish istagi ham, boshqa ayollarning labla-
rini ko'rganda uyg'onadigan o'pish istagiga aslo
o'xshamasdi. U jon-jon deb lablarini bu samoviy
dudoqlar bilan tutashtirardi-yu, lekin bu narsa
muqaddas sanamni o'pgan bilan barobar bo'lar-
di-da. U o'z qalbida sodir bo'layotgan fikr va mu-
lohalazalarni ajib bir tarzda qaytadan ko'rib chiqi-
shining boisiga hech tushuna olmayotgan edi va
shunga ko'ra, qizning jamoliga tikilgan chog'ida,
muhabbatga tashna bo'lgan har qanday erkak-
ning ko'zlari qanday yonsa, uning ham ko'zlari-
dan shunday o't chaqnayotganini tushunmasdi.
U o'z boqishlarining naqadar ehtirosli va mar-
dona ekanligini, qizning yuragiga qanchalik
kuchli g'ulg'ula solayotganini payqamasdi. Ruf-
ning benuqson ma'sumaligi Martinning hislarini
ma'naviy jihatdan boyitar va ularni sayyoralar
maskani bo'lmish sovuq iffat fazosiga yuksalti-
rardi. Martin o'z ko'zlari nurining g'oyibona
harorati qizning vujudiga singib, u yerda javob
o'tini alangalatayotganini bilsa edi, qattiq ta-
ajjublangan bo'lardi. Yigitning boqishidan uya-
lib, bezovta bo'lgan qiz suhbat paytida bir necha
bor gapidan adashib ketdi va parishon fikrlarni
zo'r-bazo'r qayta yo'lga soldi. Odatda, u juda ba-
maylixotir suhbat qilardi, endi esa, o'ziga nima

boʻlganini tushunmay, bunaqa gʻayrioddiy ham-suhbat bilan hech qachon gaplashmaganimdan shunday boʻlayotgandir, degan fikrga keldi. Ruf tabiatan juda taʻsirchan qiz, shuning uchun oʻzga muhit kishisi boʻlgan bu yigit uning yuragiga gʻulgʻula solayotgan boʻlsa, buning hech ajablanarli yeri yoʻq.

Ruf unga yordam berish yoʻlini oʻylardi va shunga koʻra, suhbatni shu mavzu ustiga koʻchirmoqchi boʻlgan edi, Martin undan oldinroq gap boshladi.

– Sizdan maslahat soʻramoqchi edim, – deb gap boshladi u va qizning: «Sizga qoʻlimdan kelganicha yordam berishga tayyorman», deb ayti-shi bilan, sevinganidan nafasi ogʻziga tiqilayozdi. – Esingizdami, men oʻtgan gal kitoblar haqida, shuning singari, boshqa har xil narsalar haqida gapirishni bilmayman, gaplarim hech bir-biriga qovushmaydi deb aytgan edim. Xullas, oʻshandan beri juda koʻp oʻyladim. Kutubxonaga qatnay boshladim, u yerdan har xil kitoblar oldim, lekin ularning hammasiga ham aqlim yetayotgani yoʻq. Balki hamma narsani eng boshidan boshlashim kerakdir? Hech qachon, ochigʻi, durustgina oʻqigan ham emasman. Men bolalik chogʻimdan ishlay boshlaganman, kutubxonaga esa endi qatnayapman, u yerda kitoblarni koʻzdan kechirdim, oʻqib koʻrdim. Qarasam, ilgari hech keraksiz kitoblarni oʻqib yurgan ekanman. Bilasizmi, bironta fermada yoki boʻlmasa paroxod kubrigida, masalan, sizning uyingizdagi singari kitoblar topilmaydi. U yerda kitobxonlik tamomila boshqacha, men ham xuddi ana

o'shanaqa kitobxonlikka odatlanganman. Holbuki, meni maqtanyapti demang, men ulfatlarimga o'xshamayman. Yo'q, men o'zimni boshqa matros va kovboylardan yuqori qo'ymoqchi emasman, men kovboy ham bo'lganman, lekin doimo kitobga ishqiboz edim, hamma vaqt qo'limga tushgan har qanday kitobni o'qib chiqardim, shuning uchun ham, nazarimda, mening miyam o'rtoqlarimning miyasidan boshqacha ishlaydiganga o'xshardi. Lekin gap bunda ham emas. Gap mana bu yoqda. Men hech qachon sizlarnikiga o'xshagan uyda bo'lgan emasman. O'tgan hafta bu yerga kelib sizni, onangizni, akalarinigizni, uyingizning shinamligini ko'rdim, hamma si ko'nglinga o'tirishdi. Men ilgari bunaqa hayot to'g'risida faqat kitoblarda o'qiganman, mana, kitoblarda yolg'on yozilmagan ekan. Menga yoqib qoldi. Endi shularning hammasiga muyassar bo'lishni orzu qildim, hozir ham orzu qilaman. Men sizning uyingizdagi kabi sof havodan nafas olishni istardim, hamma yoq kitoblar, suratlar va har turli chiroyli buyumlar bilan to'lishini, odamlarning sokin va ohista gapirishini, ozoda kiyinishini, niyatlari ham pok bo'lishini istardim. Men umrbod nafas olib kelgan muhit havosidan oshxona hidi, badbo'y spirt hidi anqiydi, haqorat va ijara haqi haqidagi mojarolar eshitilib turadi. O'shanda, siz onangiz oldiga borib, uni o'pdingiz, bu manzara ko'zimga shunaqangi chiroyli ko'rindiki, nazarimda, dunyoda bundan go'zalroq narsani ko'rmagan bo'lsam kerak. Ammo men umrimda oz narsa ko'rmadim, shuni aytib qo'ya qolay: men doimo boshqalarga nisbatan ko'proq

ko'radim. Men har narsani ko'rishni yoqtiraman, doimo yangi-yangi narsalarni ko'rsam deyman.

Lekin men aytmoqchi bo'lgan gaplar bular emas. Eng muhimi bu yoqda: men siz yashab turgan shu xonadon hayoti darajasiga ko'tarilishni istardim. Hayot – faqat mastlik, mushtlashish, og'ir mehnatdan iborat emas-ku, axir. Endi shunday savol tug'iladi: qanday erishish mumkin bunga? Nimadan boshlash kerak? Ishdan qo'rqmayman, gapning ochig'ini aytsam, ishda har qanday odamni yo'lda qoldirib ketaman. Faqat boshlab yuborsam bo'lgani, keyin kechasi-yu kunduzi tinmay ishlayman. Bu haqda siz bilan gaplashayotganim balki kulgili tuyulayotgandir. Bilaman, hadeb har xil savollar bilan sizni bezor qilishim yaxshi emas, lekin sizdan boshqa so'raydigan odamim yo'q, balki Arturdan so'rasam bo'larmidi? Ehtimol, uning o'ziga murojaat qilishim kerakmidi-a? Agar men...

U birdan jim bo'lib qoldi. Chindanam, Arturdan so'rashim kerakmidi, degan fikr va bu fikri orqali o'zini tentak qilib ko'rsatishi uni qo'rqitib yubordi. Ruf darrov javob bermadi. U Martinning g'aliz jumalari va sodda mulohazalarini uning ko'zlaridan o'qigan ma'no bilan bog'lash ustida bosh qotirayotgan edi. Bu qadar iqtidorli kuch aks etgan ko'zni Ruf hech qachon ko'rmagan. Uning qo'lidan hamma ish keladi, derdi ko'zlari, lekin bu hol so'zga no'noqligiga aslo yopishmasdi. Vaholanki, Rufning tafakkuri shu qadar o'tkir va murakkab ediki, u Martinning nutqidagi tabiiylik va samimiyligni chinakamiga qadrlay olmadi. Shunga qaramay, Mar-

tinning poyma-poy aytgan fikrlarida ham zo'rchuch mavjud edi. Rufning tasavvurida Martin oyoq-qo'lga solingan kishanni parchalab tashlashga urinayotgan pahlavondek tuyuldi. Qiz gapira boshlaganda, chehrasidan mehr nuri yog'ila boshladi.

– Sizga nima yetishmayotganini o'zingiz bilasiz, – dedi u, – ma'lumotingiz kam. Siz bir boshdan boshlasangiz bo'lardi – avval maktabni bitirib, so'ngra universitetda tahsil olishingiz kerak.

– Buning uchun pul kerak, – deb Martin uning so'zini bo'ldi.

– O, – deb yubordi qiz, – bu tomonini o'ylamabman! Lekin qarindosh-urug'laringizdan biron-tasi sizga ko'maklashib turolmaydimi?

Martin «yo'q» deganday boshini chayqadi.

– Ota-onam o'lib ketgan. Ikkita opam bor: bittasi uyli-joyli, ikkinchisi yaqinda turmushga chiqsa kerak. Akalarim birtalay, men kenjasi-man, lekin akalarim hech qachon hech kimga yordamlashmagan. Ularning hammasi allaqachon baxt axtarib, dunyoning turli tomoniga tarqalib ketishgan. Katta akam Hindistonda o'ldi. Ikkita akam hozir Janubiy Afrikada, uchinchisi kit ovlovchi kemada ishlaydi, to'rtinchisi sayyor sirk bilan kezib yuradi, u akrobat. Mana, men ham o'shalarning biriman. O'n bir yoshimdan – onam o'lgandan beri o'zim ishlab kun ko'rib kel-yapman. Shuning uchun ham hamma narsani o'zim, maktabsiz o'rganishim kerak, faqat nimanadan boshlashni bilsam bas.

– Birinchi galda, siz o'z nutqingizga e'tibor bersangiz yaxshi bo'lardi. Siz ba'zida bir oz noto'g'ri

(«juda yomon» demoqchi edi-yu, lekin tilini tiydi) gapirasiz.

Martinning peshanasi terlab ketdi.

– To‘g‘ri, ba‘zida siz tushunmaydigan so‘zlarni ham aytib yuboraman. Lekin men xuddi o‘sha so‘zlarni qanday talaffuz qilishni bilaman-da. Miyamda kitobdan o‘qib bilgan ba‘zi bir so‘zlar ham bor, holbuki, u so‘zlarni qanday aytishni bilmayman, shuning uchun ham ularni og‘zimga olmayman.

– Bu yerda gap faqat so‘zlar ustida emas, balki butun nutqni ravon tuzishda. Sizga ochig‘ini gapiraveraymi? Mendan xafa bo‘lmaysizmi?

– Yo‘q, aslo! – deb yubordi u, ichida qizning xayrixohligidan mamnun bo‘lib. – Boshlayve-ring! Bu gaplarni boshqa bironta odamdan eshitganimdan ko‘ra sizdan eshitganim yaxshi!

– Demak, bunday. Siz ko‘pincha jumlani noto‘g‘ri tuzasiz. Adabiy tilda ishlatilmaydigan iboralarni qo‘llaysiz. Sizning gaplaringizda tark etishingiz lozim bo‘lgan iboralarni ko‘p eshitdim. Lekin, yaxshisi, siz grammatikadan boshlagan-ingiz ma‘qul. Hozir sizga darslik olib kelib beraman.

Ruf o‘rnidan turganida, Martinning esiga xulq-odob qoidalari haqidagi kitobda o‘qigan bir qoida yodiga tushdi-yu, o‘rnidan beso‘naqay sapchib turdi, lekin shu zahotiyuq, meni uyga ketmoqchi deb o‘ylamasmikin tag‘in, deb qo‘rqib ketdi.

Ruf grammatika darsligini olib keldi, kursini uning kursisiga yaqin surib o‘tirdi, shu zahotiyuq Martin, unga ko‘maklashishim kerak edi, shekilli, deb o‘yladi. Qiz kitobni ochdi va ikkovla-rining boshlari bir-birlariga yaqinlashdi. Yaqin-

lik Martinni shu qadar hayajonga solgan ediki, qizning izohlariga tushunish mushkul edi. Lekin Ruf fe'llarni turlash sirini tushuntira boshlaganda, u dunyodagi hamma narsani unutib yubordi. U turlanish nimaligini hech qachon eshitmagan edi, nutqning sehrli qoidalarini tushunish uchun qo'yilgan bu birinchi qadam uni maftun etgan edi. U boshini kitobga yana pastroq egdi, shu choq birdan qizning sochlari uning yonoqlariga tegib ketdi.

Martin Iden umrida faqat bir marta hushini yo'qotgan edi, lekin, hozir ikkinchi marta hushimdan ketaman, deb o'yladi. Uning nafasi qaytib ketdi, yuragi esa hozir ko'kragini yorib, otilib chiqib ketadigandek qattiq ura boshladi. Ruf hech qachon bunchalik yaqin bo'lmagan edi unga. Bir lahzaga ularni ajratib turgan jar ustiga ko'prik tashlandi. Lekin Martinda yomon his uyg'onmadi. Ruf unga nuzul qilgani yo'q. Aksincha, Martin bulutlar osha fazoga parvoz qilib, Rufga yaqinlashdi. Uning muhabbati ilgarigidek, hali ham ilohiy ehtirom bilan limmo-lim edi. U qandaydir bir ibodatxonaning eng muqaddas go'shasiga kirib qolganday his qildi o'zini va go'yo elektr tokidek ta'sir etayotgan bu soch tolalaridan chetlanish uchun ehtiyotlik bilan boshini nari oldi. Lekin Ruf hech nimani sezmedi.

SAKKIZINCHI BOB

Oradan bir necha hafta o'tdi, Martin Iden esa hamon grammatikani o'rganar, xulq-odob qoidalari haqidagi qo'llanmani zo'r berib o'qir edi; u

e'tiborini o'ziga tortgan har bir kitobga jon-jahdi bilan tashlanardi. U avvalgi ulfatlaridan butunlay uzoqlashdi. «Nilufar»dagi qizlar unga nima bo'lganini tushunishmas va hadeb Jimdan uni surishtirishar, yigitlarning ko'pchiligi esa Raylinikida bo'ladigan olishuvga Martin qatnashmay qo'ygani xursand edilar. Kutubxona xazinasida u yana bir qimmatli narsa topdi. Grammatika unga til asosini ochgan bo'lsa, bu yangi kitob she'riyat qonun-qoidalaridan xabar berdi. U vaznlar, shakllar, she'riyat qonunlarini o'rganishga kirishib, o'zini shaydo qilgan bu nafosatning qanday yuzaga kelishini tushundi. Eng yangi ilmiy asardan birida poeziya, tasviriy san'at deb atalgan hamda bu nazariya adabiyotning eng yaxshi namunalaridan keltirilgan misollar bilan quvvatlangan edi. Martin bironta ham romanni bunchalik maroq bilan o'qimagan edi. Shuning uchun ham, ilm olish havasiga tushgan bu yigirma yoshli yigitning hali tesha tegmagan sof aqli, hamma narsani talabalarga xos bo'lmagan idrok va g'ayrat bilan o'zlashtirardi.

Martin o'zining o'tmish muhitiga uzoq ellar, dengizlar, kemalar, matroslar va buzuq xotinlar muhitiga nazar tashlaganda, u muhit, nazarida, juda kichik bo'lib tuyuldi; lekin shunga qaramay, o'sha muhit allaqaysi qirralari bilan Martin tomonidan endigina kashf etilgan yangi dunyoga tutashgan edi. Uning aqli har bir narsada beixtiyor mushtaraklik axtarardi; lekin bu ikki muhitning bir-biriga bog'liq ekanligini payqaganda, u taajjubda qoldi. U kitoblardan o'qib o'zlashtirgan oliyjanob fikr va tuyg'ular uni ma'naviy jihatdan

boyitar edi. Ruf va uning oilasi mansub bo'lgan kiborlar davrasida hamma erkak va ayollarning aynan shunday fikr va tuyg'u bilan yashashiga endi uning imoni komil edi. Shu choqqacha u qandaydir iflos botqoqda yashadi, endi esa tozalanib, oliy darajaga ko'tarilishni istardi. Bolalik va yoshlik yillaridayoq uni allaqanday noniq bir tashvish muttasil ta'qib etib kelardi. U allanarsalar ketidan quvib yurar, lekin to Rufni uchratmagunicha nimaning ketidan quvganini o'zi ham tushunmagan edi. Endi esa uning iz-tirobi oshdi, alami zo'raydi, u go'zallik, aql va muhabbat shaydosi bo'lganligini endi aniq va puxta tushundi.

Shu haftalar ichida Ruf bilan bir necha dafa uchrashdi, har bir uchrashuv unga ilhom bag'ishlardi. Ruf uning tilini va talaffuzini tuzatar, u bilan arifmetikadan mashg'ulot o'tkazardi. Lekin ularning suhbatlari faqat dars mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdi. U o'z hayotida juda ko'p narsalarni ko'rgan, idroki yetuk edi, shunga ko'ra, kasrlar, kub ildizlari, grammatik tahlil va fe'l turlanishlari bilan kifoyalanmasdi. Ularning suhbatlari tamomila boshqa mavzuga ko'chadigan damlar ham bo'lardi, ular Martin endigina o'qib chiqqan she'r haqida, hozir Ruf o'rganayotgan shoir haqida suhbatlashishardi. Qiz o'ziga yoqqan misralarni o'qib bergan paytlarda esa Martin cheksiz darajada huzur qilardi. U hech qachon, dunyoda hech bir ayoldan bunday ovoz eshitmagan edi. Qizning yolg'iz tovushining o'zidan Martinning muhabbati chamanday yashnar, uning har bir so'zidan a'zoyi badani jimirlab

ketardi. Qiz ovozidagi musiqiylik, uning ohangdorligi – madaniyatli va oliyjanob kishilarga xos boʻlgan bu sifat uni maftun qilardi. Martin uning ovozini eshitarkan, beixtiyor yovvoyi qabila ayollarining boʻgʻiq ovozlari, portdagi fohishalarning shangʻillab gapirishini, fabrikalarda ishlovchi, oʻz sinfiga mansub xotin-qizlarning yoqimsiz ovozlari esladi. Shu zahotiyiq uni xayol surib ketib, tasavvurida turli ayollarning qiyofalari birin-ketin namoyon boʻlaverdi, Martin ularni Ruf bilan taqqoslarkan, qizni qurshagan yorqin shuʻla gardishi yana ham porloq nur socha boshladi. Lekin u Rufning ovozigagina shaydo emas edi, Ruf oʻzi oʻqiyotgan kitobning tub mohiyatiga chuqur tushunishini, shoirona fikr goʻzalligiga oʻz munosabatini darhol bildirishini Martin zoʻr mamnuniyat bilan eʼtirof etardi. Qiz unga «Malika» kitobidan koʻp oʻqirdi, bunday paytlarda Martin koʻpincha uning koʻzlarida yosh paydo boʻlganini koʻrardi – qiz goʻzallikni shu qadar chuqur his qilardi. Bunday paytlarda Martin oʻzida butun olamni mushohada qila olish darajasiga koʻtarilgan ilohiy kuch borligini his qilardi; u qizga tikilib, uning ovozini eshitarkan, goʻyo hayotning oʻzini mushohada qilayotganday va uning eng maxfiy sirlarini oʻrganayotganday boʻlard. Soʻng, hissiyotning shu choʻqqisiga chiqib olgach, muhabbat shu ekanligini va uning jahonda eng buyuk narsa ekanligini tushuna boshlard. Martinning bir vaqtlar oʻz boshidan kechirgan quvonchli kunlari – aysh-ishratlar, xotinlar navozishi, qimor oʻyinlari, jismoniy kurashga havas uning qalb koʻzi oldidan birin-ketin oʻta boshladi, lekin bularning

hammasi, hozir uni qamrab olgan hissiyotlar oldida nihoyat darajada qabih va olchoq ko'rinardi.

Ruf yuz berayotgan hodisalarning mohiyatiga tushunmasdi. Ishq-muhabbat bobida hali hech qanday tajribasi yo'q edi. U faqat kitobdan o'qigan narsalarnigina bilardi, kitoblarda bo'lsa muallifning ijodiy xayoli har doim oddiy hayot hodisalarini qanday bo'lsa shunday emas, balki go'zal qilib tasvirlardi; bu beo'xshov matros qizning qalbiga uchqun tashlaganini, bu uchqun bir kun kelib, uni kuydirib yuboradigan yorqin alangaga aylanishini xayoliga ham keltirmasdi. Shu paytgacha bu alanga biron marta ham uni kuydirgani yo'q edi. Uning muhabbat haqidagi tasavvuri sof mujarrad holida, «muhabbat» so'zining o'zi esa unga yulduzlarning munis shu'lasini, dengiz sathining xiyolgina jimirlab, mavjlanib turishini, mayin yoz tongidagi sarin shabnamni eslatardi. Uning tasavvurida muhabbat – mehribonlikdan, gullarning muattar hidi bilan to'lgan, osoyishta va sokin xilvat go'shada sevikli yoriga xizmat qilishdan iborat edi. Muhabbat po'rtanalaridan, uning yor qalbini kuydirib kul sahrosiga aylantiruvchi dahshatli haroratidan qizning xabari yo'q edi. U dunyoda va o'z vujudiga yashiringan qudratli kuchlar haqida hech nima bilmas, hayotning teran sirlari xom xayol pardasi ortida yashirinib yotardi. Otasi bilan onasi o'rtasidagi er-xotinlik munosabatini u ishqiy qovushishning eng muammal namunasi deb bilardi, shuning uchun ham, bir kun kelib, hech qanday hayajonsiz va iztirobsiz, o'z sevgan kishim bilan xuddi shun-

day osoyishta hayot kechira boshlayman, deb o'sha kunni xotirjamlik bilan kutib o'tirardi.

Shunday qilib, u Martin Idenga o'zi uchun yangi va g'ayrioddiy, ajib bir maxluq deb qarar va Martin uning dilida uyg'otgan o'sha g'ayritabiiy hislarni shu yangilikdan, shu g'ayrioddiylikdan deb bilardi. Bu tabiiy hol edi. Qiz hayvonot bog'ida vahshiy hayvonlarni yoki bo'ron paytida daraxtlarning egilishini ko'rganda, chaqmoq chaqinidan seskanib ketgan paytlarida ham, aynan shunday narsani his qilardi. Bu singari tabiat hodisalarida allaqanday samoviy qudrat mavjud edi, shubhasiz, Martin ham shunday samoviy qudratdan xoli emas edi. U qizga dengiz nafasini, bepoyon yerlarning nash'asini olib keldi. Tropik o'lkalar quyoshining shu'lasini uning yonoqlarida aks etar, metin mushaklarida esa ibtidoiy hayot qudrati bor edi. Martinning a'zoyi badanini yamoq va chandiqlar qoplagan edi; bularga u Ruf tasavvuridan chetda, qizga notanish yovuz kishilar va yovuz hodisalar dunyosida yo'liqqan edi. U hali rom qilinmagan yovvoyi odam edi, shuning uchun ham Ruf yigitning unga itoat etishidan pinhona mamnun edi. Xullas, qizning dilida bu yovvoyi odamni qo'lga o'rgatish istagi uyg'ondi. Bu ongsiz istak edi, shuning uchun ham, Martinni o'z otasi, ya'ni, Ruf kamolot namunasi deb hisoblagan odam kabi bo'lishini istagani xayoliga ham kelmasdi. Qiz qalbida Martin uyg'otgan jo'shqin samoviy hissiyot muhabbat ekanligini, ya'ni, bir-biriga talpingan erkak bilan ayol uchun ikki dunyoni bir qadam qiluvchi, kuyikish davrida kiyiklarni bir-birini o'ldirishga majbur etuvchi

va borliq jonivorlarni bir-biri bilan qovushishga undovchi qudratli kuch – muhabbat ekanligini olamdan xabarsiz qiz tushuna olmasdi.

Martin har bir narsani juda tez o'zlashtirardi, bu hol Rufni nihoyat darajada ajablantirar va qiziqtirardi. Qiz Martinning bu qadar iste'dodli ekanini xayoliga ham keltirmagan edi; bu iste'dod bamisoli serhosil yerga ekilgan gul singari kun sayin ko'proq ochila boshladi. U Martinga Brauningni o'qib berganida, yigit deyarli har misrani, har qaysi mavhum jumlaning hech kutilmagan tarzda sharhlab berib, qizni taajjubga qo'yardi. Hayotni va odamlarni yaxshi bilgani uchun uning bergan izohlari ko'pincha qizning izohlaridan to'g'riroq chiqardi, holbuki, Ruf buni tushunmasdi. Uning nazarida, Martin juda sayoz muhokama qilayotganday tuyular, shunga qaramay, yigitni fazoyi bepoyonga olib ketuvchi dadil fikrlari ba'zan qizni qiziqtirib qolardi, lekin qizning o'zi bunday paytlarda uning orqasidan quvib yetisha olmas, faqat allaqanday noma'lum kuch bilan to'qnashib ketib, a'zoyi badanini titroq bosardi. Ba'zida Ruf unga royal chalib berardi, shunda kuy Martin vujudining shunday teran yerlarigacha borib yetardiki, Ruf bu teranlikni hech qachon o'lchab ololmasdi. G'uncha quyosh shu'lasiga talpinib ochilganidek, Martin ham musiqa sadolaridan tamomila ochilib ketardi; u tez kunda matroscha raqs musiqalari-ning do'pir-do'pir maqomlarini, quloqni kar qilgudek chinqiriq kuylarini unutib yubordi va Ruf yaxshi ko'radigan klassik kuylarni qadrlashga o'rgandi. Lekin, har holda, unda Vagnerga nis-

batan qandaydir oddiy xalqqa xos ishqibozlik paydo bo'lgan, bu bastakorning «Tangeyver»ga yozgan uvertyurasi esa, ayniqsa, Rufning izohotidan so'ng, unga judayam yoqib qolgan edi. Bu uvertyura go'yo uning hayotini aks ettiruvchi lavhadek edi. Uning o'tmish hayoti muhabbat ma'budasi Veneraning maskani – g'or haqidagi kuyda ifodalangan edi, Rufni esa u ziyoratchilar to'dasiga qo'shib qo'ygan edi; shuning uchun ham, Vagner taronalari uni yaxshilik va yovuzlik muttasil kurash olib boradigan ruh olamiga olib ketayotganday tuyulardi.

Ba'zan Martin unga savol tashlab qolardi, shunda birdan qiz o'zi ham musiqani noto'g'ri tushunadiganday his qila boshlardi. Ammo u ashula aytgan vaqtda Martin hech nima so'ramasdi. U sukut saqlagan holda qizning beg'ubor baland ovoziga zo'r ehtirom bilan quloq solarkan, nazarida, qizning qalb taronalari eshitayotganday bo'lardi. Yana bunga qarama-qarshi o'laroq, fabrika qizlarining chiyildoq qo'shiqlarini va port qovoqxonalaridagi mast shallaqa xotinlarning xirqiroq ovoz bilan aytgan qo'shiqlarini eslardi. Ruf Martinga royal chalib, ashula aytishni yoqtirardi. Aslini olganda, bunday muloyim va yumshoq inson qalbini umrida birinchi mar-ta uchratishi edi; Martinning qalbini muayyan shaklga solishning o'zi kishiga lazzat bag'ishlardi, Ruf, Martinning qalbini shaklga solyapman, deb o'ylar va bu ishni eng ezgu niyat bilan qilardi. Bundan tashqari, Martin bilan bo'lish unga xush yoqardi. Endi qiz undan cho'chimasdi. Dastlabki paytlarda Ruf chindan ham undan cho'chigan-

day boʻlgan edi. U Martindan emas, balki qalbi-da favqulodda uygʻongan allaqanday hislardan qoʻrqqan edi, endi bu qoʻrquv gʻoyib boʻlgan. Qiz oʻzi bilmagan holda baʼzan unga soʻzini oʻtkazmoqchi boʻlardi. Ikkinchi tomondan esa Martin ham unga hayotbaxsh taʼsir oʻtkazardi. Qizning koʻp vaqti universitet mashgʻulotlari bilan band boʻlardi, shuning uchun ham, baʼzida kitoblardan yuz oʻgirib, dengizning sarin yellaridan toʻyib-toʻyib nafas olish unga foydali edi; bu sarin yellar Martinning butun vujudiga singib ketgan edi. Quvvat! Ha, Rufga quvvat kerak edi, Martin ham oʻzining bitmas-tuganmas gʻayratini qiz bilan bajonidil baham koʻrardi. Martin bilan bir xonada boʻlish, uni ostonada kutib olish – Ruf uchun koʻkrakni toʻldirib nafas olish kerak edi. Shuning uchun, Martin ketganda, qiz ikki hissa ortiq gʻayrat bilan shugʻullana boshlardi.

Ruf Brauning ijodini juda yaxshi bilardi, lekin inson qalbi bilan oʻynashmoq juda xavfli ekani hech qachon xayoliga kelmasdi. U Martinga koʻproq qiziqqan sari, uning hayotini oʻzgartirish ishtiyoqi ham shuncha ortib bordi.

Kunlarning birida ular ham grammatika, ham arifmetika, ham poeziya bilan shugʻullanib boʻlgach, Ruf:

– Mana, mister Betlerni oling, – dedi, – avvaliga hech baxti yurishmagan ekan. Otasi bankda kasir boʻlib ishlagan, lekin bir necha yil kasal boʻlib, Arizonada sil kasalidan oʻlgan, shundan keyin mister Betler – u paytda hali faqat Charlz Betler – tanho oʻzi qolgan. Otasi avstriyalik boʻlgani uchun, Kaliforniyada qarindosh-urugʻlari ham

yo'q ekan. U bosmaxonaga ishga kiribdi – bu to'g'rida menga bir necha marta gapirib bergan edi – dastlabki paytlarda haftasiga uch dollardan maosh olibdi. Hozir uning yillik daromadi o'ttiz ming dollarga yetgan. Qanday qilib erishdi bunga? U nomusli, zahmatkash va rejali odam. U deyarli hamma yoshlarning jonu dili hisoblangan maishatparastlikdan voz kechgan. U nechog'lik og'ir muhtojlikka tushmasin, har haftada pulining bir qismini ajratib, jamg'arishni odat qilgan. Bir oz vaqtdan keyin uch dollardan ko'proq maosh ola boshlagan, xullas, maoshi oshgan sari jamg'arayotgan puli ham ortib borgan. U kunduzi ishlagan, ishdan keyin esa kechki maktabga qatnagan. U doim kelajak haqida o'ylagan. Keyin kechki kurslarga qatnay boshlabdi. O'n yetti yoshida u harf teruvchi bo'lib, durustgina maosh ola boshlabdi-yu, lekin mansabparastlik tuyg'usi unga orom bermabdi. Shuning uchun umrining oxirigacha bekamu ko'st yashashnigina emas, yana yuqori martabaga minishni istabdi; u ana shu istiqbol yo'lida butun bor-yo'g'ini qurbon berishga ham tayyor ekan. U advokat bo'lishga ahd qilib, oqibat otamning mahkamasiga xat tashuvchi bo'lib ishga kiribdi, e'tibor bering-a! Maoshi haftasiga to'rt dollar. Lekin u tejimli odam bo'lganidan, hatto shu to'rt dollardan ham bir qismini ajratib, saqlab qo'yarkan.

Ruf nafasini rostlab olish va hikoyasining Martinga qanday ta'sir etayotganini ko'rish uchun bir zumga to'xtadi. Martinning chehrasida mister Betlarning qismatiga bo'lgan zo'r qiziqish alomati aks etardi, lekin bir oz qovoqlari solingan edi.

– Chindanam, xiyla azob chekibdi, – dedi u.
– Haftasiga to‘rt dollar! Bu pul bilan gasht sura olmaysan. Mana, men ijara haqi bilan ovqatga haftasiga besh dollar to‘layman, xudo haqi, tuzukroq kun kechirganimni bilmayman. Af-tidan, u it azobida yashagan bo‘lsa kerak. Yegan ovqati ham balki...

– U ovqatini kerosinkada o‘zi pishirgan, – deb Martinning gapini bo‘ldi qiz.

– Nazarimda, baliq ovlovchi kemalarning mat-roslari singari kun ko‘rgan bo‘lsa kerak, bundan battar ovqatlanish bo‘lmaydi.

– Lekin siz hozir u nimalarga muyassar bo‘lganini o‘ylang! – deb qichqirib yubordi ruh-lanib Ruf. – Axir hozir yoshligida ko‘rgan muh-tojliklari evaziga hayotdan ko‘ngliga siqqancha lazzatlanishi mumkin!

Martin unga sinovchan nazar tashladi.

– Bilasizmi, – deb e‘tiroz bildirdi u, – o‘sha mis-ter Betleringizning endi hayotdan lazzatlanishi-ga ko‘zim yetmaydi. Shuncha yil muttasil yomon ovqatlangan odamning oshqozoni rasvoyi rad-dibalo bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Qiz uning tikilib qarashiga bardosh berolmay, yuzini chetga burdi.

– Garov o‘ynayman, u katar⁸ kasaliga yo‘liqqan.

– Ha, – deb e‘tirof etdi Ruf, – lekin...

– Va ehtimolki, – deb davom etdi Martin, – u hozir qarib qolgan ukkiga o‘xshash badjahl, sho‘rtumshuq bo‘lsa kerak, o‘ttiz ming dollari bilan ko‘ngliga chiroq yoqsa ham yorishma-sa kerak. Keyin u tevarak-atrofida o‘yin-kulgi

⁸ Katar – oshqozonning yallig‘lanishi.

qilganlarni yomon ko'rsa kerak. Shundaymi, yo'qmi?

Qiz tasdiq ma'nosida bosh irg'adi va izoh berishga oshiqdi:

– Axir unga bu o'yin-kulgilarning keragi yo'q. U tabiatan odamlarga aralashmaydigan, jiddiy odam. U azaldan shunaqa.

– Shunaqa bo'lmay ham iloji yo'q edi-da! – dedi Martin. – Haftasiga uch yo to'rt dollar bilan kun ko'rsa! Yosh yigit bo'la turib, pul jamg'arish niyatida o'zi ovqat pishirsa! Kunduzi ish-lassa, kechasi o'qisa, faqat ishdan boshqa narsani bilmasa, hech qachon bundoq ko'ngil yozib o'ynab-kulmasa, balki u o'yin-kulgi nimaligini ham bilmasa kerak. He! Bu o'ttiz ming dollari qo'liga juda kech tegibdi.

Shu zahotiy oq Martinning jonli tasavvurida bu tejamli yigitning butun hayoti va nihoyat, uni o'ttiz ming dollarli yillik daromadga boshlab kelgan torgina hayot so'qmog'i mufassal jonlandi. Charlz Betlarning butun o'y va harakatlari go'yo kino tasmasi singari uning ko'z oldidan lip-lip o'tdi.

– Bilasizmi, – deb ilova qildi Martin, – sizning o'sha mister Betlaringizga rahmim kelyapti. Ilgari u juda yosh bo'lgan-u, shu o'ttiz mingni deb o'z umrini o'zi xazon qilgan, endi esa pullaridan ko'ngli quvonmaydi. Ilgari jamg'argan o'n sent puliga olmoqchi bo'lgan narsasini, masalan, bolalik chog'ida bironta obakimi yoki yong'oqmi, yo bo'lmasa teatr galyorkasiga chiptami – shularning birontasini endi o'sha o'ttiz ming dollariga sotib ololmaydi!

Martinning mulohazasi Rufni gangitib qo'ydi. Bu hol uning uchun nainki yangilik, nainki o'z tafakkuriga zid narsa edi; balki qiz o'zining dunyo haqidagi jamiki tushunchasini ostin-ustun qilib yuborishga yoinki u tushunchalarni tubdan o'zgartirib yuborishga tahdid qilayotgan haqiqat ulushini g'ira-shira sezgan edi. Agar Rufning yoshi yigirma to'rttda emas, o'n to'rttda bo'lganida, ehtimolki, u Martinning ta'siri bilan o'z fikrlarini o'zgartirgan bo'larmidi. Biroq u yigirma to'rt yoshda, buning ustiga, tabiatan muhofazakor edi va o'zi tug'ilib o'sgan muhitning turmush va tafakkuri tarziga juda ham odatlanib qolgan edi. Rost, ba'zan suhbat vaqtida Martinning g'alati muhokamalaridan ahyon-ahyonda dovdirab qolardi, ammo Ruf buni Martinning shaxsi va taqdiri antiqa bo'lgani uchun shunday deb izohlardi va tezroq xayolidan chiqarib yuborishga urinardi. Shunga qaramay, Ruf uning fikriga qo'shilsa ham, Martin gaplaridagi qat'iyat, ko'zlarining chaq nab turishi va jiddiy qiyofasi doimo uni hayajonlantirar va o'ziga jazb etardi. Rufga begona bo'lgan muhitdan kelgan bu odam tez-tez Rufning tushunchasi uchun nihoyatda teran va uning tasavvur doirasidan ancha chetga chiquvchi fikrlar aytardiki, bu Rufning xayoliga ham kelmasdi. Qiz olamni o'z tasavvur doirasi bilangina cheklab qo'yardi, lekin aqli cheklangan odamlar faqat o'zgalardagi mahdudliknigina ko'ra oladilar. Shunga ko'ra, Ruf o'z saviyasini nihoyatda keng deb hisoblar va har safar Martin bilan kelisha olmaganda buni yigitning fikri torligiga yo'yar, xullas, Martinning ko'ziga olam-

ni o'zi tasavvur qilgandek ko'rsatishni va uning saviyasini o'ziniki darajasiga yetkazishni orzu qilar edi.

– Shoshmang, hali hikoyam tamom bo'lgani yo'q, – dedi qiz. – Otamning aytishiga qaraganda, mister Betler juda serg'ayrat, serhafsala ekan. U doimo o'ta ishchanligi bilan boshqalardan ajralib turarkan, ishga ham hech kechikib kelmas ekan, aksincha, ko'pincha oldinroq kelarkan. Shunga qaramay, vaqtini tejarkan. Bir daqiqa bo'sh qolsa mutolaa bilan shug'ullanarkan. U buxgalteriyani, mashinkada yozishni o'rganibdi, stenografiya bilan shug'ullanibdi, unga to'laydigan haq evaziga kechalari o'z muallimiga, ya'ni, tajribasi oz bo'lgan sud muxbiriga diktant yozdiribdi. Tez orada u xat tashuvchilikdan mahkama xodimi lavozimiga ko'tarilibdi, xodim bo'lgandayam tengi yo'q xodim bo'libdi. Otam bu xodimning istiqboli yuksakligini ko'rib, uni qadrlabdi. U otamning maslahati bilan huquq maktabiga kirib o'qibdi, advokat bo'lib, keyin mahkamaga kichik sherik sifatida qaytib kelibdi. U juda buyuk odam. U bir necha marta Qo'shma Shtatlar senatidagi lavozimni rad etdi, xohlasa, Oliy sud a'zosi ham bo'lishi mumkin. Bunday odam hammamizga ibrat bo'lishi kerak. Uning hayoti sabotli va mustahkam irodali odam o'zi yashab turgan muhitdan yuksaklarga ko'tarilishi mumkinligidan dalolat beradi.

– Ha, u buyuk odam, – deb rozilik bildirdi Martin samimiyat bilan.

Shunga qaramay, bu hikoyaning allaqaysi yerlari Martinning hayot va go'zallik haqidagi tasav-

vuriga hech sig'masdi. Mister Betler boshidan kechirgan muhtojlik va mashaqqatlarni oqlash uchun hech etarli dalil topolmas edi. Agarda u biron ayolga bo'lgan muhabbat tufayli yoki go'zallik maftuni sifatida shunday qilganda edi, Martin uning jasoratiga tushunardi. Muhabbat shaydosi bo'lgan yigit bir bo'sa uchun jon berishi mumkin, ammo o'ttiz ming dollar yillik daromad uchun aslo jon fido qilmaydi! Mister Betlerning mansabga intilishida qandaydir ayanchli pastkashlik bor edi. O'ttiz ming dollar pul chakki emas, albatta, ammo oshqozon kasaliga muhtalo bo'lish-u hayot ne'matlaridan bahramand bo'lolmaslik, u pulning qadrini yo'qqa chiqarardi.

Martin bu mulohazalarining ko'pini Rufga aytdi, natijada Ruf, Martinni qayta tarbiyalash albatta shart, degan qarorga keldi. Ruf tor fikr yurituvchi kaltafahm odamlar toifasiga mansub edikim, bu kaltafahmlik ularni, faqat bizning o'z irqimiz, dinimiz va siyosiy maslagimizgina yaxshi, shulargina haqqoniydir, yer yuzining hamma burchaklariga tarqalib ketgan jamiki odamlar bizdan birmuncha past pog'onada tura-di, deb o'ylashga majbur etar edi. Bu ham, qadimiy yahudiyini xotin bo'lib tug'ilmagani uchun xudoga shukr qildirishga majbur etgan, endi esa, hammaga o'z xudosini tashviq qilish niyatida missionerlarni yer kurrasi bo'ylab safar qilishga majbur etgan o'sha kaltafahmlik edi. Bu xususiyat qizda mutlaqo o'zga sharoitda o'sgan bu odamni qo'lga olib, o'z toifasidagi odamlar tim-solida uni qayta tarbiyalash istagini uyg'otardi.

TO‘QQIZINCHI BOB

Martin Iden oshiq'larga xos sabrsizlik bilan dengiz safaridan Kaliforniyaga shoshilardi. Bundan sakkiz oy muqaddam u bor-yo‘q pulini harjlab bo‘lib, Sulaymon orollarining allaqaysi yeriga ko‘milgan xazinani qidirgani ketayotgan kemaga yollangan edi. Uzoq davom etgan behuda qidiruvlardan keyin bu tashabbus muvaffaqiyatsiz deb topildi, Avstraliyada kema hay‘ati bilan hisob-kitob qilindi, Martin esa darhol San-Fransiskoga ketayotgan kemaga ishga yollandi. Bu sakkiz oy mobaynida quruqlikda uzoqroq yashash uchun yetarli pul ishlab olish bilan birga, ayni vaqtda, har bir bo‘sh daqiqani g‘animat bilib, mashg‘ulotlarini ham ancha-muncha ildamlatib qo‘ygan edi.

Uning zehni juda o‘tkir edi, buning ustiga, Martindagi tug‘ma tirishqoqlik va Rufga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi unga madad berardi. U Rufdan olgan grammatika darsligini bir necha bor sinchiklab o‘qib chiqib, nihoyat, uni mukammal o‘zlashtirib oldi. Endi u matroslar nutqidagi xatolarni sezar, ularning talaffuzidagi va jumla tuzishidagi xatolarini o‘zicha tuzatardi. Martin quloqlari so‘zlarni nihoyatda sezgirlik bilan eshitayotganini va o‘zida grammatikaga qobiliyat vujudga kelganini mamnuniyat bilan his qilardi. Ba‘zi paytlarda o‘zining og‘zidan ham noto‘g‘ri iboralar chiqib ketardi, lekin shunga qaramay, har qanday noto‘g‘ri tuzilgan jumla misoli tovushlari bir-biriga moslashmagan musiqa singari uning qulog‘iga g‘aliz bo‘lib eshitalardi. Noto‘g‘ri

gapirishdan xalos bo'lish uchun, chamasi, fursat kerak bo'lsa kerak.

Grammatikani o'zlashtirib bo'lgach, u lug'atga o'tdi va har kuni yigirmatadan yangi so'zni o'zlashtirishni odat qilib oldi. Bu mushkul vazifa edi. U vaxtada yo shturval oldida turganda yodlagan so'zlarini takrorlar, takrorlaganda ham to'g'ri talaffuz etib takrorlardi. U Rufning jamiki nasihatlarini yodida saqladi, natijada oradan bir oz vaqt o'tgach, inglizchani zobitlardan ham, bu qaltis ishga mablag' yaratgan kayutadagi jentlmenlardan ham durustroq va yaxshiroq gapiradigan bo'lganini payqab, taajjub qila boshladi.

Ko'zlari baliqniki singari ma'nosiz norvegiyalik kapitanda, ittifoqo, Shekspirning asarlar to'plami topilib qoldi, kapitan ularni varaqlab ham ko'rmagan edi, albatta; Martin kitob egasining kirlarini yuvib berib turish evaziga bu qimmatbahokitoblardan foydalanishga ijozat oldi. Shekspir fojialarining o'ziga juda ma'qul bo'lgan ayrim joylarini u osongina yodlab oldi va ancha vaqtgacha Shekspirga shu qadar shaydo bo'lib yurdiki, butun olam uning ko'ziga Yelizaveta teatridagi obrazlar va manzaralarda namoyon bo'la boshladi, fikr va mulohazalari esa o'z-o'zidan oq she'r bilan ifodalana boshladi. Bu hol uning tinglash qobiliyatini kuchaytirish uchun foydali mashg'ulot bo'ldi va Martinning nutqini kam uchraydigan eski iboralar bilan boyitgan bo'lishiga qaramay, unga ingliz tilining ulug'vorligini qadrlashga o'rgatdi.

Bu sakkiz oyni Martin juda samarali o'tkazdi. U so'z boyligini oshirdi, aql-zakovati yana

rivojlandi, o'zini yana ham yaxshiroq tanib oldi. Bir tarafdian, kamtarlik qilib, o'zining nodonligini e'tirof etsa, ikkinchi tomondan, o'zining juda kuchli ekanligini his qilardi. U o'zi bilan o'rtoqlari o'rtasida juda katta farq borligini ko'rdi; bu farq u erishgan yutuqda emas, balki imkoniyatida edi. Martin buni tushundi. U qilgan ishni o'rtoqlari ham qila olishlari mumkin edi, lekin qandaydir botiniy bir his uning bundan ham ulkan ishlariga qodir ekanligini ta'kidlar edi. U olam go'zalligini g'ayritabiiy bir hassoslik bilan idrok etar, bu go'zallikni o'zi bilan birga Rufning ham tomosha qilishini istardi. U Rufga Tinch okeanining ulug'vorligi haqida yozishga jazm qildi. Bu fikr uni ijod qilishga undadi, u olam go'zalligi haqida yolg'iz Ruf uchun yozish bilan kifoyalanmaydi. Buning natijasida, Martinning miyasida porloq bir fikr paydo bo'ldi: u yozadi. U jahonning ko'zi, qulog'i va qalbi bo'lgan odamlardan biri bo'ladi. U hamma janrda yozadi, nazm va nasr, roman va ocherk yozadi. Shekspirga o'xshab pyesalar ham yozadi. Yuksak martabaga erishishning asl yo'li shu, shu bilan Rufning qalbiga ham yo'l ochiladi. Axir adiblar, jahonning olimlari-ku, o'ttiz ming dollar yillik daromadi bo'lgan va agar istasa Oliy sud a'zosi ham bo'la oladigan qandaydir mister Betlerga bu olimlar bilan tenglashishga yo'l bo'lsin.

Bu fikr Martinning xayoliga keldi-yu, butun vujudini qamrab oldi, San-Fransiskoga qaytayotganda, butun yo'l xuddi tush ko'rganday o'tdi. U o'zining qudratli ekanini anglaganidan, har qanday ishga qodir ekanligini sezganidan

mast edi. Buyuk ummonning bo'm-bo'sh sathida har bir narsa uzoqdan ajoyib manzara kasb etardi. Ruf ham, u yashayotgan muhit ham Martinning ko'z oldida birinchi marta yaqqol namoyon bo'ldi. Bu muhitning allaqaysi bir jihatlari unga shunday ayon va yaqqol bo'lib qoldiki, go'yo uni o'z qo'liga olib, har tomonga aylantirib mushohada qilishi mumkinday edi. Bu muhitda anglashilmaydigan va noaniq narsalar ko'p edi, lekin u ayrim tafsilotlarni emas, muhitni butuncha kuzatardi va ayni vaqtda, uni butunlay zabt etish imkoniyatlarini ko'ra boshlagan edi. Yozish kerak! Bu fikr uning yuragiga o't solgan edi. U qaytib borgan zahoti yoza boshlaydi. Eng avval xazina axtaruvchilar ekspeditsiyasi haqida yozadi. U hikoyasini San-Fransiskodagi jurnallardan biriga yuboradi-da, bu haqda Rufga hech nima demaydi, keyin, qiz Martinning nomini matbuot sahifasida ko'rib ajablanadi-yu, sevinib ketadi. U ayni vaqtda ham yozishi, ham tahsil ko'rishini mumkin. Axir bir sutkada yigirma to'rt soat bor-ku. U yengilmaydi, chunki qo'lidan ish keladi, shuning uchun har qanday g'ovlarni ham yengib o'ta oladi. Endi unga oddiy matros bo'lib dengizda suzishning ham keragi bo'lmaydi, Martin birdan o'zining shaxsiy yaxtasini tasavvur qila boshladi. O'z shaxsiy yaxtasi bo'lgan adiblar ham bor-ku! To'g'ri, darrov muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi, deb o'ziga taskin berardi u, dastlabki paytlarda, yozgan asarlari hisobiga o'qishni davom ettirish mumkin bo'lsa, shuning o'zi ham yomon bo'lmaydi. Keyin, bir qancha vaqtdan keyin - qancha vaqtligi noma'lum - o'qishni tamomlab,

o'zini yetuk yozuvchi deb his qilgach, u buyuk asarlar yozadi-yu, nomi tillarda doston bo'ladi. Lekin bundan ham muhimi, eng muhim narsalardan ham muhimi – o'shanda Rufga munosib bo'ladi. Shuhrat yaxshi narsa, ammo bu orzularini u shuhrat qozonish uchun emas, Ruf uchun ardoqlardi. U shuhratning ketidan quvguvchilardan emas, faqat yor ishqida devona bo'lgan bir yigit edi, xolos.

Oklendga hamyonini qappaytirib qaytib kelgan Martin Bernard Xigginbotamning uyidagi hujrasiga yana qamalib olib, ishga berilib ketdi. U qaytib kelgani haqida Rufga xabar qilmadi. Rufning oldiga xazina qidiruvchilar haqidagi ocherkini tamomlagandan keyingina borishga qaror qildi. Uning butun vujudini qamrab olgan ijod vasvasasi visol damining kechikishiga bardosh berishga ko'maklashdi. Buning ustiga, u yozgan har bir jumla Rufni unga yaqinlashtiradi. U ocherkning qanday hajmda bo'lishini bilmas edi. Lekin «San-Fransisko axboroti» gazetasining yakshanbalik ilovasida ikki sahifani egallagan ocherkdagi so'zlarni sanab chiqib, shunga amal qilmoqchi bo'ldi. Martin uch kun boshini ko'tarmay o'tirib ishlab, ocherkini yozib bitirdi, so'ng o'qish oson bo'lsin uchun, yirik harflar bilan puxtalab ko'chirib chiqdi-yu, keyin birdan, kutubxonadan olib kelgan adabiyot darsligidan abzats va tirnoq degan narsalar borligini o'qib qoldi. U esa buni xayoliga ham keltirmabdi. Martin shu onning o'zida ocherkini qayta ko'chirishga kirishdi; u dam o'tmay darslikni varaqlab o'qib, ocherkni ko'chirarkan,

bir kunning o'zida shu qadar ko'p ma'lumot oldiki, buni oddiy maktab bolasi bir yilda zo'rg'a o'zlashtirgan bo'lardi. U ocherkini ikkinchi marta ko'chirib bo'lib, uni naycha qilib avaylab o'rarkan, birdan ko'zi bir gazetadagi yosh mualliflar uchun berilgan qoidaga tushib qoldi; bunda qo'lyozmani naycha qilib o'rash mumkin emasligi va varaqning bir tomoniga yozish kerakligi yozilgan edi. Martin ikkala qoidani ham buzgan edi. Lekin u yana eng yaxshi jurnallar asarning bir ustuniga kamida o'n dollar qalam haqi to'lashini ham o'qidi. Martin ocherkini uchinchi marta ko'chirarkan, takror-takror o'n ustunni o'n dollarga ko'paytirish bilan o'ziga tassalli berardi. Hosil doim bir xil, ya'ni, yuz dollar chiqaverdi, shundan keyin, bu ish matroslik xizmatidan o'lsa o'ligi ortiq ekan, degan qarorga keldi. Agar u ikki marta xato qilib qo'ymaganda, hikoya uch kunda bitardi. Uch kunda yuz dollar! Shuncha pulni ishlab topish uchun esa uch oy dengizda kezishi kerak. Qo'lida qalami bo'lgan odamga aziyat chekib, matroslik qilish g'irt ahmoqlik. Lekin Martin uchun pulning unchalik qadr-qimmati yo'q edi. Pul faqat vaqtichog'lik qilishiga, yangi kostyum sotib olishiga imkon berardiki, bu imkoniyatlarning hammasi qo'shilib, uning hayotini ostin-ustun qilib yuborgan va ilhombaxsh etgan sarvqomat, oqbadan qizga yaqinlashtirishi lozim edi.

Martin qo'lyozmani kattakon konvertga solib, og'zini yelimpladi va «San-Fransisko axboroti» muharririga yubordi. U tahririyatga yuboriladigan qo'lyozmalarning hammasi darhol bosilib

chiqadi deb o'ylardi, shunga ko'ra, modomiki, ocherkini juma kuni yuborgan ekan, yakshanba kuni gazeta sahifasida paydo bo'lishini kutgan edi. O'zining qaytib kelganini shu yo'sinda Rufga ma'lum qilsa juda ko'ngilli ish bo'ladi-da. Shu yakshanba kuniyoq u Rufnikiga boradi. Bu orada unda yana yangi bir fikr tug'ilib qoldi, nazari-da, bu fikr juda to'g'ri, bama'ni va ayni vaqtda kamtarin tuyuldi: u bolalar uchun sarguzasht hikoya yozib, uni «Yoshlar hamrohi»ga yubormoqni o'ylab qoldi. U qiroatxonaga borib, «Yoshlar hamrohi»ning bir necha to'pini ko'rib chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, katta hikoyalar va qissalar haftalik jurnalda taxminan uch ming so'zdan bo'lib-bo'lib bosilarkan. Har bir qissa jurnalning beshta sonida, ba'zilari esa hatto yettita sonida bosilgan edi; Martin ham shu o'lchamga rioya qiladigan bo'ldi. Bir vaqtlar Martin kit ovlaydigan kemada Arktikaga safarga chiqqan edi; safar uch yilga mo'ljallangan edi, biroq yarim yil deganda safar qaridi, chunki kema halokatga uchragan edi. Martinning uydirmalar to'qishga suyagi bo'lmasa ham, haqiqatni sevardi, shuning uchun ham, o'zi bilgan narsalar haqida yozishni istardi. U kit ovlash kasbini juda yaxshi bilardi, shunga ko'ra sodir bo'lgan voqealar asosida, ikki o'smir bolaning afsonaviy sarguzashtini hikoya qilmoqchi bo'ldi. Bu qiyin emas edi, natijada, shanba kuni kechqurun asarning uch ming so'zdan iborat birinchi qismini yozib tashladi, bundan Jim nihoyatda mamnun bo'ldi, mister Xigginbotam esa xonadonda paydo bo'lgan «yozuvchi» ustidan mazax qilib kuldi.

Martin churq etmasdan o'tirarkan, faqat poch-chasi «Axborot»ning yakshanbalik sonini ochib, xazina axtaruvchilar haqidagi ocherkni o'qib, hang-mang bo'lib qolishini zo'r mamnuniyat bilan tasavvur qila boshladi. U yakshanba kuni ertalab barvaqt gazeta olgani darvoza oldiga tushdi.

U gazetani bir necha marta diqqat bilan ko'rib chiqib, bukib, yana joyiga qo'ydi va yaxshiyam qilgan ishim haqida hech kimga maqtanmagan ekanman deb suyundi. Keyin, o'zicha mulohaza qilib ko'rib, hikoyani matbuotda bosilib chiqish muddatini aniqlashda yanglishgan ekanman, degan qarorga keldi. Buning ustiga, ocherki kunning muhim mavzui emas edi, ehtimolki, muharrir ocherkni bosishdan oldin unga o'z mulohazalarini yozib yubormoqchidir.

Nonushtadan so'ng u yana qissa yozish bilan shug'ullandi. Garchi u lug'atga yoki adabiyot darsligiga tez-tez qarab tursa ham, qalami ostidan so'zlar to'xtovsiz tizilishib chiqib kelardi. Ba'zan lug'at va kitoblarga qarab ishi to'xtab qolgan vaqtda, yozilgan bobni qayta-qayta o'qir va bu bilan buyuk ijodiy ishdan chalg'isa ham, evaziga asar yozish qoidasini o'zlashtiryapman, o'z fikrlarimni ifodalashni, izhor etishni o'rganyapman, deb o'ziga o'zi tasalli berardi. U qosh qorayguncha yozar, so'ng qiroatxonaga borib, kech soat o'ngacha, ya'ni qiroatxona yopilguncha haftalik va oylik jurnallarni titib o'tirardi. Uning bu haftaga tuzgan ish rejasi shunday edi. Har kuni uch mingta so'z yozar, har kuni kechqurun qiroatxonaga borar va noshirlarga qanday she'r, qissa, hikoyalar yoqishini aniqlash uchun jur-

nallarni titkilardi. Shu narsa shubhasiz ediki, u mana bu son-sanoqsiz adiblar yozgan hamma narsani yozishga ham qodir, hattoki unga agar muhlat berilsa, mana bu adiblar ham eplay olmaydigan ko'p narsalarni yozib tashlaydi. U «kitob byulleteni»da gonorarlar haqida yozilgan maqolani o'qib, juda xursand bo'ldi; o'sha maqolada, gap orasida, Kiplingning har bir so'z uchun bir dollar olishini, yosh adiblar esa (Martin maqolaning ayniqsa shu yeriga ko'proq qiziqib qoldi) birinchi darajali jurnallarda har so'ziga kamida ikki sent olishi aytib o'tilgan edi. «Yoshlar hamrohi», shubhasiz, birinchi darajali jurnal edi, shunday qilib, u bir kunda yozgan uch ming so'zi uchun oltmish dollar olishi mumkin edi. Bu – dengiz safarida ikki oylik maosh demak edi.

Juma kuni kechqurun u qissani yozib tugatdi. Qissada rosa yigirma bir mingta so'z bor edi. Har bir so'zga ikki sentdan to'lashganda ham, shu qissaning o'ziga to'rt yuz yigirma dollar olarkan. Bir haftalik ishga shuncha haq to'lansa, chakki emas. Martin umrida hech qachon birvarakayiga shuncha pul olmagan edi. U shuncha pulni nimaga sarflashni bilmay, hatto boshi qotib qoldi. Axir bu oltin koni-ku! Farog'atli hayotning bitmas-tuganmas manbai bu! U yaxshi kiyim-bosh qilmoqchi, birtalay gazeta va jurnallarga obuna bo'lmoqchi, zaruriy ma'lumot kitoblarini sotib olmoqchi bo'ldi – hozir ularni ko'rgani har safar kutubxonaga yuguradi. Shundan keyin ham to'rt yuz yigirma dollardan yana ancha-muncha pul ortib qoladi; Martin, bu pullarni qayoqqa sarf qilsam ekan, deb bosh qotirib o'tirib, nihoyat ilojini top-

di; opasi Gertrudaga xizmatkor ayol yollamoqchi, Meriyenga velosiped olib bermoqchi bo'ldi.

Martin qalin qo'lyozmani «Yoshlar hamrohi»-ga yubordi va shanba kuni kechqurun marvarid ovlovchilar haqida ocherk yozishni mo'ljallab qo'ygach, Rufning oldiga jo'nadi. U borishdan oldin qizga telefonda qo'ng'iroq qildi, shuning uchun ham Rufning o'zi uning istiqboliga chiqdi. Shu zahotiyoq, qiz Martindan barq urib turgan tanish kuch va sog'lomlikni his qilgandek bo'ldi. Nazarida, bu kuch unga ham o'tayotganday tomirlaridan haroratli to'lqin bo'lib oqqanday va hayajondan badanlarini jimirlatib yuborganday bo'ldi. Rufning qo'lini olishi va uning moviy ko'zlariga tikilishi bilan Martin cho'g'dek qizarib ketdi, lekin Ruf buni payqamadi, chunki sakkiz oy davom etgan dengiz safari vaqtida uning yuzlari oftobda qorayib ketgan edi. Lekin bo'ynidagi qotirma yoqa kiyib qizartirgan eni hatto qoraygani ham yashira olmadi, Ruf buni ko'rib qolib, tabassumdan zo'rg'a o'zini tiydi. Biroq uning kostyumga ko'zi tushganida, kulgisi qaytib ketdi. Shimi xuddi quyib qo'ygandek o'ziga yarashib turardi – bu uning buyurtma qilib tiktirgan birinchi kostyumi edi, Martin bu kostyumda yana ham xushbichim, xipcha ko'rinardi. Buning ustiga, qo'lida kepka o'rniga yumshoq shlyapa ushlab turardi; Ruf shu onning o'zida, shlyapangizni kiyib ko'rsating, deb iltimos qildi, so'ng uning tashqi qiyofasini maqtadi. Martinda yuz bergan bu o'zgarishlar Rufning ishi, bu Rufni g'ururlantirar edi, shunga ko'ra qiz uni bundan buyon qanday yo'lga solishni o'ylay boshladi.

Lekin Ruf uchun eng muhim hisoblangan bir narsa – Martinning nutqidagi o‘zgarish uni ayniqsa quvontirdi. Endi Martin to‘g‘ri so‘zlash bilan cheklanmay, gapirganda o‘zini bir qadar erkin his qilardi, uning so‘z boyligi ham ancha-muncha ortgan edi. To‘g‘ri, suhbatga berilib ketgan chog‘larda o‘zini unutilib qo‘yib, yana mahalliy sheva so‘zlarini ishlata boshlar, jumlaning oxirini yamlab yuborardi; ba’zida u endigina o‘rganagan so‘zni talaffuz etayotib tutilardi. Lekin masala faqat jummalarni to‘g‘ri ifodalashda emas edi. Endi u suhbat paytida erkin gapirar va yengil askiya qilardi, buni eshitib Ruf benihoya xursand bo‘ldi. Bu yigitning tug‘ma hazilkashligidan darak berardi; shu hazilkashligi uchun Martinning o‘rtoqlari uni doim hurmat qilishardi, lekin avvallari u kerakli so‘zlarga kambag‘al bo‘lgani uchun, qizning oldida askiya qilolmagandi. Endi u asta-sekin ko‘nika boshlab, qiz yashab turgan muhitda o‘zini begona his qilmay qo‘ydi. Shunday bo‘lsa ham, Martin nihoyat darajada ehtiyotkorlik bilan gapirardi, suhbatni sho‘x va bermalol olib borishni u Rufga havola qilib, o‘zi ham orqada qolmaslikka harakat qilardi-yu, lekin biron marta bo‘lsin, o‘zi boshlamas edi.

U Rufga o‘zining yoza boshlaganini aytib, o‘z rejalarini – pul topish uchun yozib, o‘qishni davom ettirmoqchi bo‘lganini bayon qildi. Biroq Ruf bu rejaga shubha bilan qarab, Martinning hafsalasini pir qildi.

– Bilasizmi, – dedi qiz ochiqdan-ochiq, – adabiyot ham boshqa hamma kasblarga o‘xshaydi. Men mutaxassis emasman, albatta, faqat ham-

maga ayon bo'lgan haqiqatni aytmoqchiman. Axir temirchi bo'lish uchun ham, oldin uch yil, hattoki besh yil shogird bo'lish kerak. Lekin adiblar temirchilardan yaxshiroq pul topishadi, shuning uchun ham, nazarimda, juda ko'p odamlar yozuvchi bo'lishni orzu qilishsa, hattoki yozishga urinib ham ko'rishsa kerak.

– Nima sababdan, mening yozishga iste'dodim yo'q deb faraz qilasiz? – deb so'radi Martin, shunday ravon jumla to'qiganidan pinhona sevinib; keyin shu zahotiyiq uning tasavvuri ishga tushib ketdi-yu, bu mehmonxonada bo'layotgan suhbatni chetdan turib kuzatganday bo'ldi, o'zining avvalgi qo'pol va jirkanch hayotining yuzlab lavhalari ham ko'z oldida tizilib turardi.

Lekin bu turli-tuman manzaralarning hammasi uning ko'z oldidan bir zumda o'tib ketdi, lekin fikr yuritishini to'xtatmadi, suhbatni kesib qo'ymadi. Martin o'z xayoli ekranida, har bir narsadan madaniyat va yaxshi odob hidi kelib turgan shinamgina bir xonani va bu xonada kitoblar va suratlar orasida chiroyli ingliz tilida suhbatlashayotgan bu zebo va jonon qiz bilan o'zini ko'rди. Bu bir tekisda tushib turgan nur bilan yoritilgan manzara ekranning o'rtasini egallagan edi. Bu manzara atrofida, ekran chekkalarida esa tamomila o'zgacha manzaralar paydo bo'lib, yana ko'zdan yo'qolardi, Martin tomoshabin sifatida u manzaralardan xohlaganini ko'rishi mumkin edi. Tumanning jimirllovchi xira nurlari orasini yorib chiqqan qirmizi yog'du bilan yoritilgan bu manzaralar uning ko'zi oldida almashinib turardi. Ko'ziga qovoqxonada o'tkir

viski ichayotgan kovboylar ko'rinib ketar, atrof-dan behayo so'zlarni eshitardi, uning o'zi ham peshtaxta oldida turib olib, ichkilik ichar va eng ashaddiy muttaham yoki bezorilardan qolishmasdan so'kinar yoki ular bilan stol atrofida, piligi tutab yotgan chiroq ostida o'tirib olib, qarta tarqatar, ochko sanaydigan fishkalarini shiqirlatardi. Keyin u o'zini «Saskveganna» kemasining ba'zida beligacha yalang'och qiyofada mushtlarini siqqan holda ko'rdi – bu liverpullik malla yigit bilan bo'lgan mashhur mushtlashishga shaylangan payti edi; keyin isyon ko'tarilgan bulutli tongda «Jon Rojers!» kemasining qonga botgan palubasini ko'rdi, o'lim talvasasida ijirg'alana-yotgan birinchi yordamchini, kapitan qo'lidagi tutuni chiqib turgan revolvorni, uning atrofida to'dalanib turgan matroslar olomonining g'azabdan tirjaygan basharalarini, bo'ralab so'kinayotgan yaradorlarni ko'rdi va yana bu manzaralardan porloq shu'la bilan yoritilgan sokin va orombaxsh markaziy sahnaga qaytdi; qaytdi-yu, yana kitoblar va rasmlar qurshovida o'zi bilan suhbatlashib o'tirgan Rufni ko'rdi; yana kattakon royalni ko'rdi, bir ozdan keyin qiz unga shu royalda kuy chalib beradi, o'zining to'g'ri tuzilgan va to'g'ri talaffuz etgan jumlasini eshitdi: «Nima sababdan mening yozishga iste'dodim yo'q deb faraz qilasiz?»

– Chunonchi, kishining temirchilikka qobiliyati bor deylik, – deb kulib e'tiroz bildirdi qiz, – shuning o'zi kifoya qiladimi? Biron ta odamning oldin shogird bo'lmay turib, temirchi bo'lganini hech eshitmaganman.

– Menga nima maslahat berasiz? – deb so‘radi yigit. – Lekin unutmang, men yoza olishim mumkinligini chindanam his qilyapman. Buni izohlab berishim qiyin, ammo bu aniq.

Qiz javob qildi:

– Yozuvchi bo‘lish-bo‘lmasligingizdan qat‘i nazar, o‘qishingiz kerak. Qaysi sohani tanlasangiz ham, tahsil olishingiz muqarrar, shu bilan birga tasodifiy emas, muntazam tahsil olishingiz kerak. Siz maktabga kirib o‘qishingiz zarur.

Martin:

– Axir... – deb gap boshlagan edi, qiz uning so‘zini bo‘ldi:

– O‘shanda ham yozishni davom ettirishingiz mumkin.

– Davom ettirmay ilojim yo‘q, – deb qo‘pol javob qildi Martin.

– Nega axir?

Qiz noxushlangan day qaradi unga: yigitning o‘z so‘zida qattiq turib olib, qaysarlik qilishi unga yoqmagan edi.

– Chunki shusiz o‘qib bo‘lmaydi ham. Men axir yeb-ichishim, kiyinishim, kitoblar sotib olishim kerak-ku.

– Hamisha esimdan chiqadi-ya, bu, – dedi Ruf kulib. – Nega tayyor daromad egasi bo‘lib tugilmagansiz?

– Men sog‘lom va farosatli bo‘lishni afzal ko‘rman, – deb javob qildi yigit, – daromad o‘zi ke-laveradi. Men... – u «sizni xushnud etish uchun» deb yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tutib qoldi, – biron narsani deb, olam-jahon ishlarni do‘ndirib tash-lardim.

– «Do‘ndirib» demang! – dedi qiz hazilomuz, qo‘rqqan kishidek. – Bu juda xunuk so‘z.

Martin uyalib ketdi.

– Gapingiz to‘g‘ri, – dedi u, – iltimos qilaman, hamisha gapimni tuzatib turing.

– Men... men jonim bilan, – deb Ruf taraddudlanib javob qildi. – Sizning yaxshi xislatlaringiz juda ko‘p, istardimki, shu xislatlar yana ham ko‘paysa.

Martin shu zahoti yana qizning qo‘lida bir parcha loy bo‘ldi-qoldi, endi u Rufning shu loydan ko‘ngli istagan narsani yasashini astoydil xohlardi, Ruf ham undan o‘zi orzu qilgan erkakni yasab olishni xohlardi. Qiz o‘rta maktabga kirish imtihonlari dushanba kuni boshlanishini aytgandi, Martin shu zahotiyuq imtihon topshirgani borishini aytdi.

Shundan keyin Ruf royal oldiga o‘tirib, ancha paytgacha unga musiqa chalib, qo‘shiq aytib berdi, Martin esa zavqlanib, bu qizning qo‘shiqlarini butun vujudi bilan tinglovchi, u bilan uchrashishni zoriqib kutuvchi son-sanoqsiz muxlislari nima uchun uning atrofida parvona bo‘lmayapti deb ajablanar, unga ishtiyuq to‘la ko‘zlari bilan tikilib o‘tirardi.

O‘NINCHI BOB

Shu kuni kechqurun Martin Morzlarnikida ovqatlangani qolib, Rufni juda xursand qildi, chunki Martin uning otasiga yoqib qolgan edi. Suhbat Martin uchun juda ham tanish kasb ustida – dengizchilik kasbi ustida bordi; keyin mis-

ter Morz uni juda idrokli, bama'ni yigit ekan deb aytdi. Martin dag'al so'zlar va noto'g'ri iboralarini talaffuz qilishdan o'zini tiyishga urinar, shuning uchun ham shoshmay gapirar, o'z fikrlarini yana ham yaxshiroq ifodalardi. U taxminan bundan bir yil muqaddam birinchi marta ovqatlangan paytidagidan ko'ra hozir o'zini ancha erkin tutar, lekin kamtarligi va bir oz tortinchoqligi hali ham bor edi, bu esa Martinda sodir bo'lgan o'zgarishlarni ma'qul ko'rib, taajjublangan missis Morzga juda yoqqan edi.

– Martin Rufning e'tiboriga sazovor bo'lgan birinchi erkak, – dedi u keyinroq eriga. – Qizimiz doim erkaklarga loqayd qarardi. Bundan men hatto tashvishga ham tusha boshlagan edim.

Mister Morz xotiniga ajablanib qaradi.

– Bu matros yigit qizingda ayollik hislarini uyg'otishini istaysanmi? – deb so'radi er.

– Qizimning olamdan qari qiz bo'lib o'tib ketishini istamayman. Agar Martin Iden tufayli unda umuman erkaklarga qiziqish uyg'onsa, juda yaxshi bo'lardi.

– Juda yaxshi bo'ladi! – deb e'tirof etdi mister Morz. – Lekin faraz qilaylik, ba'zan, azizim, faraz qilishga ham to'g'ri keladi. Faraz qilaylik, qizing erkak zotiga umuman emas, xususan qiziqib qolsa-chi?

– Bu mumkin emas, – dedi kulib missis Morz. – U qizimizdan uch yosh kichik, keyin bu hech bo'lishi mumkin emas! Yomon ish bo'lmaydi. Menga ishonaver.

Shunday qilib, Martin Idenning vazifasi mutlaqo aniq belgilangan edi. Bu payt Martinning o'zi

ham bir g'ayrioddiy fikr ustida bosh qotira boshladi; bu fikr Artur bilan Normandan chiqqan edi. Gap har yakshanba kuni shahar tashqarisiga velosipedda sayr qilish ustida borardi; bu sayrga Ruf ham otlanayotganini bilmaganda, Martinni bu sayr qiziqtirishi amrimahol edi. U hech qachon velosiped minmagan edi, modomiki, sayrga Ruf chiqar ekan, Martinning ham velosiped minishni o'rganishi zarurligiga shubha qolmadi. Shuning uchun uyiga qaytayotib, yo'l-yo'lakay magazindan qirq dollarga velosiped sotib oldi. Buncha pulni u eng mashaqqatli mehnat bilan bir oyda ham topa olmas edi, boz ustiga, bunday katta xarajat hamyonini xiylagina qoqlab qo'yg'an edi. Biroq u «Axborot»dan oladigan yuz dollariga «Yoshlar hamrohi» to'laydigan to'rt yuz yigirma dollarni qo'shdi-yu, bu pullarning hech bo'lmasa bir qismini o'rniga sarflay olganidan hatto mamnun ham bo'ldi. U velosiped minishni o'rganishga kirishganida shimi bilan kamzulining yirtilganidan ham xijolat bo'lmadi. Shu onning o'zida u Xigginbotanning do'konidan mashinachiga telefon qilib, o'ziga yangi kostyum buyurtirdi. Keyin u ko'chadan kiriladigan tor zinadan velosipedini hujrasiga olib chiqdi-da, karavotni devordan surgan edi, xonada faqat o'zi bilan velosipedga joy qoldi, xolos.

U yakshanba kuni kirish imtihonlariga tayyorlanmoqchi bo'ldi, lekin marvarid ovlovchilar haqidagi hikoya es-hushini shu qadar olib qo'yg'an ediki, miyasida alangalanib turgan go'zal lavhalarni qog'ozga tushirishga urinib, kuni bilan ijod qozonida qovurildi. «Axborot»

bu yakshanba ham uning xazina qidiruvchilar haqidagi hikoyasini bosib chiqarmadi, lekin u dovdirab qolmadi. U o'z xayoli qanotida shu qadar yuksaklikka parvoz etib ketgan ediki, ikki marta ovqatga chaqirishganda ham eshitmadi. Shunday qilib, mister Xigginbotamning odatda yakshanba kunlarini nishonlash uchun pishirilgan lazzatli taomidan tatib ko'rish Martinga nasib bo'lmadi. Bunday taomlar mister Xigginbotam uchun uning baxtli hayot kechirayotganidan darak beruvchi daliliy ashyo edi, shuning uchun ham bunday ovqat paytida u amerikacha turmush tarzining bama'niligi va uning odamlarga berayotgan boy imkoniyatlari haqida, chunonchi, uni sabzavot do'konining gumashtasi lavozimidan savdo korxonasining xo'jayini martabasiga ko'targan imkoniyat haqida, bu so'zga u alohida urg'u berib gapirardi, o'ta bachkana so'zlar bilan valdiragani-valdiragan edi.

Dushanba kuni ertalab Martin Iden marvarid ovlovchilar haqida yozib tugata olmagan ocherkiga ma'yus nazar tashlab, Oklend maktabiga jo'nab ketdi. U imtihon natijalarini bilgani bir necha kundan keyin borganida, unga grammatikadan boshqa hamma fanlardan yiqilganligini aytdilar.

– Grammatikani juda yaxshi bilarkansiz, – dedi professor Xilton, unga qalin shishali ko'zoynagi orqali tikilib qararkan, – lekin boshqa fanlardan hech nima bilmaysiz, mutlaqo hech nima bilmaysiz, Qo'shma Shtatlar tarixidan bergan javoblaringiz esa – dahshat, ha, dahshat, boshqa

so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Men sizga maslahat tariqasida...

Professor Xilton jim qoldi va Martinga go'yo o'z naychalaridan biriga qarayotganday sovuq va loqayd nazar tashladi. U maktabda fizika o'qitar, oilasi katta, ammo maoshi oz edi, ilmi esa xuddi to'tiqush singari yodlab olingan narsalardan nari o'tmasdi.

– Shunday deng, ser, – dedi Martin itoatkorona ohangda va professor Xilton o'rnida kutubxonaning ma'lumot bo'limidagi kutubxonachi bo'lmaganidan afsuslandi.

– Men sizga yana ikki yil boshlang'ich maktabda o'qishni maslahat berardim. Xayr, omon bo'ling!

Martin bu muvaffaqiyatsizlikka uncha parvo qilmadi, lekin professor Xiltonning aytganlarini Rufga aytib berganida, qizning qanchalik xafa bo'lganini ko'rib taajjub qila boshladi. Rufning xafa bo'lgani shunday aniq sezilib turardiki, buni ko'rib, imtihondan yiqilganidan o'zi ham afsuslana boshladi – o'zi uchun emas, qiz uchun afsuslandi.

– Mana, ko'rdingizmi, – dedi qiz, – men haq chiqdim. Siz ba'zi talabalardan ham ancha ko'p bilasiz, ammo imtihonda yiqilasiz. Chunki siz muntazam ravishda emas, tartibsiz o'qigan-siz. Siz muntazam shug'ullanishingiz kerak, lekin yaxshi muallimsiz bunga erishib bo'lmaydi. Bilimni chuqur o'rganish kerak. Professor Xilton haq, agar men sizning o'rningizda bo'lsam, kechki boshlang'ich maktabga o'qishga kirgan bo'lardim. Siz butun kursni bir yarim yilda tu-

gallab, yarim yil vaqtingizni tejab qolasiz. Bundan tashqari, kunduzi vaqtingiz bo'sh bo'ladi, siz yozish bilan shug'ullanishingiz yoki qalam tebratish bilan kun ko'ra olmasangiz, boshqa bi-ron ish bilan shug'ullanishingiz mumkin.

«Axir, kunduzi ishlasam, kechqurunlari maktabda o'qisam, unda siz bilan qachon uchrashaman?» Martinning xayoliga kelgan birinchi fikr shu edi, lekin bu gapni aytishga qo'rqdi. Buning o'rniga shunday dedi:

– Kechki maktabga qatnab o'qish – go'dak bolalarning ishi. Agar undan foyda chiqishini bil-sam, qarab o'tirmasdim, albatta. Lekin foyda chiqmasa kerak deb o'ylayman. Hamma fanni o'zim, maktab muallimlari o'qitgandan ham tez-roq o'zlashtirib olishim mumkin. Maktabga qat-nash – bekorga vaqt o'tkazish bo'lardi (Martin qiz haqida, o'zining unga muyassar bo'lishi haqida o'ylardi), mening esa bekorchi vaqtim yo'q!

– Lekin siz hali juda ko'p ishlar qilishingiz kerak-ku.

Qiz unga mehribonlik bilan qarab qo'ydi, Mar-tin unga e'tiroz bildirgani uchun ichida o'zini hayvon deb koyidi.

– Fizika, ximiyani o'rganish uchun laboratoriya kerak bo'ladi, – dedi qiz. – Algebra, geometriyani hech qachon mustaqil o'rgana olmaysiz. Sizga rahbar, tajribali mutaxassis muallimlar kerak.

Martin qanday qilib yaxshiroq javob berishni o'ylab, bir daqiqacha sukutga toldi.

– Meni maqtanyapti deb o'ylamang, – dedi u, – gap aslo bunda emas. Lekin hamma narsani

osongina o'rgana olishim mumkinligini sezyapman. Men o'zim hamma narsani o'rganishim mumkin. O'rdak suvga intilgani singari men ham ilmga intilaman. Grammatikani qanday o'zlashtirganimni o'zingiz ko'rdingiz. Men yana juda ko'p narsalarni o'rgandim, ular shunchalik ko'pki, siz xayolingizga ham keltira olmaysiz... Ammo men endigina kirishyapman. Menga hali... – u bir on tutilib qolib, so'ng dangal gapirdi: enersiya yetishmaydi. Men axir endigina safga tura boshladim-ku.

– Safga tura boshladim deganingiz nima deganingiz? – deb uning so'zini bo'ldi qiz.

– Ya'ni, narsalarning farqiga bora boshladim demoqchiman, – dedi Martin.

– Bu jumlada hech qanday ma'no yo'q, – dedi yana Ruf.

Shunda Martin o'zgacha ibora bilan gapirmoqchi bo'ldi:

– Men o'z yo'nalishimni endi tushunyapman.

Bu safar qiz unga rahmi kelganidan indamadi, Martin esa gapida davom etdi:

– Mening tasavvurimda fan dengiz xaritalari saqlanadigan shturman hujrasiga o'xshaydi. Kutubxonaga borganimda hamisha shuni o'ylayman. Muallimning vazifasi talabaga hamma xaritanani bir boshdan o'rgatib chiqishdan iborat. Vasalom. U bamisoli yo'l ko'rsatuvchi. Ammo o'zi hech nimani o'ylab chiqara olmaydi. U hech qanday yangilik yaratmaydi. Xaritada hamma narsa mavjud, muallim yangi talabaning adashib qolmasligi uchun unga faqat qayerda nima turgani ni ko'rsatib berishi kerak. Men adashmayman.

Men joylarni taniyman. Shu bilan birga qanday ish qilishimni ham tushunaman, albatta. Yana biron soʻzni notoʻgʻri aytdimmi?

– «Qanday» emas, «nima», – dedi Ruf.

– Toʻgʻri, nima qilishimni tushunaman, – deb takrorladi Martin qizdan minnatdor boʻlib. – Ni-mani gapirayotuvdim? Ha, dengiz xaritalarini. Xullas gap shuki, bagʻzi odamlarga...

– Baʻzi, – deb tuzatdi Ruf yana.

– Baʻzi odamlarga yoʻl koʻrsatuvchi kerak boʻla-di. Bu toʻgʻri. Men esa, oʻshalarsiz oʻzim yoʻl topa olaman, deb oʻylayman. Men bu xaritalar oldi-da juda koʻp oʻralashib yurdim, shuning uchun ularning qaysilari menga kerag-u, qaysi sohillar-ni tadqiq etishim lozimligini ham bilaman. Yolgʻiz oʻzim bularning hammasini tezroq tekshirib chiqaman. Dengiz flotining tezligi doim eng sekin yurar kemanding tezligi bilan oʻlchanadi. Maktab-da ham xuddi mana shu ahvol. Muallimlar qoloq talabalarga qarab dars oʻtishlari kerak, lekin men yolgʻiz oʻzim ildamroq yurishim mumkin.

Ruf allaqayerda oʻqigan jumlanani aynan takrorladi:

– «Yolgʻiz sayyoh hammadan oʻzib ketadi».

Martin bunga javoban:

«Lekin men yolgʻiz emas, siz bilan safar qilishni istardim», deb yuborishiga sal qoldi. Koʻziga Ruf bilan qoʻl ushlab quyosh nuriga gʻarq boʻlgan yulduzlar toʻla bepoyon fazoda parvoz qilayotgani koʻrinib ketdi; qizning sargʻish oltin rang sochlari shamolda hilpirab uning yonoqlarini qitiqlardi. Shu payt u oʻzining soʻzga naqadar qashshoq ekanligini sezdi.

Barhaq egam! Qani endi bularning hammasini Rufga shunday soʻzlab bersaki, u ham hozir Martin koʻrib turgan manzarani koʻrolsa! Kutilmaganda Martin oʻz tafakkur koʻzgisida namoyon boʻlgan bu manzaralarni Rufga ehtiros-la tasvirlab bergisi keldi, bu istak, misoli alamli dard singari, uning qalbini oʻrtab yubordi. Birdan u hamma narsaga tushundi. Sirning kaliti bu yoqda ekan. Buyuk sanʼatkorlar, shoirlar va adiblar aynan shunday qilishadi-ku! Ularning ulugʻligi ham shunda. Ular oʻzlari koʻrayotgan, oʻylayotgan va his qilayotgan hamma narsani soʻz bilan ifodalay oladilar. Oftobda mudrab yotgan it koʻpincha uyqusirab gʻingshiydi, akillaydi, lekin u nima sababdan gʻingshigani va akillagani-ni izohlab berolmaydi. Martin ham bamisoli quyoshning tigʻida uxlab qolgan it, u ham ajoyib va gʻaroyib tushlar koʻradi-yu, ammo tushini Rufga soʻzlab berishga ojiz. Endi uxlashni bas qilish kerak. To koʻzlari ochilmaguncha va tili kalimaga kelmaguncha, koʻrgan tushlarining gʻaroyib xazinalarini Ruf bilan baham koʻrmaguncha tinmay oʻqiydi va ishlaydi. Oʻz fikrlarini ifoda etish sirlarini biladigan, soʻzlarni oʻzlariga quldek itoat ettira oladigan, hosila alohida raqamlarning oddiy yigʻindisidan tamomila boshqa boʻlganidek, soʻzlarni bir-biriga qoʻshib, mutlaqo yangicha maʼno beruvchi jumlar toʻqiydigan odamlar bor-ku axir. U oʻzini iztirobga solib yurgan sir maskaniga bir zumga kirib chiqqanini oʻylab, juda taʼsirlanib ketdi va yana koʻz oldida quyosh-u yulduzlar nuri toʻla olam charaqlab ketdi. Nihoyat, u oraga choʻkkan sukutdan hayratla-

nib, hushiga keldi-yu, o'ziga sho'x tabassum bilan tikilib o'tirgan Rufga ko'zi tushdi.

– Men ko'zim ochiq holicha tush ko'rdim, – dedi Martin va shu so'zlarni aytarkan, yuragi qattiq ura boshladi.

Bunday so'zlarni u qayerdan topdi? Nima sababdan sukutga cho'mganini bu so'zlar to'g'ri ifodalab bergan edi. Bu mo'jiza edi. U hech qachon go'zal fikrlarni bu qadar go'zal ifodalagan edi. Lekin u hech qachon bunga urinib ham ko'rmagan edi-da. Ha, bo'lmasam-chi. Endi hammasi ravshan. U urinib ko'rmagan. Suinbern, Tennonson, Kipling va boshqa buyuk shoirlar urinib ko'rishgan, shuning uchun ham ular chiqara olgan. Esiga o'zining «Marvarid ovlovchilar»i tushdi. U axir dilidagi go'zallikni hech qachon so'z bilan ifodalashga urinmagan edi-da. Agar u shunday qilganida hikoya tamomila boshqacha bo'lib chiqardi. Qanchadan-qancha go'zal narsalarni tasvirlashim mumkin edi, deb o'ylaganda, u dahshatga tushdi; xayol esa uni yana opqochib ketdi, shu choq birdan, meni hayajonga solgan jamiki go'zallikni she'riy misralar vositasi-la, buyuk shoirlar singari yangroq, oliyjanob she'rlar vositasi ila ifodalasam bo'lmasmikin, deb o'ylab qoldi. Hech bo'lmasa, o'zining Rufga bo'lgan muhabbatini, bu muhabbatning sirli jozibasini va yuksak ma'naviyiligini tasvirlashi kerak. Nima uchun shoirlar qilgan ishni u qilishi mumkin emas? Ular muhabbat haqida kuylaydilar. U ham kuylaydi. Arvoh ursin!..

Bu so'zlar uning qulog'i ostida momaqaldiroq sadosidek gumburlab ketdi. U xayolga berilib

ketib, bu soʻzlarni ovoz chiqarib aytib yuborgan edi. Yuziga qon quyilib, oftobda qoraygan badani tirnoqlarining uchigacha choʻgʻdek qizarib ketdi.

– Men... men, oʻtinaman, afv eting meni, – deb pichirladi yigit, – xayolga berilib ketibman...

– Siz xuddi «Men ibodat qilyapman» degandek ohangda talaffuz etdingiz, – deb qatʼiy ravishda hazil qilmoqchi boʻldi qiz, lekin vujudi qaltirab ketgan edi.

Ruf umrida birinchi marta oʻziga tanish boʻlgan odamning ogʻzidan chakki soʻz chiqqanini eshitgan edi, qulogʻiga xunuk eshitilgani, axloq tuygʻusini tahqirlagani uchungina u hayajonga tushmadi, balki ehtiyotlab parvarish qilinayotgan iffat chamaniga toʻsatdan kuchli shamol yopirilib kelgani uni choʻchitib yubordi.

Lekin shunga qaramay, u Martinning gunohidan kechdi, kechdi-yu, oʻz muruvvatidan oʻzi hayron qoldi. Negadir, uning gunohini kechirish qiyin emas edi. Hayot boshqalarga bergan koʻp narsalarni bu yigitga bermadi, lekin Martin boy bergan narsalarni qoʻlga kiritishga urinar va hozirdanoq koʻpgina natijalarga erishgan edi. Oʻzining muruvvatli boʻlishi boisini yana ham soddaroq izohlovchi boshqa sabablar ham borligi qizning xayoliga ham kelmasdi. U Martinga juda ham mehribon edi-yu, ammo buni oʻzi payqamasdi. Payqay olmas edi ham. U ishq nimaligini xiyolgina boʻlsa ham bilmay, yigirma toʻrt yil xotirjam yashadi, oʻz tuygʻularini tahlil qila bilmagan va shu choqqacha ishq otashida yonmagan bu qiz hozir shu ishq alangasida isinayotganini tushunmasdi.

O'N BIRINCHI BOB

Martin yana o'zining «Marvarid ovlovchilar»-ni yozishga kirishdi, agar she'r yozish istagi uning ko'ngliga g'ulu solmaganda, ehtimolki, ocherkini ham tezroq yozib bitirgan bo'larmidi. U yozgan she'rlar ishqiy she'rlar bo'lib, hammasi Rufdan ilhomlanib yozilgan edi. Biroq u bit-ta ham she'rni yozib tugata olmadi. Bu qadar qisqa vaqt ichida she'riyatdek yuksak san'atni egallab bo'lmas ekan. She'rning ohangi, vazni, umumiy tuzilishining o'zi ham xiylagina murak-kab, ammo bulardan boshqa, she'riyat san'atida yana allaqanday ko'zga ilinmaydigan bir xusu-siyat ham borki, bu xususiyatni Martin buyuk shoirlarning she'rlarida uchratgan-u ammo o'zi yozgan she'rlarga hech kirita olmagan edi. Bu she'riyat ruhi edi. Martin uni hech o'zlashtira olmayotgan edi. U Martinning ko'ziga qandaydir shu'ladek, boshi uzra parvona bo'luvchi allaqan-day rango-rang tutundek bo'lib ko'rinardi-yu, qo'lini uzatganida doim har tomonga to'zib ketar-di. Martin juda nari borsa, o'sha tutunning biron parchasini qo'lga ilintirishga muyassar bo'lib, alohida nafis misralar yaratardi; bu misralar yigitning miyasida xuddi musiqiy ohangdek ja-ranglardi yoki ko'z oldidan tiniq bir sharpa yang-lig' g'uv etib o'tib ketardi. Bu hol Martinni qattiq iztirobga solardi. Til uchida turgan eng ajoyib tuyg'ular ham qog'ozga yozilganda, eng oddiy nasriy jumlar bo'lib qolardi. Martin o'z she'rla-rini o'zicha ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Bu she'rlarda vazn bor, qofiya va ritm ham bir qadar

muvaqqiyatli chiqayotgan edi, ammo ularda na jo'shqin harorat, na chinakam ilhom mavjud edi. Buning sababini hech tushuna olmas va ba'zan umidsizlikka tushib, yana ocherkiga qaytardi... Nasr bir qadar itoatkor soha edi.

Martin marvarid ovlovchilar haqidagi ocherkidan keyin, dengizchining kasbi, toshbaqa ovi, shimoli-sharqdan esuvchi quruq tropik shamol haqida yana bir necha ocherk yozdi. So'ng kichikroq syujetli hikoya yozib, o'z kuchini sinamoqchi bo'ldi-yu, bu ishga berilib ketib, bir emas, oltita hikoya yozib tashladi-da, ularni turli jurnallarga yubordi. Uning kutubxonaga borgan yoki Rufning huzurida bo'lgan vaqti mustasno qilinsa, ertalabdan kechgacha, hattoki yarim kechagacha astoydil berilib, samarali ishlardi. Shu kunlarda Martin nihoyat darajada baxtiyor edi, uning hayoti bekam-u ko'st va go'zal edi, ijod parisi hech qachon undan yuz o'girmasdi. Ilgari u faqat xudolargagina xos narsa deb hisoblab yurgan yaratuvchilik quvonchiga endi o'zi ham musharraf bo'lgan edi. Uning atrofidagi hamma narsalar – irigan sabzavot va mag'zavaning badbo'y hidi, opasining baq-baqaloq gavdasi va mister Xigginbotamning pismiq basharasi – bularning hammasi allaqanday tushga o'xshardi. Chinakam dunyo faqat uning miyasida mavjud edi, u yozgan hikoyalar esa shu dunyodan namunalar edi.

Kunlar juda ham qisqa tuyulardi, chunki Martin juda ko'p narsani bilgisi kelardi. U uyqu vaqtini besh soatga tushirdi va buni yetarli deb topdi. U hatto to'rt yarim soat uxlashga ham

urinib ko'rdi, ammo noiloj besh soatli muddatga qaytishga majbur bo'ldi. Qolgan hamma vaqtini shavq-zavq bilan sevimli mashg'ulotiga bag'ishladi, u darsliklarni o'qish uchun istar-istamas asar yozishdan to'xtar, so'ng kutubxonaga borish uchun darsliklarni chetga surib qo'yar, kutubxonada esa ming afsus bilan ilm-fanning shturmanlik rubkasini tark aylar yoki yozuvchilar qandaydir yo'lini qilib o'z asarlarini bostirgan jurnallarni o'qishdan boshini ko'tarardi. Martin Rufning huzurida bo'lib, har safar o'rnidan turib jo'nab ketmoqchi bo'lganda, uni o'z yuragidan yulib olib tashlashga majbur bo'lardi; uydan chiqqach esa tezroq kitoblari oldiga yetib borish uchun zimiston ko'chalardan shosha-pisha chopib ketardi. Lekin algebra va fizika darsliklarini yopish, qalamni bir chekkaga surib qo'yib, horg'in ko'zlarini yumishga jazm qilish hammadan ham mushkul edi. Shu qisqa muddat ichida ham hayot quchog'idan o'zini chetda his qilish Martin uchun nihoyatda mushkul tuyular, faqat besh soatdan so'ng soat jiringi meni yana uyg'otadi, degan fikr bilan o'ziga tasalli berardi. U faqat besh soat yo'qotadi, so'ng quloqni kar qiluvchi qo'ng'iroq sadosi uni samarasiz g'aflat quchog'idan tortib oladi-yu, ixtiyorida yana o'n to'qqiz soatlik ish vaqti bo'ladi.

Bu orada vaqt o'tib borardi. Martinning pullari tugay deb qoldi, ammo gonorardan hamon darak yo'q edi. «Yoshlar hamrohi»ga yuborgan qo'lyozmasini bir oydan keyin qaytib oldi. Rad javobi shunday nazokat bilan yozilgan ediki, Martin o'zida hatto noshirga nisbatan husn-tavaj-

juh tuygʻusini his qildi. Lekin «San-Frandisko axboroti» boshqacha muomala qildi. Martin ikki hafta kutgach, jurnalga xat yozdi: bir haftadan keyin yana yozdi. Hadeganda javob kelavermaganidan keyin muharrir bilan shaxsan suhbatlashgani oʻzi tahririyat bordi. Biroq eshikda soqchilik qilib turgan maxluq – malla soch yigit oliy zotning muborak chehralarini mushohada qilish uchun Martinni ichkari qoʻymadi. Besh hafta deganda, qoʻlyozma hech qanday izohsiz pochta orqali qaytarib yuborildi. Na rad javobi, na tushuntirish maktubi bor edi. Shuningdek, oradan koʻp oʻtmay, San-Fransiskoning yirik gazetalariga yuborgan boshqa qoʻlyozmalari ham qaytib keldi. Shundan keyin Martin asarlarini Sharqiy shtatlarning jurnallariga yubordi, lekin hash-pash deguncha qoʻlyozmalari u yerlardan ham qaytib keldi, lekin har bir qoʻlyozmaga, asarlaringizni bosishning imkoni yoʻq, degan maʼnoda mashinkada bosilgan xabar ilova qilib yuborilardi.

Hikoyalarning qismati ham xuddi shunday boʻldi. Martin hikoyalarni qayta-qayta oʻqib chiqdi, ular oʻziga shunday yoqdiki, nima sababdan jurnallar ularni qatʼiyan rad qilishlariga hech tushuna olmadi; u gazetalardan birida, yuboriladigan qoʻlyozmalar albatta mashinkada bosilgan boʻlishi shart, degan gapni oʻqidi-yu, hamma gapga tushundi. Masala ravshan. Muharrirlar, shubhasiz, nihoyat darajada band boʻlsalar kerag-u, oʻqilishi qiyin qoʻlyozmalarni koʻzdan kechirishga vaqt topa olmasalar kerak. Martin ijaraga yozuv mashinkasi olib, kun boʻyi unda yozishni

mashq qildi. Endi u har kuni kechqurun, kunduzi yozganlarini mashinkada ko'chirardi, bundan tashqari, u avval yozgan hamma asarlarini asta-sekin mashinkada ko'chirib chiqa boshladi. Lekin mashinkada bosilgan qo'lyozmalar ham qaytib kela boshlagandan keyin Martinning taajjubi o'shdi. Uning chehrasida o'jarlik ifodasi paydo bo'ldi, iyagi alamzadalikdan oldinga turtib chiqdi, lekin shunda ham qat'iyat bilan qo'lyozmalarini hamon yangi-yangi manzillarga yuboraverdi.

Nihoyat, uning miyasiga, o'z asarlarim to'g'risida o'zim mulohaza yuritishim juda qiyin, degan fikr keldi. U Gertrudaning fikrini bilmoqchi bo'ldi-da, unga hikoyalaridan ba'zilarini o'qib berdi. Opasining ko'zlari chaq nab ketib, Martinga g'urur bilan qarab dedi:

– I-ye, ajoyib narsalar yozgansan-ku!

– Ha, ha, – sabrsizlik bilan opasining so'zini bo'ldi Martin. – Ochig'ini ayt, senga yoqdimi?

– Voy, xudoyim-yey, – dedi opasi. – Nimaga endi yoqmas ekan. Menga shunaqayam ta'sir qildiki, asti qo'yaver!

Lekin hikoyasining hamma yerlari ham opasiga tushunarli bo'lmaganini Martin sezayotgan edi. Opasining ochiq chehrasida hayronlik alo-mati bor edi. Martin kutardi.

– Menga ayt-chi, Mart, – uzoq sukutdan so'ng dedi opasi, – ularning ishi nima bilan tugadi? Anavi mahmadona yigit bor-u... nima bo'ldi, qizga uylandimi?

Hikoyaning nima bilan tugashi Martinga syujetning rivojiday ochiq-oydin ko'rinib turardi. Martin buni opasiga tushuntirib bergandan keyin, opasi:

– E, bunaqa degin, – dedi, – nimaga endi to'ppa-to'g'ri shunday deb yoza qolmading?

Martin opasiga o'ntacha hikoya o'qib bergandan keyin tushundiki, unga oxiri baxayr bo'lgan hikoyalar yoqarkan.

– Yaxshi hikoya, nimasini aytasan, – dedi opasi kir tog'ora ustida qaddini rostlab va xo'rsinib turib, qaynoq suvda halimday yumshab, qip-qizarib ketgan qo'li bilan peshanasini artarkan, – faqat judayam yuragim ezilib ketdi. Yig'lab yuboray dedim. Shundoq ham hamma yog'imiz kishini g'amnok qiladigan narsalar bilan to'lib yotibdi. Xayrli narsalar to'g'risida eshitsam, o'zimning ham dilim yorishib ketadi. Ular turmush qurishganda edi, yaxshi bo'lardi... Mendan xafa bo'lmayapsanmi, Mart? – deb so'radi u xavotirlanib. – Balki menga shunday tuyulgandir, negaki men juda ham charchaganman. Bo'lmasa, hikoyang juda ajoyib, biram ajoyibki. Qaysi jurnalga joylashtirmoqchisan uni?

– Bu boshqa masala, – deb jilmayib qo'ydi Martin.

– Mabodo joylashtirsang, qancha pul olarding?

– Har holda, kamida yuz dollar olsam kerak.

– O'h-ho', rostdan ham joylashtira qolsang yaxshi bo'lardi.

– Puli chakki emas-a? – keyin Martin g'urur bilan ilova qildi: – Shuni bilki, buni men ikki kunda yozib tashladim. Kuniga ellik dollardan tushadi!

Martin o'z hikoyalarini Rufga o'qib bergisi keldi-yu, lekin yuragi betlamasdi. U to biron asari matbuotda bosilib chiqmaguncha sabr qilmoqchi

bo'ldi, o'shanda Ruf, hech bo'lmasa, Martinning tirishqoqligiga qoyil qoladi-ku. Bu orada o'qishni ham davom ettiraverdi. Hech bir sarguzasht ilm-fanning tadqiq etilmagan bu changalzorlariga qilingan sayohatdek qiziqarli tuyulmagan edi unga. U fizika va ximiyadan darsliklar sotib oldi. Algebra bilan bir qatorda fizika qonunlarini, ularning isbotlarini o'rgandi. Tajriba qismlarini esa g'oyibona inobatga olishga to'g'ri kelardi, lekin uning kuchli tasavvuri har qanday kimyoviy reaksiyalarni yaqqol tasavvur qilishga imkon berardiki, oqibat, ularni tajriba tepasida turgan talabalardan ham yaxshiroq tushunardi. Martin darslik sahifalari orqali tadrijiy ravishda tabiat va dunyo sirlarini anglay boshladi. Ilgari u dunyoni mavjud bir muhit deb bilardi, endi esa, uning tuzilishini, quvvat va moddaning bir-biriga ta'siri va tabiatini tushuna boshladi. Uning aqli ko'pdan tanish bo'lgan narsalarni endi asta-sekin izohlaydigan bo'ldi. Richaglar va bloklarni ko'rgan zahoti, dengiz safari vaqtida ishi tushgan chig'irlar va ko'tarma kranlarni es-ladi. Kemalarning ochiq dengizda yo'ldan adashmasligiga imkon beruvchi navigatsiya nazariyasi bir zumda unga eng sodda va kunday ravshan bo'lib qoldi; u bo'ronlar, yomg'irlar, dengiz su-vining qalqib ko'tarilishi sirlarini bildi, hattoki quruq tropik shamolning paydo bo'lish sababini ham o'rgandi va shimoli-sharqdan esuvchi tropik shamol haqidagi ocherkimni yozishda shoshqa-loqlik qilmadimmikin, degan mulohazaga ham bordi. Har holda, ocherkni endi yozsa, durustroq chiqishini his qila boshladi. Bir kun u Artur bi-

lan universitetga bordi va nafasini ichiga yutib, laboratoriyada olib borilayotgan tajribalarni kamoli ehtirom bilan kuzatdi, fizika professorining leksiyasini tingladi.

Lekin adabiyot mashg'ulotlarini ham bir chetga yig'ishtirib qo'ymadi. Uning qalami ostidan ocherk va hikoyalar turnaqator tizilishib chiqib kelardi, buning ustiga u yana, jurnallarda bosilayotgan she'rlarga o'xshash oddiygina she'rlar ham yozishga vaqt topardi; keyin birdan quyushqondan chiqib ketib, ikki hafta ichida oq she'r bilan bir tragediya yozib tashladi, lekin bu asarni besh-olti noshir o'sha zahoti chiqitga chiqarib, Martinni taajjublantirib qo'ydi. Bir kuni u Genlining asarlarini mukkasidan tushib o'qib chiqdi-yu, «Kasalxona karavotida yozilgan dostonlar»ga o'xshatib, dengiz haqida bir turkum she'r yozdi. Bu orzular bilan to'lib-toshgan, jangovar ruhdagi porloq va ta'sirchan oddiy she'rlar edi. Martin bu she'rlariga «Dengiz qo'shiqlari» deb nom qo'ydi, bu to'plamini shu paytgacha yozgan asarlari ichida eng yaxshisi deb topdi. To'plamda o'ttizta she'r bor edi; u bir oy mobaynida, har kuni kechqurun bittadan she'r yozgan edi, kun bo'yi proza bilan shug'ullanardi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Martinning bir kunda yozgan proza asarini yozish uchun har qanday manaman degan mashhur adib ham kamida bir hafta vaqt sarflagan bo'lardi. Lekin Martin uchun bu ish hech gap emasdi. U hatto buni ish deb ham hisoblamasdi. Shunchaki u endi tilga kirgan edi-yu, juda ko'p yillardan beri qalbida tovush chiqarmay yotgan nafosat haqidagi jami-

ki orzu va fikrlari endi har qanday g'ovlarni buzib, qudratli va yangroq oqim singari sirtga otilib chiqa boshlagan edi.

Martin o'zining «Dengiz qo'shiqlari»ni hech kimga ko'rsatmadi ham, hech qayoqqa yubormadi ham. Uning muharrirlarga ishonchi qolmagan edi. Ammo bu safar o'z asarini muharrirlarga ishonchi qolmaganidan olib qolgani yo'q. To'plamidagi she'rlarning nafisligi uni quvontirar va quvonchini yolg'iz Ruf bilan baham ko'rishni istardi; Martin o'z asarini Rufga o'qib berishga jur'at eta oladigan baxtli onlar axir bir kun keladi deb umid qilardi. Ungacha bu she'rlarini saqlab qo'yishga ahd qildi, ayni vaqtda, ularni qayta-qayta o'qiyverib, axiyri yod oldi.

U uyg'oq vaqtida har bir daqiqani bekor o'tkazmasdi, hattoki uxlab yotganida ham miyasi ishlardi; uning ongi besh soatlik majburiy faoliyatsizlikka qarshi norozilik bildirib, kun bo'yi o'ylagan, boshidan kechirgan har bir narsaga yopishib, aql bovar qilmaydigan, ma'nosiz xayollarni vujudga keltirardi. Shunga ko'ra, hech qachon dam olmas, uning o'rnida jisman ojizroq va ruhan nosog'roq odam bo'lganida, allaqachon ko'rpa-yostiq qilib yotib olgan bo'lardi. U Ruf bilan tobora kamroq uchrashadigan bo'lib qoldi; imtihonlar boshlanadigan iyun oyi yaqinlashib qolgan edi, Ruf shu imtihondan o'tsa, universitet diplomini olardi. San'at fanlari bakalavri! Martin shu daraja haqida o'ylaganida, Ruf juda yuksak fazoga parvoz qilib ketayotganday va Martin unga hech qachon yeta olmaydiganday bo'lib tuyulardi.

Harqalay, Ruf haftada bir kunini Martin-ga bag'ishlar, shu kuni, odatda, Morzlarnikida ovqatlangani qolar, ovqatdan keyin esa musiqa eshitardi. Bu kunlar uning uchun misoli bayram edi. Morzlar uyida hukm surgan muhit Martin yashab turgan muhitga mutlaqo o'xshamasdi, Rufning o'ziga yaqinligidan shu qadar ilhomlanardiki, har gal uyiga qaytayotib, nima qilib bo'lsa ham, shu darajaga muyassar bo'lmay qo'ymayman, deb xayolan ont ichardi. Ijodga ishtiyoqi va yuragini orziqtirgan nafosatga tashnaligi bitmas-tuganmasligiga qaramay, birinchi galda yolg'iz Rufni deb mehnat qilayotgan edi. U birinchi galda oshiq edi va qolgan hamma narsani shu ishqiga tobe qilib qo'yan edi. Ishq-muhabbat orzusi uning uchun ilm olish orzusidan muhimroq edi. Dunyo allaqanday sirli qonunlarga tobe bo'lgan molekula va atomlardan tashkil topgani uchun jozibali bo'lib ko'rinmasdi, balki Ruf yashayotganligi uchun jozibali edi. Ruf – mo'jiza edi, ammo bu mo'jiza ilgari hech qachon Martinning xayoliga ham kelmagan edi.

Lekin Martin o'z oralaridagi masofani o'ylaganda, doim ma'yuslanardi. Ruf undan nihoyat darajada yiroqda, shuning uchun ham u qancha ko'p o'ylagani bilan qizga yaqinlashish ilojini topa olmas edi. O'z sinfiga mansub xotin-qizlarga Martin hamma vaqt xush yoqardi. Lekin ularning biron-tasini ham sevmagan edi. Rufni esa sevib qoldi. Masala Rufning boshqa sinf namoyandasi ekanligida emasdi. Martinning muhabbati Rufni har qanday oliy sinflardan ham yuksakka olib chiqib qo'yan edi. Qiz boshqa hamma qizlardan tamo-

mila farq qiladigan shunday bir g'ayrioddiy xilqat ediki, Martin unga o'z muhabbatini qanday izhor etishni ham bilmas edi. To'g'ri, endi ko'p narsani bilib, chiroyli gapirishni o'rgangandan keyin, qiz go'yo unga yaqinlashganday bo'ldi, ularning tili, suhbat mavzulari, didlari va zavqlari hamohang bo'lib qoldi, ammo muhabbatga bo'lgan tashnaligini bu bilan qondirib bo'lmasdi. Oshiqi-beqaror bo'lgan Martinning tasavvuri qizni shu qadar muqaddas, shu qadar ilohiy, beg'ubor malak darajasiga olib chiqib qo'ygan ediki, jismoniy yaqinlashish haqidagi har qanday fikrni ham rad etardi. Martin zo'r ehtiros bilan istagan narsani uning muhabbati tortib olgan edi.

Nihoyat, kunlardan bir kun ularni ajratib turgan jarlik ustiga bip zumgina ko'prik tashlandi, shu zumdan boshlab, bu tubsiz jardan o'tish mumkinga o'xshab qoldi. Ular yirik-yirik qoraygan olcha yeb o'tirardilar, olchanning shirasi nordon musallasni eslatardi. Keyin qiz Martinga «Malika»ni o'qiy boshlaganida, u qizning dudoqlarida olcha shirasi izlarini ko'rib qoldi. Bir on qiz ma'budaga o'xshamay qoldi. U tan va jondan bunyod bo'lgan bir xilqatga aylandi; uning jismi ham Martinning jismi va boshqa har qanday odamning jismi singari bitta hayot qonuniga itoat etardi. Qizning dudoqlari ham Martinniki singari tan va jondan iborat edi, olcha shirasi ham uning dudoqlarida xuddi Martinning labidagi singari iz qoldirgandi. Modomiki, qizning dudoqlari shunday ekan, uning butun vujudi ham xuddi shunday edi. U ayol edi – boshqa jamiki ayollarga o'xshash ayol kishi edi. Bu fikr

Martinni go'yo momaqaldiraq singari gangitib qo'ydi. Uning uchun bu chinakam bir kashfiyot edi. Go'yo u o'zini osmondan quyosh yiqilib tushayotganini yoki murtadlarning tangri-taologa shak keltirishini ko'rgandek his qildi.

Martin bu kashfiyotning ma'nosiga tamomila tushunib olganidan keyin, siynasidagi yuragi, aslo osmoni falakdan uchib tushgan malakning emas, balki dudoqlariga olcha shirasi yuvgan oddiy ayol bo'lmish bu qizning muhabbatini qozonishga da'vat etib, qattiq-qattiq tepa boshladi. Bu jur'atli fikrdan seskanib ketdi, ammo aql va qalb sadosi g'olibiyat qo'shig'ini jo'r bo'lib kuylab, uning haq ekanligini ta'kidlardi. Ruf Martinning kayfiyatida to'satdan yuz bergan bu o'zgarishni payqadi, shekilli, birdan o'qishni to'xtatib, unga qaradi va tabassum qildi. Martin qizning moviy ko'zlaridan tortib, olcha shirasining izi qolgan dudoqlarigacha ko'zdan kechirdi; shu jajjigina dog' Martinning es-hushini olib qo'ygan edi. U bir vaqtlar sayoq yurgan paytlarida ko'pincha qo'lini ayollarga cho'zgani singari, hozir ham qo'lini Rufga cho'zishga tayyor edi. Qiz esa xiyolgina Martin tomonga tashlanib, uning shu qo'l uzatishini kutayotgandek edi, shuning uchun yigit jon-jahdi bilan tirishib, o'zini bosishga urindi.

– Siz hech nima eshitmadingiz, – dedi qiz o'pkalanib.

Keyin yigitning xijolat bo'lganidan zavqlanib, shu zahotiyoq jilmayib qo'ydi. Martin uning chaqnab turgan ko'zlariga tikilib, o'z dilida yuz bergan tug'yondan Rufning tamomila bexabar ekanligini angladi va uyalib ketdi. U xayolan juda ortiqcha

narsaga jur'at etdi! Boshqa har qanday ayol – Rufdan boshqa har qanday ayol uning bu holatiga tushungan bo'lardi. Ammo Ruf tushunmadi. U mana shu bilan boshqalardan farq qilardi! U boshqalarga o'xshamasdi. Martin o'zining beadabligiga va qizning ma'sumaligiga iqror bo'lganidan lol qolib, Rufga tikilib turardi, oralarida yana chuqur jar paydo bo'ldi. Ko'prik vayron etildi.

Shunday bo'lsa ham, bu hodisa uni qizga yaqinlashtirdi. Bu hodisa xotirasi xayoldan o'chmadi va umidsizlikka, taraddudga tushgan chog'larida unga tasalli beradigan bo'ldi. Jarlik endi ilgari vaqtdagidek teran emas edi. U san'at fanlari bakalavri unvonini olish uchun bosib o'tiladigan yo'ldan ham ko'proq yo'lni bosib o'tdi. To'g'ri, Ruf pokiza edi, shu qadar pokiza ediki, bu kabi iffatning mavjudligini Martin ilgari hech qachon bilmagan edi. Lekin uning dudoqlarida olcha dog' qoldirardi. U dunyodagi hamma odamlar singari tabiat qonunlariga itoat etardi, u yashash uchun ovqat yeyishi kerak, shamollashi, kasal bo'lishi mumkin edi. Lekin muhimi bu emas. Muhimi shunda ediki, u ochlik va tashnalikni his qilishi, issiq va sovuqdan aziyat chekishi, demakki sevishi, erkak kishini sevishi mumkin edi. Martin erkak kishi edi! Modomiki, shunday ekan, nega u Rufning sevgilisi bo'lolmaydi? «Men baxtga erishaman, – deb jonsarak bo'lib pichirlardi Martin. – Rufning sevgan kishisi bo'laman! Bu qo'limdan keladi. Men saodatga erishaman!»

O'N IKKINCHI BOB

Bir kun kechqurun Martin miyasini band qilgan ajoyib, lekin noaniq obrazlarni sonet⁹da ifodalash uchun qiynalib urinib o'tirganida, uni telefonga chaqirib qolishdi.

– Seni bir xonim so'rayapti. Ovozidan asilzoda xonimga o'xshaydi, – dedi istehzo bilan mister Xigginbotam.

Martin burchakda turgan telefonga yaqinlashdi, u Rufning ovozini eshitishi bilan go'yo boshidan qaynoq suv quyib yuborishganday bo'ldi. Martin sonet yozish bilan ovora bo'lib, Rufni unutib qo'ygan edi, lekin qulog'iga tanish ovoz eshitilgan zahoti, muhabbat o'qi bamisoli yashindek qaqshatqich kuch bilan uning yuragiga sanchildi. Qanday ajib ovoz edi bu! U go'yo yiroq-yiroqlardan eshitilayotgan musiqadek, kumush qo'ng'iroqchalarning billur ovozidek nafis va ohangdor edi. Yo'q! Oddiy ayol kishida bunday ovozning bo'lishi mumkin emas. Bu ovozda allaqanday samoviylik, g'ayrioddiylik bor edi. Jo'sh urib borayotgan hissiyotlarga berilib, Martin Rufning nima deytganiga zo'rg'a tushundi, lekin mister Xigginbotamning sichqonnikiga o'xshagan ko'zlari uni teshib yuborgudek tikilib turgani uchun Martin sirtidan o'zini xotirjam ko'rsatishga urindi.

Rufning unda hech qanday ishi yo'q edi; shunchaki bugun kechqurun Norman bilan ommabop leksiya eshitgani borishi kerak ekan-u, lekin – qanday taassuf! Normanning boshi og'rib qolib-

⁹ Sonet – o'n to'rt qator she'r.

di, chiptalar olib qo'yilgan ekan, shuning uchun Martin agar band bo'lmasa, u bilan bora olmas-mikin, shuni bilmog'chi ekan.

Agar band bo'lmasa! Martin o'z ovozinig tit-rayotganini zo'rg'a yashirdi. U quloqlariga ishonmasdi! Shu paytgacha u Ruf bilan faqat uning uyida uchrashgan edi va uni biron yoqqa taklif qilishga jur'at eta olmagan edi! U qo'lida telefon go'shagini ushlab turarkan, shu qiz uchun jonini fido qilishga tayyor ekanligini his qildi va xayolan ko'z oldidan qahramonona obrazlar o'ta boshladi, muhabbat yo'lida jonini fido qilish manzaralari namoyon bo'ldi. U Rufni nihoyatda kuchli, dahshatli bir tarzda, noumidlik bilan sevardi. U Rufning o'zi bilan, ya'ni, Martin Iden bilan birga leksiyaga borishini o'ylaganda, uni shunday telba quvonch qamrab oldiki, shu onning o'zida Ruf uchun jon fido qilgisi keldi. Bundan yaxshiroq hech nima o'ylab topa olmasdi. O'zining tuyg'usi cheksiz va beg'araz ekanini ko'rsatishning birdan-bir to'g'ri yo'li shu edi. Bu chin yurakdan sevgan har bir oshiqda tanish fidokorlik tuyg'usi edi, u qiz bilan telefon orqali qilingan qisqa muddatli suhbat paytida, bu tuyg'u misoli o't ufuruvchi bo'rondek Martin xayolini chulg'ab olgan edi. Uning yo'lida o'lish, deb o'ylardi Martin, yashash va chinakamiga uni sevish demakdir. Martin endi yigirma birga kirgan edi, bu uning ilk muhabbati edi!

Martin titroq qo'llari bilan go'shakni osib qo'ydi, so'ng hozirgina boshidan kechirgan hayajondan darmonsizlanib qoldi. Uning ko'zlari farishtalarning ko'zidek chaqnardi, go'yo foni

dunyo marazlarini yuvib, muqaddas va pok boʻlgan kishidek chehrasi tamomila boshqa qiyofaga kirdi.

– Xilvat yerda uchrashmoqchimisizlar deymen, a? – ichiqoralik bilan pichirladi pochchasi. – Buning oqibati nima boʻlishini bilasanmi? Toʻppa-toʻgʻri politsiya mahkamasiga borib tushasan, uka.

Ammo Martin osmondan darhol tusha olmasdi. Hattoki pochchasining jirkanch luqmalari ham uni yerga tushira olmadi. U gʻazab va asabdan juda ham yiroqda, u hamon butun vujudi bilan ajib xayollar ogʻushida edi, shuning uchun u xuddi parvardigorga oʻxshab pochchasi singari past maxluqlarga faqat achinib qarardi. U mister Xigginbotamni payqamadi ham, Martinning koʻzlari undan juda yiroqdagi narsalarni mushohada qilardi. Keyin u boshqa kiyimini kiyish uchun xuddi tush koʻrayotgan odamday xonadan chiqdi. U kichkina koʻzgu oldida gals-tugini bogʻlay boshlagandagina gʻashga teguvchi allaqanday ovoz shuuriga etib keldi. Bu Bernard Xigginbotamning Martin qulogʻida qolgan ahmoqona kulgisi edi, buni Martin goʻyo endi eshitayotgan edi.

Morzlarning eshigi ularning orqasidan yopilib, Martin Ruf bilan birga zinapoyadan tushib borarkan, birdan sarosimaga tushib qoldi. Bu sayr shodiyonasi kutilmagan shubhalar bilan xiralashdi. U oʻzini qanday tutishni bilmasdi. Qizning davrasidagi kishilar koʻchaga chiqqanda ayol kishini qoʻltiqlab olganini bir emas, bir necha marta koʻrgan edi. Lekin hamma vaqt shunday

qilinmas edi, shuning uchun ham, u faqat kech-qurunlari qo'ltiqlashib yurishadimi yoki ehtimol, faqat er-xotinlar yo aka-singillar qo'ltiqlashib yurishadimi, deb o'ylab taraddudlanib qoldi.

Martin oxirgi zinaga oyoq qo'yarkan, birdan Minni esiga tushib ketdi. Minni modaga juda mukkasidan ketgan ayol edi, ular ikkinchi mar-ta uchrashishganidayoq, u Martinni yo'lkaning ichkari tomonidan yurgani uchun urishib bergan edi; holbuki, chinakam jentlmen xonimi bilan sayr qilib yurganida doimo yo'lkaning chekkasidan yurishi kerak ekan. Shundan keyin Minni Martin qayerdan yurishini unutmasin deb, ko'chadan o'tib ketishayotganda, uning oyog'ini bosishni odat qilib olgan edi. Biroq bu odatni qayerdan kovlab topganini va bunday odat kiborlar jamiyatida bormi, yo'qligini Martin bilmas edi.

Nihoyat, Martin, shunday qilsam, har holda, ziyon bo'lmaydi-ku, degan qarorga keldi-da, ko'chaga chiqishgach, Rufni oldinga o'tkazib yuborib, o'zi yo'lkaning chekka tomonidan u bilan yonma-yon yurib ketdi. Lekin bu o'rinda ikkinchi bir muhim masala tug'ildi. Qizga qo'l berish kerakmikin? Shu paytgacha u hech qachon o'zi bilan yurgan ayolning qo'lidan ushlab yurmagan edi. O'zi aylanishgan qizlar yigitlar bilan qo'ltiqlashib yurmas edilar. Endi tanishgan paytlarida ular shundoq, yonma-yon yurardilar, keyinroq esa xilvat tor ko'chalarni tanlab, bosh-larini yigitning yelkasiga qo'yib yurardilar, yigit esa uning belidan quchoqlab olardi. Lekin bu yerda masala boshqacha edi. Ruf aslo u qizlarga

o'xshamasdi. Shuning uchun Martin nima qilishini bilmay hayron edi.

Shu choq go'yo bexosdan, o'z odati bo'yicha, o'ng qo'lining tirsagini xiyolgina bukkan edi, darhol mo'jiza sodir bo'ldi. Martin o'zini Ruf qo'ltiqlab olganini his qildi. Butun vujudini yoqimli titroq bosdi va bir lahza oyoqlarini yerdan uzilganday, yelkalarida qanot paydo bo'lganday his qildi. Biroq yana yangi bir qiyinchilik uni avvalgi holatiga qaytardi. Ular ko'chani kesib o'tdilar va Martin endi yo'lkaning sirtqi emas, ichkari tomoniga o'tib qoldi. Endi nima qilsin? Qizning qo'lini qo'yib yuborib, joyini almashtirsinmi? Bordi-yu, yana ikkinchi marta ko'chani kesib o'tishga to'g'ri kelsa, unda nima qiladi? Uchinchi martasida-chi? Bu qoida unchalik oydin emas edi, shuning uchun Martin hadeb goh u tomonga, goh bu tomonga likillab o'tib jinnilik qilmay degan qarorga keldi. Lekin bu qarori uning o'zini unchalik qoniqtirmasdi, shuning uchun u yo'lkaning ichki tomonidan yura boshlaganida allanimalar to'g'risida astoydil berilib gapira boshladi. Bu bilan u, bordi-yu, Rufning ko'ngliga kelsa, meni gapga berilib ketib, shunchaki narigi tomonga o'tishni unutilib qo'ydi deb o'ylay qolsin, demoqchi edi.

Brodveyda Martin yana yangi sinovdan o'tishiga to'g'ri keldi. Ko'cha fonuslari yorug'ida birdan Lizzi Konolli bilan uning kulong'ich dugonasini ko'rib qoldi. U bir zum, faqat bir zumgina taraddudlanib qoldi, lekin shu zahotiyuq boshidan shlyapasini olib, ta'zim qildi. U o'z muhiti kishilarini ko'rganda xijolat bo'lmoqchi emas edi, un-

dan keyin, bergan salomi yolg'iz Lizzi Konolliga oid emasdi. Qiz Martinga sho'x chaqnab turgan chiroyli ko'zlari bilan yalt etib qarab, unga javoban bosh irg'adi; uning ko'zlari Rufning nurli va ravshan ko'zlariga aslo o'xshamasdi. Lizzi Rufga bir nazar tashlab, aftidan, uning tashqi qiyofasi, liboslaridan darhol qizning jamiyatda tutgan mavqeini tushundi. Martin Rufning ham u qizga nazar tashlaganini payqadi, bu ma'sumona qarash bir zumda, qizning egnidagi arzon kiyimlari va ishchi ayollar kiyib yurishni yaxshi ko'radigan antiqa shlyapani payqab olishga imkon bergan edi.

– Juda chiroyli qiz ekan, – dedi Ruf bir daqiqadan so'ng.

Bu gap uchun Martin Rufdan minnatdor bo'lishga ham tayyor edi, lekin bunday dedi:

– Bilmadim. Har kimning o'z didi bo'lsa kerak; men uni unchalik go'zal deya olmayman.

– Yo'g'-e, nima deyapsiz? Bunday xushbichim qomat mingtadan bittada uchraydi. Uning yuzi xuddi tarashlangan asil toshga o'xshaydi. Ko'zlari ham g'oyat fusunkor!

– Siz shunday fikrdamisiz? – loqaydlik bilan dedi Martin, chunki uning uchun dunyoda faqat bitta go'zal ayol bor edi, u ayol hozir uning qo'liga suyanib yonida ketib borardi.

– Agar bu qizni yaxshilab kiyintirib, o'zini tuta bilishga o'rgatilsa, sizni ishontirib aytamanki, u hamma erkaklarni, shular qatori sizni ham o'ziga maftun qilgan bo'lardi, mister Iden.

– Birinchi galda, unga to'g'ri gapirishni o'rgatish kerak bo'ladi, – deb javob qildi Martin,

– aks holda, ko'pchilik erkaklar uning gapiga tushunmagan bo'lardi. Aminmanki, agar u qiz o'z odati bo'yicha gapiradigan bo'lsa, gaplarining yarmini ham tushunmasdingiz.

– Bema'nilik! Siz ham biron narsani isbotlamoqchi bo'lsangiz, xuddi Arturga o'xshab, qaysarlik qilasiz.

– Siz bilan birinchi marta uchrashganimizda qanday gapirganimni unutdingizmi? Hozir tamomila boshqacha gapiraman. U paytda men ham xuddi anavi qizga o'xshab gapirardim. Ammo bu orada ancha-muncha narsa o'rgandim, u qizning tilini tushunolmasligingizni endi men sizga ta'nish bo'lgan tilda isbotlab bera olaman. Mana, siz qizning o'zini tuta bilmasligiga e'tibor berdingiz. Nimaga shunday ekanligini bilasizmi? Men hozir ilgari xayolimga ham kelmagan narsalar to'g'risida doim bosh qotiraman, endi ko'p narsalarga tushuna boshlayapman.

– Nima uchun u qiz o'zini bunday tutarkan?

– U qiz bir necha yildan beri fabrikada ishlaydi. Yosh odamning badani mumga o'xshash yumshoq bo'ladi, shuning uchun og'ir mehnat qomatini o'z qolipiga soladi; gavda mazkur ish uchun qulay bo'lgan vaziyatga beixtiyor o'rganadi. Men ko'chada o'tib ketayotgan ishchini bir ko'rishimdayoq qanday ish bilan shug'ullanishini aytib bera olaman. Mana, meni oling. Nima sababdan chayqalib yuraman? Chunki butun umrim dengizda o'tgan. Bordi-yu, shuncha yildan beri men matros emas, kovboy bo'lganimda edi, bunaqa chayqalib yurmasdim-u, lekin oyoqlarim ayri bo'lib qolgan bo'lardi. Boyagi qizning vaziyati

ham shunday. Siz uning ko'zlariga, agar ta'bir joiz bo'lsa, tikandek ko'zlariga e'tibor berdingizmi? Hech qachon biron kishining panohida yashamaganligining alomati bu. U hamma vaqt o'z g'amini yeyishi kerak, qiz bolaki o'z g'amini o'zi yeb, o'zi qayg'uradimi, uning ko'zlari hech qachon, masalan... sizning ko'zlaringiz singari mehribon, mayin boqmaydi.

– Gapingiz balki to'g'ridir, – dedi ohistagina Ruf.
– Qanday dahshat-a, bu! Shunday go'zal qiz...

Martin unga tikilib, ko'zlarida achinish alomati porlaganini ko'rdi. Shu onning o'zida u Rufni naqadar sevishini, uni sevishdek va birgalikda qo'ltiqlashib leksiyaga borishdek ulug' baxtga muyassar bo'lgani haqida o'ylay boshladi.

«Sen kimsan o'zing, Martin Iden? – deb so'radi u o'zidan o'zi o'sha kuni kechqurun uyiga qaytib kelgach, ko'zgu'da o'zini kuzatarkan. U ko'zgu'dagi aksiga uzoq vaqt sinchiklab tikilib turdi. -- Kimsan va nimasan? O'rning qayerda o'zi? Sening o'rning Lizzi Konolli singari qizning yonida. Sening o'rning million-miljon zahmatkashlar orasida – hamma narsa dag'al, qo'pol va xunuk bo'lgan joyda. Sening o'rning og'ilxonada, otxonada, axlat va go'ngxonada. Qo'lansa hidni sezyapsanmi? Kartoshka chiriyapti. Hidla, arvoh urgur, to'yib-to'yib hidla! Sen bo'lsang, tumshug'ingni kitoblarga tiqishga, nafis musiqa kuylarini tinglashga, ajoyib suratlarni tomosha qilishga, o'z tilingni to'g'rilashga, o'rtoqlaringdan biron tasining ham xayoliga kelmagan narsalar to'g'risida o'ylashga, Lizzi Konollidan voz kechib, o'zingdan nihoyat darajada uzoqda, yulduzlar

olamida oshyon qurgan qizga muhabbat qo'yishga jur'at etyapsan! Kimsan va nimasan o'zing, arvoh urgur? O'z orzungga erisharmikansan?»

U ko'zgudagi aksiga mushtumini do'laytirib po'pisa qildi va karavoti chetiga o'tirib, baqraygan, ammo hech nimani ko'rmaydigan ko'zlarini ro'parasiga tikdi. Bir ozdan keyin daftarini, algebra kitobini oldi-da, kvadrat tenglamalarni o'rganishga kirishib ketdi. Vaqt esa o'tar, yulduzlar so'nib, tashqarida tong g'ira-shira yorisha boshlagan edi.

O'N UCHINCHI BOB

Jazirama yoz kunlari Siti-Xoll-parkda to'planishadigan sergap ishchi faollar va faylasuflar to'garagi, ittifoqo, Martinni buyuk bir kashfiyot sari yo'lladi. Martin park orqali kutubxonaga ketayotib, oyda bir-ikki marta velosipedidan tushib, munozaraga quloq solar, har safar bu yerdan zo'rg'a jo'nab ketardi. Bu munozaralarning umumiy ruhi mister Morznikida, ovqat paytida bo'ladigan mubohasalarga aslo o'xshamasdi. Bahslashuvchilar nufuzli ham, mo'tabar kishilar ham emas edilar. Ular qizishib, bir-birlariga xunuk laqablar qo'yishar, bir-birlarini haqorat qilishar va achchiq ta'nalar bilan gap qotishardi. Mojaro ikki marta mushtlashishgacha borib yetdi. Shunday bo'lsa ham, Martin nima sababdan bunday qilayotganini o'zi mulohaza ham qilib o'tirmay, bu munozaralarning hammasida qandaydir jon bor deb his qilardi, bu bahslar mister Morzning xotirjam va vazmin aqidaparastligidan

ko'ra unga kuchliroq ta'sir etardi. Nazarida, ingliz tilini ayamay buzib talaffuz etuvchi, telba kishilar singari hadeb qo'llarini paxsa qilib gapiruvchi va o'z raqiblariga vahshiyona hujum qiluvchi bu odamlar, mister Morz va uning do'sti mister Betlerga nisbatan ming karra jonliroq tuyulardi.

Parkdagi yig'inda Martin bir necha marta Gerbert Spenserning nomini eshitdi, lekin kunlarning birida u yerda o'sha Spenserning shogirdi va muxlisi paydo bo'lib qoldi; bu – ich ko'ylagi yo'qligini yashirish uchun yirtiq kamzulining tugmalarini qadab olgan faqir bir sayoq kishi edi. Ketni uzilmay chekilayotgan papiroslarning quyuc tutuni orasida tamakilarini tinmay chaynab tufalayotganlarning katta jangi boshlandi, ammo sayoq yigit hamma zarbalarga, hattoki qiziqqon ishchilardan biri istehzo bilan: «Nimaligini bilib bo'lmaydigan narsadan boshqa xudo yo'q, Gerbert Spenser esa uning yerdagi payg'ambari!» – deb qichqirganda ham, har qanday hujumni chaqqonlik bilan rad qilib turdi. Martin munoza-raning nima to'g'rida borayotganiga hech tushuna olmadi, ammo Gerbert Spenserning kimligiga qiziqib qoldi, shuning uchun ham, kutubxonaga borib, «Asosiy manshalar» kitobini so'radi, chunki sayoq yigit munozara qizigan paytda Spenserning shu asarini ko'p tilga olgan edi.

Mana shu narsa buyuk kashfiyotning muqaddimasi edi. Martin ilgari ham bir marta Spenser asarini o'qishga urinib ko'rgan edi, lekin muallifning «Psixologiya asoslari» kitobini olgan-u, Blavatskaya xonimning asarlarini o'qiganda qanday muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa, bun-

da ham shunday muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi. Martin kitobga tushuna olmay, o'qimay qaytib bergan edi. Lekin bu safar kechqurun algebra va fizika bilan shug'ullanib bo'lib, ancha vaqtgacha sonet yozish bilan ovora bo'ldi, o'rniga yotib, «Asosiy manshalar»ni ochdi. Tong otganda ham kitob mutolaasi bilan band edi. U uxlay olmadi. Shu kun yozmadi ham. Biqinlari og'rib ketguncha, o'rnidan turmay o'qib yotdi; keyin to'shaktan qoq yerga tushib yotdi-da, goh kitobni boshi uzra ko'tarib, goh tirsagiga tayanib mutolaani davom ettirdi. Keyingi kechasi, har holda, birpas uxladi-yu, ertalab yozishga o'tirdi, lekin kitob uni shu qadar o'ziga maftun qilib qo'ygan ediki, dunyodagi hamma narsani, hattoki shu kuni kechqurun Rufnikiga borishni ham unutilib, yana kitob mutolaasiga berilib ketdi. Faqat Bernard Xigginbotam eshikni lang ochib: «Mening uyimni restoran deb o'ylarsan, balki?» – deb so'ragandagina Martin o'ziga keldi.

Martin Iden hamisha bilim olishga qiziqardi. U hamma narsani bilgisi kelar va qisman shuning uchun ham sargardon dengizchilik kasbiga qiziqqan edi. Lekin endi Spenserni o'qiganidan so'ng, o'zining hech nima bilmasligini, dengizda yana qancha suzib yursa ham, hech qachon hech nima bilmasligini tushundi. U turli hodisalarni mushohada qilarkan, ularni faqat yuzaki o'rganardi, ayrim dalillarni jamlab, ulardan qisman xulosalar chiqarardi-yu, lekin bularning hammasini bir-biriga bog'lashga, tasodiflarning majmuasi bo'lib tuyulgan olamni bir tartibga solishga aslo urinmasdi. U uchi ketayotgan

qushlarni kuzatarkan, ko'pincha ularning parvoz qilish mexanizmi to'g'risida fikr yuritardi; lekin uchuvchi jonivorlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan taraqqiyot jarayoni haqida biron mar-ta ham o'ylab ko'rmagan edi. U hatto shunday jarayon borligini o'ylamagan edi. Qushlarning «paydo bo'lishi» uning xayoliga ham kelmagan edi. Ular «bo'lgan» – vassalom, doimo bo'lgan.

Qushlar haqida qanday mulohaza yuritgan bo'lsa, qolgan hamma narsa to'g'risida ham shunday mulohaza yuritar edi. Uning bilimi va fikr yuritish malakasi bo'lmagani uchun, falsafiy xulosa chiqarishga urinishlari samarasiz edi. Kantning o'rta asrga xos metafizikasi unga hech nimani ochib bermadi, bil'aks, uni o'z aqlining kuchiga shubhalanib qarashga majbur etdi. U Romensning mutaxassislar uchun yozilgan maxsus kitobi bo'yicha tadrijiy takomil nazariyasini o'rganishga kirishganda ham aynan shunday muvaffaqiyatsizlikka uchragandi. Bu muto-laadan olgan birdan-bir taassuroti shu bo'ldi-ki, u tadrijiy takomilni o'z fikrlarini tushunib bo'lmaydigan tilda izhor qiluvchi o'ta rasmiyat-chi kishilarning asossiz nazariy uydirmasi deb tasavvur eta boshlagan edi. Endi bo'lsa, buning aslo quruq nazariya emas, balki barcha e'tirof etgan taraqqiyot qonuni ekanligini, agar olim-lar o'rtasida bu borada endi munozaralar bo'lsa ham, u faqat takomil shakli haqidagi xususiy masalalar ustida borardi.

Mana, nihoyat, Spenser ismli odam maydon-ga keldi-yu, bularning hammasini tartibga sol-di, birlashtirdi, xulosalar chiqardi va matroslar

bo'sh vaqtlarida yasab, shisha idishlarga tiqib qo'yadigan kemalarning jajji modellari singari aniq va batartib olamning har bir qismini, Martinning hayratga to'lgan ko'zlari oldida yaqqol gavdalantirdi. Bu yerda favqulodda va tasodifiy narsalar yo'q edi. Hamma narsa qonunga asoslangan edi. Shu qonun bo'yicha qush uchardi; aynan shu qonunga ko'ra shaklsiz bir plazma qimirlab, to'lg'ana boshlardi, uning qanot va panjalari o'sib chiqardi, natijada qush paydo bo'lardi.

Martin o'zining ongli hayoti davomida ilm cho'qqilarini birma-bir egallay boshlagan va endi eng yuksak cho'qqiga chiqqan edi. Birdan u buyumlarning sehrlil mohiyatini angladi va shu ong uni mast qildi. Kechalari uyquda ajoyib tushlar ko'rib, xudolar orasida yashardi. Kunduzlari esa shabko'r singari tentirab yurar, olazarak ko'zlari oldida faqat Spenserning Martin uchun kashf etgan dunyosi namoyon bo'lardi. Ovqat paytida dasturxon tepasida har turli ikirchikir gaplarni va mojarolarni eshitmas, chunki uning miyasi, o'zi shohidi bo'lgan hamma narsalar o'rtasidagi aloqa sababini aniqlash bilan mashg'ul bo'lib, tinmay astoydil ishlardi. U likobchada yotgan go'sht bo'lagida quyosh nurlari quvvatini ko'ra bilar va teskari tartib bo'yicha, jamiki o'zgarishlarni tasavvur qilish orqali shu nurlarni million mil masofada turgan manbaigacha kuzatib borardi, yoinki xayolan shu yo'lda davom etib, qo'llarining muskullarini harakatga keltirib, shu go'sht bo'lagini qirqishga majbur etuvchi kuch haqida va muskullarga farmon beruvchi miyasi haqida o'ylar, eng oxir, aynan

shu quyosh shu'lalarining quvvati o'z miyasida ham mavjud ekanligini aniqlardi. Martin shu qadar o'ygga tolib ketgan ediki, Jimning: «Bola faqir, esdan ayrilibdi», deb g'o'ldiraganini eshitmadi, opasining xavotirlanib qaraganini payqamadi, barmog'ini bir necha bor peshanasiga olib borib, ma'nodor qilib aylantirib qo'yggan Bernard Xigginbotamga parvo ham qilmadi.

Barcha ilmlarning bir-biriga bog'liq ekanligi Martinni hammadan ko'proq taajjublantirgan edi. U hamma vaqt ham ilmga o'ch edi, lekin u egallagan ilmlar, xotirasining alohida-alohida hujrasiga joylanardi. Shunga ko'ra, bir hujrada dengiz safari haqida juda ko'p bo'lak-bo'lak ma'lumotlar, boshqasida esa ayollar haqida ma'lumotlar yig'ilgan edi. Biroq bu ikki hujra bir-biriga bog'lanmagandi. Asab kasaliga muhtalo bo'lgan ayol kishi bilan to'fonda qolgan kema o'rtasida aloqa bo'lishi mumkin deb aytilsa, bu fikr Martinga bema'ni va mumkin bo'lmagan narsadek tuyular edi. Lekin Gerbert Spenser yolg'iz buning bema'niligini emas, balki aksincha, bu ikki hodisa o'rtasida munosabat bo'lmasligi mumkin emasligini unga isbotlab berdi. Dunyoda hamma narsa – cheksiz fazodagi eng yiroq yulduzdan tortib, to inson oyog'i ostida yotgan qum zarra-chasigacha – hamma narsa bir-biriga bog'liqdir.

Martin uchun bu bitmas-tuganmas taajjub manbai ediki, u endi hamma vaqt shu sayyora-dagi emas, boshqa sayyoralardagi narsalar va hodisalarning ham munosabatini aniqlash bilan band bo'ldi. U tamomila bir-biriga zid narsalarning uzundan-uzoq ro'yxatini tuzar va to

ular orasidagi munosabatni aniqlamaguncha ko'ngli tinchimas edi. Shunday qilib, muhabbat, she'riyat, zilzila, olov, chinqiroq ilon, kamalak, qimmatbaho toshlar, bedavollik, quyosh botishi, sherning na'rasi, yorituvchi gaz, vahshiylik, go'zallik, qotillik, richaglar, tayanch nuqtasi va tamakilar orasida aloqa mavjudligi aniqlandi. Endi butun koinot uning ko'z oldida bir butun holda gavdalandi, endi bu koinotning tor ko'chalari, so'qmoqlari va chakalakzorlarida, noma'lum maqsad sari sirli chakalakzorlarni yorib o'tib borayotgan sayoq yo'lovchi singari emas, balki hech narsani ko'zdan qochirmaslikka urinuvchi va har bir ko'rgan narsasini xaritagaga ko'chiruvchi tajribali mushohadachi sayyoh sifatida kezib yurardi. U qancha ko'p narsani o'rgansa, olamdan, o'zining bu dunyodagi hayotidan shuncha ko'p zavqlanardi.

– Voy, galvars-e! – deb qichqirardi u ko'zgudagi o'z aksiga, – yozuvchilik qilging keldi, yozding ham, ammo yozadigan narsangning tayini yo'q edi-ku! Xo'sh, nimang bor edi? Go'zallik haqida go'daklik tushunchasi, xom-xatala hislar, g'ira-shira tasavvurlar, jaholat zulmati va muhabbat tuyg'usidan yorilayozgan yurag-u, yana shu muhabbating singari ulkan va jaholating singari umidsiz izzat-nafsing bor edi. Yana sen yozuvchi bo'lmoqchimiding? Lekin nima to'g'rida yozish kerakligini endi tushunyapsan-ku. Sen go'zallik bunyod etmoqchi bo'lding, o'zing esa go'zallikning tabiati haqida hech nima bilmasding. Sen hayot haqida yozmoqchi bo'lding, o'zing esa uning mohiyatidan bexabar eding. Sen dun-

yo haqida yozmoqchi bo'lding, ammo bu dunyo sen uchun bir muammo edi; shuning uchun, nima to'g'rida yozsang ham, nodonligingni bir karra isbotlagan bo'larding. Lekin xafa bo'lma, inim Martin! Sen hali ko'p yozasan. Hozir ham ba'zi narsalarni bilasan, lekin sen endi to'g'ri yo'ldan ketyapsan, yaqinda yana ko'p narsalarni o'rganib olasan. Agar omading kelsa, vaqti kelib, bilish kerak bo'lgan narsalarning deyarli hammasini bilib olasan. Ana o'shanda yoza boshlaysan!

Martin o'z quvonchi va taajjubini Ruf bilan baham ko'rish ehtiyoji tug'ilganini his qilib, o'zining buyuk kashfiyotini qizga bayon qildi. Lekin Ruf bunga juda xotirjamlik bilan quloq soldi, aftidan, bularning hammasini oldindan bilar edi. Shuning uchun ham Martinni talvasaga solgan narsaga qizning bu qadar loqayd munosabati yigitni ajablantirmadi, bu o'rinda qiz uchun hech qanday yangilik yo'qligini tushunardi. Martin bildiki, Artur bilan Norman tadrijiy takomil nazariyasi tarafdori ekanlar va ikkovlari ham Gerbert Spenserni o'qigan ekanlar, ammo ular da Spenser Martinga ta'sir qilganday zo'r taassurot qoldirmaganga o'xshardi, ko'zoynak taqqan, sochlari paxmaygan yigitcha esa (uning ismi Vill Olni edi), Spenserning nomi tilga olinganda zaharxanda kuldi va Martin ilgari eshitgan achchiq kinoyani takrorladi: «Nimaligini bilib bo'lmaydigan narsadan boshqa xudo yo'q, Gerbert Spenser esa uning payg'ambari».

Lekin Martin uning bu kinoyasiga ahamiyat bermadi, chunki u Olnining Rufga hech ham

oshiq emasligini seza boshlagan edi. Keyinchalik har turli mayda dalillarga asoslanib, Olni ning Rufga nainki oshiq emasligi, hattoki qizni ochiqdan-ochiq yoqtirmasligini bilib oldi. Martin bunga tushuna olmasdi. Bu shu qadar noyob hodisa ediki, Martin bu hodisani koinotdagi boshqa hodisalarga hech bog'lay olmadi. Hatto Martinning bu yigitga rahmi ham kela boshladi, aftidan, yigitda mavjud bo'lgan allaqanday jismoniy illat Rufning latofati va go'zalligini qadrlashiga xalal berayotgan bo'lsa kerak. Ular yakshanba kunlari ko'pincha birgalikda velosipedda sayrga chiqardilar, shu sayr paytlarida Ruf bilan Olni do'st ko'rinsalar ham, Martin ularning qo'yinlarida tosh borligini angladi. Olni ko'proq Norman bilan do'stona aloqada bo'lar, Rufni esa Artur bilan Martinga topshirar, buning uchun Martin Olnidan behad minnatdor edi.

Yakshanba kunlari Martin uchun ikki qatla bayram edi, chunki bu kunlar uning Ruf bilan uchrashishiga imkon berardi; bundan tashqari, uni qizning sinfiga mansub yigitlar bilan bir qatorga qo'yardi. Bu yigitlar muntazam ravishda tahsil olgan bo'lsalar ham, Martin aqliy jihatdan o'zining ulardan sira ham keyinda qolmaganini ko'rardi; ular bilan qilinadigan suhbat esa Martin uchun og'zaki nutqni rivojlantirish uchun tajriba maktabi vazifasini o'tardi. U o'zining kuzatuvchanlik qobiliyatiga ishonib, ko'pdan beri jamiyatdagi axloq-odob qoidalari haqidagi qo'llanmalarni o'qimay qo'ygan edi. U suhbat mavzuiga berilib ketib, hamma narsani unutib yuborgan paytlarini mustasno qilganda, o'z hamrohlari-

ning xatti-harakatini doimo zo'r e'tibor bilan kuzatar va ularning o'zaro munosabatlaridagi har turli mayda-chuyda tafsilotlarni xotirlab qolishga harakat qilardi.

Spenserni, umuman, juda oz mutolaa qilishlari Martinni ajablantirardi. «Gerbert Spenser, – dedi kutubxonaning ma'lumot bo'limida ishlaydigan xodim, – o, g'oyat zo'r zakovat sohibi u». Lekin ko'rinishidan, kutubxonachining o'zi ham bu buyuk zakovat sohibining asarlarini juda oz o'qiganga o'xshardi. Bir kuni Martin Morzlarniki-da ovqat ustida mister Betler huzurida Spenser haqida gap ochib qoldi. Mister Morz ingliz faylasufining agnostitsizm¹⁰ini qattiq qoraladi, lekin ayni vaqtda uning «Asosiy manshalar»ini o'qimaganligini e'tirof etdi; mister Betler esa, Spenser kishining yuragini siqib yuboradi, shu sababdan uning asarlaridan bir satrini ham o'qimaganman, ammo o'qimagan bo'lsam ham, o'zimni juda yaxshi his qilyapman, deb aytdi. Martinning dilida shubha tug'ila boshladi, agar o'ta darajada o'ziga xos odam bo'lmaganda, kim bilsin, ko'pchilikning mulohazasiga quloq osib, bundan buyon Spenserni mutolaa qilishdan voz kechgan bo'larmidi. Lekin Spenserning dunyoqarashi Martinga shu qadar ishonarli bo'lib tuyulgan ediki, undan voz kechish dengizchining kompas bilan xaritani suvga uloqtirishi bilan baravar gap edi. Shuning uchun Martin tadrijiy takomil nazariyasini o'rganishda davom etar, bu ilmni tobora chuqurroq egallar va minglab boshqa yo-

¹⁰ Olamni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi falsafiy oqim.

zuvchilarning asarlarida Spenser fikri tasdiqlanganini ko'rardi. Martin qancha ko'p shug'ullansa, uning ko'z oldida ilmning tadqiq etilmagan sohalari shuncha ko'p namoyon bo'la boshladiki, u bir sutkaning atigi yigirma to'rt soatdan iborat ekanligiga afsus qila boshladi.

Bir kuni vaqtni tejash maqsadida algebra bilan geometriyadan voz kechishga ahd qildi. Trigonometriyani esa o'rganishga hali kirishmagan ham edi. Keyin dars jadvalidan ximiyani ham o'chirib tashlab, faqat fizikani olib qoldi.

– Men mutaxassis emasman-ku, – dedi u Rufga o'zini oqlash uchun vaj axtarib, – undan keyin, men mutaxassis bo'lmoqchi ham emasman. Chunki fanlar shu qadar ko'pki, ularni o'rganish uchun bir kishining umri yetmaydi. Men umumiy ma'lumot olmoqchiman. Agar maxsus bilim kerak bo'lib qolsa, kitoblarga murojaat qilishim mumkin.

– Lekin bu ilmlarni kishining o'zi egallagani boshqa, – deb e'tiroz bildirdi qiz.

– Nima keragi bor ularni egallashning? Biz har doim mutaxassislardan foydalanamiz. Ular shuning uchun ham keraklar-da. Mana, bugun uyingizga kirib, mo'ri tozalovchilar ishlayotganini ko'rdim. Ular ham mutaxassis, ular o'z ishini bitirib ketgandan keyin, pechning tuzilishini mutlaqo bilmagan holda, tozalangan mo'ridan foydalana boshlaysiz.

Yo'q, bu juda o'rinsiz o'xshatish!

Qiz unga norozi qiyofada boqdi, Martin uning ko'zlari va ovozi ta'na alomatini sezdi. Lekin yigit o'zining aqliga qat'iy ishongan edi.

– Umumiy masalalar to‘g‘risida mulohaza yuritgan barcha mutafakkirlar, jamiki aql-idrok sohiblari, aslida, ayrim masalalar bo‘yicha doimo mutaxassislarining fikrlariga asoslanganlar. Gerbert Spenser ham aynan shunday qilgan. U ming-minglab tadqiqotchilarning kashfiyotlarini umumlashtirgan. Agar ularning hammasini o‘zi o‘zlashtirmoqchi bo‘lsa, unga ming kishining umri kerak bo‘lardi. Darvin ham xuddi shunday ish tutgan. U bog‘bonlar va chorvadorlarning tajribalaridan foydalangan.

– Siz haqsiz, Martin, – dedi Olni, – siz o‘zingizga nima kerakligini bilasiz, lekin Ruf bilmaydi. U hatto shaxsan o‘ziga ham nima kerakligini bilmaydi. Ha, ha, – deb davom etdi u Rufning e‘tiroz bildirishiga yo‘l qo‘ymay. – Bilaman, siz buni umumiy madaniylik deb ataysiz. Lekin agar maqsad shu umumiy madaniylikka erishish bo‘lsa, nimani o‘rgansang baribir emasmi? Siz fransuz tilini o‘rganishingiz, nemis tilini yoiniki esperantoni o‘rganishingiz mumkin, baribir, o‘sha «umumiy madaniyat» deb atalgan narsaga muvassar bo‘lasiz. Yo bo‘lmasa lotin tili va yunon tili bilan shug‘ullaning. Rost, bu tillarning na unisi, na bunisi hech qachon sizga kerak bo‘lmaydi, ammo sizni madaniyatli qilishi muqarrar. Axir ikki yil burun Ruf eski ingliz tilini o‘rgangan edi, hatto juda muvaffaqiyat bilan o‘rgangan edi, endi bo‘lsa o‘sha o‘qiganlaridan bir misragina she‘r esida qolgan, xolos: «Aprel kelib, yomg‘irlar yog‘di». Shunday edi, shekilli? Ana shu misra tufayli siz «umumiy madaniyat» sohibi bo‘ldingiz, – deb kulib yubordi yana Rufning e‘tiroz bildi-

rishiga imkon bermay, – bilaman, bilaman. Axir biz bir kursda o'qirdik-ku.

– Siz madaniyat haqida shunday gapirasizki, go'yo u maqsad emas, balki bir vositaday narsa! – dedi Ruf. Uning ko'zlarida o't chaqnadi, yonoqlarida ikki dona qirmizi xol paydo bo'ldi. – Madaniyatning qimmatini o'zi bilan.

– Lekin Martinga bu kerak emas.

– Siz qayoqdan bilasiz?

– Siz nima istaysiz, Martin? – deb so'radi Olni shartta u tomonga burilib.

Martin juda o'ng'aysizlanib ketib, Rufga yolvoruvchi bir tarzda tikildi.

– Ha, aytavering, nima istaysiz, – dedi Ruf. – Javobingiz bahsimizni hal qiladi.

– Albatta, madaniylik zarur menga, – dedi Martin taraddudlanib. – Men go'zallikni yaxshi ko'raman, madaniyat esa go'zallikni yaxshiroq anglashga, uni qadrlashga o'rgatadi.

Ruf g'olibona qiyofada bosh irg'adi.

– Bo'lmagan gap! Buni o'zingiz yaxshi bilasiz, – deb gapira boshladi Olni. – Martin madaniyatlikka emas, mansabga intilyapti. Uning hayotida mansabning madaniyatga bog'liqligi oddiy tasodif, xolos. Agar u kimyogar bo'lishni istaganida, unga madaniyatning hech keragi bo'lmasdi. Martin yozuvchi bo'lishni xohlaydi, lekin Ruf ba'zida yengilib qolmasin deb, niyatini aytgani qo'rqyapti. Nima uchun Martin yozuvchi bo'lishni istaydi? – deb davom etdi u. – Chunki uning puli yo'q. Nima uchun siz eski ingliz tili va jamiki boshqar «umumiy madaniyat»ingiz bilan boshingizni qotirdingiz? Chunki hayotda o'zingiz uchun

yo'l ochishga sizda ehtiyoj yo'q. Bu haqda otangiz jon kuydiradi. Kiyim-kechaklaringiz uchun u pul to'laydi, sizga aloqador bo'lib qolgan hamma ishni ham otangiz bajaradi. Biz, ya'ni, siz ham, men ham, Artur ham, Norman ham olgan tahsilimizdan nima foyda? Bizga «umumiy madaniyat»ni keragidan ortiq tiqishtirib tashlashgan, bordi-yu, otalarimiz xonavayron bo'lishsa, unda maktab muallimi bo'lish uchun imtihon berishdan boshqa hech ilojimiz qolmas edi, shekilli. U chog'da Ruf, juda nari borsa, qishloq muallimasi yoki xotin-qizlar pansionida musiqa muallimasi bo'lishi mumkin edi.

– Siz o'zingiz nima qilardingiz? – deb so'radi Ruf.

– Tuzukroq ish qayda. Kuniga bir yarim dollarcha topish uchun qora ishga yollanardim yoki tavakkal qilib, Xenli maktabiga repetitor bo'lib yollanardim-da, zehni past bolalarni imtihonga tayyorlardim, «tavakkal qilib» deyayotganimning boisi shuki, bir haftadan keyin muallimlikka mutlaqo yaramasligimni aytib, haydab yuborishsa kerak deb o'ylayman.

Martin gapga jimgina quloq solib o'tirardi; u Olnining haqligini sezar, lekin ayni paytda uning Rufga nisbatan betakalluflik qilayotganini qoralardi. Shu munozara paytida uning miyasida muhabbat haqida yangi fikrlar tug'ildi. Aql muhabbat masalalariga aralashmasligi kerak. Sevgan yoring to'g'ri mulohaza qilyaptimi, yo'qmi, buning ahamiyati yo'q. Muhabbat aqldan yuksakdir. Martin uchun mansabning naqadar zarur ekanligini Ruf tushunmayotganga o'xshardi, lekin tushunmasa ham latofati kamaymasdi.

U g'oyat latofatli qiz, lekin o'ylayotgan narsasi-ning o'z latofatiga aslo daxli yo'q edi.

– Nima dedingiz? – deb so'radi Martin Olnidan, Olni to'satdan savol berib, uning xayolini bo'lgan edi.

– Nahotki tentaklik qilib, lotin tilini ham o'rgansangiz deb so'radim.

– Lotin tili kishini madaniyatli qilibgina qolmaydi, – deb gapni bo'ldi Ruf, – u yana aqlni rivojlantiruvchi mashg'ulot hamdir.

– Xo'sh, nima deysiz Martin, lotin tilini o'rganasizmi? – deb ta'kidlab so'ray boshladi Olni.

Martin noiloj ahvolga tushib qolgan edi. Ruf uning javobini sabrsizlik bilan kutayotgan edi.

– Vaqtim bo'lmas deb qo'rqaman, – javob qildi Martin nihoyat, – u tilni o'rganardim-u, lekin vaqtim yetmaydi-da.

– Ko'rdingizmi, «umumiy madaniyat»ingizning Martinga aslo keragi yo'q! – dedi Olni shodlanib. – U hayotda muayyan narsaga erishishni, odamlar qatoriga kirishni istaydi.

– Ha, lekin bu aqlni rivojlantiruvchi mashg'ulot-ku, bu – intizom! Lotin tili aqlni intizomga soladi! – Ruf shu so'zlarni aytarkan, go'yo o'z fikringizni o'zgartiring deb iltimos qilayotganday Martinga boqdi. – Futbolchilarning o'yin oldidan mashq qilishini ko'rganmisiz? Lotin tili ham tafakkur ahli uchun shunday zaruriy narsa. Bu – mashq.

– Qanday bema'nilik! Bu gapni bizning miyamizga bolaligimizda quyishgan edi! Lekin shunday bir haqiqat borki, uni o'z vaqtida miyamizga quyishni unutishgan. U haqiqatni o'z aqlim bilan

topdim, – Olni hozir aytmoqchi bo'lgan gapidan tinglovchilar kuchliroq ta'sirlansin uchun sukutga toldi, so'ng tantanali vaziyatda dedi: – Jentlmen lotin tilini o'rganishi kerak, lekin jentlmen uni bilishi kerak emas.

– Bu insofdan emas! – deb qichqirib yubordi Ruf. – Hamma gapni hazilga yo'yishingizni bilgan edim.

– Lekin hazilimning bama'niligini e'tirof etarsiz! – deb e'tiroz bildirdi Olni. – Boz ustiga bu haq gap. Lotin tilini faqat dorixonada xodimlari, advokatlari lotin tili muallimlarigina bilishadi. Agar Martin dorixonada ishlamoqchi yo advokat bo'lmoqchi bo'lsa, men tilimni tiyaman. Lekin u holda, bunga Gerbert Spenserning nima daxli bor? Martin endigina Spenserni topib, undan benihoya hayajonlangan. Nega? Negaki Spenser unga biron ma'naviy ozuqa beradi. Sizga Spenser hech nima berolmaydi, menga ham. Keyin bizga hech nimaning keragi ham yo'q. Siz bir kun kelib, turmushga chiqasiz, mening esa, umuman, hech qanday qiladigan ishim bo'lmaydi, chunki men uchun hamma ishni har xil ishonchli vakillar va ish boshqaruvchilar bajaradi, ular otamdan menga meros bo'lib qoladigan sarmoyaning g'amini yeydilar.

Olni eshik tomon yo'naldi-yu, lekin to'xtab, oxirgi gaplarini aytdi:

– Martinni o'z holiga qo'ying, Ruf. Unga nima kerakligini o'zi yaxshi biladi. Qarang, qanchadan-qancha narsalarni bilib olibdi. Ba'zan, o'zimni o'ylasam, xijolatdan qizarib ketaman. Bizning lotin tili, fransuz tili, eski ingliz tilini

bilishimizni, bizdagi madaniyat deb atalgan imkoniyatni mustasno qilsak, u hozir ham hayot haqida, hayotda insonning tutgan o'rne haqida Artur, Norman, men yo sizdan ancha-muncha ko'proq biladi.

– Lekin Ruf mening muallimam, – deb oliyjanoblik bilan e'tiroz bildirdi Martin, – nimaiki o'rgangan bo'lsam, hammasi Ruf tufayli bo'ldi.

– Safsatani qo'ying! – Olni Rufga allaqanday badxohlik bilan qaradi. – Siz hali Spenserni ham Rufning maslahati bilan o'qidim dersiz? Ishonib bo'pman! Men Sulaymon podshoning olmos konlari haqida qancha bilsam, Ruf ham Darvin va tadrijiy takomil haqida shuncha biladi. Esingizdami, bir necha kun muqaddam siz Spenserning g'ayri muayyan, ilg'ab bo'lmaydigan narsalar va hamjinslik haqida aytganlarini sharhlab, hammamizni esankiratib qo'ygandek edingiz. Shuni Rufga izohlab bering-chi, ko'rasiz, gapingizga tushunarmikin, yo'qmi. Bu, men sizga aytsam, «madaniyat» emas! Xullas, Martin, agar lotin tilini yodlaydigan bo'lsangiz, sizga hurmatim qolmaydi.

Martin bu suhbatga maroq bilan quloq solar-kan, ayni vaqtda, yuragiga allaqanday g'ashlik tushdi. Gap ta'lim va darslar haqida, ilm haqidagi ibtidoiy ma'lumotlar to'g'risida borardi; shunga ko'ra, munozaraning maktab bolalariga xos bir ohangda borishi, Martinni hayajonga solgan ulkan masalalarga aslo mos tushmasdi, bu masalalar uni hayotiy hodisalarning barchasiga mahkam yopishib olishga majbur qilardi va o'zining uyg'onib kelayotgan qudratini sezishi

butun vujudini titratib dahshatga solardi. U xayolan o'zini noma'lum bir mamlakat sohiliga chiqarib tashlangan shoir bilan qiyos qilardi; u shoir tevarak-atrofidagi go'zal manzaradan qattiq ta'sirlangan-u, bu go'zallikni yerli yovvoyi xalq tilida tarannum qilishga behuda urinardi. Martin ham shunday ahvolda edi. U o'z vujudida ulkan jahonshumul haqiqatni o'rganishga kuchli intilish hissi borligini sezardi, lekin buning o'rniga, «Lotin tilini o'rganish kerakmi, yo'qmi» degan mavzuda go'daklarga xos mojaroga quloq solib o'tirishi lozim edi.

– Qay go'rdan chiqdi bu lotin tili? – derdi u shu kuni kechqurun ko'zgu oldida turib o'ziga o'zi tikilarkan, – o'liklar o'likligicha qolaversin. Ular bilan necha pullik ish bor? Go'zallik abadiy va doimo barhayot. Tillar esa yaratiladi va yo'qolib ketadi. Ular o'liklar hokidir.

Shu asnoda o'z fikrlarini chiroyli ifodalashga o'rganganini o'ylab qoldi va o'rniga yotarkan, nima sababdan Rufning huzurida shu qobiliyatini ishlata olmaganini bilishga urindi. Qizning huzurida u maktab bolasiga aylanib qolar va shu maktab bolasi tili bilan gapira boshlardi.

– Fursat beringlar menga, – dedi u ovozi chiqarib, – menga faqat fursat beringlar!

Vaqt! Fursat! Bu uning doimiy iltimosi edi.

O'N TO'RTINCHI BOB

Martin Rufni sevishiga qaramay, lotin tilini o'rganishdan voz kechdi. Ammo Olni bergan maslahatlarning bunga daxli yo'q edi. Vaqt uning

uchun misoli pulday zarur narsa edi, lotin tilidan ko'ra muhimroq bo'lgan ancha-muncha fanlar Martinning e'tibor berishini qat'iylik bilan talab qilardi. Buning ustiga, yozishi ham kerak edi. U pul ishlashi kerak edi. Lekin afsuski, uning yozganlarini hech qayerda bosmasdilar. Qo'lyozmalari ayanchli tarzda tahririyatma-tahririyat yurardi. Nima sababdan boshqa yozuvchilarning asarlarini bosib chiqarisharkin? Martin qiroatxonada uzoq o'tirib, o'zga yozuvchilarning asarlarini o'qir, bu yozuvchilarning o'z asarlarini bostirib chiqarishga yordam bergan narsalarning nimaligini aniqlashga behuda urinib, u asarlarini o'zi yozgan asarlar bilan taqqoslarkan, ularni diqqat bilan va tanqidiy ko'z bilan o'rganardi.

U matbuot sahifalarida bosilgan asarlarning ko'pchilik qismining uydirma ekanligidan ajablarnardi. Bu hikoyalarda na nur, na bo'yoq bor edi. Ulardan hayot nafasi kelmas, holbuki, ularning har bir so'ziga ikki syentdan, har ming so'ziga yigirma dollardan haq to'lanardi – Martin gazetadan qirqib olib qo'ygan maqolada shunday yozilgan edi. U osonlik va uddaburonlik bilan yozilgan (Martin buni e'tirof etmay iloji yo'q edi), lekin haqiqiy hayotdan uzoq bo'lgan son-sanoqsiz hikoyalarni qayta-qayta o'qib taajjublanardi. Axir hayotning o'zi shu qadar fusunkor, shu qadar jozibali, unda hal etilmagan masalalar, orzular, qahramonona ishlar juda ko'p, lekin bu hikoyalardan faqat oddiy hayot ikir-chikirini tasvirlash bilan cheklanib qolgan. Martin hayotning qudrati va ulug'vorligini, uning harorati va hayajonini, uning isyonkor ruhini his qilardi – mana shu-

lar to'g'risida yozish kerak edi! U xatarli ishga bel bog'lagan dovyurak kishilarni, muhabbat shaydosi bo'lgan yigitlarni, dahshat va iztiroblar ichida jang qilib, qudratli bilak kuchlari bilan hayotni larzaga keltiradigan azamatlarni tarannum etishni istardi. Vaholanki, jurnallardagi hikoyalarda qandaydir mister Betlerlar, dollar-ga tuzoq qo'yan ayanchli kishilar madh etilar, nokas, ahamiyatsiz odamlarning arzimas ish-qiy iztiroblari tasvirlanardi. «Bunga sabab, balki muharrirlarning o'zi arzimas odamlardir? – deb o'ziga o'zi savol berardi Martin. – Yo bo'lmasa, bu muharrirlar, yozuvchilar va jurnalxonlarning hammasi hayotdan qo'rqishadi!»

Hammadan ko'proq u muharrirlar bilan ham, yozuvchilar bilan ham tanish bo'lmaganidan xijolatda edi. U bironta yozuvchini bilish u yoqda tursin, hattoki biron marta bo'lsin asar yozish-ga urinib ko'rgan odamni ham bilmasdi. U bilan suhbatlashadigan, unga bama'ni maslahat berib, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan odam yo'q edi. U hatto muharrirlarning jonli odamligiga ham shubha qila boshladi. Martinning tasavvurida ular allaqanday mashinaning vintlari yoki richaglariga o'xshardi. Ha, ha, aynan shu qiyofada. Martin o'z hikoyalari, ocherklari va dostonlariga dilidagilarni yozardi-yu, ularni mashinalar ixtiyoriga yuborardi. U qo'lyozmasini va javob maktubi uchun kerak bo'ladigan markani kattakon konvertga solib, uning og'zini berkitardi-da, pochta qutisiga tashlardi. Qo'lyozma muayyan bir necha kun butun qit'ani kezib chiqib, yana Martinning qo'liga qaytib kelardi; lekin endi qo'lyozma boshqa kon-

vertga solingan, ilova qilib yuborilgan marka esa shu konvertga yopishtirilgan bo'lardi. Ehtimolki, hech qanday muharrir yo'qdir, balki uning o'rnida qo'lyozmani bir konvertdan olib, ikkinchisiga soluvchi va konvert ustiga marka yopishtiruvchi mohirona tuzilgan mexanizm bordir. Bu mexanizm pul tashlasang, «lik» etib saqich yoki bir bo'lak shokolad chiqarib beradigan avtomatni eslatardi. Tangani uning bir teshigiga tushirsang, saqich olasan, boshqasiga tushirsang, shokolad olasan. Bu o'rinda ham vaziyat aynan shu holatda edi. Mexanizmning bir tuynugidan gonorar cheki otilib chiqar, ikkinchisidan esa qo'lyozmani rad etuvchi maktub chiqardi. Ammo shu paytgacha Martin nuqul ikkinchi tuynukka to'g'ri kelayotgan edi.

Mash'um maktublar muharrirni mashinaga yanada ko'proq o'xshatardi. Bu faqat yozuvchining va asarning nomi qo'yilgan bosma standart blankalar edi. Martin bu blankalardan yuztachasini oldi – har bir qo'lyozmasiga taxminan o'ntadan to'g'ri kelardi. Agar u shaxsan o'ziga murojaat etib qo'l bilan yozilgan bir satrgina jonli xat olsa edi, o'zini benihoya baxtiyor his qilgan bo'lardi. Lekin bironta ham muharrir o'zining jonli odam ekanligini isbotlamasdi. Shunga ko'ra, dunyoda bironta ham jonli muharrir yo'q, faqat yaxshilab moylangan va yaxshi ishlaydigan avtomatlar bor, degan xulosaga kelishdan boshqa iloj qolmadi.

Martin tabiatan chidamli, matonatli kurashchi edi, shuning uchun bu toshyurak mashinalarni uzoq yillar davomida ta'min etishga bardosh bera

olardi. Lekin joni ko'p ketib holdan toygan edi, shunga ko'ra, kurash natijasini yillar emas, balki haftalar hal etishi kerak edi. Har hafta to'lanadigan ijara haqi uni halokatga yaqinlashtirar, pochta xarajatlari esa o'sha mash'um daqiqani yaqinlashtirishga yordam berardi. U endi kitob sotib ololmasdi, shu sababli falokatni orqaga surish maqsadida mayda-chuyda xarajatlarni kamaytirib, pulini tejab sarf qilmoqchi bo'ldi; lekin Martin rejali bo'la olmasdi, bir kun u opasi Meriyenga ko'ylak olish uchun besh dollar sovg'a qilib, jang oqibatini bir haftaga beri surdi.

Martin zulmat qo'ynida jang qilar, uning na maslahat beradigan, na dalda beradigan odami bor edi; go'yo atrofidagi kishilarning hammasi o'zaro kelishib olib, uning matonatini sindirishga urinayotganga o'xshardi. Hattoki Gertruda ham unga qovoq solib qaraydigan bo'lib qoldi; avvaliga u Martinning bolalar sho'xligiga o'xshab tuyulgan ishlariga mehribon opa sifatida beparvo qaragan edi; lekin keyin yana mehribon opa sifatida bezovta bo'la boshladi. Bolalik sho'xligi endi unga jinnilikka aylanib ketayotgandek tuyuldi. Martin opasining tashvish bilan qarayotganini payqar, mister Xigginbotamning betakalluf va hayosiz istehzolaridan ko'ra, opasining shu qarashlaridan ko'proq izzitirob chekardi. U o'ziga ishonardi, ammo yolg'iz edi. Hattoki Ruf ham uning ishonchiga sherik emasdi. U Martinning faqat mustaqil tahsil olish yo'li bilan shug'ullanishini istardi, uning adabiyotga ishtiyoqini ochiqdan-ochiq hech qoralamasa ham, ayni vaqtda hech qachon rag'batlantirmasdi.

Martin unga yozganlarini biron marta ham ko'rsatmagan edi. Allaqanday andisha yo'lini to'sib turardi; bundan tashqari, u qizning universitetda bandligini bilgani uchun uning vaqtini olishni o'ziga ep ko'rmasdi. Lekin imtihonlar tamom bo'lgandan keyin Rufning o'zi uning asarlaridan birontasini o'qishni istaganini bildirdi. Martin ham sevinib, ham qo'rqib ketdi. Ruf – haqiqiy hakam. U san'atshunos. U adabiyotni professorlar qo'l ostida o'rgangan. Ehtimol, muharrirlar ham tajribali hakamlardir, lekin Ruf boshqa, u Martinning asarlariga boshqa ko'z bilan qaraydi. U Martinga bosma blankka yozilgan rad javobini yubormaydi, hikoyalaringizning ijobiy xislatlarga boy bo'lishiga qaramay, afsuski, mazkur nashriyotda bosa olmaymiz deb xabar qilmaydi. Ruf unga insoniy, jonli til bilan o'z fikrini izhor qiladi, eng muhimi – Ruf, nihoyat, chinakam Martin Idenni ko'radi. Qiz Martinning asarlarida uning dili va qalbini his qiladi, uning nimalarni orzu qilishini va nimalarga qodir ekanligini ozgina bo'lsa ham, qittakkina bo'lsa ham anglab oladi.

Martin hikoyalariidan bir nechasini tanladi-da, bir oz taraddudlanib turgandan keyin, yana «Dengiz qo'shiqlari»ni ham ilova qildi. Jazirama iyun kunlarining birida u Ruf bilan velosipedlarga minib, shahar tashqarisidagi tepalik tomon jo'nab ketishdi. Qiz bu yerni yaxshi ko'rardi. Bu ularning ikkinchi marta birga sayr qilishi edi. Ular kunning taftini pasaytiruvchi dengiz shabadasiga yuzlarini tutib, velosipedda ketib borarkanlar, Martin olamning go'zalligini, yashash va

sevish qanday soz ekanligini butun vujudi bilan his qila boshladi. Ular velosipedlarini yo'l yoqasiga qo'yib, o'zlari qo'ng'ir tepa boshiga chiqishdi; quyoshda jizg'anak bo'lgan o't-o'landan yaqinda o'rilgan pichanning quruq xushbo'y hidi gurki-rab dimoqqa urildi.

– Bu o'tlar o'z vazifasini o'tab bo'lgan, – dedi Martin yerga o'tirishgandan keyin. Ruf uning kurtkasiga, u esa to'ppa-to'g'ri issiq yerga o'tirgan edi.

Martin kishini mast qiluvchi, yoqimli, xushbo'y hidlardan to'yib-to'yib nafas olarkan, shu zahotiy odati bo'yicha xususiy hodisalardan umumiy va asosiy hodisalarga o'tib, fikr yurita boshladi.

– O'zining hayotiy vazifasini o'tab bo'ldi bu, – deb gapida davom etdi Martin oftobda qovjiragan o'tlarni mehribonlik bilan silarkan, – qishki yog'in suvini shimirib, bahorning ilk bo'ronlari bilan kurashdi, gullab qumursqa-yu, bolarilarni o'ziga jalb etdi, urug'larini shamolga sovurib, atrofga taratdi, endi esa tabiat oldida o'z vazifasini o'tab bo'lib...

– Nima uchun siz hamma narsaga ko'ngilni xira qiladigan bunday amaliy nuqtai nazardan qaraysiz? – deb Ruf uning so'zini bo'ldi.

– Tadrijiy takomil nazariyasini o'rganayotganimdan shunday bo'lsa kerak. Ochig'ini aytganda, men hamma narsaning asl mohiyatini yaqinginada anglay boshladim.

– Lekin, mening nazirimda, siz ana shu amaliy nuqtai nazaringiz tufayli go'zallikni tushunmay qolayotganga o'xshaysiz. Go'dak bola

kapalaklarning chiroyli qanotlaridagi changni artib tashlab, ularni mahv etganidek, siz ham goʻzallikni mahv etyapsiz.

Martin boshini sarak-sarak qildi.

– Goʻzallikning oʻz maʼnosi bor, lekin men shu choqqacha oʻsha maʼnoni his qilganim yoʻq. Menga chiroyli narsa chiroyli boʻlgani uchun yoqardi, vassalom. Men goʻzallikning mohiyatini tushunmasdim. Endi boʻlsa tushunaman, yoinki, aniqroq qilib aytganda, tushuna boshlayapman. Men uchun bu oʻt, ayniqsa, uning nima sababdan bundayligini bilganimdan keyin, uning shu tepa boshida oʻsishi uchun zarur boʻlgan quyoshning, yomgʻirning va yer sharbatining murakkab taʼsirini bilganimdan keyin, nihoyatda goʻzal boʻlib ketdi. Har bitta giyohning tarixi ajoyib sarguzashtlar bilan boy; u ne-ne voqealarni boshidan kechirmagan. Ana shu fikrning oʻzi meni ilhomlantiradi. Men quvvat bilan materiyaning ishini, buyuk hayotiy kurashlarni oʻylasam, shu giyoh toʻgʻrisida butun bir doston, nainki bir doston, bir necha doston yoza olishimni his qilaman.

– Biram chiroyli gapirasiz-a, – dedi Ruf oʻychanlik bilan, uning sinovchan koʻzlari gʻalati bir tarzda Martinga tikilib turardi; Martin birdan buni payqab qoldi-yu, shu zahotiyuq uyalib ketdi, hatto boshi gangib, yonoqlari choʻgʻdek qizardi.

– Oh, qani endi, men chindan ham chiroyli gapira olsam edi, – deb tutila-tutila gap boshladi Martin. – Miyamda fikrlar shu qadar koʻpki, ularni izhor etishni xohlayman. Lekin ularning kengligidan ifodalashga munosib soʻz topa olmayman. Baʼzan, butun olam, butun jonivorlar

olami menga yuzlanib, ular uchun gapirishimni talab qilayotganday tuyuladi. Men shu narsani his qilaman, sizga qanday ifodalab bersam ekan? – butun borliqning ulugʻvorligini his qilaman, lekin gapira boshlasam kichkina bolaga oʻxshab gʻoʻldirayman. Fikr va tuygʻularingni shunday soʻz bilan ifodalash, uni shunday yozish yoki gapira olish kerakki, toki gapingni tinglovchi yoki jummlaringni oʻquvchi ularni tushunsin, yozilgan kitob yoki aytilgan jumlada yana aynan oʻsha fikr, oʻsha tuygʻular gavalansin, lekin bu nihoyatda buyuk vazifa. Bu – hech narsaga qiyos qilib boʻlmaydigan vazifa. Mana, koʻring, men yuzimni oʻtlar orasiga tiqyapman, shunda dimogʻimga kirayotgan bu hidlar miyamda ming-minglab fikr va lavhalarini tugʻdiradi. Axir men butun koinot hidini hidladim-da. Men qoʻshiqlar va kulgilarni eshit-yapman, saodat va ofatni, kurash va oʻlimni koʻryapman. Miyamda son-sanoqsiz lavhalar namoyon boʻladi, men shularni sizga, butun olamga izhor qilsam deyman! Lekin buni qanday bajaray? Tilim lol. Mana, hozir ham, oʻtning xushboʻy hidini hidlab turib, his qilgan narsalarimni sizga soʻz bilan ifodalab bermoqchi boʻldim. Lekin hech nima chiqmadi. Qoʻpoldan-qoʻpol, noaniq ishoradan boshqa narsa chiqmadi. Qandaydir bir-biri bilan bogʻlanmagan bir necha soʻzni aytdim, xolos... Holbuki, men oʻz fikrlarimni bayon qilishni shunaqayam xohlaymanki. O... – u umidsizlik bilan qoʻllarini qisirlatdi, – buning iloji yoʻq! Gapirish mumkin emas! Izhor etish mumkin emas!

– Lekin siz juda yaxshi gapiryapsiz, – deb ta’kidladi Ruf, – shu qisqa vaqt ichida bunchalik gapirishni o’rganib olganingizdan taajjubdaman. Mister Betler – hammaga manzur bo’lgan notiq. Shtat qo’mitasi doim saylov oldi kompaniyasi paytida uni nutq so’zlashga da’vat etib turadi. Lekin siz anovi kuni ovqat paytida undan yomon gapirmadingiz. Faqat u o’zini bosib gapira oladi. Siz juda qiziqqonsiz; hali siz ham asta-sekin o’zingizni tutib olasiz. Siz juda yaxshi notiq bo’lib ketishingiz mumkin. Juda katta muvaffaqiyatlarga erishishingiz mumkin... agar xohlasangiz. Sizda qandaydir bir sir bor. Shunga qaraganda, siz ommaga bosh bo’lishingiz mumkin, men bunga aminman. Siz yo’lingizga g’ov bo’lgan har qanday qiyinchilikni xuddi grammatikani o’zlashtirganday yengib o’tishingiz mumkin. Taniqli advokat yoki siyosiy arbob bo’lishingiz mumkin. Mister Betler erishgan muvaffaqiyatga erishishingiz uchun sizga hech nima xalal bera olmaydi. Erishgandayam, oshqozoningizni kasal qilmasdan erishasiz, – deb tabassum bilan ilova qildi Ruf.

Ular hamon suhbat qilib o’tirardilar; Ruf o’z odati bo’yicha o’qishning zarurligi haqida yotig’i bilan, ayni vaqtda, talabchanlik bilan gapirar, lotin tilini ilmning har bir sohasida eng asosiy negiz vazifasini o’tashini ta’kidlardi. U insonning, xususan, erkak kishining eng mukammal namunasi qanday bo’lishini Martinga tasvirlab berdi; bu kamolot namunasi butunicha o’z otasidan ko’chirib, unga mister Betlarning ba’zi bir xususiyatlari ilova qilingan edi. Martin chalqancha tushib yotib, Rufning gaplarini tinglarkan,

uning dudoqlari harakatini kuzatishdan huzur qilar, biroq qizning aytayotganlarini mutlaqo singdirmasdi. Ruf tasvirlab bergan istiqbol uni qiziqtirmasdi, shunga ko'ra u umidsizlikdan pinhona g'ussa chekarkan, ayni vaqtda, shiddatli ishq azobi uni o'rtardi. Qiz uning adabiy faoliyati haqida lom-mim demadi, Martin olib kelgan qo'lyozmalar yerda unutilib yotardi.

Nihoyat, suhbat uzilib qolgan paytlardan birida Martin quyoshga tikilib, uning ufqda yetib kelishiga qancha qolganini chamalab ko'rdi-da, qo'lyozmalarini yig'ishtira boshladi, shu harakati bilan u qo'lyozmalar borligini Rufga eslatgan edi.

– Voy, esimdan chiqibdi-yu, – dedi Ruf shosha-pisha, – o'qib bersangiz, jon-jon deb eshittardim!

Martin unga o'zining eng yaxshi ko'rgan hikoyasini o'qib berdi. Hikoyaga «Hayot sharobi» deb nom qo'yan edi. Martin hikoya yozayotgan chog'ida uni mast qilgan o'sha sharob, endi shu hikoyani o'qiyotgan chog'ida yana miyasiga urdi. Ajoyib mavzuda yozilgan bu hikoyada o'ziga xos bir nafosat ruhi mavjud edi, ammo Martin tumtaroq so'zlar va iboralar bilan bu nafosatni yanada kuchaytirishga uringandi. U hikoya yozayotgan chog'da lovillab yonib turgan ilhom alangasi hozir ham uni qurshab olgan edi, shuning uchun u o'zining hech qanday nuqsonini sezmasdan, zo'r ehtiros bilan o'qirdi. Lekin hikoyaga Rufning munosabati tamomila boshqacha edi. Hikoyaning barcha zaif tomonlari, barcha mubolag'alar, yosh qalamkashlargagina xos bo'lgan haddan ziyod shavq-zavq, juda ko'p yerda jumlalardagi

hamohanglikning buzilishi darhol Rufning o'tkir quloqlariga chalindi. Ochig'i, u Martinning hikoyasida ohangdorlik yo'qligini sezdi, dabdabali, salmoqdor jumlar bundan mustasno edi, albatta; ammo aynan shu jumlarning yuzakiligi Rufning g'ashiga tegdi. «Diletantizm»¹¹ – qizning bu asarga bergan qat'iy bahosi shu edi, lekin bu fikrni aytmedi. Aksincha, u bor-yo'g'i bir necha mayda kamchiliklarni tilga olib, umuman, hikoyani o'ziga yoqqanligini aytish bilan kifoyalandi.

Lekin Martinning hafsalasi pir bo'ldi. Qiz haqli tanqid qildi, Martin buni e'tirof etmay iloji edi, ammo hikoyasini unga mayda-chuyda kamchiliklarni tuzatish uchun o'qimagan edi-ku. Gap tafsilotda emas. Buning hammasini tuzatsa bo'ladi. Vaqti kelib, uning o'zi mayda nuqsonlarni payqaydigan, hatto ularga yo'l qo'ymaydigan bo'ladi, albatta. Lekin u o'z hikoyasida ulkan, jonli hayotning bir qismini ifodalamoqchi bo'lgan edi-ku. Martin Rufga nuqta va vergullar bilan ajratilgan bir qator jumalarni emas, balki ana shu jonli hayotning bir qismini ko'rsatmoqchi edi. Martin o'z ko'zi bilan ko'rgan, o'z tafakkuri bilan anglagan va o'z qo'llari bilan mashinkada bosgan mana shu satrlardagi ulkan va muhim narsalarni Ruf ham anglashini istardi. Aftidan, bu istaginga muyassar bo'lmadim, shekilli, deb o'yladi u. Balki muharrirlar chindan ham haqdirlar. U hayotning ulkan, muhim jihatlarini mushohada qilardi-yu, ammo uni so'z bilan ifodalashga qodir emas edi. Natijada, Martin hafsalasi pir bo'lganini yashirib, qizning tanqidiy mulohazalariga shunday osonlik

¹¹ Diletantizm – yuzakilik, sayozlik.

bilan rozi bo'ldiki, qiz uning qalbida qanday zo'r e'tiroz uyg'otganini xayoliga ham keltirmadi.

– Mana, bunga «Qozon» deb nom qo'yganman, – dedi Martin ikkinchi qo'lyozmani ocharkan. – Bu to'rt-besh jurnaldan rad etilib qaytib kelgan, shunday bo'lsa ham, bu hikoya o'zingga yoqadi, o'z asaringga baho berish qiyin, lekin menimcha, bu hikoyaning bir nimasi bor. Balki meni qiziqtirganchalik qiziqtirmas sizni, lekin hikoya qisqagina, bor-yo'g'i ikki ming so'zdan iborat.

Martin hikoyani o'qib bo'lgandan keyin Ruf:

– Qanday dahshat! – deb qichqirib yubordi. – Judayam dahshat-ku bu!

Martin qizning rangi o'chgan chehrasiga, chaqnab turgan ko'zlariga va asab bilan chalishgan qo'llariga pinhona zavq bilan qaradi. U niyatiga yetgan edi. O'zining butun vujudini qamrab olgan tuyg'ular va lavhalarni qizga uqtirishga muyassar bo'lgan edi. Hikoya qizga yoqdimi, yoqmadimi, buning ahamiyati yo'q. Eng muhimi – hikoya unga qattiq ta'sir etdi, uni diqqat bilan tinglashga majbur etdiki, natijada Ruf hikoyaning mayda nuqsonlarini payqamadi ham.

– Bu hayot, – deb e'tiroz bildirdi Martin, – hayot hamma vaqt ham jozibali bo'lavermaydi. Kim bilsin, ehtimol, men juda g'alati maxluq bo'lsam kerak, chunki shu yerda ham go'zallikni ko'ryapman. Bu go'zallik menga shu qiyofasida yana o'n karra azizroq...

– Lekin nega axir o'sha baxtiqaro ayol... – deb Ruf uning gapini bo'ldi-yu, gapini tamomlamay yana jon-jahdi bilan qichqirdi: – O! Bu bema'nilik! Bu badkorlik! Bu qabohat!

Bir zumga Martinning yuragi urishdan to'xtaganday tuyuldi. Qabohat! Buni u hech qachon o'ylamagan, hech qachon tasavvur ham qilma-gan edi. Butun hikoyaning har bir harfi uning ko'zi oldida alanga bo'lib yonib turar va uning shu'lasidan qamashgan ko'zlari hech qanday qabihlikni ko'rmasdi. Mana, yuragi siynasida yana gupillab ura boshladi. Uning vijdoni pok edi.

– Nega chiroyliroq mavzu tanlamadingiz? – dedi qiz. – Bilamiz, dunyoda qabihlik juda ko'p, lekin bu bilan...

Ruf allanarsalar to'g'risida achchiq-achchiq gapirar, lekin Martin unga quloq solmasdi. U qizning tarovatli chehrasiga tikilib o'tirardi; bu chehra shunday ta'sirchan, shunday iffat shu'la-si bilan yoritilgan ediki, go'yo bu iffat Martin yuragining eng teran yeriga singib borgandek va uni yulduzlar shu'lasidek sarin, mayin va sernavozish samoviy nur bilan yuvib tozalayot-gandek bo'lardi. «Bilamiz, dunyoda qabihlik juda ko'p!» Nimani ham «bilardi» deb o'yladi Martin va go'yo qiz u bilan hazillashayotganday, miyi-g'ida sho'x kulib qo'ydi. Uning ko'z oldida birdan o'zi miridan-sirigacha o'rgangan iflos hayotning poyonsiz ummoni «lop» etib paydo bo'ldi-yu, hi-koyasini tushunmagani uchun Rufni ayblamadi. Martinning hikoyasiga tushunmagani uchun qiz aybdor emas edi. Xudoga shukurki, Ruf bunday muhitdan tamomila chetda tug'ilib o'sgan. Lekin Martin, Martin hayotni bilardi, undagi jamiki ra-zolat va ulug'vorlikni bilardi, ustini qoplab yotgan barcha iflosliklarga qaramay, hayotning go'zal ekanligini bilardi, shuning uchun ham bu haq-

da butun jahonga o'z fikrini aytmay qo'ymaydi. Samoviy malikalarning pok va benuqsonligidan hech kim ajablanmaydi. Bu o'rinda ularning xizmati yo'q. Lekin iflosliklar orasida avliyolar bo'lishi, bu – chinakam mo'jiza! Shu mo'jiza tu-fayli ham yashash kerak! Adolatsizlik axlatxo-nasidan unib chiqayotgan axloqiy kamolotning shohidi bo'lish; shaxsan o'zining o'sish va hali isqirti yuvilmagan ko'zlar bilan go'zallikning ilk nurlarini ilg'ab olish; zaiflik, axloqsizlik, olchoq-lik va hayvoniy betamizlikdan ham kuch, ham haqiqat, ham ma'naviy oliyjanoblik xislatlari-ning bunyodga kelayotganini kuzatish uchun yashash kerak!

Shu payt birdan Martinning qulog'iga Rufning ovozi eshitildi:

– Hikoya boshdan-oyoq allaqanday palid nar-salarga asoslangan! G oyat latif va oliyjanob nar-salar juda ham ko'p-ku: «In memorian¹² ni eslang.

Martin: «Loksli Xoll-chi?» demoqchi bo'ldi, agar yana xayol dengiziga g'arq bo'lmaganida aytardi ham. U qizning jamoliga tikilarkan, ayol kishi yuz ming asr mobaynida hayot pillapoyasi-dan muttasil yurib, nihoyat eng yuksak kamo-lot cho'qqisiga chiqish, Ruf bo'lish, ya'ni, pok va go'zal, ilohiy quvvat sohibasi – Ruf bo'lish uchun va Martin Iden qalbida muhabbat, poklikka in-tilish hamda o'sha ilohiy quvvatni sinab ko'rish hissini uyg'ota olish darajasiga ko'tarilish uchun qancha murakkab yo'llarni bosib o'tishini o'yla-di; ibtidoiy hayotning teran jarligidan, hayotning doimiy jarayonida yuz beruvchi son-sanoqsiz xa-

¹² Esdalik (xotira)

tolar va muvaffaqiyatsizliklar girdobidan aql bovar qilmaydigan tarzda yuksalib chiqqan Martin Iden qalbida muhabbat uyg'ota olish darajasiga yetguncha, u ayollar qanchadan-qancha murakkab yo'llar bosib o'tganlar. Romantika, go'zallik va mo'jiza shunda! Mana shular haqida yozish kerak; faqat ularni ifodalash uchun so'z topilsa bas. Maloikalar osmonda – ular faqat maloika, xolos. Martin esa inson.

Martin Rufning ovozini eshitdi:

– Siz juda kuchli odamsiz, lekin kuchingiz qandaydir bebosh kuch.

– Idish-tovoq do'koniga kirib qolgan begemotga o'xshayman, – deb hazil qildi Martin. Ruf tabassum bilan uni taqdirladi.

– Hech nimaning farqiga bormay, duch kelgan narsa to'g'risida yozaverish yaxshi emas. Sizing o'z didingiz, latofatli uslubingiz bo'lishi kerak.

– Men o'zimga haddan tashqari ishonsam kerak, – deb g'o'ldiradi Martin.

Ruf uning bu fikriga qo'shilib, jilmayib qo'ydi va navbatdagi hikoyani eshitmoqchi bo'ldi.

– Bilmadim, sizga yoqarmikin, – dedi Martin go'yo o'zini oqlayotganday. – Bu g'alati hikoya! Balki men oshirib yuborgandirman, lekin gapimga ishoning, niyatim xolis edi. Ikir-chikirlarga e'tibor bermaslikka harakat qiling. Eng muhimi, asosiy fikrni tushuna olsangiz bo'lgani. Bu juda muhim va to'g'ri fikr, faqat uni tushunarli qilib yoza oldimmikin, bilmadim.

U o'qiy boshladi; o'qirkan, Rufga qarab-qarab qo'yardi. Nihoyat, hikoya qizning diqqatini tortganday bo'lib tuyuldi. Ruf go'yo Martin yaratgan

obrazlarga mahliyo bo'lganday, nafasini ichiga yutib, undan ko'zini uzmay qimir etmay o'tirardi. Martin bu hikoyaning nomini «Sarguzasht» deb atadi, bu chindan ham kitobiy emas, hayotiy sarguzashtning eng yuksak cho'qqisi, ya'ni, ham jazoga, ham vafoga bir xilda saxiy, ham injiq, ham bevafo, qullarcha itoatgo'ylikni va tinim bilmay ishlashni talab qiluvchi, goh quyosh taftidan lov-lov yonayotgan sahroga olib chiqib, goh tashnalik, ochlik, mashaqqatli olis yo'l azobiga soluvchi yoki ajalga giriftor etuvchi dahshatli bezgak azobi bilan qaynovchi va nihoyat, daryo-daryo ter to'ktirib, qon oqizib, zaharli qumursqalarga chaqtirib, son-sanoqsiz mayda-chuyda, e'tiborsiz hodisalarni boshdan kechirib, oxiri g'oyat ajib zafar bilan tugovchi xotimaga olib keluvchi dahshatli hukmdorning chinakam ulug' sarguzashti edi.

Martin hikoyasida shularni va boshqa birtalay narsalarni tasvirlagan edi; shu narsalarning hammasi Rufning ko'zlarini chaqnatib, eshitishga majbur etayotganday edi; qizning yonoqlari cho'g'dek qizarib ketdi, shuning uchun Martin hikoya oxirlab qolganda, Ruf hozir hushidan ketib yiqiladi deb qo'rqib ketdi. Ruf chindanam zo'r hayajonda edi, ammo u hikoyadan emas, Martinning o'zidan hayajonlangan edi. Masala hikoyada emas edi; Ruf Martinning vujudidan ufurib turgan va qizni boshdan-oyoq qamrab olgan o'sha tanish kuch ta'sirini yana his qila boshlagan edi. Ammo shunisi qiziqki, hikoya ham aynan shu kuch bilan sug'orilgan edi, Ruf ham hozir o'sha kuchni hikoya orqali his qilayot-

gan edi. U yolg'iz shu kuchni his qilardi-yu, ayni vaqtda, vositachilik vazifasini o'tayotgan hikoyani deyarli sezmasdi; sirdan qaragan odamga u go'yo hikoyani berilib eshitayotganday tuyulsa ham, aslida, to'satdan xayoliga kelib qolgan dahshatli, aql bovar qilmaydigan, tamomila o'zgacha bir fikr bilan band edi. Uning xayoliga birdan erga tegish haqidagi fikr keldi-yu, bu fikrning miyasiga qattiq o'rnashganligi uni qo'rqitib yubordi. Bu Rufga yarashmasdi. Bu unga tamomila yot fikr edi. Uyg'onib kelayotgan ayollik hirsini hali uni hech qachon iztirobga solmagan edi, shu choqqacha u Tennison she'riyati ta'siriga g'arq bo'lib, g'aflat olamida yashar va hatto bu eng nazokatli shoirning ritsarlar bilan qirolichalar o'rtasidagi samimiy munosabatlar haqidagi nozik imo-ishoralariga ham parvo qilmasdi. Qiz uyquda edi, birdan hayot shiddat bilan uning eshigini qoqdi. Qo'rqib ketgan qiz eshikning hamma zanjirlarini solib berkitmoqchi bo'lgan edi, lekin endi uyg'onib kelayotgan hislar antiqa va nihoyatda go'zal mehmonga eshikni keng ochishini talab qildi.

Martin Ruf o'z fikrini aytishini mamnuniyat bilan kutardi. U fikrning qanday bo'lishiga hech shubha qilmagan edi, shuning uchun Ruf faqat:

– Go'zal, – deb javob qilganida Martin hang-mang bo'lib qoldi.

Bir oz sukutdan so'ng Ruf jo'shqin ohangda takrorladi:

– Juda go'zal!

To'g'ri, bu go'zal hikoya edi; lekin hikoyada boshqa yirik bir narsa mavjud edi, go'zallik unga tobe edi. Martin yerda cho'zilib yotardi; mash'um

shubha bulutlari boshi uzra to'plana boshladi... Yana bo'lmadi. U so'zga usta emas. U jahonda-gi eng ajoyib mo'jizalarni ko'radi-yu, lekin ularni tasvirlashga qurbi etmaydi.

– Siz qanday fikrdasiz hikoyaning... – yangi so'zni talaffuz etishdan tortinib, bir oz tutilib qoldi, – g'oyasi haqida?

– G'oyasi uncha aniq emas, – dedi qiz, – men olgan umumiy taassurot shundan iborat. Men voqeaning borishini ilg'ab olishga urindim, lekin qiyin bo'ldi. Siz haddan tashqari sergapsiz. Hikoyaga mutlaqo aloqador bo'lmagan materiallarni olib kirib, asosiy voqeani xiralashtirib qo'ygansiz.

– Lekin bularning hammasi asosiy g'oyaga aloqador-ku, – deb shosha-pisha izohlay boshladi Martin. – Asosiy g'oyaning juda buyuk, olamshumul ahamiyati bor. Men butun hikoyani shu g'oya bilan sug'ormoqchi bo'ldim. Hikoya bu g'oya uchun faqat qobiq vazifasini o'taydi. Men to'g'ri yo'ldan borayotgan edim, lekin chamamda, vazifani yaxshi bajara olmabman, shekilli. Men ko'nglimdagi gaplarni izhor eta olmadim. Ehtimol, vaqti kelib, o'rganib qolarman.

Ruf uning fikrlari inkishofini kuzata olmadi. U san'atshunos bo'lishiga qaramay, bu fikrlarga uning aqli yetmas edi. U Martinning fikrlariga tushunmasdi va buning sababi shuki, Martin o'z fikrini ifodalashga no'noqlik qiladi deb o'ylardi.

– Siz juda ko'p so'z ishlatarkansiz, – deb takrorladi qiz, – lekin ba'zi yerlari juda yaxshi chiqqan.

Qizning ovozi Martinga juda olisdan eshiti-layotganday tuyuldi, chunki bu payt u, Rufga «Dengiz qo'shiqlari»ni o'qib bersammikin, yo'qmi,

deb o'ylayotgan edi. Martni hasrat va umidsizlik bilan jimgina yotar, qiz esa unga tikilib o'tirar ekan, miyasiga o'sha erga tegish haqidagi kutilmagan xayollar hadeb kelaverardi.

– Siz mashhur bo'lishni istaysizmi? – deb so'rab qoldi birdan Ruf.

– Ha, shunday, shekilli, – deb e'tirof etdi Martin, – lekin eng muhimi bu emas. Meni shuhratdan ham ko'ra unga olib boruvchi yo'l ko'proq qiziqtiradi. Undan tashqari, shuhrat menga boshqa bir ishda ko'maklashgan bo'lardi. Men, ochig'ini aytsam, bir narsa tufayli mashhur bo'lishni istardim.

U «siz tufayli» deb ilova qilmoqchi bo'ldi, agar Ruf uning asarlariga birmuncha qiziqib qaragani-da, ehtimol, shunday deb aytardi ham.

Lekin bu payt qizning xayoli Martin uchun bir qadar munosib bo'lgan mansab topish bilan band edi, shuning uchun u Martinning nimagaga shama qilayotganini ham so'ramadi. Undan yozuvchi chiqmasligiga Ruf qat'iy ishongan edi. Buni Martin hozirgina o'zining sayoz yozilgan, g'o'r asarlari bilan isbot qildi. U chiroyli gapirishni o'rganib olgan edi-yu, ammo adabiy uslubida juda ham no'noq edi. Qiz uni Tennison, Brauning bilan va o'zining eng sevimli adiblari bilan taqqoslar, bu taqqoslash Martin uchun qulay emasdi. Lekin qiz dilidagi gaplarning hammasini unga aytib o'tirmadi. Uning Martinga bo'lgan rag'batini talabchanligini zaiflashtirayotgan edi. Xullas, Martinning yozuvchilikka mayl qo'yishi shunchaki bir ishqibozlik edi, lekin vaqti kelib, bu barham berib ketsa kerak. Ana o'shanda

Martin, shubhasiz, o'z kuchini hayotning bir-muncha jiddiyroq sohasida sinab ko'radi-da, muvaffaqiyat qozonadi. Rufning bunga imoni komil edi. Martin shunday kuchliki, xohlagan narsasiga albatta erisha oladi... Faqat tezroq yozuvchilikni tashlasa bo'lgani.

– Yozganlaringizning hammasini menga o'qib berib tursangiz, mister Iden, – dedi qiz.

Martin sevinchdan qizarib ketdi. Qiz uning asarlariga qiziqib qolibdi – bunga shubha yo'q edi. Xullas, axir u Martinning asarlarini yaroqsiz deb topmadi-ku. U hatto ba'zi yerlarini go'zal deb aytdi. Martin ruhlantiruvchi so'zlarni birinchi marta eshitdi.

– Yaxshi, – dedi Martin hayajon bilan, – sizga so'z berib aytamanki, miss Morz, yaxshi yozuvchi bo'laman. Men juda uzoq yo'l bosib keldim, bilaman, hali yana juda uzoq yo'l bosishim kerak, lekin emaklab bo'lsa ham, bu yo'lni bosib o'taman. – U Rufga mashinkada bosilgan varaqlarni uzatdi. – Mana bu – «Dengiz qo'shiqlari». Sizga berib yuboraman, vaqtingiz bo'lganda uyda o'qib chiqing. Lekin keyin menga fikringizni ochiq ayting. Tanqidiy mulohaza men uchun nihoyatda zarur! O'tinaman, bor haqiqatni ayting!

– Men hech nimani yashirmayman, – deb so'z berdi Ruf, biroq bugun Martin bilan ro'yirost gaplashmaganini ko'nglidan o'tkazarkan, bundan keyin ham u bilan ro'yirost gaplasha olish-olmasligini bilmasdi.

O'N BESHINCHI BOB

– Birinchi to'qnashuv bo'lib o'tdi, – dedi Martin oradan o'n kuncha vaqt o'tgach, ko'zgudagi aksiga qarab, – lekin ikkinchi, uchinchi to'qnashuv ham bo'ladi, to...

U jumlani tugallamay, o'zining g'aribona hujrasiga ko'z yugurtirib chiqarkan, ko'zlari burchakda sochilib yotgan bir to'p uzunchoq konvertlarga ma'yus tikilib qoldi. Bularning hammasi tahririyatlardan qaytarib yuborilgan qo'lyozmalari edi. Bularni yangi manzillarga yuborish uchun marka kerak edi; marka olish uchun esa pul kerak, shuning uchun ham bir haftada ancha-muncha qo'lyozma to'planib qolgan edi. Hali qo'lyozmalarning hammasi qaytib kelgani-cha yo'q, ertagayam, indingayam ular kelaveradi. Endi, bu qo'lyozmalarni boshqa tahririyatlarga yuborishga uning imkoni qolmadi. U yozuv mashinkasining bir oylik ijara haqini to'lagani yo'q, to'lay olmas edi ham, chunki qo'lidagi puli bir haftalik ijara haqi bilan vositachilik mahkamasiga to'lanadigan pulga arang yetardi; Martin shu mahkama orqali o'ziga ish topmoqchi edi. U o'tirib, stolga tikilganча o'ygа tildi. Stolda siyoh dog'lari bor edi, Martinning dilida birdan stolga mehribonlik tuyg'usi uyg'ondi.

– E, bechora ko'hna stol, – dedi u, – sening qoshingda juda ko'p baxtiyor damlarni o'tkazdim, sen hamisha vafodor do'stim eding. Hech qachon ko'ksimdan itarmading, o'rinsiz injiqliklar qilib meni ranjitmading, hech qachon ish og'irligidan nolimading.

U stolga tirsaklarini qo'yib, yuzini qo'llari bilan yopdi. Bir nima tomog'iga kelib tiqildi, yig'lab yuborgisi keldi. Birinchi marta mushtlashgani esiga tushdi: u paytda olti yoshli bola bo'lgan Martinni o'zidan ikki yosh katta boshqa bola o'larday do'pposlar, Martin esa ko'zida yosh bilan uning zarbalarini daf qilardi. Nihoyat ko'z yoshlariga qorishib ketgan burnidan oqqan qonni yutib yiqilganda, qiyqirib yuborgan bolalarning tepasida uymalashib turganini ko'rgan edi.

– Bola faqir, – deb g'o'ldiradi u, – hozir ham yana do'pposlashdi seni! Do'pposlashgandayam o'rningdan turolmaydigan qilishdi.

Bu dastlabki mushtlashish xotirasi xayolidan hadeganda ketmadi. O'sha paytda juda ko'p marta mushtlashgan edi, shularning hammasi birin-ketin Martinning xotirasida gavdalana boshladi. Yarim yil o'tgach, Moy Qovoq (o'sha bolaning laqabi shunday edi) yana Martinga yopishdi. Lekin bu safar Martin ham uning ko'z ostini ko'kartirdi. Bu hazilakam gap emas edi! U o'sha bola bilan bo'lgan hamma mushtlashganlarini birma-bir eslay boshladi. Moy Qovoq doim yengib chiqardi. Lekin Martin bir marta ham qochmadi. Bu esiga tushganda g'ururlanib qo'ydi. U mushtlashish paytida qattiq azob cheksayam, har doim oxirigacha chidab turardi. Moy Qovoq insofsiz raqib edi, u hech kimga shafqat qilmasdi. Lekin Martin hammasiga chidadi. U hamisha jang oxirigacha chidadi.

Keyin Martinning ko'z oldida ikki tomonida omonatgina tikkayib turgan sinch devorli uylar tizilishib ketgan tor ko'cha namoyon bo'ldi.

Ko'cha boshida bir qavatli g'isht imorat bo'lib, u yerdan «Axborot» gazetasining kunduzgi sonlarini bosadigan mashinalarning bir me'yordagi g'uvillashi eshilib turardi. U paytda Martin o'n birda, Moy Qovoq esa o'n uchda edi; ikkovlari ham gazeta sotishardi. Shuning uchun ham ikkovlari bosmaxona darvozasi oldida uchrashishardi. Tabiiy holki, Moy Qovoq Martinni ko'rgan zahoti unga o'chakishib qoldi, yana mushtlashish boshlandi, lekin jang natijasiz qoldi, chunki soat chorak kam to'rtda bosmaxona darvozasi ochildi-yu, hamma bolalar «gur» etib gazeta olgani otilishdi.

– Ertaga do'pposlayman seni, – deb va'da qildi Moy Qovoq. Martin esa yig'idan qaltiragan ovoz bilan ertaga shu yerda bo'lishini aytdi.

Ertasi kuni u maktabdan qochib, mushtlashadigan yerga Moy Qovoqdan ikki daqiqa oldin yetib keldi. Boshqa bolalar Martinni maqtashib, unga maslahat berishdi, mabodo Martin shu maslahatlarga amal qilsa, albatta raqibini yengishi turgan gap edi. Lekin aynan shu bolalarning o'zi Moy Qovoqqa ham shu maslahatni berishdi. Bu tekin tomoshani ular astoydil zavqlanib tomosha qilishardi. Martin esa o'sha paytda bolalarning qanday zavqlanganini eslab, hozir o'zining ham ularga havasi kelib ketdi. Jang boshlanib, yarim soat, ya'ni, to bosmaxona darvozasi ochilguncha davom etdi. Martinning ko'z oldida o'zining har kuni maktabdan qochib, bosmaxona darvozasi oldiga shoshib borgani, bolalik chog'i qayta-qayta namoyon bo'laverdi. U chopa olmasdi. Mutasil mushtlashishdan uning qaddi bukchaygan,

oyoqlari oqsardi. Uning a'zoyi badani momataloq bo'lib ketgan, qo'llari tirnalgan, ba'zi tirnalgan yerlari yiring bog'lay boshlagan edi. Uning biqinlari, beli, yelkalari zirqirab og'rirdi; boshi xuddi qo'rg'oshin quyib qo'yilganday garang edi. U maktabda o'ynay olmasdi, o'qishdan ham orqada qolib ketdi. Kun bo'yi partada o'tirish uning uchun azob edi. Bu har kungi janglar boshlangandan beri, nazarida, oradan necha yuz yillar o'tib ketganga o'xshardi, vaqt muttasil yangi to'qnashishni kutish bilan, xuddi qo'rqinchli tushday o'tardi. «Nimaga Moy Qovoqni yengib bo'lmaydi?» – deb o'ylardi Martin. U engilganida, Martin jami azoblardan birvarakayiga qutulgan bo'lardi. Lekin taslim bo'lish va Moy Qovoqning o'zidan kuchliroq ekanligini e'tirof etish hech xayoliga kelavermasdi.

Shunday qilib, ham ruhan, ham jisman qattiq azob chekkan Martin matonat sabog'ini oldi, har kun bosmaxona darvozasi oldiga sudralib borar va u yerda o'zi singari qattiq azob chekkan ashaddiy dushmani Moy Qovoq bilan mushtlashardi; Moy Qovoq gazeta sotuvchi bolalar oldida sharmanda bo'lishni istamas edi, agar shu bolalar gij-gijlatmaganda jon-jon deb urishga barham bergan bo'lardi. Bir kuni urishning hamma qoidalariga (tepmaslik, chalmaslik, yotganni urmaslik) rioya qilgan holda yigirma daqiqa jiqqamusht urishishgandan keyin Moy Qovoq gandiraklab kelib, zo'rg'a nafasini rostlab, jangni durang bilan tugatib qo'ya qolishni tavsiya qildi. Martin hozir bu taklifni eslab lazzatlanganidan seskanib ketdi: u hansirab, yorilgan labidan oqqan

qon tomog'iga tiqilib, Moy Qovoqqa tashlandi, gapirishiga xalaqit qilayotgan og'zidagi qonni tupurib tashladi-da: «Durangga rozi emasman, agar Moy Qovoq holdan toygan bo'lsa, taslim bo'lsin», – deb qichqirdi. Lekin Moy Qovoq taslim bo'lishni istamadi, jang yana davom etdi.

Ertasi kuni yana mushtlashishdi, undan keyin ham har kuni mushtlashaverishdi. Har safar urish boshlanishi oldidan Martin badanini zirqirab og'rganidan qattiq iztirob chekardi, lekin keyin og'riq sezilmay qolar va xuddi tush ko'rayotganday vujudi g'azabga to'lib mushtlasharkan, ko'z oldida faqat Moy Qovoqning keng jag'larini va vahshiy hayvonnikiga o'xshab yonib turgan ko'zlarini ko'rardi, xolos. U butun diqqatini shu basharaga qaratar, boshqa hech narsa ko'ziga ko'rinmas edi. Uning uchun dunyoda shu basharadan boshqa hech nima yo'q edi, shuning uchun Martin shu basharani bir parcha qonli go'shtga aylantirmaguncha, yoki o'z afti qonli go'shtga aylanmaguncha, ko'ngli tinchimasligini bilardi. Ana o'shandagina mushtlashishni to'xtatsa bilardi. Lekin Martinning durangga rozi bo'lishi aslo mumkin emas edi! Nihoyat, bir kun Martin bosmaxona darvozasi oldiga odatdagi vaqtda kelib, Moy Qovoqni topa olmadi. U kelmagan edi. Bolalar, Moy Qovoq taslim bo'ldi, deb Martinni tabriklay boshladilar. Lekin Martinni bu ajrim qoniqtirmadi. U Moy Qovoqni yengmadi, Moy Qovoq ham uni yengmadi. Ora ochilmay qoldi. Keyinchalik bilishsa, xuddi o'sha kuni Moy Qovoqning otasi to'satdan o'lib qolgan ekan.

Martin xayolan bir necha yilni hatlab o'tdi va o'zini teatr galyorkasida ko'rdi. U endigina dengiz safaridan qaytib kelgan edi, yoshi o'n oltiga to'lib, endi o'n yettiga qadam qo'ygan edi. Birdan tomoshabinlar orasida janjal ko'tarildi. Kimdir allakimni turtib yuboribdi. Martin janjalga aralashdi-yu, birdan ko'zi eski raqibi – Moy Qovoqning chaqrab turgan ko'zlari bilan to'qnashdi.

– Tomoshadan keyin seni do'pposlayman, – deb unga shivirladi Martinning raqibi.

Martin «yaxshi» deganday bosh irg'adi. Chunki janjal ko'tarilgan yerga tartib noziri shoshilib kelayotgan edi.

– Tomosha tamom bo'lgandan keyin eshik oldida uchrashamiz, – deb pichirladi Martin, o'zini sahnadagi o'yinni berilib tomosha qilayotganga solib.

Tartib noziri – polismen ularni bir ko'zdan kechirdi-yu, nari ketdi.

– Sheriklaring bormi? – deb so'radi Martin parda yopilganda Moy Qovoqdan.

– Bo'lmasam-chi!

– Unday bo'lsa men ham uch-to'rtta sherigimni chaqiraman, – dedi Martin.

Tanaffus vaqtida u mix zavodida ishlaydigan uchta og'aynisini, bitta o't o'chiruvchini, oltita matros va Market-Stritdagi mashhur o'g'rilar to'dasidan ham shuncha azamat yigitni chorlab, bir to'da tuzdi.

Tomosha tamom bo'lgandan keyin ikkala to'da ko'chani ikki chekkasidan yurib ketdi. Sal nariroqdagi xilvatgina tor ko'chada ular to'planishib, harbiy kengash ochishdi.


– Eng ma’qul joy – Sakkizinchi ko’chaning ko’prigi, – dedi Moy Qovoq to’dasidan malla yigit, – ko’prikning o’rtasida elektr fonarlari yorug’ida mushtlashasiz, biz esa fir’avnlariga¹³ ko’z-quloq bo’lib turamiz. Bir tomondan kelib qolishsa, ikkinchi tomonga qochib ketamiz.

– Mayli, roziman, – dedi Martin o’z odamlari bilan maslahatlashib olgandan keyin.

San-Antonioning okeanga quyilish yeridagi tarmog’i ustiga qurilgan Sakkizinchi ko’cha ko’prigining uzunligi shahardagi uch kvartalning uzunligiga teng kelardi. Ko’prikning o’rtasida va ikki boshida elektr fonarlar yonib turardi. Bironta ham polismen bu yerga pisib kela olmasdi. Martinning yumuq ko’zlari oldida jang qilish uchun qulay bo’lgan bu joy butun tafsilotlari bilan namoyon bo’ldi. U har qaysisi o’z jangchisi orqasida, bir-birlarining ro’paralarida adovat bilan xo’mrayishib turgan ikki to’dani ko’rdi. Martin bilan Moy Qovoq bellarigacha yechinishdi. Kuzatuvchilar ko’prikning har ikki boshiga borib, o’rinlarini egalladilar. Matroslardan biri Martinning kurtkasi, ko’ylagi va qalpog’ini qo’liga ko’tarib oldi, politsiya bosib kelib qolgudek bo’lsa, u kiyimlarni bexavotirroq joyga olib qochishi kerak edi. Martinning ko’z oldida o’sha vaqtdagi o’z qiyofasi yaqqol ko’rindi; mana, u davra o’rtasiga chiqdi, Moy Qovoqning ko’ziga tik qarab, mushtini ko’targancha dedi.

– Hech qanday takallufga hojat yo’q! Bildingmi? Ora ochdi bo’lguncha mushtlashamiz! Ba-

¹³ Fir’avnlar – polismenlar.



hona qilish yo'q. Ikkovimizning eski hisob-kitobimiz bor, orani ochdi qilish kerak! Bildingmi?

Raqib taraddudlanib qoldi – Martin buni payqadi, lekin Moy Qovoq sirkasi suv ko'tarmaydigan yigit edi, shuning uchun shuncha tomoshabin oldida sharmanda bo'lishni istamasdi.

– Hay, mayli, chiq o'rtaga, – deb qichqirdi u, – muncha ezmalik qilasan! Ora ochdi bo'lguncha desang, ora ochdi bo'lguncha-da!

Shu choq ular mushtlarini do'laytirganicha xuddi ikkita buqacha singari bir-birlariga tashlandilar; ular yoshlik g'ayrati bilan urish, majalash, mayib qilish istagi bilan yonib mushtlasha boshladilar. Bashariyatning taraqqiyot sari ming-ming yillar davomida bosib o'tgan mashaqqatli yo'llarda erishgan hamma narsasi bir zumda barbod bo'ldi. Faqat elektr fonusi taraqqiyotning unutib qoldirilgan bir nishonasi sifatida qaqqayib turardi. Martin bilan Moy Qovoq hozir g'or va daraxtlarda istiqomat qiluvchi tosh asr vahshiyilariga aylangan edilar. Ular ibtidoiy hayot botqog'iga tobora chuqurroq botib borardilar, fazoda uchib yuruvchi toshlar singari, muttasil bir-biriga tortilib, bir-biridan qochuvchi atomlarga o'xshab, ko'r-ko'rona, g'ayriixtiyoriy ravishda bir-birlari bilan to'qnashardilar.

Martin bu jangning butun tafsilotini eslarkan:

– Yo tavba! G'irt mol ekanmiz-da o'zimiz ham! Yovvoyi hayvon ekanmiz-ku! – deb ingrab yubordi.

U o'z tasavvurining favqulodda kuchi tufayli bu voqeani xuddi kinematografda o'tirgandek aniq-tiniq, ravshan ko'rardi. U ayni vaqtda bu voqeaning ham ishtirokchisi, ham tomoshabinini

edi. Uning shuncha oylardan beri o'qib o'rgan-ganlari bu dahshatli manzaradan uni jirkantirib yuborardi; lekin hademay o'tmish xotiralari uning ongidan hozirgi zamonni siqib chiqarib tash-ladi va u yana sobiq Martin Idenga aylandi ham-da dengiz safaridan qaytib kela solib, Sakkizin-chi ko'chaning ko'prigi o'rtasida Moy Qovoq bilan mushtlasha boshladi. U bor kuchini yig'ib oli-shar, terlar, qonga belanar, mushtlari mo'ljalga borib tekkanda shodlanardi.

Bular odam emas, balki bir-biriga kelib urilgan ikki zo'r quyunga o'xshardi. Vaqt o'tib borar, ik-kala to'da ham nafaslarini yutib, qimir etmay tu-rardi. Ular bunday qahru g'azabni hech qachon ko'rmagan edilar va bu g'azab ularni dahshatga solardi. Ularning oldida o'zlaridan ham vahshiy-roq ikkita hayvon olishardi.

Raqiblarning dastlabki jo'shqin g'azabi sovidi va endi ular ehtiyot va mulohaza bilan musht sola boshladilar. Unisi ham, bunisi ham ustun chiqa olmasdi.

– Durang bo'ladi, – degan ovoz eshitildi Martin-ning qulog'iga.

U bexosdan yanglish harakat qildi, lekin shu zahoti yonog'iga qattiq zarba kelib tushib, uni suyagigacha tars yorib yubordi. To'g'ri musht-dan bunday jarohat ochilishi mumkin emas edi. Martin odamlarning taajjublanib qichqirganini eshitdi, yuzidan sharillab qon oqayotganini sez-di. Lekin u sir boy bermadi. U darhol sergaklan-di, chunki raqibining qanday odamligini, uning qo'lidan har qanday razillik ham kelishini yaxshi bilardi. Martin raqibini diqqat bilan kuzata bosh-

ladi-yu, uning qo'lida metall yaraqlaganini payqab qolib, chaqqonlik bilan qo'lidan ushlab oldi.

– Kaftingni och! – deb baqirdi u. – Meni kastet bilan urding!

Ikkala taraf baqirib-chaqirib, haqorat yog'dirib bir-birlariga tashlandilar; yana bir soniyadan so'ng to's-to'polon ko'tarilar va Martin qasosini qondira olmay qolardi. U o'zida yo'q darg'azab edi.

– Qaytinglar orqaga! – deb baqirdi u. – Hammanglar qaytinglar! Eshitdinglarmi?

Odamlar tisarilishdi. Ular misoli hayvon edilar, lekin Martin ulardan ham o'tib ketgan vahshiy hayvon edi va hammaga dahshat solaradi, mana shu dahshat tuyg'usi ularni itoat etishga majbur qildi.

– Bu mening ishim, hech kim tumshug'ini tiqmasin. Hey! Bu yoqqa ber kastetni.

Bir oz cho'chib qolgan Moy Qovoq unga itoat etdi va nomardlik qurolini unga uzatdi.

– Bu temirtakni sen bergansan, la'nati sariq moshak, – deb davom etdi Martin, kastetni suvga uloqtirarkan, – orada o'ralashib yurganingni ko'ruvdim, lekin nima qilganingni payqamabman. Agar yana tumshug'ingni tiqqudek bo'lsang, o'lasiz qilib do'pposlayman. Tushundingmi?

Jang yana davom etdi, ikkala raqib ham tamomila holdan toygan bo'lishiga qaramay, hamon bir-biriga musht solardi, nihoyat, ularning atrofini o'rab olgan vahshiylar galasi qonga to'yib, dahshatga tushib qoldi va urishni to'xtatinglar deb mushtlashayotganlarni ko'ndirishga tushdi. Oyog'ida zo'rg'a turgan, insoniy qiyofasini yo'qotguncha kaltak yeb, allaqanday dahshatli

maxluqqa aylangan Moy Qovoq taraddudlanib, urishdan to'xtadi, lekin Martin unga tashlanib, ketma-ket musht tushira boshladi.

Ular go'yo juda uzoq zamonlardan beri olishib kelayotganday edilar, endi Moy Qovoq sezilarli darajada sustlashib borayotganda birdan «qars» etgan qattiq ovoz eshitildi-yu, Martinning o'ng qo'li «shilq» etib osilib qoldi. Suyak singan edi. Buni hamma eshitdi, hamma tushundi ham. Moy Qovoq ham tushundi va yarador raqibiga xuddi yo'lbarsdek tashlanib, jon holatda uni do'pposlab ketdi. Martinning to'dasi yordamga tashlandi. Lekin ustma-ust tushayotgan zarbalardan gangib qolgan Martin, tinmay goh bo'ralab so'kib, goh og'riq va g'azabdan ingrab, sheriklariga «aralashmanglar», deb qichqirar, chap qo'li bilan raqibini tinmay mushtlar, hech narsaning farqiga bormay do'pposlar edi. Hayajonli pichirlashlar uning qulog'iga go'yo juda olislardan eshitilayotganday tuyuldi, keyin u kimningdir titroq ovozini eshitdi: «Yigitlar, bu mushtlashish emas! Bu qotillik! Ajratib qo'yish kerak ularni!»

Lekin ularning birontasi ham olishayotganlarga yaqinlashgani jur'at eta olmadi, Martin esa hamon chap qo'li bilan do'pposlab yotar, qo'li har urganda odam basharasiga mutlaqo o'xshamaydigan allaqanday yumshoq qonli, jirkanch narsaga tegar, ana shu allanarsa esa hech taslim bo'lishni istamas, hamon uning xira tortgan ko'zlari oldidan nari ketmasdi. Lekin Martin hamon to'xtamasdan urar, asta-sekin eng oxirgi kuchini sarflab musht solar edi, zarbalari tobora zaiflasha bordi, to bu beo'xshov qonli go'sht

ko'prik taxtalariga gurs etib yiqilmaguncha urdi, u o'zini asrlar davomida, ming yillardan beri urishayotgandek his qildi. Shunda Martin bo'shliqqa tayanmoqchi bo'lib, mast odamlarday gandaraklab ketdi va raqibining tepasiga borib, o'zgargan ovoz bilan:

– Mushtlashishni xohlaysanmi yana? Gapir... Xohlaysanmi? – dedi.

U hamon qattiq turib javob talab qilardi, shunda birdan o'rtoqlari uni ushlab yetaklab ketayotganini, egniga kurtkasini kiygizmoqchi bo'lishganini his qildi. Ana shundan keyin birdan hushidan ketib qoldi.

Stol ustidagi soat jiringlab ketdi, lekin Martin uni eshitmay, yuzini qo'llari bilan bekitib, qimir etmay o'tiraverdi. Qulog'iga hech narsa kirmas, hech narsani o'ylamasdi. Butun bo'lgan voqeani u shunday aniq tasavvur etdiki, xuddi o'sha kechasi Sakkizinchi ko'cha ko'prigida bo'lganidek, yana hushidan ketdi. Bir necha daqiqa davomida uni zulmat va bo'shliq qurshab oldi. So'ng ko'zlari ola-kula bo'lib, terlab-pishib, xuddi tirilgan murda yanglig' sapchib turib ketdi.

– Axiyri seni yengdim-ku, Moy Qovoq! – deb qichqirib yubordi u. – Buning uchun o'n bir yil kutdim, lekin baribir seni yengdim!

Uning oyoqlari qaltirar, boshi aylanardi, shuning uchun gandaraklab ketib, to'shagiga o'tirishga majbur bo'ldi. U hamon o'tmish xotiralari iskanjasida edi. Qayerda yotganini bilmay, to burchakda yotgan bir to'p qo'lyozmalarga ko'zi tushmaguncha hang-mang bo'lib, atrofga olazarak bo'lib qarar edi. Ko'zi qo'lyozma-

larga tushganda, xotirasining g'ildiragi g'irillab aylanib, uni to'rt yillik masofadan olib o'tdi va u endi kitoblarni, shu kitoblar orqali tanigan dunyoni, o'zining katta orzularini, rangpar qizga bo'lgan muhabbatini esladi; agar bu ta'sirchan va nazokatli qiz, hozirgina Martin qayta boshidan kechirgan dahshatli voqealarning bir lahza-lik shohidi bo'lsaydi, u kechib o'tgan hayot botqog'ini bir zungina ko'rsaydi, qo'rqqanidan yuragi yorilib o'lardi!

U o'rnidan turib, ko'zguga qaradi.

– Endi sen o'sha botqoqlikdan qutulib chiqding, Martin, – g'urur bilan dedi o'ziga o'zi, – ko'zlaring ravshan, qo'lingni cho'zsang yulduzlarga yetadi, chinakam hayot kechiryapsan, eng qimmatli asriy meroslarni ularning egalaridan tortib olyapsan.

U o'z aksiga diqqat bilan tikildi-da, kulib yubordi.

– O'zgina asabiylashib, hayajonlanib oldikmi? Hechqisi yo'q! Bu xavfli emas. Sen bir vaqtlar Moy Qovoqni yenggansan, noshirlarni ham xuddi shunday yengasan, o'n bir yildan ham ko'proq vaqt sarf qilsang-qilasan, lekin yengasan! Ammo yo'lda to'xtab qolishni xayolingga ham keltirma, faqat olg'a yur. Kurashgandan keyin oxirigacha kurashish kerak!

O'N OLTINCHI BOB

Soat jingirlab, Martinni qo'qqisdan uyg'otib yubordiki, jisman zaifroq odamning miyasida bundan og'riq turgan bo'lardi. U juda qattiq

uxlagan bo'lsa ham, besh soatlik g'aflat uyqu-si tugaganidan sevinib, darhol uyg'ondi. U uyquni yomon ko'rardi. Qiladigan ishi juda ham ko'p, hayotda hali juda ko'p narsani sinab ko'ri-shi kerak edi! U uyquga ketgan har bir daqiqaga achinardi. Martin suv to'la tog'oraga boshini tiqib, muzdek suv ta'siridan lazzatlanayotganda ham, soat qo'ng'irog'i tinmagan edi.

Lekin bugungi kun odatdagi dastur bo'yicha o'tmadi. Boshlab qo'yilgan hikoya yo'q ediki, uni tamomlash kerak bo'lsin, qog'ozga tushirilishi kerak bo'lgan yangi fikrlar ham yo'q edi. Martin kecha kechqurun ishni juda kech to'xtatdi, endi nonushta payti bo'lib qolgan edi. U Fiskning kitobidan bir bobini o'qimoqchi bo'ldi-yu, lekin xayoli boshqa narsa bilan band bo'lgani uchun kitobni surib qo'yishga to'g'ri keldi. Bugun u hayot bilan yangitdan jang qilishi kerak edi, buning uchun ma'lum vaqtgacha yozuvchilikni yig'ishtirib qo'yadi. O'z oilasi, o'zi tug'ilib o'sgan makoni bilan vidolashayotgan odamning ko'ngli nechog'lik g'ash bo'lsa, Martinning ham ko'ngli hozir shunday g'ash edi. U burchakda uyulib yotgan qo'lyozmalariga nazar tashladi. Ha, u hech kim boshpana berishni istamagan, baxtiqaro farzandlarini tark etishi lozim. U engashib, qo'lyozmalarini tartibga solar ekan, ulardan sevimli yerlarini qayta o'qiy boshladi. «Qozon» va «Sarguzasht»ni hatto ovoz chiqarib o'qidi. Kechagina yozilib, marka yo'qligidan burchakka tashlangan «Quvonch» nomli hikoyasi unga ayniqsa ko'proq ma'qul bo'ldi.

– Hech tushunolmadim, – deb g'o'ldirardi u,
– balki muharrirlarning o'zi tushunmayotgandir.

Yana nima istaydi ular? Ular bundan beshbattar narsalarni bosib yotishibdi-ku. Ular bosayotgan asarlarning hammasi... deyarli hammasi mening asarlarimdan ancha sust.

U nonushtadan keyin yozuv mashinkasini g'ilofga solib, Oklendga olib ketdi.

– Mening bir oylik qarzim bor, – dedi u gumashtaga. – Xo'jayinga aytib qo'ying, men ishga ketyapman, qarzimni qaytib kelgandan keyin to'layman. Bir oy yo shunga yaqin vaqt ichida qaytib kelaman.

U paromda San-Fransiskoga suzib o'tdi-da, to'g'ri vositachilik idorasiga bordi.

– Qanday ish bo'lsa ham baribir, ishlashga roziman, – deb Martin endi gap boshlagan edi, yangi mijozning kirib kelishi uning gapini bo'ldi; bu yangi odam aysh-ishratga o'rgangan ishchilarga o'xshab jo'ngina, ammo olifta kiyingan edi.

Stol ortida o'tirgan kishi umidsizlik bilan boshini chayqadi.

– Nahotki hech kim topilmasa! – deb so'radi yangi kirgan kishi. – Men shu bugunning o'zida albatta bironta odamni topishim kerak.

U o'girilib Martinga qaradi, Martin ham unga qaradi-yu, ishrat bilan o'tgan tundan keyin bo'zarib, ozib ketgan, ammo xiyla xushro'y chehrali yigitni ko'rdi.

– Ish qidirib yuribsanmi? – deb so'radi u Martindan. – Qanaqa ishni bilasan?

– Har qanday og'ir ish qo'limdan keladi: dengizchilikni bilaman, mashinkada yozaman, lekin stenografiyani bilmayman, ot minishniyam

bilaman – xullas, to‘g‘ri kelgan hamma ishni qila olaman.

Kelgan kishi «ma‘qul» deganday bosh irg‘adi.

– Durust, to‘g‘ri keladi. Mening otim Douson. Jo Douson, kirxonada ishlash uchun o‘zinga yordamchi axtaryapman.

– Kirxonada? – ayollarning to‘r tikilgan har xil mayda-chuyda nozik kiyim-kechaklariga dazmol bosish haqidagi fikr Martinga juda alomat tuyuldi. Lekin ishga yollovchi yigitning allaqayeri unga yoqib qoldi, shunga ko‘ra u qo‘shib qo‘ydi: – umuman, kir yuvishni bilaman. Dengizda suzgan paytimda o‘rganganman.

Jo Douson bir daqiqa o‘ylanib qoldi.

– Menga qara, biz kelishib olsak kerak deyman. Gapning nima to‘g‘rida borayotganini bilishni istaysanmi?

Martin tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi.

– «Qaynar Buloq» degan kurort shaharchasidagi mehmonxona qoshida kichkinagina kirxona bor. U yerda ishlash uchun ikki kishi kerak. Bosh ishchi bilan yordamchi. Men bosh ishchi-man. Har kim o‘z ishini qiladi, lekin sen menga bo‘ysunasan. Qalay, rozimisan?

Martin o‘ylanib qoldi. Ishning natijasi uni qiziqtirib qo‘ygan edi. Bir necha oy ishlasa – keyin mashg‘uloti uchun yana vaqt topiladi. U halol ishlashni, jon-jahdi bilan o‘qishni bilardi.

– Ovqatlari yaxshi, alohida xona, – dedi Jo.

Shu gap masalani hal qildi. Alohida xona bo‘lsa, kechalari chiroq yoqib o‘tirishiga hech kim xalal bermaydi.

– Lekin ish juda og‘ir, – deb qo‘shib qo‘ydi Jo.

Martin yengi ostidan turtib turgan mushak-larini siladi.

– Men ishdan qo‘rqmayman.

– Bo‘lmasa kelishdik!

Jo peshanasiga qo‘lini qo‘ydi.

– Uf, la‘nati! Haligacha ko‘zim tinib, boshim aylanyapti. Kecha juda ko‘p tortib yuboribman, shekilli... Ha, aytganday, shartimiz bunday: Ik-kalamizga yuz dollar pul va kvartira beriladi. Men oltmish dollar olardim, yordamchim qirq dollar. Lekin u yigit ishni yaxshi bilardi, sen hali yangisan. Dastlabki paytlarda sen uchun ham ancha-muncha ishlashinga to‘g‘ri keladi. Faraz qilaylik, sen avvaliga o‘ttiz dollardan olasan-u, lekin bora-bora qirq dollardan oladigan bo‘la-san. Men tovlamayman. Ishga moslashib olib, chinakamiga ishlay boshlaganingdan keyin qirq dollaringni olaverasan.

– Roziman, – dedi Martin va qo‘lini cho‘zdi, Jo uning qo‘lini siqdi. – Faqat ozgina bay puli bersangiz yaxshi bo‘lardi. Yo‘lkiraga, yana boshqa xarajatlarga.

– Hamma pulimni xarjlab bo‘ldim, – dedi ma‘yuslik bilan Jo, yana peshanasini ishqalar-kan, – faqat qaytish chiptasi qoldi, xolos.

– Men oxirgi sentingacha ijara haqiga to‘la-shim kerak.

– E, parvo qilma bunga, – deb maslahat berdi Jo.

– Ilojim yo‘q. O‘z opamdan qarzman.

Jo uning ahvoliga achinganday, hushtak cha-lib qo‘ydi, chehrasidan chuqur o‘yga tolganga o‘xshardi.

– Menda yarim shishaga pul chiqib qoladi. Yur. Bir ilojini o‘ylab toparmiz.

Martin bu taklifni rad etdi.

– Ichmaysanmi? – deb so‘radi Jo.

Martin bosh chayqadi, Jo esa shu zahoti ma‘yus ovoz bilan dedi:

– Senga havasim keladi, lekin men hech tashlay olmayapman. Bir hafta itday ishlaganingdan keyin, noiloj qovoqxonaga borasan. Agar ichib mast bo‘lmaganimda, allaqachon bo‘ynimga pichoq solvorgan bo‘lardim, yo bo‘lmasa butun kirxonaga o‘t qo‘yib yuborardim. Lekin sening ichmasligingdan xursandman. Shu tarzda davom etaver.

Martin o‘zi bilan bu odam o‘rtasida qanday chuqur jar – kitoblar yaratgan jar yotganini ko‘rdi; lekin bu jardan qayta sakrab o‘tish uning uchun qiyin emas edi. Uning butun umri ishchilar orasida o‘tdi, shunga ko‘ra, o‘z o‘rtoqlariga hamkorlik hissi uning tabiatida eng katta o‘rinni egallardi. Martin ko‘chib o‘tish masalasini bir zumda hal qildi-qo‘ydi, holbuki, miyasi g‘ovlagan Jo uchun bu nihoyatda mushkul muammo edi. Martin chamadonini Joning chiptasiga ilova yuk sifatida jo‘natib yuboradi-da, o‘zi «Qaynar Buloq»qa velosipedda boradi. Yakshanba kuni yetmish kilometr yo‘lni velosipedda bosib o‘tib, dushanba kunidan ishga kirishsa bo‘ladi. Hozir u uyiga borib, yuklarini saranjomlaydi. Uning vidolashadigan hech kimi yo‘q. Ruf oilasi bilan Sierradagi Toxo ko‘li sohiliga butun yoz bo‘yi dam olgani jo‘nab ketgan.

Martin «Qaynar Buloq»qa yakshanba kuni kechqurun horib-charchab, changga botib yetib

keldi. Jo uni quchoq ochib qarshi oldi. Jo boshini ho'l sochiq bilan bog'lab olgan edi, chunki u kun bo'yi ishlagan ekan.

– Seni yollagani ketganligimdan kirlarning bir qismi o'tgan haftadan qolgan edi, – deb tushuntirdi u. – Yuking eson-omon yetib keldi. O'zingning xonangga qo'ydim. O'ziyam zilday og'ir ekan. Nima solgansan o'zi unga? Oltin emasmi?

Martin chamadonini ochib, ichidagi narsalari ola boshladi, Jo uning karavotiga o'tirdi. Ochig'i, bu chamadon ham emas, shunchaki konserva qutisi edi, shu quti uchun mister Xigginbotam Martindan yarim dollar olgan edi. Martin bu qutiga arqondan ikkita band yasab, uni jomadonnamo bir narsaga aylantirdi. Uch-to'rt juft ichki kiyim olganidan so'ng, chamadondan haddeb kitoblar keti uzilmay chiqib kelaverdi, buni ko'rib, Joning ko'zlari baqrayib qoldi.

– Ie! Tagigacha kitobmi deyman? – deb so'radi u.

Martin tasdiq ma'nosida bosh irg'adi-da, qo'lyuvgich chanoq vazifasini o'tovchi oshxona stoli ustiga birin-ketin kitoblarni olib qo'yaverdi.

– Voy-bo'!

Jo shu nido bilan yuragini bo'shatib olib, jim bo'lib qoldi, aftidan, uning miyasida allaqanday bir fikr tug'ila boshlagan edi. Nihoyat u:

– Sen qizlarga qalaysan? O'chmisan? – deb so'radi.

– Yo'q, – deb javob qildi Martin. – Kitob o'qishga berilmasimdan oldin bo'lib turardi, endi vaqtim yo'q.

– E, bu yerda kitob o'qishga ham vaqting bo'lmaydi, faqat ishlaysanu uxlaysan.

Martin besh soatlik uyqu normasini eslab, kulimsirab qo'ydi. Uning xonasi kirxonaning tepasida edi, suv chiqarish, elektr quvvati berish va kirxonadagi mashinalarni harakatga keltirish vazifasini bajaradigan motor ham shu binoda edi. Qo'shni xonada turuvchi mexanik yangi kelgan ishchi bilan tanishgani kirdi, u elektr chirog'ini stoldan karavot boshiga olib yurishga qulay bo'lsin uchun uni uzun simga ulashda yordam berdi.

Ertasi kuni ertalab Martin soat oltidan chorak o'tganda turdi, unga nonushta soat chorak kam yettida bo'ladi deb aytishdi. Bu yerda xizmat qiluvchilar uchun vanna ham bor ekan, Martin Joni hayratda qoldirib, muzday suvda cho'milib oldi.

– G'irt tentak ekansan-ku! – dedi Jo ular oshxonaga kirib nonushtaga o'tirishganda.

Mexanik, bog'bon, bog'bon yordamchisi, yana ikki-uchta otboqar ham ular bilan nonushta qilishdi. Hammalari tumtayib, apir-shapir ovqatlanishar va ahyon-ahyonda bitta-yarimta luqma tashlab qo'yishardi; Martin bunday sodda suhbatga quloq solib o'tirarkan, bu toifadagi odamlardan qanchalik uzoqlashib ketganini o'ylardi. Ularning mulohazalari nihoyat darajada sayoz edi, shuning uchun Martin bular davrasidan tezroq qutulib chiqishni istardi. Shuning uchun u ham maza-matrasiz suyuq bo'tqani yonida o'tirganlar singari apir-shapir yedi-yu, oshxona eshigidan tashqari chiqqandan keyin erkin nafas oldi.

Bug' bilan ishlaydigan mo'jazzgina kirxona eng yangi mashinalar bilan juda yaxshi jihozlangan

edi; bu mashinalar mashina bajaradigan hamma ishni bajarardi. Martin qisqagina yo'l-yo'riq olgandan keyin, tog'-tog' bo'lib uyulib yotgan kirlarni xillarga ajratishga kirishdi, Jo esa bu orada mashinalarni yurgizib yuborib, achchiq kimyoviy moddalardan tarkib topgan suyuq sovunni kovlay boshladi; buning uchun u ko'zi, og'zi, burnini sochiq bilan o'rab olishga majbur bo'lgan edi, natijada u mumiyolangan murdaga o'xshadi-qoldi. Martin kirlarni saralab bo'lgach, yuvilganlarini siqishga kirishdi. Buning uchun yuvilgan kiyim daqiqasiga bir necha ming marta aylanib, markazdan qochma kuch yordami bilan kiyimdagi namni siqib chiqaradigan maxsus baraban orasiga suqib qo'yilardi. Martin hadeganda kiyim quritadigan mashina bilan kiyim siqadigan mashina orasida bo'zchining mokisiday zir yugurib turdi, bo'sh vaqtlarida yana kalta paypoqlar bilan uzun paypoqlarni xilladi. Tushki ovqatdan keyin ular to dazmollar qiziguncha, uzun va kalta paypoqlarni yumalatishdi. Keyin soat oltigacha ichki kiyimlarni dazmollashdi, lekin soat oltiga jom chalganida, Jo gumonsirab bosh chayqab qo'ydi.

– Bitira olmadik! – dedi u. – Kechki ovqatdan keyin ham ishlashga to'g'ri keladi.

Kechki ovqatdan keyin ular soat o'ngacha ko'zni qamashtiruvchi elektr shu'lasida ishlab, eng oxirgi ichki kiyimni dazmollab, topshirishga taxt qilib qo'yishdi. Kaliforniyaning issiq tuni, derazalar lang ochilgan bo'lishiga qaramay, kirxona qizdirilgan plita va dazmollardan o't bo'lib yonardi. Ko'ylaklarining yenglarini shimarib olgan

Martin bilan Jo nafaslari qaytib, qora terga botib ishlashardi.

– Xuddi tropik mamlakat portida kemaga yuk ortganday bo‘ldim! – dedi Martin ular zinadan chiqib ketishayotganda.

– Sen ishni eplab ketasan, – derdi Jo. – Juda azamat ekansan. Bundan buyon ham shunday ishlasang, faqat bir oygina o‘ttiz dollar olasan. Keyingi oyga borib, qirq dollarning hammasini olaverasan. Lekin ilgari hech dazmol bosmagan bo‘lishing mumkin emas. Meni laqillatib bo‘psan.

– Xudo haqi, umrimda bir parcha lattani ham dazmollamaganman!

Martin qattiq charchaganini his qildi va o‘n to‘rt soat muttasil oyoqda tik turib ishlaganini unutib, charchaganidan taajjublandi! U soat qo‘ng‘irog‘ini oltiga to‘g‘rilab qo‘ydi-da, uyquga besh soat ajratib, soat birgacha o‘qimoqchi bo‘ldi. U oyoqlariga dam berish uchun botinkasini yechdi, atrofiga kitoblarni uyib, stol ortiga o‘tirdi. U Fiskning kitobini ochib, ikki kun burun kelib to‘xtagan yeridan o‘qiy boshladi. Lekin miyasi yaxshi ishlamaganidan bir abzatsni ikki qaytalab o‘qidi. Keyin mushaklarining zirqirab og‘rishidan, tog‘ tomondan ochiq derazaga esib kirayotgan sovuq shamoldan uyg‘onib ketdi. Soat ikki edi. U to‘rt soat uxlab qolibdi. Shundan keyin yechinib o‘rniga yotdi-da, boshi yostiqqa tegar-tegmas yana uxlab ketdi.

Seshanba kuni ham ish shunday og‘ir bo‘ldi. Martin Joning chaqqonligiga qoyil qoldi. Epchilikda unga shayton ham bas kela olmasdi. Uzun-dan-uzoq ish kuni mobaynida u bir daqiqani ham

bekor o'tkazmas, butun fikru zikri ishda va yo'l-yo'lakay Martinga qayerda besh marta harakat qilish o'rniga uch marta, uch marta o'rniga ikki marta harakat qilish yo'llarini o'rgatardi. Martin Joning ishini kuzatib turib, unga taqlid qilmoqchi bo'lardi. Uning o'zi ham chaqqon, idrokli, mohir ishchi edi, shuning uchun ham ishda hech kim undan o'zib keta olmasligidan doim g'ururlanib yurardi. Endi u butun diqqatini ishga qaratmoqchi, Joning barcha maslahatlariga amal qilmoqchi bo'ldi. U dazmol qilgan vaqtida pufakchalar hosil bo'lmaydigan qilib, yoqa va manjetlarni shunday mohirlik bilan kraxmallay boshladiki, hatto Jo uni maqtab ham qo'ydi.

Ular hech tanaffus qilmay ishlashardi. Jo bir ishni tugallagan zahoti, hech nimani kutib o'tirmay, paysalga solmay, darhol boshqa ishni boshlab yuborardi. Ular ikki yuzta ko'ylakni kraxmallashdi; o'ng qo'llari bilan ko'ylakning yoqasi, manjetlarini va ko'kragini biqirlab qaynab turgan kraxmalga tiqib, chap qo'llari bilan uning qolgan qismini kraxmalga tekkizmaslik uchun yuqori ko'tarib turishardi; kraxmal shunaqayam issiq ediki, har safar kraxmal siqilgandan keyin qo'llarini sovuq suvga tiqib olishardi. Shu kuni kechqurun ular ayollarning nafis ichki kiyimlaridagi burmalarni kraxmallash bilan ovora bo'lib, soat o'n yarimgacha ishlashdi.

– Tropik mamlakatlarda ham ish bunchalik qiyin emas, – dedi kulimsirab Martin.

– Lekin u yerlar menga to'g'ri kelmaydi, – deb jiddiy ohangda e'tiroz bildirdi Jo, – bundan boshqa hech qanday ish qo'limdan kelmaydi.

– Lekin bunaqa ishga suyaging yo‘q ekan.

– Bo‘lmasam-chi, men Oklendda o‘n bir yoshimdan ishlay boshlaganman. Bug‘ qozonning oldida turib ishlardim. O‘shandan beri o‘n sakkiz yil o‘tdi, men hamma vaqt shu ish bilan shug‘ullanaman. Lekin bu yerdagidek jahannam azobini hali hech qayerda ko‘rmadim. Bu yerda kam deganda uch kishi ishlashi kerak. Ertaga kechasi ham ishlashga to‘g‘ri keladi. Chorshanba kunlari doim kechasi ishlashga to‘g‘ri keladi: yoqa va manjetlar ko‘p bo‘ladi.

Martin yana soatni burab qo‘yib, stol ortiga o‘tirdi-da, Fiskning kitobini ochdi. Lekin u bir abzats ham o‘qiy olmadi. Satrlar ko‘zi oldida dikir-dikir o‘ynay boshladi, uni mudroq bosib, munkib-munkib keta boshladi. Uyqusini qochirish uchun xonaning u boshidan bu boshiga borib, mushti bilan boshiga gurs-gurs urdi, lekin bu ham foyda bermadi. Keyin oldiga kitobni ochib qo‘yib, barmoqlari bilan qovoqlarini ushlab turib o‘qiy boshladi, lekin shu zahotiyiq ko‘zlari ochiq holda uxlab qoldi. U horg‘inlikni yenga olmagandan keyin nima qilayotganini o‘zi ham his qilmay, o‘zini karavotga otdi. Yetti soat mast uyquda yotdi, soat qo‘ng‘irog‘idan uyg‘onarkan, hamon uyquga to‘ymaganini his qildi.

– Ancha o‘qidingmi? – deb so‘radi undan Jo.

Martin «o‘qimadim» degandek bosh chayqab qo‘ydi.

– Hechqisi yo‘q! – deb tasalli bera boshladi unga Jo. – Kiyim tekislaydigan g‘altakni bugun kechasi ishga tushiramiz, ertaga ishni soat oltida tugatamiz. O‘shanda kitob o‘qishingga vaqt bo‘ladi.

Bugun Martin achchiq sovun eritmasi to'ldirilgan kattakon tog'orada jun kiyimlarni chaydi, ammo bu ish tog'ora tepasiga qo'ndirilgan, ko'ndalang dorga o'rnatilgan g'ildirak vtulkasi bilan porshindan iborat maxsus moslama orqali bajarildi.

– O'zim ixtiro qilganman, – g'urur bilan dedi Jo. – Ham kir to'qmoqlaydigan yog'ochning, ham qo'ning vazifasini bajaradi, buning ustiga haftasiga hech bo'lmaganda o'n besh daqiqa vaqt tejaydi! Bu jahannam qa'rida har bir daqiqaning qadri qanchalik qimmat ekanini o'zing yaxshi bilasan!

Yoqa va manjetlarni kiyim g'altakda tekislashni ham Jo kashf etgan edi. Elektr chirog'i yorug'ida ishni davom ettirishganida Jo tushuntirib berdi:

– Boshqa kirxonalarda hali buni o'ylab topishmagan. Men bo'lsam shu tufayli shanba kunlari ishni soat uchda tugallay olaman. Faqat bu ishni juda ustalik bilan bajarish kerak, vassalom. Buning ustiga harorat va bosim ma'lum darajada bo'lishi kerak, yana kirni g'altakdan uch marta o'tkazish kerak. Mana, qapa.

U manjetni qo'liga oldi.

– Qo'l bilan ham bunday qila olmaysan, to'g'rimi?

Payshanba kuni Joning fig'oni chiqib ketdi: mo'ljaldan tashqari yana bir tugun kraxmallanadigan nafis ichki kiyim yuborishibdi.

– Padariga la'nat! – deb baqirdi u. – Ablahlar! Endi ishlab bo'pman. Bir haftadan beri molday ishlab, har bir daqiqani tejasam-u, tomdan

tarasha tushganday, to'satdan mo'ljaldan ortiqcha yana bir tugun kraxmallanadigan ichki kiyim yuborishsa! Men ozod mamlakatda yashayman, men o'sha golland to'ng'iziga uning haqida ko'nglimdagi gapni bitta qo'ymay yuziga ayta-man! Men u bilan fransuzcha chuldirashib o'tirmayman. Qo'shma Shtatlar tilida ham munosib so'zlar topiladi. Mo'ljaldan ortiq bir tugun kir-a!

– Bugun ham yarim kechagacha ishlashga to'g'ri keladi, – dedi u bir daqiqadan keyin. U g'azablanganini unutmagan va taqdirga tan bergan edi.

Bu kechasi ham Martin o'qiy olmadi. U bir haftadan beri gazeta betini ko'rmagan, lekin o'zi ham sira ko'rish ishtiyoqi yo'qligidan taajjubda edi. Yangi axborotlar uni qiziqtirmasdi. Uning biron narsaga qiziqadigan holi qolmagan edi, lekin shunga qaramay, sharba kuni chindanam ishni soat uchda tugatsalar, velosipedda Oklendga borib kelmoqchi bo'ldi. Yetmish mil u yoqqa va yetmish mil bu yoqqa velosipedda yurish bu – dam ham ololmaydi, kelgusi haftaga kuch ham yig'a olmaydi degan gap edi. Poyezdda borsa yaxshi bo'lardi-ya, lekin bu narsa unga ikki yarim dollarga tushardi, Martin esa pul yig'ishga qat'iy ahd qilgan edi.

O'N YETTINCHI BOB

Martin ancha-muncha yangi narsalarni o'rgandi. Birinchi haftada ular bir kun Jo bilan ikkovlari ikki yuzta oq ko'ylakni yuvib dazmolladilar. Jo to'siniga bosimni to'g'rilab turuvchi po'lat prujina bog'lab uchiga dazmol osilgan mashinani

boshqardi. U shu tarzda ko'ylakning kraxmalangan qismlarini dazmollar, keyin uni Martinga tashlardi. Martin ularni taxta ustiga qo'yib, qolgan qismini dazmollab tugatardi.

Ayni vaqtda, bu soatma-soat to'xtovsiz davom etadigan og'ir, mashaqqatli ish edi. Mehmonxonaning ayvonlarida oq kiyim kiygan erkaklar va xonimlar toza havo olib sayr qilib yurishardi yoki pastak stolchalar atrofida o'tirishib, muzdek ichimliklar ichishardi. Lekin kirxonada havo chidab bo'lmaydigan darajada dim. Cho'g'dek qizarib ketgan plitadan gup-gup issiq urar edi, nam ko'ylaklarga tekkan dazmollar ostidan bug' burqib chiqardi. Bu yerda dazmollar, odatda, uy bekalarining dazmolidan bir muncha kuchliroq qizdirilardi. Barmoqni tupuklab turib qizigan-qizimaganligini bilishadigan dazmollar Martin bilan Jo uchun sovuq hisoblanardi. Ular dazmolning qizigan-qizimaganligini aniqlash uchun, to'g'ridan-to'g'ri uni yuzlariga yaqinlashtirardilar-da, Martin uchun mutlaqo mavhum bo'lgan allaqanday maxsus bir has-soslik bilan uning haroratini aniqlardilar. Agar dazmol judayam qizib ketgan bo'lsa, uni suvga tiqardilar. Bu ham zo'r malaka va chaqqonlik talab qilardi. Dazmolni keragidan ortiq sovitish uchun uni suvda bir soniyagina ushlab turish kifoya edi; Martin ham bu og'ir ishni xuddi avtomat singari aniq, benuqson bajarayotganiga o'zi hayratlanardi.

Ammo hayratlanishga vaqt ham yo'q edi. Martin butun diqqat-e'tiborini ishga qaratgan edi. U misoli jonli mashinadek ham boshi, ham qo'li bi-

lan tinim bilmay ishlardi, ish esa unda mavjud bo'lgan jamiki insoniy xususiyatlarni zulukdek so'rib olardi. Martinning boshida dunyo va uning sirlari haqidagi mulohaza uchun o'rin qolmagan edi. Uning miyasidagi keng va katta xonalar berkitilib, mixlab tashlangan edi. Uning ongi shturman hujrasi singari torgina xonaga ko'chib o'tgan va shu yerdan turib, qo'l va barmoqlariga bug'i chiqib turgan mato ustida dazmolni qanday yurgizish, kiyimlarning son-sanoqsiz yenglari, yelkalari, etaklari, yonlarini bir enlik ham chetga chiqib ketmasdan, bir me'yorda izchillik bilan qanday dazmollash kerakligi, dazmollanib bo'lgan ko'ylakni qanday qilib g'ijimlanmaydigan qilib otib yuborish haqida farmoyish berib turardi. Bir ko'ylakni dazmollab bo'lgan zahoti, butun e'tibori navbatdagi ko'ylakka qaratilardi. Shu tarzda juda ko'p soatlar o'tardi. Tashqarida Kaliforniyaning jazirama oftobida butun hayot to'xtab qolgan, lekin dim kirxonada bir on ham to'xtamasdi. Chunki mehmonxona ayvonlarida salqinlab o'tirganlar uchun muttasil toza ko'ylaklar kerak bo'lib turardi.

Martin terlab suv bo'lib ketdi. U haddan tashqari ko'p suv ichar, lekin harorat shu qadar baland ediki, suv uning badanida qolmay, har bir mo'y tagidan ter bo'lib sirtga chiqardi. Dengiz safari paytida eng og'ir ish ham uning fikr yuritishiga xalal bermagan edi. Kema sohibi uning vaqtigagina xo'jayin edi, mehmonxona sohibi esa uning tafakkuriga ham xo'jayin bo'lib chiqdi. Martin aqlini ham, vujudini ham holdan toydiruvchi og'ir mehnatdan o'zga hech nima

to'g'risida o'ylay olmasdi. Uning miyasida boshqa hech qanday fikr yo'q edi ham. U hatto Rufni sevish-sevmasligini ham bilmay qolgandi. Ruf go'yo yo'qday edi, chunki og'ir zahmat chekkan Martinning xotiralarga berilishga majoli yo'q, faqat kechqurunlari o'ringa yotayotganda yoki ertalab nonushta paytlaridagina uning ko'z oldida qizning sharpasi g'ira-shira ko'rinib qolardi.

– Do'zax ham bunchalik bo'lmasa kerak-a, to'g'rimi? – deb so'rab qoldi bir kuni Jo.

Martin bosh irg'adi, lekin birdan asabi qo'zib ketganini sezdi. Bu shundoq ham ma'lum edi. Ular odatda ish paytida gaplashishmasdi. Suhbat ishdan adashtirib qo'yardi, mana hozir ham Martin Joning savoliga alahsib, dazmolini ikki marta ortiqcha oborib, olib keldi.

Juma kuni ertalab kir yuvadigan mashinani ishga tushirishdi. Haftada ikki marta mehmonxonaning dasturxonlari, sochiqlari, choyshab va yostiq jildlarini yuvishga to'g'ri kelardi. Bularning hammasini yuvib, dazmollab bo'lishgach, nafis ichki kiyimlarga gal kelardi. Bu nihoyatda mashaqqatli va charchatadigan ish bo'lib, g'oyat darajada ehtiyotlikni talab qilardi, shuning uchun Martinning ish sur'ati shu yerga kelganda sekinlashib qolardi; buning ustiga, u xato qilib qo'yishdan qo'rqar, chunki bunday paytdagi xatosi unga faqat ziyon keltirardi.

– Mana buni ko'ryapsanmi? – dedi Jo, bir siynabandni ko'rsatib, u shu qadar nafis ediki, g'ijimlansa bir qisim bo'lardi, – kuydirib qo'yginchi, xizmat haqingdan yigirma dollar chegirib qolishadi.

di. Bir vaqtlar terlama kasali bilan og'riغان edim. Kasalxonada ikki yarim oy yotdim, shuncha vaqt ichida hech narsaga qo'l urmadim. Juda qoyil bo'lgan edi-da!

– Ha, qoyil bo'lgan edi! – deb takrorladi u bir daqiqadan so'ng o'ychanlik bilan.

Martin vannaga tushgani ketdi, qaytib chiqsa, Jo allaqayoqqa g'oyib bo'libdi. Bir stakan pivo ichgani ketgandir, deb o'yladi Martin, lekin uni qidirgani qishloqqa borish uchun yuragi dov bermadi. U oyoq kiyimini yechmay karavotiga yotdi, so'ng fikrlarini bir yerga to'plashga urinib ko'rdi. Kitoblarga-ku qo'l ham urolmadi. U juda ham holdan toygan edi, to kechki ovqatgacha hech narsa o'ylamasdan chala o'lik bo'lib yotdi. Jo hali ham kelgani yo'q edi. Martinning savoliga bog'bon, Jo mayxonaning peshtaxtasi oldida ildiz otgan bo'lsa kerak, deb javob qildi. Kechki ovqatdan keyin Martin uxlagani kirib ketdi, u ertasiga ertalab uyg'ondi; nazarida, tamomila hordiq chiqarganday edi. Jodan esa hamon darak yo'q edi. Martin gazetaning yakshanba sonini ochib, daraxt tagiga, soyaga borib yotdi. U ertalabki paytning qanday o'tib ketganini ham sezmay qoldi. Hech kim unga xalaqit qilmadi, u uxlamadi, ammo shunday bo'lsa ham gazetani o'qib chiqa olmadi. Tushki ovqatdan keyin yana gazetxonlikka kirishgan edi, lekin o'qib turib, bir ozdan so'ng uxlab qoldi.

Yakshanba kuni shu zaylda o'tdi, dushanba kuni ertalab esa u astoydil berilib, kirlarni navlarga ajratardi. Jo esa boshini sochiq bilan o'rab olib, so'kina-so'kina sovun qorishtirar va kir yuvadigan mashinani yurgizardi.

– Hech ilojini topa olmayapman, – dedi u, – shanba kuni keldi deguncha ichkilik xumor qilaveradi.

Yana bir hafta tinimsiz mehnatda o'tdi, bu safar ham ko'zni qamashtiradigan elektr chirog'i yorug'ida vaqt yarim kechadan oqqanga qadar ishlashdi, shanba kuni esa Jo ishni soat uchda tugatganlariga tuzukroq sevinib ulgurmasdan hamma qayg'ularini unutish uchun qishloqqa jo'nadi. Martin bu yakshanbani ham avvalgisidek o'tkazdi. U daraxtlar soyasida bir oz mizg'ib oldi, keyin parishonlik bilan gazetani ko'zdan kechirdi, undan keyin, hech narsa qilmay va hech narsani o'ylamay, bir necha soat cho'zilib yotdi. Uning o'y o'ylashga majoli qolmagan edi, shuning uchun, negadir, o'zini yerga urgan, yuziga qora surtgan kishidek o'zidan o'zi nafratlandi. Martindagi jamiki oliy hislar toptalgan, izzat-nafisi xo'rlangan, hayotiy kuchi esa shu qadar zaiflashgandiki, endi unda orzu-umiddan asar ham qolmagan edi. U o'lgan. Uning qalbi o'lgan edi. U oddiy hayvonga, ish hayvoniga aylanib qolgandi. Endi u yashil yaproqlar orasini yorib o'tayotgan quyosh shu'lasining go'zalligini sezmas, lojuvard samoning teranligi ortiq uni qiziqtirmas, sirli jumboqlarga to'la fazo haqida fikr tug'dirmas, vaholanki, o'sha jumboqlarni yechishni Martin juda-juda istardi. Hayot chidab bo'lmaydigan darajada zerikarli va bema'ni edi, go'yo u kishining g'ashiga tegishdan boshqa narsaga yaramasdi. Uning tasavvur ekraniga qora parda yopilgan, orzu-tilaklari esa bir qatra ham shu'la tushmaydigan qorong'i hujraga qamalib, iztirob chekib

yotardi. Endi har shanba kuni qishloqqa borib, muntazam ravishda ichib keladigan va qattiq mast bo'lib, navbatdagi mashaqqatli mehnat haftasini unutib yuboradigan Joga uning havasi kela boshladi.

To'rtinchi hafta boshlandi; Martin o'zini so'kar, hayotga la'nat o'qirdi. U o'zining mag'lubiyatga uchraganini ming nadomat ila tan olardi. Muharrirlar uning hikoyalarini rad etib, to'g'ri qilgan ekanlar. Buni u endi o'zi ham ochiq-oydin tushunar va o'z ustidan hamda yaqinginada ko'ngliga kelgan xom xayollardan kulardi. Ruf unga «Dengiz qo'shiqlari»ni pochta orqali qaytarib yubordi. Martin uning xatini loqaydlik bilan o'qib chiqdi. Qiz, she'rlarni maroq bilan o'qidim, deb zo'rma-zo'raki yozgani sezilib turardi. Lekin Ruf yolg'on gapirishni bilmas, haqiqatni o'zidan yashirish ham uning uchun juda qiyin edi. She'rlar unga yoqmabdi, uning ishtiyoqsiz va qiy-nalib yozgan maqtovlarning har bir satrida bu yaqqol sezilib turardi. Qiz albatta haq edi. Martin o'z she'rlarini qayta o'qib chiqib, bunga ishondi; endi bu she'rlardan hech qanday nafasat topolmadi va ularni yozishga nima majbur qilganini hech tushuna olmadi. Dadillik bilan yozilgan iboralar unga endi kulgili bo'lib, o'xshatishlar dahshatli va bema'ni bo'lib tuyuldi, umuman, bu she'rlar tamomila ahmoqona va haqiqatdan yiroq edi. U shu zahotiy oq «Dengiz qo'shiqlari»ni jonjon deb yondirib yuborardi-yu, lekin yoqaman degan bilan qog'ozlarni o't olmasdi-da, mashina bo'limiga tushib yondirish uchun esa unda kuch yo'q edi; uning butun kuchi begonalarning kirini

yuvishga sarf bo'lar, o'z shaxsiy ishi uchun hech darmoni qolmasdi.

Martin nima qilib bo'lsa ham, yakshanba kuni Rufga maktub yozaman deb ahd qilib qo'ydi. Lekin shanba kuni kechqurun ishni tugallab van-naga tushib chiqqach, unda hamma tashvish-larni unutish xohishi tug'ildi. U o'ziga o'zi: «Borib ko'ray-chi, Jo qanday vaqtichog'lik qilayotgani-kin», – dedi-yu, yolg'on gapirganini shu zahotiyog angladi; lekin buning ustida bosh qotirib o'ti-rishga holi kelmasdi, keyin baribir, o'zini yolg'on-chilikda ayblamoqchi emas edi, chunki uning birdan-bir istagi shu tashvishlarni boshdan chiqarib tashlash edi. U go'yo sayr qilib yurgan odamday hech shoshmasdan qishloq tomon yo'l oldi, lekin qovoqxonaga yaqinlashganda beixti-yor qadamini ildamlatdi.

– Sen suvdan boshqa hech nima ichmasang kerak deb o'ylovdim! – deya qarshi oldi uni Jo.

Martin javob qilishni loyiq topmadi, viski buyurib, o'ziga bir stakanni to'ldirib quydi-da, shishani Joga uzatdi.

– Tezroq bo'l, – dedi u qo'rslik bilan.

Lekin Jo imillab harakat qilayotgan edi, Mar-tin stakanidagi viskini bir ko'tarib ichdi-da, yana quydi.

– Endi kutib o'tirishim mumkin, – dedi Martin qovog'ini uyib. – Lekin baribir, tezroq bo'l.

Jo ortiq yalintirib o'tirmadi, ular baravar ichishdi.

– Axiyri bo'lmabdi-da? – dedi Jo.

Lekin Martin bu masalani muzokara qilishni istamadi.

– Senga aytuvdim-ku, bu ish emas, jahannam azobi deb, – gapida davom etdi Jo. – Ochig'ini aytsam, taslim bo'lganing menga yoqmayapti, Mart. E, padariga la'nat! Ke, ichamiz.

Martin indamasdan ichar, dam-badam viski buyurib, sochlari silliq qilib taralgan, moviy ko'z, o'zi qiz bolaga o'xshagan bufetchi yigitni tong qoldirardi.

– Odamlarni bunaqa molday ishlatish g'irt ablahlik, – derdi Jo. – Agar ichmaydigan bo'lganimda allaqachon kirxonalariga o't qo'yib yuborgan bo'lardim. Xudo haqqi, ularning baxtiga ichib turaman.

Lekin Martin unga javob qilmadi. Yana ikki-uch stakandan keyin kayfi oshib, mast bo'lib qoldi. Mana nihoyat, shuncha haftadan beri birinchi marta hayot nafasini u ham his qila boshladi. Uning xayollari qaytib keldi. Orzulari qorong'i hujradan otilib chiqib, uni porloq cho'qqilar sari chorlay boshladi. Uning tasavvur ekрани yana kumushday yaraqlay boshladi va unda bir-birlarini quvalashib, ravshan lavhalar lipillab o'ta boshladi. Eng go'zal va g'ayrioddiy narsalar unga hamroh bo'ldi, u yana hamma narsani bilar, hamma narsaga qodir edi. Shularni Joga tushuntirmoqchi bo'lgan edi, ammo Jo ham o'z orzulari bilan band ekan, og'ir ishdan xalos bo'lib, o'zining bug' bilan ishlaydigan kattakon kirxonasi bo'lishini orzu qilardi.

– Ha, Mart. Kirxonamda bolalar ishlashmaydi, gapimga ishonaverishing mumkin. Bolalarni aslo ishlatmayman. Soat oltidan keyin kirxonamda hech kimni qoldirmayman. Eshityapsanmi?

Mashinalar ko'p bo'ladi, odamlar ham ishni vaqtida tugatishi mumkin bo'ladi. Seni bo'lsa, Mart, o'zingga yordamchi qilib olaman. Rejam mana bunday. Ichishni tashlayman-u, pul yig'a boshlayman, ikki yildan keyin qarabsanki...

Lekin Martin Joni bufetchiga ro'para qilib, o'zi uning gapiga quloq solmay qo'ydi; bufetchi esa to yangi kirgan xo'randalar – ikkita shu yerlik fermer chaqirmaguncha, Joning gaplariga quloq solib turdi. Martin shu fermerlarni ham, yana bir necha batrakni, mehmonxona bog'bonining yordamchisi bilan otboqarni, bufetchining o'zini ham, yana qovoqxonaga xuddi soyadek lip etib kirib, peshtaxtaning narigi boshida turgan sayoqni ham, xullas, traktirdagi hamma xo'randalarni shohona saxovat bilan mehmon qildi.

O'N SAKKIZINCHI BOB

Dushanba kuni ertalab Jo so'ka-so'ka kirlarining dastlabki to'pini kir yuvadigan mashinaga botirdi. U:

– Shuning uchun ham aytyapmanki... – deb gap boshlagan edi, Martin:

– Tovushingni o'chir! – deb jerkib berdi.

Keyin tushki ovqatga o'tirishganda u:

– Kechir meni, Jo, – dedi.

Joning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

– Qo'yaver, og'ayni, – deb javob qildi u, – axir biz jahannam qa'rida yashayapmiz-ku, o'qtin-o'qtin jining qo'zib ketsa ajablanarli emas. Lekin shu vaqt ichida menga yoqib qolding-da, o'lay agar. Shuning uchun ham bir oz xafa bo'luvdim.

Men, negadir, birinchi ko'rgan vaqtimdan senga ko'nglim yaqin bo'lib qoldi.

Martin uning qo'lini siqdi.

– Bu yerdan boshimizni olib ketamiz, – deb taklif kiritdi Jo, – jahongashtalik qilamiz. Hech qachon daydib ko'rmaganman-u, lekin juda soz bo'lsa kerak. Bundoq o'ylab qara: Qo'lingni hech nimaga urmasdan yuraverasan! Bir mar-ta terlama kasali bilan og'rib kasalxonada yotib chiqqanman, hozir o'sha paytni eslasang huzur qilasan kishi. Koshkiydi, tag'in bir kasal bo'lib qolsam!

Haftalar ketidan haftalar o'ta boshladi. Meh-monxona gavjum edi, nafis ichki kiyimlar tobora ko'ppoq kelaverdi. Yigitlar mardonalik mo'jiza-sini ko'rsatib, elektr chirog'i yorug'ida yarim ke-chagacha ishlashar, ovqat vaqtini qisqartirishar, ishni nonushtadan oldin boshlashardi. Martin endi vannaga kirib, sovuq suvda cho'milmas, chunki vaqt yetishmas edi. Jo har bir daqiqa-ni tejar, biron daqiqani bekor o'tkazmas, ular-ni xuddi xasis odam oltinlarini sanagandek hi-sobga olardi; go'yo mashinaga o'xshab, shiddat va jon-jahdi bilan ishlar, ishlaganda ham, bir zamonlar Martin Iden ismli odam bo'lib, endilik-da mashinaga aylangan kishi bilan doimo hamji-hatlikda ishlardi.

O'y o'ylashga Martinning vaqti yo'q edi. Uning xayolxonasi berk, derazalariga taxtalar qoqib, parchinlab tashlangan, o'zi esa shu xayolxona os-tonasida sharpadek bir soqchi bo'lib turardi. Ha, u sharpaga aylangan edi. Jo to'g'ri aytdi. Ikkovi ham poyoni yo'q mehnat o'lkasidagi sharpalar

edi. Balki bularning hammasi tushdir? Ba'zan Martin qordek oppoq matolar ustida vazmin dazmol yurgizib, qaynoq bug'ga ko'milib ishlarkan, bularning hammasi chindan ham faqat tush deb o'ziga o'zi tasalli bermoqchi bo'lardi, Ehtimol, tez orada, ehtimolki, ming yildan keyin, u yana o'zining kichkinagina hujrasida, hamma yog'iga siyoh tomgan stoli ortida o'tirgan joyida uyg'onib ketar va bo'linib qolgan ishini davom ettirar. Yo bo'lmasa, ehtimol, uning yozuvchiligi tush bo'lgan-u, endi vaxtada turish uchun uyg'onib ketar va koykasidan irg'ib turib, palubaga chiqar, so'ng tropikaning charaqlagan yulduzlari ostida shturval oldiga borib turar, shunda badani quruq shamolning salqin nafasidan junjigar.

Yana shanba bo'ldi, soat uchda ish tugadi.

– Borib bir stakandan pivo ichsakmikin, – deb so'radi Jo loqayd ovoz bilan, chunki yana shanba kunlaridagidek lanj bo'lib qoldi.

Lekin Martin g'aflatdan uyg'onganday bo'ldi. U velosipedini sozladi, g'ildiraklarini moyladi, rulini tekshirdi va murvatlarini tozaladi. Martin boshini rulga egib, oldidagi chang yo'lga tikilgan-cha, tepkilarni bir me'yorda bosib, g'izillab o'tib ketganda, Jo qovoqxonada o'tirgan ekan. Martin yetmish mil masofani bosib o'tishi kerak edi. U Oklendda tunab, yakshanba kuni qaytib keldi va dushanba kuni, toliqqan bo'lsa ham, bu safar mast bo'lmaganidan mamnun holda ishga kirishdi.

Beshinchi hafta, uning ketidan oltinchi hafta o'tdi. Martin esa hamon mashina singari ishlardi, faqat qalbining eng teran yeridagina allaqan-

day kichkinagina uchqun bor ediki, u har hafta oxirida velosipedda bir yuz qirq mil keladigan masofani bosib o'tishga majbur etardi. Lekin bu dam olish emas edi. Bu ham mashinaga o'xshash mexanik ish edi, bora-bora Martinning qalbidagi avvalgi hayotidan qolgan birdan-bir nishona – o'sha so'nggi uchqun ham so'ndi. Yettinchi haftaning oxirida u hech tixirlik ham qilmasdan, Jo bilan birga qishloqqa jo'nadi va yana dushanbagacha hayot quchog'ida ekanligini sezdi.

Biroq keyingi shanba kuni u qaqshagan a'zoyi badanidagi horg'inlikni undan ham kuchliroq horg'inlik bilan bartaraf qilish uchun yana velosipedda yetmish mil yo'l bosdi. Keyin faqat uchinchi oyning oxirida Jo bilan birga uchinchi marta qishloqqa bordi. Mast bo'lib, yana jonlandi, go'yo bexosdan chaqnagan yashin yorug'ida o'zining qanchalik hayvonga aylanganini – ichgani uchun emas, moldek ishlagani uchun hayvonga aylanganini ko'rdi. Mastlik sabab emas, natija edi. Zaruriyat qonuniga binoan kun orqasidan tun qanday ergashib kelsa, mastlik ham ish orqasidan shunday ergashib kelardi. Ish hayvoniga aylanganingdan keyin, hech qachon nurlil cho'qqilarga chiqa olmaysan: bu fikrni uning ko'ngliga viski soldi, bu fikrga u qo'shildi. Viski buyuk hikmatni ochib berdi. U Martinga muhim bir haqiqatni ko'rsatdi.

Martin qog'oz bilan qalam so'rab oldi-da, butun ulfatlarga viski buyurdi va hamma uning sog'ligi uchun ichish bilan band bo'lganda, u peshtaxtaga suyanib, qog'ozga bir nimalarni yozdi:

– Jo, telegramma, – dedi u. – O'qib ko'r.

Jo mastlik bilan tirjayib o'qiy boshladi. Lekin o'qigan narsasidan kayfi uchdi-ketdi. U Martinga ginaxonlik bilan tikildi, ko'zlarida yosh miltilladi.

– Meni tashlab ketmoqchimisani, Mart? – deb so'radi u g'amgin qiyofada.

Martin «ha» degandek bosh irg'adi-da, bitta bolani chaqirib, uni telegrafga g'izillatdi.

– To'xta! – dedi Jo tili zo'rg'a kalimaga kelib. – Men ba'zi narsalarni o'ylab olishim kerak.

U yiqilib ketmaslik uchun peshtaxtani ushlab qoldi, Martin esa, to Jo fikrini yig'ib olguncha, uni quchoqlab ushlab turdi.

– Ikkala ishchi ketadi deb yoz, – dedi to'satdan Jo. – Yoz.

– Ammo sen nega ketasan? – deb so'radi Martin.

– Sen nega ketayotgan bo'lsang, men ham shuning uchun.

– Men dengiz safariga jo'nayman, sen borol-maysan.

– To'g'ri, – javob qildi Jo, – lekin men jahongashta bo'laman. Judayam qoyil bo'ladi-da.

Martin unga sinovchan ko'zlari bilan bir daqiqacha tikilib turdi-da, nihoyat dedi:

– O'lay agar, to'g'ri gapirding! Ish hayvoni bo'lgandan darbadar bo'lgan yaxshi. Har na bo'lganda ham bir kuningni ko'rasan. Holbuki, ishlab shu paytgacha hech tuzukroq kun ko'rmagansan ham.

– Ko'rganman, – deb e'tiroz bildirdi Jo, – bir marta kasalxonada yotganman. Terlama bo'lganman, senga aytib bergan edim, shekilli. Judayam soz bo'lgan edi-da!

To Martin telegrammadagi «ikkinchi ishchi» soʻzini «kirxonaning ikkala ishchisi» deb tuzatguncha Jo hikoyasini davom ettirdi:

– Kasalxonada yotganimda hech ichgim kel-magan edi. Qiziq-a? Lekin bir hafta mobaynida eshakdek ishlaganimdan keyin bir toʻyib ichma-sam boʻlmaydi-da. Oshpazlarning... novvoylar-ning ham... molday ichishini hamma biladi. Ish oʻzi shunaqa. Toʻxta! Telegramma haqining yarmini men toʻlayman.

– Qoʻysang-chi, keyin hisoblashamiz, – dedi Martin.

– Hey, bu yoqqa kelinglar, men eriyman! – deb qichqirdi Jo.

Dushanba kuni ertalab Jo hayajondan hech oʻziga kelolmasdi. U boshining ogʻriganiga parvo qilmadi, ishga ham qiziqmadi. U derazaga loqayd tikilib oʻtirib, quyoshni, daraxtlarni tomosha qilarkan, qanchadan-qancha qimmatli daqiqalar oʻtib ketdi.

– Buni qara! – deb qichqirdi u. – Shularning hammasi meniki-ku, axir. Ozodlik bu! Men daraxt soyasida yotib, istasam, ming yil ham uxlashim mumkin. Yur. Mart, hech narsaga parvo qilmaymiz. Nimari kutamiz? Oldimiz-da bekorchilar mamlakati yotibdi, endi men oʻsha yoqqa chipta olaman, lekin orqaga qaytish uchun chipta olish yoʻq.

Bir necha daqiqadan soʻng, Jo kir yuvish mashinasiga kirlarni sola turib, mehmonxona xoʻjayinining koʻylagini koʻrib qoldi. Jo uning belgisini tanirdi. Endi erishilgan ozodlikdan mast

bo'lib, u ko'ylakni yerga otdi va uni oyog'i bilan toptay boshladi.

– Shu ko'ylak sening basharang bo'lsa soz bo'lardi, golland to'ng'izi! – deb baqirardi u. – Mana! Seni jazoing shu! Ha! Mana! Qani, biron-ta odam o'rtaga tushib ko'rsin-chi! Qani, tushib ko'rsin!

Martin kula-kula uni tartibga chaqira boshladi. Seshanba kuni kechqurun ikkita yangi ishchi keldi, Jo bilan Martin haftaning oxirigacha ularga kirxonaning butun yo'l-yo'riqlarini o'rgatish bilan mashg'ul bo'lishdi. Jo o'tirib olib, yo'l-yo'riq ko'rsatardi, ammo o'zi qo'lini hech nimaga urmasdi.

– Ahmog'i yo'q! – dedi u, – hech narsa qilmayman. Muddatdan oldin bo'shatib yuborsa ham mayli, baribir, qo'limni hech nimaga urmayman. Ishlab bo'lganman. Endi yuk vagonlarida sayr qilaman, daraxt soyalarida yotib uxlayman. Hey, shalviraganlar! Tezroq qimirlanglar! Ter to'kinglar! Ter to'kib ishlanglar, jin urgular! Tarrakdek qotganingizdan keyin, siz ham xuddi men singari chiriysiz, siz qanday yashadingiz-u, men qanday kun kechirdim, baribir emasmi? A? Qani, menga ayting-chi, azizlar, baribir emasmi, axir?

Shanba kuni ular hisob-kitob qilishib, chorrahagacha birga borishdi.

– Sen, albatta, men bilan ketmaysan, senga yolvorishning ham hojati yo'qdir-a? – deb so'radi Jo tamomila umidsiz qiyofada.

Martin boshini sarak-sarak qilib qo'ydi. U velosipediga minmoqchi bo'lib turgan edi. Ular qo'l

siqishib xayrlashishdi. Jo Martinning qo'lini bir-pas ushlab turib dedi:

– Bu dunyoda hali sen bilan yana ko'rishamiz, Mart. Yuragim sezib turibdi. Alvido, Mart! Baxt yor bo'lsin senga. Yaxshi ko'raman seni, xudo haqqi, yaxshi ko'raman!

To Martin muyulishga borib ko'zdan g'oyib bo'lguncha, Jo yo'l o'rtasida uning orqasidan xomush tikilib turdi.

– Ajoyib yigit-da, – deb g'o'ldiradi u, – juda ajoyib yigit.

Keyin u yo'l yoqalab, suv chiqargich tomon ketdi; u yerda, chekka yo'lda, besh-oltita bo'sh yuk vagoni poezd sostaviga ulanishini kutib turardi.

O'N TO'QQIZINCHI BOB

Ruf oilasi bilan Oklendga qaytib kelgach, Martin yana u bilan uchrasha boshladi. Tahsilni tugatib, ilmiy daraja olgan Ruf endi hamma vaqtini ilmga sarflamas, Martin esa butun ma'naviy va jismoniy kuchini og'ir mehnatga sarflab charchaganidan yozmay qo'yan edi. Bu hol ularning tez-tez ko'rishib turishlariga imkon berardi, oqibat ular bir-birlariga tobora ko'proq yaqinlasha boshladilar.

Dastlabki paytlarda Martin hech ish qilmay faqat dam oldi. U ko'p uxlar, ko'p o'ylar, umuman, katta baxtsizlikdan keyin tadrijiy ravishda o'ziga kelayotgan kishidek yashardi. Lekin mana, u so'nggi haftalarda erinchoqlik bilan ko'z yu-gurtirib chiqadigan gazetalarni endi asta-sekin

qiziqish bilan kuzata boshladi, bu uning takror uygʻonayotganidan darak beruvchi ilk alomat edi. Shundan soʻng u yana mutolaaga kirishdi, avvaliga sheʼriy va nasriy asarlarni oʻqiy boshladi, lekin yana bir necha kun oʻtar-oʻtmas, anchadan beri unutilib yuborgan Fiskning asarlariga boshi bilan shoʻngʻib ketdi. Martinning jismoniy jihatdan oʻta sogʻlomligi uning deyarli butunlay yoʻqolib ketgan gʻayratini qayta tiklashga imkon berdi, oqibat, unda yana yoshlik gʻururi va ehtiros uygʻondi.

Martin, miriqib dam olganimdan keyin dengiz safariga joʻnayman, deganida Ruf xafa boʻlganini yashirolmadi.

– Nega endi? – deb soʻradi qiz.

– Pul kerak, – dedi Martin, – noshirlarga yangidan hujum boshlashim uchun menga pul kerak. Bu kurashda pul va matonat eng yaxshi quroldir.

– Durust, agar faqat pul kerak boʻlsa, nega kirxonada qolib ishlayvermadingiz?

– Chunki kirxonada men hayvonga aylanib qolardim. Bunaqa ishda ichkilikka berilib ketish ham hech gap emas.

Qiz unga dahshat bilan qaradi.

– Aytmoqchisizki... – deb gap boshladi u.

Martin javob berishdan osonlikcha bosh tortishi mumkin edi, lekin u yolgʻon gapirishni xush koʻrmasdi, buning ustiga yana, oqibati nima boʻlsa-boʻlsin, baribir, hamma vaqt rost gapirman, deb ahd qilib qoʻygani esiga tushib ketdi.

– Ha, – deb javob berdi u, – bir necha marta mast boʻldim.

Ruf seskanib ketib, nariroqqa siljidi.

– Menga tanish boʻlgan odamlarning birontasi ham bunday ahvolga tushmaydi.

– Zero, ularning birontasi ham «Qaynar Buloq» kirxonasida ishlamagan, – deb Martin achchiq istehzo bilan eʼtiroz bildirdi. – Vaʼzxonlarning aytishicha, mehnat yaxshi narsa, hatto uning insonga foydasi ham bor; xudo shohid, men hech qachon mehnatdan qoʻrqqan odammasman. Lekin hamma narsa ham meʼyorida boʻlsa yaxshi. Holbuki, kirxonada ana shu meʼyor yoʻq edi. Shuning uchun ham dengiz safariga bel bogʻladim. Bu oxirgi safarim boʻladi. Qaytib kelgach, jurnal sahifalariga yoʻl topa olaman. Bunga imonim komil.

Ruf gʻamgin va norozi tarzda sukut saqlar, Martin esa u kechirgan narsalarni Ruf tushuna olmasligini his qildi.

– Vaqti kelib, men bularning hammasi haqida bir kitob yozaman, kitobning nomi «Mehnatning xoʻrlanishi» yoki «Ishchilar sinfida mastlik psixologiyasi» boʻladi yoki shunga oʻxshash nom topaman.

Agar Martin bilan Rufning tanishishgan birinchi kunini mustasno qilsak, shu paytgacha ular hech qachon bir-birlaridan bu qadar uzoqda turmagan edilar. Martinning qalbidagi norozilik tuygʻusini niqoblab turgan ochiq eʼtirofi Rufni oʻzidan uzoqlashtirib yubordi. Lekin qizni bu uzoqlashishning sababidan koʻra, shu uzoqlashishning oʻzi koʻproq hayratga solgan edi. Shu uzoqlashish holati ularning bir-birlariga naqadar yaqin boʻlib qolganini koʻrsatar va Ruf

unga yana ham yaqinlashishni istardi. Bundan tashqari, uning Martinga rahmi kelar, shu sababli uning qalbida Martinni to'g'ri yo'lga solsam degan soddagina orzular paydo bo'lardi. Qiz yo'ldan ozgan bu yigitni qutqarmoqchi, uni qurshab olgan muhitdan xalos etmoqchi, yigitning xohishiga xilof bo'lsa-da, uni o'zidan qutqarmoqchi edi. Rufning nazarida, uni bu ishga undayotgan narsa mavhum va oliyjanob mulohazalar edi, shuning uchun ham bularning hammasiga faqat rashk va ishq istagi sabab ekanligi uning xayoliga kelmasdi.

Kuz, havo ochiq kunlari ular ko'pincha velosiped minib, shahardan chetga, juda uzoqlarga ketishardi, u yerlarda, tepaliklarda o'tirib, kishida nash'ali fikrlar uyg'otuvchi yaxshi, ta'sirli nazm asarlarini galma-gal ovoz chiqarib o'qishardi. Ruf unga fidoyilik, sabr-toqat, mehnatsevarlik xislatlarini talqin qilishga harakat qilardi, chunki qiz bu xususiyatlarni o'z otasi, mister Betler va butun dunyoni kitob bilan ta'minlayotgan «kitoblar qiroliga» aylangan, ko'chib kelganda bir qashshoq bola bo'lgan Endryu Karnegida ko'rgan edi.

Rufning bu urinishlarini Martin qadrlar edi. U endi qizning fikr-o'ylarini xiyla yaxshi tushunar, uning qalbi muhr bosilgan sirli kitobga o'xshamasdi. Ular suhbatlashishar, teng kishilardek fikrlarini ochiq aytishardi. Bu suhbat paytida paydo bo'lgan ixtiloflar Martin Rufni sevishiga xalal bermasdi. Yigitning muhabbati tobora teranlasha va zo'raya bordi, chunki u Rufni shu turishicha sevar, hattoki qizning jismoniy

zaifligi uning ko'zida alohida go'zallik baxsh etardi. U uzoq yillar o'rnidan turib bir qadam ham yurmagan va nihoyat, unutilmas bir kun Brauning bilan birga qochib, ochiq havoda dadil qadam tashlagan kasalmand ayol Elizabet Barret haqida o'qigan edi. Brauning o'z sevgilisi uchun nelar qilgan bo'lsa, Martin ham Ruf uchun shunday qilishga bel bog'lagan edi. Lekin avval Ruf unga ko'ngil qo'yishi kerak. Qolgani osonlikcha bo'laveradi. U qizning joniga malham, beliga quvvat bo'ladi. Martin Ruf bilan kelgusida turmush qurib, birga yashashi haqida tez-tez xayol surardi. U o'zi bilan Rufni mehnat bilan bunyod qilingan huzur-halovatli va farovon hayot qo'ynida tasavvur qilardi. Ular kitob o'qishadi va she'riyat haqida suhbat qurishadi, Ruf rang-barang yostiqlarga yonboshlab yotib, ovoz chiqarib unga kitob o'qiydi. Martinning ko'z oldida hamisha ikkovlarining butun hayotlari ramzi bo'lgan bir manzara namoyon bo'lardi. Ba'zida qiz emas, o'zi ovoz chiqarib o'qiydi, bunday paytlarda u qizning belidan quchoqlab o'tiradi, qizning jajji boshi esa Martinning yelkasiga qo'yilgan bo'ladi, ba'zan ikkovlari bir kitobni ovoz chiqarmasdan o'qishadi va bosma satrlardan ufurib turgan butun nafosatni yolg'iz ko'zlari bilan qamrab olishadi.

Ruf tabiat manzarasini yaxshi ko'rardi va shunga ko'ra Martinning boy tasavvuri shu ko'ngilli voqea sodir bo'layotgan sahna dekoratsiyasini o'zgartirishga imkon berardi. Goh ular baland tik qoyalar bilan o'ralgan vodiya o'tirishadi, goh bu manzara allaqayerdagi tog'lar qo'ynidagi chamanzorga yoki etaklariga dengiz

to'liqlari kelib shaloplab urilayotgan xilvat qum tepalarga aylanib qoladi, ba'zida u o'zi bilan Rufni tropik yurtdagi vulqonli orolda his qiladi, bu yerda shovillab oqib tushayotgan shalolalarning tomchilarini shamol dengizga uchirib olib ketadi. Lekin ular, go'zal orzular suldonlari bo'lmish Martin bilan Ruf, hamisha oldinda, kitob uzra bosh egib o'tirgan holda namoyon bo'lar, tabiat go'zalligi ular uchun fon vazifasini o'tardi, xolos. Bu lavhaning ichkari tomonida ularning jahon boyliklaridan lazzatlanishiga imkon tug'dirgan mehnat va muvaffaqiyat hamda shu mehnat tufayli orttirilgan davlat ko'lankalari tuman pardasi orasidan g'ira-shira ko'zga tashlanib turardi.

– Qizginam, ehtiyot bo'lsang yaxshi bo'lardi, – dedi bir kun Rufning onasi qiziga ogohlantiruvchi ohangda.

– Nima deytganingizga tushunyapman, lekin bu bo'lmagan gap. U mening...

Ruf uyalganidan qizarib ketdi, bu – hayotning muqaddas sirlari haqida o'z onasi bilan, ya'ni, uning uchun muqaddas hisoblangan ona bilan umrida birinchi bor gaplashgan qizning uyalishi edi.

– U sening tenging emas, – deb onasi qizning gapini tamomladi.

Ruf bosh irg'adi.

– Men bunday demoqchi emasdim, lekin bu to'g'ri gap. U qo'pol, beso'naqay, kuchli... Haddan tashqari baquvvat, u yomon muhitda...

Qiz duduqlanib qoldi. Onasi bilan bunday mavzularda gaplashish uning uchun mutlaqo yangilik edi. Bu safar ham ona qizning fikrini nihoyasiga yetkazdi.

– U yomon muhitda yashagan. Shunday demochimiding?

Ruf yana bosh irg'adi, yuziga qon yugurdi.

– Ha, men aynan shuni aytmoqchi edim. Bu, albatta, uning aybi emas, lekin u haddan tashqari ko'p to'qnash kelgan...

– Hayot sarqitlarigami?

– Ha. Shuning uchun nimasi bilandir meni xavotirga solyapti. Ba'zan o'z boshidan kechirganlarni xotirjamlik bilan hikoya qila boshlaganda meni dahshat bosadi. Go'yo u aytayotgan gaplarning hech yomon tomoni yo'qdek. Lekin bu yaxshi emas. To'g'rimi?

Ona-bola bir-birlarini quchoqlab o'tirishardi, Ruf sukutga tolgan edi, ona qizining yana gap boshlashini kutib, mehribonlik bilan qo'lini siladi.

– Lekin u bilan birga bo'lish men uchun maroqli, – deb gapida davom etdi Ruf, – birinchidan, men unga ba'zi jihatdan vasiylik qilaman. Undan keyin... men shu paytgacha erkaklardan hech do'st orttirmagan edim, aslida u menga do'st emas. U ayni vaqtda ham do'st, ham shogird. Ba'zida men undan qo'rqaman, shunda men xuddi buldog it bilan – tishlarining oqini ko'rsatib, irillab, hozir zanjirini uzib menga tashlanmoqchi bo'lib turgan mana bundoq katta buldog bilan o'ynashayotganga o'xshayman.

Ruf yana sukutga cho'mdi, onasi esa uning gapirishini kutardi.

– Unga xuddi... buldogga qiziqqandek qiziqaman. Lekin uning yaxshi fazilatlar juda ko'p, ayni vaqtda u bilan o'zgacha munosabatda bo'li-

shim uchun... xalaqit beradigan tomonlari ham oz emas. Ko'rib turibsizki, men hamma narsa to'g'risida o'ylab qo'yanman. U so'kinarkan, chekarkan, icharkan, mushtlasharkan ham, bu to'g'rida menga uning o'zi gapirib berdi, hatto mushtlashishni yaxshi ko'rishiniyam aytdi. Bu mutlaqo men orzu qilgan... – birdan qizning ovozi so'ndi, so'ng past ovoz bilan jumlani tamomladi: – Men er qilishni xohlagan odam emas. Bundan tashqari, u qo'pol, kuchi haddan tashqari ko'p. Mening sevikli yorim fusunkor shahzodaga o'xshab, xipcha bel, sarvqomat, qop-qopa sochli o'ktam yigit bo'lishi kerak. Yo'q, xavotir olmang, Martin Idenga ishqim tushmaydi, agar uni sevib qolsam, eng baxtiqaro qiz bo'lardim.

– Men buni aytganim yo'q, – dedi onasi mujmal qilib, – lekin sen uni o'yladingmi? Bunday odam har jihatdan senga munosib emas... Agar seni sevib qolsa, nima bo'ladi?

– Lekin u... u meni anchadan beri sevadi! – deb chinqirib yubordi Ruf.

– Shunday bo'lishi muqarrar edi, – mehribonlik bilan dedi missis Morz. – Axir seni bilgan odam sevmay tura olarmidi?

– Olni meni yomon ko'radi! – jo'shqin ovoz bilan dedi Ruf. – Men ham Olnini yomon ko'raman. U menga yaqin kelganida, xuddi mushukdek uni timdalab olgim keladi, bilaman, u meni yoqtirmaydi, lekin, har holda, uni yoqtirmasligim aniq. Martin Iden yonida o'zimni yaxshi sezaman. Hali hech kim meni sevmagan, «shu qadar» sevmagan. Axir «shu qadar» sevilmoq qanday yaxshi. Nima demoqchi bo'lganim-

ni tushunyapsizmi, oyijon? Qiz bola o'zini ayol deb his qilishi juda ko'ngilli bo'larkan... – Ruf yuzini onasining siynasiga yashirdi. – Bilaman, men o'lgudek yomonman, lekin yolg'on gapirib nima qilaman, nima his qilayotganimni sizga ochiq aytyapman.

Missis Morz ham xafa bo'ldi, ham sevindi. Qizi – universitet diplomini olgan qizchasi g'oyib bo'lib, qarshisida qaddi kamolga yetgan qizi turardi. Tajriba o'ngidan keldi. Rufning tabiatidagi kamchilik to'ldirildi, to'ldirilgandayam bexatar va yengilgina to'ldirildi. Bu beso'naqay matros o'z burchini ado etdi. Ruf uni sevmasa ham, har holda, qizda ayollik hislarini uyg'otgan edi.

– Uning qo'llari qaltiraydi, – derdi Ruf uyalganidan yuzini yashirib, – bu ham kulgili, ham bema'ni, unga hatto rahmim keladi. Qo'llari juda qattiq titrab, ko'zlari juda qattiq chaqnay boshlaganda, unga nasihat o'qib, hamma kamchiliklarini yuziga sola boshlayman. U meni boshida ko'tarib yurishgayam tayyor, bilaman, uning qo'llari bilan ko'zlari kishini aldamaydi. Shuni o'ylashim bilanoq, o'zimni ulg'aygandek sezaman. Demak, vujudimda tabiatimga monand bir narsa borki, men ham boshqa qizlarga... va... va... yosh ayollarga o'xshashligimni his qilaman. Bilaman, men ilgarilari ularga o'xshamasdim va o'xshamasligim sizni hayajonga solardi. Siz bezovtalanayotganingizni sezdirmasdingiz-u, lekin men sezardim... va Martin Idenning ta'biricha, «safga turish»ni istardim.

Bu ona uchun ham, qiz uchun ham eng bebaho damlar edi, qosh qoraya boshlagan paytda ularning namlangan ko'zlari yiltirardi. Ruf – ma'suma, samimiy va tajribasiz qiz; ona – mehribon, tushunadigan va pand-nasihatchi qiladigan ayol edi.

– U sendan uch yosh kichkina, – dedi missis Morz, – uning kiborlar davrasida hech qanday mavqei yo'q. U hech yerda xizmat qilmaydi, maosh olmaydi. Qo'lidan hech qanday ish kelmaydi. Agar seni sevsa, hikoya yozish, bolalarga o'xshab xayol surish o'rniga senga uylanishga imkon va huquq beradigan biron mashg'ulot to'g'risida o'ylab ko'rish kerak edi. Unga hech qachon es kirmasa kerak deb qo'rqaman. U mas'uliyatni sevmaydi, sening otangda, mister Betlerda va umuman, bizning davraga mansub barcha kishilarda bo'lgani kabi, erkak kishiga xos bo'lgan chinakam ish axtarib topish istagi yo'q unda. Nazarimda, Martin Iden ikki dunyoda ham pul ishlab topmasa kerak. Lekin bu dunyoda pulsiz yashab bo'lmaydi, pulsiz baxtli bo'lolmaydi kishi. Men, albatta, katta mol-dunyo haqida gapirayotganim yo'q, durustroq kun ko'rishga yetadigan doimiy daromad bo'lsa bas. U senga o'z sevgisi to'g'risida og'iz ochdimi?

– Og'iz ochgani yo'q. Hatto gapirishga urinib ham ko'rgani yo'q, baribir, gapirsa ham quloq solmasdim. Axir men uni sevmayman-ku.

– Bunga xursandman. Mening qizim, pokiza qizim, bunday odamni sevishini istamasdim. Axir dunyoda oliyjanob, pok yigitlar ozmi? Biroz sabr qil. Bir kun emas-bir kun shunday odamni

uchratib, bir-birlaringni sevib qolasiz. Men otang bilan qanday baxtli umr kechirgan bo'lsam, sen ham u bilan shunday baxtli bo'lasan. Sen bir narsani yodingda tutishing kerak...

– Nimani, oyi?

Missis Morz ohista va muloyim ovoz bilan dedi:

– Bolalaringni.

– Men... men buni o'ylagan edim – deb e'tirof etdi Ruf, ahyon-ahyonda uning vujudini qamrab oluvchi kutilmagan orzularni eslarkan, so'ng uyalganidan yana qizarib ketdi.

– Martin Iden aynan shu bolalar tufayli senga er bo'la olmaydi, – dedi missis Morz ma'noli qilib.

– Bolalar sof irqli bo'lishi kerak, uning bunga qurbi yetishi amrimahol. Otang matroslarning turish-turmushi haqida menga gapirib berdi, sen... sen gapimga tushunyapsanmi?

Ruf hamma narsani tushunayotganini his qilib, hayajon bilan onasining qo'lini siqdi, holbuki, uning xayolidagi o'sha dahshatli va mutlaq tasavvur hech vaqt aniq va muayyan tafakkur shakliga kira olmasdi.

– Bilasizmi, oyi, men sizdan hech qachon gap yashirmayman, – deb gap boshladi qiz, – faqat ba'zi-ba'zida, bugungiga o'xshab, o'zingiz ham surishtirib turishingiz kerak. Sizga buni anchadan beri gapiraman deb yuruvdim, lekin qanday qilib boshlashni bilmayotuvdim. Bu soxta uyatchanlik, albatta, lekin siz menga juda osongina ko'maklashishingiz mumkin! Ba'zida siz holimni so'rab turishingiz, yuragimdagini ochib tashlashimga imkon berishingiz kerak. Axir siz ayolsiz-ku! Oyi! – deb birdan qichqirib yubordi Ruf,

u onasining qoʻlidan mahkam ushlab va teng ekanliklarini his qilib, xursand boʻldi. – Agar bu suhbatni siz boshlamaganingizda, hech qachon bu toʻgʻrida oʻylamagan boʻlardim. Sizning ham ayol ekanligingizni anglamoq uchun, avval oʻzimizni ayol kishi deb his qilishim kerak edi.

– Ikkovimiz ham ayolmiz, – dedi ona qizini bagʻriga bosib quchoqlarkan, – ular oʻz taqdiralarining umumiyliги haqida yangi tuygʻu vujudga kelganidan hayajonlanib, bir-birlarini quchoqlagancha xonadan chiqdilar. – Ikkovimiz ham ayolmiz, – deb takrorladi yana ona.

Missis Morz bir soatdan keyin eriga gʻurur bilan:

– Qizalogʻim nihoyat oʻzini ayol deb his qila boshladi, – dedi.

– Yaʼni, birovni sevib qolibdi demoqchimisan? – deb soʻradi er xotiniga savol nazari bilan tikilib.

– Yoʻq, uni sevib qolishibdi demoqchiman, – javob qildi xotin tabassum bilan. – Tajriba yaxshi natija berdi. Qizimiz qalbida ayollik xislatlari uygʻonibdi.

– Unda Idenni chetlatish kerak, – mister Morz qisqagina qilib, jiddiy ohangda yakun yasadi.

Lekin xotini bosh chayqadi:

– Hojati yoʻq, bir necha kundan keyin oʻzi dengiz safariga joʻnab ketadi. Qaytib kelganida esa Ruf bu yerda boʻlmaydi. Uni Klara xolasinikiga yuboramiz. Bir yil mamlakat sharqida yashab, har xil odamlarni, ularning turish-turmushlarini koʻrib kelsa, havo va muhitni oʻzgartirsa, oʻziga foyda.

YIGIRMANCHI BOB

Yozish istagi Martinni yana qamrab oldi. Uning miyasida yangidan-yangi hikoya, she'r mavzulari paydo bo'lardi. Kezi kelganda shu mavzularni qalamga olish uchun ularni shosha-pisha daftoriga qayd qilib qo'yardi. Lekin yozmasdi. Bu kunlar uning uchun ta'til edi, shuning uchun bu kunlarni muhabbatga bag'ishlamoqchi, hordiq chiqarmoqchi bo'ldi-yu, bu ahdini to'la-to'kis bajarishga muyassar bo'ldi. Uning qalbi yana bu loqdek qaynay boshladi, endi Ruf har safar Martin bilan uchrashganida uning sog'lom tani va kuch-quvvatining qudratli jozibasiga yana ilgari-gidek maftun bo'lardi.

– Ehtiyot bo'l, – dedi bir kun onasi qizini ogohlantirib. – Sen, nazarimda, Martin Iden bilan haddan ziyod ko'p uchrashyapsan.

Ammo Ruf bunga javoban jilmayib qo'ydi, xolos. Qiz o'ziga juda qattiq ishonardi, buning ustiga, Martin yana bir necha kundan keyin dengiz safariga jo'nab ketishi kerak. U qaytib kelganda Ruf uzoqda, Sharqiy Amerikada bo'ladi. Shunga qaramay, Martinning kuch va sog'lomligi qiz uchun kuchli bir joziba edi.

Martin uning yaqinda Sharqqa ketishini bililar va ishni paysalga solmaslik kerakligini tushunardi. Ammo Rufdek qizning yuragiga qanday yo'l topish kerakligi haqida hech qanday tasavvurga ega emas edi. Uning eski tajribalari vaziyatni faqat mushkullashtirardi, xolos. U aylanishib o'rganib qolgan qiz-juvonlar Rufga aslo o'xshamas edilar. Ular turmushni bilishar,

ishq-muhabbat, ko'ngil ovlash, o'ynashish nimeligiga yaxshi tushunishardi, Ruf esa bularning birontasiga ham tushunmaydi. Qizning tabiatidagi ajib ma'sumalik yigitni hayratga keltirar, tilini lol qilar, beixtiyor, bu qizga munosib emasman, degan fikr xayoliga kelardi. Ishni mushkullashtiruvchi yana bir narsa bor edi. Uning o'zi hali biron marta ham biron ayolga oshiq bo'lmagandi. Ba'zida ayollar unga yoqar, ba'zilariga hatto ko'ngil ham berar, ammo bularni aslo muhabbat deb bo'lmasdi. U beparvolik bilan bir hushtak chalsa bo'ldi, ayollar shu zahoti taslim bo'lishardi. By uning uchun bir daqiqalik ermak, tasodif, erkaklar hayotida ko'p uchraydigan murakkab o'yinning uzviy bir qismi, shundayam ikkinchi darajali qismi edi. Endi esa, umrida birinchi marta qo'rqqoqlik qilib, uyalyapti, xijolat bo'lyapti. U sevgilisining ajib ma'sumaligi qarshisida o'zini qanday tutishni, nima deyishni bilmay lol edi.

Martin bu xilma-xil bevafo dunyoni kezib yurgan chog'larida bir oqilona qoidaga amal qilishga, ya'ni, notanish o'yin o'ynayotganda hech qachon birinchi bo'lib boshlamaslikka odatlangan edi. Bu qoida bir emas, bir necha ming marta o'zini oqladi; buning ustiga, bu qoida kishining mushohada qobiliyatini rivojlantirardi. Martin mo'ljal qilishni, o'z kuchini chamalash, raqibining zaif tomoni ochilguncha kutib turishga o'rganib oldi. Shuningdek, mushtlashgan vaqtida ham, doimo dushmanning zaif yerini topib olishga harakat qilardi. Ana undan keyin tajribasi qo'l kelib, yanglishmasdan zarba berardi.

Endi u Rufga o'z muhabbatini izhor etishni istar, ham bunga jur'at etolmay, aynan shunday payt poylardi. U qizni tahqirlab qo'yishdan qo'rqar, chunki o'ziga ishonmasdi. Lekin u o'zi bilmasdan turib to'g'ri yo'l tutgan edi. Muhabbat dunyoda nutqdan oldin paydo bo'lgan va o'zi vujudga kelgan ilk zamonlardayoq turli vosita va usullarni o'zlashtirib olgankim, ularni hanuzgacha hech unutmay keladi. Martin aynan ana shu qadimiy usullar bilan Rufning iltifotiga sazovor bo'lmoqchi edi. Avvaliga u tushunmasdan harakat qilgan edi, haqiqat esa faqat keyinchalik oshkor bo'ldi. Qo'lining qiz qo'liga xiyolgina tegib ketishi har qanday tumtaroq so'zdan ham ta'sirli, yigitning kuch-quvvatini bevosita his qilish she'r misralari va qofiyalaridan ham, minglab oshiqlar avlodining otashin ishqiy so'zlaridan ham qudratliroq edi. So'z bilan muhabbat izhor qilish birinchi galdan Rufning ongiga ta'sir etar, holbuki, qo'l tekkizib qo'yish, bir zumlik yaqinlashuv esa qizning vujudida pinhona yotgan ayollik hislarini junbishga keltirardi. Qizning ongi o'zi singari yosh edi. Ammo ayollik hislari bashariyat kabi eski, hatto undan ham qadimiyroq edi. Bu savqi tabiiy muhabbat dunyoga kelgan o'sha qadim zamonlarda tug'ilgan, ammo keyingi asrlarda bunyodga kelgan jamiki nozik urf-odatlar bu qadimiy hikmat kuchi qarshisida ojiz edi. Rufning aqli un chiqarmas edi. Martin ham uning aqliga emas, balki qizning muhabbat dardida iltirob chekayotgan tomoniga so'zsiz murojaat qilar, Ruf esa yigitning bu da'vatining butun kuch-qudratini anglab yetganicha yo'q

edi. Martinning sevishi qizga kunday ravshan edi, shuning uchun Ruf unda muhabbat nishonalari paydo bo'lishidan, ko'zlarining chaqnashidan, qo'llarining qaltirashidan, oftobda qoraygan yonoqlarining birdan cho'g'dek qizarib ketishidan lazzatlanardi. Ba'zida Ruf hatto Martinning yuragiga o't yoqar, lekin buni shu qadar tortinchoqlik va munislik bilan qilardiki, na Martin, na o'zi payqardi buni. Ruf o'zida ayollik qudrati borliginn tushunib, bundan o'zida yo'q sevinar va Martin bilan o'ynashib, unga tegajoqlik qilib, bamisoli Momo Havodek lazzat topardi.

Martin esa sukut saqlardi, chunki gapni nimadan boshlashni bilmasdi, u vujudini qamrab olgan tuyg'ularning benihoya kuchli bo'lgani uchun sukut saqlar va qo'rqa-pisa, no'noqlik bilan yaqinlashish yo'lini axtarardi. Martinning qo'l tegizishidan qiz huzur qilar, huzur qilish u yoqda tursin, hattoki lazzat olardi. Martin buni bilmas, ammo o'zining Rufga yoqishini sezardi. To'g'ri, ular salomlashganda va xayrlashgandagina qo'l siqishar, lekin velosipedga minayotganda, bir-birlariga kitob uzatganda yoki uni birgalikda varaqlaganda, ko'pincha barmoqlari bir-biriga tegib ketardi. Shunday vaqtlar ham bo'lardiki, qizning soch tolalari uning yonoqlariga tegib ketar yoki qiz kitobning qiziq yeriga kelganda engashib bir ongagina yelkasi bilan yigitga suykali ketardi. Ruf bunday damlarda o'zini qamrab olgan ajib tuyg'ulardan xijolat bo'lib, jilmayib qo'yardi: masalan, ba'zida Ruf Martinning sochlarini titkilagisi kelardi; Martin esa, ayni vaqtda, o'qishdan charchab, boshini uning tiz-

zasiga qo'yishni va ko'zlarini yumgancha kelajak haqida – ikkovlarining kelajakda birga yashashlari haqida o'ylashni jon-dili bilan istardi. Martin yakshanba kunlari bog' sayiliga chiqqan paytlarida juda ko'p marta boshini bironta qizning tizzasiga qo'yib, bamaylixotir uxlab ketardi, Martin o'sha qizga uni quyoshdan saqlash, o'zining muhabbatga haddan tashqari loqayd ekanligiga ajablanib, oshiqona ko'zlari bilan tikilib o'tirish imkonini berar edi. Ma'shuqasining tizzasiga bosh qo'yish Martinga dunyoda eng oson ishdek tuyulardi, endi esa, Rufning jamoliga boqarkan, buni imkon xorijidagi aqlga sig'maydigan orzu deb tan oldi. Lekin Martin tabiatidagi tamkinlik, uning o'ziga ham sezdirmay, maqsad sari olib borayotgan edi. U aynan shu tamkinligi tufayli Rufning ko'nglida shubha tug'dirmadi. Tajribasiz va uyatchan Ruf bu uchrashuvlarining oqibati qanday xatarli ekanligini tushunmasdi. Ruf nima qilayotganini o'zi ham bilmay, yigit sari talpinar, u esa oradagi yaqinlik tobora zo'raya borayotganini sezarkan, dadilroq bo'lishni istar va lekin jur'at eta olmasdi.

Bir kun Martin axiyri jur'at qildi. Rufning uyiga kelib, uni pardalari tushirilgan xonada o'tirganini ko'rdi; qiz boshi qattiq og'riyotganidan shikoyat qildi.

– Hech nima kor qilmayapti, – dedi qiz Martinning savoliga javoban. – Doktor Xoll dori ichishimni man qilib qo'ydi.

– Men sizni hech qanday dori-darmonsiz tuzataman, – dedi Martin. – Albatta, sizga uning ta'sir etish-etmasligini bilmayman, lekin xohla-

sangiz, sinab ko'rish mumkin. Mening davolash usulim – uqalash. Buni Yaponiyada o'rgatishgan edi. Yaponlar uqalashga juda mohirdirlar. Keyinchalik xuddi shu uqalash usulini xiyol o'zgartirilgan shaklini gavayaliklarda ham ko'rdim. Ular bu usulni «lomi-lomi» deb atarkanlar. Bu uqalash ba'zan har qanday dori-darmondan ham yaxshiroq ta'sir qiladi kishiga.

Martinning qo'li qizning peshanasiga tegar-tegmas, Ruf xo'rsinib turib dedi:

– Qanday yaxshi-ya!

Yarim soatdan keyin qiz:

– Charchamadingizmi? – deb so'radi.

Bu savol ortiqcha edi, chunki qiz Martinning nima deb javob berishini bilardi. Shuning uchun Ruf mudrab, o'zini Martinning ixtiyoriga topshirdi. Uning barmoqlaridan shifobaxsh kuch oqib o'tib, dardiga davo bo'lardi – har holda, qizga shunday tuyulardi. Nihoyat, og'riq shunchalik yo'qoldiki, Ruf bahuzur uxlab qoldi, Martin esa sekingina xonadan chiqib ketdi.

Kechqurun qiz unga telefon qildi.

– Kechki ovqat mahaligacha uxlabman, – dedi Ruf, – siz meni butunlay tuzatib qo'ydingiz, mister Iden, minnatdorchiligimni qanday bildirishimni ham bilmayman.

Martin ham sevinganidan, ham xijolat bo'lganidan zo'rg'a gap topib javob qildi, chunki Brauning bilan Elizabet Barret o'rtasidagi ishqiy mojaro hech xayolidan ketmasdi. Brauning o'z ma'shuqasi uchun nimalar qilgan bo'lsa, u, ya'ni, Martin Iden ham Ruf Morz uchun shuni qila oladi. U xonasiga qaytib kirib, o'rniga yotdi-da,

Spenserning «Sotsiologiya»sini o'qishga kirishdi. Lekin o'qigani bilan miyasiga hech nima kirmasdi. Uning butun fikru zikri muhabbatda edi, u bir ozdan so'ng, hamma yog'iga siyoh tomib iflos bo'lib ketgan stolcha oldiga borib o'tirganini o'zi ham sezmay qoldi. Shu oqshom yozilgan sonet, «Muhabbat sonetlari» turkumidagi ellikta she'rning birinchisi bo'ldi; bu she'rlarni u ikki oydan keyin yozib bitirdi. U Elizabet Barretning «Portugalcha sonetlar»idan ilhomlanib yozgan edi. Martin she'rlarini buyuk ijod uchun eng qulay vaziyatda – oshiqi shaydo bo'lib yurgan mahalida yozgan edi.

U Ruf bilan uchrashmagan vaqtlarida «Muhabbat sonetlari» bilan shug'ullanar, o'z uyida yoki qiroatxonada mutolaa qilar, noshirlarning qanday asarlarni yoqtirishlarini bilishga urinib, jurnallarning hamma sonini navbatma-navbat diqqat bilan kuzatib borardi. Martin Ruf bilan birga bo'lgan paytlarida esa ham orzu-umidlarga to'lar, ham ko'ngli alag'da bo'lardi, ammo ham u, ham bu hol Martinni bir xilda iztirobga solardi. Martin Rufning bosh og'riq kasalini tuzatgandan keyin bir hafta o'tgach, Norman oydin kechada Merrit ko'lida qayiqda sayr qilishni taklif qildi. Artur bilan Olni buni bajonidil ma'qullashdi. Martindan boshqa hech kim yelkanli kemani boshqarishni bilmasdi, shuning uchun ham undan kapitanlik vazifasini zimmasiga olishni iltimos qilishdi. Ruf qayiqning tumshug'iga, Martinning yoniga o'tirdi, qolgan uch yigit qayiq o'rtasidagi ko'ndalang o'rindiqlarga o'tirib olib, o'zlarining talabalikka tegishli

ishlari haqida uzundan-uzoq munozara boshlab yuborishdi.

Oy hali chiqmagan edi, yulduzlar charaqlagan osmonga jimgina tikilib o'tirgan Ruf birdan o'zini yolg'iz his qila boshladi. Martinga qaradi. Birdan esib kelgan shamol qayiqni xiyolgina bir tomonga og'dirdi, shunda Martin bir qo'li bilan rumpel¹⁴, ikkinchi qo'li bilan grotashkotni¹⁵ ushlagancha, suvga turtib chiqib turgan sohilni aylanib o'tish uchun, qayiqning yo'nalishini bir oz o'zgartirdi. U qizning qarayotganini sezmas, qiz esa unga tikilib qarab o'tirarkan, bu zo'r iste'dodli yigitni bekorga vaqt sarflab muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ochiq-oydin ko'rinib turgan o'rtamiyona hikoya va she'rlar yozishga undagan antiqa havas haqida o'ylardi.

Rufning ko'zlari yigitning chiroyli qo'ndirilgan boshiga, yulduzlar yorug'ida g'ira-shira ko'rinib turgan baquvvat bo'yniga tushdi, so'ng uning vujudini yana shu bo'yinni mahkam quchoqlab olish istagi qamrab oldi. Martinning Rufga yoqmayotganday tuyulgan o'ziga xos kuchi ayni zamonada uni maftun ham qilgan edi. Ruf borgan sari o'zini yolg'iz his qilib, holdan toyganini sezdi. Qayiqning chayqalishi g'ashiga tegardi. U Martinning faqat qo'li tegishi bilan boshining og'ri-shi qolganini esladi. Martin uning yonida, shundoqqina yonginasida o'tiribdi, qayiq qiyshaygan paytda qiz Martin tomonga surilayotgandek bo'ldi. Shu payt birdan Rufning Martinga su-

¹⁴ Rumpel – rul richagi.

¹⁵ Grotashkot – kemada yelkanning pastki uchi bog'lanadigan joy.

yangisi kelib ketdi-yu, bu istagiga o'zi ham tushunib ulgurmay, itoatkorlik bilan yigit tomonga egildi. Balki bunga qayiqning chayqalishi sabab bo'lgandir? Ruf buni bilmasdi. U keyin ham hech qachon buni bilolmadi. U faqat Martinga suyanganini va endi o'zini yaxshi, xotirjam his etayotganini bilardi. Mayli, hammasiga qayiqning chayqalishi sababchi deb ham faraz qilaylik, ammo Ruf Martindan chetlanishni istamasdi. U yigitning yelkasiga ohista bosh qo'ydi, Martin qizning qulayroq o'tirishi uchun vaziyatni o'zgartirganda ham nari surilmadi.

Bu telbalik edi, lekin Ruf hech nima to'g'risida o'ylashni istamasdi. U ayol edi, ayollarning suyanishga bo'lgan ehtiyoji uni shunga da'vat etardi; to'g'ri, u Martinga sezilar-sezilmas suyangan edi, ammo shunga qaramay, ehtiyoj qondirildi. Rufdagi horg'inlikdan asar ham qolmadi. Martin lol edi. U sehrni buzib yuborishdan qo'rqardi. Bu sehr uning sipoligi va hurkakligi tufayli hamon davom etardi, lekin Martinning boshi aylanib, fikrlari chalkashib ketdi. Nima bo'layotganini hech tushuna olmasdi. Bu nihoyatda fusunkor hol edi, ammo bunday holat o'ngida bo'lishi mumkin emas edi. U shkot bilan rumpelni qo'yib yuborib, Rufni bag'riga bosib quchoqlash istagini zo'r-bazo'r bosdi. Agar shunday qilsa, ishning pachavasi chiqishini beixtiyor his qilar va qo'llari band bo'lgani uchun xayolan taqdirga shukrona o'qirdi. Biroq u qayiqni faqat shamol ixtiyoriga topshirish uchun, hech uyalib-netib o'tirmay yelkanni bo'shatib yubordi-da, ataylab qayiqning suzishini sekinlatdi. Shamolning

yo'nalishi o'zgargan chog'da u ham joyini o'zgartirishi kerak bo'lardi, natijada ikkovlari o'rtasidagi yaqinlik yo'qolardi. Bu tadbirlarning hammasini bahslashib o'tirgan hamrohlar ko'nglida hech qanday shubha uyg'otmay, mohirlik bilan bajarardi. Shu payt u dengiz, qayiq va shamolni o'z izmiga sola olishga o'rgatib, bu jozibali oydin kechada, sevgilisi bilan o'zi o'rtasidagi yaqinlikni cho'zishga imkon bergan uzoq yillik mashaqqatli matroslik hayotiga tashakkur o'qidi.

Injudek yarqiragan oy o'z shu'lasini bilan ularni yoritganda Ruf Martindan nariroqqa surildi, Martinning ham aynan shunday xarakter qilganini sezdi. Ikkovlari ham buni boshqalardan yashirmoqchi edilar. Bu ularning siri bo'lib qolishi kerak edi. Ruf endi ikki yuzi lov-lov yonib chekkaroqda o'tirar, nima hol yuz berganini u hozirgina anglagan edi. U shunday bir ish qilib qo'ygani ediki, uni akalariga ham, Olniga ham sezdirishni istamasdi. Bunga qanday jur'at etdiki? U ilgari ham juda ko'p marta oydin kechada yosh yigitlar bilan qayiqda suzgan, ammo hech qachon bunday hodisa ro'y bermagan edi. Hatto, bunaqa istak tug'ilmagan ham edi unda. Qiz uyg'onib kelayotgan bu ayollik tuyg'usidan xijolat tortar va qo'rqardi. U Martinga o'g'rincha qarab qo'ydi. Martin bu payt shamol yo'nalishini o'zgartirish bilan band edi; shunda Ruf, o'zini bunday bemulohaza va behayo yo'lga boshlagan Martindan nafratlanishga ham tayyor edi. Ha, uni shu yo'lga boshlagan Martin Iden edi! Balki onasi haqdir, chindan ham juda tez-tez uchrashyaptilar. Ruf shu zahotiyog, endi

bu hech qachon takrorlanmaydi, degan qat'iy qarorga keldi. Bundan buyon u bilan kamroq uchrashishga harakat qiladi. Qizning ko'ngliga hatto, kezi kelganda, qayiqning chayqalishidan behuzur bo'lib, oy chiqish oldidan o'zimni yomon his qildim deb yolg'on aytsammikin, degan be-ma'ni fikr ham keldi. Lekin sirni fosh etuvchi oy bosh ko'tarishi bilan, bir-birlaridan nari burilib o'tirishganini esladi-yu, Martinning bu bahona-ga ishonmasligini tushundi.

Bundan keyingi kunlarda Ruf boshi gangib yurdi; u o'z hislarini tahlil qilishni istamadi, o'ziga nima bo'lganini va bundan keyin nima bo'lishini o'ylamay qo'ydi, u bezgak tutganday qaltirab, ta-biatning goh dahshatli, goh fusunkor sirli da'vati-ga quloq solardi. Lekin bir narsaga qat'iy qaror qildi-yu, ana shu qarori unga ishonch bag'ish-ladi: Martinning muhabbat izhor etishiga imkon bermaslik kerak. Martin muhabbatdan so'z och-masa, olam guliston. Bir necha kundan keyin u dengiz safariga jo'nab ketadi. Agar bordi-yu, ishq haqida og'iz ochsa ham, hech nima bo'lmaydi. Axir Ruf uni sevmaydi-ku. To'g'ri, o'sha yarim soatlik vaqt Martin uchun juda qiyin, qiz uchun ancha mushkul bo'ladi, chunki Ruf umrida bi-rinchi marta muhabbat izhor qilayotganlarini eshitadi. Yolg'iz shy fikrning o'zidan yuragi qu-vonchga to'ldi. U haqiqiy ayol bo'ldi, erkak unga muhabbat izhor qilyapti. Uning jismidagi jamiki ayollik xislatlari erkakning da'vatiga «labbay» deb javob berishga tayyor edi. Butun vujudi jimirlab ketdi, miyasida hamon bir fikr, xuddi chiroq atrofida uchgan parvona yanglig' zo'r berib ayla-

nardi. U xayolga juda berilib ketib, Martinning unga rasmiy suratda muhabbat izhor etishini tasavvur qila boshladi; qiz Martinni gapirtirib, o'zi unga takror-takror rad javobini berardi, rad javobi berarkan, Martinning oliyjanobligidan foydalanib o'z javobini imkoni boricha, muloyimroq izhor etishga urinardi. Dastavval u chekishni tashlashi kerak. Buni qiz juda qat'iy talab etadi. Yo'q, yo'q, Martinning muhabbat haqida og'iz ochishiga aslo yo'l qo'ymaydi. Bu uning qo'li-dan keladi, keyin shunday qilaman deb onasiga ham so'z bergan. Yuzlari qizargan va butun vujudini titroq bosgan Ruf man etilgan fikrlarni ming-ming afsus-la xayolidan quvib chiqarardi. Ilk muhabbat izhor etishni ham qulayroq vaqtga, munosibroq yigit bilan uchrashguncha, keyinga qoldirishga to'g'ri keladi.

YIGIRMA BIRINCHI BOB

Iliq va huzurbaxsh ajoyib kunlar boshlanar, erta kuz paytlarida Kaliforniyada bunday kunlar ko'p bo'lardi; bunday paytda quyosh go'yo tutunga burkanganday tuyuladi, kuchsiz esgan shabada mudrab yotgan havoni zo'rg'a tebratadi. Xuddi rang-barang iplardan to'qilgandek ko'kish tuman do'ngliklar orasiga yashiringan; ko'rfazning narigi sohilida esa San-Fransisko shahri tuman ichida yastanib yotardi. Ko'rfaz eritilgan metall singari yaraqlar, uning sathida onda-sonda, goh qilt etmay turgan, goh oqimga qarab sustlik bilan suzib borayotgan kemalarning yelkanlari oqarib ko'rinardi. Uzoqda, kumush rang

tuman ichida Tamalpays chad ko'targan, Oltin Qopqa botib borayotgan quyosh shu'lasida chindan ham oltindek tovlanardi, uning naryog'ida esa poyoni yo'q Tinch ummoni ko'zga tashlanar edi; ummon ufqlarida kirib kelayotgan qishning ilk xabarchilari – quyuuq bulutlar to'dalangan edi.

Yozning ketar chog'i edi. Lekin u bu do'ngliklar orasida yurib, ketishni paysalga solar, vodiylarda binafsha rang ko'lankalarni quyuuqlashtirar va o'zining umr kechirganidan, hayotining samarali o'tganidan ko'ngli to'lib, horg'inlikning surma rang kafaniga o'ralganicha, sokin va xotirjam jon berardi. Martin bilan Ruf o'z sevimli tepalarining yon bag'rida, boshlarini kitob sahifasiga egib, yonma-yon tiqilishib o'tirishardi; Martin unga Brauningni sevgan ayolning ishqiy she'rlarini ovoz chiqarib, o'qirdi; u ayol shoirni shunday qattiq sevgan ediki, bunday sevgi kamdan-kam ayollarda uchraydi.

Biroq mutolaa sekin borardi. So'nib borayotgan tabiat go'zalligining jozibasi nihoyatda kuchli edi. Yilning oltin fasli, xuddi gunoh qilishga pushaymon bo'lmagan go'zal xonim singari, qanday yashagan bo'lsa, shunday o'layotgan edi, tevarak-atrofdagi havoning o'zi ham shirin xotiralardan xumor bo'lib, holsizlangandek tuyulardi. Bu holsizlik Martin bilan Rufning qoniga singib, ularning irodasini bo'shashtirar, fikr va qarorlarini kamalak rang tuman bilan chulg'ardi. Martin bu holsizlik tuyg'usini qaytara olmas, ba'zan o'zini iliq to'lqinga g'arq bo'lganday his qilardi. Ularning boshlari bir-birlariga juda yaqin keldi, Rufning soch tolalari tasodifan esgan

shabadadan Martinning yonog'iga tegib ketganda, kitobdagi satrlar yigitning ko'z oldida jimirlashib ketdi.

Martin yanglishib ketib, o'qiyotgan yerini yo'qotib qo'yganda:

– Nazarimda, nima o'qiyotganingizni o'zingiz eshitmayotganga o'xshaysiz, – dedi Ruf.

Martin chaqnab turgan ko'zlarini qizga tikdi, lekin sir boy bermasdan javob qildi:

– Siz ham eshitmayapsiz. Oxirgi sonetda nima yozilgan edi?

– Bilmayman, – deb kulib yubordi Ruf. – Esimdan chiqib qoldi. Endi o'qimay qo'ya qolaylik. Havo juda ham yoqimli.

– Endi biz ancha vaqtgacha birga sayr qilmaymiz, – dedi Martin jiddiy ohangda. – Ho'v ana u yoqda, ufqda bo'ron ko'tarilyapti.

Kitob uning qo'lidan sirg'alib tushib ketdi, endi ular hech narsa ko'rmayotgan xayolchan ko'zlarini mudroq bosgan ko'rfazga tikib, jim o'tirardilar. Ruf Martinning bo'yniga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Yerning tortish kuchi qonunidan ham kuchliroq, taqdiri azaldek qudratli bir kuch birdan qizni o'ziga torta boshladi. U yelkasini Martinning yelkasiga tegizish uchun atigi bir enlikkina engashishi kerak edi, bu hol uning ixtiyorisiz sodir bo'ldi. U go'yo kapalak gulga tegib o'tganday Martinga yelkasini xiyolgina tegizib qo'ydi, tegdi-yu, shu zahoti Martinning ham unga aynan shunday yengil tegib qo'rganini, yana shu zahoti Martinning butun vujudida titroq turganini ham his qildi. Ruf darhol o'zini chetga surishi kerak edi. Ammo u endi o'zini idora qila olmay qoldi.

U nimaiki qilsa, hammasini bexosdan, g'ayriixtiyoriy ravishda qilardi, xullas, u shodiyona telbalik hissiga berilib, endi hech narsaning tashvishini qilmay qo'yan edi.

Martin ikkilanib turib, qo'lini uzatdi va Rufning belidan quchoqladi. Qiz vujudini o'rtab yuborgan lazzat bilan kutar, lekin nimani kuyayotganini o'zi ham bilmas edi; uning dudochlari qovjirab ketdi, yuragi qattiq-qattiq urar, qoni o't bo'lib jo'shardi. Martin uni yana qattiqroq quchoqlay boshladi, u Rufni sekin-sekin, juda ehtiyotlik bilan o'ziga tortardi. Qizning ortiq kutishga toqati qolmadi. U entikib xo'rsindi-da, g'ayriixtiyoriy harakat bilan boshini yigitning siynasiga qo'ydi. Martin shu zahoti boshini egdi-yu, dudochlar dudochlarga tutashdi.

Bu muhabbat bo'lsa kerak, deb o'yladi Ruf bir zumgagina hushiga kelib. Agar muhabbat bo'lmasa o'ta sharmandalik. Albatta, bu faqat muhabbat edi. U belidan quchib, lablarini uning lablariga tutashtirgan bu odamni sevadi. Qiz beixtiyor o'z vaziyatini yaxshilamoqchi bo'lganday harakat qilib, yigitning pinjiga yana suqildi, keyin birdan, uning quchog'idan deyarli otilib chiqdi-da, o'zini yo'qotib, qat'iylik bilan Martin Idenning quyoshda qoraygan bo'yniga qo'llari bilan mahkam chirmashib oldi. Qanoatlangan orzu quvonchi shu qadar kuchli, shu qadar shirin ediki, Ruf shu onning o'zida eshitilar-eshitilmas bir ingrab hushidan ayrilib, Martinning ko'ksiga boshini qo'ydi.

Yana ancha vaqtgacha og'izlaridan bir og'iz ham so'z chiqmadi. Martin ikki marta engashib,

qizni o'pdi, o'parkan, har gal qizning dudoqlari qo'rqa-pisa Martinning lablari sari talpinar, siynasi esa g'ayriixtiyoriy ravishda yanada qulayroq vaziyatga tushishga urinardi. Qizning Martindan ajralishga madori yo'q edi, Martin esa uni jimgina quchoqlab o'tirib, ko'rfazning narigi sohilidagi ulkan shaharga tikilar, ammo ko'zlari hech nimani ko'rmasdi. Bu gal uning ko'z oldida hech qanday lavhalar namoyon bo'lmadi. U faqat shu ajoyib kun singari is-siq, o'z muhabbati singari alangali ranglar va charog'on shu'lalarni ko'rdi. U Rufga engashdi, Ruf gap boshladi:

– Meni qachondan beri sevasiz? – pichirlab so'radi qiz.

– Sizni ko'rganim birinchi kuni, birinchi daqiqadan beri. O'sha vaqtdayoq sizni sevib qolgan edim, o'shandan beri tobora yana qattiqroq seva boshladim. Endi esa yana ham kuchliroq sevaman, azizam. Men devona bo'lib qoldim. Bu baxtdan boshim gangib qoldi.

– Martin... azizim? Ayol bo'lish qanday yaxshi, – dedi qiz chuqur bir tin olib.

Martin uni yana mahkam quchoqladi, so'ng ohistagina so'radi;

– Siz-chi, siz birinchi marta qachon sezgan edingiz?

– O, buni men allaqachon, deyarli o'sha zahotiyoq sezganman.

– Bundan chiqdi, men ko'rshapalak singari ko'r ekanman-da! – deb Martin qichqirib yubordi, uning ohangida o'kinch bor edi. – Men buni hozirgina, sizni o'pgan paytimda sezdim.

– Men unday demoqchimasdim. – Qiz xiyolgina surilib Martinga tikildi. – Meni sevishingizni ko'pdan beri sezganman demoqchiydim.

– O'zingiz-chi? – deb so'radi yigit.

– Men sevishimni bexosdan payqab qoldim. – Qiz juda ohista gapira boshladi, ko'zlari tumanlanib, iliq bir ifoda kasb etganday bo'ldi, yonoqlariga qizil yugurdi. – Toki siz meni... Quchoqlamaguningizcha tushunmagan edim. Keyin, men shu daqiqagacha hech qachon sizga xotin bo'lishni o'ylamagan edim, Martin, nima bilan meni maftun etdingiz?

– Bilmadim, – deb jilmaydi Martin, – o'z muhabbatim bilan bo'lsa kerak-da. Mening muhabbatim nainki ayol kishining yuragini, hatto toshni ham erita oladi.

– Bularning hammasi men tasavvur qilgan muhabbatga hech ham o'xshamaydi, – dedi ganguib qolgan Ruf.

– Siz uni qanday tasavvur qilgan edingiz?

– Uning bunaqa ekanligini o'ylamagan edim.

Ruf Martinning ko'zlariga bir on tikilib turdi-da, so'ng yerga qarab dedi:

– Men hech narsaga tushunmas ekanman.

Martin Rufni yana bag'riga bosib quchoqlagisi keldi, lekin uni cho'chitib yuborishdan qo'rqib taraddudlanib qoldi, faqat qizning belidan quchib turgan qo'li beixtiyor titrab ketdi. Shunda qizning o'zi unga talpindi-yu, dudoqlari bir-biriga tutashib, bir-birlaridan uzoq bo'sa olishdi.

– Ota-onam nima derkin endi? – dedi birdan qiz tashvishga tushib.

– Bilmadim. Lekin buni bilishimiz qiyin emas.

– Oyim rozi boʻlmasa-chi. Unga aytishga sira ham tilim bormaydi.

– Keling, men aytay, – dadillik bilan taklif etdi Martin. – Negadir, nazarimda, oyingiz meni uncha xush koʻrmaydiganga oʻxshab tuyuladi, lekin hechqisi yoʻq. Uning koʻnglini olish ilojini topaman. Sizning koʻnglingizni ola olgan odam har qanday odamning ham koʻnglini ola biladi. Agar bu rejamiz amalga oshmasa...

– Unda nima boʻladi?

– Biz baribir ajralmaymiz. Ammo onangizning rozi boʻlishiga mening imonim komil. Onangiz sizni judayam yaxshi koʻradi.

– Oyimning yuragini yorib yubormasam deb qoʻrqaman, – oʻychan bir vaziyatda dedi Ruf.

Martin, onalar yuragi osonlikcha yorilavermaydi, deb aytmoqchi boʻldi-yu, lekin uning oʻrniga:

– Ammo muhabbat dunyoda eng ulugʻ narsa!
– dedi.

– Bilasizmi, Martin, men baʼzida sizdan qoʻrqaman. Sizning kimligingizni, ilgari kim boʻlganinigizni oʻylasam, hozir ham qoʻrqaman. Siz men bilan juda-juda yaxshi muomalada boʻlishingiz kerak. Shuni unutmangki, men, ochigʻini aytganda, hali goʻdakman! Men axir hali hech kimni sevmaganman!

– Men ham. Ikkovimiz ham goʻdakmiz. Ikkovimiz ham nihoyatda baxtiyormiz. Axir ilk muhabbatimiz ikki yoqlama boʻlib chiqdi!

– Yoʻq, bunday boʻlishi mumkin emas, – deb birdan qichqirib yubordi Ruf tez va keskin harakat bilan uning quchogʻidan otilib chiqar-

kan, – negaki siz... Axir siz matros bo'lgansiz-ku, matroslar esa, men bilaman...

Ruf indamay qoldi.

– Har qaysi portda xotin olishga odatlanib qo-lishgan, – deb Rufning gapini tugalladi Martin.

– Siz shunday demoqchimingiz?

– Ha, – deb ohistagina javob qildi qiz.

– Lekin u muhabbat emas-ku, – deb qat'iyat bilan e'tiroz bildirdi Martin. – Men ko'p portlarda bo'ldim, lekin to sizni uchratgunimcha muhabbatga o'xshaydigan hech qanday hisni boshimdan kechirmadim. Bilasizmi, birinchi marta sizning uyingizdan qaytayotganimda, meni sal bo'lmasa tutib olib ketishmoqchi bo'lishgan edi.

– Nega tutishadi?

– Nega bo'lardi. Polismen meni mast deb o'yladi. Men chindan ham mast edim... muhabbatdan mast edim!

– Lekin biz mavzudan chetlab ketdik. Siz ik-kalamiz ham go'dakmiz deb aytdingiz, men esam bu mumkin emas dedim. Gap mana shu haqda borayotgan edi.

– Ilgari hech kimni sevmaganman deb aytdim-ku, – e'tiroz bildirdi Martin, – siz mening birinchi, eng birinchi sevgilimsiz.

– Baribir matros bo'lgansiz, – deb ta'kidlardi qiz.

– Shunga qaramay, birinchi marta sizni sevdim.

– Durust, lekin ayollar... boshqa ayollar ham bo'lgan-ku!.. O! – shunda Ruf Martinni qattiq ta-ajjubga qo'yib, birdan yum-yum yig'lay boshladi, uni yupatish uchun ozmuncha bo'sa olinmadi.

Martinning esiga beixtiyor Kiplingning so'zlari keldi: «Lekin asilzoda ledi bilan Judi O'Gredi

boshqa jihatlardan baravar edilar». Aslini olganda, bu to'g'ri fikr, deb o'yladi Martin, holbuki, u o'qigan romanlar boshqacha fikr yuritishga majbur etardi. Shu romanlar asosida, u yuqori tabaqaga mansub bo'lgan ayol kishiga musharraf bo'lishning birdan-bir yo'li – rasmiy ravishda uylanishni taklif qilish deb tasavvur qila boshladi. O'zi o'sib katta bo'lgan muhitda yigit va qizlar uchun o'pish va quchoqlashlar oddiy bir hol edi. Lekin yuqori sinfning nazokatli namoyandalari orasida bu tarzda muhabbat izhor etish Martinning nazarida mumkin bo'lmagan bir holday tuyulgan edi. Bundan chiqdi, romanlarda yolg'on yozilgan ekan. Bu fikr hozir isbotlandi. Bir xildagi so'zsiz navozish, ham qashshoq ishchi ayollarga, ham yuqori tabaqa qizlariga bir xilda ta'sir etishi mumkin ekan. Ularning mavqelari bir-biriga o'xshamasa ham, «boshqa jihatlardan barobar» edilar. Agar u Gerbert Spenserni eslaganida edi, bu fikr o'zining ham xayoliga kelgan bo'lardi. Shunga ko'ra Martin Rufni navozish va bo'salar bilan yupatar ekan, asilzoda ledi bilan Juda O'Gredi, aslini olganda, har jihatdan barobar, degan fikrga jon deb qo'shildi. Bu fikr Rufni unga yaqinlashtirar, unga muyassar bo'lishni yengillashtirardi. Rufning chiroyli badani ham boshqa odamlarning badaniga o'xshardi.. Ularning er-xotin bo'lishlari uchun g'ayriixtiyoriy hech narsa yo'q edi. Ular o'rtasida birdan-bir farq sinfiy farq edi, ammo bu ham ochig'ini aytganda, faqat zohiriy farq edi. Bunga parvo qilmasa ham bo'lardi. Axir Martin qirmizi rang shohona libos kiyish dara-

jasigacha ko'tarilgan rumolik bir qul haqida kitobda o'qigan edi-ku. Nega endi u ham Rufga musharraf bo'lish darajasiga ko'tarila olmasin? Ruf nechog'lik sof, ma'suma, o'qimishli va ta'bi nozik qiz bo'lmasin, baribir, u Lizi Konolli kabi va dunyodagi jamiki lizzi konollilar kabi oddiy bir ayol. Ularga xos bo'lgan hamma xususiyat Rufga ham xos edi. Ruf sevishi, nafratlanishi mumkin edi, ehtimol, jazavasi tutib, to'polon qilgan paytlari ham bo'lgandir; nihoyat, u rashk qila olar, Martinning har bir portdagi o'ynashlarini o'ylab, halitdan rashk qila boshladi ham.

– Bundan tashqari, men sizdan kattaman, – dedi birdan Ruf Martinning ko'ziga tikilib, – men sizdan uch yosh kattaman.

– Shunday bo'lsa ham, bolasiz. Hayotiy tajribaga boylikda men sizdan uch emas, o'ttiz uch yosh kattaman, – deb e'tiroz bildirdi Martin.

Haqiqatda esa, muhabbat bobida ularning ikkovi ham hali go'dak edilar; Rufning universitet diplomi, ilmiy darajasini, Martinning falsafiy ma'lumoti va mashaqqatli hayot tajribasiga qaramay, ular o'z tuyg'ularini go'daklarga o'xshab no'noqlik va soddadillik bilan bayon etardilar. Ular botib borayotgan quyosh nurlari og'ushida xuddi haqiqiy oshiq-ma'shuqalarday suhbatlashib o'tirishardi; muhabbatning va ularni bir-biriga qovushtirgan taqdirning qudratli mo'jizasi-dan taajjublanishar, bir-birlarini hali dunyoda hech kim muyassar bo'lmagan eng kuchli muhabbat bilan sevishlariga ishonishar edi. Ular muttasil o'zlarining ilk uchrashuvlarini eslashar, bir-birlaridan olgan taassurotlarini qayta tiklash-

ga, o'sha paytda nima o'ylashganini, nimani his qilishganini aniq eslashga urinishardi.

G'arbdagi bulutlar botib borayotgan quyoshni yutib yubordi. Ufq alvon rangga kirdi, tevarak-atrof ham shu alvon rangga burkandi va Ruf «Alvido, baxtiyor kun» deb ohista ashula ayta boshladi. U boshini Martinning yelkasiga qo'yib kuylar, qo'llari esa Martinning qo'llarida edi, shu chog' ikkovlari ham bir-birlarining qalblarini o'z qo'llarida ushlab turar edilar.

YIGIRMA IKKINCHI BOB

Missis Morz onalik tuyg'usidan mahrum bo'lganda ham, Rufni ko'rgan zahoti nima hol yuz berganini bilib olgan bo'lardi. Buning uchun qiz yonoqlariga yugurgan qizillikka, ham quvonch, ham zafar shodligi aks etib turgan porloq ko'zlariga bir qarashning o'zi kifoya edi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi missis Morz, to qizining o'rniga kirib yotgunicha zo'rg'a sabri chidab.

Ruf, o'z navbatida, titroq ovoz bilan:

– Sezdingizmi? – deb so'radi.

Ona javob berish o'rniga qizini mehribonlik bilan bag'riga bosib, sochini siladi.

– U hech nima demadi! – dedi Ruf... – Bunday bo'lishini men hech istamagan edim, gapirishiga sira ham yo'l qo'ymagan bo'lardim, lekin u hech nima demadi.

– Modomiki, u hech nima demagan ekan, hech nima ro'y bermabdi-da?

– Shunday boʻlsa ham, roʻy berdi.

– Xudo haqi, erkam, nimalar deyapsan oʻzing!

– dedi missis Morz. – Nima gap oʻzi? Nima boʻldi?
Ruf onasiga hayron qarab qoldi.

– Hamma gapga tushungandirsiz deb oʻylovdim, – dedi qiz. – Biz endi Martin bilan kelin-kuyovmiz.

Missis Morz qah-qah urib kuldi, uning bu kulgisida shubha va taassuf sezilib turardi.

– Lekin u hech nima demadi, – deb gapida davom etdi Ruf. – U meni sevadi, vassalom. Bu siz uchun nechogʻlik kutilmagan hol boʻlsa, men uchun ham xuddi shunday kutilmagan hol. U bir ogʻiz ham soʻz aytmadi. U shunchaki meni quchoqladi-yu, men... men esimni yoʻqotib qoʻydim. U meni oʻpdi, men ham uni oʻpdim... Oʻzga ilojim yoʻq edi. Men uni oʻpishim kerak edi. Ana oʻshanda uni sevishimni anglab qoldim.

Ruf onasining erkalashini kutib, jim qoldi, ammo missis Morz jahl aralash sukut qoʻynida edi.

Albatta, oʻzim ham tushunib turibman, xunuk ish boʻlgan, – nafasi ichiga tushib yana gapida davom etdi Ruf. – Meni afv eta olarmikinsiz, bilmayman. Lekin boshqa ilojim yoʻq edi. Men oʻsha daqiqagacha uni sevishimni bilmagan edim. Faqat endi otamga oʻzingiz ayting.

– Balki otangga bildirmay qoʻya qolganimiz maʼquldir? Martin Iden bilan oʻzim gaplashib, unga hamma gapni tushuntiraman. U tushunadi, bergan vaʼdasidan voz kechadi.

– Yoʻq, yoʻq, – deb qichqirib yubordi Ruf darrov. – Uning mendan kechishini istamayman.

Men uni sevaman, sevish juda yaxshi bo'larkan. Men unga turmushga chiqaman, agar rozilik bersanglar albatta.

- Ruf, tasaddug'im, otang ikkovimizning sen to'g'ringda boshqa rejalarimiz bor... Yo'q, yo'q, yo'q, birontaga zo'rlab erga berisharkan deb xayolingga ham keltirma. Biz shunchaki sen o'z muhitimizdan bironta nufuzli va obro'li, chinakam jentlmen kishini o'zing tanlab, o'zing sevib turmushga chiqishingni istardik.

- Axir men endi Martinni sevaman-ku, - dedi Ruf mungli ovoz bilan e'tiroz bildirib.

- O'zing kuyov tanlashingga aslo to'sqinlik qilmoqchi emasmiz, lekin sen bizning farzandimizsan, shuning uchun bunday odamga turmushga chiqishga yo'l qo'ya olmaymiz. U sening jamiki latofatu nazokatli muomalangga qo'pollik va adabsizlik bilan javob beradi. U aslo tenging emas. Hatto seni boqishga ham qurbi yetmaydi. Biz boylikning ketidan quvadigan odamlar emasmiz, lekin er degan xotining bekamu ko'st va farovon yashashiga imkon tug'dira olishi shart; shuning uchun ham qizimizning yalangoyoq, muttaham, matros, kovboy, kontrabandachi va xudo bilsin yana allanima balo bo'lgan odamga emas, balki u bilan rohatu farog'atda yashay oladigan kishiga turmushga chiqishini istaymiz. Buning ustiga, Martin Iden o'lgudek yengiltak, hech mas'uliyatni sezmaydigan odam.

Ruf onasining haq gapirayotganini e'tirof etib, lol qoldi.

- U vaqtini bo'lmag'ur yozuv-chizuv bilan o'tkazib yuribdi, hatto eng layoqatli va ma'lumoti

zo'r kishilar ham kamdan-kam erisha oladigan narsaga erishmoqchi. Uylanishni ko'ngliga olgan odam sal-pal uylanish taraddudini ko'radi-da, axir. U bo'lsa parvoyi falak. Bilaman, sen ham bu fikringa qo'shilasan, hali aytganimdek, unda mas'uliyat hissi yo'q. Qayoqdan ham bo'lsin unda? Hamma matroslar shunaqa. U hech qachon tejamli bo'lmagan, o'zini tuta bilmagan. Orqa-o'ngiga qaramasdan xarajat qilishga odatlanib qolgan, bu uning suyak-suyagiga singib ketgan bo'lsa kerak. Albatta, bunga u aybdor emas, lekin bu bilan masala o'zgarmaydi. Sen uning avvalgi hayoti – ishratparastlik va axloqsizlik bilan o'tgan hayoti haqida o'ylab ko'rdingmi, u albatta shu zaylda kun kechirgan. Sen nikoh nimaligini bilasanmi, qizim?

Ruf bir seskanib ketib, o'zini onasining pinjiga urdi.

– O'ylagandimki... – Ruf munosib so'z axtarib ancha vaqt jim qoldi. – Bu dahshat, albatta. Bu haqda o'ylash men uchun juda og'ir. Muhabbatim boshimga bitgan balo ekanligini sezib turibman, lekin o'zimga o'zimning kuchim yetmaydi. Siz dadamni sevmaganligingiz mumkinmi? Men ham shu ahvolga tushganman. Unda ham, menda ham qandaydir bir narsa bor – shu kunga qadar buni tushunmagan ekanman, lekin bu shunday narsaki, uni sevishga shu narsa majbur etyapti meni. Uni sevib qolaman deb xayolinga ham keltirmagan edim, ammo mana, sevib qoldim, – deb shodiyona bir ohangda gapini tugalladi Ruf. Suhbat allamahalgacha davom etgan bo'lsa ham, hech natija bermadi, nihoyat

ular hech qanday tadbir qo'llamasdan, biroz vaqt sabr qilib turishga qaror qildilar.

Bir soatdan keyin missis Morz o'z nayrangining kutilmagan natija berganini aytib, qanday qarorga kelishganini eriga aytib bergan edi, mister Morz ham bu qarorni ma'qul topdi.

– Shunday bo'lishi muqarrar edi, – dedi mister Morz, – chunki qizimiz shu matrosdan boshqa biron ta erkak bilan yaqin munosabatda bo'lgan emas. Bir kun emas-bir kun unda ayollik hissi uyg'onishi kerak edi. Uyg'ondi ham, ammo, mana oqibat, qizimiz kelib-kelib shu beboshni sevib qolibdi – Turgan gapki, Ruf uni birpasda sevib qolgan yoki hech bo'lmaganda, sevaman deb o'zini o'zi ishontirgan – aslini olganda, unisi ham, bunisi ham bir go'r.

Missis Morz Rufning istaklariga to'g'ridan-to'g'ri qarshilik ko'rsatishdan ko'ra, unga boshqacha yo'l bilan ta'sir etmoqchi bo'lganini aytdi. Buning uchun vaqt yetarli, chunki Martin hozir uylanish to'g'risida o'ylay olmaydi ham.

– Mayli, Ruf u bilan istaganicha uchrashaversin, – degan qarorga keldi mister Morz. – Martinni qancha yaxshi bilsa, shuncha tez undan ko'ngli soviydi. Keyin shunday qilish kerakki, qizimiz u yigitni boshqa biron odam bilan taqqoslab ko'rsin. Uyimizga yuqori tabaqa yoshlaridan, madaniyatli va baodob yigit-qizlardan, chinakam jentlmenlardan tez-tez taklif etib turish kerak. Shular oldida Martin butunlay boshqacha bo'lib ko'rinadi. Ruf uning asl qiyofasini ana o'shanda ko'radi. Undan keyin, axir u hali go'dak bola-ku. Endi yigirma birga kirdi.

Ruf ham hali yosh. Bu bolalik havasi, vaqti kelib unutilib ketadi.

Ular shu qarorga kelishdi. O'z oila a'zolari o'rtasida Martin bilan Ruf unashtirilgan deb e'tirof etildi-yu, ammo hech kimga ovoza qilinmadi. Ota bilan ona buning keragi ham yo'q degan fikrda edilar. Unashish muddatining juda uzoqqa cho'zilishi o'z-o'zidan ma'lum edi. Martinga o'z turmush tarzini o'zgartirishi va bironta jiddiy ish bilan shug'ullanishi zarurligi haqida hech nima deyishmadi; yozuvchilikni tark eting, deb unga hech kim maslahat ham bermadi. Uning hayotida muvaffaqiyat qozonishiga ko'maklashish bu oila a'zolarining niyatida yo'q edi. Martin bo'lsa, o'z badxohlarining tegirmoniga suv quyish bilan ovora edi, chunki u jiddiyroq bir mashg'ulot axtarib topish haqida mutlaqo bosh qotirmasdi.

– Bilmadim, mening tashabbusim sizga ma'qul bo'larmikin, – dedi Martin Rufga oradan bir necha kun o'tgach, – opamning uyida turish menga qimmatga tushib ketyapti, shuning uchun alohida yashamoqchiman. Men Shimoliy Oklenddagi sokin bir uydan bir xonani ijaraga oldim, kerosinka ham sotib oldim, o'zim ovqat pishiraman endi.

Ruf sevinib ketdi. Ayniqsa, unga kerosinka yoqqan edi.

– Mister Betler ham shundan boshlagan edi, – dedi u.

Martin muhtaram jentlmenning ismi sharifini eshitib, qovoqlarini uydi va gapida davom etdi:

– Men hamma qo'lyozmalarimga markalar yopishtirib, yana tahririyatlarga jo'natib yubordim.

Bugun yangi kvartiraga ko'chib o'taman-da, ertadan ish boshlayman.

Ruf bu shodiyona xabarga jon-tani bilan xayrixohlik bildirarkan:

- Xizmatga kiribsiz-da! – deb qichqirib yubordi va tabassum bilan unga yaqin kelib, qo'lini mahkam qisdi. – Nega endi menga hech nima demadingiz? Qanday xizmat o'zi u?

Ammo Martin boshini sarak-sarak qildi.

- Men ertadan boshlab yana yozishga kirishaman demoqchi edim.

Qizning chakkasi tirishdi, Martin shosha-pisha gapini davom ettirdi: – Gapimga to'g'ri tushuning. Bu safar men shirin xayollarga berilmayman. Men endi, yolg'iz moddiy ahvolni yaxshilash uchun jiddiy ishlash niyatidaman. Yana dengiz safariga jo'nagandan shu ma'qul, oklendlik oddiy xizmatchiga qaraganda xiyla durustroq pul topaman deb o'ylayman. Keyingi oylar ichida ko'p narsalar ustida bosh qotirdim. Men aravaga qo'shilgan otdek ishlaganim yo'q, deyarli hech nima yozganim ham yo'q, yozgan bo'lsam ham, matbuot uchun yozmadim. Butun vaqtimni sizni sevishga va turli-tuman narsalar ustida mulohaza yuritishga bag'ishladim. To'g'ri, ba'zi narsalarni o'qib turdim, lekin u o'qiganlarim – asosan, jurnallar – mening mulohazalarim bilan bevosita aloqador edi. Men o'zim to'g'rimda, dunyo haqida, dunyoda tutgan mavqeim haqida va sizga manzur bo'ladigan martabaga erishish uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligim haqida o'yladim. Bundan tashqari, men Spenserning «Uslub falsafasi»ni o'qib chiqdim;

u kitobda menga, aniqrog'i, mening yozuvchilik faoliyatimga, shuningdek, har oyda jurnallarda bosilayotgan asarlarga bevosita aloqador bo'lgan juda ko'p ajoyib fikrlarni uchratdim. Mana shularning hammasi natijasida, ya'ni, o'y-mulohazalar, mutolaalar va sizga bo'lgan muhabbatim natijasida shunday qarorga keldim: adabiyotni kasb qilaman. Durdona asarlar yozishni vaqtincha tark etib, har xil oldi-qochdi narsalarni; feletonlar, latifalar, kundalik hayot haqida kichik she'rlar, hajviyalar, xullas, nimaga talab bor bo'lsa, shuni yozaman. Axir, gazetalariga, yumor sahifalariga, yakshanbalik ilovalarga material hozirlab beradigan adabiyot agentliklari mavjud-ku. Men ularga nima kerak bo'lsa shuni yozaman, sizni ishontirib aytamanki, bu ishdan chakana pul topmayman. Oyiga to'rt yuz, hattoki besh yuz dollar ham tushiradigan azamatlar bor. Men ularga o'xshamoqchi emasman; lekin har holda non pulimni topib turaman, undan keyin o'z ishim bilan shug'ullanishimga ham, o'qishimga ham vaqtim bo'ladi; holbuki, hech qanday xizmatda ham mening o'qishimga imkon tug'ilmaydi. Men chinakam asarlar ustida ham sekin-asta qalam tebrata boshlayman, ham o'qiyman, ham chinakam ishga hozirlik ko'raman. Bilasizmi, hozir men qanchalik ilgarilab ketganimni ko'rib, o'zim ham ajablanaman. Men qo'limga birinchi marta qalam olganimda, ochig'i, nima to'g'rida yozishni bilolmay boshim qotgan edi. Har xil hodisalar haqida ularning asl mohiyatini mukammal tushunmasdan turib yozaverardim. Menda hech qanday g'oya, hech qanday muloha-

za yo'q edi. Fikr yuritishim uchun hatto so'z ham topolmasdim. Boshimdan kechirgan narsalarning hammasi ko'z oldimda ma'nosiz lavhalar bo'lib qatorlashib turardi. Lekin men ko'p o'qib, so'z boyligimni orttirganimdan keyin, o'sha lavhalarning hammasida ilgari men payqamagan juda ko'p narsalarni ko'ra boshladim. Ana shundan keyin haqiqiy asarlar yoza boshladim: Men «Sarguzasht», «Quvonch», «Qozon», «Hayot sharoabi», «Quvnoq ko'cha», «Muhabbat sonetlari» va «Dengiz qo'shiqlari»ni yozdim. Men bu singari va bulardan ham ancha yaxshipoq asarlarni yana ko'p yozaman, lekin ular bilan faqat bo'sh vaqtlarimda shug'ullanaman. Endi men ortiq havoyilik qilmayman. Avvaliga, non puli topish uchun qopa ish bilan shug'ullanaman, so'ng durdonalar yozishga kirishaman. Kecha kechqurun, o'zining haqligimni ataylab sizga isbot qilish uchun, haftalik yumoristik gazetalar uchun besh-oltita mayda-chuyda narsa yozib qo'ydim, yotish oldidan esa hazilomuz termalar yozishda ham kuch sinab ko'rish xayolimga kelib qoldi-yu, bir soatcha vaqt ichida bir emas, to'rt terma yozib tashladim. Har bir bandiga bir dollardan olish mumkin. Ish orasida, uyquga yotar paytda to'rt dollardan ishlab turish chakki emas, albatta. To'g'ri, bunday ishning hech qanday qiymati yo'q. Bu zerikarli va bir xil ish, lekin umrbod kontorada o'tirib, oyiga oltmish dollardan maosh olib, keti uzilmaydigan raqamlarni daftarga ko'chirish bilan ovo-ra bo'lishdek zeriktiradigan ish emas. Buning ustiga, bu ish har holda adabiyotga aloqador va haqiqiy asarlar yozishimga imkon tug'diradi.

– Lekin o'sha haqiqiy asarlarni, durdona asarlarni yozishingizdan nima naf? – deb so'radi Ruf.

– Baribir, ularni sota olmaysiz-ku!

– Unday demang... – deb gap boshladi Martin. Ruf uning gapini bo'ldi:

– Hozir o'zingiz sanab o'tgan va o'zingizga juda ham yoqqan asarlaringizdan haligacha biron satrini ham sota olmadingiz-ku. Biz hech kim sotib olmaydigan durdona asarlarga orqa qilib turmush qura olmaymiz.

– Unda hamma sotib oladigan laparlarga orqa qilib turmush qurishimiz mumkin, – dedi Martin o'jarlik bilan va Rufni quchoqladi. Lekin hozir Rufning erkalanishga hushi yo'q edi, – mana, eshiting, – dedi Martin ataylab sho'x ohangda, – buni san'at deb bo'lmaydi-yu, pul ishlasa bo'ladi:

*Yo'qligimda bir jo'ram
Aqchaga bo'lib muhtoj,
Qarz so'rab kepti atay.
Topolmay qilib alam,
Jo'ram tushkur noiloj,
So'kkan emish paydar-pay.
Uyda yo'q bo'lgan esam,
Dardini qaydan bilay!..¹⁶*

She'rning sho'x, o'ynoqi ritmi Martinning tobora ko'proq sarosimaga tusha boshlagan chehrasi bilan hamohang emasdi. Ruf hatto kulimsiramadi ham. U Martinga xomush tikilib o'tirardi.

– Balki bu termangizga bir dollar berishar ham, – dedi qiz, – lekin u sirkdagi masxaraboz-

¹⁶ Romandagi she'rlarni Z.Obidov tarjima qilgan.

ning daromadiga o'xshaydi. Bu bilan o'zingizni kamsitasiz-ku, nega tushunmaysiz, Martin! Men o'zim hurmat qilgan suyukli yorimning qofiyali bema'ni she'rlar yozgandan ko'ra, birmuncha jiddiyroq va o'ziga munosib ish bilan shug'ullanishini istardim.

– Siz uning mister Betlerga o'xshashini istarmidingiz? – deb so'radi Martin.

– Bilaman, siz mister Betlerni yoqtirmaysiz, – deb gap boshladi qiz.

– Mister Betler – ajoyib odam, – deb Martin uning so'zini bo'ldi. – Uning ovqat hazm qilolmaydigan me'dasidan boshqa hamma tomoni yaxshi. Lekin, ochig'i, hayronman, nima uchun she'r yozish mashinkada yozishdan yoki kontorada yozuv-chizuv bilan shug'ullanishdan ko'ra yomon ekan? Unisi ham, bunisi ham maqsadga erishish uchun bir vosita, xolos-ku. Siz dastlabki paytlardan har turli kontora daftarlari ustida ivirsib o'tirishimni va nihoyat, bironta advokat yoki tojir bo'lib chiqishimni istaysiz. Men esa gazetalarga mayda-chuyda narsalar yozishdan boshlab, oqibat yirik adib bo'lishni istayman.

– Buning farqi bor, – deb ta'kidlay boshladi Ruf.

– Qanday farq?

– Chunonchi, siz o'zingiz muvaffaqiyatli chiqqan deb hisoblagan asarlaringizni ham hech sota olmayapsiz. Axir siz juda ko'p marotaba urinib ko'rdingiz, ammo muharrirlar hech nimangizni sotib olmayaptilar.

– Menga muhlat bering, azizam, – dedi Martin yolvoruvchi ohangda. – Bu faqat vaqtinchalik ish, men uni jiddiy ish deb hisoblamayman. Menga

ikki yil muhlat bering. Shu ikki yil ichida albatta muvaffaqiyatga erishaman, o'shanda asarlarim talash bo'lib ketadi. Nima deytoganimni yaxshi bilaman. Men o'zimga ishonaman, qo'limdan qanday ishlar kelishini yaxshi bilaman. Men adabiyot nima ekanligini tushunaman, no'noq yozuvchilar gazeta va jurnal sahifalarini qanday yaramas narsalar bilan to'ldirayotganini ham bilaman. Shuning uchun aminmanki, ikki yildan keyin men muvaffaqiyat va shon-shuhrat yo'liga tushib olaman. Lekin xizmatga kirib, hech ko'tarila olmayman. Unday ishga hushim yo'q. Negadir, nazarimda, zerikarli, bachkana, tuturuqsiz va ma'nosiz bo'lib tuyuladi. Har qalay, men unday ishga yaramayman. Men hech qachon kontoraning oddiy xodimi lavozimidan nariga o'ta olmayman, ammo biz kontora xodimini arziyas maoshi bilan baxtiyor kun kechira olarmidik? Men dunyoning eng ajib noz-ne'matlari bilan sizni ta'minlash orzusidaman va har na bo'lganda ham orzuga erishaman. Erishmay qo'ymayman! Mashhur yozuvchi pul topishda mister Betlgerga o'xshaganlarning o'ntasini yo'lda qoldirib ketadi. Bilasizmi, «yaxshi tarqalgan» kitob muallifga ellik ming dollar, hattoki yuz ming dollar ham keltirishi mumkin. Ba'zan undan bir oz ko'proq, ba'zan bir oz kamroq, umuman, o'rta hisobda shunga yaqin pul tushiradi.

Ruf sukut saqlab o'tirardi. U juda xafa edi, xafa bo'lganini yashirmoqchi ham emasdi.

- Xo'sh, yomonmi? - deb so'radi Martin.

- Mening umid va rejalarim tamomila boshqa edi. Mashinkada yozishni bilasiz, shuning uchun

stenografiyani ham o'rganib olib, dadamning kontorasiga ishga kirsangiz yaxshi bo'lardi deb o'ylodim, hozir ham shu fikrdaman. Siz juda iste'dodli odamsiz, ajoyib huquqshunos bo'lib chiqishingizga ishonchim komil.

YIGIRMA UCHINCHI BOB

Ruf Martinning yozuvchilik qobiliyatiga ishonmasa ham, Martin uni boyagi-boyagiday sevib e'zozlayverdi. «Ta'til» paytlarida Martin o'zi haqida ko'p o'yladi va o'z hissiyotlarini tahlil qildi. Go'zallik uning uchun shonu shuhratdan ham qimmatroq edi, bunga u qat'iy ishonch hosil qilganidan keyin faqat Ruf uchun shuhrat qozonishni istardi. Shu Ruf deb u shuhrat qozonishga jonu dili bilan intilardi. U o'z sevgilisi-ning undan faxrlanishi va uni o'ziga munosib deb topishi uchun butun dunyoga mashhur bo'lishni orzu qilardi.

Martin go'zallikni shu qadar sevardiki, unga xizmat qilishdan zavq olardi. Rufni esa go'zallikdan ham ortiq sevardi. U muhabbatni dunyoda eng go'zal narsa deb hisoblardi. Axir, Martinni beso'naqay matrosdan mutafakkir va san'at-korga aylantirib, uning qalbida bunday buyuk o'zgarish yasagan shu qiz emasmidi? Modomiki, muhabbat Martinga ilm-fandan ham, san'atdan ham yuksak bo'lib tuyulgan ekan, buning hech ajablanadigan yeri yo'q. Martin tafakkur bobida o'zining Rufdan, uning akalaridan va otasidan kuchliroq ekanini endi ang'lay boshladi. Ruf universitetda tahsil olgan, san'atshunos degan

nomga sazovor bo'lgan bo'lsa ham, shu afzalliklariga qaramay, bundan bir yil burun hech nimadan xabari bo'lmagan va mustaqil o'qish bilan Martinchalik dunyoni, san'atni, hayotni anglashni orzu ham qila olmas edi. Martin bularning hammasini tushunardi, lekin bu narsa na uning Rufga bo'lgan muhabbatiga, na Rufning unga bo'lgan muhabbatiga xalal berardi. Muhabbat g'oyat go'zal, g'oyat oliyjanob tuyg'u edikim, chinakam oshiq bo'lgan Martin bu tuyg'uni tahqirlash mumkin emas deb hisoblardi. Rufning san'at haqida, Fransiya inqilobi haqida yoki umumiy saylov huquqi haqida qanday fikr yuritishiga muhabbatning nima daxli bor? Bularning hammasi aql-idrok olamiga taalluqlidir, muhabbat esa aqldan yuksak turadi. Martin muhabbat tuyg'usini yerga urolmasdi, chunki unga o'zi sajda qilardi. Muhabbat aql-idrok vodiysi ustidagi juda yuksak cho'qqida maskan qurgan edi. U hayotning javhari, hayotning eng oliy shakli bo'lib, har kimga ham nasib bo'lavermasdi. Martinning sevimli mualliflarining falsafasi unga muhabbatning biologik ahamiyatini ochib berdi; lekin Martin ularning asosiy qoidalarini o'zicha rivojlantirishda davom etib, inson organizmi aynan muhabbat tufayli o'z burchini mukammal oqlaydi, shunga ko'ra, muhabbat hayotning eng yuksak ne'mati sifatida hech qanday shartsiz qabul etilmog'i lozim, degan xulosaga keldi. Martinning tasavvurida oshiq yigit huzur-halovatli hayotga yo'llanma olgan shaxs bo'lib ko'rinar, shuning uchun ham unga bu olam ne'matlari – boylik, ilm, muvaffaqiyat, hattoki hayotning o'zini ham

zarracha qadrlamaydigan «oshiqi shaydo» bo'lgan yigit obrazi yoqardi, negaki u yigit «bo'sa ola turib jon berish»ga tayyor edi.

Bunday fikrlar Martinning esiga ilgari ham kelib turardi, ammo ko'pchiligini keyinchalik o'ylab topdi. Hozirchalik esa, qanoat bilan hayot kechirib, tinmay ishlar va faqat Ruf bilan uchrashish maqsadidagina mashg'ulotni to'xtatishni o'ziga ep ko'rardi. U Mariya Silva ismli portugaliyalik ayolga kvartira haqi uchun oyiga ikki yarim dollar to'lardi. Xiyla shallaqi tabiat bu portugaliyalik ayol beva edi, shuning uchun bir gala bolacha-qasini boqaman deb, tinim bilmay ishlar, ahyon-ahyonda qo'shni qovoqxonadan o'n besh syentga sotib olgan bir shisha nordon vino bilan dard-alamini unutmochi bo'lardi. Martin avvaliga bu xotinni yomon ko'rib qoldi, ayniqsa, uning achchiq tili g'ashiga tegardi, lekin keyinroq, bu ayolning bir amallab kun ko'rish uchun qanchalik sabr-toqat bilan ne-ne mashaqqatlarini boshidan kechirayotganini ko'rib qoyil qoldi. Uning uyida hammasi bo'lib to'rtta kichik-kichik xona bor edi, shulardan birini Martin egalladi. Ikkinchi xona mehmonxona vazifasini o'tardi, yerga yozilgan olachipor poyandoz bu xonaga fayz kiritib turardi, lekin bekaning o'lgan bolalaridan birining tobutda yotgan surati xonaga ma'yus tus berardi. Mehmonxona faqat mehmonlar uchun saqlanar, uning eshigi doim berk bo'lar, o'zining yalangoyoq bolalari esa u yerga tantanali kunlardagina kiritilardi. Mariya ovqatni oshxonada pishirar, butun oila shu yerning o'zida ovqatlanar, shu yerning o'zida Mariya kir yuvar,

dazmollar, yakshanba kunidan boshqa har kuni tinim bilmay ishlardi. U qo'shnilarning kirini yuvar, asosiy daromad manbai shu edi. Yotoqxona Martinning xonasiga o'xshash mo'jazgina bo'lib, u yorda Mariyaning o'zi hamda yettita bolasi istiqomat qilishardi. Ularning hammasini qanday qilib joylashishini Martin aslo tasavvur qila olmas edi, kechqurunlari u parda devor ortidan bolalarning gurpanglashganini, chumchuqlarning chirillashini eslatuvchi qiy-chuvlarini eshitardi. Mariyaning ikkita sigiri bo'lib, bular ham uning daromad manbai edi; Mariya ularni har kuni ertalab va kechqurun sog'ar, sigirlar maydonda o'tlab yurishar yoki yo'l yoqasidagi o'tlarni o'g'rincha chimdilardi. Uy bekasining ikkita juldurvoqi o'g'li sigirlarni boqar, boshqacha qilib aytganda, polismenlar ko'rib qolmasin uchun ziyraklik bilan atrofga olazarak bo'lib turishardi.

Martin o'zining shu tor hujrasida uxlar, o'qir, yozar, o'ylar, ro'zg'ori bilan shug'ullanardi. Ko'cha tomonga qaragan bitta deraza oldida ovqat stoli bo'lib, u ayni vaqtda ham yozuv stoli, ham kutubxona, ham mashinka qo'yiladigan kursi vazifasini o'tardi. Orqa devorga tirab qo'yilgan karavot xonaning uchdan ikki qismini egalardi. Stol yonida kiyim-bosh qo'yish uchun javon bor edi; ko'rinishidan, bu shkafni yasagan usta uning xaridor uchun qulayligidan ko'ra ko'proq oladigan daromadini o'ylaganga o'xshardi; uning ustidan qoqilgan yumshoq faner tob tashlagan edi. Bu shkafcha hujraning bir burchagida turardi, boshqa burchakda esa o'choqboshi, ya'ni, sovundan bo'shagan quti, quti ustida kerosin-

ka, quti ichida esa tovoq-qoshiq, oshxona anjomlari, quti tepasida oziq-ovqat uchun tokcha, quti yonida suv solingan chelak turardi; xonada suv krani yo'q edi, suv olgani oshxonaga chiqish kerak edi. Ko'proq ovqat pishirilgan kunlari issiq bug' xonani to'ldirar, shunda hammadan ham shkafchani sirti ko'proq shikast ko'rardi. Martin velosipedini karavoti tepasiga osib qo'ydi. Dastlabki paytlarda uni pastda qoldirib yurdi, lekin Silvaning bolalari uning tepkilarini burab olib, shinalarini teshaverishdi. Shundan keyin u velosipedni eshik oldidagi bostirmaga qo'ymoqchi bo'ldi, lekin bostirma juda kichkina bo'lib, vilosipedni yomg'irdan saqlay olmasdi, shuning uchun Martin, nihoyat velosipedni uyiga olib kirib, shipga osib qo'ydi.

Devorga o'rnashgan torgina shkafda Martinning kiyim-boshlari osilib turar, stolda va stol ostida sig'may qolgan kitoblar yotardi. Martin mutolaa vaqtida yangi so'zlarni qayd qilishni odat qilgan edi, hozir qayd daftarlari shu qadar ko'payib ketgan ediki, uyining u boshidan bu boshiga arqon tortib, ularni xuddi quritish uchun dorga ilingan kirday tizib, ilib qo'yishga to'g'ri keldi. Natijada uy ichida yurish juda mushkullashdi. U devorga o'rnashgan shkaf eshigini yopmasdan turib xona eshigini ocha olmasdi va aksincha. Xona ichida to'g'ri yurib bo'lmasdi. Ostonadan karavot boshiga yetib borguncha, juda murakkab ilon izi yo'lni bosib o'tish kerak edi, shuning uchun ham Martin qorong'ida albatta bitta-yarimta narsaga qoqilib ketardi. Xonaga kiradigan eshik bilan shkaf eshikchasi ochib yo-

pilgandan keyin, o'choq boshi vazifasini o'tovchi qutiga qoqilib ketmaslik uchun shartta o'ng to-monga burilish, keyin karavot yonidan chapga burilish kerak edi; lekin xiyolgina bo'lsin mo'ljal-dan adashilsa, stolga borib urilish turgan gap edi. Shu tarzda mohirlik bilan olg'a yurib, kanal-ga kirish mumkin edikim, uning bir qirg'og'i stol bo'lsa, karavot ikkinchi qirg'oq vazifasini o'tar edi. Lekin bordi-yu, xonadagi yagona kursi o'z o'rnida turgan bo'lsa, kanal to'silardi-qolar-di. Shuning uchun kursi ishlatilmagan paytda karavot ustiga olib qo'yilardi, shuni ham aytib o'tish kerakki, Martin ko'pincha ovqatni o'tirib pishirardi, chunki to suv qaynab chiqquncha yo go'sht qovurilib bo'lguncha, ikki-uch sahifa o'qib qo'yardi. O'choqboshi band qilgan burchak shu qadar tor ediki, Martin o'tirgan o'rnida qo'l cho'zib, o'ziga kerakli narsani olaverardi. O'tirib ovqat qilish hatto qulay ham edi: tik turganida yorug'ni to'sardi.

Martin ayni vaqtda ham to'q tutadigan, ham arzon taomlarni pishirishni bilardi, bundan tashqari, uning sog'lom oshqozoni duch kel-gan hamma narsani hazm qilib yuborardi. U iste'mol qiladigan asosiy taomlar no'xat sho'rva, kartoshka va meksikacha usulda pishiriladigan yirik-yirik jigar rang loviya edi. Martin, kuniga bo'lmaganda bir marta shunday yctalik bilan guruch taom pishirardiki, bunday pazandalik bironta ham amerikalik uy bekasining qo'lidan kelmasdi. Martin sariyog' o'rniga non bilan meva qoqisini yerd, qoqi ho'l mevaga nisbatan ikki marta arzon turardi. Ahyon-ahyonda bir bo'lak

go'sht yoki suyak sho'ruva pishirib, taomning xilini ko'paytirardi. Kuniga ikki marta qaymoqsiz yoki sutsiz qahva ichar, kechqurun esa choy ichardi; lekin qahva ham, choy ham nihoyatda ustalik bilan damlanardi.

Martin chor-nochor pulni rasamadi bilan sarflashga majbur edi. Kirxonada ishlab topgan pullarining deyarli hammasini ta'til vaqtida xarjlab bo'ldi, o'zining «jo'n» asarlarini esa juda uzoqlarga jo'natgan, shuning uchun yana bir necha haftadan keyingina ulardan javob kelishi mumkin edi. U tarki dunyo qilgan odamday yashar, faqat opasini borib ko'rgani yoki Ruf bilan uchrashgani xilvatxonasini tark etardi. U uch kishining ishini qilardi. Hamon bir vaqtlardagidek faqat besh soat uxlar va faqat o'tdek sog'lomligi tufayli har kuni o'n to'qqiz soat surunkasiga og'ir mehnatga bardosh berardi. Martin bir daqiqani ham bekor o'tkazmasdi. U ko'zgu romi orqasiga ba'zi so'zlarning izohlari yozilgan va talaffuz etish belgilari ko'rsatilgan qog'ozlarni qistirib qo'yardi: u soqolini olayotganda yoki sochini tarayotganda shu so'zlarni takrorlardi. Xuddi shunday qog'ozlar kerosinka tepasiga ham osib qo'yilgan edi; u ovqat pishirayotganda yoki idish-tovoq yuvayotganda o'sha so'zlarni yod olardi. Bunday qog'ozlar doimo o'zgarib turardi. Kitob mutolaa-si paytida notanish so'zni uchratib qolsa, darhol lug'atni titib, u so'zning ma'nosini qog'ozga ko'chirar va devorga osib qo'yardi yoki ko'zgu romining orqasiga qistirib qo'yardi. Martin bunday so'zlar yozilgan qog'ozlarni cho'ntagiga ham solib yurar va ko'chada ketayotganda yoki

doʻkonda navbat kutib turgan paytida ularga qarab-qarab qoʻyardi.

Martin bu usulini faqat soʻz oʻrganishgagina tatbiq etmasdi. U nom qozongan mualliflarning kitoblarini oʻqirkan, uslubining xususiyatlari, syujet tuzilishini, muallifning oʻziga xos iboralari, oʻxshatishlari, askiyalarini, xullas, muvaffaqiyat qozonish uchun imkon beruvchi hamma xususiyatlarini qayd qilib borardi. Shularning hammasini koʻchirib olib, mukammal oʻrganardi. U taqlid qilishga urinmasdi. Faqat qandaydir umumiy tamoyillarni izlardi. U koʻpchilik yozuvchilarning asarlarida uchragan adabiy usullarning uzundan-uzoq roʻyxatini tuzardi; bu narsa adabiy usulning mohiyati haqida umumiy xulosa chiqarishiga yordam berardi, soʻng shu xulosalarga tayangan holda oʻzining xususiy, yangi, betakror usulini oʻylab chiqarar va ularni meʼyori bilan bir oʻlchovda tatbiq etishga urinardi. U jonli tildagi chiroyli iboralarni – xuddi oʻtdek kuydiruvchi yoki aksincha, quloqqa xush yoquvchi mayin soʻzlarni, odamlarning bemaʼni valdirashlaridan ajralib koʻzga tashlanib turadigan ohanrabodek soʻzlarni yozib, shu yoʻsinda toʻplab yurardi. Martin hamma vaqt va har yerda hodisalarning negizida yotuvchi tamoyillarni izlardi. U hodisalarning qanday vujudga kelishini bilishga harakat qilar va ayni vaqtda oʻzi ham yaratish imkoniga erishishni orzu qilardi. Goʻzallikning ajib jamolini tomosha qilish unga kifoya emas edi; u oshxona isi oʻtirib qolgan va uy bekasi bolalarining qiy-chuvi eshitilib turgan torgina hujrasida goʻyo oʻz tajribaxonasida

o'tirgan kimyogar singari go'zallikni tarkiblar-ga bo'lib, uning qanday tuzilishini o'rganishga harakat qilardi. Bu narsa uning go'zallikni kashf etishiga yordam berishi kerak edi.

Martin faqat aql-idrok bilan ishlashi mumkin edi. Uning odati shunaqa edi; o'z qalami ostidan nima chiqishini bilmay, faqat tasodifga va o'z qobiliyati kuchiga tayanib, ko'r-ko'rona ishlay olmasdi. Tasodifiy muvaffaqiyatlar uni qanoatlantirmasdi. U har bir hodisaning «qanday» va «nima uchun»ligini o'zi bilishni istardi. Uning ijodi puxta o'ylangan ijod edi, shuning uchun Martin hikoya yo she'r yozishga kirishishdan oldin, butun asarning rejasini miyasida puxta o'ylab olar, o'z maqsadini ham, o'z maqsadiga erishish uchun ixtiyorida bo'lgan badiiy vositalarni ham aniq tasavvur etardi. Shu bo'lmasa, urinishlari zoye ketishini bilardi. Ikkinchi yoqdan, miyasida to'satdan paydo bo'lgan va keyinchalik asarga xalal berish u yoqda tursin, hattoki uning go'zalligini oshiradigan, takomillashtiradigan, sinovdan sharaf bilan o'tgan tasodifiy so'zlar va jumalarni qadrlar edi. Martin uchun bunday so'zlar ongli ijodiy urinish natijasigina emas, balki undan ham ulug'roq narsa edikim, shuning uchun ularni ehtirom bilan tilga olardi. Lekin go'zallikni tadqiq etish bilan shug'ullanib, uning qonunlarini bilishga urinarkan, bu go'zallik tarkibida allaqanday mubham bir go'sha borligini va u yerga kirishga o'zining qodir emasligini va hali biron-ta ham odamzot u yerga kira olmaganini e'tirof etardi. U Spenser asarlarini o'qib, shu narsani mustahkam o'zlashtirib oldi: inson narsalarning

eng so'nggi mohiyatini anglashga qodir emas, go'zallik siri misoli hayot siri yanglig' hech qanday aqlga sig'maydigan murakkab, hattoki undan ham murakkabroq muammodir; go'zallik va hayot bir-biri bilan chambarchas bog'langan, insonning o'zi esa shu yulduzlar to'zoni, quyosh nuri va yana allaqanday noma'lum narsalarning bir zarrachasidir.

Shu mulohazalar ta'siri ostida Martin bir kun «Yulduzlar to'zoni» nomli maqola yozdi; bu maqolasida u tanqidga emas, tanqidchilarga hujum qilgan edi. By nafis, ma'noli va hajv bilan sug'orilgan chuqur, ajoyib asar edi. Biroq shu maqolani ham jurnallar rad etdi. Martin esa yuragini hayajonga solgan fikrlardan xalos bo'lib, o'z yo'lida davom etdi. U ko'pdan beri miyasida paydo bo'lgan har bir fikrni avval yaxshilab pishitishni, yaxshilab o'ylab olishni va shundan keyingina qog'ozga ko'chirishni odat qilgan edi. Shu paytgacha bir satr ham asari bosilib chiqmaganidan hech xafa emasdi. Asar yozish uning uchun murakkab aqliy jarayonning so'nggi bosqichi, yig'ilgan dalil va holatlarni umumlashtiruvchi, alohida-alohida, tarqoq fikrlarni bog'lovchi so'nggi tugun edi. U bir maqolani yozib bo'lib, miyasida yangi g'oya va masalalar uchun joy bo'shatardi. Xullas, bu ko'pchilik odamlarga xos bo'lgan, vaqti-vaqti bilan «gapirib yo yozib xumordan chiqish» odatiga o'xshagan bir hol ediki, bu odat ba'zan haqiqiy yoxud soxta iztiroblarga bardosh berishga yoki ularni unutishga yordam beradi.

YIGIRMA TO'RTINCHI BOB

Oradan haftalar o'tdi. Martinning puli tugab qolayozgan bo'lsa ham, nashriyot cheklaridan hamon darak yo'q edi. Jiddiy hikoyalar muqarrar qaytib kelardi, «jo'n» asarlarning taqdiri ham bundan durust emasdi. Endi uning kichkinagina oshxonasida turli taomlar pishirilmay qoldi, chunki uning bor-yo'g'i yarim xalta guruchi bilan ozgina turshagi qolgan edi. Bir necha kun shular bilan kun kechirdi. Keyin nasiyaga mol olib kun ko'rmoqchi bo'ldi. Martinning qarzi yiriklashib, uch dollaru sakson besh syentga etganda, portugaliyalik baqqol unga nasiyaga mol berishni to'xtatdi.

– Negaki, – dedi baqqol, – sizniki ish yo'q. Qanday to'laydi siz haq?

Martin e'tiroz bildirishga ojiz edi. Baqqolning mulohazasida jon bor edi. Faqat yalqovligidan ish qidirishni istamayotgan navqiron, soppa-sog' ishchiga qanday qilib nasiyaga mol bersin.

– Pul topasan – ovqat olasan, – derdi baqqol. – Aqcha yo'q – ovqat yo'q. Shunaqa...

So'ng portugaliyalik Martinga nisbatan hech qanday shaxsiy g'arazi yo'qligini isbotlash uchun ilova qildi:

– Kel, ich, bitta stakan. Maniki mehmon qiladi. Sen do'st, men do'st.

Martin ham do'st ekanligini tasdiqlash uchun bir stakan vinoni ichdi-yu, ovqat yemasdan yotib uxladi.

Martin sabzavotni boshqa do'kondan olardi, savdo ishida uncha qattiqqo'l bo'lmagan ameri-

kalik baqqol Martinning qarzini besh dollargacha olib chiqdi. Shundan keyin nasiyaga mol berishni to'xtatdi. Novvoy ikki dollarga yetganda, qassob esa to'rt dollarga yetganda nasiyaga mol berishni to'xtatishdi. Martin hamma qarzlarini jamlagan edi, ularning umumiy miqdori o'n to'rt dollaru sakson besh pens bo'ldi. Yozuv mashinkasining haqini to'laydigan vaqt ham yetib keldi, lekin Martin undan qarzga yana ikki oy foydalanishga qaror qildi, shunda u yana sakkiz dollar qarz bo'larkan. Bu muhlat ham o'tgandan keyin nasiyaga mol olishning hech imkoni qolmaydi.

Sabzavot do'konidan u oxirgi marta bir xalta kartoshka olgan edi, shuning uchun Martin bir hafta muttasil kuniga uch martadan faqat kartoshka pishirib yedi. Vaqt-vaqti bilan u Morzlarnikida ovqatlanar va shu bilan bir oz kuch yig'ib olardi, holbuki, u stolga terib qo'yilgan turli-tuman taomlardan bir bo'lak ham ortiqcha emasdan odob saqlab, o'zini Tantal¹⁷ azobiga solardi. Ba'zida Martin uyatni yig'ishtirib qo'yib, opasinikiga ovqat paytida borardi-da, andisha doirasidan chiqmay – har holda, Morzlarnikidagidan ko'proq ovqat yerd.

U hamon o'sha tarzda kun-uzzukun jonini jabborga berib ishlar, pochta ham kun sayin rad etilgan qo'lyozmalarni hech kanda qilmay olib kelib turardi. Marka olishga pul yo'q edi, shuning uchun qaytib kelgan qo'lyozmalar stol

¹⁷ Tantal – qadimgi yunon afsonasining qahramonlaridan. U xudolar tomonidan muttasil ochlik va tashnalik azobiga mahkum etilgan edi. Holbuki, uning tevarak-atrofi turli noz-ne'matlar bilan to'la bo'lgan.

tagida uyulib yotardi. Bir vaqt u deyarli ikki sutkagacha tuz totmadi. U Morzlarnikida ovqatlanishni orzu qila olmasdi, chunki Ruf ikki haftaga San-Rafaelga mehmondorchilikka ketgan edi, opasinikiga borishga uyalardi. Xuddi shu kunlarda, o'lganning ustiga tepganday, pochtachi birvarakayiga beshta qo'lyozmasini qaytarib olib keldi. Shundan keyin Martin paltosini olib, Oklendga jo'nadi-yu, bir ozdan keyin uyga paltosiz, ammo cho'ntagida besh dollar pul bilan qaytib keldi. U har qaysi baqqolga bir dollardan qarzinini to'lagan edi, yana oshxonasida piyoz dog' qilib qovurilayotgan go'shtning jiz-bizi eshitildi, qahva qaynadi va kattakon xurma to'la pishirilgan olxo'ri paydo bo'ldi. Martin ovqatlanib olib, stolga o'tirdi-yu, shu kuniyoq yarim kechada «Sudxo'rlik qudrati» degan maqolasini yozib tugatdi. Yozib bo'lib, uni stol ostiga uloqtirdi, chunki besh dollar puldan hech vaqo qolmagan edi: marka olishga pul yo'q edi.

Bir necha kundan so'ng Martin soatini, undan keyin velosipedini garovga qo'ydi; ovqatdan iqtisod qilish hisobiga markalar sotib oldi va yana hamma qo'lyozmalarni har tomonga yubordi. «Daromadli» asarlar Martinning umidlarini puchga chiqardi. Ularni hech kim sotib olmas edi. U o'z asarlarini gazeta va arzon baholi haftalik jurnallarda bosilib chiqayotgan asarlar bilan taqqoslarkan, hamon ilgarigidek, o'zining ulardan ming karra yaxshi yozishiga ishonchi komil edi. Biroq, shunga qaramay, yozgan asarining bir satrini ham sota olmadi. Martin aksariyat gaze-talar tayyor materiallarni maxsus agentliklar-

dan, ya'ni, «sindikatlardan olishini bilib qolib, bir necha maqolasini ulardan biriga yubordi, lekin tez kunda qo'lyozmalari u yerdan ham qaytib keldi, qo'lyozmalarga, sindikat o'z shtatidagi xodimlarning kuchi bilan material uyushtiradi, deb yozilgan bosma blanka ilova qilingan edi.

Martin yoshlar uchun chiqariladigan jurnallardan birida «aralash» deb ataluvchi bir necha ustun latifa va shingil hikoyachalarni o'qib qoldi. Mana, pul topishning yana bir usuli! Lekin Martinning bunda ham hech omadi yurishmadi: yuborgan asarlarining hammasi har galgidek yana o'ziga qaytib keldi. Keyinchalik bilsa, tahririyat xodimlari qo'shimcha daromad ishlash maqsadida bunday mayda-chuyda asarlarni, odatda, o'zlari yozarkan, vaholanki, endi bu narsalarning unga hech ahamiyati qolmagan edi. Har haftada chiqadigan yumoristik gazetalar uning hamma laparu she'rlarini qaytarib yubordi; Martinning yirik jurnallarga yuborgan she'riy feletonlari ham bosilmadi. Endi gazeta feletoni qolgan edi. Martin gazetalarda bosilayotgan feletonlardan yuz karra yaxshiroq feleton yozardi – buni juda yaxshi tushunardi, shunga ko'ra adabiyot agentliklaridan ikkitasining manzilini bilib olib, ularni ocherk va kichik hikoyalar bilan ko'mib tashladi. Biroq yozgan yigirmata asaridan birontasini ham bostira olmagach, Martin yozishdan voz kechdi. Holbuki, u har kuni o'nlab hikoya va feletonlar o'qirdiki, ular Martinning bu sohada yaratgan asarlari bilan tenglashishga ojizlik qilardi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Martin, nihoyat, o'z asarlaringa mahliyo bo'lib ijodimga tanqidiy ko'z

bilan qarashdan va u to'g'rida sog'lom fikr yuritish qobiliyatidan mahrum bo'libman, degan qarorga keldi.

Berahm nashriyotlar avtomati hamon o'z ishini davom ettirardi. Martin paketga qo'lyozma bilan birga javob xati uchun marka solib, so'ng uni pochta qutisiga tashlardi, uch-to'rt haftadan keyin esa pochtachi eshigini taqillatib, qo'lyozmasini qaytarib berardi. Aftidan, mazkur manzillarda bironta ham tirik jon bo'lmay, faqat yaxshi sozlangan, moylangan avtomatlar bo'lsa kerak. Umidlari puchga chiqqan Martin, umuman muharrirlar borligiga ham shubha qila boshladi. Hali shu choqqacha bironta ham muharrirning joni borligi sezilmadi; Martin yozgan asarlarning o'zi muttasil hech qanday izohsiz rad etilib keldi, bu esa, muharrir – harf teruvchilar, metranpajlar¹⁸ va tahririyat dastyorlari tomonidan to'qilgan afsona, shular tarqatib yurgan bir afsona, degan fikrni go'yo tasdiqlayotganday bo'lardi.

Martinning hayotidagi birdan-bir baxtiyor damlar uning Ruf bilan o'tkazgan damlari edi, holbuki, bunday baxt hamisha nasib bo'lmas edi. Qalbini doimo betinch qilgan hayajon, Ruf o'z sevgisini oshkor qilgandan keyin uni yana ham ko'proq azobga sola boshladi, chunki Rufning o'zi hamon ilgarigiday yetishib bo'lmaydigan yuksaklikda edi. Martin undan ikki yil kutib turishni iltimos qilgan edi, lekin vaqt o'tib borardi-yu, Martin hali ham hech nimaga muyassar bo'la olgani yo'q edi. Bundan tashqari, Ruf Martinning mashg'ulotini ma'qul ko'rmasdi, buni

¹⁸ Bosmaxonada terilgan matnlarni sahifalarga bo'luvchi.

yigit doim his qilib turardi. Rost, Ruf bu to'g'rida uning yuziga shartta aytmasa ham, har holda, unga shama qilib turardi. Ruf xafa bo'lmas, lekin ma'qullamasdi ham; holbuki, unchalik yuvosh tabiat bo'lmagan boshqa ayol uni ranjitaverishganidan albatta achchiqlangan bo'lardi. Ruf o'zi qayta tarbiyalamoqchi bo'lgan odam qayta tarbiyalanmayotganidan achchiqlanardi, xolos. Dastlabki paytlarda birmuncha itoatkor bo'lib tuyulgan Martin keyinroq birdan oyog'ini tirab turib oldi-yu, mister Morzga ham, mister Betlerga ham o'xshashni istamadi.

Ruf Martinning diqqatga loyiq, muhim tomonlarini payqamas yoki tushunmasdi, bu undan ham yomon edi. Inson hayotida mavjud bo'lgan hap qanday shaklga ham moslana oladigan halimday yumshoq bu odamni Ruf o'jar va qaysar deb hisoblardi, chunki u Martinni o'zi bilgan birdan-bir qolipga solishga ojiz edi. Ruf uning fikrlari parvozini kuzatishga qodir emas edi va Martin Rufning qurbi yetmaydigan cho'qqilarga chiqqanida, qiz uni shunchaki adashyapti deb hisoblardi. Qiz otasining, onasining, akalarining va hatto Olnining mulohazalariga ham tushunardi-yu, Martinga tushunmas edi va buning uchun aybni Martinning o'ziga to'nkardi. Haqiqatni jahonga taratishga uringan so'qqabosh kishining azaliy fojiasi tayyorlanayotgan edi.

Bir kuni Martin Ruf bilan Praps va Vanderuoter haqida bahslashib qoldi.

– Siz e'tibor qozongan har bir kimsa oldida ta'zim qilishga odatlanib qolgansiz, – dedi Martin. – Ularning e'tiborli va ulkan nufuzli odam-

lar ekanligiga qo'shilaman, ularni Qo'shma Shtatlarning adabiyot tanqidchilari deb atashadi. Har bir maktab muallifi Vanderuoterni Amerika munaqqidlarining dohiysi deb tan oladi. Lekin men uning asarlarini o'qib ko'rgan edim, mohir mahmadonalikning eng oddiy namunasi bo'lib tuyuldi menga. Tumtaroq jumlar bilan niqoblangan yuzaki mulohazalardan boshqa hech vaqo yo'q. Praps ham undan qolishmaydi. Chunonchi, uning «O'rmon baxmal o'tlari» maqolasi g'oyat chiroyli yozilgan. Birona ham vergulini olib tashlab bo'lmaydi, umumiy ohangiga kelsak, bay-bay, naqadar dabdabali! Qo'shma Shtatlarda eng katta haq oladigan tanqidchi shu bo'ladi. Lekin, qo'polligimni xudoning o'zi kechirsin, ochig'ini aytganda, u aslo tanqidchi emas. Angliyada tanqid san'ati ancha yuksak saviyada turadi. Gap shundaki, bu singari tanqidchilar hamma vaqt barchaga ma'lum haqiqatni takrorlaydilar; bu haqiqat ularning yozuvlarida ham dabdabali, ham yuksak axloqiy tus kasb etadi. Ular og'izdan og'izga o'tib yuruvchi mulohazalar jarchisi, xolos. Ularning tanqidiy maqolalari yakshanbalik xutbani eslatadi. Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, ingliz filologlarini qo'llab-quvvatlaydilar, filologlar esa, o'z navbatida, bu tanqidchilarni qo'llaydilar. Na ularning, na bularning bosh chanog'i ostida birona mustaqil g'oyaning maskan qurganini ko'ra olasiz. Ular faqat barcha e'tirof etgan narsalarnigina biladilar – ochig'ini aytganda – ularning o'zini hamma e'tirof etgan. Barcha tasdiqlangan g'oyalar ularga xuddi pivo shishasiga yopishtirilgan yorliq singari chippa

yopishadi. So'ng, ularning eng asosiy vazifasi, universitet yoshlari miyasidagi jamiki betakror fikrlarni sitib chiqarish va muayyan andazadan chiqmay fikr yuritishga majbur etishdan iborat.

– Menimcha, – deb e'tiroz bildirdi Ruf, – hamma e'tirof etgan narsaga amal qilganim tufayli, haqiqatga sizdan ko'ra yaqinroqqa o'xshayman, chunki siz muqaddas tasvirlarga hujum qilgan yovvoyi odamdek, baobro' odamlarga tashlanyapsiz.

– Muqaddas tasvirlarni yovvoyilar emas, missionerlar oyoqosti qiladilar, – deb kuldi Martin, – lekin, afsuski, barcha missionerlar majusiy-lar mamlakatlariga tarqalib ketganlar, oqibat, mister Vanderuoter bilan mister Prapsni ag'darishga yordam beradigan bironta ham missioner qolmagan.

– Ular bilan birga hamma universitetlarning professorlarini ham, – deb ilova qildi qiz.

Martin qat'iy bosh chayqadi.

– Yo'q. Tabiiyot fanlari muallimlari qolsin. Ular chindan ham katta ish qilyaptilar. Lekin miyalari zig'ircha kelmaydigan to'tiqushnamo ingliz filologiyasi muallimlaridan o'ndan to'qqizini haydab yuborilsa ham zarar qilmasdi.

Martinning filologlarga nisbatan bu qadar yomon ko'z bilan qarashi Rufga shakkoklikday tuyuldi. U salmoqli ovoz bilan gapiruvchi nozik madaniyat ahli bo'lmish basavlat va olifta kiyingan universitet muallimlarini o'zi negadir sevib qolgan, shu beo'xshov kostyum kiygan, qora ishchiga xos po'lat muskulli, vazmin tabiat, kechagi matros bilan hech bir narsa to'g'risida xotirjam

gaplasha olmaydigan, o'z fikrini odob bilan bayon qilish o'rniga qizishib ketadigan, sabot ko'rsatish kerak bo'lgan yerda baqirib yuboradigan odam bilan beixtiyor taqqoslab ko'rdi. Muallimlar hap holda durustgina maosh olishardi hamda ular – buni e'tirof etmay bo'lmaydi – chinakam jentlmen edilar, holbuki, Martin bir pens ham ishlab topa olmas, jentlmenga ham uncha o'xshamasdi.

Ruf Martinning dalillarini chuqurroq tahlil qilishni hatto lozim ham topmadi. Vaziyat uning dalillari xatoligidan dalolat berib turardi. Muallimlar adabiyot haqida, shubhasiz, to'g'ri mulohaza yuritardilar, chunki ular hayotda muvaffaqiyat qozongan odamlar edilar, bironta ham asarini sota olmagan uchun ham Martin yanglishardi. Martinning ta'biri bilan aytganda, ularning «omadi» kelgan-u, Martinniki kelmayotgan edi. Shuning uchun ham, kechagina, xuddi shu xonaning o'rtasida uyalganidan cho'g'day qizarib, beso'naqaylik bilan bironta bezak buyumini tushirib yuborishdan qo'rqib atrofga alanglab turgan va «Svaynbern»ning o'lganiga ancha bo'ldimi, deb so'rab, «Tobora yuksakka» va «Hayot surasi»ni o'qiganman, deb tentaklarcha maqtangan yigit adabiyot haqida qanday qilib to'g'ri mulohaza yurita olsin.

Shunday qilib, Ruf hamma e'tirof etgan narsa oldida bosh egishini o'zi tasdiqladi. Martin uning fikrlarini juda yaxshi tushunsa ham, ularga ahamiyat bermasdi. U Rufning Prapsga, Vanderuoterga va ingliz filologiyasi muallimlariga nisbatan qanday munosabatda bo'lishidan qat'iy nazar uni sevardi, lekin Martin tafakkur

sohasida shunday yuksaklikka erishgan ediki, Ruf bunday yuksaklik borligini xayoliga ham keltirmagan edi.

Ruf esa, o'z navbatida, Martinni musiqa sohasida hech nima tushunmaydi deb o'ylardi, uning opera haqidagi mulohazalarini noto'g'ri debgina qolmay, atayin aytilgan teskari fikr deb bilardi.

Bir kuni ular operadan qaytayotganlarida Ruf:

– Sizga yoqdimi? – deb so'radi.

Shu kuni kechqurun Martin bir oy mobaynida o'zini ayovsiz ravishda siqib, ovqatni iqtisod qilish evaziga Rufni teatrga taklif qilgan edi. Spektakl qizga kuchli ta'sir etdi. Ruf Martinning spektakl haqida gap boshlashini uzoq kutgandan keyin, nihoyat, o'zi savol berishga jur'at etgan edi.

– Menga uvertyurasi judayam yoqdi, – deb javob qildi Martin, – g'oyat go'zal narsa.

– Xo'sh, operaning o'zi-chi?

– Opera ham yoqdi, ya'ni, demoqchimanki, orkestri yoqdi. Agar anavi masxarabozlar sahnada kamroq jilpanglashsa yoki butunlay chiqib ketishsa, undan ham yaxshi bo'lardi.

Ruf hang-mang bo'lib qoldi.

– Siz Tetralani bilan Bariloni aytyapsizmi? – deb so'radi qiz.

– Ha, o'shalarni ham, qolgan hamma artistlarni ham aytyapman.

– Ammo ular buyuk artistlar-ku!

– Baribir. Ular ahmoqona jilpanglashib musiqani buzishdi, xolos.

– Chindanam, Bariloning ovozi sizga yoqmadimi? – deb yubordi Ruf. – Axir u Karuzodan keyin ikkinchi xonanda hisoblanadi-ku!

– Yo‘q, nega endi, menga yoqadi, Tetralani yana ham ko‘proq yoqadi. Fikrim to‘g‘ri bo‘lsa, u ayolning nihoyatda nodir ovozi bor ekan.

– Axir... axir... – Ruf nima deyishini bilmay qoldi. – Unda men hech narsaga tushunolmayapman. Siz ularning ovozidan zavqlanyapsiz-u, ayni vaqtda musiqani buzishdi deysiz.

– Ha, balli. Men ularning ovozini konsertda eshitish uchun hech narsani ayamadim, ammo orkestr chalayotgan paytda eshitmaslik uchun undan ham ko‘proq berardim. Men bedavo realist bo‘lsam kerak. Buyuk xonandalar hamma vaqt ham buyuk artist bo‘lavermaydi. To‘g‘ri, Bariloning malohatli ovoz bilan ishqiy ariyani ijro etishi Tetralanining undan ham malohatli ovoz bilan unga jo‘r bo‘lishi va bularning hammasini rango-rang bo‘yoqlarga boy, ajib orkestr musiqasi fonida ijro etilishi g‘oyat soz, albatta. Shak-shubhasiz, g‘oyat zo‘r lazzat bag‘ishlaydi bu. Lekin men sahnaga qarab, vazminligi ikki yuz qadoq keladigan daroz xonim bilan uning yonida yuzi solqigan, ko‘krak qafasi temirchinkiga o‘xshagan, chorpaxildan kelgan, past bo‘yli kishini ko‘rgan zahotim va ularning sun‘iy qiyofada turib, xuddi jinnixonona ahli singari o‘z yuraklarini changallab, qo‘llarini siltashlarini ko‘rarkanman, yuqoridagi aytgan taassurotlarim bir zumda barbod bo‘ladi. Holbuki, men bu shahzoda bilan go‘zal malika o‘rtasida borayotgan muhabbat sahnasi ekanligiga ishonishim kerak. Yo‘q, men ishonmayman. Bu behuda, ahmoqona narsa. Bu tabiiy emas. Hamma gap shundaki, bu tabiiy emas. Nahotki, shu tarzda muhabbat

izhor qiluvchi odamlar ham bo'lsa? Agar men sizga shu tarzda muhabbat izhor qilsam, yuzimga tarsaki qo'yib yuborgan bo'lardingiz.

– Siz tushunmaysiz, – derdi Ruf achchig'ini chiqib, – har bir san'atning o'z chegarasi bo'ladi. (U yaqinda dorilfununda eshitgan san'atning shartli belgilari haqidagi leksiyaning eslatilishi.) Mana, tasviriy san'atni oling, u ikki o'lchovdan iborat. Biroq siz rasimga tikilasiz-u, undagi manzarani uch o'lchovda tasavvur qilasiz, holbuki, mazkur uchinchi o'lchovni rassom o'z iste'dod kuchi bilan yaratgandir. Adabiyot sohasida muallif hamma narsaga qodir va hamma narsadan xabardordir. Axir u qahramon ayolning pinhona o'ylarini tasvirlaganda, siz uni haqli deb topasiz-ku, shundaymi? Holbuki, o'sha qahramon ayol o'ylaganida, hech kim uning xayolidan o'tgan gapga quloq solmagan. Teatrda ham, haykaltaroshlikda ham, operada ham, umuman, hamma sohada ham ahvol shu. Ba'zi bir ziddiyatlarga ko'nikishga to'g'ri keladi.

– Ha, tushunaman, – deb javob qildi Martin, – hap qanday san'at ham shartli. (Martin o'z fikrini bunchalik to'g'ri ifoda etganini ko'rgan Ruf taajjubga tushib qoldi: go'yo bu odam kutubxonaga borib, nima qo'lga tushsa, farqiga bormay o'qiyvergan va o'zicha mustaqil savod chiqargan emas, balki dorilfununda tahsil olgan odamga o'xshardi.) Lekin mazkur shartlilik ham real bo'lishi kerak. Karton qog'ozga chizilgan va sahnaning chetlariga tikkaytirib qo'yilgan daraxtlarni biz o'rmon deb hisoblaymiz. Bu shartlilik, ammo yetarli darajada realdir. Lekin biz

dengiz tasvirini o'rmon deb tan olmaymiz-ku. Biz bunday qila olmaymiz. Shunday qilsak, o'z hislarimizni zo'rlagan bo'lardik. Shunga ko'ra ham, biz hozir shohidi bo'lgan ikkita telbaning jamiki bachkana qiliqlarini muhabbat tuyg'usi va kayfiyatining ifodasi deb hisoblay olmaymiz.

– Nahotki, siz musiqa sohasida ham o'zingizni mashhur tanqidchilardan ustun qo'ymoqchi bo'lsangiz, – dedi achchig'lanib Ruf.

– Yo'q, aslo. Men shaxsiy mulohazamni bayon etishga o'zimni haqli deb bilaman. Bularning hammasini sizga aytishimdan maqsad, Tetralani xonimning filniki kabi «nozik» harakatlari nima sababdan orkestrdan olgan taassurotimni poymol qilganini izohlab bermoqchiman. Balki musiqa tanqidchilari mutlaqo haqdirlar. Lekin mening o'z mulohazam bor va butun dunyodagi tanqidchilarning hammasi bir taraf bo'lganda ham, uni tanqidchilarning hukmiga bo'ysundirmayman. Qo'ymayman. Ko'nglimga yoqmagan narsani yoqmadi deyaveraman, nega axir, yoqmagan narsani menga yoqdi deb aytishim kerak ekan! Faqat uning aksariyat odamlarga yoqqani yoki yoqqanday ko'ringani uchunmi? Men o'z didimni modaga tobe qilishni istamayman.

– Lekin tayyorgarliksiz musiqani anglab bo'lmaydi, – deb e'tiroz bildirdi Ruf, – opera esa maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Balki...

– ...Men operani eshitish uchun unchalik tayyor emasdirman? – deb Martin Rufning gapini tugalladi...

Ruf tasdiq ma'nosida bosh irg'adi.

– Ehtimol, – deb rozi bo‘ldi Martin, – shunday bo‘lganidan hatto xursandman ham. Agarda meni bolaligimdan opera eshitishga o‘rgatishganida, ehtimolki, bugun haligi oshiq-ma’shuqlardan ta’sirlanib, iyib ketib ko‘z yoshi to‘kib o‘tirgan bo‘larmidim, artist xonimning qiliqlaridan qo‘shiq va musiqa yana ham jozibali bo‘lib tuyulgan bo‘larmidi. Lekin siz haqsiz. Bularning hammasi tarbiyaga bog‘liq, meni esa, endi tarbiyalab bo‘lmaydi, vaqt o‘tdi. Menga yo real narsa kerak yoki hech nimaning keragi yo‘q. Haqiqat asari bo‘lmagan xayoliy narsa menga ta’sir etmaydi, shuning uchun pak-pakana Barilo titrab-qaqshab daroz xonim Tetralanini bag‘riga bosganini va unga sevgi izhor etganini ko‘rganimda opera, nazarimda, boshdan-oyoq soxta bo‘lib tuyuladi.

Lekin zohiriy belgilarga qarab baho berishga, hammaga manzur bo‘lgan narsalarga sajda qilishga o‘rganib qolgan Ruf, Martinning fikrlariga shu nuqtai nazardan baho bera boshladi. Axir u kim bo‘libdiki, yolg‘iz o‘zini haqli hisoblab, jamiki madaniyat ahllarini omilikda ayblasin? Martinning aytgan gaplari Rufga zarracha ham ta’sir etmadi. Ruf umum e’tirof etgan hamma narsaga juda odatlanib qolgan-u, isyonkor fikrlarga mayli yo‘q edi; buning ustiga, bolalik chog‘idan musiqa bilan shug‘ullanar, o‘z tabaqasi kishilari singari bolalik chog‘idan operani sevardi. Kechagina regtaym¹⁹ va ko‘cha qo‘shiqlaridan boshqa hech nima eshitmagan bu Martin Idenning jahon musiqa xazimalari haqida fikr yuritishga qanday

¹⁹ Jazdan oldin yaratilgan amerika habashlarining raqs musiqasi.

haqqi bor? Bu hol Rufning izzat-nafsiga qattiq botgan edi, u Martin bilan yonma-yon ketib borarkan, ranjiganini elas-elas his eta boshladi. Juda bo'lmaganda, Martinning mulohazalarini bir injiqlik yoki bema'ni hazil deb topish mumkin edi. Lekin Martin Rufning uyi eshigi oldida u bilan xayrlasharkan, uni quchoqlab, mehr bilan o'pganida, yana muhabbat hissiga berilgan Ruf hamma narsani unutib yubordi. Keyin, Ruf to'shagida uxlolmay yotarkan, bunday g'alati odamni qanday sevib qolgani, oila a'zolarining noroziligiga qaramay qanday sevib yurgani haqida anchagacha o'ylab yotdi.

Ertasi kuni Martin Iden daromad uchun yozgan asarlarini bir chetga yig'ishtirib qo'yib, bir nafasda «Xom xayol falsafasi» nomli maqolani yozib tashladi. Ichiga qo'lyozma solinib, ustiga marka yopishtirilgan konvert «safarga chiqdi», lekin sho'rlik «Falsafa»ning peshanasiga juda ko'p marta marka o'zgartirish va juda ko'p marta uzoq safarlarga chiqish yozilgan edi.

YIGIRMA BESHINCHI BOB

Mariya Silva qashshoq edi, qashshoqlik nimeligini yaxshi bilardi. Ruf esa «qashshoqlik» so'zini ma'lum darajada yashashda bir o'ng'aysizlik deb tushunardi. U Martin Idenning qashshoq ekanligini bilar va xayolan uning hayotini yosh Avraam Linkolnning yoki mister Betlarning, umuman, hayotini muhtojlikdan boshlab, nihoyat, muvaffaqiyatga erishgan va ajoyib hayot kechira boshlagan jamiki odamlarning hayoti bilan taqqoslar-

di. Ruf qashshoqlikning ko'ngilsiz hodisa ekanligini e'tirof etarkan, ayni vaqtda burjuaziyaning, qashshoqlik – aql-idrokli va qobiliyatli odamlarni yuksak martabaga rag'batlantiradigan ajoyib vosita, deb tasalli beruvchi nazariyasiga ham qo'shildirdi. Shuning uchun Martinning soat va paltosini garovga qo'ygani eshitib, Ruf unchalik xafa ham bo'lmadi. Aksincha, endi yana ham tezroq esini yig'ib, adabiy mashg'ulotlarini tark etadi degan umidda xursand ham bo'ldi.

Ruf Martinning ozib, bir holatda bo'lib qolgan yuziga tikilganda ham, uning och qolgani xayoliga kelmasdi. U hatto Martindagi o'zgarishni, ruhlanishni, ilgarilari Rufni ham o'ziga rom qilib, ham hurkitadigan hayvoniy kuch-qudrat yo'qolganini ko'rib, quvondi ham. Ba'zida Ruf uning ko'zlarida allaqanday antiqa uchqunlar ko'rib zavqlanardi; bu uni shoirga yoki olimga, ya'ni, Martinni uning o'zi xohlagan kishiga o'xshatib yuborardikim, Ruf ham uni shu shoir yo olim sifatida ko'rishni istardi. Lekin Martinning cho'kkan yuzlari va chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan Mariya Silva bu holatni tamomila boshqacha tushunardi, shu alomatlarga qarab, o'z uyida turuvchi yigitning turmushidagi o'zgarishlarni kun sayin kuzatib borardi. Martin bir kuni uyidan palto kiyib chiqib ketib, kun sovuq va yomg'ir yog'ib turgan bo'lishiga qaramay, paltosiz qaytib kelganini ko'rgan edi. Shundan keyin Martinning yuzi bir necha vaqtgacha to'lishib, ko'zlaridagi ochlik uchqunlari so'ngandi. Shuningdek, Mariya soat bilan velosipedning ham g'oyib bo'lganini payqadi, bu hol

ham Martinga bir oz darmon boʻlgan edi. Bundan tashqari, Mariya Martinning qanchalik koʻp ishlashini bilardi, chunki bir kechada qancha kerosin sarflashi unga aniq maʼlum edi. Ish! Martinning oʻzidan kam ishlamasligini Mariya juda yaxshi tushunardi, vaholanki, uning ishi mutlaqo boshqacha edi. Martinning qancha och boʻlsa, shuncha gʻayrat bilan ishlaganini koʻrib, Mariya taajjub qilardi. Baʼzan u Martinning juda ham och ekanligini sezgan paytlarida bolalaridan birining qoʻliga yangi yopilgan non berib, Martinga kiritib yuborar, shunda ham u, bunaqa shirin non yopish sizning qoʻlingizdan kelmasa kerak, degan bahona bilan kiritib yuborardi. Baʼzida bir tovoqqina qaynoq shoʻrva kiritar, ammo ayni vaqtda, oʻz jigarpolarim – farzandlarimning ogʻzidan oshini tortib olishga haqqim bormikin deb iztirob chekardi. Martinning qalbi Mariyaga nisbatan minnatdorchilik hissi bilan limmo-lim toʻlard, chunki u kambagʻallarning mehribonligining qadriga yetadigan odam edi.

Bir kuni Mariya uyida qolgan oxirgi ozuqalarini pishirib, bir gala bolalarini toʻygʻizdi-da, oxirgi oʻn besh sent puliga bir gallon arzon vino olib keldi va oshxonaga suv olgani kirgan Martinga vinodan quyib berdi. Martin Mariyaning sogʻligʻi uchun, Mariya esa Martinning sogʻligʻi uchun ichishdi. Keyin Mariya uning ishiga rivoj tilab ichdi, Martin esa Jems Grant tezroq kelib, kir yuvish haqini toʻlasin deb ichdi. Jems Grant duradgor shogirdi boʻlib, yuvdirgan kirining haqini vaqtida toʻlamas, natijada Mariyadan uch dollar qarz boʻlib qolgan edi.

Martin ham, Mariya ham och qoringa ichishgan edi, shuning uchun yangi nordon vino ikkovining ham miyasiga urdi. Ular bir-birlariga hech o'xshamasalar ham, ikkovlari ham qashshoq, ikkovlari ham yolg'iz qo'l edi; shunday bo'lsa ham hech qachon qashshoqliklarini tilga olmasdilar, ana shu qashshoqliklarni ularni bir-biriga chambarchas bog'lab qo'ygan edi. Martinning Azor orollarida bo'lganini eshitib, Mariya sevinib ketdi, chunki Mariya o'n bir yoshigacha o'sha yerda yashagan edi. Ota-onasi keyin ko'chib o'tgan Gavayi orollarida ham Martinning bo'lganini bilib, boshi osmonga yetdi. Lekin Martin unga Mauiy orolida ham bo'lganini aytganda, o'sha orolda turmushga chiqqan Mariya sevinganidan terisiga sig'may ketdi. Mariya bo'lg'usi eri bilan ilk bor tanishgan Kagului orolida esa Martin ikki marta bo'lgan ekan. Ha, qand ortgan kemalarni Mariya uncha eslamas ekan! Ie, shu kemalarda suzganmidi u? Buni qarang-a, dunyo shunaqayam tor ekanmi? Vaylukuda-chi? Martin u yerda ham bo'lgan... Plantatsiyaning bosh nozirini tanirmidi? Bo'lmasam-chi, uning sog'lig'iga bir stakan vino ham ichgan.

Ular shu tarzda xotiralar olamiga g'arq bo'lib, och qoringa nordon vino ichib o'tirishdi. Shuni ham aytish kerakki, kelajak Martinga unchalik mudhish bo'lib tuyulmasdi. U bir kun emas, bir kun muvaffaqiyatga va shon-shuhratga erishadi. Hozirdanoq ularning nafasini his qilyapti. Yana ozgina urinsa, qo'li bilan tutib olishi mumkin. Shu payt u qarshisida o'tirgan ayolning so'lg'in

chehrasiga tikilib qaray boshladi. U kiritib yuborgan non bilan sho'rva esiga tushdi-da, qalbida minnatdorlik tuyg'usi uyg'onganini his qildi, unga yaxshilik qilmoqchi bo'ldi.

– Mariya, – deb qichqirib yubordi u birdan, – dilingizdagi eng katta orzuvingizni ayting.

Mariya hayron bo'lib unga tikilib qoldi.

– Masalan, hozirning o'zida ko'proq nimani xohlardingiz?

– Yetti juft botinka – bolalar uchun.

– Ularni olasiz, – deb yubordi Martin, Mariya esa g'urur bilan bosh silkib qo'ydi. – Xo'sh, yana undan muhimroq nima istaysiz?

Mariyaning ko'zlarida samimiy quvonch uchqunlari chaqnadi. Martin u bilan, ya'ni, ko'p zamonlardan beri hech kim hazillashmagan Mariya bilan hazillashayotgan edi.

Mariya gapirgani og'iz juftlagan edi, Martin:

– Shoshmasdan o'ylab ko'ring, – dedi ogohlantirmoqchi bo'lganday.

– Yakshi, – dedi Mariya, – maniki o'yladi. Man uy kerak, maniki uy, bepul yashayman. Oyda yetti dollar to'lamaydi maniki.

– Uyingiz ham bo'ladi, – deb va'da qildi Martin, – yaqin kunlarda. Xo'sh, yuragingizdagi eng katta orzuvingiz nima? Siz meni hamma narsaga qodir xudo deb faraz qiling. Qani, gapiring, qu-log'im sizda.

Mariya chuqur o'yg'a tolib, bir daqiqacha jim qoldi.

– Sizniki qo'rqib ketadi.

– Yo'q, yo'q, – deb kuldi Martin, – men qo'rqmayman. Qani, gapiravering.

– Katta narsa, voy, juda katta narsa, – deb ogohlantirdi Mariya.

– Mayli, mayli. Aytavering.

– Yakshi, – u o‘zining eng aziz, eng muqaddas orzusini aytishga og‘iz juftlab, bolalar singari chuqur xo‘rsinib qo‘ydi. – Ferma kerak, sut ferma. Ko‘p sigir, ko‘p o‘tloq, ko‘p o‘t kerak. San-Liana yaqinida. San-Lianada meniki opa yashaydi. Oklendda meniki sut sotadi. Pul ko‘p. Jo bilan Nik sigir boqadi yo‘q. Yakshi maktab boradi. Katta muhandis bo‘ladi, yo‘l quradi. Ha, sut ferma xohlaydi meniki.

Mariya jim bo‘lib qolib, porlab turgan ko‘zlari bilan Martinga qaradi.

– Sizning o‘z fermangiz bo‘ladi, – deb darhol javob qildi Martin.

Mariya tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi-da, so‘ng saxovatli tuhfa sohibining sog‘ligiga ichdi, holbuki, u va‘da qilgan bu tuhfalarga hech qachon muyassar bo‘lmasligini juda yaxshi bilardi. Lekin u Martinning rahmdilligi uchun undan behad minnatdor edi, shuning uchun u olgan haqini qanchalik qadrlasa, berilgan va‘dani ham shunchalik qadrlardi.

– Ha, ha, Mariya, – davom etdi Martin, – Nik bilan Jo sigir boqmaydi. Bolalar yil bo‘yi maktabda o‘qishadi, pishiq tikilgan yaxshi botinkalar kiyib yurishadi. Sizning juda yaxshi fermangiz, o‘z uyingiz, oshxona, molxonangiz bo‘ladi. Sizning cho‘chqalaringiz, tovuqlaringiz, polizingiz, mevozoringiz, xullas, nimaiki zarur bo‘lsa, hammasi bo‘ladi, sizning bitta, hattoki ikkita xizmatchi yollashga qurbingiz yetadi. Shunda siz qo‘lingizni

sovuq suvga ham urmay, faqat bolalarni tarbiyalash bilan mashg'ul bo'lasiz. Bordi-yu, biron-ta durust odam uchrab qolsa, unga turmushga chiqasiz, keyin, fermani eringiz boshqaradi, siz esa dam olasiz.

Martin kelajakdagi davlatidan Mariyaga saxiylik bilan katta ulush ajratib, o'rnidan turdi, so'ng yagona kostyumini garovga qo'ygani chiqib ketdi. Bu qarorga u osonlikcha kelmadi, chunki shu ishi bilan o'zini Ruf bilan uchrashish imkoniyatidan mahrum etardi. Martinning boshqa durustroq kostyumi yo'q edi, yamoq tushgan matros kurtkasida esa novvoyxonaga, qassob do'koniga kirishi, opasinikiga borishi mumkin edi, lekin Morzlarnikiga kiyib borishni xayolga ham keltirib bo'lmasdi.

Martin umidsizlik jari yoqasida qayg'uga botib, ter to'kib mehnat qilardi. U ikkinchi jangda ham mag'lubiyatga uchradi, chindanam yana ish qidirishi kerakligi haqida tobora ko'proq o'ylay boshladi. Shunday qilsa, hamma – baqqollar ham, opasi ham, Ruf ham, hatto Mariya ham xursand bo'ladi; Mariyaga u yana oylik ijara haqi to'lamagan edi. Martin ikki oydan beri yozuv mashinikasining ham haqini to'lamagan edi, shuning uchun do'kon, yo qarzni to'lang, yo mashinkani qaytarib bering deb talab qo'ya boshladi. Shundan so'ng, taslim bo'lishga va kurashni qulay fursat kelguncha yig'ishtirib qo'yishga rozi bo'lgan Martin temir yo'l pochta-chisi lavozimiga imtihon topshirgani jo'nadi. U imtihondan juda yaxshi o'tib, o'zi ham hayratda qoldi. Lekin qachon o'rin bo'shashi ma'lum emas edi.

Mana nihoyat, Martin tamomila mushkul ahvolga tushib qolgan paytda to'satdan nashriyot mashinasining yurishi o'zgardi. Yo uning biron-ta murvati o'rnidan chiqib ketgan, yo unchalik yaxshi moylanmagan bo'lsa kerak, har holda, kunlarning birida ertalab pochta muhrlangan kichkina bir konvert olib kelib berdi. Martinning ko'zi konvertning bir chekkasidagi «Transkontinental oylik jurnali»ning shtampiga tushdi. Uning yuragi o'ynab, keyin bo'shashib ketdi, tizzalari qalt-qalt qilib titray boshladi. U o'z xonasiga kirib, qo'lidagi ochilmagan konvert bilan karavotiga o'tirdi, shu payt odamlarning quvonchli xabardan qanday o'lishlarini juda aniq tasavvur qildi.

Albatta, bu quvonchli xabar bo'lishi kerak edi. Bunday kichkina konvertga qo'lyozma sig'ishi mumkin emasdi. Martinning esida: «Transkontinental oylik jurnali»ga besh ming so'zdan iborat «Qo'ng'iroq sadosi» ismli «dahshatli» hikoyasini yuborgan edi. Modomiki, eng yaxshi jurnallar qo'lyozmani qabul qilish bilan muallif haqini to'lashar ekan, aftidan, bu konvertdagi narsa chek bo'lishi kerak. Bir so'zga ikki syentdan bo'lsa, mingta so'zga yigirma dollar; demak, konvertda yuz dollarga yozilgan chek yotibdi. Yuz dollar! Martin konvertni yirtarkan, qarzlari xayolan hisoblab chiqdi: 3 dollaru 85 sent baqqolga; 4.00 – qassobga; 2.00 – novvoyga; sabzavot uchun – 5.00; hammasi 14.85. Undan keyin ijara haqi – 2,50; yana bir oylik haqni oldindan to'lash kerak – 2.50; yozuv mashinkasining ikki oylik ijara haqi – 8.00; bir oyligini oldindan

to'lash uchun – 4.00; hammasi bo'lib 31.85. Bundan tashqari garovga qo'yilgan mollarni sotib olish kerak: soatga – 5.50; paltoga – 5.50; velosipedga – 7.75; kostyunga – 5.50 (60 foiz sudxo'rga – baribir emasmi!). Jami 56.10. Bu pul uning ko'zi oldida xuddi havoda yaltiroq raqamlar bilan yozilganday namoyon bo'ldi. Agar ham uyning, ham mashinkaning bir oylik haqini oldindan to'lab qo'yilganini e'tiborga olinsa, qolgan 43 dollaru 90 sent miqdoridagi pul juda katta boylilik edi.

Bu orada u, nihoyat, konvertni ochib, ichidan mashinkada bosilgan xatni oldi. Chek yo'q edi. U konvertni silkitib ko'rди, yoruqqa tutib ko'rди, ko'zlariga ishonmay yirtib qaradi. Chek yo'q edi. Shundan keyin u xatni o'qiy boshladi; o'qirkan, muharrirning maqtov gaplari orasidan maqsadni anglashga, nima uchun chek yuborilmaganiga izoh topishga urinardi. Xatda izoh topilmadi, ammo u shunday narsa o'qidiki, u narsa xuddi momaqaldiroq guldurosidek Martinni gangitib qo'ygani edi. Xat qo'lidan tushib ketdi. Ko'zlari tinib, boshini «tappa» yostiqqa tashladi va titrab-qaqshab ko'rpani ustiga tortdi.

«Qo'ng'iroq sadosi» uchun besh dollar. Besh ming so'zga besh dollar! Bir so'z uchun ikki sent o'rniga o'n so'zga bir sent! Yana, bosilgan zahoti chek yuboriladi, deb xabar qilgan noshirning hikoyani osmonga ko'tarib maqtaganini ayt-maysizmi? Bundan chiqdi, Martinning hamma bilganlari – eng kami bir so'zga ikki sent to'laydilar deganlari ham, qo'lyozma qabul qilinishi bilan gonorar to'lanadi deganlari ham yolg'on

ekan-da. Hammasi puchak gaplar ekan, Martin esa laqqa tushib ishonib yuribdi. Buni ilgari bilganida yozmagan bo'lardi. Ishga kirardi – Ruf uchun ishlardi. U qanchadan-qancha vaqtini yozuv ishiga sarflaganini o'ylab, sochlari tikka bo'ldi. Shuncha urinishlari, faqat o'nta so'zga bir sentdan haq olish uchun ekan-da! Gazetalarda yozilishicha, yozuvchilar uchun yaratilgan boshqa ajoyib imkoniyatlar va boshlariga yog'layotgan izzat-hurmatlarning hammasi ham, bundan chiqdi gazetachilarning uydirmalari ekan-da. Yozuvchilik kasbi haqidagi boshqa odamlardan eshitgan gaplarning hammasi noto'g'ri chiqdi. Mana dalil: «Transkontinental oylik jurnali»ning bir soni j girma besh sent turadi, uning chiroyli muqovada chiqishi eng yaxshi jurnallardan biri ekanligidan dalolat beradi. Bu Martin Iden tug'ilmasdan ancha ilgari chiqa boshlagan ko'hna va baobro' jurnal edi. Uning muqovasida hamisha butun dunyoga mashhur bo'lgan bir yozuvchining «Transkontinental oylik jurnali»ning buyuk vazifalari haqida aytgan hikmatli gapi bosilib chiqadi; mazkur mashhur adib o'zining faoliyatini shu jurnal sahifalarida boshlagan edi. Kelib-ke-lib, mana shu buyuk vazifalardan ilhomlangan jurnal besh ming so'zga besh dollar to'lamoqchi! Shu payt, Martinning esiga o'sha hikmatli gap muallifining begona yurtda qashshoqlikda vafot etgani tushib qoldi-yu, buning hech taajjub qiladigan yeri yo'q, degan qarorga keldi.

Ha. Uni laqillatishgan. Gazetalar yozuvchilarning gonorarlari haqida rosa vaysashgan ekan, u esa shu tufayli ikki yil vaqtini bekor o'tkazib

yubordi! Endi yetar. Endi u bir satr ham yozmaydi! U Rufning xohishiga, atrofidagi odamlarning xohishiga qarab ish tutadi – ishga kiradi. Birdan Martinning esiga Jo – allaqayerlarda, bekorchilik yurtida daydib yurgan Jo tushib qoldi. Martinning unga havasi kelib, xo'rsinib qo'ydi. Kundalik o'n to'qqiz soatlik ish birdan o'z ta'sirini ko'rsatdi. Lekin Jo oshiq emas, muhabbat yuklagan mas'uliyatdan xoli edi-da, shunga ko'ra, bekor yurib, olamni kezishi mumkin edi. Lekin Martin nima maqsadda ishlashini biladi, shuning uchun ham u ishlaydi. Ertagayoq tongdan turib ish qidira boshlaydi, ertagayoq Rufning oldiga borib, turmush tarzini o'zgartirmoqchi bo'lganini, otasining kontorasiga ishga kirishga tayyor ekanligini aytadi.

Besh ming so'zga besh dollar, o'n so'zga bir sent – san'atning bozordagi bahosi mana shu! Buning zamirida yotgan adolatsizlik, bo'hton, razolat Martinga orom bermasdi. 3.85 raqami (baqqolga qarzi), yumuq bo'lsa ham, ko'zlariga ko'rinib o'rtab yuborardi. Martinning eti uvusha, suyaklari zirqirab og'riy boshladi. Ayniqsa, beli sirqirardi. Uning boshi ham, ensasi ham og'rir, hatto bosh chanog'i ostida miyasining o'zi ham og'riyotganday tuyulardi; ayniqsa, peshanasining og'riganiga chidab bo'lmasdi. Ko'zi oldida esa, hamon o'sha shafqatsiz, beomon 3.85 raqami yaraqlab turardi. Martin bu g'ashga teguvchi sharpadan xalos bo'lish uchun ko'zini ochgan edi, lekin quyoshning yorqin shu'lasini qattiq og'ritib yubordi; yana ko'zini yumib olgan edi, 3.85 raqami avvalgidek yaraqlab ko'rina boshladi.

– Besh ming soʻzga besh dollar, oʻn soʻzga bir sent! – bu fikr boshini garang qilgan edi; koʻzlari oldida parpirab turgan 3.85 raqamidan qutula olmaganidek, bu fikrni ham hech boshidan chiqarib tashlay olmasdi. Nihoyat, 3.85 raqamida allaqanday oʻzgarishlar sodir boʻla boshladi; Martin maroqlanib kuzatib turgan edi, u asta-sekin 2.00 raqamiga aylandi. Ha, Martinning esiga tushdi, bu uning novvoyga beradigan qarzi! Navbatdagi raqam 2.50 boʻlib chiqdi. Bu raqamga juda qiziqib qoldi, goʻyo u raqam Martinning hayot-mamoti masalasini hal qiladiganday edi. U chindan ham, kimgadir ikki yarim dollar qarz, lekin kimga? Martin bu masalani hal qilishi, qanday qilib boʻlmasin, albatta hal qilishi shart edi, shuning uchun ham u xotirasining uzun-dan-uzoq qorongʻi yoʻlaklarida tentirab yurib, keraksiz maʼlumot va xotiralar ayqash-uyqash boʻlib yotgan miyaning burchaklari, xilvat yerlarini timirskilab, bu jumboqqa javob axtardi. Nihoyat, bu pul Mariyaga beradigan qarzi ekanligini esladi, ammo eslagunicha oradan bir necha asr vaqt oʻtib ketganday boʻldi. Martin yelkasidan togʻ agʻdarilganday yengil his qildi oʻzini, shunday murakkab jumboqni yechganimdan keyin endi bahuzur dam olishim mumkin, deb oʻyladi. Lekin aytgani boʻlmadi. 2.50 raqami oʻchib, uning oʻrnida boshqa – 8.00 raqami yona boshladi. U kimdan sakkiz dollar qarz ekan? Yana xotiraning ilon izi koʻchalarida mashaqqat chekib tentirash kerak edi.

Bu tentirash qanchaga choʻzilganini Martin bilmas (uning nazarida, juda ham uzoq davom

etgandek edi), lekin birdan eshik taqillashidan hushiga keldi va Mariyaning, kasal bo'lib qolmadingizmi, deb so'ragan ovozini eshitdi. Martin notanish, xirqiroq ovoz bilan, ozgina ko'zim ilinibdi, deb javob qildi. Ko'zini ochib, xonaning qop-qorong'iligidan taajjublandi. Maktub kunduzi soat ikkida kelgan edi, hozir kechqurun. Af-tidan, kasal bo'lib qolganga o'xshaydi.

Shu choq uning ko'zi oldida yana 8.00 raqami paydo bo'ldi-yu, u yana jon-jahdi bilan o'ylay boshladi. Ammo endi u mug'ombirlik qila boshladi. Ayqash-uyqash bo'lib yotgan xotiralar orasida sang'ib yurishning hech hojati yo'q ekan. G'irt go'l ekan-da! Tavakkal qilib, ulkan xotira charxpalagini aylantirish kerak: ana, aylana boshladi – to'satdan charxpalak g'ayrioddiy tezlik bilan aylanib, Martinni ham o'zi bilan chirpirak qilib uchira boshladi va zulmat sari tortib ketdi.

Martin o'zini kirxonada ishlayotganini, qotirma manjetlarni yumalatadigan g'altak orasiga qo'yayotganini ko'rib hech taajjublanmaydi. Manjetlarga allaqanday raqamlar yozilgan. Kiyimga yangicha belgi qo'yish usuli bo'lsa kerak, deb o'ylaydi Martin va belgiga tikilibroq qaraydi; manjetga 3.85 raqami yozilgan. Bu baqqolga beradigan qarzi ekanligini va uni albatta g'altakdan o'tkazish kerakligini eslaydi. Shu choq xayoliga makkorona bir fikr keladi. Hozir hamma qarzlarni yerga uloqtiradi-da, keyin to'lamaydi-qo'yadi. Gap bitta – vassalom. Mana u andishani yig'ishtirib qo'yib, manjetlarni g'ijimlay boshlaydi, so'ng ularni judayam iflos bo'lib ketgan polga uloqtiraveradi. Kir uyumi borgan sari baland

ko'tariladi, har bir raqam ikki hissa, o'n hissa ko'payadi, ming-minglab shunaqa raqamlarga bo'linadi, lekin faqat Mariyaning ikki yarim dollar qarzi ko'paymaydi.

Bu – Mariyaning hadeb qistamasligiga dalolat beradi, shuning uchun Martin iltifot qilib, faqat uning qarzini to'lashga ahd qiladi. Shunday ahd qiladi-yu yerda uyulib yotgan kiyimlar orasidan uni axtara boshlaydi. U ko'p asrlar davomida axtaradi, lekin shu payt birdan eshik ochiladi-yu, xonaga mehmonxona xo'jayini – xo'ppa semiz gollandiyalik kirib keladi. Uning yuzi g'azabdan lov-lov yonadi, u momaqaldiroq yanglig' ovozi bilan butun olamni larzaga keltirib baqira boshlaydi: «Manjetlarning haqini maoshingizdan chegirib qolaman!» Uyulib yotgan kirlar birdan tog' bo'lib ketadi, shunda Martin bu manjetlarning haqini uzish uchun ming yil ishlab berishi kerakligini tushunadi. Mehmonxona xo'jayinini o'ldirish va kirxonaga o't qo'yishdan bo'lak chora qolmaydi. Lekin semiz gollandiyalik uning yoqasidan ushlab olib, silkita boshlaydi. Keyin uni dazmollar turgan stol osha, plita, kiyim yumalata-digan g'altak, kir yuvuvchi mashina, kir siquvchi mashinalar osha uloqtiradi. Martin osmonda shunaqayam charxpalak bo'lib uchib boradiki, tishlari takillab, miyasi g'uvillaydi, gollandiyalikning bunchalik kuchliligiga hayron bo'ladi.

Keyin yana kir yumalatuvchi dastgoh oldida paydo bo'ladi, bu safar yuvilib, yumalatilgan manjetlarni qabul qiladi, bu manjetlarni dastgohning narigi tomonida turgan oylik jurnal noshiri uzatib turadi. Har bir manjet dastgohdan

chek bo'lib chiqadi, Martin ularni diqqat bilan kuzatadi, ammo cheklarning hammasi ham yozilmagan. U dastgoh boshida million yildan beri turadi, bironta to'ldirilgan chek chiqib qolsa, o'tkazib yuborishdan qo'rqib, hadeb chek qabul qilaveradi, mana bunisi uning nomiga yozilgan chek bo'lib chiqib qolsa-ya! Nihoyat, shunday chek chiqadi. Martin uni titroq qo'llari bilan olib, yoruqqa tutib ko'radi. Bu besh dollarga yozilgan chek edi. «Ha-ha-ha», deb kuladi noshir dastgoh orqasiga berkinib. «Yaxshi, hozir seni o'ldiraman», – deydi Martin. U bolta olib kelgani qo'shni xonaga chiqadi, u yerda qo'lyozmalarni kraxmallayotgan Joni ko'rib qoladi. Martin qo'lyozmalarni qutqarish niyatida Joga bolta otadi, ammo bolta havoda muallaq turib qoladi. Martin qaytib dastgoh oldiga yugurib keladi, ammo u yerda qor quyuni avjga chiqqan ekan. Yo'q, bu qor emas, balki har bittasi kamida ming dollarli son-sanoqsiz cheklar quyuni edi. Martin ularni terib, yuzta-yuztalab dastalay va har bir dastani avaylab tasma bilan bog'lay boshlaydi.

Birdan Martinning qarshisida Jo paydo bo'ladi. Jo qo'lidagi dazmollar, ko'ylaklar, qo'lyozmalarni havoga otib, huqqavozlik qila boshlaydi. Ba'zan dastalangan cheklarni olib osmonga otadi, shunda chek dastasi tomni teshib, fazoda ko'zdan g'oyib bo'ladi. Martin Joga tashlanadi, lekin Jo qo'lidan boltani tortib olib, uni ham osmonga otadi. Boltaning orqasidan Martinning o'zini ham uloqtiradi. Martin tomni teshib, uchib chiqib ketadi va havoda ancha-muncha qo'lyozmalarni tutib oladi-da, yerga bir quchoq qo'lyozma bilan

qaytib tushadi. Lekin uni yana shamol havoga uchirib ketadi. U gir-gir aylanib uzoq-uzoqlarga parvoz qilib ketadi. Juda uzoqdan bir bolaning «Men bilan raqs tush, Villi, yana bir marta raqs tush!» deb aytgan qo'shig'i eshitiladi.

Bolta cheklar, qotirilgan ko'ylaklar va qo'lyozmalardan tashkil topgan somon yo'li o'rtasida qadalib turadi; Martin uni qo'lga oladi-da, yerga tushgan zahoti zudlik bilan Joni o'ldirishga ahd qiladi. Lekin u yerga qaytib tusha olmaydi.

Kechasi soat ikkida Mariya parda devor orqali uning ingraganini eshitib, xonasiga kirdi, atrofiga issiq dazmollarni terib, qontalash ko'zlariga ho'l sochiq yopib qo'ydi.

YIGIRMA OLTINCHI BOB

Martin Iden ertasi kuni ertalab ish qidirgani bormadi. U hushiga kelib, xonaga bir-bir nazar tashlaganida vaqt tushdan og'gan edi. Silvaning sakkiz yoshli qizi Meri Martinning tepasida navbatchilik qilib o'tirardi, Martin ko'zini ochishi bilan u chinqirganicha onasining oldiga yugurdi. O'choq boshida ovqat pishirayotgan Mariya xonaga kirdi. U qadoq qo'lini Martinning o't bo'lib yonayotgan peshanasiga qo'ydi, tomirini ushlab ko'rdi.

– Ovqat yeyadi? – deb so'radi u.

Martin boshini sarak-sarak qildi. Uning ovqatga hushi yo'q edi, shuning uchun, u bir vaqtlar ochligini his qilganini eslab, hatto ajablandi ham.

Men kasalman, Mariya, – dedi u zaif ovoz bilan. – Nima bo'ldi menga? Bilmaysizmi?

– Tumov boʻlgansiz, – dedi Martin, – uch kun, sizniki tuzaladi. Ovqat yemagan yaxshi. Keyin yeysiz. Ertaga.

Martin kasal boʻlishga odatlanmagan edi, shuning uchun Mariya qizi bilan xonadan chiqib ketgach, kiyinishga urinib koʻrdi. Koʻzlari shu qadar qadalib ogʻrirdiki, dam oʻtmay yumishga majbur boʻlardi. U butun iroda kuchini toʻplab, oʻzini karavotdan turishga majbur etdi-da, stol yoniga oʻtirdi, lekin shu payt darmoni qurib, boshini stolga qoʻygancha ancha payt oʻrnidan turolmay qoldi. Yarim soatdan keyin bir amal-lab oʻrniga qaytdi-da, koʻzlarini yumgancha, qayerida ogʻriq sezayotganini aniqlashga harakat qilib, qimir etmay yotdi. Mariya uning xonasiga bir necha marta kirib, peshanasiga qoʻyilgan hoʻl sochiqni yangilab turdi. Lekin bemaʼni gap bilan jonga tegmay degan oqilona qarorga kelib, u bilan gaplashmadi, minnatdor Martin gʻol-dirab gapirdi:

– Mariya, sizning sut fermangiz, yaxshi sut fermangiz boʻladi.

Keyin u kechagi kunni, endi allaqachon oʻtib ketgandek tuyulgan kechagi kunni esladi. U «Transkontinental oylik jurnali»dan maktub olganidan buyon, oʻzining adashganini tushunib, yozuvchilikni tark aylagani va hayot kitobining yangi sahifasini ochganidan buyon bir asr vaqt oʻtgandek edi. U kamon ipini juda ham tarang qilib tortgan ekan, mana oqibat, uzilib ketdi. Agarda u ochlik va muhtojlikda yashab, bunalchalik darmonini quritib qoʻymaganda, dard uni yenga olmasdi. Aʼzoyi badaniga joylashib olgan

mikrob bilan olishishga uning kuchi yetmadi. Oqibat, o'rnidan turolmay yotib qoldi.

«Modomiki, jonimni fido qilib kitob yozganimdan, hattoki bir kutubxona kitob yozganimdan nima ma'no chiqdi? – deb so'rardi u o'zidan o'zi. – Yo'q, bu menga to'g'ri kelmaydi. Padariga la'nat adabiyotning! Mening peshanamga yozilgan narsa – kontorada yozuv-chizuv bilan shug'ullanish, har oyda maosh olib, kichkinagina bir uyda Ruf bilan birga yashash».

Ikki kundan keyin Martin ikki burda non bilan bitta tuxum yedi va bir finjon choy ichib, shu vaqt ichida kelgan xat va gazetalarni olib kelishni iltimos qildi. Lekin ko'zlari hamon sanchib og'rir, o'qishga qiynalardi.

– Menga xatlarni o'qib bering, Mariya, – dedi u. – Kattakon, qalin konvertlarni ochmang. Ularni stol ostiga uloqtiring. Faqat kichik konvertlardagi xatlarni o'qing.

– Maniki bilmaydi, – deb javob qildi ayol. – Tereza biladi, u maktab boradi.

To'qqiz yoshlardagi qizcha – Tereza Silva konvertlarni ochib o'qiy boshladi. Martin yozuv mashinkasi haqini to'lash haqidagi qat'iy talabnomani parishonxotirlik bilan tingladi, chunki boshi o'ziga ish topish xayoli bilan band edi. Birdan uning qulog'iga shunday so'zlar chalindi:

«Agar biz taklif qilgan qisqartirish va o'zgartirishlarga rozi bo'lsangiz... – deb hijjalab o'qidi Tereza. – Hikoyangizni faqat bizning jurnaldagina bosish huquqini bersangiz, sizga qirq dollar taklif qilamiz».

– Xat qayoqdan, qaysi jurnaldan? – deb qichqirib yubordi Martin. – Bu yoqqa ber-chi.

U ko'z og'rig'ini ham unutib qo'yib, jon-jahdi bilan o'qiy boshladi. «Oq sichqon» jurnali uning eng dastlabki «dahshatli» hikoyalaridan «Girdob»ga qirq dollar tavsiya qilayotgan edi. Martin xatni bir necha marta o'qib chiqdi. Muharrir hikoyaning g'oyasi unchalik aniq emasligi, ammo aynan shu g'oya o'zining originalligi bilan yoqib qolgani va hikoyani bosishga rozi ekanliklari haqida ochiqdan-ochiq yozgan edi. Yana, agar u «Girdob»ning uchdan birini qisqartirishga rozi bo'lsa, darhol unga qirq dollarga chek yuborilishi ham aytilgan edi.

Martin qo'lga qalam olib, muharrirga, «hikoyamni to'rtidan uchini qisqartirishingizga ham roziman, menga chekni mumkin qadar tezroq yuborsangiz bo'lgani» degan ma'noda xat yozib yubordi.

Tereza xatni pochta qutisiga tashlagani yugurib ketdi, Martin esa yostiqa suyanganicha o'yg'a toldi. Demak, har holda yolg'on emas ekan-da. «Oq sichqon» jurnali qo'lyozmani qabul etgan zahoti pul to'lamoqchi.

«Girdob» hikoyasida uch ming so'z bor edi. Uchdan biri qisqartirilsa ikki ming qoladi. Demak, har bir so'z naq ikki syentdan tusharkan. Qo'lyozma qabul qilinishi bilan to'lanarkan, bir so'zga ikki sentdan to'lasharkan, gazetalarda to'g'ri aytilgan ekan! U bo'lsa «Oq sichqon»ni uchinchi darajali jurnal deb hisoblab yuribdi-ya. Aftidan, u jurnallar haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan. U «Transkontinental oylik jurnali»ni birinchi darajali jurnal deb hisoblardidi, ammo u o'n so'zga bir sentdan to'layapti! U

«Oq sichqon»ni mensimagan edi, ammo bu jurnal yigirma barobar qimmatroq haq to'layapti, yana asarning bosilib chiqishini kutmasdan!

Unga bir narsa ravshan edi: tuzalib ketsa, ish qidirib yurishga ehtiyoj qolmaydi. Miyasida «Girdob»dan qolishmaydigan yuzlab hikoyalarning mazmunlari qalashib yotibdi, agar har donasiga qirq dollardan tushiradigan bo'lsa, har qanday xizmatda topgan pulidan yuz chandon ko'proq pul topadi. U, jangda mag'lubiyatga uchradim, deb turgan paytida g'olib chiqdi. U yozuvchilikni tanlab yanglishmagan ekan. Uning yo'li ochiq. «Oq sichqon» hikoyasini bosib chiqqandan keyin, uning asarlarini bosishga tayyor jurnallar ro'yxati tobora ko'payaveradi. Endi «tirikchilik» uchun yozadigan ikir-chikir asarlarga barham bersa ham bo'ladi. Baribir, ulardan bir dollar ham naf yo'q. U ish bilan, haqiqiy ijod bilan shug'ullanadi, ijodida o'zida bo'lgan jamiki qimmatli ma'lumotlardan foydalanadi. Martin, hozir Rufning shu yerda bo'lib, quvonchiga sherik bo'lishini istardi. Birdan u to'shagi ustida sochilib yotgan xatlar orasida Rufdan kelgan bitta xatni ham ko'rib qoldi. Ruf uning to'satdan g'oyib bo'lib, bir necha kundan buyon dom-daraksiz ketganidan muloyimlik bilan ginaxonlik qilardi. Martin maktubni zo'r hayajon bilan qayta-qayta o'qidi, yozuvni tomosha qildi, har bir harfga havas bilan tikildi, imzosini mehr bilan o'pdi.

Unga yuborgan javobida, bitta-yu bitta kostyumini garovga qo'ygani uchun borolmaganini ochiq yozdi. U o'zining kasalligi haqida ham aytib o'tib, hozir deyarli tuzalib qolganini, yana ikki

haftalardan keyin (shu muddat ichida Nyu-Yorkdan chek yetib kelishi kerak edi) kostyumini sotib olib, o'sha kuniyoq uning huzurida bo'lishini yozdi.

Lekin Ruf ikki haftagacha kutib o'tirishni istamadi. Axir uning sevgilisi kasal yotibdi-ku. U ertasi kuniyoq Artur bilan birga faytonda yetib keldi; bu tashrif Silvaning bolalarini va tevarak-atrofdagi bolalarni quvontirib, Mariyani qattiq sarosimaga solib qo'ydi. Mariya bu g'ayri-oddiy mehmonlarni o'rab olgan bolalariga shapaloq urdi, tilni nihoyat darajada buzib, kiyimboshining isqirtligi uchun uzr so'radi. Uning qo'llarida sovun ko'pigi qotib qolgan edi, oldiga fartuk o'rnida tutib olgan ho'l chipta mehmonlarga bu ayolning qanday ish bilan shug'ullanayotganini aniq aytib turardi. Faytonda kelib, uyida turuvchi yigitni so'rayotgan bu yaxshi kiyingan yoshlar Mariyani shu qadar esankiratib qo'ydi, hatto ularni o'zining kichkinagina mehmonxonasiga taklif etishni ham unutilib qo'ydi. Martinning xonasiga kirish uchun, olam-jahon kir yuvilganidan bug'ga to'lgan hammomdek is-siq oshxonadan o'tishga to'g'ri keldi. Mariya hayajonlanganidan xona eshigi bilan shkaf eshik-chasini ochib-yopishdek murakkab ishni hech bajara olmasdi, natijada, bemorning xonasi pag'a-pag'a kirgan bug', mag'zava va kir kiyimlar hidiga to'lib ketdi.

Ruf epchillik bilan o'ngga burildi, keyin chapga, keyin yana o'ngga burildi-da, Martinning stoli bilan karavoti oralig'idagi torgina oraliqdan o'tdi. Artur unchalik ehtiyotkor bo'lmagani uchun,

oshxona vazifasini o'tovchi burchakdagi xurmach va tovalarni taraqlatib tushirib yubordi. Undan keyin, Artur xonada uncha uzoq turmadi. Bitta-yu bitta kursiga Ruf o'tirdi, akasi esa o'z vazifamni o'tab bo'ldim deb hisoblab, ko'cha eshik oldiga chiqdi, u yerda Arturga juda ham qiziqqan Silvaning bir gala bolalari darhol uning atrofini o'rab olishdi. Butun mahalla bolalari fayton atrofida o'ralashib yurishardi; ular bironta dahshatli hodisa ro'y berishini kutishardi. Bu yoqlarda faytonlar faqat to'y yoki aza kunlari paydo bo'lardi; ammo hozir hech kim uylangani ham, o'lgani ham yo'q, demak, bironta kutilmagan mojaro yuz berishi muqarrar.

Martin shu kunlarda muttasil Rufni qo'msab iztirob chekardi. Qalbi otashin muhabbat bilan yongan bu yigit bironta hamdard kishiga, shunchaki oddiy hamdard emas, balki uning qalbi-ni tushunadigan samimiy va mehribon odamga muhtoj edi; lekin Ruf, uning, ya'ni Martin Idenning orzularini tushungani uchun emas, balki, tabiatan rahmdil bo'lgani uchun g'amxo'rlik qilayotganini Martin hali tushunmasdi. Martin Rufning qo'lidan ushlab, u bilan gaplashib o'tirarkan, qiz muhabbatga berilib, uning qo'lini mehribonlik bilan siqib javob qilar va yosh to'la ko'zlarini uning cho'kib, bir holatda bo'lib qolgan yonoqlariga tikar, sho'rlik naqadar baxtsiz va bechora deb o'ylardi.

Martin «Transkontinental oylik jurnali»dan xat olib, qanday umidsizlikka tushganini va «Oq sichqon»ning taklifidan naqadar sevinganini shosha-pisha gapirdi, lekin Ruf bunga e'tibor qilma-

di. U Martin talaffuz etayotgan soʻzlarni eshitar, maʼnosiga ham tushunar edi, ammo uning na quvonchiga, na qaygʻusiga sherik boʻlardi. Qiz oʻz fikridan qaytmagan edi. Hikoyalar, jurnallar va muharrirlar uni kamdan-kam qiziqtirardi. U faqat bir narsa toʻgʻrisida: qachon Martin bilan turmush qura olarkinmiz deb oʻylar edi. Rost, buni Rufning oʻzi tushunmasdi, shuningdek, Martinni «ishga joylashish»ga majbur etish istagining oʻzi unchalik tushunib yetmagan onalik instinktiga asoslanganini ham anglamasdi. Albatta, agar bu gapni Rufning toʻgʻri yuziga aytishsa, u birinchidan, xijolat chekar, ikkinchidan, achchigʻi chiqib, niyatim faqat sevgilimga gʻamxoʻrlik qilishdan iborat edi, deb aytgan boʻlardi. Lekin, bunga qaramay, Ruf to Martin oʻzi tanlagan sohada erishgan birinchi muvaffaqiyatidan hayajonlanib Rufga dilidagi gaplarni toʻkib solarkan, qiz uning gaplariga quloq solsa ham, hech narsa eshitmay, atrofiga alanglab, koʻz oldidagi narsalarga hayron boʻlib oʻtirdi.

Ruf umrida birinchi marta qashshoqlik bilan yuzma-yuz toʻqnashdi. Nazarida, muhabbat bilan ochlik hamisha birga boʻladigan yuksak narsadek tuyular, ammo ularning hayotda qanday boʻlishini hech qachon tasavvur qilmagan edi. Har holda, u bunday manzaraning shohidi boʻlishni oʻylamagan edi. Oshxonadan kirayotgan kirning qoʻlansa hidi Rufning koʻnglini behuzur qilardi. Modomiki, bu baxtiqaro ayol tez-tez shunaqa kir yuvarkan, deb oʻyladi Ruf, unda bu qoʻlansa hid Martinning butun vujudiga singib ketgan boʻlsa kerak. Qashshoqlik yuqumlidir.

Atrof-muhitdagi iflosliklar Martinga yopishib qol-ganday tuyula boshladi Rufga. Martinning o'sib ketgan soqoli (Ruf Martinning soqoli olinmagan holda birinchi marta ko'rish edi) qizda nafrat uyg'otardi. Martinning iyagi va yonoqlaridagi tik-kayib turgan tuklardan uning yuzi xuddi Silva-ning kulbasi singari mudhish va iflos bo'lib tu-yulardi, bu hol esa Martindagi hayvoniy quvvatni Rufning ko'ziga yanada bo'rttirib ko'rsatardi. Ke-lib-kelib shu paytda Martinning ikkita hikoyasi-ni nashrga qabul qilishganini aytmay sizmi! Endi u o'zining bema'ni rejalariga qattiq yopishib ola-di. Holbuki, yana ozgina vaqt o'tganda, u taslim bo'lib, xizmatga kirgan bo'lardi. Endi bo'lsa bu mudhish kulbada och o'tirib, yozuvchiligiga mukkasidan sho'ng'ib ketadi.

– Nimaning hidi kelyapti? – deb so'radi birdan Ruf.

– Kir hidi bo'lsa kerak. Mariya kir yuvyapti, – deb javob qildi Martin. – Men bunga ko'nikib qolganman.

– Yo'q, yo'q, yana allaqanday, uyga o'tirib qol-gan qo'lansa hid bor.

Martin javob berishdan oldin, havoni iskab ko'rdi.

– Men tamaki hididan boshqa hech nima sez-mayapman, – dedi u.

– Ha, balli. Qanday badbo'y! Nega endi bun-chalik ko'p chekasiz, Martin?

– O'zim ham hayronman. Yuragim siqilib ket-gan paytlarda ko'proq chekaman. Umuman, menga eskidan odat bo'lib qolgan. Men bolalik chog'imdan cheka boshlaganman.

– Yomon odat bu, – ta’naomuz dedi Ruf. – Bu yerda nafas ham olib bo’lmaydi.

– Ayb tamakida. Men eng arzon papiros chekaman. Ozigina sabr qiling, qirq dollarning chekini olay, farishtalar huzurida ham cheksa bo’ladigan tamakidan sotib olaman. Har holda, chakki emas! Uch kun ichida ikkita qo’lyozmamni qabul qilishdi. Shu qirq besh dollar bilan deyarli hamma qarzlarimdan uzilib olaman.

– Ikki yillik ishingiz evazigami? – deb so’radi Ruf.

– Yo’q, bu ishga bir haftadan ham ozroq vaqt sarflaganman. Iltimos, anavi kul rang muqovalli daftarchani uzatib yuborsangiz. Ana, stolning burchagida yotibdi.

Martin daftarchani ochib, tez-tez varaqlay boshladi.

– Ha, juda to’g’ri, «Qo’ng’iroq sadosi» to’rt kunda; «Girdob» ikki kunda yozilgan ekan. Bir haftalik ish haqi qirq besh dollar. Oyiga bir yuz sakson dollar! Bunday maoshni qaysi ishda topa olardim? Bu hali xamir uchidan patir. Holbuki, sizni mukammal ta’minlashim uchun menga ming dollar kerak bo’ladi. Besh yuz dollarli maoshga ham men ko’nmagan bo’lardim. Ammo boshda qirq besh dollar ham yomon emas. Izimga tushib olishimga imkon bering. Ana o’shanda hamma mo’rilardan tutun chiqarib yuboramiz.

Bu ibora Rufga bir vaqtlardagi suhbatni eslatdi.

– Siz hozir ham haddan ziyod tutatyapsiz, – dedi u. – Gap tamakining sifatida emas... Chekishning o’zi, nima chekayotganingizdan qat’i nazar, bema’ni odat. Siz xuddi o’ziyurar mo’rkonga yoki jonli vulqonga o’xshaysiz. Bu dahshat!

Azizim Martin, buning dahshat ekanligini o'zingiz ham bilasiz-ku!

Ruf mehr va muhabbat to'la nigohlari bilan boqdi, Martin uning tiniq moviy ko'zlariga, mayin chehrasiga boqarkan, yana bir vaqtlardagidek, o'zining qizga munosib emasligini his qildi.

– Men chekishni tashlashingizni istayman, – deb pichirladi qiz, – meni deb tashlang shuni!

– Yaxshi, – dedi Martin, – chekishni tashlayman! Sizni deb, jamiki istagan narsalaringizga amal qilaman, azizim, jonim!

Ruf vasvasaga tushib qoldi. Martinning nechog'lik osonlik va itoatkorlik bilan yon berishini ko'rib, hozir agar yozuvchilikni ham tark etasiz deb talab qilsa, yo'q demasligi haqida o'yladi. Lekin gapi og'zida qoldi. Ruf bu gapni ayta olmadi. Yuragi dov bermadi. Bunday qilish o'rniga engashdi-da, boshini Martinning ko'ksiga qo'yib, pichirladi:

– Martin, azizim, buni men o'zimning emas, sizning foydangizni o'ylab aytdim. Sizga chekish zarar bo'lsa kerak, undan so'ng, qul bo'lish, hattoiki odatga qul bo'lish ham yaxshi emas.

– Men sizning qulingiz bo'laman, – deb jilmaydi Martin.

– Unday bo'lsa, farmon beraveraman.

Ruf o'zining dilidagi xohishini unga ayta olmanidan ich-ichidan achinib, Martinga ayyorona boqdi.

– Hazrati oliylarining farmonlariga muntazirman.

– Maqbul. Sizga mening birinchi buyrug'im mana shu: kunda soqol olishni unutmang. Yuzlarimni timdalab olganingizni ko'ring.

Shunday qilib, suhbatga erkalashlar, sho'x kulgilar bilan xotima yasaldi. Lekin har holda, Ruf ba'zi bir muvaffaqiyatlarga erishdi, birinchi galning o'zida bundan ortig'i ortiqlik qilardi. Ruf Martinni chekishni tashlashga majbur etganidan ayollarga xos g'ururga berildi. Kelgusi safar uni ishga kirishga ko'ndiradi: axir u Rufning hamma istaklariga amal qilishga so'z berdi-ku.

Ruf o'rnidan turib, xonani ko'zdan kechira boshladi. U kir iladigan arqonga osilgan yozuvlarga e'tibor berdi, velosipedni antiqa tarzda osib qo'yilganiga diqqat qildi, stol ostida uyulib yotgan qo'lyozmalarni ko'rib afsuslandi: qanchadan-qancha vaqt bekor ketgan-a? Kerosinkani ko'rib, xursand bo'ldi-yu, lekin oziq-ovqat turadigan tokchalar bo'm-bo'sh ekanligiga ko'zi tushdi.

– Yeydigan hech nimangiz yo'q-ku! Voy, sho'rlik, – deb yubordi qiz achinib, – siz hali och yotgan bo'lsangiz kerak?!

– Oziq-ovqatlarim Mariyanikida turadi, – deb yolg'on gapirdi Martin, – o'sha yer qulayroq. Qo'rqmang, men och emasman. Mana, bir ko'ring!

Ruf yaqinlashib, Martinning tirsagini bukanini va ko'ylagi tagida metindek qattiq mushagi turtib chiqqanini ko'rdi. Bu narsa uning naf-ratini qo'zg'adi. Martin uning hissiyotini tahqirlagan edi. Lekin qizning qalbi, qaynoq qoni, vujudidagi har bir tomiri qudratli muskullar sari talpinardi va Ruf o'ziga tanish bo'lgan mavhum kuchga itoat etib, Martindan o'zini chetga olib qochish o'rniga, uning ustiga engashdi. So'ng Martin uni bag'riga bosib, mahkam quchoqlaganida, hayotning faqat zohiriy hodisalari-

dangina xabardor bo'lgan idroki norozi bo'lib, g'alayon ko'tardi, lekin qalbi, hayot shabadasi tegib o'tgan ayol qalbi tantana qilardi. Bunday damlarda Ruf Martinga bo'lgan muhabbatining butun kuch-qudratini anglay boshlar, zero, yigitning baquvvat qo'llari uning belini chirmab olib, g'oyat zo'r ehtiyot bilan mahkam siqqanda, baxtiyorlikdan Rufning boshi aylanib, ko'zini tinib ketardi. Bunday paytlarda Ruf urf-odatni buzganini ham, yuksak orzularga xiyonat qilganini ham, hattoki, indamay ota bilan onaga itoat etmayotganini ham oqlar edi. Ota-onasi uning bu odamga turmushga chiqishini istashmas edi. Rufning Martinga oshiq bo'lishi go'yo isnoddek tuyulardi ularga. Ruf Martindan yiroqlashib, yana ehtirossiz va sermulohaza Rufga aylangan paytlarda, oralaridagi muhabbat qizning o'ziga ham xuddi isnoddek bo'lib tuyulardi. Lekin Martin yonida bo'lganida uni sevardi; to'g'ri, ba'zi paytlarda bu sevgi dilsiyohlikka sabab bo'lar, ammo baribir, bu amirona va g'olib muhabbat edi.

– Tumov yengil kasal, – dedi Martin. – Rost, bir oz boshim og'rib, etim uvushyapti, lekin tropik bezgak oldida ip esholmaydi.

– Siz tropik bezgak bilan og'rganmisiz? – deb so'radi Ruf parishonxotirlik bilan; bu bilan u Martinning quchog'ida his qilayotgan saodatli sarhushlik hissini yana cho'zishni istardi.

Qiz Martinning javobiga deyarli quloq solmasdi, ammo shu choq bir jumla to'satdan uning diqqatini o'ziga tortdi. Martin Gavay orollaridan biridagi moxovlar istiqomat qiladigan maxfiy

koloniyada tropik bezgak bilan og'rib qolganini eslayotgan edi.

– U yerga qanday borib qolgan edingiz? – deb so‘radi Ruf. Martinning o‘ziga nisbatan o‘taketgan beparvoligi Rufga jinoyatdek tuyulgan edi.

– Tasodifan, – deb javob qildi Martin, – men hech qanday moxovlar haqida o‘ylaganim ham yo‘q edi.

Bir kun kemadan qochdim-u, sohilga suzib chiqib, o‘zimga xatarsiz bir boshpana axtarib, orolning ichkarisiga yo‘l oldim. Men uch kungacha guava mevasi, yovvoyi olma, banan, xullas, junglida nimaiki o‘ssa, shuni yeb yurdim. To‘rtinchi kuni bir so‘qmoqqa chiqib qoldim. Tog‘ tomonga qarab ketgan yo‘l ustida yangi bosilgan odam izi bor edi. Bir yerda so‘qmoq pichoqning damidek o‘tkir tog‘ qirrasidan o‘tardi. U yerda so‘qmoqning kengligi uch futdan oshmasdi, ikki tomonida esa chuqurligi bir necha yuz fut keladigan jar. Yaxshi qurollangan bitta odam bu yerda yuz ming kishilik qo‘shinning hujumini qaytarishi mumkin edi. Orol ichkarisiga boradigan birdan-bir yo‘l shu edi. Uch soatlardan keyin men uyulib-uyulib yotgan sovuq vulqon lavalari orasidagi kichik bir vodiya tushdim. U yerda meva daraxtlari va yetti-sakkizta qamish kulba bor edi. Bu yerning aholisiga ko‘zim tushishi bilan, qayerga kelib qolganimni payqadim. Bir qarashning o‘zi kifoya edi.

Misoli Dezdemonadek dahshatga kelgan, lekin sehrlangandek hang-mang bo‘lib qolgan Ruf bu gaplarni eshitib so‘radi:

– Siz nima qildingiz?

– Qoʻlimdan nima ham kelardi? Ularning boshligʻi boshdan-oyoq moxov kemirib tashlagan bir oqkoʻngil chol ekan: u haqiqiy qiroldok hukmronlik qilarkan. Bu vodiyni topgan ham, bu yerda koloniya tashkil qilgan ham shu ekan; lekin, oʻz-oʻzidan maʼlumki, bu gʻayriqonuniy ish edi. Ularning miltiqlari va oʻqlari bor edi; aytgandek, kanakilar nihoyatda usta mergan boʻladilar. Ular toʻngʻiz va yovvoyi mushuklarni ov qilishga odatlangan ekanlar. Demoqchimanki, qochishni xayolga ham keltirish mumkin emas edi. Oqibat, Martin Idenga oʻsha yerda uch oy qolib ketishiga toʻgʻri keldi.

– Lekin qanday qilib qochib qutuldingiz?

– Agar yarim xitoy, chorak oq tan va chorak gavayilik bir qiz boʻlmaganda, hali ham oʻsha yerda yotgan boʻlardim. U shoʻrlik juda goʻzal va buning ustiga yana savodli edi. Onasining Gonululuda kamida bir millionlik davlati bor edi. Ana shu qiz axir bir kun meni balodan qutqardi. Bilasizmi, uning onasi koloniyani pul bilan taʼminlab turardi, shuning uchun ham jazoga tortishlaridan qoʻrqmasdi. Lekin qiz bu makonni hech kimga ochmaslik haqida menga ont ichirdi. Men ham ontimga sodiq qoldim. Hozir men bu haqda birinchi marta gapiryapman. Oʻsha paytda bechora qizda moxov kasalining eng birinchi nishonalari endi paydo boʻla boshlagan edi. Oʻng qoʻlining barmoqlari irib tushib ketgan va tirsagidan yuqoriroqda kichkinagina dogʻ paydo boʻlgan edi. Hozir oʻlgan boʻlsa kerak.

– Qanday qilib qoʻrqmadingiz? Yaxshiyamki, bu dahshatli kasalni oʻzingizga yuqtirmabsiz!

– Avvaliga juda qiynaldim, – deb e’tirof etdi Martin. – Lekin keyinchalik ko‘nikib qoldim. Buning ustiga o‘sha baxtiqaro qizga juda rahmim keldi, natijada o‘zimni ehtiyot qilishim kerakligini ham unutib qo‘ydim. U ham ruhan, ham jisman shunday go‘zal qiz, kasallik unga endigina o‘tgan edi. Qizning o‘zi ham endi hech qachon inson yuzini ko‘rmaslikka va ibtidoiy yovvoyi odamlarga o‘xshab hayot kechirib, tadrijiy ravishda tiriklayin chirishga mahkum etilganini bilardi. Bu moxov kasalining naqadar dahshat ekanligini siz hatto tasavvur ham qila olmaysiz.

– Bechora qiz! – deb ingradi Ruf. – Shunday bo‘lsa ham sizni qo‘yib yuborgani taajjubli hol.

– Nega? – deb so‘radi Martin tushunmay.

– Chunki u qiz sizni sevgan bo‘lsa kerak, – deb gapida davom etdi Ruf hamon past ovozda. – Qani, ochig‘ini aytavering: sevarmidi?

Martinning oftobda qoraygan yuzlari kirxonada ishlaganidan va tarki dunyo qilib yashaganidan, keyingi paytlarda esa, ochlik va xastalikdan oqarib ketgan edi; endi, ana shu rangpar chehrasiga xiyolgina qizillik yugura boshladi. U javob bergani endi og‘iz juftlagan edi, Ruf uning oldini oldi.

– O, o‘tinaman, javob bermang! Javobga hojat yo‘q! – dedi qiz kulib.

Lekin Rufning kulgisida allaqanday qat‘iylik ohangi sezilganday, ko‘zlari sovuq yaraqlab ketganday bo‘ldi. Shunda, bir vaqtlar Tinch okeanining shimoliy qismida bo‘ronga duch kelgani esiga tushdi. Uning ko‘z oldida bir ongagina sovuq oy shu‘lasi bilan yoritilgan dahshatli to‘lqinlar

manzarasi namoyon bo'ldi. Buning ketidan ko'ziga moxovlar koloniyasidagi qiz ko'rindi va Martin, u qiz aynan meni sevganligi uchun qochishimga imkon tug'dirgan, deb o'yladi. Lekin:

– U oliyjanob qiz edi, – dedi soddagina qilib, – shuning uchun meni o'limdan qutqarib qoldi.

Shu bilan masala ravshan bo'ldi hisob edi, lekin Martin birdan piq-piq yig'i ovozini eshitib qoldi-yu, Ruf yuzini teskari o'girib, derazaga qarab turganini ko'rdi. Qiz yana Martinga o'girilib qaraganida, uning chehrasida dengiz bo'ronini eslatuvchi hech qanday alomat qolmagan edi.

– Judayam tentakman-da, – dedi Ruf o'zidan yozg'irib, – lekin o'zimni tuta olmayman. Sizni judayam yaxshi ko'raman, Martin, judayam. Ehtimol, bora-bora ko'nikib qolarman, lekin hozir sizni beixtiyor o'tmishdagi har bir sharpaga rashk qilaman. Sizning o'tmishingizda esa sharpalar ko'p bo'lgan!.. Rost, rost, bo'lmay iloji ham yo'q edi. – U Martinning e'tiroz bildirishiga imkon bermay, tez-tez gapira boshladi. – Ana, Artur ham meni imlab chaqiryapti. Kutish bechoraning joniga tegdi. Xayr, azizim. Chekishni tashlashga yordam beradigan qandaydir bir dori bor, – dedi Ruf eshik oldiga borganida, – sizga berib yuboraman.

Ruf xonadan chiqib, eshikni yopdi, keyin yana qiya ochib:

– Sevaman, sevaman, – deb pichirladi-da, shundan keyingina uydan chiqib ketdi.

Mariya Rufni faytonga izzat-ehtirom bilan kuzatib qo'yarkan, yo'l-yo'lakay, uning kiyimini batafsil ko'zdan kechirib chiqdi. (Mariya hech qa-

chon bunaqa bichimdagi kiyimni ko'rmagan edi, shuning uchun kiyim nihoyatda bejirim bo'lib tuyuldi unga. Fayton muyulishda ko'zdan g'oyib bo'lguncha bir gala bola hafsalasi pir bo'lib qarab turdi. Undan keyingi daqiqada hammaning diqqati Mariyaga qaratildi; u birdan butun kvaralda eng e'tiborli kimsa bo'lib qolgan edi. Biroq uning o'z churvaqalaridan qaysiyam biri, asilzoda mehmonlarning onasi oldiga emas, uylarida turadigan kishining oldiga kelganini aytib, ishini pachava qilib qo'ydi. Shundan keyin Mariya yana hech e'tibori yo'q odam ahvoliga tushib qoldi, lekin Martin qo'ni-qo'shnilarning o'ziga zo'r ehtirom ko'rsata boshlaganini his qildi. Mariyaning oldida uning obro'si juda oshdi, lekin boyagi ajoyib faytonni baqqol ham ko'rganda, Martinga yana uch dollaru sakson besh sentlik mol nasiyaga berishi shubhasiz edi.

YIGIRMA YETTINCHI BOB

Martinning baxt quyoshi balqidi. Ruf kelib ketgan kunning ertasiga u Nyu-Yorkda chiqadigan betayin bir jurnaldan uchta triolet²⁰ evaziga uch dollarga chek oldi. Yana ikki kundan keyin Chikago gazetalaridan biri uning «Xazina qidiruvchilar»ini qabul qilib, hikoya bosilib chiqqandan keyin o'n dollar to'lashga va'da berdi. Bu juda arzon baho edi, lekin u Martinning o'z qalbini hayajonga solgan fikrlarni birinchi marta qog'ozda ifoda etgan ilk asari edi. Bu xushxabar ustiga, yana uning yoshlar uchun yozgan sargu-

²⁰ Triolet – 8 qatorli she'r.

zasht qissasini ham «Yoshlik va yetuklik» nomli oylik jurnal qabul qildi. To'g'ri, qissada yigirma bir ming so'z bo'lishiga qaramay, unga bor-yo'g'i o'n olti dollar taklif qilishayotgan edi; bu esa har ming so'z taxminan yetmish besh sentdan tushadi degan gap edi, shu pulni ham, qissa chop qilingandan so'ng to'lashmoqchi edi, lekin bu asar Martinning adabiyot sohasidagi ikkinchi urinishi edi, xolos; asardagi kamchiliklar hozir Martinning o'ziga ham yaqqol ko'rinib turardi.

Shuni ham aytish kerakki, uning eng dastlabki asarlarini ham jo'n asar deb bo'lmadi. Bu asarlarda haddan ziyod kuch – chumchuqni to'p otib urib tushirishga ham tayyor bo'lgan havaskor yozuvchining yeru ko'kka sig'maydigan kuch-qudrati bor edi. Martin dastlabki asarlarini arzon-garov bo'lsa ham pullay olganidan xursand edi. U mazkur asarlarining qiymatini bilardi, buning uchun unchalik ko'p vaqt ham kerak bo'lmadi. Butun umidi so'nggi asarlaridan edi. U jurnallarda bosilayotgan hikoya va qissalarning muallifidan ko'ra ulug'roq siymo bo'lishni orzu qilardi. U chinakam san'atkor ega bo'lgan jamiki usullarni o'zlashtirishga intilardi. Lekin kuchini bekorga sarflashni istamasdi. Bil'aks, kuchni jilovlashga o'rganib olib, yana ham ko'proq kuch yig'ishga urinardi. Shu bilan birga, uning realizmga bo'lgan mehri ham so'nmedi. U o'zining hamma asarlarida realizmni xayol bilan, xayol yaratgan go'zallik bilan birlashtirishga urinardi. U realizmga, insonga va uning orzulariga ishongan ilhombaxsh realizmga intilardi. U hayotni boricha aks etti-

rishni, notinch ko'ngil intilishlarini tasvirlashni istardi.

Martin mutolaa qilib, ikkita adabiy maktab mavjudligini aniqladi. Ulardan biri insonni, uning haqiqiy tabiatini mutlaqo nazarga olmagan holda, qandaydir bir ilohiyat deb tasvirlasa, ikkinchisi aksincha, odamni faqat hayvon deb tasvirlar, uning ma'naviy orzularini va buyuk imkoniyatlarini tan olishni istamasdi. Martin na u va na bu yo'ning ko'rsatmalariga amal qilardi, chunki ularni haddan tashqari bir yoqlama ta'lim, deb hisoblardi. Uning fikricha, haqiqat ularning o'rtasida edi, «ilohiy» maktab haqiqatdan qanchalik yiroq bo'lsa, «vahshiy» maktab ham, o'zining hayvoniyliги bilan unga aslo yaqinlashmas edi.

Martin bir vaqtlar Rufga manzur qila olmagan «Sarguzasht» hikoyasida o'zining badiiy haqiqat haqidagi orzusini amalga oshirishga urinib ko'rdi, «Xudo va hayvon» maqolasida esa shu masalaga doir bo'lgan o'z nazariy mulohazalarini bayon qildi.

Lekin «Sarguzasht» va o'zi eng yaxshi deb hisoblagan boshqa hikoyalari tahririyatlarda sarson yurardi, Martin o'zining ilk asarlariga e'tibor bermas, faqat ular uchun olayotgan gonorarga xursand edi; u «dahshatli» hikoyalari ham unchalik qadrlamasdi, holbuki, ulardan ikkitasini yaqinginada jurnalda bosishga qabul etishgan edi. Bu hikoyalar boshdan-oyoq uydirma bo'lib, Martin ularga zohiran reallik tusini bergan edi, hikoyalarning kuchi ham ana shunda edi. Bema'ni va aql bovar qilmaydigan narsani

haqiqatga o'xshatib tasvirlashni Martin mohirona nayrangbozlik deb hisoblardi, vassalom. Bunday asarlarning buyuk adabiyotga hech bir daxli yo'q edi. U asarlarning badiiy ifodasi kuchli bo'lishi mumkin edi, lekin Martin hayotiy haqiqatdan ajralib turgan badiiy mahoratni qadrlamasdi. Nayrangbozlikning mohiyati uydirmaga jonli hayot niqobini kiydirishdan iborat edi va Martin «Sarguzasht», «Quvonch», «Qozon» va «Hayot sharobi» kabi asarlari saviyasiga ko'tarilmasidan oldin, besh-oltita «dahshatli» hikoyalarida shu usulga amal qilgan edi.

To «Oq sichqon»dan chek kelguncha trioletlar uchun olingan uch dollar bilan bir amallab kun ko'rib turish mumkin edi. Martin shubha bilan qarab turgan portugaliyalik baqqoldan uch dollarlik chekni maydalatib oldi-da, uning o'ziga qarzi yuzasidan bir dollar berdi, qolgan ikki dollarni novvoy bilan sabzavotfurushga bo'lib berdi. U hali go'sht yeydigan darajada boy emas edi, shuning uchun to orziqib kutilgan chek yetib kelguncha, bir amallab ochin-to'qin kun kechirib yurdi. «Oq sichqon»dan chek kelganida, Martin nima qilishini bilmay, esankirab qoldi. U umrida biron marta ham bankda bo'lgan emas, pul masalasida bo'lsa inchunun, shu sababdan, hozir albatta Oklenddagi yirik banklardan biriga borib, qirq dollarlik chekini pul beriladigan tynukka mensimaslik bilan tashlash kabi go'daklarga xos bir istak tug'ildi. Lekin aqli shaytonga hay berib, chekni baqqoldan maydalab olishga va shu bilan o'z obro'sini oshirishga da'vat etdi, bu hol, keyinchalik, yana zarur bo'lib qolgan-

da qarzga mol olishga imkon tug'dirardi. Martin istar-istamas baqqolning oldiga bordi, chekni maydalab, uning qarzlaridan batamom qutuldi. U baqqolning do'konidan bir hamyon pul bilan chiqib, boshqa qarzlarini ham to'lagani ketdi: novvoy bilan qassobning qarzini berdi, Mariyaga o'tgan oyning ijara haqini, yana bir oy oldin keyingi oyning haqini to'ladi, velosipedini sotib oldi, yozuv mashinkasining ijara haqini to'ladi. U qarzlarining hammasidan uzilib bo'lgandan keyin, cho'ntagida atigi uch dollar qolgan edi.

Lekin shu ozgina pul ham Martinga katta boylikdek tuyulardi. U kostyumini sotib olib, shu zahotiy oq Rufning oldiga jo'nadi; yo'l-yo'lakay u o'zini tiya olmay, cho'ntagidagi mayda pulni shiqillatib lazzatlanib qo'yardi. Och odam ko'zini ovqatdan uza olmaganiday, cho'ntagida bir qancha vaqtdan beri sariq chaqa bo'lmagan Martin ham tanga-chaqalarni qo'lidan qo'yolmasdi. U ochko'z ham, xasis ham emas edi, lekin pul uning uchun ma'lum miqdordagi dollar va sentlardan ko'ra qimmatliroq narsa hisoblanardi. Ular muvaffaqiyat garovi edi, shuning uchun tangalarga chekilgan burgut suratlari g'alabadan darak beruvchi qushlarga o'xshab tuyulardi Martinga.

Olam go'zal degan fikr yana asta-sekin Martinning ko'nglida paydo bo'la boshladi. Dunyo endi unga yana ham go'zalroq bo'lib ko'rinsa boshlagan edi. Bir necha hafta mobaynida dunyoni zulmat chulg'agandek edi; lekin endi, hamma qarzlar to'lanib, cho'ntakda yana uch dollar jiringlab yotganda, Martinning qalbida muvaffaqiyatga ishonch yana oshdi, oftob Martinga yana issiq,

charog'on bo'lib tuyuldi, hattoki birdaniga sharros quygan yomg'ir ham uni xursand bo'lib tabassum qilishga undadi. Martin och o'tirgan kunlari doim butun dunyoga sochilib ketgan ming-minglab ochlar haqida o'ylagan edi, lekin endi qorni to'ygandan keyin ochlar haqida tashvish qilmay qo'ydi, endi o'z muhabbatiga g'arq bo'lgan Martin yer yuzida yashovchi son-sanoqsiz oshiqlar haqida o'ylay boshladi. Ishqiy she'rlarning misralari asta-sekin esiga tusha boshladi, natijada shunday ijodiy ehtiros ta'siriga berilib ketgan Martin tramvayda ikki kvartal nariga o'tib ketganini ham sezmay qoldi.

Martin kelganda Morzlarning uyi mehmonlar bilan gavjum edi. San-Rafaeldan Rufning ikkita qiz xolavachchasi mehmon bo'lib kelgan edi, shu munosabat bilan missis Morz mehmonlarni zeriktirmaslik bahonasi bilan o'z rejasini - Ruf atrofiga yoshlarni to'plash rejasini amalga oshirishga kirishgan edi. U Martinning kelishga iloj topolmaganidan foydalanib, ishni boshlab yuborgan, shuning uchun hozir ishlar juda avjida edi. Missis Morz turmushda muvaffaqiyat qozongan yoki qozonayotgan kishilarni uyiga taklif qilishni maqsad qilib qo'yg'an edi. Shunday qilib, mehmonxonada Rufning xolavachchalari - Doroti bilan Florensdan boshqa yana ikkita dorifunun muallimi: biri - lotinshunos, ikkinchisi - ingliz filologiyasi mutaxassisi; Rufning maktabdosh o'rtog'i, yaqinda Filippindan kelgan yoshgina qo'shin zobiti; San-Fransiskodagi kredit jamiyatining boshlig'i Jozef Perkinsning shaxsiy kotibi Melvill familiyasi yigitcha; nihoyat, Sten-

ford dorilfununida ta'lim olib chiqib, banklardan birida bosh buxgalter lavozimida ishlayotgan Nil va Qo'shma klublarning a'zosi, saylov kompaniyalari vaqtida respublika partiyasining doimiy va'zoni, o'ttiz besh yoshlardagi bashang yigit – har jihatdan istiqboli porloq Charlz Xepgudlar bor edi. Xonimlardan biri – portretshunos rassom, ikkinchisining kasbi musiqachi, uchinchisi esa San-Fransiskoning xarob mahallalarida o'zining xayriya faoliyati bilan nom chiqarib, jamiyatshunoslik fanlari doktori darajasiga erishgan edi. Aytganday, missis Morzning rejasida ayollar uncha muhim rol o'ynamasdilar. Ular ikkinchi darajadagi o'rinda edi. Axir muvaffaqiyat qozongan yoshlarni biron narsa bilan uyga jalb qilish kerak edi-da.

Ruf Martinni mehmonlar bilan tanishtirishdan oldin unga:

– Suhbat paytida qizishmang, – deb pichirlab qo'ydi.

Martin avvaliga o'zini juda o'ng'aysiz his qila boshladi; u yana bir vaqtlardagidek, harakat qilganida jihozlar yoki bezak ashyolaridan birontasiga tegib ketishdan qo'rqib yurdi. Bundan tashqari, mehmonlar oldida o'zini o'ng'aysiz sezdi. U ilgari hech qachon shuncha ko'p atoqli kishilar bilan birga bo'lgan emas edi. Xususan, bosh buxgalter Xepgud unda zo'r taassurot qoldirdi, shuning uchun Martin fursat kelganda u bilan yaqindan tanishishga ahd qildi. Martin zohiran cho'chib turgan bo'lsa ham, aslida o'zining qudratiga qattiq ishonar edi, shuning uchun ham, erkak va ayollar bilan kuch sinashishni

sabrsizlik bilan kutar, ularning Martin bexabar bo'lgan yana nimalarni kitoblardan va hayotdan o'rganganlarini bilishga oshiqardi.

Ruf unga qarab-qarab qo'yarkan, xolavachchalari bilan juda bahuzur suhbatlashayotgani ni ko'rib benihoya taajjublanar, sevinardi. Martin chindan ham o'tirgan chog'ida o'zini juda xotirjam his qilardi. Chunki u ul-bulni ag'darib yuborishdan xavotir olmasdi. Ruf ikkala xolavachchasining ham bama'ni va ajoyib suhbatdosh ekanligini bilardi, shuning uchun uyquga yotayotganida, ularning Martin haqida aytgan maqtovlarini eshitib taajjublandi. Martin esa o'z ulfatlari davrasida o'taketgan askiyachi va barcha kechki yig'inlarda hamda yakshanba kungi dala sayillarida yig'ilganlarning joni dili bo'lishga odatlanib qolgan edi, shunga ko'ra kutilmaganida bu yerda ham vaqtichog'lik qilish va payrov so'zlarni ishlatish mumkinligini sezdi. Go'yo muvaffaqiyat homiysi uning orqasida turganday va gaplarini ma'qullab, yelkasiga qoqayotganday tuyulardi; mana shuning uchun ham Martin hech tortinmasdan kular, boshqalarni ham kuldirardi.

Yig'inning oxirida Ruf qo'rqqan voqea yuz berdi. Martin professor Kolduell bilan suhbat qilardi, u qo'llarini paxsa qilib gapirma ham, Ruf uning ko'zlarini boshqacha chaqnay boshlaganini, ovozi asta-sekin balandlashib, yonoqlariga qon yugura boshlaganini diqqat-la kuzata boshladi. O'zini tuta olmaydigan va g'ayratini bosa olmaydigan Martin vazmin tabiat yosh professorning tamomila aksi edi.

Lekin Martin endi sirtqi odob qoidalari haqida o'ylamay qo'yan edi. U hamsuhbatining naqadar ma'lumotli va har tomonlama tahsil olgan kishi ekanligini darhol payqadi. Buning ustiga, professor Kolduell Martinning ingliz filologiyasi muallimlari haqidagi umumiy tasavvuridagi odamga aslo o'xshamasdi. Martin professorni o'z ixtisosi mavzuidan gap ochishga majbur qilishni juda istardi, professor avvaliga gapni boshqa tomonga burishga urinib ko'rgan bo'lsa ham, Martin oxiri o'z istagiga erishdi. Nima sababdan o'ltirishlarda har kimning o'z kasbi haqida gapirishi nomatlub deb hisoblashlariga Martin tushunmasdi.

– Axir bu bema'nilik-ku, – degan edi u Rufga bundan bir necha kun ilgari, – nimaga har kim o'z kasbi kori to'g'risida suhbatlashishi mumkin emas? Bas, har kim o'zining kuchli tomonini ko'rsata olmas ekan, unda nima uchun odamlar to'planishadi? Inson doim nimaga ko'proq qiziqsa, uning asosiy mashg'uloti nima bo'lsa, o'z hayotini nimaga bag'ishlagan bo'lsa, nimani o'ylasa va hattoki kecha-yu kunduzi nimani orzu qilsa, u ana shu sohada hammadan kuchli bo'ladi. Chunonchi, mister Betler kiborlar orasida rasm bo'lgan odatga rioya etib, birdan Pol Verleya haqida, nemis dramasi haqida yoki d'Annunsio romanlari haqida o'z fikrlarini izhor qilib qoldi deb faraz qiling. Hammaning yuragi siqilib o'lar-di. Masalan, men agar mister Betlerning gaplarini eshitishni istasam, uning huquqshunoslik haqida gapirishini afzal ko'rardim. Bu sohada unga hech kim teng kela olmaydi, umr esa qisqa,

shuning uchun men hamisha odamlardagi eng yaxshi jihatlarni o'rgangim keladi.

– Biroq, – deb e'tiroz bildirgan edi Ruf, – hamma uchun bir xilda qiziqarli bo'lgan mavzular ham bor.

– Yo'q, bu masalada siz yanglishdingiz, – deb Martin ham e'tiroz bildirgan edi, – deyarli har bir kishi, har bir guruh o'zidan yuqoriroq tabaqadagi odamlarga taqlid qiladi. Jamiyatda eng oliy tabaqadagilar kimlar? Ishyoqmaslar, badavlat ish-
yoqmaslar. Odatda ular biror ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlar biladigan narsalar haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar. Ular bunday narsalar to'g'risida suhbatlashishdan zerikadilar, ana shuning uchun ham ko'pchilik ichida har kimning kasb-kori haqida suhbat qurishini «adabsizlik» deb jar soladilar. Ayni vaqtda, ular odamlarning suhbat mavzuini ham tayinlab beradilar. Yangi opera, yangi romanlar, karta, bilyard o'yinlari, kokteyl ichimliklari, avtomobillar, yaxtalar, ot ko'rgazmalari, ov, baliq tutish va hokazolar haqida, ya'ni, sezyapsizmi, ishyoqmaslarga yaxshi tanish bo'lgan jamiki narsalar haqida suhbat qurish mumkin emish... Aslini olganda, shuning o'zi ishyoqmaslarning kasb-koridir. Hammadan qizig'i shundaki, dono odamlar yoki o'zlarini dono deb hisoblashlarini istaganlar bunday paytda tentak va yalqovlarning rayiga itoat etadilar. Lekin menga qolsa, odamning faqat eng yaxshi jihatlarni o'rganishni istardim. Buni siz har kimning kasb-kori ustidagi suhbat deysizmi, nazokatsizlik deysizmi, nima deb atasangiz atayvering, menga baribir.

Ammo Ruf Martinni tushunmasdi. Rasm-odat bo'lib qolgan narsalarni qoralashini uning qaysarligi va sarkashligidan deb bilardi.

Har holda, Martin o'zining jiddiyligi bilan professor Kolduellni qiziqtirib qo'ydi, uni o'ziga tanish mavzuda gap ochishga majbur etdi. Ruf yaqin kelganda, Martin gapirayotgan edi:

– Lekin siz Kaliforniya dorilfununida bunday safsatani bayon etishga jur'at eta olmasangiz kerak?

Professor Kolduell yelkasini qisdi.

– Har bir nomusli soliq to'lovchi kishi biroz siyosatchi bo'lishi kerak. Sakramento²¹ bizga mablag' ajratadi, shunga ko'ra, Sakramentoni, universitet ma'muriyatini, partiya matbuotini, aniqroq qilib aytganda, ikkala partiya matbuotini e'tiborga olishga to'g'ri keladi.

– Bu tushunarli, lekin sizning holingiz nima kechadi? – dedi Martin. – Siz o'zingizni qirg'oqqa otib yuborilgan baliqday his qilishingiz kerak!

– Bizning universitetimiz hovuzida menga o'xshaganlar juda kam uchraydi. Ba'zan men chindan ham o'zimni qirg'oqqa uloqtirilgan baliqday his qilaman va Parijning biron yerida no'noq qalamkashlar orasida yoki lotin kvartalining serto'polon ahli orasida o'zimni birmuncha durustroq va erkinroq his qilgan bo'lardim deb o'ylay boshlayman. O'shanda men eng arzonbahor restoranlarda ovqatlanib, klaret ichardim-u, koinot haqida benihoya dadil mulohazalar yuritardim. Ba'zida o'zimga o'zim radikal tabiat odamdek tuyulaman. Biroq, afsuski, hali men

²¹ Sakramento – Kaliforniya shtatining poytaxti.

shuning uchun men hamisha odamlardagi eng yaxshi jihatlarni o'rgangim keladi.

– Biroq, – deb e'tiroz bildirgan edi Ruf, – hamma uchun bir xilda qiziqarli bo'lgan mavzular ham bor.

– Yo'q, bu masalada siz yanglishdingiz, – deb Martin ham e'tiroz bildirgan edi, – deyarli har bir kishi, har bir guruh o'zidan yuqoriroq tabaqadagi odamlarga taqlid qiladi. Jamiyatda eng oliy tabaqadagilar kimlar? Ishyoqmaslar, badavlat ish-
yoqmaslar. Odatda ular biror ish bilan mashg'ul bo'lgan odamlar biladigan narsalar haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar. Ular bunday narsalar to'g'risida suhbatlashishdan zerikadilar, ana shuning uchun ham ko'pchilik ichida har kimning kasb-kori haqida suhbat qurishini «adabsizlik» deb jar soladilar. Ayni vaqtda, ular odamlarning suhbat mavzuini ham tayinlab beradilar. Yangi opera, yangi romanlar, karta, bilyard o'yinlari, kokteyl ichimliklari, avtomobillar, yaxtalar, ot ko'rgazmalari, ov, baliq tutish va hokazolar haqida, ya'ni, sezyapsizmi, ishyoqmaslarga yaxshi tanish bo'lgan jamiki narsalar haqida suhbat qurish mumkin emish... Aslini olganda, shuning o'zi ishyoqmaslarning kasb-koridir. Hammadan qizig'i shundaki, dono odamlar yoki o'zlarini dono deb hisoblashlarini istaganlar bunday paytda tentak va yalqovlarning rayiga itoat etadilar. Lekin menga qolsa, odamning faqat eng yaxshi jihatlarni o'rganishni istardim. Buni siz har kimning kasb-kori ustidagi suhbat deysizmi, nazokatsizlik deysizmi, nima deb atasangiz atayvering, menga baribir.

Ammo Ruf Martinni tushunmasdi. Rasm-odat bo'lib qolgan narsalarni qoralashini uning qaysarligi va sarkashligidan deb bilardi.

Har holda, Martin o'zining jiddiyligi bilan professor Kolduellni qiziqtirib qo'ydi, uni o'ziga tanish mavzuda gap ochishga majbur etdi. Ruf yaqin kelganda, Martin gapirayotgan edi:

– Lekin siz Kaliforniya dorilfununida bunday safsatani bayon etishga jur'at eta olmasangiz kerak?

Professor Kolduell yelkasini qisdi.

– Har bir nomusli soliq to'lovchi kishi biroz siyosatchi bo'lishi kerak. Sakramento²¹ bizga mablag' ajratadi, shunga ko'ra, Sakramentoni, universitet ma'muriyatini, partiya matbuotini, aniqroq qilib aytganda, ikkala partiya matbuotini e'tiborga olishga to'g'ri keladi.

– Bu tushunarli, lekin sizning holingiz nima kechadi? – dedi Martin. – Siz o'zingizni qirg'oqqa otib yuborilgan baliqday his qilishingiz kerak!

– Bizning universitetimiz hovuzida menga o'xshaganlar juda kam uchraydi. Ba'zan men chindan ham o'zimni qirg'oqqa uloqtirilgan baliqday his qilaman va Parijning biron yerida no'noq qalamkashlar orasida yoki lotin kvartalining serto'polon ahli orasida o'zimni birmuncha durustroq va erkinroq his qilgan bo'lardim deb o'ylay boshlayman. O'shanda men eng arzonbaho restoranlarda ovqatlanib, klaret ichardim-u, koinot haqida benihoya dadil mulohazalar yuritardim. Ba'zida o'zimga o'zim radikal tabiat odamdek tuyulaman. Biroq, afsuski, hali men

²¹ Sakramento – Kaliforniya shtatining poytaxti.

puxta o'zlashtira olmagan masalalar juda ko'p! Men muhim masalalarni anglab olishga, xususan, hayotning asosiy masalalarini o'zlashtirishda menga xalal beradigan mahdudligimni ko'rib dahshatga tushaman.

Martin uning gapini eshitib o'tirib beixtiyor «Tropik shamol qo'shig'i»ni esladi.

Kunu tun ufurib,

Yelkanlar ko'ksini qabartiraman.

Martin bu so'zlarni sal bo'lmasa ovoz chiqarib aytib yuboray dedi. U professorga qarab o'tirib, uning shimoli-sharqdan esadigan shiddatli, sovuq va kuchli shamolga o'xshash jihatlari borligini topdi. Professor ham mazkur shamol singari vazmin va inobatli edi, lekin uning kishini hayratda qoldiradigan xislatlari ham bor edi. Shimoli-sharqiy tropik shamol hech qachon jon-jahdi bilan o'sha kuchidan foydalanmagani singari, professor ham, aftidan, o'z mulohazasini hech qachon poyoniga yetkazib bayon qilmasa kerak, deb o'yladi Martin. U obrazli mushohada qilish qobiliyatini yo'qotmagan edi. Uning miyasi xuddi xotiralar va uydirmalar to'la kattakon omborga o'xshardi, omborning eshigi esa doimo ochiq turardi. Qanday kor-hol ro'y bermasin, Martinning xayoli o'sha ombordan bir zumda bir-biriga o'xshash yoki aksincha, bir-biriga zid narsalarni olib chiqardi-da, uni yorqin obrazlarda ifodalab berardi. Bu ish tamomila g'ayriixtiyoriy ravishda bajarilardi, mavjud hayotdan olingan har bir hodisaga, albatta, xayolan yaratilgan lavhalar qo'shilib ketardi. Tunov kuni Rufning ko'zida rashkdan paydo bo'lgan uchqunlar unga oy nu-

ridagi poʻrtanani eslatganidek, hozir professor Kolduell koʻz oldida botib borayotgan quyosh nurlaridan qirmizi rangga boʻyalgan dengiz manzarasini va shimoli-sharqiy tropik shamol quyayotgan oq koʻpikli toʻlqinlarni keltirardi. Uning koʻzi oldida har daqiqa sayin shu tarzda har turli manzaralar paydo boʻlar, ammo ular Martinning fikr yuritishiga xalal berish u yoqda tursin, aksincha, uning mulohazalarini ravonlashtirardi. Ana shu manzaralar, ilgari Martin boshidan kechirgan hamma sarguzashtlarning, oʻz koʻzi bilan koʻrgan va kitoblardan oʻqib bilganlarining aks sadosi edi hamda ular muttasil – hushyorlik chogʻida ham, uyqusida ham miyasida gʻujʻon oʻynashardi.

Mana endi Martin oqil va oʻqimishli professor Kolduellning ravon nutqini eshitarkan, beixtiyor oʻzining oʻtmishini esladi. U oʻzining ilk yoshlik davrini, Stetson fabrikasidan chiqqan shlyapani boshiga yarimta qilib qoʻndirib, egniga tugmasi ikki yoqlama qadaladigan kurtka kiygan, yirik-yirik qadam tashlab yuruvchi oʻyinqaroq yigit qiyofasida koʻrdi; bu yigitchaning birdan-bir orzusi politsiya ruxsat etgan doiradan chetga chiqmay, beboshlik, shoʻxlik qilish edi. Martin bu lavhalarni xotirlarkan, uning biron yerini yumshatish yoki yoddan chiqarishni oʻylamasdi ham. Ha, u oʻz hayotining maʼlum bir davrida eng oddiy urishqoq, doimo politsiya bilan olishib kelgan va ishchi mahallasining nomusli aholisiga dahshat solgan shaykaning boshligʻi edi. Lekin endi uning orzulari oʻzgardi. U atrofiga qarab yaxshi tarbiya koʻrgan va bashang kiyin-

gan erkaklaru xonimlarga ko'z yugurtirar, nafis madaniyat havosidan nafas olarkan, shu choq uning yoshlik davrini eslatuvchi sharpa, ikki yoqlama tugmalanadigan kurtka kiyib, mehmonxonaga yozilgan gilam ustidan alpang-talpang yurib kelaverdi. Ana shu ko'cha bolalari shaykasining bebosh boshlig'i endi mana bu Martin Idenga aylanib, hozir yumshoq kursida universitet professori bilan bamaylixotir suhbat qurib o'tiribdi.

Ochig'ini aytganda, Martin haligacha hayotda o'zining chinakam o'rnini topa olgani yo'h. U hamma yerda ham osonlik bilan odamlarga darrov el bo'lib ketardi, doimo hammaning hurmatini qozonar, negaki ishda ham, o'yinda ham orqada qolmas, o'zini himoya qila olar, shu bilan birga o'ziga nisbatan hurmat uyg'ota olardi. Lekin u hech hachon, hech qayerda ildiz ota olmasdi. U o'z o'rtoqlarini xursand qila olar, lekin o'zining hech qachon ko'ngli tinchimasdi. Uni doimo allaqanday tashvish bezovta qilar, qulog'iga doimo uni allaqayoqlarga chorlovchi sado eshitilardi, shuning uchun u to kitoblar, san'at va muhabbatga erishguncha orom topolmay butun umrini darbadarlikda o'tkazdi. Mana endi, kiborlar mehmonxonasida o'tiribdi – o'zining ilgari ulfatlari orasida faqat u Morzlardek asilzodalar uyiga bahuzur kela bilardi.

Bu haqdagi mulohazalarning hech biri Martinning diqqat bilan quloq solishiga xalal bermasdi. U hamsuhbatining tushuncha doirasi naqadar keng ekanligini ko'rdi. U, har holda, Spenser tufayli bilimning umumiy asoslaridan boxabar

bo'lsa ham, ora-sira o'zi olgan tahsilning kamchilik va qusurlarini seza boshladi. Bu qusurlarga barham berish uchun faqat vaqt kerak edi, xolos. «Ana o'shanda, bellashamiz!» – deb o'yladi Martin. Lekin hozircha u professorning og'zidan chiqqan hamma so'zlarni ehtirom bilan tinglab, o'zini uning oyoqlari ostida o'tirganday his qilardi. Biroq Martin uchun hamsuhbatining mulohazalaridagi zaif tomonni aniqlab olish unchalik oson bo'lmasa ham, u narsa suhbat mavzui o'zgarganda bilinib qolardi. Nihoyat, Martin bu zaif tomonning nimadan iborat ekanini aniqlab olganidan keyin, professor bilan oralaridagi tengsizlik hissi darhol g'oyib bo'ldi.

Ruf ularning oldiga ikkinchi marta yaqinlashganda, Martin endi gap boshlagan edi.

– Sizning nimada adashayotganingizni yoki aniqroq qilib aytganda, fikrlaringizning zaif tomoni nimadaligini aytib berishim mumkin, – dedi u. – Siz biologiyani nazarga ilmaysiz, mulohazalaringizda men shu narsani payqadam. Ya'ni, men jonsiz moddalarni jonlantirish borasida laboratoriyada olib boriladigan tajribalardan tortib, eng keng miqyosdagi jamiyatshunoslik va estetik umumlashmalargacha hamma narsani qamrab olgan chinakam ilmiy biologiyani nazarda tutyapman.

Ruf tamomila hang-mang bo'lib qoldi. U professor Kolduellning leksiyasini ikki yil mobaynida eshitgan, professor unga donishmandlikning qaynar bulog'i bo'lib tuyular edi.

– Gapingizga unchalik tushuna olmadim, – dedi taraddudlanib professor.

– Sizga izohlab berishga harakat qilaman, – dedi Martin. – Esimda, Misr tarixini o‘qiganimda, unda Misr san‘atini tushunish uchun avval shu mamlakatning sharoitini o‘rganish lozim degan jumlani o‘qigan edim.

– Juda to‘g‘ri, – deb e‘tirof etdi professor.

– Shuning uchun ham, – deb davom etdi Martin, – menimcha, o‘z navbatida, avval hayotning o‘zini nimadan va qay tarzda tashkil topgani ni bilib olmasdan, mamlakatning xususiyatini o‘rganib bo‘lmaydi. Qonunlar, muassasalar, urf-odatlarini va dini, ularni yaratgan odamlarini, hattoki, bu odamlarning tabiatini o‘rganmay turib, qanday qilib tushuna olamiz? Adabiyot ham Misr ibodatxonalarini va ehromlari singari odam yaratgan narsa emasmi? Nahotki koinotda butun jahon takomili qonuniga tobe bo‘lmagan biron narsa bo‘lsa? Men ayrim san‘atlarning takomil tarixi ishlab chiqilganini bilaman, lekin u yuzaki ishlangan, menimcha. Bu o‘rinda inson chetda qolgan. Cholg‘ulardan arfa, skripka takomili, musiqa, raqs, qo‘shiqning takomili g‘oyat puxta ishlangan. Lekin insonning o‘zi, u birinchi cholg‘u asbobini yasamasdan, ilk dafa qo‘shiq kuylamasdan burun takomilla-sha boshlagan a‘zolari haqida nimalarni aytish mumkin? Siz mana shularni unutyapsiz, men esa aynan shuni biologiya deb atayman. Bu nihoyatda keng ma‘nodagi biologiyadir. Men juda poyma-poy gapiryapman, lekin fikrimga tushunishingizni istardim. Bu fikr siz gapirayotgan paytda miyamga keldi, shuning uchun uni darhol aniq ifodalab bera olmayapman. Siz masala-

ning hamma tomonini – uning jamiki omillari-
ni qamrab olishga imkon bermaydigan insoniy
mahdudlikni eslatib o‘tdingiz. Mana, o‘zingiz in-
sonning jamiki ishlari va amaliyotlarning asosi
bo‘lmish biologik omilni, ya’ni, pirovardida, har
qanday san’atga poydevor bo‘ladigan narsani
unutib qo‘yyapsiz – har holda, menga shunday
tuyulyapti.

Martinning shu zahotiy oq yengilib, adoyi
tamom bo‘lmagani Rufni ajablantirdi; professor
Kolduell, aftidan, hamsuhbatining yoshligini e’ti-
borga oldi, shekilli, uning so‘zlariga diqqat bilan
quloq soldi. Professor bir oz sukutdan so‘ng, soa-
tining oltin zanjirini o‘ynab gap boshladi:

– Bilasizmi, – dedi u, – buyuk bir odam, Jozef
Lekont ismli takomilshunos olim bir vaqtda
menga aynan shunday ta’na qilgan edi. Hozir u
vafot etib ketgan, shuning uchun meni hech kim
fosh qilolmaydi endi deb o‘ylab yurardim, ammo
mana sizning siymongizda yangi ayblovchini
ko‘rib turibman. Nazarimda, sizning qoralashin-
gizda haqiqatning muayyan, hattoki, juda ulkan
hissasi borgan o‘xshaydi – buni e’tirof etmay ilo-
jim yo‘q. Men haddan tashqari klassikaga berilib
ketib, Tabiiyot fanlarining taraqqiyotini uncha-
lik yaxshi kuzata olmabman; bunga sabab, bal-
ki g‘ayratning, ishga bo‘lgan layoqatning yetish-
movchiligidadir. Mening hech qachon bironta
ham fizika yo kimyo laboratoriyasida bo‘lmaga-
nimni bilsangiz juda ham ajablanardingiz. Afsus-
ki, bu haqiqat. Mister Iden, Lekont ham xuddi
siz singari haq edi, ammo qanchalik haq ekanin-
gizni bilolmayman.

Ruf bir narsani bahona qilib, Martinni chetga tortdi va pichirlab dedi:

– Professorga judayam yopishib oldingiz-ku. Balki boshqalarning ham u bilan suhbatlashgisi kelayotgandir.

– Afv eting, – xijolat boʻlib gʻoʻldiradi Martin, – uni men suhbatga tortgan edim, suhbat nihoyatda qiziqarli boʻlganidan boshqalarni unutib qoʻyibman. Qisqasi, shu paytgacha men hech qachon bunaqa aqlli va oʻqimishli hamsuhbatni uchratmagan edim. Keyin, bilasizmi? Ilgarilari men universitetni bitirib chiqqan yoki jamiyatda yuksak martabaga erishgan odamlarning hammasi aql va ilm sohasida xuddi shunday...

– Professor gʻayrioddiy odam, – deb eʼtiroz bildirdi Ruf.

– Ehtimol. Endi kim bilan suhbat qurishimni istaysiz? Menga qarang, yaxshisi, anavi Xepgud bilan uchrashtira qoling.

Martin bosh buxgalter bilan oʻn besh daqiqacha suhbatlashdi, buni koʻrgan Ruf sevgilisining oʻzini tutishidan terisiga sigʻmay quvonardi. Martinning koʻzlari biron marta ham chaqnamadi, yonoqlari biron marta ham qizarmadi, shuning uchun Ruf uning xotirjamlik bilan suhbatlashishidan taajjubda edi. Bilʼaks, bank arboblari tabaqasi Martin oldida butunlay eʼtibordan qoldi va kecha oxiriga borganda, bank arbobi – pastkash odamning sinonimi²² ekan degan fikr tugʻildi. Qoʻshin zobiti oʻz qismatidan behad mamnun, juda oqkoʻngil, sogʻlom va tamkin yigit ekan. Uning ham universitetda ikki yil muttasil oʻqiganini eshitib, Martin

²² Sinonim – maʼnodosh soʻz.

juda hayron qoldi, u olgan ilmlar qayoqda qolganiga hech aqli bovar qilmasdi. Lekin shunday bo'lsa ham, zobit Martinga Charlz Xepguddan yuz karra ko'proq ma'qul bo'ldi.

Keyinchalik Martin Rufga shunday degan edi:

– U odamning pastkashligi emas, balki shu pastkashlikni tumtaroqli, o'ziga bino qo'yib, takabburlik bilan izhor etishi achchig'imni chiqardi. Qancha vaqt ketadi bunday bayonotga? Bu korchalon, ishchi partiyasining demokratik partiya bilan qo'shilganini aytib bo'lguncha, men butun reformatsiya tarixini bayon qilib berishim mumkin edi. Poker o'ynaydigan qimorboz uchun qarta qog'ozlari qanday bo'lsa, uning uchun og'zidan chiqayotgan so'zlar ham shunday. Bir kun emas-bir kun bu o'yinni sizga amalda ko'rsataman.

– Uning sizga yoqmaganiga juda afsuslan-yapman, – deb javob qildi Ruf. – Uni mister Betler juda yaxshi ko'radi. Mister Betler uni eng nomusli va ishonchli kishi deb aytadi; uni har qanday bank muassasasi tayanishi mumkin bo'lgan ulkan qoya deb ataydi.

– Men bunga shubha qilmayman, hatto undan eshitganim uch-to'rt og'iz so'z ham buning uchun kifoya. Lekin endi mening banklarga hech qanday hurmatim qolmadi. Fikrlarimni ochiqdan-ochiq izhor qilayotganim uchun mendan xafa emasmisiz, azizam?

– Aslo! Bu juda qiziq.

– Ha, – deb ta'kidladi Martin, – axir men madaniyatdan ilk taassurot olayotgan yovvoyi odamman-da. Mening bu taassurotlarim madaniyatli

kishi uchun juda maroqli bo'lib tuyulishi kerak, albatta.

– Xolavachchalarim haqida qanday fikrdasiz?
– deb so'radi Ruf.

– Ular boshqa ayollardan ko'ra ko'proq yoqishdi menga. Juda xushchaqchaq va manmanlikni bilmaydigan, sodda tabiat qizlar ekan.

– Bundan chiqdi, sizga boshqa ayollar ham yoqibdi-da?

Martin bosh chayqadi.

– Anavi jamoat arbobi bo'lgan ayol, – ijtimoiy masalalar to'g'risida valaqlaydigan to'tiqushning o'zginasi. Ont ichib aytamanki, uning qorni ni yorsangiz «alif» chiqmaydi. Portret chizuvchi rassom nihoyatda noxush ayol. Xepgudga juda munosib bo'lardi-da u. Musiqachi to'g'risida-ku gap bo'lishi mumkin emas! Bilmadim, ehtimol u yaxshi chalar, barmoqlari klavishlar ustida tez yo'rg'alar, lekin u musiqa sohasida hech nimaga tushunmaydi.

– Ammo u juda yaxshi chaladi, – deb e'tiroz bildirishga urinib ko'rdi Ruf.

– Ha, sirtidan qaragan odamga juda mohirona chalayotganga o'xshaydi, lekin u musiqaning asl mohiyatini mutlaqo tushunmaydi. Men undan, siz musiqadan qanday doxiliy mavhum topasiz, deb so'radim, bilasizmi, bu masala meni doim qiziqtiradi, ammo u ayol, musiqa joni dilim, u dunyodagi san'atlar ichida eng buyugi, musiqani men jonimdan ham ortiq ko'raman, deyishdan boshqa hech nima deb javob bera olmadi.

– Siz hammani ham o'z kasb-kori to'g'risida gapirishga majbur etibsiz, – dedi Ruf o'pkalanib.

– Tan olaman. Biroq ular o‘z kasblari to‘g‘risida bama‘niroq bir gap ayta olmaganlaridan keyin, gapni bironta umumiy mavzu ustiga ko‘chirganlarida mening qanchalik qiynalishimni tasavvur qilib ko‘ring. Men bo‘lsam, bu odamlar madaniyatning barcha imtiyozlaridan foydalana olganlar deb o‘ylabman... – Martin bir on sukutga toldi: boshiga Stetson shlyapasi, egniga ikki yoqlama tugmalanadigan kurtka kiygan yigitning chayqalib yurib xonaga kirib kelayotgani yana ko‘ziga ko‘rindi. – Ha, men bo‘lsam, uyingizga to‘planganlarning hammasi nihoyatda aqlli va o‘qimishli odamlar bo‘lsa kerak deb yuribman. Ammo ular bilan qisqa muddatli muloqotda bo‘ldim, endi xulosa chiqarishim mumkin; u odamlarning aksariyati qip-qizil nodon odamlar, qolgan to‘qson foizi chidab bo‘lmaydigan darajada ruhsiz odamlardir. Lekin professor Kolduell ulardan tamomila mustasno. U miyasining eng so‘nggi hujayrasigacha chinakam inson.

Ruf xursand bo‘lib ketdi.

– Menga professor to‘g‘risida gapirib bering, – dedi u, – ajoyib fazilatlari to‘g‘risida emas, uni o‘zim ham yaxshi bilaman, uning sizga noma‘qul jihatleri haqida gapiring. Judayam bilгим keladi shuni.

– Tag‘in birdan pand yeb qolsam-chi, – deb hazil aralash e‘tiroz bildirdi Martin, – oldin siz gapiring. Yo siz uning faqat yaxshi tomonlarini bilasizmi?

– Men ikki kurs leksiyasini tingladim, ikki yildan ko‘proq bilaman, shuning uchun ham sizning taassurotingizni bilishga juda qiziqaman.

– Xususan, salbiy tomonlarinimi? Nacho-
ra, marhamat! O‘ylaymanki, u sizning hurmat-
e‘tiboringizga arziydigan odam. Men shu payt-
gacha uchratgan hamma odamlar orasida u eng
aqli, eng bilimdon odam, lekin uning ko‘ngli
notinch. Yo‘q, ko‘nglingizga yomon narsa kelma-
sin! – dedi Martin. – Aytmoqchimanki, u narsa-
larning eng chuqur mohiyatini ko‘rgan-u, keyin
juda qo‘rqib ketgan va hech narsa ko‘rganim
yo‘q deb o‘zini o‘zi ishontirmoqchi bo‘lgan odam-
ni eslatadi. Fikrimni aniq bayon etolmadimmi?
Boshqacha yo‘l bilan tushuntirishga urinib
ko‘raman. Siz chakalakzor ichiga yashiringan,
ibodatxonaga olib boradigan so‘qmoqni topgan
bo‘lsa ham, bu yo‘ldan bormagan odamni tasav-
vur qiling. Ehtimol, uning ibodatxonaga ko‘zi
tushgandir-u, lekin bu sarob edi deb o‘zini o‘zi
ishontirmoqchi bo‘lgandir. Yoki yana boshqa
misol. Bir kishi savob ish qilmoqchi bo‘lgan-u,
lekin uni zarur deb topmagan, oqibat o‘sha
qo‘lidan keladigan ishni qilmaganligi uchun
doim afsuslanib yuradi. U o‘z ishi evaziga oladi-
gan mukofotdan ichida kuladi, lekin qalbining
yana ham teranroq bir yerida shu mukofotni va
qilishi kerak bo‘lgan ishidan oladigan huzurini
qo‘msaydi.

– Men uni bunday tasavvur qilmayman, – dedi
Ruf, – keyin, ochig‘ini aytsam, nima demoqchi
bo‘lganingizga uncha yaxshi tushunmayapman.

– Chunki o‘zim ham hali mukammal tushu-
nib olganim yo‘q, – dedi Martin o‘zini oqlamoq-
chi bo‘lganday, – mantiqan asoslay olmayap-
man ham. Men shunday his etyapman, ehtimol,

yanglishayotgandirman. Siz, albatta, professor Kolduellni mendan yaxshiroq bilsangiz kerak.

Morzlarnikida bo'lgan bu o'tirish Martinning dilida juda g'alati va bir-biriga zid hislar tug'dirdi. Qilmoqchi bo'lgan ishidan ko'ngli sovidi, o'zi yuksak saviyali deb o'ylagan odamlardan hafsalasi pir bo'ldi, vaholanki, Martin ularning saviyalariga yetishishni orzu qilardi. Ikkinchi tomondan, erishgan muvaffaqiyati unga dalda berdi. E'tibor qozonish u o'ylaganidan oson ekan. Martin yuksaklikka ko'tarilish qiyinchiliklarini yengib olish bilan birga (u soxta kamtarlik yuzasidan buni o'zidan yashirishga urinmasdi), o'zi tenglashmoqchi bo'lgan odamlardan yuqorilab ketgan edi, professor Kolduell bundan mustasno, albatta. Martin hayotni ham, kitoblarni ham bu odamlarning hammasidan ancha yaxshi bilardi, shuning uchun ular o'z ilmlarini qaysi burchaklarga va yerto'falarga tiqib tashlaganlarini bilolmay hayron edi. U hali o'zining o'ta iste'dodli odam ekanligini xayoliga ham keltirmas, mutafakkirlarni aslo Morzlarning mehmonxonasidan axtarish kerak emasligini, bu mutafakkirlar yerdan juda balandda, oddiy hayot tashvishlari va pastkashliklardan nihoyatda yiroqda parvoz qilib yuruvchi burgutlarga o'xshashini ham bilmas edi.

YIGIRMA SAKKIZINCHI BOB

Omad Martin Iden manzilini yo'qotib qo'ydi, baxt elchilari uning eshigini qoqmay qo'ydilar. Martin hattoki yakshanba va bayram kunlari

dam olmay, yigirma besh kun mobaynida deyarli o'ttiz ming so'zdan iborat «Sharmanda bo'lgan quyosh» nomli katta bir maqola yoza boshladi. Bu Meterlink maktabiga xos mistitsizmga qarshi puxta o'ylangan hujum edi – mo'jizalarni orzu qiluvchi xayolparastlarga qarshi pozitiv bilimlar qal'asidan qilingan hujum edi; to'g'ri, bu maqolaning o'zida ham mo'jiza unsurlari mavjud edi, ammo ular faktlarga zid emasdi. Martin keyinroq bu yirik maqolasiga: «Mo'jiza kohinlari» va «O'z shaxsimiz me'yori» degan ikkita kichik maqolasini ham ilova qildi. So'ng, uchala maqola Martinning hisobiga tahririyatlararo sayohatga chiqdi.

«Sharmanda bo'lgan quyosh»ga sarf bo'lgan yigirma besh kun mobaynida Martin o'zining «daromad keltiruvchi» asarlarini olti yarim dollarga sotishga muvaffaq bo'ldi. Bitta asariga u ellik sent, haftalik yumoristik jurnalga yuborilgan boshqa bir asariga bir dollar oldi. Bundan tashqari, yana ikkita yumoristik she'ridan birini ikki dollarga, boshqasini uch dollarga sotdi. Nihoyat, nasiyaga mol olish mumkin bo'lmay qolgandan keyin (shundoq ham baqqol besh dollargacha nasiyaga mol bergan edi), Martin yana velosipedi bilan paltosini olib borib garovga qo'yishga majbur bo'ldi. Yozuv mashinkasidan foydalanayotgani uchun yana haq talab qila boshladilar va Martinga shartga muvofiq haqni bir oy oldindan to'lashi kerakligini eslata boshladilar.

Bir necha mayda-chuyda asarlariga xaridor topilganidan ko'ngli ko'tarilgan Martin yana «daromadli» asarlar yozishga kirishmoqchi bo'ldi. Ehtimol, shular bilan bir amallab kun ko'rish

mumkin bo'lar. Uning stoli ostida adabiyot agentliklari tomonidan rad etilgan yigirmatacha mayda hikoyalar taxlanib yotardi. U gazetada bosiladigan hikoyalarni qanday yozish yo yozmaslikni o'rganish maqsadida va shu yo'sinda qat'iy bir dastur ishlab chiqish niyatida mazkur hikoyalarni qayta o'qib chiqdi. U gazetada bosiladigan hikoyalar fojiali bo'lmasligi kerak, ular falokat bilan tugamasligi kerak va uslubining go'zalligi, g'oyasining originalligi, tuyg'ularning nozikligi bilan ajralib turmasligi kerak degan fikrga keldi. Ammo hikoyada his-tuyg'u albatta bo'lishi, bo'lganda ham oshib-toshib yotgan bo'lishi kerak, bir vaqtlar uni «qashshoq bo'lsa ham, nomusli bo'lsin» degan mavzuda yozilgan tumtaroq vatanparvarlik ruhidagi melodrama va pesalarni galyorkada o'tirib olqishlashga da'vat etgan eng dabdabali va oliyjanob tuyg'ular mavjud bo'lishi kerak edi.

Martin shu narsalarni aniqlab olib, o'zi ishlab chiqqan dastur asosida hikoyalar yozishga kirishdi. Dastur uch qismdan iborat edi:

1) ikki oshiq-ma'shuq bir-birlaridan judo bo'lishga majbur;

2) bironta hodisa tufayli ular qayta topishadilar;

3) to'yga chorlovchi qo'ng'iroq sadolari. Uchinchi qism o'zgarmas edi, lekin birinchi va ikkinchi qismlar cheksiz o'zgarib tura olardi. Oshiq-ma'shuqlar mash'um anglashilmovchilik, yuz bergan biron tasodif, o'zga oshiq yigitning rashki, johil ota-onalar, ayyor homiylarning kasriga qolish va h. k. sabablar tufayli ajrashib ketishi mumkin edi; ularning qayta topishishi-

ga oshiqning yoki ma'shuqaning bironta mar-donavor ishi, homiyning, ota-onaning yoki raqib-larning majburiy yo ixtiyoriy rozi-rizoligi, bironta sirning kutilmaganda fosh qilinishi, oshiqning fidoyiligi va shu kabi son-sanoqsiz hodisalar sa-babchi bo'lardi. Rozilik bildirish uchun qizning qo'yg'an birinchi qadami juda ta'sirli chiqardi, Martin bu mavzuni takomillashtirish davomida yana ko'p ta'sirli vositalar va nayranglar o'ylab chiqardi. U faqat bir narsani o'z xohishicha ba-jara olmasdi: har bir hikoyaning oxirida, osmon uzilib yerga tushsa ham, albatta to'yga chorlov-chi qo'ng'iroq sadolari yangrashi kerak edi. Hi-koyaning hajmi ham doimo muayyan, ya'ni, eng ko'pi bir yarim ming, eng ozi bir ming ikki yuz so'zdan iborat bo'lardi.

Bu xildagi hikoyalarni yozish san'atini mu-kammal o'zlashtirib olishdan oldin, Martin besh-oltita sxema tuzib oldi va yozuv jarayonida hikoyani shu sxemaga moslab bichib-to'qiyverdi.

Bu – yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga, o'ng-dan chapga, chapdan o'ngga ham o'qilaveradi-gan, hech miyani qotirib o'tirmay, doimo to'g'ri va aniq javob olish mumkin bo'lgan matemati-ka jadvaliga o'xshardi. Martin mazkur sxemalar asosida yarim soat ichidayoq o'nlab syujet tuzib, bir chetga olib qo'yar, keyin bo'sh vaqtlarida yoza boshlardi. Odatda, bularni u kun bo'yi jiddiy ish-lar bilan shug'ullangandan keyin, uyquga yotish oldida yozardi. Keyinchalik u Rufga, bunday hi-koyalarni hatto tushimda ham yarata oladigan bo'lib qoldim, deb aytgan edi. Eng muhimi – sxe-ma tuzib olish, qolgan ish o'z-o'zidan ketaverardi.

Martin Iden o'z dasturining amaliy natija berishiga shubha qilmas edi. Shunga ko'ra, u dastlabki ikki hikoyasini tahririyatlarga yuborarkan, ularning pul bo'lishiga ishonchi komil edi. Darhaqiqat, o'n kunlardan keyin Martin har biri to'rt dollarli ikkita chek oldi.

Bu orada u jurnalistlar haqida yangidan-yangi noxush xabarlar topdi. «Transkontinental oylik jurnali» uning «Qo'ng'iroq sadosi»ni bosib chiqardi, lekin chek yubormadi. Martin pulga muhtoj edi, shuning uchun jurnalga maktub yozdi. Chek o'rniga mujmal javob oldi, javob xatida yana biron narsangizni yuboring degan iltimos ham bor edi. Martin ikki kun och o'tirib, yana velosipedini garovga qo'yishga majbur bo'ldi. U o'zining besh dollar haqi borligini haftada ikki bor «Oylik» jurnalining esiga solib turdi, lekin dastlabki javob tasodifan kelgan bo'lsa kerak. «Oylik» jurnali mana bir necha yildirki, zo'rg'a kun ko'rib kelar, uning na obunachilari va na xaridorlari qolgan edi, u faqat o'z sahifalarida bosiladigan e'lonlar hisobiga (bu ham bo'lsa xayr-ehson uchun berilardi) yashab kelardiki, Martin bular-dan bexabar edi. Shuningdek, u «Oylik» jurnali noshir bilan muharrir uchun birdan bir daromad manbai ekanligini va bu daromadni ular faqat mualliflarga muntazam ravishda haq to'lamaslik evaziga olishlarini ham bilmasdi. Noshir Martin-ga tegishli besh dollarga o'zining Alamadadagi uyini bo'yaganini, bo'yaganda ham o'z qo'li bilan bo'yaganini, chunki bo'yoqchilar uyushmasi tomonidan belgilangan haqni to'lashga puli yetmasligini, ammo u yollagan birinchi shtreyk-

brexer allakim tomonidan ataylab turtib yuborilgan narvondan yiqilib oyog'ini sindirganini va kasalxonaga jo'natilganini Martin qayoqdan ham bilsin.

Shuningdek, Martin Chikago gazetasi qabul qilgan «Xazina qidiruvchilar» ocherki uchun tegadigan o'n dollarni ham olmad. Ocherk bosilib chiqqan edi, u shahar qiroatxonasidagi gazetalarni ko'rib chiqib, bunga ishonch hosil qildi, lekin noshirdan hech qanday javob ololmadi. Uning xatlari javobsiz qolardi. Maktublarining yetib borganiga ishonch hosil qilish uchun Martin buyurtma xat yozardi. Bu talonchilik degan qarorga keldi u, kuppa-kunduz kuni sovuqqonlik bilan qilingan talonchilik – u och nahor o'tirsa-yu, uning non pulini, yagona imkoniyatini, uning molini o'g'irlashsa.

«Yoshlik va yetuklik» haftalik jurnali Martin yuborgan yigirma ming so'zdan iborat qissasining uchdan ikki qismini bosib chiqardi-yu, birdan butunlay chiqmay qo'ydi. Shunday qilib, o'n olti dollardan ham umid uzildi.

Bular ham kamday, uning eng yaxshi deb hisoblagan «Qozon» hikoyasi nest bo'lib ketdi. Umidsizlikka tushgan Martin son-sanoqsiz jurnallardan nihoyat San-Fransiskoda chiqadigan «To'lqin»ni tanlab, hikoyasini shu jurnalga yuborgan edi. Negaki bu jurnaldan tez javob olishi mumkin edi: uning tahririyati yaqinda, ko'rfazning narigi sohilida edi. Ikki haftalardan keyin o'z hikoyasining jurnalning ko'zga tashlanadigan yerida rasmlar bilan bezatilib bosilganini ko'rib, o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi. Martin se-

vinchdan yuragi gup-gup urib, uyiga qaytib keldi-da, bu eng yaxshi hikoyasi uchun qancha haq to'lashlarini o'ylab topishga urindi. U hikoyani zudlik bilan qabul qilinib, bosib chiqarilganidan xursand edi. To'g'ri, noshir hikoyaning qabul qilingani haqida xabar bermagan edi, lekin bu kutilmagan voqea unga yana ham lazzatliroq tuyuldi. Martin bir-ikki hafta kutdi, keyin yana bir necha kun o'tgandan keyin soxta uyatchanlikni yig'ishtirib qo'yib: «To'lqin»ning muharririga, ehtimol, ish boshqaruvchining e'tiborsizligi natijasida mening arziyas haqimni yuborish unutilgandir degan mazmunda xat yozdi.

«Loaqal besh dollar to'lashsa ham, – deb mulo-haza qilardi Martin, – shunga loviya bilan no'xat sotib olishim, keyin yana shunga o'xshagan hikoyalardan besh-oltitasini yozib tashlashim mumkin».

Nihoyat javob keldi; bu javob xati o'zining o'taketgan hayosizligi bilan Martinni dong qotirib qo'ydi:

«Bizga yuborgan ajoyib hikoyangiz uchun sizdan behad minnatdormiz. Biz, tahririyat xodimlari, uni maroq bilan o'qib chiqdik, o'zingiz ko'rgandirsiz, jurnalimizning eng chiroyli yerida bosib chiqardik. Rasmlar sizga manzur bo'lgandir deb umid qilamiz.

Yozgan maktubingiz mazmunidan ma'lum bo'ldiki, siz mualliflik gonorari olishni umid qilibsiz. Afsuski, biz buyurtirilmagan asarlar uchun haq to'lamaymiz, sizning hikoyangiz shular jumlasidan edi. Biz uni bosmaga qabul qilar-kanmiz, shartimiz sizga ayon bo'lsa kerak deb

o'ylagan edik, albatta. Bunday ko'ngilsiz ang-lashilmovchilik sodir bo'lganiga afsuslanishdan o'zga ilojimiz yo'q. Sizga yana bir bor minnatdor-lik bildiramiz va sizdan yana biron narsa olishni umid qilamiz. Sizga hurmat bilan» va hokazo.

Maktubning ilovasida, odat bo'yicha «To'fqin» hech kimga bepul yuborilmaydi, lekin shun-ga qaramay, tahririyat Martin Idenni kelgusi yil obunachilar safiga kiritishni o'zi uchun zo'r sharaf deb biladi», deb yozilgan edi.

Shu ko'ngilsiz voqeadan so'ng Martin doim qo'lyozmasining birinchi sahifasiga: «Odatdagi stavkangiz bo'yicha haq olishga roziman» deb imzo chekadigan bo'ldi.

«Bir kun emas-bir kun, – deb u o'ziga tasalli berardi, – ular mening odatdagi stavkam bo'yicha haq to'laydigan bo'ladilar!»

Bu paytlarda Martin mustaqil ravishda kamo-lotga yetish ehtirosiga berilgan edi; shunga ko'ra u «Quvnoq ko'cha», «Hayot sharobi», «Quvonch», «Dengiz qo'shiqlari» va boshqa ilk asarlarini tin-may tuzatar va qayta-qayta ishlardi. Unga o'n to'qqiz soatlik ish kuni yana ozlik qila boshla-di. Ko'p yillardan beri tamaki chekib kelayotgan Martin xumorini mehnat bilan unutishga urinib, jon-jahdi bilan o'qir va yozardi. Ruf yuborgan dorini yozuv stoli g'aladonining eng uzoq burcha-giga tiqib tashlagan edi. Ayniqsa, och paytlari-da tamakisiz vaqt o'tkazish mashaqqatli edi; u chekish istagini unutishga qanchalik urinmasin, hech eplay olmasdi. Martin buni o'zi qilgan eng buyuk jasorat deb hisoblar, Ruf esa to'g'ri ish qilyapti deb o'ylardi, xolos. Ruf Martinga va'da

qilgan dorisini to'g'nag'ichlar sotib olish uchun beriladigan pulga olgan edi, lekin bir necha kundan keyin uni butunlay esidan chiqarib yubordi.

Martin o'zining sxema bo'yicha yozgan hikoyalari yomon ko'rar, ulardan kulardi, lekin aynan ana shu hikoyalarga xaridor topilib turar edi. Shu hikoyalar tufayli u qarzlaridan uzildi, hatto velosipediga yangi shina ham sotib oldi. Uni shu hikoyalar boqar, yana jiddiy ish uchun ham vaqti qolardi. Bundan tashqari, «Oq sichqon»dan olingan qirq dollar hamisha Martinga ilhom bag'ishlab turardi. Kim bilsin, birinchi darajali boshqa jurnallar ham noma'lum mualliflarga shuncha, hattoki undan ham ko'proq haq to'larlar. Lekin eng muhim vazifa ana shu birinchi darajali jurnallarda asarini bostirish yo'lini topishdan iborat edi. Ular Martinning eng yaxshi hikoya va she'rlarini ketma-ket rad etib kelardilar, holbuki, mazkur jurnallarning har sonida o'nlab didsiz va bemaza narsalar bosilardi.

«Qani endi, – deb o'ylardi ba'zan Martin, – shu takabbur noshirlardan biron-tasi iltifot ko'rsatib, menga ko'nglimni ko'taruvchi bir satrgina xat yozsa! Ehtimol, ijodim juda ham g'ayrioddiydir, ehtimol, turli mulohazalarga ko'ra ularga to'g'ri kelmayotgandir, lekin nahotki asarlarimda javobga arziydigan hech narsa bo'lmasa».

Shundan keyin Martin qo'liga «Sarguzasht»ni yoki shunga o'xshash boshqa hikoyani olib, yuzinchi marta qayta o'qib chiqarkan, noshirlarning sukut saqlashlari sababini aniqlamoqchi bo'lardi.

Kaliforniyaning iliq bahori kirishi bilan Martinning huzur-halovatli kunlari tugadi. Bir necha

hafta mobaynida adabiyot agentligining negadir sukut saqlashi uni tashvishga solib qo'ydi. Nihoyat kunlarning birida sxema bo'yicha yozilgan o'nta hikoyasi qaytib keldi. Ko'lyozmalarga ilova qilingan xatda, agentlik materialga ko'milib ketgan, shunga ko'ra bir necha oy davomida birona ham yangi qo'lyozmani qabul qila olmaydi, deb yozilgan edi. Martin esa mana shu o'nta hikoyadan umidvor bo'lib, keyingi kunlarda hatto birmuncha serxarjroq bo'lib qolgan edi. Agentlik, odatda, bir hikoyaga besh dollardan to'lar va hanuzgacha birona ham hikoyasini rad etmagan edi; shuning uchun ham Martin xuddi joriy hisob raqamida ellik dollar puli yotgan odamday ish tutgan edi. Shunday qilib, uning uchun to'satdan og'ir sinovlar davri boshlandi, natijada umidsizlikka tushib, eski hikoyalari-ni yana mayda nashriyotlarga yubora boshladi; ular hikoyalarini bosardilar-u, haq to'lamasdilar, yangi asarlarini esa yirik jurnallarga yuborardi, lekin bular haq ham to'lamasdilar, bosmasdilar ham. U yana garovga mol qo'yiladigan do'konga qatnay boshladi. Nyu-Yorkda chiqadigan haftalik jurnallar tomonidan qabul qilingan bir necha kulgili she'rlari bir amallab kunini o'tkazishga imkon berdi. Shunda u barcha yirik jurnallarga: «Nima sababdan mening asarlarimni bosmaysizlar?» deb yozishga jur'at etdi. «O'zboshimchalik bilan yuborilgan qo'lyozmalar odatda muhokama qilinmaydi, bosilayotgan materiallarning aksari qismi jurnallarning buyurtmasiga ko'ra nomi chiqqan va tajribali mualliflar tomonidan yoziladi», deb javob qaytarishdi Martinga.

YIGIRMA TO‘QQIZINCHI BOB

Bu yoz Martin Iden uchun juda og‘ir keldi. Muharrirlar va taqrizchilar dam olgani tarqalib ketishgan edi, shunga ko‘ra odatda uch haftada qaytadigan qo‘lyozmalar, endi tahririyatlarda uch oylab yotib qolardi. Martinga tasalli beradigan birdan-bir narsa shu ediki, markaga pul sarflash kerak emasdi. Yolg‘iz qaroqchi jurnalchalarda hayot qaynardi. Shuning uchun Martin o‘zining barcha ilk asarlari «Marvarid tutuvchilar», «Dengizchining kasbi», «Toshbaqa ovi», «Shimoli-sharqiy tropik shamoli»ni shu jurnalchalarga yubordi. Lekin bu qo‘lyozmalardan birontasiga ham haq to‘lanmadi. To‘g‘ri, olti oy davom etgan yozishmalardan keyin Martin «Toshbaqa ovi» uchun gonorar sifatida xavfsiz ustara, «Akropol» jurnali esa, «Shimoli-sharqiy tropik shamoli» uchun unga besh dollar pul va besh yilga mazkur jurnalga bepul obuna qilishga va‘da berdi, lekin va‘dasining ikkinchi qisminigina bajo etdi.

Martin didi nozik, lekin kambag‘al Boston noshirlaridan birining quruq hamyonidan Stivenson haqida yozgan soneti uchun bir amal-lab ikki dollar undirdi. San-Fransisko yirik temir yo‘l shirkati mablag‘iga nashr etiladigan jurnal-lardan birining muharririga Martinning endigina yozib bitirgan ikki yuz satrli «Parizod va marva-rid» nomli o‘tkir satirik dostoni juda yoqib qoldi. Muharrir dostonga to‘lanadigan haq evaziga Martinga poyezdda yurish uchun tekin chipta tavsiya qildi. Martin, shu chiptani boshqaga berishim mumkinmi, deb so‘rab xat yozib yubordi.

Tekin chiptadan foydalanish huquqini boshqaga berish mumkin emasligini va demakki, bundan pul ishlash imkoni yo'qligini bilgach, qo'lyozmani qaytarib yuborishlarini talab qildi. Oradan ko'p o'tmay qo'lyozma qaytib keldi, qo'lyozma bilan birga muharrirning dostonni jurnalda bosa olmaganiidan taassuflangani haqidagi maktubini ham oldi. Martin qo'lyozmani yana San-Fransiskoga, bu safar «Qovoq ari» nomli jurnalga yubordi; bu jurnalni bir vaqtlar ajoyib bir jurnalist tashkil qilgan va qisqa muddat ichida uning obro'sini juda oshirib yuborgan edi. Biroq, baxtga qarshi, «Qovoq ari»ning baxt yulduzi Martin tug'ilmasdan ancha oldin so'na boshlagan edi. Muharrir doston uchun Martinga o'n besh dollar va'da qildi, lekin doston bosilib chiqdi-yu, muharrir, aftidan, va'dasini unutilib qo'ydi. Martin juda ko'p marta xat yozib, birontasiga ham javob olmagach, nihoyat, haqoratomuz xat yozgan edi, jurnalning yangi muharriridan sovuqqina xat oldi; yangi muharrir sobiq muharrirning xatolariga javobgar emasligi, «Parizod va marvarid» dostoni o'ziga mutlaqo yoqmagani haqida yozgan edi.

Lekin Chikagoda chiqadigan «Globus» jurnali Martinni rosa xunob qildi. Martin ko'p muhohazalardan so'ng, nihoyat ochdan o'lmaslik uchun «Dengiz qo'shiqlari»ni bostirishga qaror qildi. O'nlab jurnallar rad etgan bu she'rlar nihoyat, «Globus» tahririyatidan o'ziga sokin «boshpana» topdi. Turkumda o'ttizta she'r bo'lib, Martin har bir she'rga bir dollardan olishi kerak edi. Birinchi oydayoq to'rtta she'ri bosilib chiqdi, Martin fursat o'tmay, to'rt dollarga chek oldi;

lekin u jurnalni o'qidi-yu, hang-mang bo'lib qoldi: She'rlarning sarlavhalari o'zgartirilgan edi: «Finis» so'zi «Finish»²³ deb bosilgan: «Yolg'iz qoya qo'shig'i»ga «Marjon qoyasi qo'shig'i» deb nom qo'yilgan edi. Yana bir she'r mutlaqo to'g'ri kelmaydigan boshqa nom bilan o'zgartirilgan edi: «Meduza shu'lası» o'rniga muharrir «Qaytish yo'li» deb sarlavha qo'yan edi. She'rlarning o'zi bundan ham beshbattar buzilgan edi. Martin g'azabdan tishlarini g'ijirlatar, sochlarini yulardi. Jumlar, satri, butun-butun bandlar tushirib qoldirilgan, chalkashib ketgan joki almashib ketganidan ba'zi bandlarni mutlaq tushunib bo'lmadi. Ayrim misralar tamomila boshqa she'r misralari bilan almashtirilgan edi. Martin bunday yovuzlik bama'ni muharrirning qo'lidan kelishini tasavvur ham qila olmasdi, bu ish bosmaxonaning bironta dastyori yoki nusxa ko'chiruvchining hunari bo'lsa kerak deb o'ylardi. Martin, she'rlarimni bosishni zudlik bilan to'xtatib, o'zimga qaytarib yuboring, deb talab qildi, u dam yolvorib, dam po'pisa qilib, hech ketini uzmay xat yozaverdi. Lekin hamma xatlari e'tiborsiz qoldi. Har oyda jurnal sahifalarida uning rasvo qilingan she'rlari bosilib chiqar va Martin har oy sayin gonorar cheki olib turardi.

Martin shu muvaffaqiyatsizliklar paytida «Oq sichqon»dan olgan qirq dollarni eslab, yana o'ziga tasalli berardi-yu, lekin tirikchilik uchun mayda-chuyda asarlar yozishga tobora ko'proq vaqtini sarflardi. U kutilmaganda qishloq xo'ja-

²³ «Finis» (lotincha) – tamom; finish (ingl.) – sportda yurgan odamning oxirgi marrasi.

lik va tijorat jurnallarida «non puli» chiqadigan joy topib oldi, u hatto haftalik diniy jurnal bilan ham aloqa qilishga urinib koʻrdi-yu, lekin bu yerda ochlikdan oʻlishi muqarrarligini anglab qoldi.

Ahvol tang boʻlib, qora kostyum yana garovga qoʻyilgan paytda, respublika partiyasi okrug qoʻmitasi eʼlon qilgan tanlovda Martin yutib chiqdi. Aslida, bu bir emas, uchta tanlov boʻlib, Martin uchallasida ham gʻolib chiqqan edi. U oʻzidan, oʻzining shunday vositalar bilan kun koʻrishidan achchiq-achchiq kuldi. Uning dostoni oʻn dollar miqdoridagi birinchi mukofotga, tashviqot qoʻshigʻi besh dollarli ikkinchi mukofotga va nihoyat, respublika partiyasining vazifalari haqidagi maqolasi yigirma besh dollarli birinchi mukofotga sazovor boʻlgan edi. To pul olar chogʻi yetib kelguncha sevinib yurdi. Aftidan, qoʻmitada biron hodisa yuz bergan boʻlsa kerak, chunki aʼzolar orasida bir bank egasi va bir senator boʻlishiga qaramay, qoʻmitada pul topilmadi. Bu sansalorlik paytida Martin demokrat partiyasi vazifalarini ham yaxshi tushunganini isbot qilib, shunday tanlov uchun yozgan maqolasiga birinchi mukofotni oldi. Bu yerda u oʻzining yigirma besh dollarini undirib oldi. Respublika tanlovi boʻyicha olishi kerak boʻlgan qirq dollarni esa ololmadi.

Martin Ruf bilan uchrashish uchun bir hiyla ishlatishga majbur boʻldi. Shimoliy Oklenddan Morzlarning uyiga piyoda borib kelish juda koʻp vaqtini olgani uchun Martin velosipedini sotib olib, qora kostyumini garovga qoldirmoqchi boʻldi. Velosipedda borish ham vaqtini tejari, ham

ajoyib jismoniy mashgʻulot edi. Bundan tashqari, uning egnidagi kalta kanop shim va eski toʻr koʻylak velosiped minganda kiyadigan kiyimga juda oʻxshardi. Martin tushki ovqatdan keyin yana Ruf bilan velosiped sayriga chiqa boshladi. Ularning uyida endi Ruf bilan ikki ogʻizgina gaplashishga ham imkon qolmagan edi, chunki missis Morz mening uyimda faqat kiborlar koʻngil ochishi mumkin deb tuzgan rejasini amalga oshirishda davom etardi. Morzlarning mehmonxonasiga kelib turadigan asilzodalar va yaqinginada Martinning zoʻr ehtiromiga sazovor boʻlgan shu jamoa namoyandalari endi uning gʻashiga tegardi. Endi bu jamoa unga mumtoz boʻlib koʻrinmasdi. Mashaqqatli turmush, ogʻir ish va doimiy muvaffaqiyatsizliklar Martinni asabiy va serjahl qilib qoʻygan edi, shuning uchun ham, bu odamlarning bemaʼni gaplari uning achchigʻini chiqarardi. Lekin u magʻrur boʻlganidan qilmasdi buni. U buyuk mutafakkirlarning kitoblarini gʻoyat zoʻr ehtirom bilan oʻqir va odamlar toʻgʻrisida ularni mazkur mutafakkirlarga qiyos qilib turib hukm chiqarardi. U Rufning uyida hanuzgacha bironta ham chinakam dono odamni uchratmagan edi; lekin oʻsha bir kelganicha qaytib kelmay qoʻygan professor Kolduell bundan mustasno edi, albatta. Qolgan hamma mehmonlar ayanchli aqidaparastlar, qisqa fikrli arzimmas odamlar edi. Martin ularning nodonligidan hayratga kelardi. Nega ular bu qadar nodon? Ular olgan ilmlarini qayerga tashlab kelganlar? Axir ular ham Martin oʻqigan kitoblarni oʻqishgan-ku. Qanday

qilib ular bu kitoblardan hech qanday saboq ololmaganlar?

Dunyoda zakovatli odamlar, teran fikrli mutafakkirlar borligini Martin bilardi. Uning Morzlar muhitidan ham yuksalib ketishiga ko'maklashgan kitoblar buning eng yaxshi isboti edi. Hattoki «jamiyat» deb yuritiluvchi muhitda ham Morzlar mehmonxonasini to'ldirgan kishilardan donoroq va ancha ajoyibroq odamlarni uchratish mumkin edi, buni Martin yaxshi bilardi. Martin o'qigan ingliz romanlarining personajlari kiborlar mehmonxonasida siyosiy va falsafiy mavzularda mubohasa yuritardi. U nainki Angliyaning, hattoki Amerikaning ham yirik shaharlarida salonlar mavjudligini va u yerlarda san'at va ilmiy tafakkur namoyandalari to'planishlarini bilardi. U ilgari tentak edi, shuning uchun ishchilar tabaqasiga mansub bo'lmagan har bir yaxshi kiyingan kimsani g'oyat o'tkir farosatli, go'zallik tuyg'usiga boy odam deb tasavvur qilardi. Qotirma yoqa unga madaniyat alomati bo'lib tuyular, lekin dorilfunun diplomi bilan chinakam tahsil aslo bir-biriga o'xshamasligini bilmasdi.

Hay, mayli! Yuksalish uchun u o'ziga o'zi yo'l ochadi. Rufni ham ergashtirib ketadi. Martin qizni joni dilidan sevar va uning har qanday muhitda ham kishilar e'tiborini o'ziga tortib turishiga ishonar edi. Martin o'zi yashagan muhit bir vaqtlar unga xalaqit bergani singari, Ruf tug'ilib o'sgan muhit ham ko'p jihatdan unga xalaqit berishini bilardi. Shu choqqacha Ruf o'z saviyasini oshirishga imkon topa olmagan edi. Otasining kabinetidagi kitoblar, devorlarga osil-

gan suratlar, royaldagi notalar – bular hammasi faqat zohiriy dabdaba edi. Morzlar va ularning tanish-bilishlari chinakam adabiyot, chinakam tasviriy san’at, chinakam musiqa oldida ko’r va kar edilar. Lekin eng muhimi, ular hayot haqida hech qanday tasavvurga ega emas edilar. Ular o’zlarini unitariylar deb atashar, aftlariga mo’tadil shakkoklik niqobini tutib yurishar, lekin pozitiv²⁴ fandan kamida ikki asr orqada qolgan edilar; ular o’rta asr kishisi singari fikr yuritis-hardi, dunyoning yaratilishi va hayotning kelib chiqishi haqidagi mulohazalari, tosh asridagi singari, hatto undan ham ilgariroq yashagan odamlarniki singari behuda edi. Bu – eng birinchi maymunsimon odamni qorong’ulikdan qo’rqishga majbur etgan, dastlabki yahudiylarning miyasida Momo Havoning Odam Ato qovurg’asidan paydo bo’lgani to’g’risidagi fikrni tug’dirgan, Dekart ongida, dunyo kishining o’z ayanchli shaxsining in’ikosi, degan idealistik tasavvurni vujudga keltirgan, bir mashhur ingliz ruhoniysini qaqshatqich satirik asar yozib, tadrijiy takomil ustidan kulishga va shu tufayli o’z ismini tarix sahifalarida qora harflar bilan yozib qoldirishga targ’ib etgan metafizik edi.

Martin bular to’g’risida o’ylagan sari, bu advokat-u zobit-u korchalon-u bankchilar bilan ishchilar tabaqasiga mansub odamlar o’rtasidagi bor-yo’q farq ularning turlicha ovqatlanishi, yashashi va kiyinishidan iborat, degan e’tiqodi tobora kuchaya bordi. Martin kitoblarda o’qib topgan va o’z qalbida his qilgan narsalar u jami-

²⁴ Tajribaga asoslangan.

yatda ham, bu jamiyatda ham yo'q edi: Morzlar o'z tabaqasiga mansub bo'lgan eng nufuzli asilzodalarni ko'rsatdilar, ammo Martin ularga qoyil qolmadi. Hattoki sudxo'rning qashshoq malayi ham Martin Morzlarning mehmonxonasida uchratgan odamlardan ancha idrokliroq edi. Martin garovga qo'ygan bitta-yu bitta kostyumini sotib olgandan keyin esa bu odamlar davrasida o'zini xuddi podachilar orasida yashashga majbur bo'lgan shahzoda singari o'z qadr-qimmatini oyoqosti bo'lganini his qila boshladi.

– Siz sotsialistlarni yomon ko'rasiz, ulardan qo'rqasiz, – dedi Martin bir kuni ovqat ustida mister Morzga, – lekin nega? Axir siz ularning o'zini ham, ularning nazariyalarini ham bilmaysiz-ku.

Sotsializm haqidagi bu suhbat missis Morzning mister Xepgud haqidagi har safargi madhiyasidan keyin boshlanib ketgan edi. Martin o'ziga bino qo'ygan bu pastkash odamni ko'rgani ko'zi yo'q edi, uning to'g'risida aytilgan har qanday so'z jig'ibiyronini chiqarardi.

– Ha, – dedi Martin, – Charli Xepguddan umid katta, hamma shu to'g'rida gapiradi, bu to'g'ri. Men o'ylaymanki, u gubernator kursisiga o'lishidan ancha oldin o'tiradi. Qo'shma Shtatlar senatori bo'lsa ham ajab emas...

– Nega bunday deysiz? – so'radi missis Morz.

– Men uning saylovoldi kampaniyasida so'zlagan nutqini eshitdim. Nutqi shu qadar ahmoqona dono, chaynalgan hamda ayni zamonda shu qadar ishonarli ediki, siyosat peshvolari uni e'timodli va xavfsiz odam deb hisoblashlari turgan gap edi, uning nutqidagi hayosiz gaplar esa

oddiy saylovchining hayosizligiga mos tushardi. Axir har kim ham o'z fikrini, silliqlashtirilgan va bezatilgan fikrini minbardan eshitishni xush ko'radi-da.

– Nazarimda, siz mister Xepgudga hasad qilayotganga o'xshaysiz, – dedi Ruf.

– Xudo saqlasin!

Martinning chehrasida shunday qo'rquv alo-mati paydo bo'ldiki, missis Morz urishadigandek to'rsayib oldi.

– Mister Xepgudni tentak demoqchi emasmi-siz? – deb sovuqqina so'radi u.

– Oddiy respublikachidan yoki oddiy demok-ratdan ahmoqroq emas, – deb e'tiroz bildirdi Mar-tin. – Ularning hammasi yo mug'ambir yoki ah-moq, lekin mug'ambirlar ozchilikni tashkil qiladi. Birdan-bir aqlli respublikachilar – millionerlar va bilib turib ularga malaylik qiluvchilardir. Bu-lar, albatta, qayerdan jiz isi kelayotganini juda yaxshi bilishadi.

– Mana, men respublikachiman, – dedi mister Morz jilmayib turib, – xo'sh, meni qaysi toifaga qo'shasiz?

– Siz o'zingiz bilmagan holda ularga xizmat-korsiz.

– Xizmatkor?

– Ha, albatta. Siz axir korporatsiya uchun xizmat qilyapsiz-ku. Sizning ishchilar orasida mijozlaringiz yo'q, jinoiy ish ham olib bormaysiz. Siz o'z xotinlarini do'pposlaydigan erlar yoki kis-savurlardan daromad ko'rmaysiz. Siz jamiyatda eng muhim o'rin tutgan odamlar hisobiga kun ko'rasiz; zeroki, har qanday odam ham o'zini bo-

qadigan kishi uchun xizmat qiladi. Albatta, siz xizmatkorsiz! Siz o'zingiz xizmat qilayotgan kapitalistik tashkilotlar ehtiyojini himoya qilishdan manfaatdorsiz.

Mister Morzning yuziga xiyolgina qizil yugurdi.

– Sizga shuni aytib qo'ymoqchimanki, ser, – dedi u, – siz ashaddiy sotsialistdek gapiryapsiz.

Ana shundan keyin Martin sotsializm haqidagi o'z mulohazasini bayon qildi.

– Siz sotsialistlarni yomon ko'rasiz, ulardan qo'rqasiz. Nega shunday? Siz axir ularning o'zini ham, fikrlarini ham bilmaysiz-ku.

– Lekin sizning fikrlaringiz, har holda, sotsialistlarning fikrlariga mos tushyapti, – deb e'tiroz bildirdi mister Morz.

Ruf hamsuhbatlarga hayajon bilan tikilar, missis Morz esa Martinning oila boshlig'i oldida e'tiborini yo'qotayotganidan ich-ichidan sevinardi.

– Modomiki, men respublikachilarni tentak deb, ozodlik, tenglik va birodarlikni yorilgan sovun ko'pigiga o'xshatarkanman, bundan sotsialistman degan xulosa chiqarib bo'lmaydi, – dedi Martin kulimsirab. – Agar men Jeffersonning va uning dunyoqarashiga ta'sir etgan o'sha g'ayri ilmiy fikr yurituvchi fransuzning mulohazalariga qo'shilmagan ekanman, bu ham mening sotsialist degan nom olishim uchun kifoya emas. Sizga shuni aytib qo'yayki, mister Morz, sotsializmga mendan ko'ra siz ancha yaqinroqsiz; aslini surishtirganda, men uning eng ashaddiy dushmaniman.

– Siz, albatta hazil qilayotgan bo'lsangiz kerak? – sovuqqina so'radi mister Morz.

– Aslo. Gapim jiddiy. Siz tenglikka ishonasiz, ammo o‘zingiz butun fikru zikri shu tenglikni gumdon qilishga qaratilgan kapitalistik korporatsiyalarga xizmat qilasiz. Meni esa faqat shuning uchun sotsialist deb ataysizki, men tenglikni inkor qilyapman, aslini olganda, aynan siz o‘zingizning butun faoliyatingiz bilan isbotlayotgan tamoyilni tasdiqlayapman. Respublikachilar to‘g‘ri kelgan hamma yerda tenglik haqida jar solsalar ham, aslida ular tenglikning eng ashaddiy dushmanlaridir. Ular tenglik deb, tenglikni yo‘q qiladilar. Shuning uchun ham men ularni ahmoq deb aytyapman. Chunki shaxsiyatparastman. Men poygada eng chaqqon odam o‘zishini, kurashda eng kuchli odam engishini bilaman. Bu haqiqatni biologiyadan o‘rgandim, har holda menga shunday tuyulyapti. Takror aytamanki, men shaxsiyatparastman, shaxsiyatparastlar sotsialistlarning azaliy abadiy dushmanidir.

– Biroq o‘zingiz ham sotsialistlarning namoyishlariga borib turasiz-ku, – dedi mister Morz achchig‘i chiqib.

– Albatta. Xuddi dushman qarorgohida bo‘lgan josusdek. Bo‘lmasa, dushmanning kirdikorlarini qanday qilib bilib bo‘ladi? Innaykeyin, ularning namoyishlarida juda vaqtim chog‘ bo‘ladi. Sotsialistlar ajoyib mubohasachilardir, shu bilan birga yaxshimi, yomonmi, har holda juda ko‘p narsa o‘qishgan. Ularning har biri sotsiologiya va boshqa «logiya»lar to‘g‘risida oddiy kapitalistga nisbatan birmuncha ko‘proq biladilar. Ha, men sotsialistlarning namoyishlarida o‘n martacha bo‘lganman, lekin bu bilan sotsialist bo‘lib qol-

ganim yo‘q, xuddi shunga o‘xshash, Charli Xepgudning va‘zxonligidan respublikachi ham bo‘lib qolganim yo‘q.

– Bilmadim, bilmadim, – dedi mister Morz taraddudlanib, – lekin negadir nazarimda, sotsializmga yon bosayotganga o‘xshaysiz.

«Jin ursin seni, – deb o‘yladi Martin, – biron-ta ham so‘zimga tushunmabdi-ku! Devorga gapiribman-da! Olgan tahsillari qayoqqa ketgan o‘zi buning?»

Shunday qilib, Martin o‘z yo‘lida iqtisodga asoslangan axloq bilan – sinfiy axloq bilan yuzma-yuz to‘qnashdiki, ko‘p o‘tmay u Martin uchun chinakam qo‘riqchiga aylandi. Undagi shaxsiy axloqning tamal toshi aql-idrok edi, natijada, atrofidagi odamlarning axloq qoidalari, ularning dabdabali suratda valaqlashlaridan ham ko‘proq jig‘iga tegardi; ularning axloq qoidalari iqtisod, mavhumot, ko‘ngli bo‘shlik va taqlidchilikning g‘alati qorishmasidan iborat edi.

Bu holni Martin tasodifan o‘z qarindoshlarining xatti-harakatida uchratib qoldi. Opasi Meriyen bir zahmatkash nemis yigiti bilan tanishgan edi; u mexanik bo‘lib, o‘z kasbini mukammal o‘rganib olgandan keyin velosiped ustaxonasi ochgan edi; bundan tashqari, u arzon velosipedlarni sotishga vakolat olib, durustgina kun kechira boshlagan edi. Meriyen Martinning oldiga kirib, unashtirilganini aytdi, keyin hazillashib ukasining qo‘lini oldi-da, kafidagi chiviqlarga qarab uning kelajagi to‘g‘risida bashorat qila boshladi.

Keyingi safar Meriyen o‘zi bilan German Shmidtni boshlab keldi. Martin ularning ik-

kovini eng nafis iboralar bilan tabrikladi, lekin bu tabrik, aftidan, befarosat kuyovga unchalik ma'qul tushmagandek edi, Martin Meriyen kelib ketgandan keyin yozgan she'rlarini o'qib bergan edi, ko'ngil g'ashlik yana kuchaydi. Bu opasiga bag'ishlangan «Fol ochuvchi qiz» nomli nafis bir she'r edi. Martin uni ovoz chiqarib o'qib bo'lgach, mehmonlarning mamnun bo'lmaganini ko'rib taajjublandi. Aksincha, opasi kuyov bolaga hayajon bilan tikilib turardi, kuyovning to'pori yuzida esa qayg'u-alam ifodasi ko'zga tashlanib turardi. Xullas, mojaro shu bilan tugadi, mehmonlar darrov jo'nab ketishdi, Martin ham buni unutilib yubordi, holbuki, u qanday qilib ayol kishi, ishchilar tabaqasidan chiqqan bo'lsa ham, o'z sha'niga she'r yozilganidan mamnun bo'lmaydi deb hayron edi.

Bir necha kundan keyin Meriyen yana Martinning oldiga kirdi, bu safar u yolg'iz edi. U xonaga kirib ulgurmasdan ukasining noma'qul qiligidan o'pka qila boshladi.

– Nima gap o'zi, Meriyen? – deb so'radi taajjublangan Martin. – Bu gapingdan xuddi qarindoshlaringdan yoki o'z ukangdan nomus qilayotganga o'xshaysan.

– Ha, nomus qilyapman, – dedi qiz.

Martin opasining ko'zlarida alam yoshlarini ko'rib, tamoman esankirab qoldi. Har holda, qiz juda qattiq ranjigan edi.

– Nahotki o'sha Germaning ukaning o'z opasi haqida she'r yozganidan rashk qilayotgan bo'lsa?

– Hecham rashk qilayotgani yo'q, – dedi Meriyen piqirlab yig'lab. – U buni kelishmagan qiliq, sharm... sharmandalik deyapti.

Martin ishonqiramay hushtak chaldi, stol g'ala-donidan «Fol ochuvchi qiz»ning bir nusxasini oldi.

– Tushunolmadim, – dedi u qog'ozni opasiga uzatarkan, – o'zing o'qib ko'r, nimasi sharmandalik? Sen shunday deb aytding, shekilli?

– German aytgandan keyin to'g'ri-da, – deb e'tiroz bildirdi Meriyen aftini bujmaytirib, qog'ozni o'zidan chetlatarkan. – Buni yirtib tashlasin deb aytdi u. Mening xotinim haqida bunday narsalar yozishlarini ham, uni hamma o'qishini ham istamayman deb aytdi. Bu sharmandalik... Men bunga chiday olmayman dedi u.

– Menga qara, Meriyen, axir bu g'irt ahmoqlikku, – deb Martin gap boshlagan edi, lekin fikri o'zgardi.

Qarshisida baxtiqaro qiz o'tirardi; uning qallig'iga gap uqtirish qanchalik mushkul bo'lsa, bunga uqtirish ham shuncha qiyin edi. Martin yuz bergan voqeaning naqadar bema'niligini tushunib turgan bo'lsa ham, itoat etishni ma'qul ko'rdi. U:

– Ha, yaxshi, – dedi-da, qo'lyozmani mayda-mayda qilib yirtib, savatga tashladi.

«Fol ochuvchi qiz»ning asosiy nusxasi Nyu-York jurnallaridan birining tahririyatida yotgani uchun ko'ngli tinch edi. Meriyen bilan uning eri buni hech qachon bilmaydilar, shunga ko'ra, kichkinagina ma'sum bir she'rning bosilib chiqqanidan na ular, na Martinning o'zi, na butun dunyo zarar ko'radi.

Meriyen taraddudlanib qo'lini savatga cho'zdi.

– Maylimi? – deb so'radi u.

Martin «ha» degandek bosh irg'adi, so'ng burdalab tashlangan qo'lyozmaning bo'laklarini te-

rib choʻntagiga solayotgan opasining harakatini jimgina kuzatib turdi: bu topshirilgan ishning muvaffaqiyat bilan bajarilganining daliliy ashyosi edi. Meriyenning bir yeri Lizzi Konolliga oʻxshardi; holbuki, u teatrdagi uchratgan yosh ishchi qiz qalbidagi otash va hayot ehtirosi opasida yoʻq edi. Lekin ularning kiyinishlari, qiliqlari va feʼl-atvorlari koʻp jihatdan bir-biriga oʻxshar edi. Martin birdan bu ikki qizni Morzlarning mehmonxonasida tasavvur etib, oʻzini jilmayishdan tiya olmadi. Lekin bu qiziq manzara koʻzidan gʻoyib boʻldi-yu, Martinni yolgʻizlik hissi oʻz girdobiga tortdi. Opasi ham, Morzlarning mehmonxonasi ham uning yoʻlidagi maʼlum davrlar edi, xolos. Bularning hammasi orqada qolib ketdi. Martin oʻz kitoblariga zavq bilan tikildi. Bular uning birdan-bir va hamisha vafodor hamrohlari edi.

– Nima? Nima deding? – deb soʻradi u birdan ajablanib.

Meriyen savolini takrorladi.

– Nimaga ishlamayapsan degin? – Martin kulib yubordi, ammo kulgisi unchalik samimiy emas edi, – oʻsha Germaning soʻrab kelgin deb aytgandir-da?

Meriyen «yoʻq» degandek bosh chayqadi.

– Yolgʻon gapirma, – dedi Martin qatʼiy ohangda, qiz xijolatdan boshini xam qildi. – Borib ayt oʻsha Germaningga, birovlarning ishiga suqilmasin. Uning qalligʻiga bagʻishlab sheʼr yozganimda, ehtimol, aralashishga haqqi bordir, ammo undan nariyogʻiga tumshugʻini tiqmasin. Bildingmi? Demak, sen mendan yozuvchi chiqmaydi deb oʻylayotgan ekansan-da? – deb da-

vom etdi u. – Meni yoʻldan adashib qoldi, oilamizni sharmanda qilyapti deb oʻylayotgan ekan-sanda? Shundaymi?

– Oʻzingga bironta ish qidirib topsang yaxshi boʻlardi, – qatʼiyat bilan dedi Meriyen; Martin opasining samimiyat bilan gapirayotganini koʻrdi. – German aytadiki...

– Jin ursin oʻsha Germaningni! – Martin ochiq yuz bilan opasining gapini boʻldi. – Undan koʻra, menga ayt-chi, toʻylaring qachon oʻzi? Keyin, oʻsha Germaningdan borib soʻra, mendan toʻyona olishingga lutfan ijozat berarmikin?

Opasi ketgandan keyin Martin achchiq istehzo qilib uzoq vaqtgacha shu mojaro toʻgʻrisida oʻylab oʻtirdi. Ha, ularning hammasi – opasi bilan kuyovi ham, oʻzi mansub boʻlgan muhit kishilari bilan Rufning atrofidagi odamlar ham – hammasi umumiy andozaga moslashadilar, hammalari avvaldan hozirlab qoʻyilgan uch pulga arziyas qolipga solingan uch pulga qimmat hayot kechiradilar. Bu ayanchli maxluqlar hamisha bir-birlariga yer ostidan qarab, hamisha bir-birlariga taqlid qilishga urinadilar, ular oʻzlari goʻdaklik chogʻidan asir boʻlib qolgan bemaʼni qonun-qoidalarni buzmaslik uchun oʻz shaxsiy xislatlarini yoʻq qilib tashlashga, jonli hayotdan voz kechishga tayyordirlar. Martinning koʻz oldidan tanish qiyofalar tizilishib oʻta boshladi: Bernard Xigginbotam mister Betler bilan qoʻltiqlashib oʻtdi. German Shmidt Charli Xepgud bilan quchoqlashib oʻtdi. Martin ularning hammasini juft-juft va yakka-yakka holda oʻtishini diqqat bilan koʻzdan kechirdi, ularning

hammasini o'zi o'qigan kitoblardan o'rgangan aqliy va axloqiy qiymat andozasi bilan o'lchadi, lekin ularning birontasi ham sinovdan o'ta olmadi. Ulkan qalb egalari, buyuk donishmandlar qani o'zi? – deb bergan savollari javobsiz qoldi. O'zining tor hujrasini to'ldirgan pastkash, befarosat va axloqsiz sharpalar olomoni ichida donishmandlar ko'rinmasdi. Martin bu olomonga shu qadar nafrat bilan qaradiki, faqat Sirseya o'zining cho'chqalariga shunday nafrat hissi bilan qaragan bo'lishi mumkin.

Sharpalarning eng so'nggisi g'oyib bo'lgach, birdan kutilmagan va chaqirilmagan yana bir sharpa namoyon bo'ldi; bu – boshiga soyaboni juda keng shlyapa, egniga ikki yoqlama tugmalı kurtka kiygan alpang-talpang yuruvchi yigit – uzoq o'tmishdagi Martin Iden edi.

– Sen ham ulardan qolishmasding, oshnam, – istehzo bilan dedi unga Martin. – Sening axloqiy tasavvuring ham ularnikiga o'xshardi, sen ham ulardan ortiq bilmasding. Hech narsa ustida bosh qotirmas, tashvishlanmas eding. Xuddi kiyimlarning tayyorini sotib olgandek, fikrlarni ham tayyor holicha o'zlashtirarding. Sen boshqalarga ma'qul tushgan ishlarni qilarding. Seni o'z to'dangga boshchilik qilishga loyiq deb topganlari uchun boshliq bo'lding. Senga yoqqanligi uchun emas – aslida sen bunday narsalardan nafratlanarding – balki o'zgalar seni rag'batlantirib yelkangga qoqib qo'yganligi uchun to'daga boshchilik qilarding, odamlar bilan urishar eding. Sen Moy Qovoqqa bo'sh kelishni istaganing uchun uni urding, shuning uchun ham

unga bo'sh kelishni istamadingki, vujudingda ibtidoiy vahshiy odam qoni bor edi, buning ustiga yana, erkak kishi qahri qattiq, qonxo'r va berahm bo'lishi kerak, urish, mayib qilish faqat erkak kishining ishi deb qulog'ingga quyishgan edi. Nega endi sen, zumrasha o'rtoqlaringning qizlarini o'zingga og'dirib olarding? Ular senga yoqqanligi uchun emas, balki sening xulqingni belgilagan atrofingdagi odamlarning ayg'ir va yovvoyi takaga xos tabiati hamma narsadan ustun edi, xolos. Mana, o'shandan beri ancha-muncha vaqt o'tib ketdi. Xo'sh, endi shularning hammasi to'g'risida qanday fikrdasan?

Go'yo bu savolga javoban, sharpaning qiyo-fasi zudlik bilan o'zgara boshladi. Dag'al kurtka bilan cheti keng shlyapa g'oyib bo'ldi, ularning o'rnini oddiy bir kostyum oldi; chehrasidagi shafqatsizlik ifodasi yo'qoldi, samimiyat va nafasat tuyg'usi bilan jonlangan yuzi ichki shu'la bilan yorishdi. Sharpa endi hozirgi Martinga juda o'xshab ketardi; u stol oldida, chiroq shu'lasini tushib turgan ochiq kitob ustiga engashib turardi. Martin kitobning nomiga qaradi. Bu «Estetika asoslari» edi. Shu zahotiy oq Martin ko'lanka bilan qo'shilib ketdi-yu, stol yonida o'tirib, mutolaaga berildi.

O'TTIZINCHI BOB

Bundan bir yil burun, bir-birlariga sevgi izhor etgan o'sha mezon oyining ajoyib kuni singari kuz kunlaridan birida, Martin o'zining «Muhabbat sonetlari»ni Rufga o'qib o'tirardi. Hozir ham

o'tgan yildagidek tepaliklar orasida, o'zlarining sevimli joylarida edilar. Zavqlangan Ruf to'vush chiqarib dam-badam Martinning o'qishini bo'lib turardi, shuning uchun ham Martin qo'l-yozmaning so'nggi sahifasini o'qib bo'lib chetga qo'ygach, qizning nima deyishini hayajon bilan kuta boshladi.

Ruf ancha vaqtgacha sukut saqlab o'tirdi, nihoyat, aytmoqchi bo'lgan fikrlarini aytishga jur'at eta olmayotganday tutila-tutila gapira boshladi.

– Juda go'zal she'rlar, – dedi u. – Ha, albat, ular juda go'zal. Ammo siz ular uchun pul ololmaysiz-da. Ya'ni, nima demoqchi bo'lganimni tushunyapsiz, – dedi qiz yolveruvchi ohangda. – Bu she'rlaringizning hayotda hech qanday qimmatini yo'q. Buning boisi nimada ekanligini bilmayman, balki ayb talab shartlaridadir, lekin siz asarlaringiz orqasidan kun ko'ra olmaysiz. Gaplaringiz to'g'ri tushuning, azizim. Men juda faxrlanaman – aks holda, ayol kishi bo'lmagan bo'lardim – bu ajoyib she'rlarning menga bag'ishlanganidan men faxrlanaman va sevinaman. Lekin bu she'rlar nikoh kunimizni yaqinlashtira olmaydilar-ku, shunday emasmi, Martin? Meni tamagir qiz ekan deb o'ylamang yana. Men sizni sevaman, shuning uchun doim kelajagimizni o'ylayman. Axir bir-birimizni sevishimiz haqida ahdu paymon qilganimizga bir yil bo'ldi, lekin to'y kunimiz ilgari qancha uzoq bo'lsa, hali ham shu. Bu gapim sizga behayolik bo'lib tuyulmasin; gap mening qalbim, mening butun hayotim to'g'risida borayotganini eslang. Agar judayam yozishga maylingiz zo'r bo'lsa, unda biron gazetadan ish

toping. Masalan, muxbir bo'lsangiz bo'lmaydimi? Hech bo'lmaganda qisqa muddatga, a?

– Uslubimni buzib qo'yaman, – bo'g'iq ovoz bilan javob qildi Martin, – shu uslubimni ishlab chiqishim uchun qancha mehnat qilganimni siz tasavvur ham qila olmaysiz.

– Axir siz pul topish niyatida gazetalarga feletonlar ham yozgan edingiz-ku. Ular uslubingizni buzmadimi?

– Bu tamomila boshqa narsa. Men ularni kun bo'yi jiddiy asarlar yozish bilan mashg'ul bo'lganimdan keyin, qiynalib, ichimdan siqib chiqarardim. Muxbir bo'lish – ertadan kechgacha kosiblik qilish, shu ishga butunlay sho'ng'ib ketish demakdir. Hayot qandaydir bir quyunga o'xshab qoladi, na o'tmish, na kelajak bo'ladi-yu, faqat shu bir daqiqagina yashab qolish bilan cheklanadi kishi. Muxbir faqat muxbirlik to'g'risida o'ylay oladi, allaqanday uslub to'g'risida bosh qotirishga vaqti ham bo'lmaydi. Muxbirlik boshqa, adabiyot boshqa. Uslubim endigina shakllangan paytda muxbirlik qilish men uchun adabiy o'lim bo'lardi. Hozir ham har bir yozgan feletonim, ulardagi har bir so'z men uchun azob beradi, ular o'zimga, go'zallik hissiyotiga qilinayotgan jabrdir. Menga naqadar og'ir ekanligini siz tasavvur qilolmaysiz. Men o'zimni jinoyatchi deb his qilardim. «Jo'n» hikoyalari meni sotib olmay qo'yishganida hatto ichimdan sevingan ham edim, holbuki, buning natijasida kostyumimni garovga qo'yishga majbur edim. Lekin «Muhabbat sonetlari»ni yozganimda dilim qanday rohat qilganini bilsangiz edi! Axir ijod

nash'asi – yer yuzida eng oliyjanob quvonch-da. Bu quvonch jamiki muhtojliklarim evaziga meni mukofotladi.

Ruf uchun «ijod nash'asi» quruq gap ekanligini Martin bilmas edi. To'g'ri, qiz bu so'zlarni suhbat paytida tez-tez ishlatib turardi, Martinning o'zi ham ijod nash'asi haqida birinchi marta uning og'zidan eshitgan edi. Ruf bu haqda o'qigan, universitet professorlarining leksiyalarida eshitgan, hattoki san'atshunoslik bakalavri darajasi uchun imtihon topshirayotganda ham tilga olgan edi. Lekin uning o'zi har qanday mustaqil fikrdan, har qanday ijodiy ehtirosdan mahrum edi, faqat boshqalar og'zidan eshitganlarini takrorlay olardi, xolos.

Balki muharrir sizning «Dengiz qo'shiqlari»nigizni tuzatib to'g'ri qilgandir? – deb so'radi Ruf. – Adabiy asarga to'g'ri baho bera olmagan muharrir muharrir bo'la olmas edi-da.

– Mana, hamma odatlangan mulohazaning ildiz otganiga yana bir dalil, – o'zi yomon ko'rgan muharrirlar toifasi tilga olingani uchun jahli chiqib ketgan Martin tajang bo'lib e'tiroz bildirdi. – Mavjud narsa nainki to'g'ri deb, hatto eng asl narsa deb hisoblanadi. Bironta hodisaning mavjudligi mazkur hodisaning to'g'riligini isbotlovchi dalil deb e'tirof etiladi, shunga e'tibor qilingki, yana hozirgi sharoitdagina emas, balki abadulabad shunday. Albatta, avom epaqaga kelmaydigan nodon bo'lgani uchungina bu safsataga ishonadi. Bunday odamlarning fikr yuritish jayronini Veyninger juda yaxshi tasvirlagan. Fikr yurita olmaydiganlar o'zlarini mutafakkir qilib

ko'rsatadilar va mustaqil fikr yuritadiganlarning taqdirini hal qiladilar.

Ruf hali bunday gaplarni tushunish darajasiga yetmagan bo'lsa kerak deb cho'chigan Martin birdan gapdan to'xtadi.

- Veyningerning kimligini men bilmayman, - deb e'tiroz bildirdi qiz, - siz hamma narsani umumlashtirishga biram ishqibozsizki, natijada men fikrlaringizni tushuna olmay qolaman. Aytmoqchimanki, agar muharrir...

- Men sizga aytmoqchimanki, - deb uning so'zini bo'ldi Martin, - o'sha muharrirlarning hech bo'lmaganda to'qson to'qqiz foizi omadi kelmagan odamlar, xolos. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan yozuvchilar. Ular uchun tahririyatda aziyat chekib mehnat qilish va taqdirlari jurnalning tarqalishiga hamda noshirning uddaburonligiga bog'liq ekanligini e'tirof etish ijod nash'asini surishdan ko'ra ko'ngilliroq deb o'ylamang. Ular yozishga urinib ko'rishgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchraganlar. Mana shu yerga kelganda, eng bema'ni va ko'pchilikning fikriga zid fikr paydo bo'ladi: adabiy muvaffaqiyatning barcha eshiklarini mana shu soqchi itlar, ya'ni, ishi o'ngmagan adabiyotchilar qo'riqlaydilar. Muharrirlar, ularning yordamchilari, taqrizchilar, umuman, qo'lyozmalarni o'qiydiganlarning hammasi bir vaqtlar yozuvchi bo'lishni orzu qilgan, ammo bo'la olmagan odamlardir. Adabiyot taqdirini hal qilish huquqiga ega bo'lgan, eng so'nggi bosqichda turishi lozim bo'lgan mana shu odamlar nimani chop qilish kerag-u, nimani chop qilish kerak emasligini hal qiladilar. Mana

shu iste'dodsiz o'rtamiyona kishilar asarning originalligi va iste'dodi haqida mulohaza yuritadilar. Ularning orqasida aynan shunday muvaffaqiyatsizlikka uchragan tanqidchilar turadilar. Ular hech qachon she'r yoki nasriy asar yozishni orzu qilmagan, yozib ko'rmagan deb ayta ko'rmang menga, yozib ko'rishgan, lekin hech vaqo chiqmagan. Journallarda bosilgan tanqidiy maqolalarni o'qiganda, xuddi baliq moyi ichgandek ko'ngling ayniydi.

Xullas, mening bu barcha taqrizchilar va o'zini tanqidchi deb yurganlar haqida qanday fikrda ekanligimni yaxshi bilasiz. Albatta, buyuk tanqidchilar ham bor, ammo ular dumli yulduzlar singari juda siyrak uchraydi. Agar mendan ham yozuvchi chiqmasa, borib muharrirlik qilaman. Har holda, non puli, nainki non puli, hatto nonga surtish uchun sariyog' puli ham topib turaman-u.

Biroq Rufning o'tkir idroki o'z sevgilisining mulohazalaridagi ziddiyatni shu zahotiyog' payqadi.

- Xo'sh, yaxshi, Martin, agar shunday ekan, agar iste'dodli kishilar uchun ham hamma eshiklar yopiq ekan, unda buyuk yozuvchilar qayerdan chiqqan?

- Ular g'ayri imkoniy ishlarning uddasidan chiqqanlar, - deb javob qildi Martin, - ular shunday otashin, shunday porloq asarlar yaratganlarki, natijada g'animplari kuyib kul bo'lib ketgan. Ular mingtadan bitta odamga nasib bo'ladigan mo'jiza tufayli muvaffaqiyat qozonganlar. Ular Karleylning yengilmas nahanglariga o'xshaydi.

- Men ham shunday qilaman. Men g'ayri imkoniy narsaga erishaman.

– Bordi-yu, magʻlubiyatga uchrab qolsangiz-chi? Meni ham oʻylashingiz kerak-ku, Martin!

– Magʻlubiyatga uchrasammi? – goʻyo Ruf aql bovar qilmaydigan gap aytgandek, Martin unga bir daqiqacha tikilib qoldi. Soʻng uning koʻzlari mugʻombirona chaqnab ketdi. – Unda muharrir boʻlaman, siz esa muharrirning xotini boʻlasiz!

Ruf bu javobdan norozi boʻlib yuzini jozibali tarzda bujmaytirdi, Martin esa shu zahoti ketma-ket boʻsa olgan edi, yuzi ochilib ketdi.

– Yaxshi, yaxshi, yetar, – deb eʼtiroz bildirardi Ruf Martin kuchining sehdidan oʻzini iroda kuchi bilan xalos qilishga urinib. – Men dadam bilan ham, oyim bilan ham gaplashdim. Ular bilan hech qachon bunaqa gʻijillashmagan edim. Men talab qildim, ularga behurmatlik qildim, sarkashlik etdim. Ikkovlari ham sizga qarshi, lekin qattiq turib sizni sevishimni aytgan edim, nihoyat, dadam sizni oʻz kontorasiga ishga qabul qilishga rozi boʻldi. U hatto turmush qurishimizga va biron yerda kichkinagina kottejda alohida yashashimizga imkon tugʻdirish uchun hozirdan sizga kattaroq maosh toʻlamoqchi. Bu zoʻr himmat, shunday emasmi, Martin?

Martinning yuragini umidsizlik changalab siqqanday boʻldi. U tamaki va qogʻoz olgani beixtiyor qoʻlini choʻntagiga tiqdi (lekin ularni koʻpdan beri yoniga solib yurmasdi) va bir nima deb toʻngʻillab qoʻydi.

Ruf gapida davom etdi:

– Ochigʻini aytdim, xafa boʻlmaysiz, men shunchaki vaziyatni sizga bildirib qoʻydim, ochigʻini aytganda, sizning keskin mulohazalaringiz da-

damga hech yoqmaydi, undan tashqari, u sizni dangasa deb aytadi. Men-ku, dangasa emasligingizni bilaman, judayam ko'p ishlaysiz.

«Yo'q, buni hatto siz ham bilmaysiz», – deb o'yladi Martin, lekin ovoz chiqarib boshqa narsani so'radi:

– Xo'sh, o'zingiz qanday fikrdasiz? Sizga ham mening mulohazalarim haddan tashqari keskin tuyuladimi? – Martin qizning ko'zlariga tik qarab, uning javobini kutib turdi.

– Menga ular... shubhali tuyuladi, – deb javob berdi nihoyat Ruf.

Bu bilan hamma gap aytib bo'lingan edi, shuning uchun Martinning ko'ziga hayot biridaniga shunday shumshuk bo'lib ko'rindiki, u Rufning ehtiyotlik bilan qilgan taklifini – otasining kontorasiga ishga kirish taklifini tamomila unutib yubordi. Ruf esa hozir qattiq talab qilish kerakmasligini his qilib, bu masalaga qaytishga imkon beruvchi qulay fursat kelguncha kutishga rozi edi.

Lekin ko'p kutishga to'g'ri kelmadi: Martin, o'z navbatida, Rufdan ba'zi narsalarni so'rab olmoqchi bo'ldi. U Rufning qanchalik o'ziga qattiq ishonishini ko'rmoqchi edi. Bir haftadan so'ng har qaysisi o'z savoliga javob oldi.

Martin ishni tezlashtirdi: Rufga «Sharmanda bo'lgan quyosh»ni o'qib berdi.

– Nega siz muxbirlilik bilan shug'ullanishni istamaysiz? – dedi Ruf Martin maqolani o'qib bo'lganida. – Siz yozishni juda yaxshi ko'rasiz, albatta muvaffaqiyat qozongan bo'lardingiz, o'sib nom chiqargan jurnalist, bironta gazetaning

maxsus muxbiri bo'lardingiz. Axir ba'zi maxsus muxbirlar juda katta pul topishadi, undan tashqari ular butun dunyoni aylanib yurishadi. Ularni, masalan, Stenliga o'xshab Afrikaga yuborishadi, ular Vatikanga borib papa bilan musohaba uyushtirishadi, Tibetning sirli go'shalarini tadqiq qilishadi.

– Demak, maqolam sizga yoqmabdi-da? – deb so'radi Martin. – Bundan chiqdi, siz mening jurnalist bo'la olishimni faraz qilasiz-u, ammo yozuvchi bo'lishimni aslo tasavvur qila olmas ekansiz-da?

– Yo'q, yo'q! Maqolangiz menga judayam yoqdi. U juda yaxshi yozilgan. Lekin bularning hammasiga xalq tushunmaydi deb qo'rqaman. Har holda, mening tushunishim uchun juda og'ir. Juda chiroyli yozilgan, lekin men deyarli hech nima tushunmadim. Birinchi navbatda, maxsus ilmiy atamalar haddan tashqari ko'p. Siz haddan oshirib yuborishni yaxshi ko'rasiz, azizim, natijada o'zingizga tushunarli bo'lib tuyulgan narsalar bizlar uchun mutlaqo mavhum bo'lib chiqadi.

– Ha, maqolada falsafiy atamalar ko'p, – deb g'oldiradi Martin.

Uning hayajoni hali bosilganicha yo'q edi, chunki u o'zining eng kamolotga yetgan fikrlarini ovoz chiqarib o'qib bo'lgan edi, shuning uchun ham Rufning mulohazasi uni dovdiratib qo'ydi.

– Mayli, bu asar shakl jihatidan muvaffaqiyatsiz chiqqan bo'lsin, – deb o'z fikrini ta'kidlashga urinardi Martin, – ajabo, mazmuni sizni rag'batlantirmaydimi?

Ruf bosh chayqadi.

– Yo‘q. Men ilgari o‘qigan narsalarga sira ham o‘xshamaydi bu... Men Meterlinkni o‘qiganman, ammo unga mukammal tushungan edim.

– Siz uning haqiqatdan yiroq mavhum fikrlariga tushunganmisiz? – deb qichqirib yubordi Martin.

– Ha. Lekin sizning Meterlinkka hujum qilgan maqolangizga mutlaqo tushunmadim. To‘g‘ri, agar originallik to‘g‘risida gapiriladigan bo‘lsa...

Martin sabri chidamagandek bir qo‘zg‘alib qo‘ydi-yu, lekin indamadi. Keyin qulog‘iga Rufning so‘zlari kirdi:

– Xullas, ijod siz uchun bir o‘yinchoq bo‘ldi, – dedi qiz, – u bilan uzoq vaqt ovunib keldingiz. Endi hayotga, bizning hayotimizga jiddiy qaraydigan vaqt keldi, Martin. Shu paytgacha siz faqat o‘zingiz uchun yashagan edingiz.

– Siz xizmatga kirishimni istaysizmi?

– Ha. Dadam sizga...

– Bilaman, bilaman, – deb uning so‘zini keskin bo‘ldi, – lekin menga ochig‘ini ayting: siz menga endi ishonmaysizmi?

Ruf indamay uning qo‘lini siqdi. Ko‘zlari xiralandi.

– Sizga emas... sizning yozuvchiligingizga, jonim, – pichirlab dedi qiz.

– Siz mening deyarli hamma asarlarimni o‘qib chiqdingiz, – hamon o‘sha beomon dangallik bilan gapida davom etdi Martin, – ular haqida nima deysiz? Sizningcha juda yomonmi? Boshqalarning asarlaridan ham battarmi?


– Boshqalar o‘z asarlari uchun pul oladilar.

– Bu javob emas. Demak, siz meni adabiyotga iste’dodi yo’q deb hisoblaysiz, shundaymi?

– Xo’p, yaxshi, savolingizga javob beraman, – Ruf zo’r-bazo’r o’zini qo’lga oldi. – Sizni yozuvchi bo’ladi deb o’ylamayman. Mendan xafa bo’lmang, azizim! Axir o’zingiz so’radingiz-ku. O’zingiz bilasiz, adabiyotni men sizdan ko’ra ko’proq bilaman.

– Ha, siz san’at bakalavrisiz, – dedi Martin o’ychanlik bilan, – siz tushunishingiz kerak... Lekin gap shuning o’zidagina emas, – dedi u ikkovlari uchun juda iztirobli sukunatdan so’ng. – Men o’z qudratimning nimada ekanligini bilaman. Buni hech kim mendan yaxshiroq bilmaydi. Men muvaffaqiyat qozonishimni bilaman. Men hamma to’siqlarni yengib o’taman. She’rlarda, maqolalarda, hikoyalarda o’z aksini topishi zarur bo’lgan narsalar miyada qaynab yotibdi. Lekin gaplarimga ishonning deb iltimos qilmoqchi emasman. Menga ham, mening adabiy iste’dodimga ham ishonmang. Sizdan birdan-bir iltimosim – mening muhabbatimga ishonning va meni avvalgidek seving. Bundan bir yil burun ikki yil muhlat berishingizni yolvorib so’ragan edim. Bir yil mana o’tib ketdi, lekin ikkinchi yil o’tib tamom bo’lmasdan muvaffaqiyatga erishishinga imonim komil. Bir vaqtlar menga aytgan gappingiz esingizdami: yozuvchi bo’lish uchun, avval shogird tushib, sinovdan o’tish kerak, degan edingiz. Mana, sinovdan ham o’tdim. Men shoshdim, sinovdan qisqa muddatda o’tib bo’ldim. Jamiki orzularimning so’nggi marrasi siz edingiz, shu-

ning uchun siz to'g'ringizdagi fikrlar menga kuch bag'ishlab turdi. Xotirjam orom olib uxlash nima ekanligini allaqachon unutib yuborganligimni bilasizmi? Mening istagancha uxlab, uyquga to'yganimdan keyin uyg'ongan vaqtlarimdan beri, nazarimda, million-million yil o'tib ketganday tuyuladi ba'zida. Endi soat jiringi ovozidan uyg'onaman. O'zimga qancha vaqt uxlashga ijozat berishimga qarab, soat qo'ng'irog'ini muayyan bir vaqtga to'g'rilab qo'yaman. Uyqu oldidan tushunib turib qiladigan eng so'nggi ishim: soatni burab, chiroqni o'chirish. Uyqu kelayotganini payqasam, qiyin kitobni qo'yib, bir qadar engilroq kitobni mutolaa qila boshlayman. Bordi-yu, bu kitob tepasida ham mudroq bosaversa, uyquni qochirish uchun boshimga mushtlay boshlayman. Kiplingning uxlab qolishdan qo'rqqan odam haqida yozgani esingizdami? U to'shagiga po'lat shporni shunday qilib o'rnatgan ekanki, uxlay boshlasa, po'lat tish badaniga botarkan. Men ham shunday qildim. Yarim kechagacha, tungi soat birgacha, ikkigacha... uxlamaslikka ahd qildim. Ma'lum vaqtgacha shpor uxlagani qo'ymasdi. Men bir necha oygacha bu shporni o'zimdan uzoqlashtirmadim. Nihoyat, shu darajaga yetdimki, besh yarim soatlik uyqu men uchun yo'l qo'yib bo'lmaydigan halovat bo'lib qoldi. Hozir men bor-yo'g'i to'rt soat uxlayman. Hamisha uyquga to'ymaganimdan tinkam quriydi. Ba'zi-ba'zida boshim aylanib, fikrlarim chalkashib ketadi – shu qadar uxlagim keladi; ba'zan qabr oromi menga eng zo'r huzur-halovatdek tuyuladi. Esimga Longfelloning she'ri keladi:



*Dengiz suvining muzdek tubida,
Neki bor uxlaydi tinch va osuda.
Bir qadam tashlasang suvga mabodo,
Hamma narsa tugaydi, bo'ladi ado.*

Albatta, bu bema'nilik. Bu charchaganlikdan, asabning nihoyatda ishdan chiqqanligidan. Lekin nima uchun, kim uchun shuncha urindim degan savol tug'iladi. Siz uchun. Shogirdlik muhlatini qisqartirish uchun, muvaffaqiyatni tezlatish uchun. Endi shogirdlik davrim orqada qoldi. O'zimning nimalarga qodir ekanligimni bilaman. Sizni ishontirib aytamanki, men bir oy ichida o'qib o'zlashtirgan narsani har qanday talaba bir yil mobaynida ham o'qib tushira olmaydi. Men bunga aminman. Gapimga ishonavering. Agarda gaplaringa tushunishingizni shunchalik istamaganimda bu haqda og'iz ochmagan bo'lardim. Men maqtanayotganim yo'q. Men o'zim o'qib chiqqan kitoblarga asoslanib gapiryapman. Sizning akalaringiz mening oldimda nodon, vahshiy odamlar, ular orom olib uxlab yotgan chog'da, men kitoblardan qancha narsa o'qib o'rganganman. Bir vaqtlar men shuhratni orzu qilgandim. Endi men uchun shuhratning hech qanday ma'nosi yo'q. Men faqat sizni istayman. Siz menga ovqatdan ham, kiyim-boshdan ham, nom chiqarishdan ham zarursiz. Faqat qachon siynangizga bosh qo'yib, nihoyat, mast uyquga ketarkinman deb orzu qilaman. Oradan bir yil ham o'tmay bu orzuim ro'yobga chiqadi.

Yana qiz Martinning kuchi ta'siriga berildi. Ruf qanchalik ko'proq qarshilik ko'rsatsa, Mar-

tin uni o'ziga shuncha ko'proq jalb etardi. Uni zabt etgan kuch endi yigitning nigohlarida o't bo'lib chaqnar, uning ehtirosli nutqida eshitilar, uning vujudida qaynab toshardi. Shu choq, Rufning mustahkam, sabotli tabiati bir onga, faqat bir ongagina taraddudlanib, uning ko'zi oldida haqiqiy Martin Iden, o'ktam va muzaffar Martin Iden namoyon bo'ldi. Vahshiy hayvonlarni o'rgatuvchilar ham ba'zi-ba'zida shubhaga tushib qolgani singari, Ruf ham bu odamning qaysar tabiatini bo'ysundirish mumkinligiga shubha bilan qaray boshladi.

– Gap yana mana bu yoqda, – deb davom etdi Martin. – Siz meni sevasiz. Lekin nima uchun sevasiz? Axir meni yozishga majbur etayotgan narsaning o'zi sizni ham meni sevishga majbur etadi-ku. Siz meni shuning uchun ham sevasizki, atrofingizni o'ragan va birontasiga ko'ngil qo'yishingiz mumkin bo'lgan odamlarga men o'xshamayman. Men kontorada ishlash uchun, hisob-kitob bilan shug'ullanish uchun, sansalorlik, lo'ttibozlik uchun tug'ilgan emasman. Siz meni shu hamma odamlar qilayotgan ishni qilishga, ular bilan hamnafas, hamfikir bo'lishga majbur qilib ko'ring, men bilan ular o'rtasidagi farqni barbod qilasiz, meni yo'q qilasiz, demakki, o'z sevgingizni mahv etasiz. Menga g'ayrat bag'ishlagan narsa – ijodga bo'lgan ehtirosdir. Bordi-yu, bironta oddiy ovsar odam bo'lganimda, yozuvchi bo'lishni orzu qilmasdim, shuningdek, siz ham menga xotin bo'lishni xohlashingiz amrimahol bo'lardi.

– Axir, nega endi? – deb uning so'zini bo'ldi Ruf, uning yuzaki bo'lsa ham, ziyrak aqli shu za-

hoti taqqos qilish mumkinligini payqadi. – Axir, qandaydir bir doimiy harakat qiluvchi mashina to'g'risida umrbod bosh qotirib, bola-chaqasini muhtojlik va mahrumlikka giriftor etgan tentaklar ilgari zamonlarda ham bo'lgan-ku. Ularning xotinlari albatta sevishgan, birgalikda iztirob chekishgan, lekin tentakliklari uchun emas, balki aniqrog'i, shu tentakliklariga qaramay sevishgan.

Martin e'tiroz bildirib javob qildi.

– To'g'ri. Lekin mazkur tentaklardan boshqa ixtirochilar ham bo'lgan, ular umr bo'yi mutlaqo aniq va foydali narsalarni ixtiro qilish bilan shug'ullanganlar va nihoyat, o'z istaklariga musharraf bo'lganlar. Men axir, mumkin bo'lmagan hech narsani istamayman...

– Siz o'zingiz «mumkin bo'lmagan narsaga erishmoqchi» bo'lganingizni aytuvdingiz.

– Majoziy ma'noda aytgan edim. Men, ochig'i, o'zimdanda oldin juda-juda ko'p odamlar erishgan narsalarga intilaman, ya'ni, yozishni va adabiy mehnat bilan yashashni istayman.

Rufning sukut saqlab o'tirishi Martinning jig'iga tegardi.

– Bundan chiqdi, siz buni ham doimo harakat qiluvchi mashina singari xom xayol deb hisoblar-kansiz-da? – deb so'radi Martin.

Bunga javoban qizning qo'li – xuddi injiq bolasini tinchitmoqchi bo'lgan onaning qo'lini eslatuvchi mehribon qo'llari Martinning qo'lini siqib qo'ydi. Haqiqatan ham, Martin Ruf uchun faqat injiq bola, mumkin bo'lmagan narsaga intiluvchi tentak bola edi.

Ruf ota-onasining Martinga qanday adovati borligini yana bir bor eslatib o'tdi.

– Lekin siz meni sevasizmi? – deb so'radi yigit.

– Sevaman, sevaman! – dedi qiz.

– Men ham sizni sevaman, shuning uchun ular menga hech to'siqlik qilolmaydi. – Martinning ovozi tantanavor yangradi. – Modomiki, men sizning muhabbatingizga ishonarkanman, ularning nafratining hech daxli yo'q menga. Dunyoda muhabbatdan boshqa hamma narsa beqaror. Agar muhabbatimiz har qadamida qoqilib yiqiladigan zaif, mayib-mayriq emas, balki chin muhabbat bo'lsa, u yo'lidan adashmaydi.

O'TTIZ BIRINCHI BOB

Kunlarning birida Martin Brodvey ko'chasi-da tasodifan opasi Gertruda bilan uchrashib qoldi. Bu, albatta, xiyla o'ng'aysizlik tug'dirgan uchrashuv bo'lishiga qaramay, baxtli tasodif edi. Muyulishda tramvay kutib turgan Gertruda Martinni oldin ko'rди-yu, darhol uning so'lg'in chehrasidagi ma'yus ifoda ko'ziga tashlandi. Martin haqiqatan ham juda ma'yus edi. U garovga qo'ygani velosipedi ustidan qo'shimcha qarz ko'targani sudxo'rning oldiga borib, u bilan kelisha olmay, quruq qaytib kelayotgan edi. Kuzgi loygarchilik boshlangan bo'lgani uchun Martin velosipedini allaqachon garovga qo'yib yuborgan edi, ammo qora kostyumini, qanday bo'lmasin, saqlab qolishni istardi.

– Axir qora kostyumingiz bor-ku, – dedi Martinning buyumlarini besh qo'lday biladigan sud-

xo‘r. – Tag‘in uni anavi yahudiy Lipkega garovga qo‘ygan bo‘lmang? Agar unaqa bo‘lsa...

U Martinga o‘qrayib qaragan edi, Martin shosha-pisha javob berdi:

– Yo‘q, yo‘q! Kostyumimni garovga qo‘yganim yo‘q. Men usiz yashay olmayman.

– Juda soz, – dedi sudxo‘r bir oz yumshab. – Lekin agar yana pul berishimni istasangiz, men ham o‘sha kostyumingizsiz yashay olmayman. Axir menga ham bu ish ermak emas-ku.

– Velosipedim kamida qirq dollar turadi, buning ustiga yana hech kam-ko‘st yeri yo‘q, – deb e‘tiroz bildirdi Martin. – Siz bo‘lsangiz evaziga atigi yetti dollar berdingiz! Yetti dollar ham emas! Olti-yu chorak! Foydasini oldindan oldingiz!

– Yana pul olmoqchi bo‘lsangiz, kostyuminizni olib keling, – sovuqqonlik bilan javob qildi sudxo‘r, shundan keyin Martin butunlay tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, dimiqib ketgan torgina do‘kondan yugurib chiqib ketdi. Gertrudani xafa qilgan narsa – yuzidagi ma‘yus ifodaning boisi mana shu edi.

Ular hol-ahvol so‘rashib ulgurmasdan, Telegraf avenyuga boradigan tramvay kelib qoldi. Martin opasining tirsagidan ushlab, tramvayga chiqishiga ko‘maklashdi, lekin opasi Martin piyoda ketmoqchi bo‘lganini tushundi. Gertruda tramvay pillapoyasida turib, Martinga o‘girildi-da, uning ich-ichiga tushib ketgan ko‘zlarini ko‘rib, yuragi ezilib ketdi.

– Sen chiqmaysanmi? – deb so‘radi opa.

So‘ng tramvaydan sakrab tushib, ukasining yonida qoldi.

– Men hamisha piyoda yuraman, toza havo olish uchun, – deb tushuntirdi Martin.

– Ha, mayli, men ham ozgina piyoda yura qolay, – dedi Gertruda, – menga foydasi bor. Keyingi paytlarda negadir mazam yo‘qroq.

Martin opasiga o‘girilib qarab, uning o‘zgarib ketganini endi payqadi. Opasi ko‘rinishdan horg‘in va isqirt edi, shishgan yuzining qatlari uni xunuk qilib yuborgan va butun qiyofasi qandaydir ko‘pchib, xom semiz bo‘lib ketgan edi, oyoqlarini sudrab, beso‘naqay odim otishi bilan go‘yo sog‘lom va xushchaqchaq ayolning dadil va erkin odim otishlarini mazax qilayotganga o‘xshardi.

– Sen, yaxshisi, tramvayni kut, – dedi Martin, narigi bekatga yetishganda. U Gertrudaning hansirab qolganini sezgan edi.

– E, xudo, o‘zing shafqat qil! Rost aytasan, charchab qoldim, – dedi opa. – Ammo sen ham tramvayda ketsang bo‘lardi. Botinkangning tagcharmi ilinib turibdi. Shimoliy Oklendga yetib bormasingdan yeyilib ketsa kerak.

– Uyda yana bir juft botinkam bor, – deb javob qildi Martin.

– Ertaga tushki ovqatga kel, – dedi Gertruda bexosdan. – Bernard uyda bo‘lmaydi, ish bilan San-Leandroga ketadi.

Martin «yo‘q» deganday bosh chayqadi, lekin ovqat so‘zini eshitganda ko‘zlarida chaqnab ketgan harislik alomatini yashira olmadi.

– Cho‘ntagingda bir pens ham puling yo‘q, Mart, shuning uchun piyoda yuribsan. Toza havomish!

Gertruda masxara qilib, piqillab kulib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, lekin bundan hech nima chiqmadi.

– Shoshma-chi...

U sumkasini kovlab, Martinning kaftiga besh dollarli tanga qistirdi.

– Yaqinda tug'ilgan kuning bo'lgan edi, esimdandan chiqibdi, – deb g'oldiradi opa.

Martin beixtiyor kaftidagi tangani siqdi va shu zahoti bu hadyani qabul qilmasligi kerakligini angladi-yu, lekin ikkilanib qoldi. Axir bu tilla tanga ham ovqat, ham hayot, ham ruhiy, ham jismoniy kuchini tiklash, ham yangi ijodiy g'ayrat edi, yana kim bilsin! Ehtimol, u hali bunday tilla tangalarning bir talayini ergashtirib keladigan ajoyib asar ham yozar. So'nggi paytda yozilib, markaga pul bo'lmaganidan stol ostida uyulib yotgan qo'lyozmalar orasiga tashlangan ikkita maqolasi yalt etib ko'ziga ko'rinib ketdi. Maqolalarning yirik harflar bilan yozilgan sarlavhalari uning ko'zi oldida lovillab yonib turardi. Maqolalar «Ajoyibot piri mug'onlari» va «Go'zallik beshigi» deb atalardi. Hali bu maqolalarini hech qayerga yuborganicha yo'q edi, lekin ularning shu qabilidagi asarlari orasida eng yaxshilari ekanligini bilardi. Faqat marka sotib olsa bas. Birdan miyasida muvaffaqiyatga ishonch tuyg'usi paydo bo'ldi-yu, ochlik shu tuyg'uni kuchaytirdi; u tangani shartta cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Senga yuz hissa ko'paytirib qaytaraman, Gertruda, – deb u zo'r-bazo'r gapira boshladi, chunki tomog'iga bir narsa kelib tiqilgan, ko'zlarida esa yosh yaltirab ko'rindi. – Gaplarimni esingda ut! – dedi u qat'iy ishonch bilan. – Oradan bir

yil ham vaqt o'tmay, senga rosa yuz dona mana shunaqa tilla tanga olib kelib beraman. Gapimga ishonishingni so'ramayman. Faqat kutsang bo'lgani. Keyin o'zing ko'rasan!

Opasi ishonmasdi, albatta. Lekin uning o'zi negadir o'ng'aysiz ahvolga tushib, gapni nima bilan chalg'itishni bilmay dedi:

– Och-nahor yashayotganingni bilaman, Martin. Yuzu ko'zingdan ko'rinib turibdi. Xohlagan vaqtingda ovqatlangani kelib tur. Xigginbotam biron ish bilan uydan ketgan paytida o'zim xabar qilaman. Bolalardan bitta-yarimtasi doim borib aytib kelishi mumkin. Lekin Mart...

Martin opasining nima demoqchiligini oldindan bilardi, chunki uning nima demoqchi bo'lgani ayon edi.

– Biron joyga ishga kirsang bo'lmasmikin?

– Sen meni hech narsaga erisha olmaydi deb o'ylaysanmi? – deb so'radi Martin.

Gertruda bosh chayqadi.

– Menga o'zimdan boshqa hech kim ishonmaydi, Gertruda. – Bu gapni u allaqanday ehtiros aralash g'urur bilan aytdi. – Men juda ko'p ajoyib narsalar yozib qo'rganman, bir kun emas, bir kun ular uchun albatta pul olaman.

– Ularing ajoyibligini qayerdan bilasan?

– Bilaman-da... – Uning adabiyotdan, adabiyot tarixidan olgan barcha ilmlari birdan miyasida jonlandi, lekin u nimaga asoslanib o'ziga ishonganini opasiga tushuntirib bera olmasligini bilardi. – Chunki mening hikoyalarim jurnallarda bosilayotgan asarlarning to'qson to'qqiz foizidan afzalroqdir.

– Shunday boʻlsa ham, oʻzingdan katta bamaʼni maslahat bersa quloq os, – dedi oʻzining haqligiga qatʼiy ishongan Gertruda. – Ha, bamaʼni maslahatga quloq os, – deb takrorladi u. – Ertaga ovqatlangani borgin.

Martin uni tramvayga chiqarib qoʻyib, oʻzi pochtaga yugurib bordi-da, opasi bergan pulning uch dollariga birtalay marka sotib oldi. Bir ozdan soʻng, u Morzlarnikiga keta turib, yoʻl-yoʻlakay pochta boʻlimiga kirdi-da, birtalay semiz-semiz paketlarni joʻnatdi, buning uchun uch dona ikki sentli markadan boshqa hamma markalari sarf boʻldi.

Bu Martin uchun unutilmas oqshom edi, chunki u shu kecha Ress Brissenden bilan tanishgan edi. Brissendenning Morzlarnikiga qanday borib qolganini, uni u yerga kim boshlab borganini Martin keyinchalik ham bila olmadi. Buni Rufdan soʻrab olishga ham qiziqmadi, negaki Brissenden unga koʻrimsiz va sovuq odamga oʻxshab tuyulgan edi. Oradan bir soat oʻtganda, Martin uni yana odobsiz ham deb topdi: u haddan tashqari betakalluflik bilan u xonadan bu xonaga sangʻib yurar, rasmlarga angrayib qolar, stollarda yotgan yoki tokchalarga terilgan kitobu jurnallarga tumshugʻini tiqardi. Nihoyat, u boshqa mehmonlarga parvo qilmay, xuddi oʻz uyidagidek kresloga joylashib oʻtirib oldi-da, choʻntagidan allaqanday kitobcha chiqarib muloaaga tushib ketdi. U oʻqirkan, parishonxotirlik bilan hadeb sochini silab qoʻyardi. Martin uni unutib yuborib, faqat kecha oxirida eslab qoldi; endi Brissenden yosh ayollar davrasida oʻtirar-

di, uning suhbatidan ayollarning g'oyat lazzatlanayotgani yaqqol sezilib turardi.

Martin uyga ketayotganda tasodifan Brissendenga yetib oldi.

– E-ha, sizmisiz, – dedi Martin.

Brissenden unga javoban lutfkorlik bilan bir nima deb g'o'ldirab qo'ydi, lekin har qalay Martin bilan yonma-yon yurib ketdi. Martin hamrohini suhbatga tortishga ortiq urinmadi, shu zaylda ular sukut saqlab bir necha kvartalni bosib o'tishdi.

O'ziga bino qo'ygan qari eshak!

Tuyqisdan, shijoat bilan aytilgan bu gap Martinni hang-mang qilib qo'ydi. Uning kulgisi qis-tadi, lekin ayni vaqtda Brissendenga nisbatan nafrati ortib borayotganini his qildi. Ular yana bir kvartal sukut saqlab bosib o'tishgandan keyin Martin Brissendenning:

– Nima qilib qatnab yuribsiz u yerga? – degan gapini eshitdi.

– O'zingiz-chi? – deb so'radi Martin ham, o'z navbatida.

– Nimaga borganimni bilsam o'lay agar, – deb javob qildi Brissenden. – Ochig'i, u yerda birinchi marta bo'lishim. Keyin, har sutkada yigirma to'rt soat bor. Shu vaqtni bir iloj qilib o'tkazish kerakku axir. Yuring, ichamiz.

– Yuring, – deb javob qildi Martin.

U darrov gapga unagani uchun ichida o'zini so'kib qo'ydi. Uyda uni «jo'n» bir ish kutardi; undan tashqari, kechasiga Veysmanning kitobchasini o'qib ko'rmoqchi, har qanday romandan ham qiziqarliroq bo'lgan Gerbert Spen-

serning tarjimai holini o'qish to'g'risida gapir-masa ham bo'ladi. Shu turqi sovuq odam bilan vaqt o'tkazishning nima hojati bor ekan, deb o'ylardi Martin. Lekin uni jalb etgan narsa hamrohi ham, ichkilik ham emas, balki shunga aloqador bo'lgan hamma narsa, ya'ni: chiroqlarning yorug' shu'lasini, ko'zgular, qadahlarning jarangi va yaraqlashi, maydan qizigan chehralar va odamlarning shang'illab gapirishlari edi. Ha, ha, hayotda muvaffaqiyat qozongan va pullarini bahuzur ichkilikka sarflay oladigan xushchaq-chaq va betashvish kishilarning ovozlari. Martin yolg'iz edi, uning baxtiqaroligi ham ana shunda edi. Shuning uchun ham Brissendenning taklifini bajonu dil qabul qildi. Martin «Qaynar buloq»ni tashlab, Jo bilan vidolashgandan beri, portugaliyalik baqqol vino bilan mehmon qilgani hisobga olinmasa, biron marta ham mayxonaga kirmagan edi. Miyaning charchashi jismoniy horg'inlikdek ichkilikka mayl uyg'otmaydi, shuning uchun ham, Martinning ichkisi yo'q edi. Lekin hozir uning ichkisi kelib qoldi, aniqrog'i, odamlar ichkilik ichib, baqirib-chaqirib, xoxolab kulayotgan g'ala-g'ovur qovoqxonaga kirgisi keldi. «G'or» aynan shunaqa qovoqxonona edi. Brissenden bilan Martin qulay charm kreslolarga bahuzur yastanib o'tirib olib, shotland viskisini sodali suv bilan chapishtirib, maydalab o'tirishdi.

Suhbatga kirishib ketishdi: ular har to'g'rida gaplashisharkan, faqat navbatma-navbat yangidan ichkilik buyurtirish uchungina suhbatni to'xtatishardi. Ichkilik ichishda juda chidamli Martin hamkosasining chidamliligiga taaj-

jublandi. Uning fikr-mulohazalaridan ham juda taajjublandi. Ko'p o'tmay, Martin Brissendenning bilimdonligiga, umuman, Martin uchratgan ikkinchi chinakam ziyoli ekaniga ishonch hosil qildi.

Bundan tashqari, Brissendenda yana professor Kolduellda bo'lmagan juda ko'p xislatlar bor edi. Uning gaplaridan o't chaqnar, u had-dan tashqari serfahm, zehni o'tkir edi, fikrlari qandaydir erkin parvoz qilardi. U juda chiroyli gapirardi. Yupqa lablari orasidan xuddi charxda qayralgandek o'tkir so'zlar otilib chiqardi. U so'zlar nayzadek teshib, qilichdek chopardi. Shu daqiqaning o'zida so'zlarning o'rnini ravon, yang-roq jumlar egallardiki, bu jumlar borliqning tasavvur etib bo'lmaydigan go'zallik shu'lasini go'yo o'zida yashirgan, kishini maftun etuvchi porloq obrazlar bilan bezatilgan edi. Ba'zan uning nutqi bo'ron, samoviy kurash sari da'vat etuvchi jangovar burg'u singari yangrar, kumushdek jaranglar, yulduzlar olamining sovuq shu'lasidek yaraqlardi. Bu nutqda fan olamining eng so'nggi yutuqlari qisqa va aniq ifodalanardi. Ayni vaqtda bu shoir nutqi edi, bu nutq so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan, lekin shu so'zlardan vujudga keluvchi nozik, murakkab tasavvurlar vositasi bilangina his qilishga imkon tug'diruvchi g'oyat yuksak muhokamalar bilan sug'orilgan edi. Aqli insoniy tajribaning qudrati yetmagan allaqanday uzoq sohalarga kirib borardi, vaholanki, bularni oddiy til bilan tasvirlab bo'lmaydiganga o'xshardi. Lekin u nutqining sehrli mahorati bilan oddiy so'zlar orqali g'ayrioddiy ma'nolarni ifoda eta

olardi, buni o'rtamiyona aql egalari anglay olmasdi-yu, lekin ular Martin uchun juda yaqin va tushunarli edi.

Martin Brissendenga bo'lgan adovatini birpasda unutdi. Uning qarshisida shu choqqacha faqat kitoblardagina o'qigan narsa turardi. Uning qarshisida mutafakkirning kamolga yetgan orzusi, oyog'iga sajda qilsa arziydigan odam o'tirardi. U hamsuhbatining gaplarini zavq bilan tinglarkan, «men uning xoki poyi bo'lishga loyiqman», der edi ichida.

– Nazarimda, siz biologiyani o'rgangan ko'rinasiz! – dedi nihoyat Martin, o'zining ham ba'zi narsalarga tushunishiga ma'nodor shama qilib.

Ammo Brissenden inkor ma'nosida bosh chayqab, Martinni hayron qoldirdi.

– Lekin siz shunday fikrlarni oldinga suryapsizki, biologiyani bilmay turib, bunday xulosaga kelish aslo mumkin emas, – deb gapda davom etdi Martin Brissendenning taajjub bilan boqib turganini payqab. – Sizning xulosalaringiz buyuk olimlar yuritgan barcha mulohazalarga juda mos tushyapti. Siz ularning asarlarini o'qimagan bo'lishingiz mumkin emas.

– Bu gapingizdan boshim osmonga yetdi, – deb javob qildi Brissenden, – mening yuzaki ilmim haqiqatni anglashim uchun eng qisqa yo'l ochib berganidan g'oyat mamnunman. Lekin haqmanmi, haq emasmanmi, menga baribir. Buning hech qanday ahamiyati yo'q. Chunki inson mutlaq haqiqatga hech qachon erisha olmaydi.

– Siz Spenserning shogirdi va izdoshi ekansiz! – zavq bilan gapirib yubordi Martin.

– Men yoshlik chogʻimdan Spenserning kitoblarini oʻqimaganman. Lekin bir vaqtlar uning «Tarbiya»sini oʻqigan edim.

Martin Brissendenning butun aql-zakovatini chuqur tahlil qilib chiqqach, yarim soatlardan keyin dedi:

– Qani endi, men ham shunday osonlik bilan ilm ololsam. Sizning gaplaringizni eshitganda eʼtirozga oʻrin qolmaydi – meni eng koʻp taajjubga qoʻyadigan jihatingiz mana shu. Siz, ilm-fan aposteriori²⁵ tiklagan narsalarni tasdiqlaysiz. Siz darhol toʻgʻri xulosa chiqarasiz. Siz chindan ham haqiqatga olib boradigan eng qisqa yoʻlni topish baxtiga muyassar boʻlgansiz, bu yoʻlni yorugʻlik tezligida uchib oʻtgansiz. Bu endi qandaydir favqultabiiy isteʼdoddir.

– Ha, muallimlarim ham, otam Jozef ham, akam Letton ham doimo shunga hayron boʻlishardi, – dedi Brissenden. – Lekin bu yerda hech qanday moʻjiza yoʻq. Baxtinga men yosh chogʻimdan katoliklar kollejida oʻqidim. Oʻzingiz qayerda tahsil koʻrgansiz?

Martin unga oʻzi haqida gapirib berarkan, ayni vaqtda Brissendenni, yuzining kiborlarga xos bichimini, qiyalab tushgan yelkalarini, yonidagi kursiga tashlangan va choʻntaklaridan kitoblar chiqib turgan paltosini diqqat bilan koʻzdan kechira boshladi. Brissendenning yuzi va ingichka qoʻllari oftobda qoraygan edi, bu Martinni ajablantirdi. Nahotki, Brissenden ochiq havoda sayr qilishni yaxshi koʻrsa? U qayerda bunchalik

²⁵ Tajriba asosida (lotincha)

qorayganikin? Unda qandaydir dardchil, g'ayritabiyy bir hol sezilardi. Martin Brissendenning ichiga kirib ketgan yuzi, chiroyli qush burun, cho'zinchoq va oriq chehrasiga nazar tashlarkan, doim shu to'g'rida o'ylardi. Uning ko'zlarida kishini o'ziga jalb etuvchi hech qanday ifoda yo'q edi. Ko'zlari uncha katta ham, unchalik kichik ham emas edi, tusini bilib bo'lmaydigan bu qo'y ko'zlar maxfiy bir o't bilan yonar va ularda allaqanday antiqa, munofiqona va bir-biriga zid ifoda mavjud edi. Bu ko'zlar mag'rurona, beadabona, ba'zan hatto jahl bilan boqardi, ayni vaqtda, negadir kishining rahmini ham keltirardi. Martinning Brissendenga judayam rahmi kelardi, ko'p o'tmay bu hisning qayerdan paydo bo'lganini ham angladi.

Brissenden yaqinda Arizonadan kelganini aytib:

– Men silman-da, – dedi. – U yerda ikki yilcha yashadim; iqlimidan foydalanib davolandim.

– Endi bizning iqlimda yashashdan qo'rqmay-sizmi?

– Qo'rqmayman.

U Martin aytgan so'zni aynan takrorladi, lekin Brissendenning dunyoda hech nimadan qo'rqmasligini Martin shu zahotiy oq anglab oldi. Uning ko'zlari suzildi, burun kataklari kengaydi, yuzida burgutlarga xos bo'lgan qandaydir mag'rurlik va qat'iyat alomatlari paydo bo'ldi. Martin bu odamdan zavqlanib ketgandan yuragi gurs-gurs ura boshladi. «Namuncha yaxshi», – deb o'yladi u, so'ng ovoz chiqarib bir bayt o'qidi:

*Achchiq qismat beomon ezgan chog'da ham,
Qonlarga bo'yalgan boshimni egmam...*

– Siz Genlini yaxshi ko'rasizmi? – deb so'radi Brissenden, uning ko'zlarida darhol shafqat va mehribonlik ifodasi ko'rindi. – Bo'lmasam-chi, uni sevmay bo'larkanmi? Oh, Genli! Buyuk qalb! U hozirgi paytda asarlari jurnallarda bosilayotgan qofiyabozlar orasida xuddi xezalaklar orasida qad ko'targan gladiatorga o'xshaydi.

– Jurnallarda bosilayotgan asarlar sizga yoqmaydimi? – deb ehtiyotlik bilan so'radi Martin.

– Sizga yoqadimi? – deb Brissenden shunday shang'illab gapirdiki, Martin hatto bir seskanib tushdi.

– Men... Men jurnallarga yozib turaman, aniqrog'i, yozishga urinaman, – deb g'o'ldiradi Martin.

– Unday bo'lsa bir nav, – birmuncha yumshashib dedi Brissenden. – Siz yozishga urinaysiz, ammo ishingiz o'ngidan kelmayapti. Men shunisini qadrlayman va hurmat qilaman. Nimalar haqida yozayotganingizni tasavvur qilayapman. Buning uchun asarlaringizni o'qib o'tirishim shart emas. Asarlaringizda bitta nuqson bor, shu nuqson siz uchun hamma tahririyatlar eshigini yopib qo'yadi. Asarlaringizda teranlik mavjud, jurnallar uchun u kerak emas. Jurnallarga har xil bema'ni narsalar kerak, bunaqa narsalar keragicha borib turadi, lekin sizdan emas, albatta.

– Men jo'n ishlardan ham bosh tortmayman, – deb e'tiroz bildirdi Martin.

– Aksincha... – Brissenden bir on jim qolib, Martinga, uning qashshoqligidan dalolat beruvchi eskirgan galstugi, qatirma bo'lib yaltillab turgan yenglari, titilib ketgan manjetlariga tikilib haradi; so'ng uning ichiga tushib ketgan yuzlariga uzoq qarab turdi. – Aksincha, jo'n ish sizdan hazar qiladi, shunday hazar qiladiki, bu sohada siz hech muvaffaqiyat qozona olmaysiz. Menga qarang, azizim, agar sizni ovqatga taklif qilsam, xafa bo'lmasmidingiz?

Martin o'zini tuta olmay qizara boshlaganini his qildi, Brissenden esa xoxolab, tantana qilgandek kuldi.

– Qorni to'q odam bunday taklifdan xafa bo'lmaydi, – dedi u.

– Siz iblis ekansiz! – zarda bilan baqirib yubordi Martin.

– Axir sizga taklif qilganim ham yo'q-ku.

– Taklif qilib ko'ring edi!

– Shunaqami? Unday bo'lsa sizni o'zim bilan ovqatlanishga taklif etaman.

Brissenden shu gapni ayta turib, hoziroq restoranga bormoqchi bo'lganday o'rnidan qo'zg'aldi.

Martin mushtlarini tugdi, chakkasida qon tomirlari qattiq ura boshladi.

– Ilon yutuvchi mashhur sehrgar! Ilonlarni tiriklayin yutadi! Tiriklayin yutadi! – deb qichqirdi Brissenden yarmarkadagi ot o'yinning jar-chisiga taqlid qilib.

– Sizni chindan ham tiriklayin yutib yuborishim mumkin edi, – dedi Martin, o'z navbatida, kasaldan cho'pdek ozib ketgan Brissendenga o'qrayib qarab.

– Lekin men bunga arzimayman.

– Siz emas, ish arzimaydi, – dedi Martin va shu zahoti chin ko'ngildan qah-qah urib kulib yubordi. – Meni mot qildingiz, tan olaman, Bris-senden. Mening ochligim tabiiy hol. Bundan uyalmayman ham. Ko'rib turibsizki, ahamiyat-siz xurofiy odatlardan, bid'atdan nafratlanaman, lekin siz yuzimga ochiqdan-ochiq gapiruvdingiz, men darhol mazkur xurofiy odatlar quliga aylanib qoldim.

– Ha, xafa bo'ldingiz, – deb tasdiqladi Bris-senden.

– Xafa bo'ldim, tan olaman. Bolalik chog'imizdan singib ketgan odatlar bor. Men ko'p narsalarni o'rgangan bo'lsam ham, ba'zi-ba'zida chiziqdan chiqib ketaman. Har kimning ham o'ziga xos nozik yeri, boshqacha qilib aytganda, shkafida o'z skeleti bor.

– Lekin siz hozir shkafingiz eshigini berkitib qo'ydingiz chog'i?

– Ha, bo'lmasam-chi.

– Aniqmi?

– Aniq.

– Unda, yuring, ovqatlangani boramiz.

– Yuring.

Martin viskiga haq to'lash uchun cho'ntagidagi oxirgi ikki dollarni oldi, lekin Brissenden ofit-siantga u pulni oldirmay o'zi to'ladi.

Martin norozi bo'lganday aftini bujmaytirgan edi, lekin Brissenden qo'lini uning yelkasiga do'stlarcha asta qo'ydi, shundan keyin Martin itoatkorlik bilan pulini cho'ntagiga soldi.

O‘TTIZ IKKINCHI BOB

Ertasi kuni Mariya yana bir marta esankirab qoldi. Martinning oldiga yana bir g‘alati mehmon keldi. Lekin Mariya bu safar o‘zini shu qadar tutib olgan ediki, hatto odob bilan mehmonni mehmonxonada kutib turishga taklif qildi.

– Uyingizga taklif etilmagan bo‘lsam ham kirib kelaverganimdan xafa emasmissiz? – deb so‘radi Brissenden.

– Yo‘q, yo‘q, nima deyapsiz? – dedi Martin mehmonning qo‘lini mahkam siqib ko‘risharkan, so‘ng yagona kursini unga surib qo‘yib, o‘zi karavotiga o‘tirdi. – Lekin manzilimni qayoqdan bildingiz?

– Morzlarnikiga qo‘ng‘iroq qildim. Telefonga miss Morzning o‘zi keldi. Mana, nihoyat huzuringizdaman.

Brissenden qo‘lini paltosining cho‘ntagiga tiqib, kichik bir kitob oldi.

Mana bu – bir shoirning she‘r to‘plami sizga, – dedi u kitobni stolga qo‘yarkan, – o‘qib chiqib, o‘zingizga olib qolavering. Oling! – deb baqirib yubordi u Martinning e‘tiroz bildiruvchi ishorasiga javoban. – Nima qilaman men kitobni? Bugun ertalab yana qon qusdim. Viskingiz bormi? Qanaqa qilib bo‘lsin! Birpas sabr qiling.

U dik etib turib chiqib ketdi. Martin orqasidan kuzatib qolarkan, uning bir vaqtlar, ehtimol, zabardast bo‘lgan yelkalarining botiq ko‘kraklari tomon cho‘kkanini ko‘rdi. Martin ikkita stakan olib qo‘yib, sovg‘a kitobni o‘qishga tutindi. Bu Genri Vogan Marlouning oxirgi she‘rlar to‘plami edi.

– Shotland viskisi yo‘q, – dedi qaytib kelgan Brissenden. – Haromzoda, faqat Amerika viskisini sotib yotibdi. Shunday bo‘lsa ham bir shisha olib kelaverdim.

– Men hozir bolalardan birontasini limonga yuboraman-da, keyin grog qilamiz, – deb taklif kiritdi Martin. – Qiziq, shunaqa kitobi uchun Marlou qancha olarkin?

– Ellik dollarcha, – javob qildi Brissenden, – bu ham holva. Kitobini bosishga jur‘at etgan noshirni topganiga shukur qilaversin.

– Bundan chiqdi nazm bilan kun ko‘rib bo‘lmas ekan-da?

Martinning ovozidan qattiq ranjigani sezilib turardi.

– Albatta, yashab bo‘lmaydi! Qaysi ahmoq umid qiladi? Qofiyabozlik – boshqa masala. Bryus, Virjiniya Spring yoki Sejvikka o‘xshaganlar ishlarini boplab yuribdilar. Lekin haqiqiy shoirlar... Siz Marlouning qanday yashashini bilasizmi? U Pensilvaniyada qoloq o‘quvchilar maktabida dars beradi, jahannamning yer yuzidagi bo‘limlari ichida eng mudhishi, shubhasiz, shu maktabdir. Agar umrimga ellik yil qo‘shib berganda ham, men u bilan o‘rin almashtirmagan bo‘lardim. Holbuki, uning she‘rlari hozirgi shoirlarning xom she‘rlari orasida xuddi shisha parchalari orasida yotgan yoqut donalari singari yaraqlaydi. Tanqidchilar uning to‘g‘risida nima deb yozishadi deng! La‘nat o‘sha tanqidchilarga, o‘sha dimog‘dor nodonlarga!

Umuman, o‘zlari yozuvchi bo‘la olmagan odamlar haqiqiy yozuvchilar haqida juda ko‘p

mulohaza yuritishadi, – dedi Martin, – chunonchi, Stivenson haqida ne-ne g'iybatlarni to'qimagani edilar!

– Qo'lansalar! – dedi Brissenden nafrat bilan g'ijinib. – Men ularning toifasini bilaman. Ular Stivensonning Damen otani yoqlab yozgan mak-tubi uchun umr bo'yi cho'qilashdi, har qaysi so'zini bittama-bitta tahlil qilib, bittama-bitta tortib ko'rishdi va...

– U ayanch odamlar o'zlarining o'lchovlari bilan o'lchashdi, – deb qo'shib qo'ydi Martin.

– Gapingiz o'rinni. Ha, albatta! Stivensondagi jamiki go'zallik, samimiylik va ezgulikni loyga qorib tashlab, keyin rag'batlantirmoqchi bo'lgan-dek, yelkalariga qoqib qo'yishar va: «Barakalla! Ko'ppak Fido!» deyishardi. Tuf! O'lim to'shagida yotgan Richard Ralf ular haqida: «Odamzod toifasining ayanchli zag'izgonlari», – degan edi.

– Ular yulduzlar gardini cho'qilayaptilar, – Martin ehtiros bilan Brissendenning gapiga gap ulab ketdi. – Ular buyuk iste'dod egasining yashin tezligida parvoz qilayotgan fikrini ilib olishga urinadilar. Men bir kun tanqidchilar haqida, aniqrog'i, taqrizchilar haqida maqola ham yozgan edim.

– Oling bu yoqqa! – dedi darhol Brissenden.

Martin stol ostidan «Yulduzlar to'zoni»ning bir nusxasini topib oldi, Brissenden shu zahotiyuq, dam-badam pishqirib, qo'llarini bir-biriga ishqab o'qiy boshladi; u hatto ichayotgan grogini ham unutib qo'ygan edi.

– Axir ko'zi ko'r pakanalar mamlakatiga uchib kelgan yulduzlar to'zonining zarrachasi o'zingiz

ekansiz-ku! – deb qichqirib yubordi maqolani o‘qib bo‘lgan Brissenden. – Albatta, maqolangizni olgan birinchi jurnal unga mahkam yopishib olgan bo‘lsa kerak-a?

Martin xotira daftarini ochib qaradi.

– Bu maqolani yigirma yettita jurnal rad etdi.

Brissenden xoxolab kula boshlagan edi, lekin yo‘tali tutib qoldi.

– Aytinchi, – dedi u nihoyat xirqiroq ovoz bilan, – siz she‘r ham yozsangiz kerak-a? O‘qigani bering menga.

– Faqat bu yerda o‘qimang, – deb iltimos qildi undan Martin, – siz bilan suhbatlashmoqchiman. She‘rlarimni sizga beraman, uyingizga boranda o‘qiyisiz.

Brissenden «Muhabbat sonetlari» va «Parizod va marvarid» to‘plamlarini olib uyiga ketdi. Ertasi kuni u yana Martinnikiga keldi, uning birinchi aytgan so‘zi shu bo‘ldi:

– Yana bering.

U hamma she‘rlarni o‘qib chiqib, Martinni haqiqiy shoir deb atadi. Ma‘lum bo‘lishicha, Brissendenning o‘zi ham she‘r yozarkan.

Martin Brissendenning she‘rlaridan hayratga keldi va uning o‘z she‘rlarini bostirishga urinib ham ko‘rmaganini eshitib juda taajjublandi.

– Journallaringizning hammasiga qirgin kelsin! – dedi Brissenden Martinning: «Biron tahririyatga she‘rlaringizni yuborsangiz bo‘lardi», deb bergan taklifiga javoban. – Siz go‘zallikni faqat go‘zallik tufayli seving, jurnallarni esa unuting. Obbo, Martin Iden-ye! Siz yaxshisi, kemaga, dengizga qayting. Mening beradigan maslaha-

tim shu. Bu yerda, shu jirkanch axlatxonada nima bor sizga? Axir siz jurnallar ehtiyojini qondirish uchun go'zallikni bir fohisha sifatida sotib, har kuni o'z joningizga suiqasd qilyapsiz-ku! Kechagina nima deb aytgan edingiz? Ha... «Inson bebaho maxluqlarning eng so'ngisi». Axir shuhrat siz uchun zahar-ku. Madhiyalar bo'tqasi bilan qorin to'yg'izish uchun siz haddan tashqari mustaqil, haddan tashqari ochiq ko'ngil va haddan tashqari aqlli odamsiz. Hech qachon jurnallarga asaringizning bir satrini ham sotmaysiz deb umid qilaman. Faqat go'zallik uchun xizmat qilish kerak. Shu go'zallikka xizmat qiling-u, olomoni jahannamga oting! Muvaffaqiyatmi? Yana qanday muvaffaqiyat kerak sizga? Siz axir Stivenson haqidagi sonetingizda ham – kezi kelganda e'tirof etib o'tish kerak, bu sonetingiz Genlining «Xayollar»idan ancha yuqori turadi – «Muhabbat sonetlari»da ham, dengiz haqidagi she'rlaringizda ham allaqachon muvaffaqiyatga erishgansiz! Shoirning quvonchi erishilgan muvaffaqiyatda emas, ijodning o'zidadir. Men bilan bahslashmang. Nima deytganimni yaxshi bilaman. Buni o'zingiz ham tushunasiz. Sizni go'zallik jarohatlagan. Bu hech bitmaydigan jarohat, bedavo dard, o'tda qizdirilib, yurakka sanchilgan pichoq. Journallar bilan bosh qotirishning nima hojati bor? Yaxshisi, maqsadingiz faqat go'zallik bo'lsin. Nega endi go'zallikdan pul ishlamoqchi bo'lasiz? Lekin baribir, bu ishingizdan hech naf chiqmaydi. Xotirjam bo'lavering. Siz hatto ming yil ichida chiqqan jurnallarni o'qib chiqing,

ular da hech bo'lmaganda Kitsning birgina satriga arziydigan bironta ham asar topa olmay-siz. Shuhratni ham, oltinni ham unuting-u, ertagayoq dengiz safariga jo'nab keting.

– Men shuhrat deb emas, muhabbat deb urinib yotibman, – deb kulib yubordi Martin. – Sizning olamingizda muhabbatga o'rin bo'lmasa kerak. Mening olamimda go'zallik – muhabbat cho'risi.

Brissenden unga zavq va ayanch bilan qaradi.

– Siz hali judayam yoshsiz-da, Martin! Juda-juda yoshsiz! Siz yuksaklarga parvoz qilasiz, lekin bilib qo'ying, qanotlaringiz judayam nafis. Kuydirib qo'ymang tag'in. Ochig'ini aytganda, kuydiryapsiz. Shu «Muhabbat sonetlari» qandaydir bir do'ndiqchani tarannum etyapti... Sharmandalik!

– U she'rlar shunchaki do'ndiqchani emas, muhabbatni tarannum etadi, – deb e'tiroz bildirdi Martin va yana kulib yubordi.

– Telbalik falsafasi! – achchig'lanib dedi Brissenden. – Bangdan rosa kayfim taraqqi bo'lgan paytlarda xayol surib ketganimda, shunday qarorga kelganman. Ehtiyot bo'ling! Bu burjuaziya shaharlari sizni nobud qiladi. Misol uchun, o'sha siz bilan tanishganimiz uyni – yakanchilar makonini oling. Xudo haqqi, axlat o'rasidan ham battar u yer. Bunday muhitda sog' qolmaydi kishi. Beixtiyor nafasing qaytib ketadi. Buni qarangki, na erkaklardan bo'lsin, na ayollardan bo'lsin, birontasi ham bu razolatdan yuqori ko'tarila olmasa-ya. Bular hammasi ayyor qorin bandalari, g'oyaviy va badiiy ehtiyojlari chig'anoqli qurtlarning ehtiyojidek qorin bandalari...

U birdan to'xtab Martinga qaradi. Birdan xayoliga kelgan gumondan chehrasi ochilib ketdi. Shunda yuzida dahshat va hayrat alomatlari paydo bo'ldi.

– Hali siz o'sha ajib «Muhabbat sonetlari»-ngizni anavi oq badan urg'ochi maxluq sha'niga yozgan bo'lmang?

Martin shu zahotiyoyq, o'ng qo'li bilan Brissendenning hiqildog'idan bo'g'ib olib, uni shunday qattiq silkidiki, hamsuhbatining tishlari takillab ketdi. Biroq Martin uning ko'zlarida qo'rquv alomatlarini uchratmadi, uning ko'zlarida faqat qandaydir qiziqish va iblisona istehzo aks etardi. Shundan keyin Martin o'ziga kel-di, panjasini yozib, Brissendenni o'rniga itarib yubordi.

Brissenden anchagacha nafasini rostlay olmay o'tirdi. Nihoyat, nafasini rostlab olgach, kulib yubordi.

– Jonimning qolganini qoqib olganingizda bormi, meni toabad minnatdor qilgan bo'lardingiz, – dedi u.

– Keyingi paytlarda asabim buzilgan, – deb o'zini oqlashga tushdi Martin, – sizga qattiq azob bermadimmi? Hozir yangi grog tayyorlayman.

– Obbo yosh ellin-ye! – dedi Brissenden. – Siz gavgangizni unchalik qadrlamaysiz. Juda ham kuchlisiz. Misoli navqiron qoplonddek! Sherbachadek! Ha, ha! Bu sizga qimmatga tushadi.

– Ya'ni? – qiziqsinib so'radi Martin unga stakan uzatarkan. – Ichib yuboring-u, xafa bo'lmang.

– Bu kunday ravshan, – Brissenden grogni icharkan, ma'qul deganday kulimsiradi, – xotin-

lar dastidan boʻladi hammasi. Ular sizni hozir qanday tinch qoʻyishmasa, aynan shu ahvolda oʻla-oʻlguningizcha tinch qoʻyishmaydi. Axir men dunyoga kecha kelgan emasman. Lekin meni boʻgʻishni xayolingizga ham keltirmang. Bari-bir, koʻnglimdagi gaplarning hammasini yuzingizga aytmay qoʻymayman. Bilaman, bu sizning ilk muhabbatingiz, lekin goʻzallik hurmati, bundan keyingi safar bunchalik befarq boʻlmang. Xoʻsh, bu burjua qizlarini boshingizga urasizmi? Qoʻying, aylanishmang ularga. Oʻzingizga, haligi «hayot ustidan ham, oʻlim ustidan ham kuladigan, to muhabbat boricha sevadigan», yuragida oʻti bor, zoʻr ehtirosli ayollardan birini toping. Dunyoda topiladi bunday ayollar, gapimga ishonavering, ular ham toʻq burjua hayotida tugʻilib oʻsgan anavi pastkash ojiza singari astoydil seva oladilar.

– Pastkash ojiza? – deb qichqirib yubordi Martin gʻazab bilan.

– Ha, xuddi oʻshaning oʻzi! U bolalik chogʻidan miyasiga quyib qoʻyishgan, hammaga maʼlum boʻlgan narsalar toʻgʻrisida vaysaydi va lekin chinakam hayotdan qoʻrqadi. U sizni oʻzicha sevadi, Martin, ammo oʻzining ayanchli qoidalarini sizdan ham koʻproq sevadi. Sizga esa buyuk fidokorona muhabbat kerak, sizga ozod qalb egasi, koʻrimsiz kuya emas, rang-barang tovlanuvchi parvona kerak. Ammo lekin axiyri borib, hamma xotinlar ham joningizga tegadi, agar bordi-yu, oʻz baxtingizga qarshi bu dunyoda uzoq yashab qolsangiz, albatta. Lekin siz uzoq yashay olmaysiz! Chunki siz dengizga qaytishni istamayapsiz-ku!

To o'zingiz chirib yo'q bo'lib ketguningizgacha shu chirkin shaharlarda tentirab yuraverasiz.

– Nima desangiz deng, – dedi Martin, – baribir, meni fikrimdan qaytara olmaysiz! Negaki sizning o'z hayot falsafangiz, mening o'z yashash falsafam bor va har ikkovimiz ham o'zimizcha haqimiz.

Ularning muhabbat, jurnallar va boshqa juda ko'p narsalar haqidagi fikrlari bir-biriga to'g'ri kelmasdi, lekin shunga qaramay, bir-birlarini ko'rishmasa tura olmasdilar, natijada, Martin Brissendenni oddiy do'stlikdan birmuncha teranroq tuyg'u bilan yaxshi ko'rib qoldi. Ular har kuni uchrashib turishdi, holbuki, Brissenden Martinning dim xonasida bir soat ham chidab o'tira olmasdi.

Brissenden har kelganida bir shisha viski olib kelardi, bironta restoranchada birga ovqatlanishganida shotland viskisini soda suvi bilan birga chaqirtirardi. Brissenden hamisha ovqat haqini o'zi to'lardi, shu Brissenden tufayli Martin juda ko'p xil nozik taomlardan totib ko'rdi, shampän vinosining va reyiveyi «guldastasi»ning nafosatini umrida birinchi marta bildi.

Shularga qaramay, Brissenden Martin uchun jumboqligicha qolaverdi. Sirdan qaraganda, tarki dunyo qilgan odamni eslatuvchi bu kishi xastaligiga qaramay hayot lazzatini qadrlardi. U o'limdan qo'rqmas, insoniyatning jamiki kun kechirish tarzidan achchiq-achchiq kular va ayni vaqtda, hayotning eng mayda ikir-chikirlarigacha zo'r ehtiros bilan sevardi. U hayot shaydosi, uning yurak tepishini his etishga intiluvchi devona edi, o'zim bunyod bo'lgan samoviy to'zon

ichida kichik bir zarracha bo'lib g'imirlashni istamayman», degan edi u bir kun. Brissenden giyohvandlik qilib ham o'zini sinab ko'rdi, faqat yangi hislarni boshidan kechirish maqsadidagi-na juda g'aroyib ishlarga ham qo'l urdi. U keyin tashnalikni qondirish lazzatidan bahramand bo'lish uchun uch kun muttasil suv ichmay yurgani haqida Martinga gapirib berdi. Martin uning kimligini, qayerdan ekanligini hech qachon bila olmadi. Bu o'tmishi yo'q odam edi, uning kelajakdagi hayoti yaqin qolgan o'lim bilan uzilar, hozir esa jo'shqin hayot qo'ynida o't bo'lib yonardi.

O'TTIZ UCHINCHI BOB

Martinning ahvoli tang edi. U qanchalik tejab-tergab sarf qilmasin, adabiy faoliyatidan kelgan daromad hatto bir amallab kun kechirishiga ham yetmasdi. Nihoyat, qora kostyumini garovga qo'yishga majbur bo'ldi, shu bilan Morzlarning Shukronalik kuni tushlik ovqatga taklifini qabul etish imkonidan mahrum bo'ldi. Ruf taklifning rad etish sababini bilib, juda xafa bo'ldi, Martin esa bu holdan qat'iy bir qarorga keldi. U besh dollar haqini olgani «Transkontinental oylik jurnali» tahririyatiga o'zi borib, so'ng kostyumini sotib olmoqchi bo'ldi, shu niyatini Rufga aytib, ularnikiga borishga va'da berdi.

Ertalab u Mariyadan o'n sent qarz oldi. Qarzni Brissendendan olgani ma'qul edi-yu, lekin u tentak birdaniga qayoqqadir g'oyib bo'lgan edi; mana, ikki haftadirki, Martinnikiga kelmas, Martin esa, yana uni xafa qilib qo'ymadimmikin,

deb behuda bosh qotirgani-qotirgan edi. O'n sent pul uni ko'rfazdan paromda suzib o'tishi uchun kerak edi, mana u Market-strit bo'ylab ketib borarkan, pulni undira olmasam nima bo'ladi, deb o'ylardi. Bu holda uning Oklendga qaytishi ham muammo bo'lib qolardi, chunki San-Fransiskoda paromga o'n sent qarz beradigan hech qanday tanishi yo'q edi.

«Transkontinental oylik jurnali»ning eshigi qiya ochiq edi, Martin quyidagi gapni eshitib, beixtiyor to'xtab qoldi:

– Gap bunda emas, mister Ford. (Ford muharrirning familiyasi ekanligini Martin bilardi.) Gap mening haqimni to'lashga qodir yo qodir emasligingizda. Ya'ni, naqd to'lash haqida. Jurnalning kelgusi yildagi istiqboli bilan sariq chaqalik ishim yo'q. Mening ish haqimni to'lashingizni talab qilaman, vassalom. Ogohlantirib qo'yay, to ish haqimni oxirgi sentigacha to'lamas ekansiz, jurnalning yangi yil soni bosmaga tushirilmaydi. Xayr! Pul topganingizda kirsiz.

Eshik qattiq ochildi va Martinning yonidan bir odam mushtlarini tugib, g'o'ldirab so'kingancha chopib o'tib ketdi. Martin yaxshisi, chorak soatcha kutib turay degan qarorga keldi. U bir oz ko'chada tentirab yurib qaytib keldi-da, umrida birinchi marta tahririyat ostonasidan hatlab o'tdi. Aftidan, bu yerda tashrifnomaning hojati yo'q edi, dastyor bola to'g'ridan-to'g'ri to'siq orqasiga o'tib, bir odam mister Fordni so'rayotganini aytdi. So'ng u qaytib chiqib, Martinni muharrir kabinetiga boshlab kirdi. Bu yerda,

Martin xona haddan tashqari tartibsiz, ivirsib yotganini ko'rib hayron qoldi. Keyin u stol ortida o'tirgan, aftidan xiyla yosh ko'ringan, chakkalariga soqol qo'ygan janobni ko'rdi; u janob Martinga qiziqsinib qarab o'tirardi. Martin uning qiyofasidagi beg'amlik ifodasini ko'rib hang-mang bo'lib qoldi. Aftidan, bosmaxona xo'jayini bilan bo'lgan mojaro uning kayfiyatiga zarracha ham ta'sir qilmagan ko'rinardi.

– Men... men Martin Idenman, – deb gap boshladi Martin («men ham o'zimning besh dollarimni olgani keldim», demoqchi bo'ldi).

Lekin uning muharrir bilan birinchi marta yuzma-yuz to'qnashishi edi, shuning uchun gapni jahl bilan boshlash yaxshimas degan qarorga keldi. Biroq mister Ford Martinni taajjublantirib:

– I-ye, rostdanmi? – deb dik etib o'rnidan turib ketdi-yu, bir zumda zavq-shavq bilan uning qo'lini siqib ko'risha boshladi. – Siz bilan tanishganimdan behad xursand bo'lganimni bilsangiz edi, mister Iden. Sizni tez-tez o'ylab turardim, qanday odamligingizni tasavvur qilishga urinardim.

Mister Ford bir oz orqaga chekinib, Martinning ishlik kostyumini, ya'ni, hozirgi paytda yagona kostyumini zavq bilan tomosha qildi, bu kostyumning chatishlik va yamashlik holi qolmagani yaqqol ko'rinib turardi, rost, shimining qatlari Mariya Silvaning dazmolida hafsala bilan dazmollangan edi.

– Men sizni ancha katta yoshda bo'lsangiz kerak deb o'ylovdim. Hikoyangizda puxta muhohazalar shunday ko'p va u shunday chiroy-

li yozilganki, chinakam shohona asar, asarinzidan uch-to'rt misra o'qishim bilan angladim buni. Birinchi marta hikoyangizni qanday o'qib chiqqanimni aytib beraymi sizga? Yo'q! Eng avval sizni o'z xodimlarimiz bilan tanishtirmoqchiman.

Mister Ford gapdan to'xtamay, uni umumiy xonaga boshlab chiqdi, u yerda Martinni o'z muovini – mister Uayt bilan tanishtirdi, mister Uayt qo'li muzdek sovuq, qiyofasi bezgak tutayotganga o'xshagan jikkakkina odam edi.

– Bu kishi esa mister Ends. Mister Ends – bizning boshqaruvchimiz.

Martin ko'zlari bejo, boshi kal janobning qo'lini siqdi; bu janobning yuzi qordek oppoq soqol bilan bezalgan bo'lsa ham, o'zi hali uncha qari emas edi, bu janobning rafiqasi har yakshanba kuni uning soqolini chiroyli qilib dukartlab, ensasini ham ustara bilan qirib qo'yarkan.

Uchovlari Martinni o'rab olib, bir-birlarining so'zini bo'lib, uni shunday maqtay boshladilarki, nihoyat, Martin, bular gapni chalg'itib meni laqillatishayotganga o'xshaydi, degan xayolga keldi.

– Biz doim, nega tahririyatimizga kelmaysiz deb hayron bo'lardik! – dedi mister Uayt.

– Paromga pulim yo'q edi, – deb javob qildi Martin, shu bilan u o'zining pulga qanchalik muhtojligini bildirdi.

«Mening «kishilik» kostyumim, – deb o'yladi u o'zicha, – buning juda yaxshi isboti bo'la oladi».

Bundan keyingi suhbat paytida Martin dam o'tmay nima maqsadda kelganini shama qilib turdi. Lekin iste'dodining ixlosmandlari uning shamalarini eshitmas edilar. Ular Martinning hi-

koyasidan qanday zavqlanganlarini, xotinlari va qarindosh-urugʻlari qanday qoyil qolganini tinmay gapirar edilar. Lekin uchalasidan bittasi ham uning haqini toʻlash haqida lom-mim demadi.

– Men hikoyangizni birinchi marta qanday vaziyatda oʻqib chiqqanimni aytib bermadim-a? – dedi mister Ford. – Men Nyu-Yorkdan kelayotgan edim, poyezd Ogdenda toʻxtaganida vagonga gazetafurush chiqdi, unda «Transkontinental oylik jurnali»ning oxirgi soni bor ekan.

«Yo tavba, – deb oʻyladi Martin, – bu haromzoda Pulman poyezdida sayr qilib yursa-yu, men och oʻtirsam, oʻz peshana terim bilan topgan besh dollarimni talab qilib ololmasam!» Martinning gʻazabi qaynab ketdi. «Transkontinental oylik jurnali»dan yetgan ozor birdan tasavvur qilib boʻlmaydigan darajada kuchayib ketdi; u bu pulni necha oy mobaynida koʻzlari toʻrt boʻlib kutganini, muhtojlik va ochlikda yashaganini esladi, kecha ham och-nahor yotib qolganini, bugun esa tuz ham totmaganini esladi. Qoni qaynab miyasiga urdi. Bular talonchi ham emas, shunchaki oddiy kissavurlar! Ular soxta vaʼdalar bilan tovlamachilik qilib, uning hikoyasini tortib olgan edilar. Xoʻp, yaxshi! Martin koʻrsatib qoʻyadi ularga!

Shuni oʻylab Martin oʻziga tegishli pulni batamom olmaguncha tahririyatdan chiqmaslikka ahd qildi. Baribir, Oklendga qaytishi uchun puli yoʻq edi. Martin hamon oʻzini bosib turar, lekin yuzida endi vahshiyona ifoda paydo boʻla boshlagan ediki, bu hol hamsuhbatlarini dovdiratib, hattoki choʻchitib yubordi.

Ular yana jonlarini jabborga berib, hikoyani boshlariga ko'tarib maqtay boshladilar. Mister Ford «Qo'ng'iroq sadosi»ni birinchi dafa qanday o'qiganini yana hikoya qila boshladi, mister Ends esa jiyanining bu hikoyadan o'zini yo'qotib qo'rganini, vaholanki, jiyanini unaqa-bunaqa ayol emas, Alamedda maktab muallimasi ekanligini gapira boshladi.

– Men haqimni olgani keldim, – deb gapni cho'rt bo'ldi Martin, – hammangizga shu qadar yoqqan hikoyam bosilib chiqqandan keyin men-ga besh dollar to'lashingiz kerak edi.

Mister Fordning yuzida uning haqini darhol to'lashga tayyorlik ifodasi namoyon bo'ldi, cho'ntaklarini paypaslab ko'rdi va mister Ends-ga o'girilib, pulini uyida unutib qoldirganini aytdi. Mister Ends «chakki bo'пти» deganday unga qaradi, lekin shu payt uning g'ayriixtiyoriy ravishda qo'li bilan shimining cho'ntagini qoplaganini ko'rib qolgan Martin o'sha cho'ntakda pul borligini bildi.

– Ming afsus, – dedi mister Ends, – bor-yo'q pulimni hozirgina bosmaxonaga berib yuboruvdim-a. O'ylamasdan, juda oz pul olib kelgan ekanman bugun, lekin... bilasizmi, kutilmagan-da, bosmaxona xo'jayini kelib qolib, hali to'lov vaqti kelmagan bo'lsa ham, bir hojat chiqarib, avans berishni iltimos qildi.

Ikkovlari mister Uaytga qarashdi, lekin u kulib yuborib, yelkasini qisib qo'ydi. Har holda uning vijdoni pok edi. U «Transkontinental oylik jurnali»ga jurnalistika ishini o'rganish uchun ishga kirgan edi, lekin unga asosan moliya siyo-

satini o'rganishga to'g'ri keldi. «Oylik» unga to'rt oylik maoshini to'lamagan edi, lekin u muharrir muovining haqini to'lagandan ko'ra, bosmaxonani tinchitish muhimroq ekaniga tushunib qolgan edi.

– Juda chakki bo'ldi-da, – dedi mister Ford surbetlik bilan. – Siz, mister Iden, to'satdan kelib qoldingiz. Lekin biz bunday qilsak. Ertaga ertalaboq sizga pochta orqali chek yuborsak. Mister Ends, mister Idenning manzili bormi sizda?

– O, bo'lmasam-chi, mister Idenning manzili yozib qo'yilgan, ertaga ertalab chek yuboriladi. – Martin moliya va bank ishlariga yaxshi tushunmasdi, lekin u, agar ular ertaga chek yuborishmoqchi ekan, bu ishni hozir ham bermalol qilishlari mumkin-ku, degan qarorga keldi.

– Demak, kelishdik, mister Iden, ertaga sizga chek yuboriladi.

– Menga pul ertaga emas, bugun kerak, – dedi Martin qat'iy qilib.

– Ko'ngilsiz tasodifni qarang-a! Agarda boshqa istagan kuningizda kelganingizda ham... – deb mister Ford gap boshlagan edi, ammo chamasi, tabiatan birmuncha betoqatroq bo'lgan mister Ends to'satdan uning so'zini bo'ldi.

– Mister Ford sizga vaziyatni tushuntirdi-ku, – qo'rslik bilan dedi u, – men ham tushuntirdim. Chek ertaga yuboriladi.

– Men ham sizga tushuntirib aytyapman, – dedi Martin, – pul menga bugun kerak!

Ish boshqaruvchining qo'pol muomalasi Martinga qattiq botdi; shuning uchun unga ko'z-qu-

loq bo'lib turdi, inchunun «Oylik»ning kassasi, shubhasiz, uning cho'ntagida edi.

Shu choq mister Ford yana:

– Men nochor ahvolga tushib qoldim... – deb gap boshladi.

Mister Ends esa sabrsizlik bilan poshnasida orqasiga o'girildi va xonadan chiqib ketmoqchi bo'ldi. Martin shu onning o'zida unga tashlanib, hiqildog'iga shunday yopishdiki, uning qordek oppoq, bejirim soqoli o'zining shaklini yo'qotmay qirq besh darajali burchak yasab tikkayib qoldi. Mister Ford bilan mister Uayt, dahshatdan surat bo'lib qotib, Martin ish boshqaruvchini xuddi eron gilamini qoqqandek silkitayotganini baqrayib tomosha qilishdi.

– Menga qarang, yosh iste'dod egalarining kuchidan foydalanuvchi muhtaram zot, – deb baqirdi Martin, – pulni chiqaring, yo'qsa, yoningizdagi pulning hammasini o'zim qoqib tushiraman!

So'ng u qo'rqib ketgan tomoshabinlarga o'girilib, qo'shib qo'ydi:

– Yaxshisi, aralasha ko'rmanglar... bo'lmasa, sizlar ham shunday ta'ziringizni yeysizki, tuqqan onangiz ham taniyolmay qoladi.

Mister Ends bo'g'ila boshladi, Martin o'z shar-tiga uning rozilik berishi uchun imkon tug'dirish maqsadida bir oz qo'lini bo'shatdi. Ish boshqaruvchi cho'ntagini kovlab, nihoyat, to'rt dollaru o'n besh sent chiqardi.

– Cho'ntakni ag'daring! – deb baqirdi unga Martin.

Yana o'n sent chiqdi. Martin hisobga to'g'ri bo'lsin uchun o'ljani ikki marta sanadi.

– Endi navbat sizga! – deb qichqirdi u mister Fordga. – Menga yana yetmish besh sent yetmaydi!

Mister Ford darhol cho‘ntaklaridagi hamma narsani oldi, lekin bor-yo‘q puli oltmish sent chiqdi.

– Yaxshiroq qidiring, – dedi Martin unga dag‘dag‘a qilib, – nimchangiz cho‘ntagidan nima chiqib turibdi?

Mister Ford o‘zining halol odamligini isbotlamoqchi bo‘lganday, ikkala cho‘ntakning ham astarini ag‘darib ko‘rsatdi. Uning bitta cho‘ntagidan to‘rt burchak karton tushdi. Mister Ford uni yerdan olib yana cho‘ntagiga solmoqchi edi, lekin Martin:

– Nima u? – deb yubordi. – Parom chiptasimi? Bu yoqqa bering? Bu o‘n sent turadi. Demak, endi qo‘limda, agar chiptani ham qo‘shib hisoblansa, to‘rt dollaru to‘qson besh sent bor. Qani, yana besh sent chiqaring!

U mister Uaytga shunday o‘qrayib qaradiki, bu nozik nihol jentlmen shu zahotiy oq cho‘ntagidan nikel tanga chiqarib berdi.

– Tashakkur, – dedi Martin ulfatlarning hammasiga murojaat qilib, – omon bo‘linglar!

– Bosqinchi – deb g‘ijindi uning orqasidan mister Ends.

– Muttaham! – deb javob qildi unga Martin eshikni «qars» etib yopib chiqib ketarkan.

Martin g‘alabasidan shu qadar zavqlanib ketgan ediki, «Parizod va marvarid» uchun «Qovoq ari» berishi kerak bo‘lgan o‘n besh dollar qarzi ni eslab, shu zahotiy oq uni ham undirishga ahd qildi. Lekin «Qovoq ari» tahririyatida qandaydir soqollari toza olingan yoshlar o‘tirishardi, bular

hammani, duch kelgan har bir odamni va shuningdek, bir-birlarini ham tunashga odatlanib qolgan qip-qizil qaroqchilar edi. To'g'ri, Martin jihozlardan ba'zilarini sindirishga ulgurdi, ammo talabalik chog'larida atletika bo'yicha mukofotlar olgan muharrir ish boshqaruvchi e'lonlar yig'uvchi agent va shveysar yordamida Martinni eshikka chiqarib qo'ydi va zinadan o'qday otilib tushishiga ko'maklashdi.

– Kelib turing, mister Iden, sizni ko'rishga hamisha mushtoqmiz! – deb uning orqasidan xushchaqchaq ovoz bilan baqirishdi.

Martin ham jilmayib o'rnidan turdi.

– Uf, – deb g'o'ldiradi u. – Qoyilman, yigitlar. «Transkontinental»dagi qiltiriqlarga o'xshamas ekansizlar!

Bunga javoban yana xoxolab kulishdi.

– Shuni e'tirof etish kerakki, mister Iden, – dedi «Qovoq ari»ning muharriri, – shoir uchun o'zini bunchalik himoya qilish katta gap. Bu bra-ruleni qayerda o'rgangansiz?

– Siz ikki qavatlama nelsonni qayerda o'rgangan bo'lsangiz, o'sha yerda, – deb javob berdi Martin. – Har holda ko'zingizning osti ko'karib chiqishi muqarrar!

Ishonamanki, sizning gardaningiz qichib qoladi hali, – ehtirom bilan e'tiroz bildirdi muharrir. – Menga qarang, shu ish sharafiga qittay-qittay otmaymizmi? Albatta, lat yegan gardan sharafiga emas, tanishganimiz sharafiga.

– Men yengildim, demak, rozi bo'lish kerak, – deb javob qildi Martin.

Shundan keyin, hammalari – talovchilar ham, talangan ham bir shisha viski ichishdi, jangda

kuchlilar g'olib chiqdi, shunga ko'ra «Parizod va marvarid» uchun beriladigan o'n besh dollar «Qovoq ari»ga tegishlidir deb do'stona qarorga keldilar.

O'TTIZ TO'RTINCHI BOB

Artur ko'cha eshik oldida qoldi, Ruf esa Mariya Silvaning uyi oldidagi pillapoyadan tez yurib chiqdi. U yozuv mashinkasining chiqillashini eshitdi, xonaga kirib Martinni allaqanday qo'lyozmaning oxirgi sahifasini yozib tugatayotgani ustidan chiqdi. Ruf Martinning Shukronalik kuni ovqatlangani borish-bormasligini bilish uchun ataylab kelgan edi, lekin ijodiy ehtirosiga berilib ketgan Martin unga og'iz ham ochirmadi.

– Ijzat etsangiz, sizga shuni o'qib bersam! – dedi u mashinkadan qog'ozlarni olib, nusxalarini ajratib qo'yarkan. – Bu mening eng keyingi hikoyam. Avvalgi asarlarimga sira ham o'xshamaydi, men hatto bu haqda o'ylagani ham qo'rqyapman, lekin nazarimda, yaxshiga o'xshayapti. Mana, o'zingiz eshiting. Hikoyada Gavayi hayoti tasvirlanadi. Unga «Viki-Viki» deb nom qo'ydim.

Martinning yuzi hayajondan cho'g'dek yonardi, holbuki, Ruf uning kulbasida sovuqdan dildirar, Martinning qo'llari esa muzdek edi.

Ruf hikoyani diqqat bilan tinglayotgan bo'lsa ham, unga ma'qul tushmayotgani yuzidan yaqqol bilinib turardi. Martin o'qib bo'lib, undan so'radi:

– To'g'risini ayting, sizga yoqdimi, yo'qmi?

– Bi-bilmadim, – deb javob qildi qiz, – buni bi-ron jurnalga o‘tkazib bo‘ladi deb o‘ylaysizmi?

– Menimcha, o‘tkazib bo‘lmasa kerak, – deb e’tirof etdi Martin. – Buni jurnallar tushunmaydi. Ammo bu yerda sof haqiqat yozilgan.

– Nega endi siz hadeb sotib bo‘lmaydigan asarlarni yozganingiz-yozgan? – rahmsizlik bilan gapira boshladi Ruf. – Axir siz tirikchilik uchun yozasiz-ku?

– Ha, to‘g‘ri. Lekin qahramonim mendan kuchli chiqib qoldi. Men hech narsa qila olmadim. U voqeaning faqat shu tarzda tugallashimni talab qilib turib oldi.

Lekin nega Viki-Vikingizning og‘zidan bodi kirib, shodi chiqadi? Axir hikoyani o‘qigan har qanday odam uning gaplaridan sholg‘omdek qizarib ketadi-ku. Demak, muharrirlar hikoyani bosmaslikka haqlari bor.

– Haqiqiy Viki-Viki xuddi shu xilda gapirgan bo‘lardi.

Bu – didsizlik.

Bu – hayot! – dedi Martin. – Bu – real hayot. Bu – haqiqat. Men hayotni qanday mushohada qilsam, xuddi shunday tasvirlashim lozim.

Ruf hech nima deb javob qilmadi, shu payt oraga bir on o‘ng‘aysiz jimlik cho‘kdi. Martin Rufni haddan ortiq sevar, shuning uchun ham uni tushunmas edi, qiz esa uni shuning uchun tushunmas ediki, u Rufning odamlar haqidagi mahdud tushuncha doirasiga sig‘masdi.

– Ha, aytganday, men «Transkontinental oylik jurnali»dan pulimni oldim, – dedi Martin suhbat-
i kishiga og‘ir botmaydigan mavzuga ko‘chirish-

ga urinib, so'ng tahririyatdagi uch og'ayni botirlardan to'rt dollaru to'qson sent va parom chip-tasini qanday musodara qilganini eslab, xoxolab kulib yubordi.

– Juda soz! Demak, borasiz-a? – dedi Ruf sevinib ketib. – Men shuni bilgani keluvdim.

– Boraman? – u hayron bo'lib qayta so'radi. – Qayoqqa?

– Ertaga biznikiga, tushki ovqatga. Pulni olgan zahotim kostyumimni sotib olaman deb aytuvdingiz-ku.

– Buni butunlay unutibman, – xijolat bo'lib dedi Martin. – Bilasizmi, gap bunday... Bugun ertalab polismen Mariyaning ikkita sigiri bilan buzog'ini o'tlarni poymol qilgani uchun olib ketdi, uning jarima to'lashga puli yo'q edi... uning uchun men to'lab yubordim. Shunday qilib, «Qo'ng'iroq sadosi» uchun olgan gonorarimning hammasi Mariyaning sigirlarini qaytib olish uchun ketdi.

– Demak, bora olmaysiz?

Martin o'zining ohori ketgan kiyimiga nazar tashladi.

– Bora olmayman.

Rufning moviy ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi, u Martinga o'pkalanib qarab qo'ydi-yu, lekin hech nima demadi.

– Kelasi yili Shukronalik kuni siz bilan Delmoniko bo'yida, yo Londonda, yoki Parijda, yoinki ko'nglingiz istagan yerda bayram qilamiz. Bunga mening ishonchim komil.

– Yaqinda gazetalarda shuni o'qidim, – dedi Ruf javob berish o'rniga, – pochta mahkamasida

bir necha o'rin bo'shayotgan ekan. Axir u yerda navbatingiz birinchi edi-ku?

Martin chaqiriq qog'ozini olgan bo'lsa ham, bormaganini aytishga majbur bo'ldi.

– Men o'zimga, muvaffaqiyat qozonishimga juda qat'iy ishonaman, – deb o'zini oqlay boshladi u. – Yana bir yildan keyin men har qanday pochta xodimidan o'n hissa ko'proq pul ishlay boshlayman. Mana ko'rasiz.

– Oh! – deb qo'ya qoldi Ruf. U o'rnidan turib, qo'lqopini kiya boshladi. – Men ketishim kerak, Martin. Artur kutib turibdi.

Martin uni mahkam bag'riga bosib o'pdi, lekin Ruf uning erkalashlariga parvo qilmadi. Uning badani odatdagidek seskanmadi, u qo'llari bilan Martinning bo'ynidan quchoqlamadi, dudoqlarini uning lablariga bosmadi.

«Jahli chiqdi, – deb o'yladi Martin Rufni kuza-tib qo'yib uyga qaytarkan. – Lekin nega? Albatta, polismen kelib-kelib shu bugun sigirlarni tutib olgani yaxshi bo'lmadi, lekin bu oddiy ko'ngilsiz hodisa-ku. Bunga hech kim aybdor emas». Boshqacha ish ko'rishim mumkin emasmidi, degan fikr Martinning xayoliga ham kelmagan edi. «Ha, albatta, – degan qarorga keldi u nihoyat, – men uning oldida pochta-dagi ishdan voz kechganim uchun ham bir oz aybdorman. Undan keyin «Viki-Viki» ham unga yoqmasi».

Orqadan oyoq tovushi eshitildi. Martin o'g'irilib, eshik oldiga yaqinlashib qolgan pochta-chini ko'rdi. Martin odatdagi hayajon bilan uning qo'lidan bir to'p qalin va cho'zinchoq konvertlar-ni oldi. Ular orasida bitta kichkina konvert ham

bor edi. Uning ustida «Nyu-York axboroti»ning shtampi bor edi. Martin uni ochishdan oldin bir oz taraddudlanib qoldi. Bu materialning qabul etilgani haqidagi xabar bo'lishi mumkin emasdi. Chunki bu jurnalga bironta ham qo'lyozma yubormagan edi. «Balki, – shu fikr xayoliga kelganida u shamdek qotib qoldi, – balki menga maqola buyurtirishmoqchidir?» Lekin shu zahotiyoq bu dadil va ro'yobga chiqmaydigan orzuni xayolidan quvdi.

Konvertda muharrirning qisqagina rasmiy maktubi bo'lib, unda shu maktubga noma'lum bir kishi tomonidan yozilgan xat ilova qilingani aytilgan edi; shu bilan birga muharrir Martindan hech tashvish tortmaslikni iltimos qilgan edi, chunki tahririyat hech qanday noma'lum kishi yozgan xatga e'tibor bermaydi, deb yozgan edi.

Ilova qilingan xat qo'lda, bosma harflar bilan yozilgan edi. Bu g'irt bema'ni, savodsiz yozilgan bo'hton bo'lib, u yerda o'z hikoya va she'rlarini jurnallarga yuborib turuvchi «Martin Iden ismli shaxs» mutlaqo yozuvchi emas, u hikoyalarni eski jurnallardan o'g'irlyaydi va mashinkada ko'chirib, o'z nomidan yuboradi, deb yozilgan edi. Konvert ustiga «San-Leandro» pochta shtempeli bosilgan. Martin maktub muallifini darhol tanidi. Uning har bir misrasida Xigginbotamning grammatikasi, Xigginbotamning so'zlari, Xigginbotamning fikrlari ko'zga tashlanib turardi. Maktub muhtaram pochchasining dag'al qo'llari bilan bitilgani yaqqol sezilib turardi.

– Axir nimaga keragi bor ekan, bu ig'voning?
– deb so'rardi Martin o'zidan o'zi. Bernard Xig-

ginbotamga nima yomonlik qilgan edi? Bu axir g'irt bema'nilik, befarosatlik-ku. Buni boshqacha izohlash hech mumkin emasdi. Bir hafta ichida sharqiy shtatlardagi har turli jurnallardan yana o'ntacha shu singari maktublar keldi. Muharrirlar juda oliyjanoblik qilishibdi, deb o'yladi Martin. Ularning ko'pchiligi, Martinni mutlaqo tanimasa ham, unga xayrixohlik izhor etishardi. Ularning bo'htonlarga nafrat ko'zi bilan qarashlari oydin edi. Martinga ziyon yetkazish uchun qilingan ahmoqona harakat amalga oshmadi. Aksincha, bu hol unga foyda keltirishi ham mumkin edi, negaki muharrirlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Ulardan ba'zilari, endi Martinning hikoyasini o'qirkan, buni noma'lum kishi yozgan xatda nomi zikr etilgan o'sha Martin Iden yozgan, deb eslaydigan bo'ladilar. Keyin – kim bilsin deysiz – shu narsa uning asarlari taqdiriga ijobiy ta'sir ko'rsatsa ham ajab emas!

Taxminan, shu paytlarda yana bir hodisa sodir bo'ldiki, undan keyin Mariya Silvaning oldida Martin birmuncha e'tibordan qoldi. Kunlarning birida Martin Mariyaning oshxonada yum-yum yig'lab, og'riqdan oh-voh chekayotgani ustidan chiqib qoldi; og'ir dazmolni qimirlatishga uning madori yo'q edi. Mariya gripp bo'пти, degan qarorga keldi shu zahotiyuq. Martin va Brissenden olib kelgan shishalardan birining tagida qolgan viskini ho'platib, o'rniga yotqizdi. Lekin Mariya o'lamani sattor, yotmayman deb turib oldi. U hadeb, kiyimlarni dazmollab bo'lib, shu bugun kechqurunoq egalariga eltib berishim kerak, yo'qsa ertaga yettita bolam och qoladi, der edi.

Martinning dazmolni qoʻliga olib, harir batist koftochkani dazmol taxtasi ustiga tashlagani ni koʻrgan Mariya (bu haqda u to oʻla-oʻlguncha gapirib yurdi) hang-mang boʻlib qolgan edi. Bu mahalladagi eng olifta qiz Ket Flenaganning eng yaxshi koftasi edi. Miss Flenagan, koftochkam nima qilib boʻlsa ham kechqurunga tayyor boʻlsin, deb tayinlagan edi. Uning temirchi Jon Kollinz bilan yaqinligini hamma bilardi, Mariyaning eshitishiga koʻra, ular ertaga «Oltin Qopqa» parkiga sayr qilgani borishlari kerak edi. Mariya koftochkani Martindan qutqarib qolaman, deb bekorga ovora boʻldi. Martin uni majburan kursiga oʻtqazib qoʻydi. Mariya baqrayganча Martinning jon-jahdi bilan kiyim dazmollashini kuzatib oʻtirdi. Oʻn daqiqadan keyin Martin dazmollangan koftochkani Mariyaga uzatdi, Mariyaning oʻzi ham bunday yaxshi dazmollay olmasdi, Martin uni bunga iqror boʻlishga majbur etdi.

– Agar dazmol yana ham qizigan boʻlganda, yana ham tezroq dazmollagan boʻlardim, – deb tushuntirdi u.

Lekin Mariyaning fikriga qaraganda u dazmolni shundoq ham juda qizdirib yuboribdi.

– Siz notoʻgʻri suv purkaysiz, – dedi Martin unga yana, – keling, sizga yoʻlini koʻrsatib beray. Agar tez dazmollamoqchi boʻlsangiz, suv purkalgan kiyimni pressga bostirib qoʻyishingiz kerak.

Martin yertoʻladan yogʻoch quti olib chiqdi, unga qopqoq yasadi, bolalar topshirish uchun yiqqan temir-tersaklardan birtalayini olib keldi. Suv purkalgan kiyimlar qutiga taxlanib, us-

tidan qopqoq qo'yildi, qopqoq ustiga temir-tersak bostirildi. Shu bilan tayyorgarlik tugadi.

– Endi qarab turing, – dedi Martin beligacha yalang'och bo'lib olib, qizarib cho'g' bo'layozgan dazmolni qo'liga olarkan.

Keyinchalik Mariya kiyimlarni dazmollab bo'lgach, Martin jun kiyimlarni yuvishni ham o'rgatib qo'yanini hammaga gapirib yurdi.

– U aytdi: «Mariya, katta ahmoq, meniki o'rgatadi sizga». U o'rgata boshladi. O'n daqiqa mashina tayyor. Bochka, ikki tayoq yana g'ildirak gupchak. Mana!

Bunday asbob yasashni Martin «Qaynar Buloq» kirxonasida Jordan o'rgangan edi. Eski g'ildirakning tayoqqa o'rnatilgan gupchagi porshen vazifasini o'tardi. Tayoqning ikkinchi uchiga bog'langan arqon oshxona shiftining sinchidan o'tkazilgan ediki, bu narsa porshenni bir qo'l bilan harakatga keltirishga imkon berardi; bochkaga solingan jun kiyimlar shu asbob yordamida juda yaxshi qoqilardi. Mariya hatto bolalaridan bittasini arqon tortishga qo'ydi, u Martin Idenning hiylasidan taajjublanardi.

Martin o'z san'atini namoyish qilib, kir yuvishni takomillashtirish bilan Mariyaning mehnatini yengillashtirgan bo'lishiga qaramay, ayni vaqtda, uning nazaridan qoldi. Uning sobiq kir yuvuvchi ekanligi ma'lum bo'lgandan keyin, uni qurshab olgan romantik shu'la go'yo tutundek tarqalib ketdi. Uning kitoblari, faytonda keluvchi yoki o'zidan keyin viski shishalarini qoldirib ketuvchi basavlat mehmonlar – hammasi Mariyaning ko'zi oldida o'z jozibasini yo'qotgan edi. U

oddiy ishchi, xuddi Mariyaga oʻxshagan ishchi ekan, ular ikkovlari ham bir sinfning namoyandalari ekan. Bu fikrdan Martin unga yaqinroq, tushunarliroq boʻlib qoldi, lekin sirli joziba yoʻq boʻlib ketgan edi.

Martin qarindoshlaridan tobora uzoqlasha bordi. Mister Xiggenbotamning oʻrinsiz qiligʻidan keyin, boʻlgʻuvsi kuyovi – German Shmidt ham hunarini koʻrsatdi. Martin bir kun bir necha sheʼr va hikoyalarini oʻtkazishga muyassar boʻldi va qisman oʻz ahvolini tiklab oldi. U baʼzi baqqollarning qarzini uzdi, kostyumi bilan velosipedini ham sotib oldi. Velosipedining u yer-bu yerini tuzatish lozimligini koʻrgach, boʻlgʻuvsi kuyoviga doʻstona munosabatini bildirish uchun uni German Shmidtning ustaxonasiga yuborishga qaror qildi.

Oʻsha kuni kechqurunoq Martin velosipedini olib, taajjublandi va mamnun boʻldi. Chamasi, Shmidt ham unga oʻzining doʻstona munosabatida ekanini izhor etmoqchi boʻlgan, shekilli, velosipedini navbatdan tashqari tuzatib, yana uyiga ham yuboribdi, holbuki, bironta ham ustaxona bu ishni qilmas edi. Lekin Martin velosipedini koʻzdan kechirib, unga qoʻl ham urilmaganini koʻrdi. U ustaxonaga telefon qildi, lekin German Shmidt «u bilan bordi-keldi qilishni istamasligini» aytdi.

– Janob German Shmidt, – bamaylixotir gapira boshladi Martin, – qulogʻingizdan biror mar-ta choʻzib qoʻyish uchun huzuringizga tashrif buyursam ham ajab emas.

– Agar mening ustaxonamga kelgudek boʻlsangiz, – deb javob qildi u, – politsiyaga xabar qila-

man! Men sizga ko'rsatib qo'yaman! Xotirjam bo'ling, meni mushtlashishga majbur qila olmay-siz. Sizga o'xshaganlar mening tengim emas. Siz ishyoqmassiz, meni laqillata olmaysiz. Opangiz-ga uylanmoqchi ekanman, bundan meni haqorat qilishingiz mumkin degan xulosa chiqmaydi. Nimaga ishlamaysiz, nega halol pul topib kun ko'rmaysiz? A? Qani, javob bering-chi!

Martin haqiqiy faylasuf singari g'azabini ichiga yutdi-da, unga javoban hushtak chalib, go'shak-ni ilib qo'ydi. Avvaliga kulgisi qistadi, lekin keyinchalik yolg'izlik asta-sekin uning qalbini iz-tirobga sola boshladi.

Hech kim uni tushunmas, yolg'iz Brissenden-dan boshqa hech kimga keragi yo'q edi, lekin Brissenden ham qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Martin sabzavot do'konidan ul-bul xarid qilib, ko'chaga chiqqanida qosh qorayib qolgan edi. Muyulishda tramvay to'xtadi, uning pillapoyasi-dan novcha bir odam sakrab tushdi. Martinning yuragi sevinganidan bir sapchib tushdi. Bu Brissendenning o'zginasi edi, derazadan tushgan yorug'da paltosining qappaygan cho'ntaklariga Martinning ko'zi tushdi. Uning bir cho'ntagida kitob, ikkinchisida esa shisha bor edi.

O'TTIZ BESHINCHI BOB

Brissenden uzoq vaqt ko'rinmay ketgani-ni Martinga tushuntirib o'tirmadi. Martin ham undan buni surishtirmadi. U grog to'ldirilgan stakanlardan ko'tarilgan bug' orasidan do'stining qoni qochgan, oriq chehrasini kuzatib o'tirardi.

Martin unga so'nggi paytda qilgan ishlari to'g'risida gapirib bergandan keyin, Brissenden:

– Men ham qo'l qovushtirib o'tirganim yo'q, – dedi.

U cho'ntagidan bir qo'lyozma olib Martinga uzatdi, Martin sarlavhasini o'qib, savol nazari bilan Brissendenga qaradi.

– Ha, ha, – dedi Brissenden istehzo bilan, – sarlavhasi chakki emas-a, shundaymi? «Efemerida»... bunaqasi bo'lmaydi. Lekin bu sizning so'zingiz, esingizdami, siz inson haqida gapirganingizda uni «efemeridalarining so'nggisi» deb, tirilgan modda, quyosh ostida o'z o'rni uchun kurashayotgan issiq jon bo'lagi, deb ta'riflagan edingiz. Shu fikr miyamga mahkam o'tirib qolgan ekan, undan xalos bo'lish uchun butun bir doston yozishga majbur bo'ldim! Qani, o'qib chiqib bu borada o'z fikringizni ayting!

Martin o'qirkan, hayajondan goh bo'zarar, goh qizarardi. Bu g'oyat barkamol badiiy asar edi. Agar fikrning har bir nozik ohangi so'zlarda o'z ifodasini topgan yerda asarning ustun tomoni haqida gapiradigan bo'lsak, bu yerda shakl mazmundan ustunlik qiladi deyish mumkin, shu bilan birga, so'z ifodasi shu qadar kamolotga yetgan edikim, zavqqa to'lgan Martinning nafasi qaytib ketar va ko'zlaridan yosh chiqardi. Bu olti yuz yo yetti yuz misradan iborat, juda antiqa, xayoliy va dahshatli doston edi. Bunday asarni yozish mumkin emasday, uni xayolga ham keltirish mumkin emasday tuyulardi, ammo shunga qaramay, doston Martinning ko'z oldida yotardi. Bu dostonda inson va uning jamiki izlanishlari,

uning cheksiz samoni zabt etib, muttasil, eng olis sayyoralar olamiga yaqinlashishga intilishi tasvirlangan edi. Bu hali o'lmagan va yuragi so'nggi marotaba asta tepib turgan o'limga mahkum insonning bosh chanog'i ichida xayolotning telbalaricha javlon urishi edi. Dostonning tantavor vaznida sayyoralarning g'uvillashi, bir-biri bilan to'qnashgan meteorlarning qasir-qusurlari, o'tli bulutlar shu'lasini bilan yoritilgan mudhish bo'shliqlarda yulduzlarning jangu jadali, nihoyat, shu ovozlarning orasidan insonning ojiz tovushi ostin-ustin bo'layotgan dunyolarning dahshatli guldurosi orasidan to'xtovsiz eshitilib turadigan hazin bir shikoyatdek quloqqa chalinardi.

Martin nihoyat tili kalimaga kelib, gapira boshladi.

– Hech qachon bunday asar yozilgan emas. Bu g'oyat ajoyib asar! Ajoyib! Meni esankiratib qo'ydi! Bu buyuk va mangu masala hech xayolimdan nari ketmaydi. Aql bovar qilmaydigan narsani anglashga intilgan insonning to'xtovsiz eshitilib turgan zaif ovozi mening qulog'imda hamisha yangrab turadi! U baayni fillarning dahshatli o'kirishi va arslonlarning na'rasi ostida chivinning o'lim oldidan g'ing'illashiga o'xshaydi. Lekin bu g'ing'illashda zo'r ehtiros bor. Men bema'ni gaplarni valdirayapman, shekilli, lekin bu asar meni tamomila o'ziga rom qilib qo'ydi. Siz... Nima deb aytishni ham bilmayman, siz nihoyatda ulug' iste'dod egasiz. Lekin buni qanday yaratdingiz? Qanday ijod qila oldingiz?

Martin faqat nafasini rostlab olish uchungina madhiya o'qishdan to'xtadi.

– Men endi yozishni tark etaman. Men qog‘ozni iflos qiladigan oddiy odamman. Siz menga chinakam mahorat nimaligini namoyish qildingiz. Siz ulug‘ iste‘dodga moliksiz. Yo‘q, undan ham ulug‘siz! Bu – telbalik yaratgan haqiqat. Bu – tom ma‘nosi bilan haqiqatdir. Siz aqidaparastsiz, tushunyapsizmi? Hattoki, fan ham sizning fikrlaringizni rad eta olmaydi. Bu bashorat qiluvchi odamning qudratli she‘r yordami bilan bepoyon fazo zulmatidan yasagan haqiqati, go‘zallik va buyuklik mo‘jizasidir. Boshqa hech nima demayman! Men oyoq ostida qolib, yo‘q bo‘lib ketdim! Yo‘q, har holda, yana ikki og‘iz so‘z aytaman: ruxsat bersangiz, dostoningizni bironta jurnalga joylashtirsam.

Brissenden xoxolab kulib yubordi.

– Butun xristian olamida bunaqa asarni boshishga jur‘at etadigan bironta ham jurnal topilmaydi! Buni o‘zingiz ham juda yaxshi bilasiz!

– Yo‘q, bilmayman! Men aminmanki, bu asarga ikki qo‘llab yopishib olmaydigan bironta ham jurnal butun dunyoda topilmaydi. Axir bunday asarlar yuz yilda bir marta yoziladi-ku. Bu doston bir kunlik ham, bir yillik ham emas. Bu – asriy doston.

– Ha, balli, asriy!!

– O‘zingizni beadab qilib ko‘rsatmang! – deb e‘tiroz bildirdi Martin. – Muharrirlarni judayam befahm demang. Men buni bilaman. Men bilan bas boylashasizmi, «Efemerida»ngizni men tavsiya etgan birinchi jurnal bo‘lmasa ham, ikkinchisi albatta qabul qiladi?

– Siz bilan bas boylashishga xalal beruvchi bir sabab bor, – dedi Brissenden va bir oz jim tu-

rib ilova qildi. – Bu men yozgan asarlarim ichida eng yaxshisi. Buni juda yaxshi bilaman. Bu umrim oxirida yaratgan eng yuksak asarim. Men bu dostonim bilan g'oyatda faxrlanaman. Uning oldida tiz cho'kaman. Bu menga viskidan ham aziz. Men bu eng mukammal asarni yozishni orzular sari tolpingan va xom xayolga berilgan yoshlik chog'imdayoq orzu qilgan edim. Mana orzuimni ro'yobga chiqardim, bir oyog'im go'rda turgan paytda ro'yobga chiqardim. Nahotki, endi shu asarimni to'ng'izlar oyog'i ostiga tashlasam! Bas boylashmayman! Bu meniki! Buni men ijod etdim va uni faqat siz bilan baham ko'raman.

– Lekin qolganlarni ham unutmashingiz kerak! – dedi Martin. – Axir go'zallikdan maqsad odamlarni quvontirish va ularga lazzat bag'ishlashdan iborat!

– Yaxshisi, bu asar meni quvontirib, menga lazzat bag'ishlayversin!!

– Xudbinlik qilmang!

– Men aslo xudbin emasman! – Brissenden hozir aytmoqchi bo'lgan gapidan lazzatlana boshlagandek jilmayib qo'ydi. – Men misoli och cho'chqa singari altruistman²⁵.

Martin qancha urinsa ham Brissendenni ahdidan qaytara olmadi. Martin jurnallardan bu qadar nafratlanishingiz bema'nilik va mutaassiblik, siz Efesdagi Diana ibodatxonasiga o't qo'yan Gerostratdan ming marta bema'ni ish qilyapsiz, deb Brissendenni ishontirmoqchi bo'ldi. Brissenden bosh irg'ab grogini ichib o'tirarkan, hattoki

²⁵ Altruist – o'z manfaatidan voz kechib, o'zgalarga yaxshilik qiluvchi odam.

hamsuhbatining jurnallarga taalluqli gaplaridan boshqa hamma sohada haq ekanligini e'tirof ham etdi. Uning muharrirlarga bo'lgan nafratining cheki yo'q edi, u muharrirlarni Martindan ham qattiq haqorat qilardi.

– Iltimos, dostonimni mashinkangizda bosib bersangiz, – dedi u, – siz har qanday kotibadan ming karra yaxshiroq bosasiz. Endi sizga bita foydali maslahat bermoqchiman. – Brissenden cho'ntagidan qalin bir qo'lyozma oldi. – Bu sizning «Sharmanda bo'lgan quyosh» degan maqolangiz. Uni uch marta o'qib chiqdim! Qo'limdan kelgan eng yuksak maqtovim shu. Siz «Efermerida»ni g'oyat daraja maqtab yuborganingizdan keyin jim bo'lishim kerak edi. Lekin sizga shu narsani aytmoqchi edim: agar «Sharmanda bo'lgan quyosh» bosilib chiqsa, juda katta shovshuv bo'ladi. Shuning natijasida eng shiddatli munozara boshlanadiki, bu siz uchun eng yaxshi reklama bo'ladi.

Martin xoxolab yubordi.

– Bu maqolamni biron jurnalga yuborishni maslahat bermoqchimisiz?

– Agar maqolangizning bosilib chiqishini istasangiz, uni bironta jurnalga berishingizni aslo maslahat ko'rmayman. Uni yirik nashriyotlardan biriga tavsiya qiling. Ehtimolki, uni o'sha yerda bironta jinni yoki g'irt mast taqrizchi o'qib chiqib, ijobiy fikr aytib qolsa. Ha, ko'p kitob mutolaa qilganingiz ko'rinib turibdi! O'qiganlaringizning hammasi Martin Idenning miyasida hazm bo'lib, «Sharmanda bo'lgan quyosh»da izhor etilibdi. Shunday vaqt keladiki, Martin Idenning nomi

olamga mashhur bo'ladi, u o'z shon-shuhratining ulkan hissasiga shu maqola sharofati bilan ega bo'ladi. Noshir axtaring, uni qancha tez topsangiz, shuncha yaxshi!

Shu kuni kechqurun Brissenden Martinning uyida allamahalgacha o'tirib qoldi. Keyin Martin uni tramvaygacha kuzatib qo'ydi, Brissenden tramvayga chiqayotganida to'satdan do'stining qo'liga g'ijimlangan bir qog'oz tutqazdi.

– Manavini olib qo'ying, – dedi u, – bugun poygada omadim o'ngidan kelib qoldi!

Zang chalinib, tramvay jo'nab ketdi. Martin esa qo'lida g'ijimlangan qog'oz bilan hayron bo'lganicha turib qolaverdi. Martin xonasiga qaytib kirgandan keyin qog'ozni ochib ko'rdi, bu yuz dollarlik qog'oz pul edi.

Martin uni hech surishtirmay sarflay boshladi. U do'stining puli ko'pligini yaxshi bilar, bundan tashqari, o'zi ham yaqin orada bu qarzimni uzaman, deb ishonardi. Ertasi kuni ertalab u qarzlarini to'ladi, Mariyaga uch oylik ijara haqini oldindan berib qo'ydi, o'zining garovga qo'ygan mollarining hammasini sotib oldi. U Meriyenga to'yona qildi, Ruf bilan Gertrudaga yangi yil bayramiga sovg'a sotib oldi. Bu ham ozdek, Silvaning hamma bolalari bilan Oklendga borib, bir yil kechikib bo'lsa ham, va'dasi-ning ustidan chiqdi: u Mariyaga ham, hamma bolalariga ham botinka olib berdi. Yana u bolalarga olamjahon o'yinchoqlar va shirinliklar olib berdi, bolalarning jajji qo'llari sovg'a-salomga to'lib ketgan edi.

Martin bu tantanali yurishga bosh bo'lib, shirinliklar sotuvchi do'konga kirarkan, bexosdan

Ruf bilan uning onasiga to'qnash kelib qoldi. Missis Morz qattiq xijolat bo'ldi, hatto Ruf ham uyalib ketdi. U zohiriy odob qoidalariga zo'r ahamiyat berardi, shuning uchun o'z sevgilisini portugaliyalik bir gala juldurvoqi bolalar orasida ko'rish uning uchun juda ko'ngilsiz bir hol edi. Martinda g'urur va o'ziga nisbatan hurmat yo'qligi uni qattiq ranjitdi. Eng xunugi shu bo'ldiki, bu yuz bergan hodisa Martinning o'z muhitidan ko'tarilib chiqa olmasligini isbotlovchi yana bir dalil ekanligi Rufga ayon bo'ldi. Shuning o'zi ham juda ko'ngilsiz hodisa edi, butun dunyo oldida – Rufning dunyosi oldida buni ko'z-ko'z qilishning hech hojati yo'q edi. Garchi Ruf bilan Martinning unashtirib qo'yilgani sir tutilsa ham, ularning o'zaro munosabati barchaga ayon edi, shirinlik do'konida esa aksiga, tanish-bilishlar juda ko'p edi; ular hammasi miss Morzning qallig'ini o'rab olgan ajoyib bolalarga qiziqsinib qarab turardilar. O'z muhitining sodiq qizi bo'lgan Ruf qo'li ochiq Martinning tabiatini tushuna olmas edi. U xassos bo'lganidan bu hodisani bir sharmandalik deb tushunardi. Shu kuni Morzlarnikiga kelgan Martin Rufni shunday hayajonda ko'rdiki, hatto olib kelgan sovg'asini cho'ntagidan chiqarishga ham yuragi dov bermadi. U Rufning ko'zlarida birinchi marta yosh – g'azab bilan alam yoshini ko'rdi, natijada bu manzara Martinga shu qadar ta'sir etdiki, u ichida o'zini hayvon deb atadi, holbuki, nima ayb qilib qo'rganini unchalik tushunmasdi ham. O'z davrasiga mansub bo'lgan odamlar bilan muomalada bo'lgani uchun uyalish Mar-

tinning xayoliga ham kelmagan edi, shuning uchun ham Mariya Silvaning bolalariga sovg'a xarid qilgani chiqib, Rufni tahqirleydigan hech ish qilgani yo'q edi. Shunday bo'lsa ham, u Rufning izohlarini tinglashga, yuz bergan voqeani, hattoki eng yaxshi ayollarda ham uchraydigan zaiflik deb izohlab, uning injiqliklarini bajonu dil qabul etishga tayyor edi.

O'TTIZ OLTINCHI BOB

– Yuring, sizga «asl odamlar»ni ko'rsataman, – dedi Brissenden Martinga yanvar oqshomlaridan birida.

Ular San-Fransiskoda ovqatlanib, endi Oklend paromiga o'tirmoqchi bo'lib turishganda Brissendenning Martinga «asl odamlar»ni ko'rsatgisi kelib qoldi. U orqasiga burilib pristandan uzoqlashib borar, etaklari hilpirayotgan plashchida xuddi ko'lankaga o'xshardi. Martin uning orqasidan zo'rg'a yetib borardi. Brissenden yo'l-yo'lakay ustiga savat to'qilgan flyagalarda ikki gallon portveyn sotib oldi va shularni qo'lida ushlagancha Mishen-strit bo'ylab ketayotgan tramvayga sakrab chiqdi; uch-to'rt shisha viski ko'tarib olgan Martin ham unga ergashdi. Martinning xayolidan bir zungina «agar meni hozir Ruf ko'rsa nima deb o'ylagan bo'lardi», degan fikr lip etib o'tdi, ammo uning fikri: kim o'zi u «asl odamlar?» degan boshqa fikr bilan band edi.

Balki bugun u yerda hech kim bo'lmas, – dedi Brissenden, tramvaydan tushib Market-stritning janubidagi ishchi mahallasining jin ko'chasiga

kirib borisharkan. – Unda siz ko‘pdan beri axtarib yurgan narsangizni ko‘rolmaysiz.

– U nima o‘zi? – deb so‘radi Martin.

– Odamlar, lekin sizni birinchi uchratganimda chayqovchilar makonida g‘ujg‘on o‘ynagan odamlarga o‘xshash mahmadanalar emas, chinakam aqlli odamlar. Siz ko‘p kitob mutolaa qilib, yolg‘izlikdan iztirob chekardingiz! Lekin bugun men sizni uncha-muncha kitob o‘qigan odamlar bilan tanishtirib qo‘yaman, bundan buyon yolg‘iz bo‘lmaysiz.

– Ularning keti uzilmaydigan munozaralariga uncha qiziqmayman, – deb ilova qildi Brissenden yana bir kvartal yurib o‘tgach, – umuman, kitobiy falsafani jinim suymaydi, lekin bular, burjuaziya to‘ng‘izlari emas, shubhasiz, chinakam ziyolilardir! Lekin ehtiyot bo‘ling, nima to‘g‘rida gap ochilsa ham, ular sizning tinka-madoringizni quritib tashlaydilar.

U ko‘p yurganidan hansirab qolgan bo‘lsa ham, qo‘lidagi portveyn flyagalarini Martinga bermay borardi. Bir ozdan so‘ng yana gapida davom etdi:

– Nortonni uchratib qolsak ham ajab emas. Norton – idealist. U Garvard dorilfununini bitirgan! Xotirasi juda kuchli! Idealizm uni falsafiy anarxizmga olib keldi, natijada oilasi undan voz kechdi. Uning dadasi – temir yo‘l shirkatining prezidenti, yirik millioner, o‘g‘li esa Friskoda yarim och holda tirikchilik qiladi, yigirma besh dollardan oylik olib, anarxistlar jurnalchasiga muharrirlik qiladi.

Martin San-Fransiskoni, xususan, shaharning shu qismini yaxshi bilmas edi, shuning uchun,

Brissenden uni qayoqqa boshlab ketayotganini hech tushuna olmadi.

– O‘sha odamlar haqida yana gapirib bering, – dedi u. – Men ularning kimligini bilmoqchiman. Turmush tarzlari qanday? Bu yerga qanday kelib qolishgan?

– Gamiltonni uchratib qolsak ham yaxshi bo‘lardi, – dedi Brissenden nafasini rostlab olish uchun to‘xtab. – Aslida, uning familiyasi ikki qavatli: Straun-Gamilton; u janublik, qadimiy oiladan, lekin tabiatan dunyoda tengi yo‘q sayoq va yalqov; holbuki, u allaqanday bir kooperativda haftasiga olti dollarga xizmat qiladi, aniqrog‘i, xizmat qilishga urinadi. Hech tuzalmaydigan sayoq! U sayoq San-Fransiskoga kelib qolgan. Bir kuni u parkdagi skameykada kun bo‘yi tuz totmay o‘tirdi, lekin men unga ikki kvartal naridagi restoranga borib ovqat qilishni taklif qilgan edim, menga nima deb javob qildi deng? «Ovora bo‘lamiz, qariya. Yaxshisi, menga bir quti papiros olib bera qoling!» dedi. Kreys uni materialistik monizm yo‘liga solib yuborguncha u ham sizga o‘xshash spenserchi edi. U bilan monizm haqida suhbat qurishga urinib ko‘rish kerak. Norton ham monist, lekin u idealist monist. U hamisha Gamilton va Kreys bilan bahslashgani-bahslashgan.

– Kreys kim? – deb so‘radi Martin.

– Mana, hozir o‘shanikiga ketyapmiz. Sobiq professor... dorilfunundan haydashgan, oddiy hodi-sa. Aqli qilichday o‘tkir. To‘g‘ri kelgan ishni qilib, kunini kechirib yuradi. Hattoki ko‘chada dast-yorlik ham qilgan. Hech qanday bid‘at-xurofotni

tan olmaydi. Hech tap tortmay o'likning kafani-ni yechib olaveradi. U bilan burjua ahli o'rtasi-dagi farq shundaki, u o'zini aldamasdan turib, o'g'irlik qilaveradi. U Nitsshe, Shopengauer, Kant to'g'risida, duch kelgan narsa to'g'rida gapirishi mumkin, lekin aslida faqat monizmga qiziqadi. Hattoki, o'z Merisi haqida ham monizm haqida o'ylaganchalik o'ylamaydi. Gekkelni xudo deb bi-ladi. Uni haqorat qilishning birdan-bir yo'li Gek-kelga til tegizishdir. Mana, yetib ham keldik.

Brissenden tepaga chiqish oldidan nafasini rostlab olish uchun flyagalarni zina pillapoyasiga qo'ydi. Ikki qavatli bu oddiy uy muyulishda tu-rar, birinchi qavatida salun va baqqollik do'koni bor edi.

– Ulfatlar shu yerda istiqomat qilishadi, butun ikkinchi qavatni egallashgan, – dedi Brissenden, – lekin faqat Kreys ikki xonali kvartirada yashay-di. Ketdik!

Tepada chiroq yo'q edi, lekin Brissenden qorong'ida xuddi ajinadek dadil yurib borardi. U to'xtab, Martinga dedi:

– Bu yerda yana Stivens degan odam bor, teo-sof. Jag'i ochilib ketsa, har qanday odamni ham gapidan adashtirib yuboradi. Yaqinda restoranga idish-tovoq yuvuvchi bo'lib ishga kirdi. A'lo navli sigaralarni juda yaxshi ko'radi, oshxonaga kirib o'n sentlik ovqat eyishi, keyin ellik sentga sigara sotib olib chekishi mumkin. Men, har ehtimolga qarshi, uning uchun ikki dona sigara olib kel-dim. Yana Parri ismli avstraliyalik yigit ham bor, bu – statist va jonli sport qomusi. Siz undan, Paragvayda ming to'qqiz yuz uchinchi yilda g'alla

hosili qanaqa bo'lgan edi yoki ming sakkiz yuz to'qsoninchi yilda Xitoyga qancha ingliz matosi olib kirilgan yoxud Jimmi Brayt Battling Nelsonni enggan chog'da vazni qancha edi, yo bo'lmasa ming sakkiz yuz oltmish sakkizinchi yilda Qo'shma Shtatlarning o'rta vazndagi chempioni kim edi, deb savol bersangiz, u hamma savollarigizga xuddi avtomat singari tez va bexato javob qaytaradi. Yana Endi degan g'isht teruvchi ishchi ham bor, har narsaga o'z nuqtai nazaridan qaraydi, shaxmatni yaxshi o'ynaydi; keyin nonvoy Garri bor, u ashaddiy sotsialist va kasaba uyushmasi arbobi. Ha, aytganday, oshpazlar bilan ofitsiantlarning ish tashlagani esingizdami? Uni Gamilton uyushtirgan. U uyushma tashkil qilib, shu yerda, Kreysning xonasida o'tirib ish tashlash rejasini ishlab chiqqan. Buni u ermak uchun qilgan edi, keyin yalqovligidan uyushma ishlarida ishtirok etmadi. Agar xohlasa, allaqachon katta lavozimga erishishi mumkin edi. Bu odam behad imkoniyatlarga ega, ammo tasavvur qilib bo'lmas darajada yalqov.

Brissenden qorong'ida hamon yurib borardi, nihoyat, ular eshik ostidagi tirqishdan yorug' tushib turgan xona oldiga kelishdi. Eshikni taqirlatishdi, «kiring!» degan ovoz eshitildi. Kirishlari bilan Martin Kreysning qo'lini siqib ko'rishdi. Kreys – tishlari oppoq, sochi, mo'ylovi qop-qora, ko'zlari qora va ma'nodor, o'ktam yigit edi. Vazmin tabiat, sariq sochli juvon Meri ham oshxona, ham yemakxona vazifasini o'tovchi kichkina xonada idish-tovoq yuwardi. Birinchi xona yotoqxona va mehmonxona edi. Xona-

ning u boshidan bu boshiga tortilgan arqonlarga yuvilgan kiyimlar osilgan, shuning uchun ham Martin xonaga kirgan zahoti burchakda gaplashib o'tirgan ikki kishini payqamadi. Ular ikkovi Brissendenni va uning qo'lidagi flyagalarini shod-xurramlik bilan qarshi olishdi, Martin tanisharkan, ularning Endi bilan Parri ekanligini bildi. Martin Parrining kechagi boks haqidagi hikoyasini berilib tingladi. Brissenden esa shishalarning og'zini ochishga va punsh tayyorlashga kirishib ketdi. Uning: «Hamma bu yerga to'plansin», deb aytgan buyrug'iga binonan, Endi xonama-xona yurib hamma qo'shnilarini chaqirgani chiqib ketdi.

– Baxtimiz bor ekan, deyarli hamma shu yerda, – deb pichirladi Brissenden Martinga. – Mana, Norton bilan Gamilton. Yuring, sizni ular bilan tanishtirib qo'yay. Afsuski, Stivens hali kelmabdi. Men monizm haqida gap ochib ko'raman. Avval ozgina qizishib olishlariga imkon berish kerak.

Avvaliga suhbat qovushmadi, lekin Martin bu odamlar zakovatining o'ziga xosligi va jonliligini darhol payqab qoyil qoldi. Har bir kishining qarashi boshqacha edi, ba'zida mulohazalari bir-biriga zid chiqardi; lekin hazilkashliklari, askiyalariga qaramay, u odamlarni aslo sayoz fikrli kishilar deb bo'lmas edi. Martin shu narsani payqadiki, suhbat qay mavzuda bormasin, bu odamlar o'zlarining teran ma'lumotlari borligini namoyish qilardilar, ular dunyo va jamiyat haqida qat'iy va aniq fikrga ega edilar. Ular tayyor fikrlarni ishlatmas, chinakam ruhiy

isyonkor edilar, shuning uchun ham har qanday razolatdan nafratlanardilar. Martin Morzlar uyida hech qachon bu qadar rang-barang mavzuda gapirishlarini eshitmagan, talablari bu qadar rang-barangligini ko'rmagan edi. Go'yo bu yerda dunyodagi har bir narsa to'g'risida ham uzluksiz muhokama yurgizsa bo'lardi. Suhbat missis Xemfri Uordning oxirgi kitobidan Shouning yangi komediyasiga, dramaning kelajagi haqidagi mavzudan Mensfild xotirasiga o'tib turardi. Ular ertalabki gazetalarning bosh maqolalarini maqtashar yoki masxara qilishardi. Yangi Zelandiya ishchilarining ahvoli haqida, Genri Jeyms va Brender Metyuz haqida gapirishar, Germaniyaning uzoq Sharqdagi siyosati va Sariq falokatning iqtisodiy oqibati haqida mulohaza yuritishar, Germaniyadagi saylovlar va Bebelning so'nggi nutqi haqida bahslashishar, mahalliy siyosatni, sotsialistik partiya rahbarlari orasida yuz bergan oxirgi ixtiloflarni va port yuk tashuvchilarining ish tashlashiga sababchi bo'lgan narsalar to'g'risida fikr yuritishardi.

Martin ularning har bir sohada ham juda chuqur tushunchaga ega ekanliklarini ko'rib hayratda qoldi. Ular gazetalarda ham hech qachon bosilmagan narsalardan xabardor edilar, jamiki sirli ishlarni ipidan ignasigacha bilardilar. Bu suhbatlarga Meri ham aralashib Martinni hayron qoldirdi, aralashganda ham o'zining naqadar aqli va bilimdon ekanligini shunday namoyish qildiki, bunday aql-idrok va teran bilimni Martin o'ziga tanish bo'lgan bironta ham ayolda uchratmagan edi.

Ular Suinbern bilan Rosseti haqida suhbatlashib, so'ng fransuz adabiyotiga ko'chdi. Bu mavzuda Meri shunday narsalarni gapirdiki, Martin o'zini fransuz adabiyotidan hech narsa bilmasligini tushundi. Ammo Martin Merining Meterlinkni yaxshi ko'rishini sezib qolib, unga qarshi puxta o'ylangan dalillarni ro'kach qila boshladi; bu dalillar «Sharmanda bo'lgan quyosh»ga asos bo'lgan edi.

Yana bir necha odam keldi, nihoyat, Brissenden jangni boshlashga ahd qilganida xona tamaki tutunidan qorong'ilashib qoldi.

– Bu yerda ishlov berish kerak bo'lgan yangi material bor, Kreys, – dedi u, – butun yoshlik ehtirosi bilan Gerbert Spenserga shaydo bo'lgan g'o'r bir yigitcha. Qani, uni Gekkel muxlisiga aylantirib ko'ringlar-chi!

Kreys xuddi elektr toki yuborilgandek bir sapchib tushdi, Norton esa Martinga achinganday qarab qo'ydi-da, go'yo o'zim himoya qilaman, deb va'da berayotgandek jilmayib, uning ko'nglini ko'tarib qo'ydi.

Kreys shu zahotiyuq Martinga hujum boshladi, lekin Norton ham asta-sekin gap boshlab turdi, nihoyat, suhbat u bilan Kreys o'rtasidagi yakkama-yakka jangga aylandi. Martin bu munozarani tinglarkan, o'z quloqlariga ishonmasdi, shu narsalarning hammasi uning ko'z o'ngida, yana qayerda deng, Market-strit janubidagi ishchi mahallasida sodir bo'layotganiga hech aqli bovar qilmasdi. U o'qigan kitoblarning hammasi go'yo shu odamlar timsolida jonlangandek bo'ldi. Ular jahdu jadal bilan, ishtiyuq

bilan gapirishardi, boshqalarni g'azab yoki spirt ichimligi qanday hayajonlantirsa, aql o'yini bularni ham shunday hayajonga solardi. Bu Kant va Spenser singari afsonaviy avliyolarning kitobiy so'zlaridan tuzilgan quruq falsafa emas edi. Bu jonli falsafa edi, u bahslashuvchilarning qoniga va joniga singib ketgan, nutqlarida qaynab-toshar edi. Asta-sekin boshqalar ham bahsga aralashdi, papirosalarini tutatib, butun diqqat-e'tiborlari bilan munozaraning borishini kuzatishdi.

Idealizm Martinni hech qachon qiziqtirmagan edi. Endi u Martinga Nortonning bayonida yangi bir kashfiyotdek tuyuldi. Biroq Martinga rad qilib bo'lmaydigandek ko'ringan mantiq Kreys bilan Gamiltonni ishontira olmadi, ular Nortonni metafizik deb ustidan kulardilar, Norton esa, o'z navbatida, ularni metafizik deb atardi.

Havoda muttasil «fenomenlar» va «noumenlar» degan so'zlar yangrardi. Kreys bilan Gamilton Nortonni, sen ongni ongning o'zidan kelib chiqib izohlaysan, deb ayblardilar. Norton esa sizlar dalillar asosida emas, tushunchalar asosida xulosa chiqarasizlar, deb ularni suxanbozlikda ayblar edi. Bu ularning jig'ibiyronini chiqarardi. Ularning asosiy tamoyillari ishni dalillardan boshlamoq va dalillarga nom bermoq kerak, degan xulosadan iborat edi.

Norton Kantning murakkab muhokamalarini tahlil qilishga kirishib ketgan edi, Kreys, eskicha ta'lim olgan har bir hurmatli nemis faylasufi, o'lganidan keyin Oksfordga kelib istiqomat qilarkan, deb qo'ydi. Norton Gamiltonning shartlilik

qonunini tilga olgan edi, uning raqiblari shu zahotiyoq aynan o'zlari shu qonunga asoslanishlarini aytdilar. Martin tizzalarini quchoqlagan-cha, zavqlanganidan dir-dir titrab quloq solib o'tirardi. Norton haqiqiy spenserparast emas edi, shuning uchun ham u bahs qizigan paytlarda ko'proq Martinga murojaat qilar va boshqa raqiblari bilan qanday bahslashsa, u bilan ham shunday bahslashardi.

– Bilasizmi, Berklining savoliga hali hech kim mukammal javob bera olgani yo'q, – derdi u Martinga o'girilib. – Gerbert Spenser boshqalarga nisbatan ancha yaqinlashib keldi-yu, lekin u ham, ochig'ini aytganda, mufassal javob bera olmadi. Uning izdoshlaridan eng dovyuraklari ham bundan nariga o'ta olmaydilar. Men Salibining Spenser haqidagi maqolasini o'qidim. Hattoki u ham, Spenser Berkliga javob qaytarishga muyassar bo'ldi desa bo'ladi, deb yozibdi.

– Yumning aytganlari esingizdami?! – dedi Gamilton.

Norton bosh irg'adi, lekin Gamilton buni boshqalarga izohlab berishni ma'qul ko'rdi:

– Yum, Berklining dalillariga hech qanday javob berishning imkoni yo'q, ular tamomila qoniqarsiz dalillardir, deb aytgan edi.

– Yum uchun qoniqarsiz, – deb e'tiroz bildirdi Norton, – chunki Yum ham xuddi sizga o'xshab fikr yuritgan, orangizda faqat bitta farq bor: u ham bo'lsa, Berkliga javob berish mumkin emasligini e'tirof etishga uning aqli yetibdi.

Norton garchi munozara chog'ida o'zini yo'qotmasa ham, juda qiziqqon va jizzaki edi, Kreys

bilan Gamilton esa dushmanining zaif tomonlarini bafurja, shoshmay o'rganayotgan sovuqqon vahshiylarni eslatishardi. Hadeb metafizik deb ta'na qilishavergandan, kechaning oxirida jahli chiqib ketgan Norton bahsga astoydil berilib ketib, o'rnidan turib ketmaslik uchun ikki qo'li bilan kursini mahkam ushlab oldi va hovurini bosa olmay ko'zlaridan o't sochib, raqiblarga qarshi hujumga o'tdi.

– Ha, yaxshi, gekkelchilar, – deb qichqirdi u, – ehtimol, men jodugar yoki duoxon singari muhokama yuritayotgandirman, lekin o'zingiz qanday muhokama yurityapsiz? Shuni bilmoqchi edim. Garchi siz lozim bo'lgan-bo'lmagan yerda pozitiv fan haqida ayyuhannos solsangiz ham, aslida suyanadigan hech nimangiz yo'qku. Siz nodon aqidaparastsiz! Axir materialistik monizm maktabi vujudga kelishidan ancha oldin hammayoq shu qadar o'yib tashlangan ediki, hech qanday poydevor qo'yishning imkoni qolmagan edi. Bu ishni Lokk qildi! Jon Lokk! Bundan ikki yuz yil burun, hatto undan ham oldinroq Lokk o'zining «Inson aqli ustida tajriba»sida tug'ma g'oya tushunchasining bema'niligini isbot qilgan edi. Sizlar esa haligacha shu bilan shug'ullanib yuribsiz. Bugun shu yerga to'planganimizdan beri, hech qanday tug'ma g'oya yo'q, deb meni ishontirmoqchi bo'lyapsiz. Bu nima demak? Bu – inson oliy haqiqatning tagiga yeta olmaydi, demak. Tug'ilgan chog'ingizda miyangizda hech vaqo bo'lmaydi. Undan keyingi olgan hamma bilimlaringiz faqat fenomenlarga va besh xil sezgi a'zolari yordamida olgan taas-

surolaringizga asoslanadi. Tugʻilgan chogʻin-gizda miyangizda mavjud boʻlmagan noumenlar esa undan keyin ham hech yoʻl bilan miyangiz-ga kira olmaydi.

– Toʻgʻri emas... – deb uning soʻzini boʻldi Kreys.

– Oldin men gapimni aytib boʻlay! – deb yubor-di Norton. – Sizning aqlingiz hissiyotingizga u yo bu tarzda taʼsir koʻrsatuvchi kuch va materiya-ning oʻzaro taʼsirinigina oʻzlashtira oladi. Koʻryap-sizmi, bahsimizga qulaylik tugʻdirish niyatida, men hatto materiyaning mavjud deb eʼtirof etish-ga ham tayyorman! Lekin hozir men sizlarni oʻz dalillaringiz bilan yanchib tashlayman. Boshqa yoʻl yoʻq, afsuski, ikkovingiz ham abstrakt tafak-kurga qobil emassizlar. Qani yuksak pozitiv fan taʼlimotiga asoslanib ayting-chi, materiya haqida nimalarni bilasiz? Siz faqat idrok qilayotganingiz narsalarni bilasiz, yaʼni, yana oʻsha fenomenlar-ni bilasiz. Siz faqat materiyadagi oʻzgarishlar-ni, aniqrogʻi, faqat oʻzingiz oʻzgarish deb fahm-lagan narsanigina tushuna olasiz. Pozitiv fan yolgʻiz fenomenlarga asoslanadi, siz tentaklar boʻlsangiz, oʻzingizni noumenlarga asoslangan ontologlar deb hisoblaysiz. Ha, pozitiv fan faqat tashqi hodisalarga asoslanib ish koʻradi. Bir vaqtlar kimdir, hodisalar haqidagi fan hodisalar-ning oʻzidan yuksala olmaydi, deb aytgan edi. Siz hatto Kantni rad eta olganingizda ham, Berkliga javob bera olmaysiz; biroq siz Berkli nohaq deb aytasiz, chunki sizning nazariyangiz xudoning borligini inkor etadi-yu, lekin materiyaning mav-judligiga shubha qilmaydi. Men hozir fikrlarim-ni tushunsinlar deb materiyaning mavjudligini

e'tirof etdim. Mayli, pozitivist bo'ling, lekin pozitiv fanlar orasida ontologiyaga o'rin yo'q. Demak, uni o'z holiga qo'yishingiz kerak. Spenser agios-tik sifatida haq, lekin agar Spenser...

Biroq oxirgi Oklend paromining jo'nashiga oz vaqt qolgan edi, shuning uchun Brissenden bilan Martin ketishga majbur bo'ldilar. Norton gapida davom etayotgan, Kreys bilan Gamilton esa xuddi quturgan tozi itlardek unga tashlanish uchun qulay fursat kutib turgan bir paytda Brissenden bilan Martin hech kimga sezdirmay xonadan chiqib ketishdi.

– Siz menga mo'jizakor bir o'lkani topib berdingiz, – dedi Martin Brissendenga, ikkovlari paromga chiqib olishganidan keyin. – Bunday odamlar bilan suhbat qurgandan keyin yashash kerak ekanligini his qila boshlaysan! Boshim aylanib ketdi! Men shu paytgacha idealizmning nimaligini tuzukroq tushunmasdim. Hali ham uni hazm qila olmayman. Men umrbod realist bo'lib qolishimni bilaman, shunday yaratilgan bo'lsam kerak-da. Lekin Kreys va Gamilton bilan jon-jon deb bahslashardim, Nortonga aytadigan ikki-uch og'iz gap topardim. Spenserga jiddiy e'tiroz bildirilganini ko'rmadim. Men birinchi marta sirkka borib kelgan boladay hayajondaman. Hali yana juda ko'p mutolaa qilishim kerakligini payqayapman. Salibining kitobini topish kerak! Spenserning yengilmasligiga imonim komil. Kelasi safar men ham mubohasaga aralashaman...

Lekin Brissenden bu payt, oriq iyagini issiq sharfi bilan o'ragancha og'ir-og'ir nafas olib, mudrab o'tirardi, uning ozg'in gavdasi parrak har aylanganda silkinib-silkinib qo'yardi.

O‘TTIZ YETTINCHI BOB

Martin ertasiga ertalab Brissendenning maslahatiga quloq solmay, «Sharmanda bo‘lgan qu-yosh»ni «Akropol» jurnaliga yubordi. U jurnallardan birontasi, maqolamni albatta bosadi degan umidda edi, jurnalda muvaffaqiyat qozonganidan keyin kitob nashriyotiga yo‘l ochish osonlashardi. U «Efemerida»ni ham mashinkada ko‘chirib, jurnal tahririyatiga yubordi. Brissendenning muharrirlar va jurnallardan nihoyat darajada qattiq nafratlanishiga qaramay, Martin doston bosilishi kerak degan qat‘iy qarorga keldi. U dostonni muallifning ijozatisiz bostirishni o‘ylamagan edi, albatta. U dostonni bironta yirik jurnal qabul qilishini istardi, ana undan keyin Brissendenning roziligini olsa bo‘ladi, deb o‘ylardi Martin.

Martin shu kuni ertalabdan boshlab, bundan uch haftacha burun o‘ylab qo‘ygan va o‘shandan beri qog‘ozga ko‘chirilishini kutib yotgan qissasini yozishga kirishdi. Bu dengiz hayotini real xarakterlar va real voqealar asosida tasvirllovchi yigirmanchi asr romantikasining namunasi bo‘lgan qiziq syujetli qissa bo‘lishi kerak edi. Lekin asardagi qiziqarli voqealar zamirida shunday bir narsa yashirinishi kerak ediki, uni sayoz fahmli kitobxon payqay olmasa-da, qissani o‘qiganda huzur qilishi kerak edi. Martin uchun bu qiziqarli voqealar emas, aynan ana o‘sha «bir narsa» qissaning eng muhim jihati hisoblanardi. Uni hamisha asarning g‘oyasi o‘ziga jalb qilardi, syujet esa shu g‘oyaga bog‘liq edi. U o‘zi uchun g‘oyani aniqlab olib, uni nihoyatda ravshan

ifodalay oladigan voqealarni axtarardi. Qissaning nomi «Kechikkan» deb atalishi va hajmi oltmish ming soʻzdan oshmasligi kerak edi. Martinning ishga qobiliyati va ijodiy gʻayrati eʼtiborga olinsa, bu albatta arziyasini bir ish edi. U qissani yozishga kirishgan birinchi kuniyoq oʻz sanʼatkorlik mahoratidan judayam lazzatlandi. Endi, adabiy shakl topishdagi noʻnoqligim fikrlarimni zaiflashtirib qoʻyadi, deb qoʻrqmasdi. Martin koʻp oylar mobaynida qunt bilan, tirishib, zahmat chekib, nihoyat, oʻzi orzu qilgan samaraga erishdi. Endi u oʻz maqsadi sari dadil va ogʻishmay borishi mumkin, ishga butun vujudi bilan berilib, hayotni hozir har qachongidan ham toʻgʻri tushunayotganini va uni toʻgʻri tasvirlay olishini his qilardi. Martin «Kechikkan» qissasida yuz bergan voqeyiy hodisani tasvirlamoqchi va haqqoniy fikr yurituvchi, haqqoniy tuygʻuli kishilarni koʻrsatmoqchi boʻldi. Ammo bundan tashqari, qissada ulkan sirli maʼno, barcha mamlakatlar, barcha zamonlar va barcha xalqlar uchun bir xilda adolatli boʻlgan gʻoya boʻlishi kerak edi. «Shularning hammasiga Gerbert Spenser tufayli erishdim, – deb oʻyladi Martin kursi suyanchigʻiga oʻzini tashlab. – Ha, Gerbert Spenser tufayli, shu bilan birga, u qoʻlimga tutqazgan, koinot sirlarini ochuvchi va takomil qonuni deb ataluvchi kalit tufayli erishdim!»

Martin hozir yaratayotgan asarining muhimligiga juda yaxshi tushunardi. Ish yurishib ketadi! Yurishib ketdi. Nihoyat, u har qanday jurnal ikki qoʻli bilan yopishib oladigan narsa yozadi. Butun qissa uning koʻzi oldida butun-

ligicha o'tli harflar bilan yonib turardi. Martin ishdan to'xtab, xotira daftariga qissaning xotima qismini qayd qilib qo'ydi. Asarning butun kompozitsiyasi unga shu qadar ravshan ediki, hatto uning xotima qismini ham oldindan bemalol yoza olishi mumkin edi. U o'zining hali tugallanmagan qissasini boshqa yozuvchilarning dengiz haqidagi hikoyalari bilan muqoyasa qilib ko'rdi va o'z asarining beqiyos darajada yuksak ekanligiga ishonch hosil qildi.

– Faqat bir odam bunga teng keladigan asar yoza olishi mumkin, – deb g'oldiradi Martin. – U ham bo'lsa Konrad. Lekin Konrad ham bu qissa uchun Martinning qo'lini siqishi va: «Yaxshi yozilibdi, do'stim Martin!» deyishi mumkin edi.

Martin deyarli kun bo'yi ishlab, birdan Morzlarnikiga ovqatga taklif etilganini eslab qoldi. U garovga qo'yilgan qora kostyumini Brissenden tufayli qaytib sotib olgan, endi uning odamlarga el bo'lishi uchun yana imkon tug'ilgan edi. Yo'l-yo'lakay kutubxonaga kirib, Salibining «Hayot turkumi» degan kitobini oldi. U tramvayda keta turiboq, Norton tilga olgan maqolani o'qib chiqmoqchi bo'ldi. O'qirkan, g'azabi qaynab ketdi. Yuzlari lov-lov yonar, ko'zlaridan o't chaqnar, go'yo birovga tahdid qilayotganday mushtlarini qisardi. U tramvaydan tushib, qahru g'azabi toshgan odamday ko'chadan shiddat bilan yurib ketdi va Morzlarning eshigidagi qo'ng'iroq tugmasini shunday jahl bilan bosdiki, shu zahoti hushini yig'ib oldi-da, ko'ngli ochilib, xoxolab yubordi. Lekin uyga kirdi-yu, yana bir zumda yuragi siqilib ketdi. Bamisoli uning qanotlari

birdan qayrilib, ilhom cho'qqisidan yerga qulab tushganday bo'ldi.

Brissendenning «Burjua! Chayqovchilar!» degan sevimli iboralarini esladi. «Xo'sh, nima bo'пти? – jahl bilan o'ziga o'zi e'tiroz bildirdi u. – Axir men Rufning oilasiga emas, uning o'ziga uylanaman-kul!»

Martinning nazarida Ruf bu qadar go'zal, bu qadar jo'shqin va ayni vaqtda bunchalik sog'lom va tarovatli bo'lib ko'rinmagan edi. Qizning yonoqlariga xiyolgina qizil yugurdi, Martin uning ko'zlaridan – u ilk bor mangulik uchqunlarini ko'rgan moviy ko'zlaridan – hech nigohini uza olmadi. Rost, u keyingi paytda ilmiy asarlarni o'qishga berilib ketib, mangulikni unutilib qo'ygani edi, lekin endi u Rufning ko'zlarida til bilan aytilmagan bir dalil borligini ko'rdiki, u har qanday dalillardan ham ishonchliroq edi. Martin bu ko'zlarda muhabbat tuyg'usini o'qidi. Shu muhabbat o'zining ham ko'zlarida chaqnab turardi, bu muhabbatning esa shubhaga ehtiyoji yo'q edi. Martin bunga jon-jahdi bilan ishonardi.

Ovqat oldidan Ruf bilan o'tkazgan yarim soat ichida u o'zini yana baxtiyor va mamnun his qiladi. Lekin ovqat vaqtida Martin nihoyatda charchaganini sezdi, bu kun bo'yi o'tirib qattiq ishlashning natijasi edi. Ko'zlari charchagan, og'riridi, arzimagan narsa uning asabiga tegardi. Martin shu stol yonida zerikib, o'ynab-kulib o'tirgan paytlar ko'p bo'lgan edi, vaholanki, bu yerga birinchi marta kelganida o'zini madaniy kishilar orasiga, yuksak va nafis madaniy muhitga tushib qolgandek his qilgan edi; hozir u shular-

ni esladi. Chamasi, o'shanda ermak bo'lgan va kishilarda mehribonlik uyg'otgan edi. Qo'rquv va xijolatdan qora terga botgan, ovqatlanish qoidalarining murakkabligidan dovdirab qolgan, tepasida qaqqayib turgan novcha malaydan siqilgan odamovi Martin, endi biliminni ham, o'zimda yo'q nazokat qoidalarini ham pesh qilishga urinmayman, qanday bo'lsam, o'zimni shunday tutaman, degan qat'iy qarorga kelguncha, tasodifan kirib qolgan bu muhitda ne-ne azoblar chekkan edi.

Martin Rufga yalt etib qarab qo'ydi: kema yo'lovchisi xavf yuz berishi haqida o'ylaganda, najot chamberagi joyidamikin deb xuddi shu tarzda, qarab qo'yadi. Ha! Faqat shu narsalar: muhabbat va Ruf zamon sinovlariga bardosh berdilar. Qolgan hamma narsa, Martin kitob mutolaasiga berilishi bilan sarobdek g'oyib bo'ldi. Lekin Ruf ham, muhabbat ham sarob emas edi. Martin ularni biologik dalillar bilan oqlar edi. Muhabbat hayotning eng yuksak zuhuri edi. Tabiat uni sevishga da'vat etar va har bir sog'lom odam kabi uni ham shunga hozirlardi. Tabiat inson jinsini takomillashtirish uchun o'n ming, yuz ming - yo'q, million asrlar mobaynida shu maqsadda urinib keldi va nihoyat Martin, shubhasiz, shu ijodining toji bo'ldi. Tabiat Martinning qalbiga muhabbat tuyg'usini soldi, uning kuchini son-sanoqsiz marta kuchaytirib, Martinga xayol surish qobiliyatini baxsh etdi va hayajon, ijod, riyozat va quvonch nimaligini bilsin uchun uni dunyoga yubordi, Martin stol ostida Rufning qo'lini qattiq siqdi. Qiz ham unga javoban xud-

di shunday uning qo'lini qattiq siqib qo'ydi. Shu zahoti ular bir-birlariga qarab qo'yishdi, qizning ko'zlari muhabbat va mehr bilan chaq nab ketdi. Martinning ko'zlari ham chaq nab turardi, ammo Rufning ko'zidagi uchqunlarning aslida o'z nigo-hida yonib turgan o'tning aksi ekanligini Martin xayoliga ham keltirmas edi.

Mister Morzning o'ng tomonida, Martin bilan qarama-qarshi shtat oliy sudining a'zosi sudya Blount o'tirardi. Martin u bilan ilgari ham bir necha marta uchrashgan edi, lekin ochig'ini ayt-ganda, uni uncha xush ko'rmasdi. Sudya Ruf-ning otasi bilan kasaba uyushmalari, siyosiy ahvol va sotsializm haqida suhbatlashib o'tirar-di. Mister Morz Martinni suhbatga jalb qilishga urinib, uni sotsialistik ta'limot tarafdori deb ata-di. Sudya Blount unga otalarcha achinib qaradi. Martin esa miyig'ida kulib qo'ydi.

– O'tib ketadi, yaxshi yigit, – dedi sudya meh-ribonlik bilan, – bolalik kasalining eng yaxshi tabibi – vaqt! (Sudya shunday deb, mister Morzga o'girildi.) Bunday paytlarda men hech bahslash-mayman: bahslashish kasalni qaysar qilib qo'ya-di, xolos.

– Juda to'g'ri fikr, – g'urur bilan javob qil-di mister Morz, – lekin ba'zi-ba'zida dardning oqibatidan kasalni ogohlantirib qo'yilsa yomon bo'lmaydi.

Martin bir oz o'zini zo'rlab kulib yubordi. Kun shu qadar uzun, ish shu qadar og'ir bo'lgan edi-ki, u o'zining charchaganligini seza boshladi.

– Shak-shubha yo'qki, ajoyib shifokorlarsiz, – dedi u, – lekin agar sizni kasalning fikri ozgi-

na bo'lsa ham qiziqtirsa, bemorning, kasalimni aniqlashda yanglishdingiz, deyishiga ijozat bering. Aslida esa, menga yuklayotganingiz kasal bilan o'z'laringiz og'rigansiz. Axir menga u kasal aslo yuqmaydi-ku. Sizni bu qadar hayajonga solgan sotsialistik falsafaning yonidan ham o'tgan emasman.

– Durust, durust, – deb g'o'ldiradi sudya, – aybni ayblovchiga ag'darish – munozarada juda ajoyib usul.

– Men sizning so'zingizga asoslanib gapir-yapman! – dedi Martin. Uning ko'zlari chaqnab ketrsa ham, lekin o'zini bosib turardi. – Gap shundaki, janob sudya, men sizning saylov oldi nutqlaringizni eshitganman. Siz fikrlashda og'ir karvonlik qilib, garchi bu gap sizga unchalik tushunarli bo'lmasa ham, baribir, bu mening sevimli iboram, men ham raqobat, ham kuchli raqibni siqib chiqarish tamoyillari tarafdoriman deb o'zingizni ishontirdingiz, lekin ayni vaqtda, kuchli raqibning kuchini qirqish uchun barcha choralarni ko'ryapsiz.

– Yaxshi yigit!..

– Nutqlaringizni eshitganimni unutmang! – deb uning so'zini bo'ldi Martin. – Sizning shtatlar orasidagi savdoning tartibini belgilash, «Standart Oyl» kompaniyasi bilan temir yo'l tresti faoliyatini tartibga solish, o'rmonlarni, hokazo va hokazolarni rejali ravishda ekspluatatsiya qilish bobida tutgan mavqeingiz ularni cheklab qo'yish tadbirlarini talab qilishga, ya'ni, asl mohiyatini olganda, sotsialistlar mavqeiga juda mos tushadi.

– Xo‘sh, ayting-chi, jon-jahdi bilan hokimiyat tepasiga chiqishga intiluvchilarning yo‘lini to‘rish kerak emasmi, sizningcha?

– Gap unda emas. Sizning faqat tashxis qo‘yishda yanglishganingizni, men sotsializm bakteriyasini o‘zinga sira yuqtirmaganligimni isbotlamoqchiman. Aksincha, mazkur zararkunanda bakteriyani aynan siz o‘zingizga yuqtirgansiz, – men ana shu narsani isbotlamoqchiman. Endi men sotsializmning ashaddiy dushmaniman, ochig‘ini aytganda, men puch gap, safsatalar panasiga yashirinuvchi soxta sotsializmning, ya‘ni, sizning nokas demokratiyangizning ham dushmaniman. Men reaktionerman, shu qadar e‘tiqodli reaktionerman-ki, soxta ijtimoiy munosabatlar qalpoqi ostida yashayotgan – sizlar, mening dunyoqarashlarimni hech qachon anglay olmaysizlar, negaki shu qalpoqcha orqali birona narsani ko‘rishga ko‘zingiz nihoyatda ojizlik qiladi. Siz o‘zingizni kuchlilarning g‘alaba qozonishiga ishonayotgandek qilib ko‘rsatasiz, men esa bunga chindan ham ishonaman. Farq mana shunda. Yoshroq vaqtimda – atigi bundan bir necha oy muqaddam, men ham siz singari o‘ylardim. Bilasizmi, sizning g‘oyalaringiz, kezi kelganda ma‘lum darajada menga ta‘sirini ko‘rsatgan edi. Lekin chayqovchilar va baqqollar – qo‘rqoq ma‘murlardir; ularning maqsadlari boylik orttirishdan nariga o‘tmaydi, shuning uchun ham, gapning ochig‘ini aytadigan bo‘lsam, oqsuyaklar menga ko‘proq ma‘qul tushib qoldi. Bu xonada yagona shaxsiyatparast menman. Men davlatdan hech

nima da'vo qilmayman. Faqat kuchli shaxs, ot ustida javlon urgan otlıq davlatni muqarrar inqirozdan saqlab qolishi mumkin. Nitsshe haq edi. Men vaqtni o'tkazib, Nitsshening kimligini sizlarga tushuntirib o'tirmayman, lekin u haq edi! Dunyo kuchlilarnikidir, negaki ular qanchalik qudratli bo'lsalar, shunchalik oliyjanob hamdirlar, ular chayqovchilik botqog'ida tipirchilab yotmaydilar. Dunyo asilzoda kiborlarniki, sariq soch shayton odamlarniki, murosasozlik qilmay, hamma vaqt hayotga «labbay» deb javob qiluvchilarnikidir. Ana shular sizlarni, ya'ni sotsializmdan qo'rquvchi va o'zini shaxsiyatparast deb ko'rsatuvchi sotsialistlarni yamlamay yutib yuboradilar. Qullarga xos o'rtamiyonalik siyosatingiz sizni qutqara olmaydi! Ha, albatta, bularning hammasi sizga chigal jumboqday narsa, shuning uchun ortiq jig'ingizga tegmoqchi emasman. Lekin bir narsani unutmang! Butun Oklendni qidirib, chinakam shaxsiyatparastlardan besh-oltitasini ham topa olmaysiz, lekin o'shalardan biri kamina qulingiz Martin Idendir.

Martin, munozara tamom bo'ldi, degandek Rufga o'girilib oldi.

– Bugun juda charchadim, – dedi u, – men suhbatga emas, muhabbatga mushtoqman.

– Meni ishontira olmadingiz. Hamma sotsialistlar ikkiyuzlamachi bo'ladi. Ularning boshqalardan ajratib turuvchi belgisi ham ana shu, – dedi mister Morz.

Lekin Martin bu gapni javobsiz qoldirdi.

– Hechqisi yo'q! Hali sizni tuppa-tuzuk respublikachi qilib qo'yamiz, – dedi sudya Blount.

– Bu hol yuz berishdan avval otliq yetib keldi, – ehtirom bilan e’tiroz bildirdi Martin va yana Rufga o’girildi.

Lekin mister Morz Martindan norozi edi. Bo’lajak kuyovning ishyoqmasligi va ish faoliyatining normal, bama’ni turlaridan nafratlanishi unga yoqmasdi; kuyovining mulohazalari unga yot, fe’l-atvorini esa tushunmasdi. Shu payt mister Morz suhbat mavzuini Gerbert Spenser ta’limotiga burib yubormoqchi bo’ldi. Mister Blount uning gapini quvvatladi. Faylasufning ismini eshitishi bilan qulog’i ding bo’lgan Martin takabburlik bilan Spenserning g’oyalarini tanqid qilayotgan sudyaning ovozini eshitib qoldi. Mister Morz go’yo: «Eshityapsizmi, bo’tam?» demoqchiday o’qtin-o’qtin Martinga qarab qo’yardi.

– Mahmadona hakka, – deb to’ng’illab qo’ydi Martin, so’ng yana Ruf va Artur bilan gaplashib o’tiraverdi.

Lekin kun bo’yi ishlab charchaganligi va kechagi «asl odamlar» bilan bo’lgan mubohasalar o’z ta’sirini ko’rsatdi; boya tramvayda o’qigan maqola uning g’azabini qo’zitgan, u hali ham jahldan tushmagan edi.

– Nima bo’ldi? – Martinning zo’r-bazo’r o’zini bosib o’tirganini payqagan Ruf hayajon bilan so’radi.

– Tanib bo’lmaydigan xudodan boshqa xudo yo’q, Gerbert Spenser esa uning yerdagi vakili, – deb yubordi sudya.

Martin yalt etib unga o’girildi.

– Bozori o’tmay qolgan safsata, – dedi u xotirjamlik bilan. – Buni men birinchi marta Siti-Xoll-

parkda bir ishchining og'zidan eshitgan edim, u ishchi salgina aqlliroq bo'lsa chakki bo'lmasdi. O'shandan beri bu jumlani tez-tez eshitib turaman-u, har safar uning qabihligidan nafratlanaman. Uyalmandingizmi? Sizning og'zingizdan chiqayotgan so'zlar orasida u buyuk va oliynob kishining ismi misoli ko'lmak suvga tomgan bir tomchi shabnamga o'xshaydi. Men sizdan nafratlanaman!

Martinning so'zlari xonada o'tirganlarni xuddi momaqaldiroq guldurosidek hang-mang qilib qo'ydi. Sudya Blount cho'g'dek qizarib ketdi, oraga mash'um bir sukunat cho'kdi. Mister Morz ichidan sevinar, qizining qattiq xijolat chekkani ni ko'rib turardi. U o'z niyatiga yetdi: u jini sevmaydigan odamning tabiiy qo'polligini yuzaga chiqarishga sababchi bo'ldi.

Ruf yolveruvchi bir tarzda stol ostida Martinning qo'lini qisdi, lekin endi Martinning qoni qaynab ketgan edi. Yuksak lavozimdagi kishilarning dimog'dorligi va kaltafahmliigi uning jig'ibiyroni ni chiqargandi. Oliy sud a'zosi! Tavba, bor-yo'g'i bundan ikki-uch yil muqaddam Martin bunday odamlarni xudo yarlaqagan odamlar deb, ularga sajda qilishga ham tayyor edi.

Sudya Blount o'ziga kelib, Martinga hatto zo'rma-zo'raki nazokat bilan qarab qo'ydi va suhbatni davom ettirishga urinib ko'rdi, lekin faqat bu yerdagi xonimlar tufayli shunday qilayotganini Martin tushundi. Bu uni yana beshbattar g'azablantirdi. Nahotki yer yuzida nomus degan narsa qolmagan bo'lsa?

– Siz bahslashadigan odam men emasman! – deb qichqirdi u. – Spenserning vatandoshlari uning to‘g‘risida qanchalik oz bilishsa, siz ham shuncha oz bilasiz. Bilaman, bunga siz aybdor emassiz! Bunga zamonamizdagi umumiy jaholat aybdor. Men hali tramvayda kelayotganimda shunday jaholat namunasi bilan tanishishga muyassar bo‘ldim! Kela turib Salibining Gerbert Spenser haqidagi maqolasini o‘qidim. Siz ham uni o‘qib chiqsangiz bo‘lardi. Uni hamma ham o‘qisa bo‘ladi. Siz uni xohlagan do‘koningizdan va xohlagan kutubxonangizdan topishingiz mumkin. Salibining bu buyuk inson haqida yozganini o‘qib chiqsangiz, aminmanki, hatto siz ham o‘zingizni o‘ng‘aysiz his qilgan bo‘lardingiz. O‘taketgan bu nodonlik oldida sizning nodonligingiz ip esha olmay qoladi. Spenser bilan hamnafas bo‘lishga ham loyiq bo‘lmagan akademiya faylasufi uni «avom xalq faylasufi» deb atabdi. Imonim komilki, siz Spenserning asarlaridan o‘n betgina ham o‘qimagansiz, lekin sizdan ko‘ra donoroq tanqidchilar ham bo‘lgan; ular sizdan ko‘p o‘qimagani bo‘lsalar ham, Spenserning izdoshlariga uning g‘oyalarini soxta deb aytib, hayosizlik bilan shovshuv ko‘targanlar. Tushunyapsizmi? Buyuk dahosi ilm-fanning turli sohalarini qamrab olgan insonning g‘oyalarini soxta deb jar solganlar; u psixologiyani otasi edi; u pedagogika sohasida yirik burilish yasadi, Fransiyaning allaqaysi bir go‘shasidagi qishloq bolalari ham endi Spenser tavsiya qilgan usul yordami bilan o‘qish, yozish va hisoblashni o‘rganmoqdalar. Spenserning xotirasini tahqirlovchi ayanchli odamlar, ayni

vaqtda, uning g'oyalarini amalda tatbiq etib, non yeb yuribdilar. Agar ularning boshlarida ozmi-ko'pmi aql bo'lsa, shunga ular yolg'iz Spenser tufayli erishganlar-ku! Agar Spenser bo'lmaganda, ularning miyalarida to'tiqush singari yodlab olgan zig'irdakkina bilimlari ham bo'lmasdi-ku. Sudya Blount, sizga nisbatan yuqoriroq lavozimda bo'lgan Oksford rektori Ferbenksga o'xshagan bironta janob, kelgusi avlod Spenserni mutafakkir deyishdan ko'ra shoir va xayolparast deb aytadi, deyishga jur'at etyapti. Kim o'zi ular? – Akillagan laychalar! Bittasi «Asosiy manshalar» adabiy nafosatdan mahrum emas, deb aytibdi. Boshqalar esa u aql zahmatkashi, ammo original mutafakkir emas, deb qichqirishadi. Akillovchi laychalar! Akillovchi laychalar galasi!

Martin chuqur sukunatga cho'kkancha jim bo'lib qoldi. Rufning oilasidagilar sudya Blountni hurmatli, xizmati ulug' odam deb izzat qilishardi, shuning uchun ham Martinning qilig'i hammani dahshatga solib qo'ydi. Ziyofat oxiri xuddi motam marosimidagidek shumshuk o'tdi. Sudya bilan mister Morz o'zaro shivirlab gaplashib o'tirishdi; boshqalarning suhbatlari esa hech qovushmasdi.

Ovqatdan keyin, Martin bilan Ruf yolg'iz qolishganda qattiq mojaro bo'ldi.

– Siz juda yomon odamsiz, – dedi Ruf duv-duv ko'z yosh to'kib.

Lekin Martin hali g'azabdan tushmagan edi, shunga ko'ra, dahshat solib to'ng'illadi:

– Hayvonlar! Voy, hayvonlar-ye!

Ruf Martinga, sudyani haqorat qildingiz, degan edi, u e'tiroz bildirdi:

– Uni nima deb haqorat qilibman? Rost gapni aytibmi?

– Rost gapmi, yo‘qmi, menga baribir, – deb gapida davom etdi Ruf, – odobning ham ma‘lum chegarasi bor, odamlarni haqorat qilishga sizga hech kim huquq bergan emas!

– Haqiqatni tahqirlashga kim huquq bergan sudya Blountga? – dedi Martin. – Allaqanday bir odamsifat maxluqni tahqirlashdan haqiqatni tahqirlash ming karra yomon. Lekin u bundan ham beshbattar ish qildi! U allaqachon o‘lib ketgan eng buyuk va eng oliyjanob mutafakkirning nomini qoraladi. Voy, hayvonlar-ye! Voy, hayvondan tarqaganlar-e!

Ruf Martinning qahridan qo‘rqib ketdi. Qiz uni bunday g‘azabga minganini birinchi marta ko‘rib turishi edi, Ruf o‘z nuqtai nazaridan bemulohaza bo‘lib ko‘ringan bunday g‘azabning boisini tushuna olmas edi. Ayni shu damda, Martin Rufni bir vaqtlardagidek shunday kuch bilan o‘ziga jazb qildiki, qiz o‘zini tutib turolmay, hech kutilmagan bir paytda uning bo‘ynidan mahkam quchoqlab oldi. Qiz sodir bo‘lgan voqealardan tahqirlangan va achchiqlangan edi, ammo shunga qaramay boshi Martinning ko‘kragida yotar, unga suqilarkan, yigitning g‘o‘ldirashini eshitardi:

– Hayvonlar, voy, hayvonlar-ye!

Martin hatto quyidagi gaplarni aytganida ham, Ruf boshini ko‘tarmadi:

– Men endi hech qachon ziyofatlaringizni buzmayman, azizam. Do‘stlaringiz meni sevmaydi, men ham ularga suykalmayman. Meni ular qanchalik yomon ko‘rishsa, men ham ularni shun-

day yomon ko'raman. Tuf! Ulardan jirkanaman! Buni qarangi, bir vaqtlar men katta lavozimdagi odamlarga, dang'illama uylarda yashovchi dorilfunun diplomini olgan, bankka pul qo'yan odamlarga o'zimni past olib, havas bilan qarardim! Shu qadar go'l ekanmanki, ularni chinakam hurmatga sazovor odamlar deb tasavvur qilardim.

O'TTIZ SAKKIZINCHI BOB

– Yuring, sotsialistlar klubiga boramiz, – dedi Brissenden. U bundan yarim soat oldin, keyingi uch kun ichida ikkinchi marta qon qusganidan keyin endi o'ziga kelgan edi. Uning titroq qo'llarida har vaqtdagidek bir stakan viski bor edi.

– Nima qilaman u yerda? – deb so'radi Martin.

– Begonalar uchun besh daqiqa so'zlashga ruxsat beriladi, – dedi bemor, – siz ham gapirishingiz mumkin. Nima uchun sotsializmga qarshiligingizni ularga aytib berasiz. Ular haqida, ularning xarobazorlarda yashovchilarga xos axloqi haqida qanday fikrda ekanligingizni ayting. Nitsshe falsafasini yuzlariga soling, tashvishga tushsinlar. Bunday munozaralar ularga foyda, sizga ham ziyon qilmaydi! O'lmasimdan oldin sotsialist bo'lib olishingizni juda ham istardim. Bu hayotingizga ma'no bag'ishlaydi, umidsizlikka tushganingizda sizga madad beradi; umidsizlikka tushishingiz esa muqarrar.

– Sizning, kelib-kelib, sizdek odamning sotsialist bo'lganingizga hayronman, – dedi Martin, – axir olomonni ko'rishga ko'zingiz yo'q-ku.

Chindan ham, sizdek nafosat shaydosi bo'lgan odamning olomon manfaati va orzulari bilan nima ishi bor? – Martin ta'na qilib viskiga ishora qildi, – sizni, aftidan, sotsializm qutqara olmasa kerak.

– Men og'ir kasalman, – deb javob berdi Brisenden. – Sizning yo'lingiz boshqa. Siz soppa-sog'siz, siz hayotda hali ko'p narsalarni ko'rasiz, shunga ko'ra hayotda o'zingizning biron maqsadingiz bo'lishi kerak. Mening nima uchun sotsialist bo'lganimdan ajablanyapsizmi? Ha, mayli, aytib bera qolay. Nega desangiz, sotsializm muqarrar; nega desangiz, hozirgi tuzum chirib qolgan, endi ko'pga bormaydi; nega desangiz, siz kutgan otliqlar zamoni o'tib ketgan. Qullar otliqqa ergashmaydi. Qullar shu qadar ko'pki, otliq uzangiga oyoq qo'yishi bilan, uni yerga tortib tushiradilar. Bundan qochib qutulib bo'lmaydi, siz ularning falsafasini hazm qilishga majbursiz. To'g'ri, unchalik shirali emas u. Lekin boshqa iloj yo'q. Siz o'sha Nitssheingiz g'oyalari bilan odamovi bo'lib qolgansiz, Martin. O'tgan narsa o'tib ketdi, tarix takrorlanadi degan odam yolg'on gapiradi. To'g'ri aytdingiz, men olomonni yoqtirmayman, lekin ilojim qancha? Otliqni kutgandan foyda yo'q, men hamma narsani afzal ko'rishga ham tayyorman, faqat qo'rqqoq burjua to'ng'izlari hukmronlik qilmasa bo'lgani. Yuring. Bu yerda yana birpas o'tirsam, g'irt mast bo'lib qolaman! Doktorning nima deganini bilasizmi? E, qo'ying doktorni! Men uni shunaqayam laqillatib aldagim keladiki...

Yakshanba oqshomi, Oklenddagi sotsialistlar klubining chog'roqqina zali asosan ishchilar bi-

lan liq toʻlgan edi. Notiq, bama'ni yahudiy, gar-chi o'z nutqi bilan Martinda e'tiroz hissi uyg'otgan bo'lsa ham, Martinga yoqib qoldi. Notiqning torgina yelkalari va botib ketgan ko'kragi, uning haqiqiy yahudiy mahallasi farzandi ekanligidan dalolat berib turardi. Martin unga tikilarkan, miskin va ojiz qullarning bu dunyodagi bir hovuch zo'raonlar bilan, ya'ni, o'sha qullar ustidan hukmronlik qilib kelgan va hamisha hukmronlik qiladigan zo'raonlar bilan doimiy jang qilishini yaqqol tasavvur etdi. Bu nimjon odam, Martinning nazarida, mashaqqatli hayot yo'lida zaruriy biologik qonunga binoan qirilib ketayotgan zaif va yashashga muvofiqlashmagan ommaning timsoli edi. Ular o'limga mahkum edilar. Ularning murakkab falsafasi va chumolidek jamoamizga bo'lgan mayliga qaramay, qudratli va kuchli odamlarni deb tabiat ulardan voz kechgan edi. Tabiat o'zi yaratganlardan eng nodirlarini saralab olardi, odamlar ham unga taqlid qilib, oliy nav sabzavotlar va nasldor otlarni ko'paytira boshladilar. Albatta, olamni yaratgan egam bundan tuzukroq usul ham o'ylab chiqishi mumkin edi, lekin odamlar joriy qilingan qonun-qoidalarini tan olishdan boshqa choralari yo'q edi. O'z-o'zidan ma'lum, halok bo'lish oldidan ular sotsialistlarga o'xshab, o'zlarini har yoqqa urishi, tirishib-tirmashishlari mumkin, to'planib olishib, bu dunyo azoblarini qanday qilib yengillashtirish va butun olamni qanday qilib laqillatish haqida mulohaza yuritishlari mumkin.

Martin shunday o'ylardi, Brissenden uni so'zga chiqishga ko'ndirganidan keyin, Martin shu

mulohazalarini aytdi. U minbarga chiqib, odat bo'yicha raisga murojaat qildi. U boyagi yahudiy gapirayotganda miyasiga quyilib kelgan fikrlarini tartibga solishga urinib, bir oz tutilib-tutilib past ovoz bilan gap boshladi. Bunday namoyishlarda har qaysi notiqqa besh daqiqa vaqt berilardi, Lekin bu berilgan besh daqiqa tamom bo'lganida, Martin endi o'z nutqidan zavqlana boshlagan, sotsialistlarning nazariyalarini endi tanqid qilishga kirishgan edi, lekin u tinglovchilarni o'z nutqiga qiziqtirib qo'yganligi uchun hamma raisdan vaqtni cho'zib berishni talab qildi. Odamlar bu begona yigit siymosida o'zlariga munosib raqibni ko'rib, uning har bir so'zini diqqat bilan tingladilar. Martin zavq-shavq bilan dangal gapira boshladi, u qullar axloqiga hujum qilarkan, qullar deganimda mana shu tinglovchilarimni nazarda tutaman deb dangal aytdi. U Spenser va Maltusdan naql keltirdi va dunyoning tadrijiy takomilining biologik qonuniga hamdu sano o'qidi.

– Demak, – deb yakunladi u o'z nutqini, – yolg'iz qullardangina tashkil topgan davlat yashay olmaydi! Asosiy takomil qonuni bu o'rinda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi! Men yuqorida isbotlaganimdek, yashash uchun kurashda kuchlilar va kuchlilarning avlodi tirik qoladi, ojizlar va ularning avlodi esa o'limga mahkumdur. Bu jarayon natijasida avloddan avlodga o'tgan sari kuchlining kuchi orta boradi. Mana buni takomil deyдилar! Siz qullar esa – to'g'ri, kishi o'zining qulligini tan olishi ko'ngilsiz hol, albatta – siz qullar esa takomilning buyuk qonuniga tobe bo'lmagan jamiyat haqida orzu qilasiz. Siz zaif va layoqatsiz

kishilarning nobud boʻlmasligini istaysiz. Siz oʻz odamlarning kuchlilar bilan barobar, koʻngillari istagancha ovqat yeyishini istaysiz. Siz oʻzlarining kuchlilar bilan bir qatorda turmush qurishlarini va nasl qoldirishlarini istaysiz. Lekin bular qanday natija beradi? Odamzodning kuchi va yashash qobiliyati avloddan avlodga oʻtgan sari rivojlanmaydi. Aksincha, orqaga keta beradi. Mana, sizning «Qullik falsafangiz»ning Nemezidasi²⁶ Sizning jamiyatingiz – qullar tomonidan, qullar nomi bilan qullar uchun yaratilgan jamiyat – muntazam ravishda zaiflashib, chiriy boshlaydi va nihoyat, tamomila nobud boʻladi. Esingizda boʻlsin, men sentimental axloq emas, biologiya qonunlariga asoslanib xulosa chiqaryapman. Qullar davlati yashay olmaydi.

– Xoʻsh, Qoʻshma Shtatlar-chi? – deb qichqirdi kimdir.

– Qoʻshma Shtatlar? – deb eʼtiroz bildirdi Martin. – Oʻn uchta mustamlaka oʻz hukmdorlarini quvib yuborib, respublika degan narsani tashkil qildi. Qullar oʻzlariga oʻzlari xoʻjayin boʻlishdi. Qilich bilan davlatni boshqarib turgan hukmdorlar qolmadi. Biroq qullar hukmdorlarsiz yashay olmas edilar, oqibat, yangi toifa hukmdorlar paydo boʻlishdi. Bular dovyurak, oliyanob va kuchli odamlar emas, balki ayanchli oʻrgimchaklar, chayqovchilar va sudxoʻrlar edi! Ana oʻshalar sizni qaytadan asorat domiga soldi, lekin bu ishni kuchlilar singari oshkora qilmadilar, balki har turli nayranglar, ayyorliklar, yolgʻon va boʻhton-

²⁶ Nemizidasi – jazosi; nemizida – qadimgi yunon afsonasida jazo, oʻch maʼbudasi.

lar bilan sezdirmasdan qildilar. Ular sizning sudyalarigizni pora bilan o'zlariga og'dirib oldi, qonunlaringizni buzib, o'g'il-qizlaringizni shunday asoratda saqlamoqdalarki, qonuniy tus olgan qullikning jamiki dahshatlari uning oldida hech gap bo'lmay qoldi. Hozir sizning ikki million nafar farzandlaringiz Qo'shma Shtatlarining sanoat xo'jayinlari zulmi ostida zahmat chekmoqda. O'n million nafar qul boshpanasiz, och-yalang'och kun kechirmoqda. Yo'q, qullar davlati mustaqil yashay olmaydi, negaki bu tadrijiy takomilning biologiya qonuniga ziddir. Qullar jamiyati tashkil topishi bilan darhol tushkunlik, nasi aynishi boshlanadi. Siz tadrijiy takomil qonunini inkor qilasizmi? Yaxshi! Bo'lmasa, siz qaysi qonunga suyanmoqchisiz? Uni bizga ta'riflab bering. Balki allaqachon ta'riflagandirsiz? Unday bo'lsa, menga tushuntirib bering uni.

Martin zaldagilarning baqiriq-chaqiriqlari ostida o'z o'rniga borib o'tirdi. Yigirmatacha odam, menga so'z bering, deb birdan o'rinlaridan turishdi. Ular jo'shqin ehtiros bilan qo'llarini paxsa qilib, zaldagilarning gulduros qarsaklari ostida birin-ketin Martinning hujumini daf qilar edilar. Bu chinakam jang edi, g'oyalarning shiddatli to'qishishi edi. Keyinroq notiqning nutqi umumiy mavzularga o'tib ketgan bo'lsa ham, aksariyat bevosita Martinga e'tiroz bildirardi. Ular Martin uchun yangi bo'lgan fikrlarni bayon qilardilar; eski biologik qonunlarni tatbiq qilish uchun yangi imkoniyatlar borligini ko'rsatar edilar. Ular munozaraga mukkasidan sho'ng'ib ketganligidan odobni ham unutilib qo'yan edilar,

shuning uchun rais ularni bir necha bor tartibga chaqirishga majbur bo'ldi.

Sensatsiya ketidan quvaverib holdan toygan yosh bir muxbir tasodifan shu majlisga kelib qolgan edi. Unda na aql-idrok va na tajriba bor edi. Unda faqat gazeta muxbiriga xos surbetlik bor edi. U mubohasaning ma'nosiga tushunmas, haddan tashqari nodon edi. Biroq u o'ziga shunday bino qo'ygan ediki, mana bu ishchilar sinfining mahmadona vosvoslaridan o'zini baland tutardi. Shu bilan birga u yuksak mavqedagi kishilarni, millat va gazetalar siyosatini belgilaydigan kuchli odamlarni juda hurmat qilardi. Uning eng oliy orzusi yo'qni yo'ndirishga qurbi yetadigan birinchi darajali muxbir bo'lishdan iborat edi.

U baribir suhbatning nima to'g'risida bo'rayotganini tushunmadi. Tushunishning ham hojati yo'q edi. U «inqilob» singari ayrim so'zlariga mahkam yopishib oldi. Paleontolog bir dona topilgan suyak orqali butun boshli skeletni tiklagani singari, bu muxbir ham esida qolgan yagona «inqilob» so'zi bilan butun boshli nutqni tiklamoqchi bo'ldi. Shu kuni kechqurun nuqul shu ish bilan shug'ullandi, ishi muvaffaqiyatli chiqdi. Martinning nutqi hammadan ko'proq shov-shuvga sababchi bo'lgani uchun, muxbir Martinni anarxist deb tasvirlab, reaksiyon individualizmni eng ashaddiy sotsializmga yo'ydi-da, o'zi yozgan nutqni Martinning tili bilan bayon qilmoqchi bo'ldi. Muxbir yigitning adabiy iste'dodi yo'q emas edi, shuning uchun darg'azab olomonning shov-shuvi ostida musht do'laytirgan,

baqirib-chaqirgan sochi uzun badjahl odamlarni, asab kasaliga yo'liqqan kishilarni juda mohirlik bilan tasvirladi.

O'TTIZ TO'QQIZINCHI BOB

Ertasi kuni ertalab Martin qahva ichib o'tirarkan, odati bo'yicha gazetalarni ko'zdan kechirdi. U umrida birinchi marta o'z nomini yirik harflar bilan gazetaning birinchi sahifasida bosilganini ko'rdi. O'zining Oklend sotsialistlarining eng yirik rahbarlaridan biri ekanini bilib, hang-mang bo'lib qoldi. U muxbir yigit tomonidan yozilgan o'zining otashin nutqiga ko'z yugurtirib chiqdi-yu, avvaliga bu hayosiz uydirmadan juda achchiqlandi, keyin kulib yuborib, gazetani uloqtirdi.

– Buni yo bironta mast odam yozgan yoki buning zamirida qandaydir bir jinoyat yotibdi, – dedi u Brissendenga. U Martinnikiga tushki ovqatdan keyin charchab kelib, xonadagi yagona kursiga cho'kkan edi. Martinning o'zi esa odati bo'yicha karavotda o'tirardi.

– Sizga baribir emasmi? – dedi Brissenden.
– Nahotki bu gazetani o'qiydigan burjuaziya to'ng'izlarining mulohazalaridan qo'rqsangiz?

Martin bir daqiqa o'ylanib qoldi.

– Albatta, ular bilan hech qanday ishim yo'q. Faqat bu narsa Rufning oilasi bilan mening munosabatimni mushkullashtirib qo'ymas-mikin deb qo'rqaman. Uning otasi meni sotsialist deb biladi, mana bu bema'ni axborot uning fikrini tasdiqlashi mumkin. Mening to'g'rimda nima o'ylasa ham parvo qilmayman, lekin

har holda... he, nima farqi bor? Sizga bugun yozganlarimni o'qib bermoqchiman. Hali ham o'sha «Kechikkan»ni o'qiyman, albatta. Salkam yarmi tayyor bo'ldi.

Martin endi o'qiy boshlagan edi, birdan Mariya eshikni ochdi, xonaga bashang kiyingan bir yigitni kiritdi, yigit olazarak bo'lib, atrofga ko'z yugurtirdi, bir zungina kerosinkaga va oshxona vazifasini o'tovchi qutiga tikilib qoldi, shundan so'ng Martinga qaradi.

– O'tiring! – dedi Brissenden.

Martin mehmonga joy berish uchun nariroq surildi-da, unga savol nazari bilan qaradi.

– Men sizning kechagi nutqingizni eshitdim, mister Iden, – deb gap boshladi yigitcha, bir oz sukutdan keyin, – gazetada bosib chiqarish uchun siz bilan suhbatlashmoqchi edim.

Brissenden xoxolab kulib yubordi.

– Bu kishi ham sizga hamkasb – sotsialistmi? – deb so'radi muxbir Brissendenga yalt etib qarab va bu tirik murdaning tasviri gazetxonda qanchalik kuchli taassurot qoldirishini xayolan tasavvur qildi.

– Hisobotni hali shu tirrancha yozgan ekan-da? – dedi o'ychanlik bilan Martin.

– Nega endi adabini bermay o'tiribsiz? – so'radi Brissenden. – Men hozir besh daqiqagagina o'pkamning sog' bo'lishi uchun ming dollar be-rardim.

Yosh muxbir bu suhbatdan bir oz dovdirab qoldi, hamsuhbatlar uchun u go'yo bu yerda yo'qday edi. Lekin u hozirgina sotsialistlar namo-

yishi haqida yozgan hisoboti uchun gazeta muharririning maqtoviga sazovor bo'lib, mavjud tartibning uyushgan dushmanlari rahbari Martin Iden bilan musohaba o'tkazish haqida topshiriq olgan edi.

– Sizni suratga olsak qarshi emasmisiz, mister Iden? – deb so'radi yigit. – O'zim bilan fotografni ham boshlab kelgan edim. U shoshilyapti. Hade-may quyosh botadi deydi. Musohabani esa keyin qilaveramiz.

– Fotograf? – dedi cho'zib Brissenden. – Nima qilib o'tiribsiz, Martin? Do'pposlasangiz-chi!

– Qariyapman, shekilli, – deb javob qildi Martin. – Do'pposlashim kerakligini bilib turibman-u, lekin nechundir hafsalam kelmayapti. Nima keragi bor?

– Sho'rlik onasi uchun kerak, – deb e'tiroz bildirdi Brissenden.

– Balki mulohazangiz chindan ham asoslidir, – deb e'tirof etdi Martin. – Lekin baribir bu mulohaza g'ayratimni qo'zg'atmayapti. Axir bironta odamni do'pposlash uchun kuch-g'ayrat sarflash kerak-ku. Do'pposlashga arziydimi bu?

– Rost, arzimaydi, – deb sho'x ohangda gapni ilib ketdi muxbir, holbuki, uning javdiragan ko'zlari eshikni mo'ljallardi.

– Albatta, buning yozgan narsasida bitta ham to'g'ri so'z yo'q, – deb davom etdi Martin Brissendenga o'girilib.

– Bilasizmi, men umumiy tarzda tasvirlagan edim... – deb izoh berishga jur'at etdi yigitcha. – Ammo siz uchun bu juda ajoyib reklama bo'ldi... Xo'p deyavering.

– Bilib qo‘ying, Martin, bu siz uchun reklama-ya! – jo‘shqin ohangda dedi Brissenden.

– Ha, ha!.. Bu gapga qo‘shilishim kerak.

– Ijzatingiz bilan, mister Iden, qayerda tug‘ilgansiz? – deb so‘radi muxbir aftini diqqat bilan quloq solayotgan odamning aftiga o‘xshatib.

– Diqqat qiling, hech nima yozmayapti-ya, – deb gapga aralashdi Brissenden, – hammasini yodida saqlab qoladi.

– Men uchun shuning o‘zi kifoya, – yigitcha zo‘r berib hayajonini yashirishga urinardi. – Omilkor muxbir hech nimani yozmaydi.

– Yaqqol ko‘rinib turibdi kechagi hisobotingizdan, – Brissenden yovuzlikka qarshilik ko‘rsatmaslik tarafdori emasdi, shuning uchun ham ovozin o‘zgartirib, birdan qichqirib yubordi:

– Martin! Agar siz do‘pposlamasangiz, o‘zim do‘pposlayman buni! O‘lib qolsam ham mayli, do‘pposlayman!

– Shapatilasam, kifoya qilar deyman? – so‘radi Martin.

Brissenden o‘ylab turib, keyin bosh irg‘adi.

Zum o‘tmay muxbir Martinning tizzasida yuz tuban yotardi.

– Lekin tishlash yo‘q, – deb ogohlantirdi Martin, – bo‘lmasa chiroylikkina basharangizni pachaqlab tashlashga majbur bo‘laman. Yaxshi bo‘lmaydi.

Uning o‘ng qo‘li bir me‘yorda ko‘tarilib tushib turdi. Yigitcha chinqirar, tipirchilar, so‘kinardi-yu, lekin tishlashga jur‘at eta olmasdi. Brissenden bu holatni bamaylixotir kuzatib o‘tirardi. Faqat bir marta sabri chidamay, bo‘sh shishani ushlab oldi-da:

– Keling, menam hech boʻlmasa bir marta uray! – dedi.

– Afsuski, qurbim yetmay qoldi, – dedi nihoyat Martin. – Qoʻlimda jon qolmadi.

U muxbirning yoqasidan ushlab bir silkidi-da, karavotga oʻtqazdi.

– Politsiyaga arz qilaman! Sizni qamoqqa olishadi! – deb qichqirardi yigitcha. Uning choʻgʻdek yonib turgan yuzlaridan alam yoshlari oqib tushardi. – Bu qilmishingiz uchun javob berasiz. Shoshmay turing hali!

– Ana xolos, – dedi Martin, – bu yigitcha toygʻoq yoʻldan ketayotganini hali ham tushunmabdi-ku. Hali bu oʻz birodari haqida yolgʻon-yashiq gaplarni yozishga yozibdi-yu, bu ishining vijdotsizlik, adabsizlik ekanini, erkak kishiga nomunosib ish ekanligini negadir tushunmabdi.

– Nachora, menga tushuntirib qoʻying deb oʻz oyogʻi bilan kelibdi-yu, – deb gapga aralashdi Brissenden.

– Ha, kelishga keldi-yu, lekin meni badnom va sharmanda qilib boʻlib, keyin keldi. Endi baqqolning menga nasiyaga mol berishdan bosh tortishi turgan gap. Hammadan yomoni shuki, bu bolapaqir to juda oʻtkir muxbir va gʻoyat zoʻr muttaham boʻlguncha shu yoʻldan ketaveradi.

– Hali vaqt bor, – deb eʼtiroz bildirdi Brissenden. – Bu yigitchani toʻgʻri yoʻlga solib yuborish balki sizning zimmangizga yuklangandir. E, nega endi mening ham bir martagina urishimga yoʻl qoʻymadingiz? Bu savobli ishga shunaqayam hissa qoʻshgim kelgan ediki!

– Ikkovingizni ham qamashadi! – dedi yoʻldan ozgan banda piqillab yigʻlab. – H-h-hayvonlar!

– Basharasi yoqimtoygina ekan, – dedi Martin bosh chayqab, – bekorga qoʻlimni ogʻritdim deb qoʻrqaman. Bu yigitchani tuzatib boʻlmaydi. U shubhasiz juda oʻtkir muxbir boʻladi. Bunda vijdon degan narsadan asar ham yoʻq! Shuning oʻzi oʻsishiga imkon tugʻdiradi.

Shu payt yigitcha, hamon qoʻlida shisha ushlab oʻtirgan Brissendenning yonidan qoʻrqa-pisa oʻtib, uydan oʻqdek otilib chiqib ketdi.

Ertasi kuni Martin oʻzi haqida juda koʻp yangi va qiziq gaplarni bildi. «Ha, biz jamiyat dushmanimiz, – deganmish u matbuot xodimi bilan suhbatda, – lekin biz anarxist emasmiz! Biz sotsialistlarmiz!» Muxbir bu ikki yoʻnalish oʻrtasida aydarlik farq yoʻqligini aytgan ekan, Martin roziligini bildirish uchun sukut saqlab yelkasini qisib qoʻyganmish. Maʼlum boʻlishicha, Martinning yuzi beoʻxshov va unda nasli ayniganini isbotlovchi jami alomatlar mavjud emish. Uning serqadoq qoʻllari va qonsirab chaqnab turuvchi koʻzlari judayam boshqacha emish.

Martin deyarli har kuni kechqurun oʻzining Siti Xoll-parkdagi ishchilar namoyishida nutq soʻzlashi, u yerda xalq ongini zaharlovchi hamma anarxist va tashviqotchilar ichida eng nufuzlisi boʻlib, oʻta inqilobiy nutqlar ijod etishi haqida ham oʻqidi. Muxbir uning hujrasini mufassal tasvirlagan, kerosinkani, xonadagi yagona kursini ham unutmagan, shuningdek, u Martinning oshnasini – butun qiyofasi yigirma yildan beri qamoqda yotib, endigina ozodlikka chiqqan odam-

ni eslatuvchi murdasifat sayoqni – rang-barang bo‘yoqlar bilan ifodalagan edi.

Yosh muxbir juda chaqqon chiqib qoldi. U Martin Idenning butun oilaviy hayotini iskab bilibdi va mister Xigginbotamning do‘koni va eshik oldida turgan mister Bernard Xigginbotamning foto suratini ham topibdi. Mazkur jentlmen o‘z qaynisining sotsialistik mulohazalariga qo‘shilish u yoqda tursin, balki u bilan hech qanday munosabatda bo‘lishni istamaydigan hurmatli va bama’ni tijoratchi sifatida tasvirlangan edi. Uning gapiga qaraganda, Martin Iden g‘irt yalqov, bir emas, bir necha marta durustgina joylardan ish tavsiya qilishgan bo‘lishsa ham, ishlashni istamagan ishyoqmas ekan, bir kun emas, bir kun uning turmaga tushishi muqarrar ekan. Muxbir German fon Shmidt bilan ham suhbatlashgan edi. U Martinni «Oila sha’niga tushgan dog‘» deb atabdi va u ham Martin bilan qarindoshlik qilishdan bosh tortibdi. «U mening yelkamga minib olmoqchi bo‘lgan edi, – debdi gap orasida German fon Shmidt, – lekin bu nayrangi o‘tmadi. Men uni uyimga kelmaydigan qilib bezdirib yubordim. Bunaqa ishyoqmasdan hech xayrli ish kutib bo‘lmaydi!»

Martin bu safar chinakamiga achchiqlangandi. Brissendenga bu gap xuddi ermakdek tuyulsa ham, Martinni tinchitishga qurbi yetmadi. Martin endi Rufga buni tushuntirish oson bo‘lmasligini bilardi. Qizning otasi esa fotihani buzish uchun bu bema’ni uydirmadan albatta foydalansa kerak. Martinning noxush taxminlari xiyol vaqt o‘tmay to‘g‘ri bo‘lib chiqdi. Ertasi kuni pochta-

chi Rufning xatini olib keldi. Martin maktubda ko'ngilsiz gaplar yozilganini oldindan sezib, shu zahotiy oq konvertni ochdi-yu, pochtachi orqasidan eshikni ham yopmasdan o'qiy boshladi.

Martin maktubni o'qirkan, qo'li beixtiyor cho'ntagini kovlab, doim yonida yuradigan tamaki bilan tamaki qog'ozini axtara boshladi. Holbuki, cho'ntagi ko'pdan beri bo'm-bo'sh ekanligini tushunmas, hatto nima qidirayotganini ham o'zi bilmasdi.

Maktub xotirjamlik bilan yozilgan edi. Unda hech qanday zardadan asar bo'lmasa ham, lekin birinchi satridan boshlab to oxirgi satrigacha har qaysi jumlada qizning ranjiganligi va ixlosi qaytganligi yaqqol sezilib turardi. Ishonchimni oqlamadingiz, deb yozgan edi Ruf. Martin o'zining nojo'ya qiliqlarini tark etar, unga, ya'ni, Rufga bo'lgan muhabbati tufayli kamtarona va tavfiqli hayot kechirishga haqiqatan ham rozi bo'lar, deb o'ylagan ekan qiz. Endi bo'lsa, dadasi bilan oyisi fotihani buzasan deb oyoqlarini tirab turib olishganmish. Ruf ham ota-onasining dalillarini e'tirof etmay iloji yo'qmish. Ikkovlari orasidagi munosabatdan hech qanday yaxshilik kutib bo'lasmish. U boshidan yanglishgan ekan. Maktubda bittagina ta'na bor edi, ana shu ta'na Martinga ayniqsa qattiq botdi. «Agarda xizmatga kirishni xohlaganingizda, hayotda qanday bo'lmasin o'z o'rningizni topganingizda, qanday yaxshi bo'lardi! – deb yozgan edi Ruf. – Lekin bu mumkin emas. Chunki siz havoyi va pala-partish kun kechirishga odatlanib qolgansiz. Tushunaman, sizda ayb yo'q.

Siz o'zingizning tug'ma tabiatingizga va olgan tarbiyangizga binoan ish ko'rdingiz. Men sizni aybsitayotganim ham yo'q. Martin, gapimga tushuning. Dadam bilan oyim haq ekanlar: biz bir-birimizga munosib emasmiz, shunisiga ham shukurki, o'z vaqtida payqab qoldik buni... Men bilan ko'rishishni o'ylamang ham, – deb yozgan edi u maktubning oxirida, – bu uchrashuv ikkovimizga ham, oyimga ham juda og'ir botadi. Oyimni qattiq xafa qilib qo'yganimni shundoq ham sezib turibman va hali-beri bu gunohimni yuva olmasam kerak».

Martin maktubni oxirigacha o'qib chiqib, yana bir sidra diqqat bilan o'qidi. Keyin o'tirib javob yoza boshladi. U sotsialistlar namoyishida nima deb gapirgan bo'lsa, hammasini batafsil yozdi va gazetani eng vijdotsiz tuhmatchilikda aybladi. O'zining aybsizligini isbotlash, izohlash, maktub oxirida yolveruvchi oshiq yigitning jo'shqin nutqiga aylanib ketdi. «Menga albatta javob qiling, – deb yozdi u, – faqat bir og'iz so'z – meni sevasizmi, yo'qmi? Eng muhimi shu».

Biroq oradan bir kun, ikki kun o'tsa ham, javob kelmadi. «Kechikkan»ning o'sha sahifasi hamon ochiqligicha yotar, stol ostidagi qaytarib yuborilgan qo'lyozmalar to'dasi esa tobora ko'payardi. Martin umrida birinchi marta uyqusizlik azobiga uchradi. U Morzlarnikiga uch marta bordi, ammo har safar uy xizmatkori uni ostonadan o'tkazmadi. Brissenden kasal yotgan edi, shuning uchun Martin uni ko'rgani borganida o'z dardini aytishga tili bormasdi.

Martinning g'ami boshidan oshib yotardi. Muxbirning qilg'iligi hech kutilmagan oqibatlar-

ga olib keldi. Portugaliyalik baqqol unga nasiyaga mol berishdan bosh tortdi, men sof amerikalikman deb maqtanishni yaxshi ko'radigan sabzavotchi baqqol esa Martinni vatan xoini deb atadi va vatanparvarlik jazavasi tutib, hatto uning qarz qog'ozlarini ham yirtib tashladi, do'konimga qarzingni ham to'lagani kela ko'rma, dedi. Qo'shnilarning hammasi Martinga qarshi edi, ularning g'azabi kun sayin ortib borardi. Sotqin sotsialist bilan muomala qilishni hech kim istamasdi. Bechora Mariya vahima va shubha ichida qiynalar, ammo u Martinga sodiqligicha qolgan edi. Bir vaqtlar Martinning huzuriga mehmon olib kelgan dabdabali faytonni unutgan qo'shni bolalari endi unga uzoqdan «yalqov!», «sayoq!» deb qichqirishardi. Faqat Mariyaning bolalari aynimas, Martinni yoqlab gapirishar, u deb ko'pincha mushtlashishardi ham. Ko'z ostini ko'kartirib, burnini qonatib kelgan bolalarini ko'rgan bechora Mariya yana ham nochor ahvolga tushardi.

Martin bir kuni ko'chada Gertrudani uchratib qolib, ilgari ham ko'ngli sezib yurgan narsalarni eshitdi. Bernard Xigginbotam g'azablanganidan o'zini qo'yarga joy topa olmayotganmish, Martin oila a'zolarining hammasini sharmisor qildi, uyimga kelsa oyog'ini urib sindiraman deganmish.

– Biron yoqqa ketsang bo'larmidi, Martin, – deb yolvordi Gertruda. – Ketib boshqa yerda birona tuzukroq ishga joylash. Keyinchalik, hamma narsa bosti-bosti bo'lib ketgandan keyin yana qaytib kelish qochmas.

Martin bosh chayqab qo'ydi-yu, lekin nima uchun keta olmasligini opasiga tushuntirib o'tirmadi. Qanday qilib ham tushuntirib bo'ladi! O'zi bilan qarindoshlari orasida tubsiz jar paydo bo'lgan. Endi bu jordan sakrab o'tishga qodir emas! O'zining – nitssheparastning sotsializmga munosabatini Gertrudaga tushuntirib o'tirish kulgili bo'lardi! Bu odamlarga o'z mulohazalari va xatti-harakatini izohlab berish uchun ingliz tilida so'z yo'q edi. Ularning hamma gaplari Martinni bir narsaga – o'zi uchun bironta ish topishga undardi. Hamma gap faqat shunda edi. Ularning mulohazalari shundan nariga o'tmasdi. O'zing uchun joy top! Ishga kir! Bechora omi qullar, deb o'ylardi Martin Gertrudaning gapini tinglarkan. Dunyoning zo'ravonlar tomonidan zabt etilganidan ajablanmasa ham bo'ladi! Qullar o'zlarining qullik tasavvuri doirasidan chetga chiqa olmasdilar-da. «Ish» ular uchun oltin sanam edikim, bu qullar unga sig'inib, qarshisida itoatkorona tiz cho'kardilar.

Gertruda unga pul taklif qilgan edi, lekin Martin boshini sarak-sarak qildi, holbuki, bir necha kundan keyin yana kostyumini garovga qo'yishini yaxshi bilardi.

– Hozircha Bernardning ko'ziga ko'rinmay tur, – deb ta'kidlardi unga Gertruda, – yana bir-ikki oydan keyin hovuridan tushib qoladi, ana o'shanda unga aravakash bo'lib yollanishing mumkin, agar xohlasang. Agar men kerak bo'lib qolsam, istagan vaqtingda odam yubor, o'zim boraman. Eshityapsanmi?

Gertruda yig'lab-siqtab nari ketdi, Martin esa opasining horg'in odim otib, zo'r-bazo'r ketib

borayotganini ko'rib, chidab bo'lmaydigan hasratdan yuragi siqilib ketganini his qildi. U opasining orqasidan tikilib turganda, nitssheparastlar binosi birdan silkinib, tebrana boshladi. Qandaydir qullar toifasi haqida mujarrad fikr yuritish yaxshi ekan-u, ammo u nazariyani o'ziga yaqin odamlarga nisbatan tatbiq etish unchalik oson emas ekan. Bordi-yu, agar zo'ravonlar zulmidan ezilayotgan ojiz va mazlum shaxsni misol qilib keltirish kerak bo'lsa, Gertrudadan yaxshiroq misol topib bo'lmaydi. Martin hatto ko'pchilikning mulohazasiga zid fikrdan ma'yus jilmayib qo'ydi. Yuragim bir orziqishi bilan o'z aqidamdan shubhalana boshlasam, rosa qiziq nitssheparast ekanman-da, deb o'yladi u, axir bunday o'ylab qarasang, hozirgi daqiqada mazkur qullik axloqi o'z asarini ko'rsatmayaptimi, uning opasiga bo'lgan mehribonligi qullik tuyg'usi emasmi? Haqiqiy kuchli odam marhamat va shafqatdan yuksak turishi lozim. Mazkur tuyg'ular qullar maskani bo'lmish yerto'lalarda paydo bo'lib, u faqat zaif va baxtiqaro odamlarning qismati bo'lgan.

QIRQINCHI BOB

«Kechikkan» yozilmay to'xtab qoldi. Martinning tahririyatlarga yuborgan qo'lyozmalari stol ostida sochilib yotardi. Faqat bitta qo'lyozma hamon kezib yurardi. Bu Brissendenning «Efemerida»si edi. Martin velosipedi bilan qora kostyumini yana garovga qo'ydi, yozuv mashinkasi uchun to'lov muddati yana har safargidek keyinga surildi. Le-

kin endi Martin bunga parvo qilmasdi. U hayotda o'zi uchun yangi maqsad topishi kerak edi, modomiki, hali o'sha maqsad topilmagan ekan, hayot ham go'yo to'xtab qolgandek tuyulardi.

Oradan bir necha hafta o'tdi, kunlardan bir kun Martin ko'pdan beri kutib yurgan voqea sodir bo'ldi.

U ko'chada Rufni uchratib qoldi. Ammo qiz yolg'iz emas, akasi Norman bilan birga kelayotgan edi, ikkovlari ham o'zlarini Martinni tanimanganga soldilar, lekin Martin ularga yaqinlashmoqchi bo'lganida, Norman uni singlisiga yaqin yo'latmaslikka urindi.

– Agar singlimga tirg' ilmoqchi bo'lsangiz, – dedi u, – polismen chaqiraman, singlim siz bilan gaplashishni istamaydi, sizning bu xiraligingiz unga haqoratdek tuyuladi.

– Yaxshisi, men bilan janjallashmang, – ma'yus qiyofada javob qildi Martin, – aks holda, chindan ham polismen chaqirishingizga to'g'ri keladi, unda sizning ham nomingiz gazetaga tushadi. Chetga turing, xalaqit bermang menga. Men Ruf bilan gaplashib olishim kerak.

– Men sizning o'z og'zingizdan eshitmoqchiman, – dedi u qizga.

Qiz avvaliga bo'zdek oqarib ketdi, vujudini titroq bosdi, so'ng o'zini tutib olib, Martinga savol nazari bilan qaradi.

– Sizga yuborgan maktubimdagi savolimga javob bering, – deb talab qila boshladi u.

Norman toqati toq bo'lib, tipirchilab qolgan edi, Martin bir qarashda uni yuvosh qilib qo'ydi.

Ruf bosh chayqadi.

– Siz o‘z ixtiyoringiz bilan shu ishni qil-yapsizmi? – deb so‘radi Martin.

– Ha, – dedi qiz sekingina, qat‘iy ohangda, – o‘z ixtiyorim bilan. Siz meni sharmanda qildingiz, tanish-bilishlar bilan ko‘rishgani uyalaman. Ho-zir hammaning og‘zida gap bo‘lib qoldim. Sizga aytadigan gapim shu. Meni siz baxtiqaro qildin-giz, endi siz bilan uchrashishni sira istamayman.

– Tanishlar! G‘iybatlar! Gazetadagi bo‘hton-lar! Bular muhabbatdan kuchli bo‘la olmaydi! Demak, siz meni hech qachon sevmagan ekan-siz-da!

Rufning bo‘zargan yuzi o‘t bo‘lib yondi.

– Ro‘y bergan shu voqeadan keyin-a? – dedi qiz. – Martin, nima deytganingizni o‘zingiz ham bilmayapsiz! Meni kim deb o‘ylaysiz?

– Ko‘ryapsiz-ku, singlim siz bilan gaplashish-ni xohlamayapti! – dedi Norman va singlisini bu yerdan olib ketish uchun qo‘ltiqlab oldi.

Martin ularning orqasidan qarab qoldi, so‘ng tamaki bilan tamaki o‘raydigan qog‘oz olgani beixtiyor qo‘lini cho‘ntagiga tiqdi, lekin cho‘ntagi-da na tamaki va na qog‘oz bor edi.

Shimoliy Oklend yaqin emas edi, ammo Mar-tin bu yo‘lni qanday bosib o‘tganini sezmedi. U uyiga kelib, karavotiga yotgandan keyin o‘ziga keldi va go‘yo birdan uyg‘onib ketgan kishidek atrofiga olazarak bo‘lib alanglay boshladi. Stol ustida yotgan «Kechikkan»ning qo‘lyozmasi ko‘ziga tashlandi; u kursini yaqinroq surib qo‘li-ga ruchka oldi. Boshlangan ishni oxiriga yetka-zib qo‘ymaguncha ko‘ngli tinchmaydigan odati bor edi uning. Qarshisida esa tugallanmagan

ish yotardi. U boshqa ish bilan shug'ullanish uchun buni chetga surib qo'ygan edi. Endi o'sha boshqa ish adoyi tamom bo'ldi, yana navbat «Kechikkan»ga kelgan edi. Martin bundan keyin nima qilishini bilmas edi. U faqat bir narsani bilardi: hayotning allaqaysi bir bosqichi poyoniga yetgan edi va nuqta qo'yishdan oldin jumalani tugallash kerak edi. Kelajak uni qiziqtirmasdi. Ehtimolki, bundan keyin boshidan nelar kechishini hademay bilib qolar. Lekin buning endi unchalik ahamiyati qolmagan edi. Hamma narsa ham ahamiyatsiz edi.

Martin besh kun muttasil hech qayoqqa chiqmay, hech kim bilai uchrashmay «Kechikkan» ustida ishladi, bir oz tamaddi qilib olish uchungina ishdan to'xtar edi. Oltinchi kuni ertalab pochta-chi unga «Parfenon» muharririning maktubini olib keldi. Martin konvertni ochdi-yu, shu zahoti «Efemerida»ning bosmaga qabul qilinganini bildi.

«Biz poemani mister Kartrayt Bryusga o'qigani bergan edik, – deb yozgan edi muharrir, – u asarni ma'qulladi va biz uni o'z jurnalimizda bajonu dil chop etishga qaror qildik. Biz poemani jurnalning avgust soniga qoldirayotgan ekanmiz, bunga sabab shuki, iyul soni terib bo'lingan. Mister Brissendenga bizning chuqur minnatdorigimizni va qoyil qolganimizni izhor qiling. Uning portreti bilan biografik ma'lumot yuborishingizni iltimos qilamiz. Mabodo, tavsiya qilingan gonorar oz ko'rinsa, iltifot etib, shartingizni telegraf orqali bizga xabar qilsangiz».

Tavsiya qilingan gonorar miqdori uch yuz ellik dollar bo'lgani uchun Martin, telegramma

yuborishning hojati yo'q, degan qarorga keldi. Endi faqat Brissendenning roziligini olish qolgan edi. Baribir, Martin haq chiqdi-ku. Chinakam poeziyaning qadriga yetadigan muharrir ham bor ekan. Belgilangan gonorar ham hattoki «asrning durdona poemasi» uchun ham katta edi. Bundan tashqari, Brissenden jamiki tanqidchilar orasida yolg'iz shu Kartrayt Bryusni hurmat qilardi – buni Martin bilardi.

Martin uydan chiqib tramvayga o'tirdi, u ko'z oldidan lip-lip o'tib turgan uylar va muyulishlarga tiqilib borarkan, na do'stining muvaffaqiyati va na erishilgan g'alaba uni hayajonlantirmayotganini o'ylab ma'yus borardi. Qo'shma Shtatlardagi eng o'tkir tanqidchi poemaga yuksak baho berdi, bas, shunday ekan, chinakam san'at asari axiri bir kun kelib, o'zi uchun matbuotga yo'l ochadi, deb Martin yanglishmagan ekan. Ammo endi unda avvalgi ishtiyoq qolmagan edi, shuning uchun ham u hozir Brissendenga xushxabar yetkazgani emas, ko'proq shunchaki do'stini ko'rgani ketayotganini juda yaxshi tushunardi.

«Kechikkan» ustida ishlagan shu besh kun mobaynida Brissendendan hech xabar olmagan, hattoki uni biron marta ham eslamagani endi xayoliga keldi. Martin o'zini qandaydir ruhan esankirab qolganini tushundi va do'stidan xijolat qila boshladi. Lekin shunda ham o'zini negadir loqayd his qilardi. «Kechikkan» povesti ustida ishlayotgandagina ruhi ko'tarilar, bo'lak hech nima unga ta'sir etmasdi. Qolgan hamma narsaga u parvoyi falak, miyasi karaxt bo'lib

qolganday edi. Tramvay g'izillab o'tib borayotgan ko'chalardagi qaynoq hayot undan juda olisda, misoli xayoldek tuyulardi, shuning uchun ham agar cherkov qo'ng'iroqxonasi uning ko'z oldida birdan qulab tushsa, unchalik ajablanmagan bo'lardi.

U mehmonxonaga kirib, shosha-pisha Brisendenning xonasiga chiqdi va bir daqiqadan so'ng yana shosha-pisha qaytib tushdi. Do'stining xonasi bo'm-bo'sh, hamma buyumlar tashqariga chiqarib qo'yilgan edi.

– Nima, mister Brissenden ko'chib ketdimi? – deb so'radi portedan. – Manzilini qoldirmadimi?

Porte negadir unga g'alati qarab qo'ydi.

– Hali hech nimadan xabaringiz yo'qmi? – dedi u.

Martin «yo'q» deganday bosh chayqab qo'ydi.

– Hamma gazetalarda yozishdi-ku. Uni o'rni-da o'lib yotgan holda topishibdi. O'z joniga qasd qilibdi! Boshidan otibdi.

– Uni dafn etishdimi?

Bu savolni go'yo allaqanday begona, notanish kishi berganday tuyuldi Martinga.

– Yo'q. Taftishdan so'ng jasadini Sharqqa yuborishgan edi. Qarindoshlari chaqirtirgan advokatlarni hamma ishni bosti-bosti qilib yuborishdi.

– Nega bunchalik shoshilishmasa? – deb yubordi Martin.

– Nega shoshilishdi deysiz? Axir bu voqeaga besh kun bo'ldi-ku!

– Besh kun bo'ldi?

– Ha, besh kun.

Martin:

– Shunday deng! – deb g'o'ldiradi-da, mehmonxonadan chiqib ketdi.

Yoʻl-yoʻlakay u telegrafga kirib, «Parfenon» noshiriga, poemani chop qilishingiz mumkin, deb telegramma yubordi. Telegrammani u pul toʻlab oladigan qilib yubordi, negaki choʻntagida faqat uyga qaytish uchun tramvayga yetadigan besh sent puli qolgan edi.

Martin uyiga qaytib kelib, yana ishga kirishdi. Kunlar va tunlar biri birini quvalashib oʻtib borardi, u esa hamon stol oldida oʻtirib, tinmay yozardi. U deyarli uydan eshikka chiqmas, shoʻrva-shoʻlta yo boʻtqa pishirishga bir narsasi boʻlsa, pishirib istar-istamas ovqatlanar, hech vaqosi boʻlmasa yana loqaydlik bilan ovqatsiz kun kechiraverardi. Povest boshdan oyoq oldindan batafsil oʻylab pishitilib qoʻyilgan boʻlsa ham, asar ekspozitsiyasini boshqacha tuzishga qaror qildi, bunda povestning hajmi yana yigirma ming soʻzga ortardi. Povestni shunchalik zoʻr eʼtibor bilan takomillashtirishga hojat boʻlmasa ham, qaytadan ishlar, Martin endi boshqacha uslubda ishlay olmasdi. U atrofdagi narsalarni idrok qilmay, esankirab, karaxt boʻlgan odamday yozardi, xuddi arvoh oʻziga tanish boʻlgan yerlarda tentirab yurgani kabi, u ham oʻzining oʻtmish hayotidagi ijodiy mahoratiga murojaat qilardi. U kimningdir: arvoh oʻlganini bilmay qolgan marhumning ruhidir, degan soʻzlarini esladi. Shunda Martin: oʻzim ham shu ahvolga tushib qolmadimmikin? – deb bir zungagina oʻylanib qoldi.

Nihoyat, «Kechikkan» povesti yozilib boʻldi. Ijaraga asbob beruvchi mahkama vakili yozuv mashinkasini olib ketgani keldi va Martinning karavotida uning soʻnggi sahifani yozib boʻlishini

kutib o'tirdi. «Tamom!» deb yozdi Martin mashin-kada. Bu uning chindan ham tamom bo'lgani edi. U bir oz yengil tortib mashinkani olib uydan chiqib ketayotgan vakilga qarab qoldi. Shundan keyin o'zini «tappa» karavotga tashladi. Ochlik-dan majoli qolmagan edi. U o'ttiz olti soatdan beri tuz totmagan, shunga qaramay, biron marta bo'lsin, ovqat eyish esiga kelmagan edi. U ko'zla-rini yumib, chalqanchasiga tushib yotardi, ongi-ni allaqanday tuman asta-sekin chulg'ab ola boshladi. U mudroq holda Brissenden unga tak-ror-takror yod o'qib bergan allaqanday she'rni g'o'ldirab o'qirdi. Mariya eshik orqasida turib, o'z mijozining bir tarzda g'o'ldirashiga tashvish-lanib quloq solardi. She'rdagi so'zlarni Mariya hech tushunmas, lekin Martinning o'zi bilan o'zi gaplashayotganidan xavotirda edi.

Chekil lira!

Qo'shig'im tamom!

*Kuyim asta so'ndi va topdi barham,
Dardim bir sharpadek cho'kdi bu ayyom.
Nurafshon ko'p olis yoqlarga bu dam.*

Chekil lira!

Qo'shig'im tamom!

*Bir zamon jo'shardim daraxt tubida,
Kuylardim o'rmonda, qaynardi ilhom.
U dam yosh, baxtiyor, dadildim juda.
Endi-chi, kuylashga qolmadi majol,
Ko'z yoshi keladi, yo'q dilda orom.
Go'riston kezaman o'ychan va behol.*

Chekil lira!

Qo'shig'im tamom!

Mariya chidab tura olmadi, u pech oldiga yugurib bordi-da, tovoqni to'ldirib sho'rva suzdi, himmat qilib qozon tagidagi mayda to'g'ralgan jazlardan, kartoshkadan olib soldi-yu, Martinning oldiga yugurdi.

Martin tirsagiga tayanib yotib, sho'rvani icharkan, hech alahlayotganim yo'q, o'tdek soppa-sog'man, deb Mariyani ishontirmoqchi bo'lardi.

Mariya chiqib ketgandan keyin Martin anchagacha bir nuqtaga ma'nosiz tikilib, bukchayib o'tirdi, nihoyat, ko'zi qarshisida yotgan ertalabki pochta bilan kelgan jurnalga tushdi. «Bu «Parfenon» bo'lsa kerak, – deb o'yladi u, – «Parfenon»ning avgust soni, «Efemerida» shu sonida bo'lishi kerak. Qani endi, Brissenden tirik bo'lsa!»

U jurnalni varaqlarkan, birdan dong qotib qoldi: «Efemerida»ga jimjimador sarlavha qo'yilgan va Berdeli uslubidagi naqshlar bilan bezatilgan edi; sarlavhaning bir tomonida Brissendenning, ikkinchi tomonida esa Britaniya elchisi ser Jon Velyuning portreti bor edi. Tahririyat tomondan yozilgan muqaddimada, ser Jon Velyuning yaqinda, Amerikada shoir yo'q deb aytgan gapi keltirilib, «Parfenon» o'z sahifalarida «Efemerida»ni bosib chiqarish bilan unga: «Mana, ser Jon Velyu, ko'rib qo'ying!» deyotganday edi. Kartrayt Bryusni bu muqaddimada Amerikaning eng buyuk tanqidchisi deb atagan va uning: «Efemerida» – Amerika poeziyasining eng buyuk asaridir», degan gapi keltirilgan edi. Muqaddima shunday so'zlar bilan tugardi: «Biz «Efemerida»ning jami nafosatiga baho berishga qodir emasmiz; ehtimolki, hech qachon uni mukam-

mal baholay olasmiz ham. Lekin biz poemani qayta-qayta o'qirkanmiz, mister Brissendenning g'ayrioddiy so'z boyligidan hayratga keldik va o'zimizga o'zimiz, mister Brissenden bunday so'z xazinasini qanday qilib va qaysi manbadan oldiykin va ularni qanday qilib bu qadar mahorat bilan uyg'unlashtirdiykin, deb qayta-qayta savol berdik».

Shundan keyin poemaning o'zi bosilgan edi.

Martin jurnalni qo'lidan yerga tushirib yuborib; «Bechora Bris, o'lib ketganing yaxshi bo'lgan ekan!» deb o'yladi.

Bular beor, qabih so'zlar edi, ammo Martin jirkanchlik sezmedi. Uning achchiqlangisi keldi, ammo bunga kuchi yetmadi. U go'yo ovsar bo'lib qolgan edi. Tomirlarida qon to'xtab qolgan va g'azabdan ko'pira olmasdi. Pirovardida, buning nimasiga ham ajablanish kerak? Bu gaplar Brissenden qattiq nafratlangan burjuaziya jamiyati ruhida yozilgan.

– Bechora Bris! – deb g'o'ldiradi Martin. – Bu gunohimni hech qachon kechirmagan bo'lardi!

Martin zo'r-bazo'r o'rnidan turib, ilgari yozuv mashinkasi uchun qog'oz qo'yiladigan g'aladonni tortdi. Uni titib, do'sti yozgan o'n bitta she'rne topdi. Martin bu she'rlarni hech shoshmasdan birin-ketin yirtdi-da, savatga tashladi. So'ng yana karavotiga o'tirib, nursiz ko'zlari bilan bo'shliqqa tikilib qoldi.

Shu alfozda u qancha vaqt o'tirganini o'zi ham bilmasdi; nihoyat, uning ko'z oldidagi tumanli bo'shliqda uzun, oppoq chiziq paydo bo'ldi. Bu g'oyat ajib hol edi. Lekin Martin yaxshiroq tikilib

qaragan edi, u Tinch okeanining allaqayerida, marjon qoya yaqinidagi to'fqin chizig'i ekan. Yana bir zumdan keyin u oppoq ko'piklar orasida kichkinagina, ko'hna qayiqni ko'rdi. Beliga qirmizi mato tutgan jigar rang tanli yosh xudo qayiqning bosh tomonida eshkaklarni to'fqinli suvga solib o'tirardi. Martin uni tanidi. Bu sardor Tamining kenja o'g'li Moti edi, demak, bu Taiti sohili, marjon qoya ortida esa go'zal Papara mamlakati bor edi; u yerda, daryoning dengizga quyilish yerida sardorning qamishdan to'qilgan kulbasi turardi.

Kech kirib qolgan, Moti baliq ovidan qaytayotgan edi. U qoya ustidan oshirib olib o'tadigan kuchli to'fqinning yaqinlashishini kutardi. Martin o'zini ham shu qayiqda ko'rdi, u bir emas, bir necha marta Moti bilan birga qayiqda suzgan edi, boshlari uzra ulkan firuza to'fqin paydo bo'lgan zahoti, Motining ishorasi bilan apir-shapir eshkak solishga shay bo'lib turardi. Shu ondan boshlab, u tomoshabin emas, endi u rostdan ham qayiqda o'tirar va Motining vahshiyona qichqirig'i ostida eshkak solardi. Ular guvillagan va shovillagan dahshatli to'fqinni yorib, hamma yoqlari shalabbo bo'lib, oldinga o'qdek otildilar va birdan o'zlarini sokin, osoyishta ko'rfazda ko'rdilar. Moti kulib, sho'r suv sachragan ko'zlarini ishqadi, qayiqdari esa marjon orol sohili tomon suzib borardi; bu sohilda sarvqomat, norjil xurmolari orasida Tamining kulbasi botib borayotgan quyosh shu'lasida oltindek tovlanib turardi.

Biroq bu manzara to'satdan xiralashdi va Martin o'zini yana ivirsib yotgan tor hujrasida ko'rdi. U Taitini yana ko'z oldida gavdalantirishga qan-

cha urinsa ham bo'lmadi. Hozir u xurmozorda qo'shiq yangrayotganini, oydin kechada qizlar o'yin tushayotganini bilardi. Lekin u qog'ozlar uyulib yotgan stoldan va ko'pdan beri yuvilmay xiralashib qolgan derazadan boshqa hech nimanini ko'rmas edi. U ingrab ko'zlarini yumdi va mast uyquga ketdi.

QIRQ BIRINCHI BOB

Martin kechasi bilan dong qotib uxladi, ertalab pochtaachining eshik taqirlatganidan uyg'onib ketdi. U kelgan maktublarni horg'in va beparvoлик bilan ocha boshladi. Taniqli «qaroqchi» jurnalning muhri bosilgan konvert ichidan yigirma ikki dollarga chek chiqdi. Bu pulni undirish uchun Martin sal kam bir yarim yil ovora bo'lgan edi. Ammo endi pul ungodan keyin, unga parvo ham qilmay qo'ydi. Nashriyot chekini ko'rganda o'zida yo'q xursand bo'lish qobiliyatidan endi mahrum bo'lgan edi. Ilgari cheklar kelajakdagi buyuk muvaffaqiyatlar garovi bo'lib tuyulardi, endi esa uning qarshisida shunchaki, ul-bul ovqat sotib olishga yaraydigan oddiy yigirma ikki dollar yotardi, vassalom.

Pochtachi ayni vaqtda yana o'n dollarga chek olib kelgan edi, bu Nyu-York jurnallaridan biri tomonidan allaqachon qabul qilingan yumoristik she'rlarining haqi edi. Martinning miyasiga bir fikr keldi va shu zahotiyoyq uning ustida shoshmay bosh qotirib ko'rdi. U bundan buyon nima qilishini bilmas, unda muayyan bir ish qilish istagi ham yo'q edi. Holbuki, kun ko'rishi, qarz-

larini to'lashi lozim edi. Bu o'n dollarni markaga sarflab, stol ostida uyulib yotgan qo'lyozmalarni yana sayohatga jo'natgani ma'qul emasmikin? Bitta-yarimta qo'lyozmani bironta tahririyat qabul qilib qolsa ajab emas. Bu hol Martinning kun kechirishiga bir qadar imkon bergan bo'lardi. Martin shunday qildi ham. U Oklend bankidan olgan pulga marka sotib oldi. Lekin hujrasiga qaytib borib ovqat pishirish unga juda mushkul tuyuldi. U birinchi marta o'zining qarzдорligiga parvo qilmadi. U uyda o'n besh-yigirma sentga miriqib ovqatlanishi mumkinligini juda yaxshi bilardi. Lekin shunday qilish o'rniga «Forum» kafesiga borib ovqat buyurtirdi, bunga ikki dollar ketdi. Yana u xizmat haqi uchun ofitsiantga yigirma besh sent ham berdi va Misr papirosi uchun ellik sent xarjladi. Ruf chekishni taqiqlagandan buyon Martin chekmay kelardi. Endi esa o'zini chekish lazzatidan mahrum etish uchun hech qanday sabab yo'q, papirosning esa xumori juda tutayotgan edi. Pulni tejashning nima keragi bor? To'g'ri, besh sentga ancha-muncha tamaki bilan qirq chekimga yetadigan qog'oz sotib olish mumkin, ammo bunda nima ma'no bor? Pul uning uchun mutlaqo ahamiyatsiz narsa; pulga hozir, bugun biron narsa sotib olish mumkin edi, xolos! Martin rulsiz va kompassiz qolgan edi, shuning uchun hech qayoqqa shoshmas edi. U oqimga qarab suzib borarkan, hayotni deyarli his qilmasdi; hayotni his qilish esa uning yuragini zirqiratardi.

Bir-biridan farqi bo'lmagan kunlar bir-birini quvalashib o'ta boshladilar; endi Martin sutkasi-

ga sakkiz soatlab uxlardi. U yangi cheklar keli-shini kutib, o'n sent bilan ovqatlanish mumkin bo'lgan yaponlarning restoranchalarida tamaddi qilsa ham, xiyla semirib qoldi. Yuzlari to'lish-di, chunki u endi ko'p uxlar, og'ir mehnat bilan o'zini qiynamasdi. U hech nima yozmas, mutola-qilishi kerak bo'lgan kitoblari esa tokchada tinchgina dam olib yotardi. Martin ko'pincha shahardan chiqib ketib, tepaliklarga borib o'ti-rar, ko'p vaqtini parkda o'tkazardi. Uning na do'stlari va na tanish-bilishlari bor edi, o'zi ham tanish orttirishni istamasdi. Nima keragi bor? U beixtiyor kimningdir turtkisini kutar, bu turtki uning to'xtab qolgan umr soatini yana yurgizib yuborishi kerak edi. Hozircha esa kechirayotgan hayoti zerikarli, g'ashga teguvchi, samarasiz va butunlay ma'nosiz edi.

Bir kun u «asl odamlar» bilan uchrashgani San-Fransiskoga borib kelmoqchi bo'ldi. Lekin ostonaga chiqishi bilan, shartta orqasiga burilib, shosha-pisha habashlar mahallasining gavjum ko'chalaridan yurib ketdi. Hozir yana falsafiy mubohasalarni eshitaman, degan fikrdan shun-day qo'rqib ketdiki, yana o'sha «asl odamlar»dan birontasi uchrab, tanib qolmasin, deb qo'rqqani-dan deyarli chopib ketdi.

Ba'zida u «Efemerida» haqida nimalar yozi-shayotganini bilish uchun jurnal va gazetalarni voraqlardi. Poema katta shov-shuv ko'targan edi. Yana qanaqa shov-shuv deng! Uni hamma o'qib chiqqan va hamma bu poeziyami, yo'qmi, deb mubohasa yuritardi. Mahalliy gazetalalar shu poe-ma munosabati bilan ilmiy maqolalar, kinoyaviy

taqrizlar, gazetxonlarning hayajonli xatlari bilan liq to'lgan edi. Karnaylar sadosi va do'mbiralalar do'pir-do'piri ostida Qo'shma Shtatlarning eng buyuk shoirasi deb e'lon qilingan Elen Della Delmar o'zi minib o'tirgan Pegasda²⁷ Brissenden-ga joy bo'shatishni istamadi va Brissenden aslo shoir emas, deb gazetxonlarga uzundan-uzoq maktublar yozdi.

«Parfenon» o'zining navbatdagi sonida o'zi ko'targan shov-shuvning samarasidan foydalana boshladi, ser Jon Valyuning ustidan kuldi va hayosizlarcha Brissendenning o'limidan reklama sifatida foydalana boshladi. Yarim milliondan ortiq obunachimiz bor deb keriluvchi bir gazeta Elen Della Delmarning Brissenden ustidan kuluvchi poemasini bosib chiqardi. Shu bilan ham ko'ngli tinchimagan shoira «Efemerida»ga hajviy taqlid ham yozdi.

Martin do'stining bu kunlarni ko'rmay o'lib ketganidan qayta-qayta sevinardi. Brissenden olomondan nafratlanardi, endi esa uning qalb orzusi hisoblangan ana shu eng muqaddas asar, shu olomon oyog'i ostida toptalayotgan edi. U ijod etgan nafis asar har ko'ygga solinardi. Har bitta no'noq qalamkash Brissendenning ulug'vor shuhratining shu'lasida xalqqa o'zini ko'rsata olganidan mamnun edi. Bir gazeta shunday deb yozgan edi: «Biz bir jentlmendan maktub oldik, u bundan bir necha yil burun xuddi shunaqa,

²⁷ Pegas – qadimgi yunon afsonasida Zevsning tulpor oti. U tuyog'i bilan depsinganda Ippokren bulog'i paydo bo'lganki, undan oqib chiqqan suv shoirlarga ilhom bag'ishlagan. Pegas – shoirona ilhom arg'umog'i.

ammo birmuncha yaxshiroq poema ijod etgan ekan». Boshqa bir gazeta Elen Della Delmar-ni hajviya yozgani uchun ayblab, jiddiy tarzda shuni qayd etib oʻtgan edi: «Miss Delmar mazkur hajviyani yozganida, buyuk shoir hamma vaqt oʻzga shoirni, ehtimolki, oʻzidan ham ulugʻroq boʻlgan shoirni hurmat qilishi kerakligini unutib qoʻygan boʻlsa kerak. Lekin shu narsa muqarrarki, miss Delmar «Efemerida»ning dovrugʻiga bir qadar hasad bilan qarayotgan boʻlsa ham, oʻzi boshqa hamma odamlar singari ana shu asar taʼsirida yashamoqda va ehtimolki, bir kun kelib uning oʻzi ham shu singari asar yozishga urinib koʻrsa ajab emas».

Vaʼxonlar «Efemerida»ni oʻz vaʼzlari uchun mavzu qilib oldilar, poemani yoqlamoqchi boʻlgan bir voizni gʻayridin deb aybladilar. Buyuk poema muhtaram jamoa uchun ermak boʻlib qoldi. Hazil-mutoyiba sheʼrlar yetkazib beruvchilar va karikaturachilar bir-birlariga gal bermay «Efemerida» mavzuida gazetxonlarni kuldirishga urindilar, feletonchilar ham hozirjavoblik mashqini olishga harakat qilar, ular toʻqigan hikoyaga qaraganda, Charli Frenshem degan bir odam Archi Jenning ismli kishiga bir sir aytganmish: goʻyo «Efemerida»ning besh misrasini oʻqigan odam majruh odamni kaltaklar, oʻn misrasini oʻqisa, oʻzini daryoga otar emish.

Martin kulmas, lekin gʻazabdan tishini ham gʻijirlatmas edi, u faqat ogʻir qaygʻuga botgan edi. Uning matbuotga va gazetxonlarga boʻlgan ishonchining barbod boʻlishi vayron boʻlgan muhabbati oldida hech gap emas edi. Brissenden-

ning jurnallar haqida aytgan fikri to'g'ri chiqdi. Martin esa Brissendenning haqligiga ishonch hosil qilish uchun bekorga shuncha vaqt sarflagan ekan. Jurnallar Brissendenning gumonini tasdiqlabgina qolmay, undan ham oshirib yubordilar. «Nachora, oqibat shu ekan-da», deb o'ziga tasalli berardi Martin ma'yuslanib. U osmoni falakka parvoz qilmoqchi edi, lekin badbo'y botqoqqa qulab tushdi.

Yana ko'z oldida uzoq Taitining go'zal va porloq manzarasi namoyon bo'ldi. Mana, tep-tekis Paumotu orollari, mana bu tog'li Markiz orollari, Martin ko'pincha o'zini savdo kemasi palubasida turganday yoki Papeeta qoyalari yoinki Nukuxivaning marjon sohillari yoqalab Tayoxae ko'rfaziga kichkinagina, nozik katerda ketayotgandek his qilardi; ko'rfazga borsa Tamari uning sharafiga qabon so'yar, Tamarining qizlari esa, o'yin-kulgi bilan qo'shiqlar aytib uni qurshab olishar va gulchambarlar taqib yasantirishardi. Tinch okeani Martinni astoydil o'ziga chorlar, Martin ham bir kun emas bir kun bu chaqiriqqa labbay deb javob berishini bilardi. Hozir esa ulug' ilm-ma'rifat saltanatiga qilgan uzoq, mashaqqatli sayohatidan keyin hordiq chiqarib, oqimga qarab oqib borardi.

Martin «Parfenon»dan kelgan uch yuz ellik dollarli chekni olib, uni Brissendenga vasiy bo'lgan kishiga berdi va tilxat oldi, o'z navbatida, Brissendendan yuz dollar qarz ekanligi haqida unga tilxat berib qo'ydi.

Biroq Martinning yapon restoranchalarida ovqatlanishi barham yegan edi. U endi kurash-

ni to'xtatganda tole unga kulib boqdi. Lekin tole juda kechikib kulgan edi. U «Millenium»-dan kelgan konvertni hech qanday ishtiyoqsiz ochdi, undan uch yuz dollarga chek tushdi. Bu «Sarguzasht»ning gonorari edi. Martinning qarz-lari, ijaraga qo'yilgan qarzlarning foizlari bilan hisoblanganda ham yuz dollarga yetmasdi. Martin shu qarzlarni to'ladi. Brissendenning vasi-yiga yuz dollar yubordi, shundan keyin yonida yana yuz dollar qoldi. Bu uning uchun juda kat-ta pul edi. U o'ziga yaxshi kostyum buyurtirdi va shaharning eng yaxshi kafelarida ovqatlana boshladi. U hamon o'sha Mariyaning uyidagi kichkina hujrada yashardi, lekin egnidagi yan-gi kostyumi qo'ni-qo'shniga shunday zo'r ta'sir ko'rsatdiki, endi bolalar tomdan, devor boshidan turib unga: «sayoq», «ishyoqmas», deb qichqirish-ga jur'at etolmasdilar.

Uning Gavay hayotidan yozilgan «Viki-Viki» hi-koyasini «Uorren oylik jurnali» ikki yuz ellik dol-larga sotib oldi. «Shimol axboroti» uning «Go'zal-lik beshigi»ni bosib chiqardi, «Makintosh» jurnali esa Meriyen sha'niga yozilgan «Fol ochuvchi qiz» she'rini qabul qildi. Muharrirlar va taqrizchi-lar yozgi dam olishdan qaytgan bo'lsalar kerak, qo'lyozmalar g'ayritabiiy tezlik bilan shig'illab keta boshladi. Ikki yil mobaynida qat'iyon rad etilib kelgan bu asarlarning endi surishtirmas-dan qabul qilinishiga Martin hech tushuna ol-masdi. Axir u yozgan narsalardan birontasi ham nashr qilingani yo'q edi-ku. Uni hali ham Ok-lenddan tashqarida hech kim tanimasdi, uning nomini eshitgan oklendliklarning bir qismi «qizil-

lar»dan chiqqan ashaddiy sotsialist deb bilardilar. Bu faqat taqdirning injiqligi edi, xolos.

«Sharmanda bo'lgan quyosh»ni bir necha jurnal ketma-ket rad etgandan keyin, Martin marhum do'stining maslahatini eslab, uni bironta kitob nashriyotiga tavsiya qilmoqchi bo'ldi. Bir qator muvaffaqiyatsizlikdan keyin qo'lyozma eng yirik firmalardan biri «Singltri, Dariley va shirkati» tomonidan bosmaga qabul qilindi. Martinning avans so'rab yozgan xatiga noshir: biz avans bermaymiz, bu singari kitoblar odatda o'z xarajatini ham qoplay olmaydi, shuning uchun ming nusxadan ortiq sota olishimizga ko'zimiz yetmaydi, deb javob yozdi. Martin hisoblab chiqdi: agar kitob bir dollardan sotilsa uning o'n besh foizidan oladigan haqi yuz ellik dollar bo'larkan. Shundan keyin, agar yana yozadigan bo'lsam faqat badiiy asar yozaman, degan qarorga keldi. «Sarguzasht» «Sharmanda bo'lgan quyosh»dan to'rt marta qisqa edi, lekin unga ikki hissa ko'proq haq to'lashdi. Mana, yozuvchilarning gonorarlari haqidagi bir vaqtlar gazetadan o'qigan narsasi axir to'g'ri chiqdi. Birinchi darajali jurnallar chindan ham qo'lyozmani qabul qilish bilan haq to'larkanlar, to'laganda ham juda yaxshi to'lasharkan. «Millenium» jurnali har so'zga hatto ikki sentdan emas, to'rt sentdan to'ladi. Undan keyin, haqiqiy adabiy asar har holda pul edi, uning asarlarini sotib olyaptilar-ku, axir. Shu fikr xayoliga kelganda Martin ma'yus jilmayib qo'ydi.

U «Singltri, Dariley va shirkati» firmasiga: «Sharmanda bo'lgan quyosh»ni yuz dollarga sotishga roziman, keyin kitob tamomila nashriyot

ixtiyoriga o'tadi», deb xat yozdi, ammo nashriyot bu qaltis ishga jur'at etmadi. Shunisi ham borki, Martin pulga muhtoj emas edi, keyingi paytlarda uning yana besh-oltita hikoyasi bosmaga qabul qilinib, puli to'langan edi. Martin hatto bankda bir necha yuz dollar miqdorida joriy hisob raqami ham ochdi. «Kechikkan» uzoq davom etmagan sargardonlikdan keyin Meredit-Louel nashriyotidan o'ziga maskan topdi. Martin Gertrudaga uning besh dollarini yuz hissa oshirib berishga so'z berganini eslab qoldi va nashriyotga besh yuz dollar miqdorida avans yuborishlarini so'rab maktub yozdi. Besh yuz dollarga chek darhol kelganini ko'rib, Martin hayron qoldi. Martin pulni oltin tangaga maydalatib olib Gertrudaga, senda gapim bor edi, deb telefon qildi.

Gertruda judayam shoshganidan halloslab keldi. Xunuk voqea yuz berganini ko'ngli sezib, u bisotidagi arzimagan pulining hammasini sumkasiga solib olgan edi; u Martinning boshiga falokat tushganiga shunchalik ishongan ediki, kelishi bilan boshini ukasining ko'ksiga qo'yib yum-yum yig'lab, olib kelgan pulini uning qo'liga tutqiza boshladi.

– O'zim oldingga borardim-u, lekin mister Xigginbotam bilan janjallashgim kelmadi! – dedi Martin. – Borsam, janjallashmay qolmasdim, albatta!

– Hechqisi yo'q, hademay tinchib qoladi, – deb yupatardi uni opasi va ayni vaqtda Martinga nima bo'lganini bilishga urinardi. – Lekin tezroq ishga kir. Bernard halol mehnat bilan kun kechirgan odamlarni yaxshi ko'radi. O'sha gaze-

tadagi maqoladan fig'oni chiqib ketdi-da. Uning bunaqa kufr bo'lganini hech ko'rmaganman.

– Men ishga kirishni xohlamayman, – jilmayib turib dedi Martin opasiga, – buni mening nomimdan eringga aytib qo'yishing mumkin. Menga hech qanaqa ish kerak emas. Mana senga buning isboti.

Shu gapdan keyin u opasining etagiga yuzta besh dollarli yaraqlagan oltin tangalarni jaranglatib to'kdi.

– Esingdami, tramvayga pulim bo'lmaganda, besh dollar bergan eding? Mana o'sha besh dollaring, yana siyloviga turli yoshdagi ammo bir xil qiymatdagi to'qson to'qqizta aka-ukalari.

Gertruda bu yerga Martindan xavotir olib hovliqib kelgan bo'lsa, endi uni vahima, dahshat chulg'ab oldi. Shubhaga o'rin qolmagan edi. U endi gumon qilmas, uning ishonchi komil edi. U Martinga qo'rquv aralash tiqilib turarkan, go'yo bu oltin tangalar uni jahannam otashiday kuydirayotganday, butun vujudi dag'-dag' titrardi.

– Hammasi seniki! – dedi kulib Martin.

Gertruda faryod solib ho'ngrab yubordi.

– Sho'rlik chirog'im! Sho'rlik bola! – deb yig'lardi u.

Martin bir zumga esankirab qoldi. Lekin shu zahotiyoyq opasining nega hayajonlanayotganini payqab, kitob nashriyotidan kelgan maktubni ko'rsatdi. Gertruda uni zo'r-bazo'r o'qib chiqib, ko'z yoshlarini artdi-da, nihoyat, taraddudlanib so'radi:

– Bundan chiqdi, bu pullarni halol yo'l bilan topgansan-a?

– Bo'lmasam-chi! Men ularni hatto qimor o'ynab yutganim ham yo'q, mehnat qilib topdim.

Opasining yuzi asta-sekin yorishdi, u maktubni diqqat bilan yana o'qib chiqdi. Martin shuncha ko'p pulni qaysi xizmati evaziga olganini tushuntirguncha, juda qiynalib ketdi. Mana shu pullar opasiniki ekanligini, ularga Martin muhtoj emasligini tushuntirish yana ham qiyin bo'ldi.

– Bu pullarni bankka sening nomingga qo'yib qo'yaman, – degan qarorga keldi Gertruda.

– Yo'q! Agar olmasang, Mariyaga beraman. Mariya ularni nimaga xarjlashni biladi. Men uy xodimasi yollab, odamlarday dam olishingni talab qilaman.

– Borib Bernardga aytaman, – dedi Gertruda o'rnidan turarkan.

Martin bir oz xo'mrayib turib, keyin kulib yubordi.

– Ayt, ayta qol, – dedi u, – balki endi mehmonga chaqirar meni.

– Albatta chaqiradi! Ishonchim komilki, endi chaqiradi, – dedi opasi jon-jahdi bilan Martinning bo'ynidan quchoqlab olib.

QIRQ IKKINCHI BOB

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, Martin zeri-ka boshladi. U sog'lom, kuchli erkak edi, ammo qiladigan ishi yo'q edi. U yozishni tark etib, kitoblarga qaramay qo'ygandan keyin, Brissendenning o'limidan va Ruf bilan aloqani uzganidan keyin hayotida teran bir bo'shliq paydo bo'ldi. Bu bo'shliqni u restoranlar, Misr papiros-lari bilan to'ldirishga urinib ko'rdi, lekin urinishlari zoye ketdi. To'g'ri, janubiy dengizlar uni zo'r

berib o'ziga tortar, lekin nazarida, hali bu yerda – Qo'shma Shtatlarda o'yin tugamagandek edi. Yaqinda uning ikkita kitobi bosmadan chiqadi, balki, boshqalarini ham nashr qiladigan topilib qolar. Bu esa pul degani, janubiy dengizlarga jo'nash uchun qopchiqni oltinga to'ldirish kerak, buning uchun yana bir oz sabr qilsa bo'lar edi. U Markiz orollarida bir go'zal vodiyni bilardi, uni ming Chili dollariga sotib olish mumkin edi. U vodi y taqasimon ko'rfazchadan cho'qqilari bulut bilan o'pishgan yuksak tog'larning etaklarigacha cho'zilgan edi. U yerda tropik gullar ochilib yotar, yovvoyi changalzorlarida kakliklar, qabonlar ko'p, tog'larida esa yovvoyi itlar ta'qib qilib yurgan yovvoyi echkilar suruv-suruv bo'lib o'tlab yurardi. Bu tabiatning qo'l tegmagan go'shasi edi. U yerlarga hech odam oyog'i yetmagan edi. Shularning hammasini – vodiyni ko'rfaz bilan birga qo'shib – bir ming Chili dollariga sotib olish mumkin edi.

Yaxshi esida bor, ko'rfaz shamoldan yaxshi to'silgan, o'zi chuqur, yirik okean kemalari ham bu yerda langar tashlashi mumkin, shuning uchun ham Tinch okeani marshruti haqida ma'lumot beruvchi kitobchada bu yer okeanning shu qismidagi eng yaxshi liman deb tavsiya qilingan edi. Martin shxuna – yaxtasimon tezyurar kema sotib oladi-da, marvarid ovlash va kopra sotish bilan shug'ullanadi. Vodiya uning bazasi bo'ladi. U yerda o'ziga sardor Taminikiga o'xshagan qamish kulba quradi va qora tan yerlilardan ishchi yollaydi. U Tayoxaedan kelgan vositachilarni, tijorat kemalarining kapitanlari-

ni, kontrabandistlarni va boshpanasiz oqko'ngil dengizchilarni o'z kulbasida qabul qiladi. Uning dasturxonini yozig'liq bo'ladi, mehmonlarni shohona dabdaba bilan kutib oladi. Ehtimolki, o'sha yerda u ilgari o'qigan kitoblarini va boshdan-oyoq xom xayoldan iborat bo'lgan bu dunyoni unutilib yuborsa.

Lekin buning uchun Kaliforniyada haq deb o'tirib, qopchig'ining oltinga to'lishini kutish kerak. Pul uning hamyoniga endi oqib kela boshlagan edi. Agar hech bo'lmaganda bittagina kitobi yaxshi o'tsa, qolgan qo'lyozmalarini osongina pullaydi. Ham vodiy, ham ko'rfaz, ham shxunaga tezroq muyassar bo'lish uchun yana kichik hikoyalar va she'rlarni to'plab chiqarishi ham mumkin. Endi u hech qachon yozmaydi. Buni Martin qat'iy va uzil-kesil hal qilgan. Lekin hozir kitoblari bosilayotgan paytda biron narsa bilan band bo'lish kerak. Bunday loqaydlik bilan dovdirab yurib bo'lmaydi.

U yakshanba kuni Shell-Mound-parkda g'isht teruvchilarning sayili bo'lishini eshitib qoldi va o'sha yerga bormoqchi bo'ldi. Ilgarilari u bunday sayillarga tez-tez qatnab turardi, shuning uchun bunaqa sayilning qanday o'tishini juda yaxshi bilardi, hozir ham parkka kirishi bilan ko'nglida ko'pdan unutilib yuborgan hislar uyg'onganini sezdi. Harna bo'lganda ham ishchi ahli orasida u begona emas. U shu muhitda tug'ilib, shu muhitda o'sdi, qisqa muddatli judolikdan keyin yana shu muhit quchog'iga kirganidan xursand edi.

– Iye, o'zimizning Mart-ku! – degan ovozni eshitdi u birdan va kimdir do'stlarcha qo'lini uning yelkasi-

ga qo'ydi. – Qayoqlarda yuribsan, qariya! Dengiz safaridamiding, deyman? Qani, o'tir, tortamiz!

Martinning hamma eski ulfatlari shu yerda edi, faqat onda-sonda notanish odamlar uchrab qolar, eski oshnalardan ham ba'zi birlari ko'rinmasdi. Bu ulfatlarning g'isht teruvchilarga hech qanday aloqasi yo'q edi, lekin bir vaqtlardagidek ular raqs tushish, shang'illab u yoqdan-bu yoqdan gaplashish, kuch sinashish mumkin bo'lgan bironta ham yakshanbalik sayilni kanda qilishmasdi. Martin ular bilan ichishib jonlanib ketdi. Ahmoqligidan ulfatlaridan orqada qolgan ekan! Shu daqiqada u, agarda o'z muhitimdan chiqib ketmaganimda, kitobiy ilmlar orqasidan quvib, o'zini mendan yuqori qo'ygan jamiyat kishilari-ga ergashmaganimda, ming karra baxtliroq bo'lardim, deb qat'iy ishonch hosil qildi. Biroq pivo bir vaqtlardagidek mazali emas, ta'mi juda boshqacha edi. Chamasi, Brissenden uni od-diy pivo ichishdan bezdirganga o'xshaydi, balki yoshlikdagi xushchaqchak o'rtoqlari bilan do'stona aloqa qilishdan bezdirgan narsa kitob-lardir? U bunday emasligiga qanoat hosil qilish uchun raqs tushgani pavilonga ketdi. Bu yerda u opasinikida ijaraga turuvchi suvsoz Jimmini ko'rib qoldi; u baland bo'yli sariq soch qiz bilan raqs tushayotgan edi, qiz ham Martinni ko'rishi bilan Jimmini tashlab, u bilan raqs tusha bosh-ladi. Martin bilan sariq soch qiz chirpirak bo'lib o'yinga tushayotganida Jimmining oshnalari uni mazax qila boshlashdi.

– Bo'lgan-turgani shu, – deb javob qildi Jim-mi ularga. – Mening jahlim chiqmaydi. U bilan

diyodor ko'rishganimdan judayam xursandman! Raqs tushishni ham qiyib yuboradi-da, omon bo'lgur! Bironta qiz ham o'zini to'xtatolmaydi!

Lekin Martin insofga kelib, sariq soch qizni Jimmining oldiga yetaklab olib kelib berdi, shundan keyin uchovlari yana besh-oltita do'stlar bilan birga xoxolab kulishib, vaqtichog'lik qila boshlashdi. Hammalari Martinning qaytib kelganidan xursand edi. Hali uning bitta ham kitobi bosmadan chiqqani yo'q edi, demak, ularning Martinga bo'lgan ehtiromi soxta emasdi. Ular uni qanday bo'lsa, shundayligicha sevardilar. U o'zini quvg'indan qaytgan shahzodadek his qilardi, uning tanho qolgan qalbi shu samimiy va bevosita shodlik haroratidan isina boshlagan edi. U sevinganidan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Cho'ntaklarida jiringlagan dollarlarni ochiq qo'l bilan xarjlay boshladi: bir vaqtlar, dengiz safaridan qaytib kelganda ham xuddi shunday saxiylik qilardi.

Martin to'satdan raqs tushayotganlar orasida Lizzi Konollini ko'rib qoldi: u qandaydir bir ishchi yigitning quchog'ida chirpirak bo'lib aylanardi. Bir oz vaqtdan keyin pavilonni aylanib yurib, qizni muzdek ichimliklar ichiladigan stolcha yonida o'tirganini ko'rib qoldi va uning oldiga bordi. Lizzi Konolli uni ko'rib ajablendi va xursand bo'ldi. Ular holahvol so'rashgandan keyin parkka borishdi, u yerda musiqa ovozini bosish uchun baqirib gaplashish shart emasdi. Uchrashuvning birinchi daqiqasidayoq qiz tamomila uning ixtiyorida ekanligi Martinga ayon bo'ldi. Buni qizning chaqrab turgan nam ko'zlarida ham,

harakatlaridagi viqorli itoatkorlikdan ham, Martinning har bir so'zini butun vujudi bilan berilib tinglayotganidan ham payqash mumkin edi. Martinning qarshisida turgan qiz bir vaqtlar u teatrdan uchratgan yoshgina qizga endi o'xshamas edi. Lizzi Konolli endi ayol edi, Martin qizning tiyrak, g'ururli latofati gul-gul yashnab ketganini darhol payqadi; tiyrakligi o'sha-o'sha edi, lekin g'ururini tiyishga o'rganganga o'xshaydi.

– Sohibjamol, haqiqiy sohibjamol, – deb pichirladi beixtiyor zavqlanib ketgan Martin. Qiz hozir Martinning bir imo-ishorasi bilan uning ketidan dunyoning narigi burchiga ham ketishdan toymasdi, buni yigit juda yaxshi tushunardi.

Xuddi shu payt u boshiga kelib tekkan qattiq zarbdan yiqilib tushishiga sal qoldi. Zarb musht bilan urilgan edi, urgan odam Martinning quyi jag'ini mo'ljalga olgan bo'lsa kerag-u, lekin shoshganidan va g'azablanganidan xiyol yanglishganga o'xshaydi. Martin orqasiga o'girilganda raqib ikkinchi marta musht tushirmoqchi bo'lib turgan edi, Martin epchillik bilan chap berib qoldi, musht mo'ljalga tegmadi, shunda Martin chap qo'li bilan raqibini urib yiqitdi. Lekin u yana sapchib o'rnidan turib ketdi. Martin qarshisida turgan bu odamning g'azabdan bujmaygan basharasini ko'rarkan, nima qilib bu odamning achchig'ini chiqardim ekan, deb taajjubda qoldi. Biroq bu taajjub, raqibining hamlasini yana daf qilishga va uni kuch bilan urib qulatilishga xalaqit bermadi. Jimmi va boshqa tanishlar jang bo'layotgan yerga chopib kelayotgan edilar.

Martin zavqlanganidan titrardi. Bir zamonlardagi baxtiyor kunlari: raqslar, o'yin-kulgilar, mushtlashishlar yana qaytib kelgan edi! U raqibini ko'zdan qochirmay turib, yalt etib Lizzi Konolliga qarab qo'ydi. Odatda bunaqa mushtlashishlar paytida qizlar chinqirib yuborishardi, lekin Lizzi chinqirmadi. U nafasini ichiga yutib, butun vujudi bilan oldinga engashgancha qo'lini ko'ksiga bosib qarab turardi, yonoqlari lov-lov yonar, ko'zlari zavq-shavqdan porlardi.

Bu orada, Martinga hujum qilgan odam sakrab o'rnidan turdi, u Jimmi va uning o'rtoqlari qo'lidan chiqishga urinardi.

– Bu qiz meni kutayotgan edi! – deb qichqirdi u g'azab bilan. – Meni kutayotgan edi, manavi shilqim olib ketib qoldi! Qo'yvoring! Men unga onasini ko'rsatib qo'yaman!

– Esingni yeb qo'yibsan! – derdi Jimmi yigitni mahkam ushlab turib. – Bu axir Mart Iden bo'ladi. Sen, yaxshisi, u bilan o'chakishma. Shunaqangi ta'ziringni beradiki, onadan tug'ilganingga pushaymon bo'lib yurasan.

– Nega bo'lmasa qizimni yetaklab ketadi? – deb baqirdi u.

– U sayoq gollandiyalikni yenggan, uning qanaqa yigit bo'lganini o'zing yaxshi bilasan! Uni beshinchi qur olishuvda yiqitdi! Sen bo'lsang bir daqiqa ham bardosh bera olmaysan. Bildingmi?

Bu xabar, aftidan, yigitning bir oz hovurini bosdi; u Martinni boshdan-oyoq diqqat bilan kuzatib chiqdi, hamon chiransa ham endi avvalgi jahlidan tushgan edi.

– Ishonmayman.

– Sayoq gollandiyalik ham mana shunaqa ishonmagan edi, – deb e'tiroz bildirdi Jimmi. – Yur! Parvo qilma bunga! Nima, boshqa qiz qurib qoptimi?

Yigit nihoyat uning gapiga ko'ndi, shundan keyin ulfatlar pavilon tomon ketishdi.

– Kim u? – deb so'radi Martin Lizzidan. – Nega bunchalik g'avg'o ko'tardi?

Martindagi mushtlashishga ishtiyoq yana so'na boshladi, ilgarilari buning aksi bo'lardi. U o'z-o'zini tahlil qilishga odatlanganidak, bevosita his qilish va fikr yuritishdan mahrum bo'lganini e'tirof etib xafa bo'lardi.

Lizzi bosh chayqab qo'ydi.

– Shunday, bir yigit, – dedi u, – keyingi paytlarda u bilan birga yurgan edim.

Bir oz sukutdan keyin yana ilova qildi.

– Shunchaki zerikkanimdan... Lekin men hech esimdan chiqarganim yo'q... – qiz ovozi pasaytirib, ko'zlarini bo'shliqqa tikdi. – Siz turgan yerda unga qiyo ham boqmasdim!..

Martin qizga tikilarkan, hozir qo'l uzatsam bas, quchog'imga otiladi, deb o'ylardi; lekin qizning oddiy so'zlarini tinglarkan, kitobiy tumtaroq so'zlarga shuncha katta e'tibor berish shartmikin, deb o'ylanib qoldi va... qizga javob qilishni unutib qo'ydi.

– Rosa adabini berdingiz-da, – dedi Lizzi kulib.

– Chayir yigit ekan, – oliyjanoblik bilan e'tiroz bildirdi Martin. – Olib ketishmaganda, u bilan ancha-muncha ovora bo'lgan bo'lardim.

– Siz bilan birga ko'rganim o'sha yosh xonim kim edi? – deb so'rab qoldi birdan Lizzi.

– Shunday, bir tanish, – javob berdi Martin.

– Ancha bo‘ldi bunga, – xayolga tolib dedi qiz. – Xuddi bundan ming yil ilgari bo‘lganga o‘xshaydi!

Martin javob qilmay, suhbat mavzuini o‘zgartirdi. Ular restoranga borishdi. Martin vinolar va qimmatbaho taomlar buyurtirdi, keyin to Lizzi charchab qolguncha u bilan, yolg‘iz u bilan raqs tushdi. Martin juda yaxshi raqs tushardi, shuning uchun qiz zavqlanganidan go‘yo qanot hosil qilganday, oyog‘i yerga tegmay chirillab aylanardi; u boshini Martinning ko‘ksiga qo‘yib olgan va bu holat mangu qadar davom etishini istardi. Keyin, ular yana parkka borishdi, u yerda eski va ajoyib odat bo‘yicha qiz maysa ustida o‘tirdi, Martin esa boshini uning tizzasiga qo‘yib yotdi. Bir ozdan keyin u mudrab ketdi, qiz esa butun vujudini qamrab olgan hisga astoydil berilib, mehribonlik bilan uning sochlarini silay boshladi.

Martin birdan ko‘zini ochdi va qizning ko‘zlari latif muhabbat izhor etayotganini payqadi. Qiz avvaliga xijolat tortganday bo‘ldi, lekin shu zahoti hushini yig‘ib olib, Martinga tik va dadil boqdi.

– Shuncha yillardan beri doim sizni kutgan edim, – dedi qiz eshitilar-eshitilmas.

Martin uning rost gapirayotganini, bu ajoyib va go‘zal haqiqat ekanini his qildi. Uning ko‘nglida shayton vasvasa qila boshladi; bu qizni xushbaxt qilish uning qo‘lidan kelardi. Modomiki, baxtiyor bo‘lish uning o‘ziga nasib bo‘lmagan ekan, nechun o‘zgani baxtiyor qilmasin? U Lizziga uylanib, uni o‘zi bilan Markiz orollariga

olib ketishi mumkin edi. U shayton vasvasasiga uchishni judayam xohlardi, lekin allaqanday doxiliy ovoz unga bunday qilmaslikni buyurardi. U o'z xohishiga qaramay, o'z muhabbatiga sodiq qolgan edi. Erkinlik va yengiltaklik bilan o'tgan kunlar adog'iga etdi. Ularni qaytarib bo'lmadi. Martin o'zgarib ketgan edi, qanchalik o'zgargani u faqat hozir angladi.

– Men erlikka yaramayman, Lizzi, – dedi u jilmayib.

Qizning qo'li bir onga to'xtab qoldi, lekin keyin barmoqlari yana uning sochini mehribonlik bilan silay boshladi. Martin qizning yuzida to'satdan shiddatli va keskin ifoda paydo bo'lib, tezda so'nganini, yana yuzlariga mayin qizillik yugurib, ko'zlari muloyim va navozish bilan nigoh tashlaganini payqadi.

Lizzi:

– Men unday demoqchi emasdim... – deb gap boshladi-yu, tutilib qoldi. – Har holda men uchun buning farqi yo'q. Ha, ha, farqi yo'q menga, – deb takrorladi qiz. – Siz bilan do'st bo'lganimdan faxrlanaman. Men siz uchun hamma narsaga tayyorman. Bo'lganim shu – onadan shu fe'lim bilan tug'ilganman.

Martin turib o'tirdi. U qizning qo'lini olib, uni mehribonlik bilan siqdi, lekin bu harakatida ehtiros sezilmasdi, mehribonligi Lizziga sovuq tuyuldi.

– Bu haqda og'iz ochmaylik, – dedi qiz.

– Siz juda ajoyib, oqko'ngil qizsiz, – dedi Martin, – siz bilan do'st bo'lganim uchun men faxrlanishim kerak. Men faxrlanaman, ha! Men

uchun siz bamisoli zulmat ichra bir shu'lasiz, siz menga nisbatan qanchalik insofli bo'lgan bo'lsangiz, men ham sizga nisbatan shunchalik insofli bo'laman.

– Menga nisbatan insoflisizmi, yo'qmi, men uchun baribir. Men bilan ko'nglingiz istagan ishni qilishingiz mumkin. Xohlasangiz, loyga qorishtirib, toptab tashlang. Lekin buni faqat siz qilishingiz mumkin, – dedi qiz boshini viqor bilan adl ko'tarib, – men bolalik chog'imdan o'zimga o'zim xo'jayin bo'lishga odatlanganman.

– Mana shuning uchun ham, men sizga nisbatan insofli bo'lishim kerak, – muloyimlik bilan dedi Martin, – siz shunday chiroyli va oliyjanob qizsizki, men ham sizga nisbatan oliyjanoblik qilishim kerak. Men uylana olmayman va ilgari gidek seva... ha, shunchaki seva olmayman ham. Bugun siz bilan uchrashib qolganimdan juda afsuslanyapman. Lekin o'zga ilojim yo'q. Hech bunaqa bo'ladi deb o'ylamagan edim. Axir sizga munosabatim juda yaxshi-ku, Lizzi, qanchalik yaxshiligini tasavvur ham qila olmaymiz. Bu ham oz, men sizga qoyilman, qarshingizda tiz cho'kaman. Siz ajoyib, chinakamiga ajoyib qizsiz! Lekin bu gaplarni sizga aytib o'tirishdan nima foyda? Mening qo'limdan faqat bir ish keladi. Sizning turmushingiz og'ir bo'lgan. Ijizat bersangiz, yengillashtirsam! – Qizning ko'zlarida shodlik uchqunlari chaq nab yana so'ndi. – Yaqinda men ko'p pul olaman! Juda ko'p pul!

Shu on Martin vodiy va ko'rfazni ham, qamishdan qurilgan kulba va oq yaxtani ham unuttib yubordi.

Bunday o'ylab qaralsa, nima keragiyam bor bularning hammasini! Axir u istagan kemasida istagan tomonga bermalol safarga jo'nab ketishi mumkin.

– Shu... shularni men sizga bermoqchi edim. Siz o'qishga kirishingiz va biron hunar o'rganishingiz mumkin. Stenografistka bo'lishingiz mumkin. Men yordam beraman. Balki, otanangiz hali tirikdir? Men, masalan, ularga baqqollik do'koni ochib berishim mumkin edi. Ko'nglingiz nima tilaydi, aytsangiz bo'ldi, hammasini bajo keltiraman.

Lizzi yoshsiz ko'zlarini bo'shliqqa tikkancha qimir etmay o'tirar, Martinga javob ham qaytar-masdi. Qizning tomog'iga bir narsa tiqilib, nafas olishga xalaqit berardi, shu choq birdan Martin ham qizning qanday ahvolda ekanini tushundi, uning ham tomog'iga bir nima qattiq botdi. Bu haqda gap ochmaslik kerak edi. Martin tavsiya qilayotgan narsa qiz bermoqchi bo'lgan narsa oldida arzimagan matah edi. Martin qizga o'zida ortiqcha bo'lgan narsani tavsiya qilayotgan edi va shu narsasiz ham kuni o'tardi, qiz esa sharmanda bo'lishdan, gunohga botishdan, mangu azobdan ham qo'rqmay butun borligicha o'zini unga topshirayotgan edi.

– Bu to'g'rida gaplashmaylik, – dedi qiz va tomog'iga tiqilib nafas olishiga xalal berayotgan narsadan qutulish uchun yo'talib qo'ydi. – Keta-digan vaqt bo'ldi! Men charchadim!

Sayil tugagan, odamlar deyarli tarqalib bo'lgan edi. Lekin Martin bilan Lizzi daraxtlar orasidan chiqib, o'zlarini kutib turgan bir to'da odamni

ko'rishdi. Martin vaziyatga darrov tushundi. Bu mushtlashishga ko'rilayotgan tayyorgarlik edi. Bu odamlar ularning himoyachilari edi. Hammalari birgalikda parkning darvozasi tomon yo'l oldilar, ulardan sal nariroqda boshqa bir to'da ham darvoza tomon yurib borardi. Lizzining omadi yurishmagan oshig'i tahqirlangani uchun qasos olish maqsadida sheriklarini to'plagan edi. Bir necha polismen to'qnashuv bo'lishini sezib, ikkala to'dani ham San-Fransiskoga boradigan poyezdgacha kuzatib qo'yishdi. Martin O'n oltinchi ko'chada tushib, Oklend tramvayiga chiqib olaman, deb Jimmini ogohlantirib qo'ydi. Lizzi atrofidagi hodisalarga beparvo edi.

Poyezd O'n oltinchi ko'chaning og'zida to'xtadi. Bu yerda yo'lovchilarni kutib turgan tramvay konduktori sabrsizlik bilan zang chalardi.

– Qani, qizni ol-da, juftakni rostla! – deb qichqirdi Jimmi. – Tez bo'l! Ularni biz shu yerda tutib turamiz.

Raqiblar to'dasi avvaliga bu nayrangdan esankirab qolishdi, lekin shu zahotiyoq vagon-dan tushib qochayotganlarning iziga tushishdi.

Tramvayda o'tirgan yo'lovchilar chopib kelib tramvayga chiqqan va burchakdagi ikkita bo'sh o'ringa borib o'tirgan yigit bilan qizga uncha ahamiyat bermadilar. Tramvay zinasiga chiqib olib, vagon haydovchiga:

– Qani, bo'la qol, oshna, hayda tramvayingni! – deb qichqirgan Jimmiga yigit bilan qizning aloqasi borligi hech kimning xayoliga ham kelmasdi.

Oradan bir zum o'tmay Jimmi mushtlarini ishga soldi, tramvayga sakrab chiqib olmoqchi

boʻlgan birinchi harifni daf qildi. Hamma mushtlar ishga tushib ketdi. Jimmining oʻrtoqlari ochiq vagon yoqalab choʻzilgan uzun pillapoyani band qilgan edilar va hujumni mardlarcha qaytarib turardilar. Tramvay qattiq-qattiq zang chalib oʻrnidan qoʻzgʻaldi va Jimmining doʻstlari pillapoyadan sakrab tushib qoldilar. Jang maydoni orqada qolib ketdi, lekin tramvayning bir burchagida oʻtirgan olifta yigit bilan doʻndiqqina ishchi qiz shu janjalning sababchisi ekani bu yerda oʻtirganlarning xayoliga ham kelmasdi.

Toʻqnashuv Martinni hayajonga solib qoʻydi. Uning urishqoqligi qoʻzgʻab ketdi. Lekin bir ozdan soʻng yana odatdagidek qaygʻu-alamga botdi. U qartayib qolgan edi, begʻam yoshlikdagi begʻam oʻrtoqlaridan katta, oralarida bir necha yuz yillik farq bor edi. U nihoyatda uzoq yoʻl bosib oʻtdi, endi orqaga qaytish toʻgʻrisida oʻylab ham boʻlmasdi. Oʻzining bir vaqtlardagi hayot kechirish tarzi ham uni endi qiziqtirmasdi. Avvalgi doʻstlari unga begona boʻlib qolgan edilar. Ularning turmushi, oʻzi ichishni tark etgan arzon pivo singari bemaza edi. U haddan tashqari ilgarilab ketgan edi. Mutolaa qilingan minglab kitoblar goʻyo devor singari ularni bir-birlaridan ajratib turardi. U oʻz ixtiyori bilan oʻzini badargʻa qildi. Aql-idrokning poyonsiz dalalariga sayohat qilish istagi uni qamrab oldi, lekin u yerdan orqada qolgan joyga qaytish uchun imkon yoʻq edi. Biroq u odamgarchilikdan chiqib qolmadi, hamon odamlar uni oʻziga jalb qilardi.

Lekin hozircha uning yangi vatani ham yoʻq edi. Uni doʻstlari ham, qarindoshlari ham bur-

jua davrasidagi yangi tanishlari, hatto o'zi yuksak qadrlab, hurmat qilgan mana bu qiz ham tushunmas edi. Shu haqda u tashvish va alam bilan o'ylardi.

Martin qizni Oltinchi ko'cha bilan Market-strit o'rtasidagi ishchilar mahallasigacha kuzatib qo'yib, u bilan xayrlasharkan:

– Yarashinglar, – deb maslahat berdi.

Bu bilan Martin bugun beixtiyor o'rnini egallagan yosh yigitni nazarda tutayotgan edi.

– Ilojim yo'q... endi, – deb javob qildi qiz.

– Parvo qilmang! – Sho'x ohangda dedi Martin.

– Bir imo qilsangiz bas, g'izillab keladi.

– Gap bunda emas, – deb lo'ndagina qilib aytib qo'ya qoldi qiz.

Bu bilan nima demoqchi bo'lganini Martin shu zahotiyoyq tushunib oldi.

Birdan Lizzi unga talpindi. Bu harakatda talab va hayosizlikni eslatuvchi hech qanday narsa yo'q edi. Bu qo'rqa-pisa qilingan itoatkoro-na harakat edikim, u Martinning yuragini ezib yubordi. Uning tabiatidagi rahmdillik uyg'on-di. U Lizzini quchoqlab astoydil o'pdi; dunyoda shu qiz dudoqlarining bo'sasidan musafforoq va ma'sumroq bo'sa bo'lmagan edi.

– E, xudo, – deb piqillab yig'ladi qiz. – Men siz uchun jonimni qurbon qilardim!.. Jonimni ayamasdim.

Qiz birdan Martinning bag'ridan otilib chiq-di-da, darvozaga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Martinning ko'zlari namlandi.

– Martin Iden, – deb g'o'ldiradi u, – sen hech qanday yovvoyi ham emassan, sendan durustgi-

na nitssheparast ham chiqmaydi. Sen shu qizga uylanib, uni xushbaxt qilishing kerak edi, u baxtga talpinyapti. Lekin bu sening qo'lingdan kelmaydi. Bu albatta uyat va sharmandalik! «Darbadar qariya nola chekadi», deb g'oldiradi u Genlini eslab: «Hayotimiz xato-yu sharmandalikdan iborat». Ha, hayotimiz xato-yu sharmandalikdan iborat!

QIRQ UCHINCHI BOB

«Sharmanda bo'lgan quyosh» oktyabr oyida bosmadan chiqdi. Martin noshir tomonidan yuborilgan oltita kitob solingan pochta banderolini ocharkan, qalbi iztirobda, ko'ngli g'ash edi. Mabodo, shu hodisa bundan bir necha oy burun sodir bo'lganda qanday zo'r shodlikka sababchi bo'lardi, ammo hozirgi sovuq loqaydligim o'sha shodlikka aslo o'xshamaydi, deb o'ylardi u. Qarshisida, stol ustida uning kitobi, uning birinchi kitobi yotardi, yuragi esa hech voqea sodir bo'lmaganday bir me'yorda tepar va hasratdan boshqa narsani sezmas edi. Endi buning ahamiyati qolgani yo'q. Juda nari borganda, bu kitob uchun pul oladi, xolos, lekin endi unga pulning nima keragi bor?..

U kitobining bir nusxasini olib, oshxonaga chiqdi-da, uni Mariyaga hadya qildi.

– Bu kitobni men yozganman, – deb tushuntira boshladi u ayolning hayron bo'lib turganini ko'rib. – Men buni mana shu hujrada yozganman, o'ylaymanki, siz bergan sho'rva buni yozishimda menga katta darmon bo'lgan. Buni olib saqlab

qo'ying. Ko'zingizga tushgan paytlarda meni eslab turasiz.


Mariya oldida maqtanishni Martin xayoliga ham keltirmagan edi. U faqat bu ayolning ko'nglini ko'tarib qo'ymoqchi, uzoq yillik ishonchini oqlamoqchi edi. Mariya kitobni mehmonxonaga olib kirib, oilada saqlanadigan tavrot yoniga qo'ydi. Uyida istiqomat qilgan kishi tomonidan yozilgan bu kitob uning uchun muqaddas bir xotira, do'stlik ramzi edi. Endi Mariya hatto Martinning bir vaqtlar kirxonada oddiy ishchi bo'lib ishlaganini ham unutib yuborgan edi. U kitobning biron satrini ham tushunmas, lekin shunga qaramay, uning har bir satri ajoyib deb qat'iy ishonardi. Bu oddiy, soddadil, zahmatkash ayol juda qimmatli bir fazilatga – odamlarga ishonish fazilatiga ega edi.

Martin muallif nusxalarini qanday loqaydlik bilan qarshi olgan bo'lsa, gazeta-jurnallarda uning asarlari haqida bosilgan fikr-mulohazalarni ham shunday loqayd qarshi oldi; gazetadagi mulohazalarni qirqib tegishli odamlarga yuborish shobasi Martinga har haftada bunaqa mulohazalardan ancha-munchasini yuborib turardi. Kitob juda katta shov-shuvga sababchi bo'ldi, bu yaqqol ko'rinib turardi. Ha, durust, demak, Martinning qopchig'i tezroq oltinga to'ladi. Lizzini durustroq yerga joylashtirish mumkin, hamma bergan va'dalarini bajarishi va axiri qamishdan qurilgan saroyiga borib joylashishi mumkin.

«Singltri, Dariley va shirkati» nashriyoti ehtiyot shart deb atigi bir yarim ming nusxa bosgan edi, lekin dastlabki taqrizlar chiqishi bilanoq, uni

ikkinchi marta, uch ming nusxada nashr qilishga to'g'ri keldi, oradan ko'p vaqt o'tmay uchinchi marta, bu safar besh ming nusxada nashr qilindi. London firmalaridan biri kitobning inglizcha nashri haqida muzokara yurita boshladi. Fransiya, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlaridan esa kitobni tarjima qilish shartlari haqida maktablar kela boshladi. Meterlink ta'limoti o'z vaqtida tanqid qilina boshlangan edi. Shiddatli munozara avj oldi. Salibi bilan Gekkel birinchi marta Martinga maslakdosh bo'lishib, «Sharmanda bo'lgan quyosh»ni yoqlab chiqishdi. Kruks bilan Uolles qarshi chiqishdi, ser Oliver Loj esa o'zining xususiy kosmik falsafasi foydasi uchun murosa-ga kelish yo'lini axtara boshladi. Meterlink tarafdorlari mistitsizm bayrog'i ostiga to'planishdi. Go'yo bu urf tusini olgan mavzuni betaraf turib sharhlovchi bir qator maqolalar yozgan Chesterton butun jahonni kuldirdi, Bernard Shou esa o'zining o'tkir mutoyibalari selini xaloyiq boshiga yog'dirdiki, bu sel bahslashuvchilarni ham, bahs mavzuini ham ko'mib ketishiga sal qoldi. Bu yirik namoyandalardan boshqa maydonga kichikroq arboblardan ham otilib chiqqani haqida gapirib o'tir-masa ham bo'ladi, xullas, bu shov-shuv butun olamga taraldi.

«Bunaqa voqea hech qachon bo'lgan emas, – deb yozgan edi «Singltri, Dariley va shirkati» firmasi, – tanqidiy-falsafiy kitob xuddi romandek tarqalyapti. Bunday munosib mavzuni topish qiyin, buning ustiga, mavjud vaziyatning haddan tashqari qulayligi ham qo'l keldi. Ko'nglingiz to'q bo'lsin, vaziyatdan imkoni boricha yaxshiroq



foydalanib qolishga harakat qilamiz. Qo'shma Shtatlar bilan Kanadada kitobingiz qirq ming nusxada tarqaldi, hozirgi paytda yigirma ming nusxada yangi nashri bosilyapti. Biz kitobxonlar ehtiyojini qondirishga zo'rg'a ulguryapmiz. Ikkinchi tomondan esa, ehtiyojni oshirish uchun o'zimiz ham ozmuncha harakat qilganimiz yo'q. Biz reklama uchun besh ming dollardan ortiq pul sarfladik. Bu kitob rekord qo'yadi.

Ushbu bilan birga sizning navbatdagi kitobingiz uchun shartnoma loyihasini qo'shib yuborish sharafiga muyassar bo'ldik. Gonoraringiz miqdorini yigirma foizga oshirganimizga e'tibor bering – bu bizning nashriyotimizdek yirik shirkatninggina qo'lidan keladigan eng yuqori gonorar. Agar shartimizni maqbul ko'rsangiz, marhamat qilib, shartnomaga kitobingizning nomini yozsangiz. Biz kitobingizning mazmuni haqida hech qanday shart qo'yimoqchi emas-miz. Istagan mavzudagi, istagan kitobingizni yozavering. Agar bironta tayyor asaringiz bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Paysalga solish kerak emas. «Temirni qizig'ida bos», deganlar.

Siz imzo chekkan shartnoma qo'limizga tegishi bilan besh ming dollar miqdorida avans yuboramiz. Ko'rib turibsizki, biz sizga ishonamiz va mas'uliyatdan qo'rqmaymiz. Balki siz bilan jami asarlaringizni muayyan bir muddatga, chunonchi, o'n yil muddat ichida faqat bizning nashriyotda nashr etish huquqi haqida maxsus kelishib olarmiz. Xo'p, bu masalaga yana qaytamiz».

Martin maktubni chetga qo'yib, hisob-kitob bilan shug'ullana boshladi va o'n besh sentni olt-

mish mingga ko'paytirgan edi, hosil to'qqiz ming dollar bo'ldi. U shartnomaga «Shodlik tutuni» deb yangi kitobining nomini yozdi-da, imzo chekdi va uning yoniga yigirmata kichik hikoyalarini qo'shib, noshirga yubordi; bularni u gazeta feletoni yozish usulini topmasdan oldin yozgan edi. Natijada, Amerika pochtaga xos sur'at bilan besh ming dollarga chek keldi.

– Bugun soat ikkida men bilan shaharga borsangiz, Mariya, – dedi Martin chekni olgach. – Yoki yaxshisi, rosa soat ikkida siz bilan O'n to'rtinchi ko'cha bilan Brodvey muyulishida uchrashsak.

Mariya tayinlangan vaqtda yetib bordi, u nima gap ekan, deb juda qiziqsina boshlagan edi, ammo qancha o'ylamasin, gumoni yangi poyafzaldan nari o'tmadi. Shuning uchun ham Martin poyafzal do'koni yonidan o'tib ketib, uni qandaydir bir mahkamaga boshlab kirganida Mariyaning hafsalasi pir bo'ldi.

Shundan keyin yuz bergan voqealar Mariyaning xotirasida ajoyib tush singari umrbod saqlanib qoldi. Bashang kiyingan jentlmenlar Mariyaga ehtirom bilan jilmayishib, Martin bilan va o'zaro suhbatlashishardi. Mashinka chiqillardi. Aftidan, juda muhim ko'ringan bir qog'ozga imzo cheka boshlashdi. Mariya yashab turgan uyning egasi ham shu yerda edi, u ham imzo chekdi.

Ular ko'chaga chiqishganda uy egasi Mariyaga dedi:

– Ana endi, Mariya, bu oy menga yetti yarim dollar ijara haqi to'lamaysiz.

Mariya taajjubdan lol bo'lib qoldi.

– Bundan keyingi oylarda ham to‘lamaysiz, – deb davom etdi uy egasi.

Go‘yo uy egasi unga shafqat ko‘rsatganday, Mariya unga minnatdorchilik bildira boshladi. Lekin u faqat uyga kelib, qo‘ni-qo‘shnilari bilan va birinchi galda portugaliyalik baqqol bilan gaplashgach, shuncha yildan beri ijara haqi to‘lab, yashab kelayotgan shu kichkinagina uy bundan buyon o‘zining xususiy mulkiga aylanganini tushundi.

Tramvaydan tushib uyga ketayotgan Martinni ko‘rgan portugaliyalik uni o‘z do‘stidek chaqirdi:

– Negi: Endi mendan hech nima sotib olmayapsiz?

Martin, hozir uyda ovqat pishirmayapman, dedi, shundan keyin baqqol uni o‘zi bilan bir shisha vino ichishga taklif etdi. U Martinni do‘konidagi eng yaxshi vino bilan siyladi.

– Mariya, – dedi o‘sha kuni kechqurun Martin, – men uyingizdan ketyapman. O‘zingiz ham yaqinda bu yerdan ketasiz. Endi uyingizni birona odamga topshirib, oyma-oy ijara haqi olib turishingiz mumkin. San-Leandrodami, yo Xeyuordsdami, sut xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi akangiz bor edi, shekilli? Gap bunday, mijozlaringizning kirlarini yuvmasdan – tushun yapsizmi? Yuvmasdan qaytarib bering-da, o‘sha San-Leandroga yoki Xeyuordsga, xullas, akangizning oldiga jo‘nang... Ayting, men u bilan gaplashishim kerak. Men Oklendda «Metropol» mehmonxonasida turaman. Balki, ko‘z ostiga olib qo‘ygan durustroq sut fermasi bordir.

Mana, Mariya ham uy-joyli, ham fermali bo'lib oldi; uning qo'lida og'ir ishlarni bajaruvchi ikkita ishchi ishlardi, bankdagi joriy hisob raqami esa bolalarining endi durust kiyingan bo'lishiga va maktabga qatnashiga qaramay, tobora o'sib borardi. Hayotda afsonaviy shahzodani uchratish kamdan-kam odamga nasib bo'ladi. Lekin og'ir mehnatdan boshi gangib qolgan va hech qanday shahzodani xayoliga ham keltirmagan Mariya shunday shahzodani sobiq kirxona ishchisi siy-mosida uchratdi.

Bu orada jamoatchilik Martin Iden kim o'zi deb qiziqib qoldi. U noshirlarga o'zi haqida biografik ma'lumot berishdan bosh tortdi, lekin gazetalar-dan qutulish unchalik oson emasdi. U Oklend-da tug'ilgan edi, shuning uchun muxbirlar Martinni bolalik chog'idan biladigan ancha-muncha odamlarni qidirib topishdi. Shunday qilib, gazetalarda uning kim bo'lgan-u, kim bo'lmagani; nima ish bilan shug'ullangan-u nima bilan shug'ullanmagani haqida mufassal ma'lumotlar bosila boshladi. Maqolalar rasm va fotosuratlar bilan bezatildi, bir vaqtlar Martinni suratga olgan uddaburron fotograf topildi, endi u suratlarini boplab pullab turardi. Martin avvaliga bu shov-shuvga qarshi chiqdi, u hanuzgacha jurnallarga va burjua jamiyatiga adovat ko'zi bilan qarardi. Lekin bora-bora ko'nikib qoldi, shunday qilsa suyagi tinchroq bo'larkan. Maxsus musohaba uchun juda uzoqlardan kelgan muxbirlarni qabul etmaslik unga o'ng'aysiz bo'lib tuyulardi. Bundan tashqari, u yozuvchilikni tark etib, kitob mutolaasini yig'ishtirib qo'ygandan buyon kun-

lari shu qadar sekin o'tardiki, vaqtini biron narsa bilan band qilishi kerak bo'lib qoldi. Shuning uchun ham unga ermak kerak edi: jurnalistlar bilan musohaba yuritib, o'zining adabiy va falsafiy nazariyasini izhor etar, hatto badavlat burjua xonadonlarining takliflarini ham qabul qilar edi. Birdan u o'zini benihoya xotirjam his eta boshladi. Unga hech narsa ta'sir qilmas edi. U hammani va hamma narsani kechirdi, hattoki bir vaqtlar uni xavfli sotsialist deb tasvirlagan yosh muxbirning ham gunohidan o'tib, fotosuratlar bilan bezalgan bir sahifali suhbat o'tkazdi.

Martin ora-sira Lizzi bilan ko'rishib turardi, lekin qiz uning bu qadar mashhur bo'lib ketganidan afsuslanayotganini Martin tushunardi. Ular o'rtasidagi jarlik yana ham kengaydi. Ehtimolki, Lizzi ana shu jarlik ustiga ko'prik tashlash maqsadida Martinning gapiga kirib, kechki maktabga va stenografistkalar kursiga qatnay boshlagandir; eng mohir mashinachiga juda qimmat ko'ylak tiktirganining boisi ham shudir. Qizning tez sur'at bilan ilmni o'zlashtirishi, oxiri, Martinni to'g'ri ish qilyapmanmi o'zi, deb o'ylashga majbur etdi. Lizzi nimaiki qilsa, hammasini Martin tufayli qilardi, buni Martin yaxshi bilardi. Qiz uning ko'z oldida yuksalishni istar, Martin qadrlaydigan xislatlarni kasb etishni istardi. Martin esa, uni aslo umidvor qilmas, u bilan juda kamdan-kam uchrashar, uchrashgandayam doim xuddi aka singilga qanday muomala qilsa, shunday muomalada bo'lardi.

«Kechikkan»ni Meredit-Louel nashriyoti bosib chiqargan paytda Martin shuhrat cho'qqisida

edi, bu povest badiiy asar bo'lgani uchun, «Sharmanda bo'lgan quyosh»dan ham ko'proq muvaffaqiyat qozondi. Martinning bu ikkala kitobi ham bestsellerlar²⁸ orasida birinchi o'rinda turardiki, bunday hol deyarli hech qachon sodir bo'lmagan edi. Qiziqarli kitob shinavandalari ham, «Sharmanda bo'lgan quyosh»ning muxlislari bo'lgan jiddiy kitobxonlar ham povestni zavq bilan o'qisharkan, uning kuchi va muallifning g'ayritabiiy mahoratidan hayratga kelishardi. Martin Iden yaqinginada mistitsizmga nazariy jihatdan muvaffaqiyatli hujum qilgan edi; endi u chinakam adabiy asarning qanday bo'lishini amalda ham isbot qilib berdi. Shunday qilib, unda tanqidchilik iste'dodi bilan badiiy mahorat birga qo'shilgan edi.

Martin buyuk adabiyot ufqidan misoli porloq yulduzdek uchib o'tardi. Pul degan daryoday oqib kelar, shuhrati mislsiz ortib borardi, ammo bu narsalar uni quvontirishdan ko'ra, ko'proq ermakka o'xshab ko'rinardi. Arzimagan bir hodisa uni hayratda qoldirdi, bu hodisa ovoza bo'lsa jamoatchilikni ham qattiq hayratda qoldirishi muqarrar edi. Ammo jamoatchilikni bu hodisaning o'zi emas, balki bu hodisadan Martinning hayratda qolgani ajablantirgan bo'lardi... Sudya Blount Martinni uyiga ovqatga taklif qildi! Bu ahamiyatsiz voqea oradan ko'p o'tmay Martin uchun buyuk ma'no kasb etishi lozim edi. Axir u sudya Blountni haqorat qilgan edi-ku, unga yomon muomala qilgan edi-ku, endi bo'lsa sudya

²⁸ Bestsellerlar – ko'p nusxada bosiluvchi bozori chaqqon kitob.

Blount ko'chada unga to'qnash kelib, uni ovqatga taklif qildi. Martin sudya bilan Morzlarnikida tez-tez uchrashib turganini va o'shanda Martinni uyiga ovqatga taklif qilish uning xayoliga ham kelmaganini esladi. «Nega axir o'shanda taklif qilmagan edi meni?» deb Martin o'ziga o'zi savol berardi. Axir u hech ham o'zgargani yo'q-ku. Haliyam o'sha-o'sha Martin Iden-ku. Sabab nima? Sabab faqat endi asarlari bosilib chiqayotganidami? Ammo u asarlarini allaqachonlar yozgan edi-ku. O'shandan beri hech nima yozgani ham yo'q. Hamma yaxshi asarlarini u o'sha paytda, sudya Blount umumning fikriga qo'shilib, Martinning mulohazalari ustidan va Spenserga ixlosmand bo'lganidan kulgan paytlarda yozgan edi-ku. Bundan chiqdi, sudya Blount uni haqiqiy xizmatlari uchun emas, aslida o'sha xizmatlarining in'ikosi tufayli taklif qilibdi-da.

Martin taklifni tabassum bilan qabul qildi-yu, o'zining ko'ngilchanligiga hayron bo'ldi. Dasturxon atrofida olti-yettita e'tiborli zotlar xotinlari va qizlari bilan o'tirardilar. Martin hammaning diqqat markazida ekanligini darhol sezib qoldi. Sudya Blount Martinga: sizni o'zimizning «Otiks» klubimizga a'zo qilib ro'yxatga olishga ijozat bersangiz, dedi; sudya Xenuel hamkasbining taklifini qizg'in ma'qulladi: bu klubga kirish uchun baddavlat bo'lishning o'zi kifoya qilmay, yana biron sohada shuhrat ham qozongan bo'lish shart edi.

Martin yana taajjublandi, lekin taklifni rad etdi.

U hamon qo'lyozmalarini tarqatish bilan mashg'ul edi. Noshirlar unga maktub ketidan maktub

yuborib, hol-joniga qo'yishmasdi. Hamma yakdillik bilan, uni eng ajoyib uslubchi der, asarlarining go'zal shakli ostida boy mazmun borligini e'tirof etardi. «Shimol axboroti» jurnali «Go'zallik beshigi»ni bosib bo'lgach, shu tarzdagi maqolalaringizdan yana bir nechasini yuboring, deb unga murojaat qildi, Martin o'z cho'ntagini titkilab, endi bu iltimosni qondirmoqchi bo'lib turgan edi, shu choq «Berton» jurnali qizishib ketib, uning beshta maqolasini har biriga besh yuz dollardan gonorar to'lash sharti bilan o'z jurnalida bosishni taklif qilib qoldi.

Martin, agar besh yuzdan emas, ming dollardan to'lasalar rozi ekanligini bildirib, xat yozib yubordi. Hozir talash bo'layotgan qo'lyozmalari bir vaqtlar aynan shu jurnallar tomonidan rad etilgani uning esida edi. Martin jurnallardan kelgan loqayd, bir xildagi javob xatlarini unutgani yo'q edi. Ular Martinni ozmuncha qiynashdimi, endi u ham o'sha noshirlarni qiynagisi keldi. «Berton jurnali» beshta maqola uchun uning o'zi aytgan miqdorda haq to'ladi, qolgan yana to'rtta maqolani aynan shu shart bilan «Makintosh oyligi» jurnali ilib olib ketdi. «Shimol axboroti» kambag'al jurnal edi, ular bilan bellasha olmasdi. Shu yo'sinda «Ajoyibot fidoyilari», «Xayolparastlar», «O'z shaxsimiz me'yori», «Xom xayollar falsafasi», «Xudo va hayvon», «San'at va biologiya», «Tanqid va bir yog'i berk shisha naycha», «Yulduzlar to'zoni», «Sudxo'rlik qudrati» maqolalari nashr etildi.

Noshirlar shart qo'yishni Martinning o'zidan iltimos qilishardi, u ham buni bajonu dil baja-

rardi. Lekin faqat ilgari yozgan asarlarini bosti-rardi. Har qanday yangi ishdan u qat'iyon bosh tortardi. Qo'lga yana qalam olishni o'ylasa, yuragi siqilib ketardi. U olomon qurboni bo'lgan Brissendeni hech unutmagan yo'q, shuning uchun ham hamon olomondan hazar qilar va nafratlanardi, holbuki, xalq uni olqishlardi. Hatto Martin o'z shonu shuhratini Brissenden xotirasiga nisbatan tahqir deb bilardi. U jirkanar, ammo qopchig'ini oltinga to'lg'azishga qat'iy qaror qilgani uchun hech narsadan tortinmasdi.

Martin bir necha marta noshirlarning ushbu mazmundagi maktublarini oldi:

«Bundan bir yilcha muqaddam biz sizning bir turkum lirik she'rlaringizni nashr etishdan voz kechib baxtsizlikka uchragan edik. She'rlaringiz o'shanda ham bizda zo'r ta'sir qoldirgan bo'lsa ham, lekin ba'zi sabablarga ko'ra jurnalda bosa olmagan edik. Mabodo, o'sha she'rlaringiz hali chop qilinmagan bo'lsa-yu, siz marhamat qilib ularni bizga yuborishga rozilik bildirsangiz, biz ularni zudlik bilan bosib chiqaramiz va siz iltifot ko'rsatib belgilagan miqdorda gonorar yuboramiz. Biz ularni siz uchun maqbul bo'lgan shart bilan alohida kitob qilib chiqarishga ham rozimiz».

Martin o'zi yozgan she'riy tragediyani eslab qoldi va she'rlar o'rniga shuni yubordi. U asarini yuborishdan oldin o'qib chiqib, uning naqadar sayoz yozilgani va tumtaraq so'zlar to'lib yotganidan hayratda qoldi. Lekin shunga qaramay tragediyani yuboraverdi, jurnal esa uni bosib chiqardi, bosib chiqarishga chiqardi-yu, keyin qattiq pushaymon bo'ldi. Jurnalxonlar nafratlanib, bun-

day bemaza narsani ma'lum va mashhur Martin Iden yozganiga ishonmadi. Bu qip-qizil qalloblik yoki Martin Iden Ota-Dyumaga taqlid qilib, o'zi uchun asar yozishni boshqalarga topshirgan, deb qichqira boshlashdi. Lekin Martin, bu asarini yoshligida, adabiyotga atak-chechak qilib kirgan chog'ida yozganligini e'tirof etib, noshirlar hech hol-joniga qo'ymaganlari uchungina matbuotda paydo bo'lib qolganini tushuntirgan edi, hamma qah-qah urib kula boshladi, natijada jurnal o'z muharririni yangilashga majbur bo'ldi. Tragediya alohida kitob bo'lib chiqmadi, ammo Martin Iden noshirga aslo rahm qilmay, olgan avansini qaytarib bermadi.

«Kolmen haftaligi» unga kamida uch yuz dollarga tushgan uzundan-uzoq telegramma yuborib, unga yigirmata ocherk yozishni tavsiya qildi va har bir ocherk uchun ming dollardan va'da qildi. Buning uchun Martin nashriyot hisobiga Qo'shma Shtatlar bo'ylab sayohat qilishi va o'zi qiziqqan mavzularni tanlashi kerak edi. Telegrammada nashriyot rejalarining naqadar keng va rang-barang ekanini ko'rsatish uchun bir necha taxminiy mavzular sanab o'tilgan edi. Martinning oldiga qo'yilgan birdan-bir shart Qo'shma Shtatlar hayotini aks ettirish edi.

Martin bunga javoban nashriyot hisobiga telegramma yuborib, unda bu ajoyib taklifdan foydalana olmasligidan qattiq afsuslanishini bildirdi.

«Uorren oylik jurnali»da bosilgan «Viki-Viki» povesti nihoyatda zo'r muvaffaqiyat qozondi. Jurnaldan keyin ko'p o'tmay nafis bezaklar bilan alohida kitob qilib bosilib chiqqan nashri bir

necha kun ichida sotilib bo'ldi. Hamma tanqidchilar, bu asar «Shisha ichidagi jin» va «Shagren terisi» kabi klassik adabiyot durdonalari bilan bir qatorda turishga arziydi, deb bir og'izdan e'tirof eta boshladilar.

Biroq «Shodlik tutuni» hikoyalar to'plami bir-muncha taajjub bilan, hatto sovuq qarshi olin-di. Burjuaziya jamiyati haddan tashqari dadil xulosa chiqarilganidan va bid'atlarga tamomila iltifotsizlikdan xijolatda edi. Lekin Parij bu asar-ning endigina bosilib chiqqan fransuzcha tar-jimasiga mahliyo bo'lib qolgan vaqtda, Angliya bilan Amerika ham to'plamga mahkam yopishib oldi, ana shunda Martin «Singltri, Dariley va shirkati» nashriyotidan uchinchi kitobi uchun yigirma besh, to'rtinchi kitobiga esa o'ttiz foiz haq talab qildi. Bu ikki to'plamga Martinning turli jurnallarda bosilgan hamma hikoyalari kirdi. «Qo'ng'iroq sadosi» va hamma «dahshatli» hikoyalari birinchi tomni tashkil qildi. Ikkinchi tomga «Sarguzasht», «Qozon», «Hayot sharobi», «Girdob», «Quvnoq ko'cha» va yana bir necha hikoyalari kirdi. Bundan tashqari uning ham-ma maqolalari bir to'plam, she'rlari ham bir to'plam bo'lib chiqdi, she'r to'plamiga «Dengiz qo'shiqlari» va «Muhabbat sonetlari» kirdi. Mar-tin «Muhabbat sonetlari»ni kitobga kiritishdan oldin «Xotin-qizlar hamrohi» jurnalida bostirib juda katta gonorar olgan edi.

Martin eng oxirgi qo'lyozmasini ham pullagach, yengil nafas oldi. Qamish saroy ham, oq yaxta ham endi qo'l cho'zsa etadigan bo'lib qoldi. Axiy-

ri u Brissendenning bironta chinakam badiiy asar jurnallarda bosilmaydi, degan fikrini har holda rad etdi-ku. Brissendenning yanglishganini o'z shaxsiy tajribasida aniq ko'rdi. Shunday bo'lsa ham, ichida do'stining haq gapirganini Martin e'tirof etardi. Axir Martinning muvaffaqiyatga erishishiga asosan «Sharmanda bo'lgan quyosh» sababchi bo'ldi-da. Qolgan hamma asarlari tasodifan o'ziga yo'l topdi. Axir aynan shu asarlarining o'zi ko'p yillardan beri muttasil hamma jurnallar tomonidan rad etib kelingan edi-ku. Lekin «Sharmanda bo'lgan quyosh»ning bosilib chiqishi shov-shuv ko'tarib, jonli munozaraga sababchi bo'ldi, Martinning nomini chiqardi. «Sharmanda bo'lgan quyosh» bosilmaganda mubohasa bo'lmasdi; kitobning muvaffaqiyat qozonishi aslida bir mo'jiza bo'ldi. Buni hatto «Singltri, Dariley va shirkati» ham e'tirof etayotgan edi. Birinchi dafa asarni bir ming besh yuz nusxadan ortiq bosishga bu noshirlar ham jur'at etmagan edi; tajribakor noshirlar kitobning bu qadar muvaffaqiyat qozonganidan hayratda qolgan edilar. Bu muvaffaqiyat ularga chindan ham mo'jiza bo'lib tuyuldi. Ular keyinchalik ham shu taassurot ostida yashadilar, shuning uchun ularning har bir maktubida Martinning sirli muvaffaqiyatidan hurmat aralash ajablanganlari sezilib turardi. Ular buning sababini izohlashga ham urinmasdilar. Bu o'rinda izohning bo'lishi mumkin emas edi. Voqea yuz bergan edi, vassalom. Jami ehtimol va taxminlarga qarshi o'laroq yuz bergan edi.

Martin o'z shuhratiga unchalik mahliyo bo'lmas edi. Uning kitoblarini burjuaziya o'qir, qopchig'ini oltinga to'ldirayotgan ham shu burjuaziya edi, Martin esa burjuaziyani yaxshi bilardi, shuning uchun ham, asarlarimning nimasiga qiziqishyapti o'zi, deb hayron bo'lardi. Uni ko'klarga ko'tarib maqtagan va kitoblarini talashib sotib olayotgan yuz minglab kishilar uchun bu kitoblarning nafisligi va mazmunining mutlaqo ahamiyati yo'q edi. Martin shunchaki taqdirning arzandasi edi, xudolarning angrayib qolganligidan foydalanib Parnasga minib olgan shuhrattalab edi. Shu yuz minglab kishilar uning kitoblarini o'qib, hayratda qolardilar, bir vaqtlar xuddi shu odamlar Brissendenning «Efemerida»siga aynan shunday hayvoniy befahmlik bilan tashlangan va uni tilka-pora qilgan edilar, bular odam emas, birovning oldida xushomad qilib dumini likillatuvchi, boshqalarni esa g'ippa tomog'idan tishlab oluvchi razil bo'rilar galasidir. Bular hammasi tasodif! Martin «Efemerida»ning o'zi yaratgan hamma asarlardan benihoya yuksak ekanligiga ilgari qanday ishongan bo'lsa, hozir ham shunday qattiq ishonardi. U asar Martin ijod eta olgan hamma asarlardan yuksakda edi, bu butun bir davrni ifoda eta olgan poema edi. Bas, shunday ekan, kechagina «Efemerida»ni balchiqqa qorib tashlagan olomonning Martin asarlariga sajda qilishi qanchalik qiymatga ega? Martin ko'ngli taskin topib, yengil nafas oldi. Eng oxirgi qo'lyozmasi ham sotilib bo'ldi, endi hademay bu ishlarning hammasiga xotima bersa bo'ladi.

QIRQ TO‘RTINCHI BOB

Mister Morz Martin bilan «Metropol» mehmonxonasining vestibulida uchrashib qoldi. Bu yerga u tasodifan kelganmidi yoki ko‘nglida Martin Idenni uchratish niyati bormidi – Martin ikkinchi ehtimolga moyil edi – lekin har na bo‘lsa ham, mister Morz – Rufning otasi, o‘z uyiga qo‘ymagan, nikoh fotijasini buzgan o‘sha mister Morz uni uyiga taklif qildi!

Martin achchiqlanmadi. U hatto o‘zini rangandek ham his qilmadi. U sabr bilan mister Morzning taklifini tinglarkan, bosh egib kelish bu sho‘rlikka oson bo‘lmagan bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. U taklifni rad etmadi, balki g‘ayri muayyan gaplar bilan tashakkur bildirdi, so‘ng butun oilaning, birinchi galda missis Morz bilan Rufning hol-ahvolini so‘radi. Martin Rufning nomini xotirjamlik bilan, hech tutilmasdan tilga oldi, miyasiga qon urmaganidan, yuragi qattiq-qattiq tepa boshlamaganidan hayratda qoldi.

Martinni chor atrofdan mehmondorchilikka taklif etishardi. Uni faqat ovqatga taklif qilish uchun u bilan tanishishga payt poylardilar. Martin esa borgan sari katta ahamiyat kasb eta boshlayotgan bu yaramas vaziyatga hamon tushuna olmay hayron edi. Hattoki, Bernard Xigginbotam ham uni birdan uyiga taklif qilib qoldi. Bu Martinni yana ham taajjubga solib qo‘ydi. U o‘zining ochlikdan o‘lay deb sulayib qolgan paytlarini, o‘shanda hech kim uni ovqatga taklif qilmaganini eslay boshladi. Vaholanki, o‘sha paytlarda bunday takliflar unga juda qo‘l kelardi, chunki u

kundan kunga ochlikdan ozib, rangi ketib, majoli quriy boshlagan edi. Bu qandaydir sog'lom fikrga zid narsa edi. U haftalab och o'tirganida uni ovqatga taklif qilish hech kimning xayoliga kelmagan edi, endi bo'lsa yuz ming kishi to'yadigan ovqatga yetadigan puli bo'lganda, boz ustiga hech ishtahasi yo'q paytida chor atrofdan uni ziyofatga taklif qila boshlashdi, Nimaga bunday? Na adolat bor edi bunda va na uning ko'rsatgan xizmati. U o'sha-o'sha Martin Idenligicha qolgan edi. Asarlarining hammasi o'sha och-nahor yurgan kunlarida, mister va missis Morzlar uni yalqov va sayoq deb atab, Ruf orqali unga mahkamada xizmatchi bo'lib ishlashni tavsiya qilishgan paytlarda yozilgan edi. Ammo ular o'sha paytlarda ham Martinning nima ish qilayotganidan xabardor edilar-ku. U qo'lyozmalarini Rufga o'qigan berardi, Ruf esa ularni ota-onasiga ko'rsatib turardi. Ularning o'zi ham bu qo'lyozmalarni o'qigan edilar. Endi bo'lsa aynan o'sha asarlari tufayli Martinning nomi gazeta-jurnallarda tilga oлина boshladi, nomi gazeta-jurnallarda tilga olingani uchungina Martin ular uchun aziz mehmon bo'lib qoldi.

Bir narsa juda aniq edi: Morzlarga Martin Idenning o'zining ham, uning ijodining ham hech qanday ahamiyati yo'q edi. Ular Martinning o'zi va yozgan asarlari tufayli emas, balki Martinning shuhrati va nomi tufayli, ehtimolki, uning bankdagi hisob raqamida yotgan yuz ming dollari tufayli u bilan yaqin munosabatda bo'lishga intilardilar. Nachora, burjuaziya jamiyatida insonga baho berishning birdan-bir o'lchovi shu,

bu odamlardan boshqa narsani kutishning o'zi g'ayritabiiy hol bo'lar edi. Lekin Martin takabur odam edi. Bunday bahoga muhtoj emas edi. Odamlar uning o'zini yoki ijodini qadrlashlarini istardi, aslida ikkovi ham bir narsa edi. Lizzi uni aynan shunday qadrlardi. Hatto Martinning asarlari ham uning uchun unchalik ahamiyatga ega emas edi; hamma gap uning o'zida edi. Jimmi va uning hamma eski og'aynilari ham u bilan xuddi shunday munosabatda edilar. Ilgarilari ular o'zlarining beminnat sadoqatlarini bir emas, bir necha bor isbot qilgan edilar, endi Shell-Mound-parkda uyushtirilgan yakshanbaliq sayilda ham isbot qildilar. Martinning jami yozganlari bular uchun bir pul edi. Ular uning o'zini, o'z oshnalari, jonon yigit Martin Idenni sevishar va uning uchun o'zlarini o'tga ham, suvga ham tashlashga tayyor edilar.

Rufning yo'li boshqa edi. U Martinni Martin bo'lgani uchun sevib qolgan, bu sohada hech qanday shubhaga o'rin yo'q edi. Lekin u Ruf uchun naqadar aziz bo'lmasin, burjuaziya bid'atlari ustun chiqdi. Qiz uning mashg'ulotini, asosan, daromad keltirmagani uchun ma'qullamagan edi. Martinning «Muhabbat sonetlari»ga ham shu nuqtai nazardan baho bergan edi. Shuning uchun ham u Martinning xizmatga kirishini talab qilardi. To'g'ri, bu narsa qizning tilida «mavqega ega bo'lish» deb atalardi, ammo bu bilan mohiyat o'zgarmasdi. «Xizmat» so'ziga esa, Martin birmuncha ko'nikib qolgan edi. Martin unga o'zining hamma asarlarini: poemalarini, hikoyalarini, maqolalarini, «Viki-Viki»sini, «Sharmanda bo'lgan quyosh»ini

– xullas, hamma asarini o‘qib bergan edi. Ruf esa o‘jarligini qo‘ymay, xizmatga kirishini, ishga joylashishini maslahat berardi. O, qodir xudo! Nahotki, Martin uyqusini harom qilib, faqat shu qizga munosib bo‘lish uchungina butun kuchini sarflab, molday ishlagan bo‘lsa!

Shu yo‘sinda eng arzimagan narsalar katta va muhim ahamiyat kasb etardi. Martin o‘zini sog‘lom va tetik his qilar, vaqtida ovqatlanar, to‘yib-to‘yib uxlar, ammo o‘sha arzimagan narsa unga tinchlik bermasdi. Ilgari shu fikr uni qiynoqqa solardi. Martin yakshanba kunlaridan birida tushki ovqat paytida Bernard Xigginbotanning qarshisida o‘tirarkan, quyidagi so‘zlarni qichqirib aytib yuborishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib qoldi:

– Axir bularning hammasi ilgari yozilgan ediku! Mana hozir meni mehmon qilyapsan, lekin ilgari ochimdan o‘lib ketsam ham parvo qilma-gan bo‘lar eding, xizmatga kirmaganim uchun uyingga kiritmagan eding. Lekin asarlarimning hammasini o‘sha paytlarda yozgan edim. Endi bo‘lsa gaplarimni ehtiyom bilan tinglab, jimgina o‘tiribsan, menga ixlos bilan tikilasan, har bir so‘zimni e‘tibor bilan tinglaysan. Men senga, sening partiyang poraxo‘rlar va firibgarlardan tashkil topgan deypman-u, sen jahling chiqish o‘rniga xayrixohlik bilan bosh irg‘atasan, hatto-ki fikrimni ma‘qullashga ham tayyorsan. Xo‘sh, nega bunday? Negaki men ma‘lum va mashhur odamman! Negaki mening pulim ko‘p! Lekin durustgina, aqli raso yigit Martin Iden bo‘lganim uchun emas! Agar men oy yashil pishloqdan qilingan deb aytsam, shu zahoti fikrimga qo‘shilgan

boʻlarding, hech boʻlmaganda eʼtiroz bildirmasding, negaki mening oltinlarim koʻp. Ammo bu oltinlarni men ishlab topganman, sen meni sariq chaqaga olmagan, odam qatorida hisoblamagan paytlarda ishlab topganman».

Ammo Martin bu gaplarni qichqirib aytmadi. Yuragi siqilib ketayotgan boʻlsa ham, sabr-toqat bilan lablari jilmayib turardi. Xigginbotam qaynisining sukut saqlab oʻtirganini koʻrib, oʻzi gap boshladi. U, yaʼni Bernard Xigginbotam hamma narsaga oʻz mehnati tufayli muyassar boʻlgan va bundan faxrlanadi. Unga hech kim koʻmaklashmagan, unga hech kim minnat qilmaydi. U hurmatli odam, katta oilaning boshligʻi, «Xigginbotamning chakana savdo doʻkoni» esa uning gʻayrat va himmati samarasidir. Oʻzga erlar oʻz xotinini qanchalik sevsa, u ham «Xigginbotamning chakana savdo doʻkoni»ni shunchalik sevadi. U Martinga yuragini ochib tashlab, bu doʻkonni ishga solib yuborish uchun qancha qiynalganini ayta boshladi. Bundan tashqari, uning yana bitta rejasi, juda katta rejasi bor. Mahallada aholi tobora koʻpayib boryapti. Bu doʻkon hammani taʼminlay olmaydi. Agar bironta kattaroq bino boʻlganda, u savdo ishiga baʼzi bir yangiliklar kiritib, daromadni oshirgan boʻlardi. U buni albatta qiladi, lekin eng oldin u yonidagi maydonni sotib olib, u yerga yana bitta ikki qavatli imorat qurishi kerak. Uyning yuqori qavatini ijaraga qoʻyadi-da, pastki qavatini doʻkonga qoʻshib yuboradi. U ikkala uyning u boshidan bu boshiga choʻzilgan yangi peshlavh haqida gapirganida hatto koʻzlari oʻtdek chaqnab ketdi.

Martin uning gaplariga deyarli quloq solmas edi, «Ilgari» soʻzi hamon uning qulogʻi ostida jaranglardi. Bu soʻz uning es-hushini olib qoʻygan edi, Martin undan albatta qutulishi kerak.

– Bunga qancha ketadi deding? – birdan soʻrab qoldi Martin.

Pochchasi kvartaldagi savdo ishlarining kelgusidagi rejalari haqidagi valdirashini toʻxtatib, Martinga baqrayib qarab qoldi. Bu narsaning qanchaga tushishi haqida churq etib ham ogʻiz ochgani yoʻq edi, lekin agar Martin qiziqayotgan boʻlsa, aytishi mumkin. U hammasini hisoblab qoʻygan.

– Hozirgi narx-navoda, – dedi u, – toʻrt mingga tushadi.

– Peshlavh ham ichidami?

– Peshlavhni hisoblaganim yoʻq. Uy boʻlsa boʻldi, peshlavh topiladi.

– Maydon-chi?

– Yana uch ming kerak boʻladi.

Shundan keyin, Bernard Xigginbotam qov-jiragan lablari bilan tamshanib, asabiy holatda barmoqlarini oʻynatib, Martinning chek yozishiga tikilib oʻtirdi. Martin chekni yozib boʻlib, uni Xigginbotamga uzatdi. Chek yetti ming dollarga yozilgan edi.

– Men... men olti foizdan ortiq foyda berolmayman, – deb gʻoʻldiradi Xigginbotam hayajondan hirqirab qolgan ovoz bilan.

Martinning kulgisi keldi, lekin buning oʻrniga soʻradi:

– Bu qancha boʻladi?

– Hozir hisoblab ko‘ramiz. Olti foiz... olti karra yetti – to‘rt yuz yigirma dollar.

– Demak, oyiga o‘ttiz besh dollardan tusharkan... Shundaymi?

Xigginbotam tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi.

– Durust, agar qarshilik qilmasang, biz bunday qilamiz. – Martin shu so‘zlarni aytib, Gertrudaga qarab qo‘ydi. – Asosiy pul o‘zingga siylov, lekin bir shartim bor: har oy o‘ttiz besh dollarga uyingga oshpaz bilan kir yuvuvchi yollaysan. Xullas, agar sen uydagi og‘ir ishlarni Gertruda qilmasligiga kafil bo‘lsang, yetti ming dollar seniki bo‘ladi. Rozimisan?

Mister Xigginbotam pishqirib nafas oldi. Xotinini qora ish bilan shug‘ullanmasligi haqidagi talab unga haqoratdek botdi. Bu ajoyib sovg‘a xuddi usti zarhallangan achchiq hab doriga o‘xshar edi. Xotini ish qilmasmish-a! Bundan uning fig‘oni chiqib ketdi.

– Ixtiyoring, – dedi Martin. – Bo‘lmasa, har oyda o‘ttiz besh dollardan men to‘lab turaman, lekin...

U chekka qo‘lini cho‘zgan edi, Bernard Xigginbotam shosha-pisha uni qo‘li bilan qopladi va:

– Men roziman! Roziman! – deb yubordi.

Martin tramvayga chiqarkan, charchaganini va ko‘ngli ag‘darilayotganini his qildi. U orqasiga o‘girilib qarab, ko‘zi do‘konning serhasham peshlavhiga tushdi. «To‘ng‘iz, – deb g‘o‘ldiradi u, – shunaqayam to‘ng‘iz bo‘ladimi kishi?»

«Makintosh jurnali»da eng zo‘r rassomlarning rasmlari bilan bezatilgan «Folbin qiz» she‘ri bosilib chiqqanda, German Shmidt bu

she'rni bir vaqtlar adabsiz deb aytganini birdan unutilib qo'ydi. Bu she'rni u o'z xotini sha'niga yozilgani haqida duch kelgan odamga gapirar va bu ovoza gazeta muxbirining qulog'iga borib yetishi uchun astoydil urinardi. Muxbir ham birpasda fotograf bilan rassomni boshlab kelib qoldi. Natijada, gazetaning yakshanbalik soniga ilova qilingan sahifalaridan birida Meriyenning juda ham bezak berib ishlangan portreti, Martin Idenning va uning oilasi hayotiga doir sirli voqealar tafsiloti «Folbin qiz»ning to'la matni bilan birga bosilib chiqdi, she'r jurnalning roziligi bilan ko'chirilib bosilgan edi. Bu hol hammayoqqa ovoza bo'ldi, yon-atrofdagi qo'shni xotinlar mashhur yozuvchining opasi bilan tanish bo'lganlaridan g'ururlanishar, hanuzgacha u bilan tanishish sharafiga muyassar bo'lmaganlar esa bu kamchilikka xotima berishga oshiqardilar. German Shmidt mamnuniyat bilan qo'llarini ishqalar edi, u hatto ustaxonasi uchun yangi dastgoh ham buyurtirdi.

– Bu har qanday reklamadan ham yaxshi, – derdi u, – pul ham sarflanmaydi.

– Uni mehmonga chaqirsak bo'lardi, – deb taklif kiritdi Meriyen.

Martin mehmon bo'lib keldi, ko'tara savdo qiluvchi semiz go'shtfurush bilan hamda uning o'zi singari baqaloq rafiqasi bilan odob saqlab suhbatlashib o'tirdi, bular juda boobro' odamlar bo'lib, chunonchi, German Shmidt singari hayotda o'ziga o'zi yo'l ochayotgan yoshlarga foydalari tegishi mumkin edi. Albatta, agar ovqatga mashhur yozuvchi ham keladi, deb va'da qilishmagan-

da, ular ikki dunyoda ham German Shmidtning oyoq qoʻymagan boʻlar edilar. Tinch okeani velosiped shirkati agentligining bosh mudiri aynan shu xoʻrakka ilinib kelgan edi. German Shmidt unga hadeb xushomad qilar, chunki undan shirkatning Oklenddagi vakili lavozimini olish niyatida edi. Xullas, German oʻz turmush tarzini yaxshilash maqsadida Martin Iden bilan qarindoshlikni tiklashga tayyor edi-yu, lekin koʻnglida bu ishlarning qanday sodir boʻlganiga hech tushuna olmasdi. Koʻpincha yarim kechada uygʻonib ketar va xotinini uygʻotib yubormaslikka urinib, Martinning asarlarini oʻqir, ammo har gal, bu kitoblarga faqat ahmoq odamlar pul toʻlaydi, degan fikrga kelardi.

Martin pochchasining oʻzi haqida nimalar oʻylayotganini juda yaxshi tushunardi: u kursiga yastanib, German Shmidtning kuzatib oʻtirarkan, xayolan uning gardaniga musht tushirardi, eh, oʻziga bino qoʻygan badbakhshara nemis, deb oʻylardi u ichida. Shunga qaramay, uning baʼzi bir jihatlari Martinga yoqqan edi. U qanchalik kambagʻal boʻlmasin, qanchalik tezroq boyishga urinmasin, har holda, Meriyenning uy-roʻzgʻor ishlari yengillashtirish uchun uy xodimasi yollagan edi. Martin ovqatdan soʻng velosiped shirkati mudiri bilan gaplashib olib, Germani bir chekkaga chaqirdi va unga Oklenddagi velosiped va uning qismlarini sotuvchi eng yaxshi doʻkonning jihozlariga mablagʻ ajratmoqchi boʻlganini aytdi. Martin shu qadar saxiy boʻlib ketdiki, Germaniga, oʻzingga yana bitta garaj bilan avtomobil ustaxonasi ham qidirib top, dedi, chunki u ikkita

korxonani ham juda yaxshi boshqara olishi turgan gap edi.

Meriyen Martinni quchoqlab turib xayrlasharkan, ukasiga jiqqa yosh ko'zlarini tikib, uni yaxshi ko'rishini, uni doimo yaxshi ko'rganini pichirlab aytdi. Lekin oxirgi so'zlarni aytayotganida biroz duduqlanib qoldi va ko'z yoshlari selday quyilib, ukasini ustma-ust o'pa boshladi. Martin opasi bir vaqtlar undan shubhalangani va uni ishga kirishga undagani uchun uzr so'rayotganini tushundi.

– Bunaqada ukangning puli ko'pga chidamaydi, – dedi German Shmidt kechqurun xotiniga. – Foiz haqida gapirgan edim, chunonam achchig'i chiqib ketdiki! Nima deydi degin? Menga foiz u yoqda tursin, kapitalning o'zi ham kerakmas, deydi. Bu haqda yana bir marta og'iz ochsang, shu malla boshingni pachaqlab tashlayman, deydi. Ha, xuddi shunday: «Malla boshingni» deb aytdi. Lekiniga u ishbilarmon bo'lmasa ham, baribir, azamat yigit. Eng muhimi – juda katta yordami tegdi menga!

Mehmonga chaqiruvchi taklifnomalar do'lday yog'ilardi, taklifnomalar ko'paygan sari Martin shuncha ko'proq hayron bo'lardi. U eng eski klublardan birining banketiga faxriy mehmon bo'lib bordi, umrbod faqat eshitgan va kitoblardagina o'qigan odamlar davrasida o'tirdi. Bu odamlar unga, «Transkontinental oylik jurnali»da «Qo'ng'iroq sadosi»ni, «Qovoq ari»da esa «Pari-zod bilan marvarid»ni o'qib, buyuk adib dunyoga kelganini darhol tushundik, deb aytardilar. «Tavba, – deb o'ylardi Martin, – men bo'lsam, och-

yalang'och kun kechirgan edim. Nima uchun bular meni o'sha paytlarda biron marta bo'lsin ovqatga taklif qilishmadi? O'shanda taklif qilishsa, po'latga suv yuritganday juda qo'l keldi. Axir bu ikkala asarim ham allaqachonlar yozilgan edi-ku. Modomiki, siz meni ilgari qilgan ishlarim uchun mehmon qilarkansiz, bas, nima uchun shu ovqatga chindan ham muhtoj bo'lgan ilgarigi paytlarimda mehmon qilmadingiz? Axir men «Qo'ng'iroq sadosi»da ham, «Parizod va marvarid»da ham bironta so'zni o'zgartirganim yo'q-ku. Yo'q, siz meni aslo qilgan xizmatlarimni taqdirlab mehmon qilyotganingiz yo'q, balki meni hamma mehmonga taklif qilayotgani uchun, meni mehmon qilishni endi sharaf deb bilganlari uchun taklif qilyapsiz. Shuning uchun ham meni mehmon qilyapsizki, sizlar hayvonsizlar, poda-poda bo'lib yuruvchi hayvonsizlar! Chunki siz podaga xos bo'lgan ko'r-ko'rona va ongsiz tuyg'uga itoat etasiz, bu tuyg'u esa hozir sizga, Martin Idenni mehmon qiling, deb da'vat etyapti. Biroq birontangizning ham na Martin Iden bilan, na u qilgan ish bilan ishingiz bor, ma'yus ohangda u o'ziga shunday derdi-da, o'rnidan turib, qadah ko'targanda aytilgan o'tkir va ta'sirchan so'zlarga o'tkir va ta'sirli gap bilan javob berardi.

Uni hamma yerda shunday kutib olardilar. U qayerda bo'lmasin: xoh kiborlar mehmonxonasi, xoh adabiy kechalarda – hamma yerda bir xil gapirardilar, ya'ni, «Qo'ng'iroq sadosi» bilan «Parizod va marvarid» bosilib chiqqandan keyin buyuk adib maydonga kelgani darhol hammaga ayon bo'ldi, derdilar. Lekin hamma vaqt Martin-

ning ko'nglida hamon o'sha savol tixirlik bilan uni bezovta qilgani-qilgan edi: «Bas, shunday ekan, nima uchun meni o'sha paytlarda ovqatga taklif qilmadingiz? Axir bu asarlarimning yozilganiga juda ko'p vaqt bo'ldi-ku. Na «Qo'ng'iroq sadosi»da, na «Parizod va marvarid»da zarracha o'zgarish bo'ldi. Bu asarlarim ilgari ham xuddi hozirgidek juda ajoyib va nafis edi. Lekin siz meni na bu asarlarim va na boshqa asarlarim hurmati mehmon qilyapsiz. Siz meni shuning uchun mehmon qilyapsizki, hozir meni ziyofatga chaqirish moda tusiga kirgan, shuning uchunki butun poda: Martin Idenni mehmon qilish kerak, degan bir gapning jinnisi bo'lib qolgan».

Shunday damlarda ko'pincha dabdabali yig'in paytlarida birdan Martinning ko'z oldida egniga ikki yoqlama tugmalanuvchi kamzul kiyib, boshiga shlyapasini bostirib olgan o'yinqaroq yigit namoyon bo'lardi. Bir kuni Oklendda, ayollar klubida o'tkazilgan adabiy ertalik paytida xuddi shunday hodisa yuz berdi. Martin sahnaga chiqib, zalning oxirida, o'ziga tanish bo'lgan kamzul va shlyapa kiygan o'sha o'yinqaroq yigitni ko'rib qoldi. Besh yuz nafar yasanib kelgan xonimlar Martin Idening nimaga tikilib qolganini bilish uchun baravariga orqalariga o'girildilar. Lekin ochiq yo'lakda hech nima yo'q edi. Martin esa tikilib turarkan, yigit tushmagur boshiga yopishib qolgan shlyapasini qo'lga olish esiga kelarmikin, yo'qmi deb o'ylardi. Sharpa yurib kelib sahnaga chiqdi. Martin o'z yoshligining ko'lankasiga tikilarkan, kim bo'lishi mumkin edi-yu, kim bo'ldi, deb o'ylab, sal bo'lmasa ala-

miga chidolmay yig'lab yuboray dedi. Ko'lanka sahnadan yurib kelib, Martinga juda yaqin keldi-da, uning badaniga singib g'oyib bo'ldi. Besh yuz nafar xonim; o'zlarining qo'lqop kiygan nafis qo'llari bilan uni olqishlay boshladilar. Ular birdan xijolat ichida qolgan mashhur mehmonning ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lgan edilar. Martin irodasini yig'ib, u sharpani o'zidan quvdi, so'ng tabassum bilan gapira boshladi.

Bir kuni ko'chada Martinni muhtaram va oqko'ngil maktab direktori uchratib qolib, Martinning to'polonchiligi va urishqoqligi uchun maktabdan haydashganida idorasida qanday qattiq janjal bo'lganini eslatdi.

– Men sizning «Qo'ng'iroq sadosi» asaringizni o'qidim, – dedi u, – uni birinchi marta bosilib chiqqan chog'dayoq o'qigan edim. Juda ajoyib asar! Edgar Podan hech qolishmaydi! O'sha vaqtdayoq o'qib chiqib, ajoyib asar degan edim.

«Rostdan-a? – deb yuborishiga sal qoldi Martinning. – O'sha paytda ko'chada menga ikki marta to'qnash kelgan edingiz, ammo meni tanimagan ham edingiz-ku, Ikkala safar ham men ochligimdan bitta-yu bitta kostyumimni garovga qo'ygani ketayotgan edim! Siz meni tanimagan edingiz! Ammo asarlarimning hammasi o'sha vaqtda yozilib bo'lgan edi. Qanday qilib meni endi tanib qoldingiz?»

– Men kechagina xotinim bilan sizni uyimizga taklif qilish haqida gaplashgan edim, borsangiz boshimiz osmonga yetardi, – deb gapida davom etdi direktor, – xotinim ham sizni taklif qilishimni iltimos qildi, ha, juda o'tinib iltimos qildi.

– Ovqatlangani deng! – deb bexosdan baqirib yubordi Martin.

– Ha... ha... ovqatlangani, – deb g'oldiradi gangib qolgan direktor, – shunday, men sizga aytsam... keksa muallimingiz bilan suhbat qurib... Obbo shovvoz-ye! – U hazil qilib, qo'rqqanini yashirishga urinardi.

Martin bir necha qadam yurib to'xtadi va cholning orqasidan qarab qoldi.

– Nima qilib qo'ydim o'zi! – deb g'oldiradi u. – Judayam cho'chitib yubordim, shekilli!

QIRQ BESHINCHI BOB

Bir kuni Martinning oldiga Kreys – o'sha, «asl odamlar»dan bo'lgan Kreys kirib keldi. Uni ko'rib sevinganidan terisiga sig'may ketgan Martin uning o'ta xayoliy korxonada loyihasi haqidagi mulohazalarini tingladi, bu korxonada Martinni puldor odam sifatida emas, yozuvchi sifatida qiziqtirishi kerak edi. Kreys o'z loyihasini bayon qilib turib, gap o'rtasida birdan «Sharmanda bo'lgan quyosh» haqida gapira ketdi va u asarni telba odamning aljirashi deb aytdi.

– Lekin men bu yerga falsafa sotgani kelganim yo'q, – deb u o'z so'zini o'zi bo'ldi. – Mening korxonam qurilishiga ming dollar pul qo'yasizmi, yo'qmi? Shuni bilmogchiman.

– Yo'q, bu qadar telba emasman, – dedi Martin. – Lekin boshqa ish qilaman. Siz mening juda ajoyib bir kechada ishtirok etishimga imkon berdingizki, buni har qancha pulga ham topib bo'lmaydi. Hozir menga pulning po'choqcha qad-

ri qolgani yo'q. Men sizga ming dollar beraman, ammo xolis, faqat o'sha unutilmas kechada ishtirok etganim uchun minnatdorlik yuzasidan beraman. Sizga pul kerak, menda u oshib-toshib yotibdi. Siz pul olmoqchimisiz? Hech qanday nayrangbozlikning hojati yo'q. Mana, oling!

Kreys bundan aslo taajjublanmadi. Chekni oldida, cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Mazkur shart bo'yicha sizga har haftada o'shanaqa kecha uyushtirib berishim mumkin.

– Kechikdingiz, – deb bosh chayqadi Martin. – Men uchun u birinchi va oxirgi kecha edi. Men o'zimni go'yo boshqa bir olamda deb his qilgan edim. Bilaman, siz uchun u kechaning hech qanday ma'nisi yo'q edi. Lekin men uchun o'shanda hamma narsa g'alati tuyulgan edi. Endi buni takrorlab bo'lmaydi. Men falsafaga xotima berdim. Endi u to'g'risida eshitishga ham tobim yo'q.

– Umrimda birinchi marta falsafadan pul ishlashim, – dedi Kreys eshik tomon yurarkan, – uni ham xudo ko'p ko'rib, bir zumda qiymati tushib ketdi.

Bir kuni ko'chada Martinning yonidan faytonda missis Morz o'tib qoldi va iljayib Martinga bosh irg'adi. Martin ham tabassum qilib, boshidan shlyapasini oldi. Bu uchrashuv yigitda hech ta'sir qoldirmadi. Vaholanki, bir oy burun uchraganida yuragi g'ash bo'lgan bo'lardi, balki kulgili bo'lib ko'rinarmidi, ana o'shanda u missis Morzning nimalarni his qilganini tasavvur qilishga urinib ko'rardi. Hozir esa bu uchrashuv Martinning e'tiborini tortmadi. Chunonchi, markaziy bank binosi yoki shahar mahkamasi yonidan

o'tganini shu zahotiy oq unutilib yuborganidek, missis Morz bilan uchrashganini ham darhol esidan chiqarib yubordi. Shunga qaramay uning miyasi hamon to'xtovsiz, zo'r shiddat bilan ishlardi. Hamon o'sha «ilgari» degan fikr unga tinchlik bermasdi. Martin ertalablari uyqudan shu fikr bilan uyg'onar, shu fikr uyqusida unga halovat bermas edi. U nimaniki ko'rsa, eshitsa, his qilsa, hammasi shu «ilgari» degan fikrga kelib taqalardi. Martin mantiqiy mulohaza yuritib, nihoyat, men endi hech kim ham, hech nima ham emas ekanman, degan shafqatsiz xulosaga keldi. O'yinqaroq Martin Iden ham, matros Martin Iden ham real shaxslar edilar, ular chindan ham bo'lganlar. Lekin buyuk adib Martin Iden hech qachon bo'lgan emas. Buyuk yozuvchi Martin olomon o'ylab chiqargan narsa, olomon uni o'yinqaroq, matros Mart Idenning vujudiga joylashtirgan edi. Lekin bularning hammasi ko'zbo'yamachilik ekanligini Martinning o'zi bilardi-ku. Olomon uning oshqozoni g'amini yer, unga sajda qilardi-yu, ammo Martin aslo ular o'ylagan afsonaviy qahramon emas edi.

Martin jurnallarda o'zi haqidagi maqolalarni o'qir, u yerda muttasil bosilib turgan o'z portretlarini tomosha qilib, o'zini o'zi tanimay qolardi. U ishchilar mahallasida tug'ilib o'sgan, kun kechirgan, sevgan, hayotdan quvongan edi. Odamlar bilan yaxshi muomalada bo'lgan, taqdirning bevafoiligiga bamaylixotir bardosh bergan edi. Begona yurtlarni kezman, har qanday ob-havoda ham vaxtada turgan, o'ziga o'xshagan zumrashalar o'dasiga boshchilik qilgan yigit ham uning o'zi

edi. Birinchi marta kutubxonaga borganida qator-qator tizilishib turgan son-sanoqsiz kitoblarni ko'rib hang-mang bo'lib qolgan, keyin o'sha kitoblarni o'qib, ularni tushunadigan ham uning o'zi edi. Tun yarim kechadan og'unga qadar chiroqni o'chirmay mutolaa qilgan, uxlamaslik uchun to'shagiga mix qo'ygan va keyinchalik o'zi ham kitoblar yoza boshlagan odam ham o'zi edi. Lekin odamlar kimo'zarga o'ynaganday mehmon qilib boqishga oshiqayotgan mana shu eb to'ymas odam u emas edi.

Shunga qaramay ba'zi narsalar uning ko'nglini ochardi. Hamma jurnallar, Martin Idenni kashf etish sharafiga biz muyassar bo'lganmiz, deb jar solishardi. «Uorren oyligi», muttasil ravishda yangi iste'dod egalarini axtarish bilan mashg'ul bo'lishimiz natijasida, Martin Idenni birinchi bo'lib biz topdik, deb o'z obunachilarini ishontirishga urinardi. «Oq sichqon» bu ishni biz qilganmiz deb da'vo qilardi; «Shimol axboroti» bilan «Makintosh jurnali» ham shunday da'vo qila boshladilar, biroq oradan «Globus» otilib chiqdi-yu, birinchi marta o'z sahifalarida buzib, rasvo qilib bosilgan «Dengiz qo'shiqlari»ni kerilib ko'rsata boshladi. O'zi qarzdor bo'lgan odamlardan bir amallab ayyorlik bilan qutulib, yana chiqa boshlagan «Yoshlik va yetuklik» jurnali ham Martin Idenni biz kashf etganmiz, deb da'vo qildi. Ammo endi u jurnalni fermer bolalaridan boshqa hech kim o'qimay qo'ygan edi. «Transkontinental oylik jurnali»da mashhur muallifning qanday kashf etilgani haqida maqola bosilib chiqdi. «Qovoq ari» tahririyati bunga qizg'in raddiya bildirib, «Parizod

va marvarid»ni biz bosib chiqdik, deb da'vo qildi. «Singltri Dariley va shirkati» nashriyotining ovozi bu shov-shuvda eshitilmay ketdi. Nashriyot o'z jurnaliga ega emas ediki, uning sahifalarida u o'z haqini qat'iyat bilan talab qilsin.

Gazetalar Martin olgan gonorarlarni hisoblashardi. Ba'zi bir jurnallar tavsiya qilgan imtiyozli shartlar qandaydir yo'l bilan hammaga ovoza bo'lib ketdi; oklendlik voizlar uni shafqat yuzasidan sadaqa berishga da'vat etardilar, har xil chakana tamagirlar esa, ham og'zaki, ham yozma iltimoslar bilan Martinga tinchlik bermasdilar. Lekin xotinlar hammadan oshib tushdi. Martin Idenning fotosuratlari mamlakatning hamma tomoniga tarqalib ketgan edi, muxbirlar esa uning «bug'doy rang yuz»ini, «zabardast yelkalar»ini, «sokin, porloq nigoh»ini, «zohidnikiga o'xshash ichiga kirib ketgan yuzlar»ini aniqroq tasvirlashga urinardilar. Martin o'zining jo'shqin yoshlik yillarini eslaganda, bu «zol idnikiga o'xshash yuzlar» iborasi ayniqsa kulgisini qistatdi. U ayollar davrasida bo'lgan og'rlarida ko'pincha ularning ma'nodor, erkalovchi, taqdirlovchi nigohlariga ko'zi tushar edi. Martin Brissendenning ogohlantirib aytgan gaplarini eslab kula boshladi. Yo'q, ayollar uni endi qiynoqqa sola olmaydilar. Bunga tamomila xotima berilgan.

Bir kuni Martin Lizzini kechki maktabga kuzatib borayotganda, qiz yonlaridan o'tib ketayotgan bir bashang kiyimli go'zal xonimning Martinga ko'z tashlaganini payqab qoldi. Xonim keragidan xiyolgina ortiq e'tibor berib, xiyolgina

uzoqroq tikilgan edi, shuning uchun Lizzining jahli chiqib qaqshab ketdi, chunki u boqishning ma'nisiga darhol tushungan edi. Martin qizning nima uchun achchiqlanganini bilgach, bunaqa qarashlarga ko'pdan beri ko'nikib qolganini va bular unga hech ta'sir qilmasligini aytdi.

– Bu mumkin emas! – deb chinqirib yubordi qiz ko'zlaridan o't sochib. – Demak, siz kasalsiz!

– Men hech qachon hozirgichalik sog'lom bo'lmaganman. Hatto besh qadoq semirdim ham.

– Sizni jisman kasalsiz deyotganim yo'q, ruhan kasalsiz, deyaipman. Ichingizda bironta dardingiz bor. Hatto men ham sezyapman buni! Lekin men kim bo'pman!

Martin o'ylab qizning yonida borardi.

– Men shu darddan tezroq qutulishingizni istadim! – deb yubordi birdan Lizzi. – Ayol kishining bunday boqishi sizday yigitga hech kor qilmasligiga sira ishonmayman. Tamomila g'ayritabiiy hol bu! Axir kichkina bola emassiz-ku. Xudo haqqi, mabodo, bironta ayol topilib, sizni g'ayratga solsa, chin yurakdan sevingan bo'lardim.

Martin Lizzini kuzatib qo'yib, «Metropol»ga qaytib keldi.

U qimir etmay, hech narsa to'g'risida o'ylamay, bir nuqtaga tikilgan cha kresloda o'tirardi. Xotirasida faqat onda-sonda uzoq o'tmishdagi qandaydir voqealar birdan jonlanar edi. Bu manzaralarni xuddi tush ko'rayotganday, hech narsa to'g'risida o'ylamay mushohada qilardi. Lekin uxlayotgani yo'q edi. Birdan seskanib ketib, soatiga qaradi. Soat rosa sakkiz edi. Qiladigan ishi yo'q, ammo yotishga hali erta edi. Yana o'ylari

ayqash-uyqash bo'lib ketdi, yana uning ko'z olidan bir-birlariga ergashib turli manzaralar o'ta boshladi. Bu manzaralarning birontasi ham diqqatga sazovor emas edi. Hadeb ko'ziga quyosh shu'lalari yorib o'tgan quyuuq yaproqlar ko'rinarardi.

Eshikni birov taqirlatdi, u ko'zini ochdi. U uxlayotgani yo'q edi, shuning uchun eshik taqirlashi bilan, telegramma yo xat kelgandir, kirxona xizmatkori yuvilgan kiyimlarimni olib kelgandir, deb tasavvur qila boshladi. Negadir esiga Jo tushdi va Martin, hozir Jo qayerdaykin, deb o'ziga savol berarkan:

– Kiring! – deb qichqirdi.

U Joni o'ylash bilan band bo'lib, eshik tomonga o'girilib ham qaramadi. Eshik ohistagina ochildi, lekin Martin eshikning taqillaganini go'yo unutib qo'yganday, hech narsani ko'rmayotgan ko'zlarini hamon bo'shliqqa tikib o'tiraverdi. Birdan orqasida ayol kishining bo'g'iqlik va hazin yig'isi eshitildi. Martin dik etib o'rnidan turib ketdi.

– Ruf! – deb yubordi u ajablanib. U qo'rqib ketayozdi.

Qizning rangida qon qolmagan, ma'yus qi-yofada edi. U bir qo'li bilan eshikni ushlab, ikkinchi qo'lini ko'ksiga qo'ygancha, ostonada turardi. So'ng u ikkala qo'lini iltijo bilan Martinga cho'zdi-da, oldinga yura boshladi. Martin Rufni kresloga o'tqazarkan, qizning qo'li muzdek sovuq ekanligini payqadi. U o'zi uchun boshqa kresloni surib, uning bandiga o'tirdi. Martin hayajonlanganidan tili kalimaga kelmasdi. Uning Rufga bo'lgan muhabbati allaqachon qalbining teran

yeriga dafn etilgan edi. Hozir «Metropol» mehmonxonasi o'rnida birdan «Qaynar Buloq» kirxonasi bir hafta ichida yig'ilib qolgan kirlari bilan paydo bo'lib qolganda o'zini qanday his qilsa, hozir ham shunday his qila boshladi. U bir necha bor gapga og'iz juftladi-yu, lekin hech jur'at eta olmadi.

– Mening bu yerdaligimni hech kim bilmaydi, – dedi Ruf ohistagina yolvoruvchi tabassum bilan.

– Nima dedingiz? – deb so'radi Martin.

U o'z ovozi taniy olmay hayratda qoldi.

Ruf gapini takrorladi.

– E! – dedi Martin, uning topgan bor-yo'q gapi shu bo'ldi.

– Sizning mehmonxonaga kirganingizni ko'rdim, bir oz kutib turib ketingizdan kirdim.

– E! – deb takrorladi Martin.

Hech qachon uning tili bu qadar lol bo'lmagan edi. Uning butun fikrlari birdaniga miyasidan uchib ketdi. U sukut saqlab o'tirishi o'ng'aysiz tuyula boshlaganini his qildi, lekin o'lim tahlikasida turganda ham, gapni nimadan boshlashni bila olmas edi. Bundan ko'ra, o'sha «Qaynar Buloq»ga borib qolgani ham ma'qul edi, indamasdan yengini shimarardi-yu, ishga tushib ketaverardi.

– Demak, birpas kutib turib, keyin kirdim deng, – nihoyat gapirdi Martin.

Ruf xiyol g'amza bilan bosh irg'adi-da, ko'ksini yopib turgan sharfni yechdi.

– Avval sizni ko'chada anavi qiz bilan ko'rdim...

– Ha, – dedi Martin soddagina qilib, – men uni kechki maktabga kuzatib qo'ydim.

– Meni ko‘rganingizdan xursand emasmisiz? – deb so‘radi qiz yana bir oz sukunatdan so‘ng.

– Xursandman, juda xursandman, – deb javob qildi Martin shosha-pisha, – lekin bu yerga yolg‘iz o‘zingiz kelib chakki qilmadingizmikin?

– Hech kimga sezdirmasdan o‘tdim. Bu yerda ekanligimni hech kim bilmaydi. Sizni judayam ko‘rgim kelgan edi. Men naqadar tentaklik qilganimni e‘tirof etgani keldim bu yerga. Toqatim toq bo‘lganidan keldim bu yerga. Qalbimning amri bilan keldim. Bu yerga kelishni istaganim uchun keldim!

Ruf o‘rnidan turib, Martinga yaqinlashdi. U qo‘lini yig‘ining yelkasiga qo‘ygancha chuqur va kalta-kalta nafas olib, bir zungina shu alfozda turib qoldi, so‘ng birdan Martinga engashdi. Oqko‘ngil va ko‘ngilchan Martin qizni o‘zidan itarib tashlash mumkin, emasligini, uning shash-tini qaytarish, uni tahqirlash demak ekanini tushundi; bu erkak kishining xotiga nisbatan qilgan eng qattiq haqorati bo‘lardi. U qizni quchoqladi, ammo uning quchog‘ida na harorat, na mehr-muhabbat bor edi. U qizni shuncha-ki qo‘llari orasiga olgan edi, vassalom. Qiz shosha-pisha uning pinjiga kirdi, kaftlarini uning gardaniga qo‘ydi, biroq bundan Martinning a‘zoyi badani bir vaqtlardagidek jimirlab ketmadi, u o‘ng‘aysizlanib, uyalib ketdi.

– Nega buncha titraysiz? – deb so‘radi Martin.

– Sovuq qotdingizmi? Kaminga o‘t qo‘yib yuboraymi?

Martin qizning quchog‘idan chiqmoqchi bo‘lib harakat qildi, lekin qiz unga yana mahkamroq yopishib oldi.

– Bu asabdan, – dedi qiz tishlari takillab, – hozir o'tib ketadi. Mana yaxshi bo'lib qoldim.

Asta-sekin uning qaltirashi bosildi. Martin uni hamon quchoqlab turardi, lekin endi taajjublanmasdi. Chunki endi u qizning nima maqsadda kelganini bilardi.

– Oyim meni Charli Xepgudga turmushga chiqishimni xohlagan edi, – dedi qiz.

– Charli Xepgud? Anavi, qachon qarasang og'zidan bodi kirib shodi chiqadigan yigitchami? – deb g'oldiradi Martin. Bir oz sukutdan so'ng qo'shib qo'ydi. – Endi bo'lsa, oyingiz sizning menga turmushga chiqishingizni xohlayapti.

Uning gapida savol ohangi yo'q edi. Bu so'zlarni u ishonch bilan gapirdi va shu choq ko'z oldida o'zi olgan gonorarlarning ko'p xonali raqamlari irg'ishlab o'ynay boshladi.

– Endi oyim e'tiroz bildirmaydilar, – dedi Ruf.

– Oyingiz meni sizga munosib er bo'ladi, deb hisoblayaptilarmi?

Ruf boshini xam qildi.

– Ammo men oyingiz fotihamizni buzganidan keyin yaxshi bo'lib qolganim yo'q, – o'ychanlik bilan gapira boshladi Martin. – Men o'zgarganim yo'q. Hali ham o'sha Martin Idenman. Men hatto xiyla aynidim ham, yana chekyapman. Mendan tamaki hidi kelayotganini sezyapsizmi?

Ruf javob berish o'rniga ishva bilan kaftini uning og'ziga bosdi, odatda, Martin uning kaftini o'pard, lekin Martinning lablari qimir etmadi. To Ruf qo'lini olguncha kutib turib, keyin gapini davom ettirdi.

– Men o'zgarganim yo'q. Xizmatga ham kirganim yo'q. Ish qidirib ko'rganim yo'q. Hatto-

ki, qidirishni ham istamayman. Men hali ham, Gerbert Spenser ulug' va oliyjanob odam, degan gapimda turaman. Sudya Blount esa eng yaramas eshakdir. Men kecha unikida ovqatlangan edim, eshak ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildim.

– Nega dadamning taklifini qabul qilmadingiz?
– o'pkalanib so'radi Ruf.

– Qayoqdan bilasiz? Uni kim yuborgan edi? Oyingizmi?

Ruf jim edi.

– Albatta, oyingiz-da! O'zim ham shunday deb o'ylovdim. Keyin siz ham, oyingizning talabiga ko'ra kelgandirsiz?

– Mening bu yerdaligimni hech kim bilmaydi, – deb qizg'in e'tiroz bildirdi Ruf. – Oyim bunday ish qilishimga hech qachon ijozat bermaydilar.

– Lekin menga turmushga chiqishingizga ijozat berishiga hech gumonim yo'q.

Ruf zorlanib dedi:

– O, Martin, bunchalik berahm bo'lmang! Siz hatto meni bir marta ham o'pmadingiz. Toshga o'xshaysiz. Qanday ishga jur'at etganimni bir o'ylab ko'ring! – qiz qo'rqa-pisa va ayni vaqtda sinchkovlik bilan atrofga ko'z yugurtirib chiqdi. – Qanday joyga kelganimni bir o'ylab ko'ring.

«Men jon-jon deb sizga qurbon bo'lardim! Jon-jon deb qurbon bo'lardim! – degan Lizzining so'zlari Martinning esiga tushdi.

– Nega endi ilgari jur'at etmadingiz bunga?
– deb so'radi u jahl bilan. – Katalakdek hujrada yashaganimda. Ochlikda kun kechirganimda. O'sha paytda ham men o'sha-o'sha Martin Iden

edim – ham odam, ham yozuvchi sifatida. Keyingi paytlarda tez-tez o‘zimga shu savolni berib tura-man, faqat siz emas, qolgan hamma odamlarni nazarda tutib aytyapman bu gaplarni. Ko‘rib tu-ribsizki, men hech o‘zgargan emasman, holbu-ki, to‘satdan dovruq qozonib ketganim, ba‘zan o‘zimni ham shubhaga solib qo‘yadi. Lekin men o‘sha-o‘sha Martinman! Mening boshim ham, yelkalarim ham o‘sha, oyoq-qo‘llarimda hali ham o‘ntadan barmoq bor. Men hech qanday yangi iste‘dod va yangi fazilatim bilan kerila olmay-man. Miyam ilgari qanday bo‘lsa, shundayligi-cha qolgan. Hatto hech qanday yangi adabiy yoki falsafiy fikrlar ham tug‘ilgani yo‘q menda. Men hech kimga tanilmay yolg‘iz yashagan paytimdan buyon shaxsiy qiymatim hech ortgani yo‘q. Bas, shunday ekan, nega endi birdan hamma yerda aziz mehmon bo‘lib qoldim. Hech shak-shubha yo‘qki, odamlarga shaxsan mening o‘zim kerak emas, chunki men ilgari ular qayrilib qarashga ham or qilganlari o‘sha Martin Idenligimcha qol-ganman. Bundan chiqdi, ular mening shaxsiy fazilatimga hech daxli bo‘lmagan, menga tegish-ligi yo‘q allaqanday boshqa bir narsani qadrlar ekanlar. Mening nimamni qadrlashlarini aytaymi sizga? Hammaning hurmatiga sazovor bo‘lganim-ni qadrlashadi. Lekin bu hurmat mendan tashqa-rida-ku. U o‘zgalarning ongida. Bundan tashqari, endi puldor bo‘lganim uchun hurmat qilishadi. Lekin bu pullar ham mendan chetda. Ular har xil Jon, Tom, Jeklarning banklarida, kissalarida yo-tibdi. Xo‘sh, sizga ham shu tufayli, shu pul bilan shon-shuhrat tufayli kerak bo‘lib qoldimmi?

– Siz mening qalbimni tilka-pora qilib yubordingiz, – deb faryod qildi Ruf. – Sizni sevishimni, bu yerga ham faqat sizni sevganimdan kelganimni o‘zingiz bilasiz!

– Gaplarimga to‘g‘ri tushuna olmadingiz deb qo‘rqaman, – deb muloyimgina gapirdi Martin. – Menga shu narsani ayting-chi: nima uchun ilgari, mendan voz kechishga jur‘at eta olgan paytingizda meni hozirgichalik sevmagansiz?

– Meni kechiring, u gaplarni unuting! – deb jon-jahdi bilan chinqirib yubordi qiz. – Men sizni hamma vaqt sevganman! Eshityapsizmi: hamma vaqt! Shuning uchun ham bu yerda, sizning quchog‘ingizda turibman.

– Hozir juda ehtiyotkor bo‘lib qolganman, hamma narsani bamisoli tarozida tortib ko‘raman. Shunga ko‘ra, sizning muhabbatingizni ham tarozida tortib, uning salmog‘ini bilib olmoqchiman.

Ruf yigitning quchog‘idan sirg‘alib chiqib qaddini rosladi-da, unga diqqat bilan tikildi. Bir nima demoqchi bo‘ldi-yu, lekin indamay qo‘ya qoldi.

– Bu haqda mening fikrimni bilishni istaysizmi? – deb gapida davom etdi Martin. – Hozirgi mavqeimga erishganimdan keyin, meni o‘z sinfim kishilaridan boshqa hech kim tan olmadi. Kitoblarim yozilib bo‘lgandan keyin, qo‘lyozmalarimni o‘qiganlardan birontasi ularni ma‘qullab bir kalima ham so‘z aytmadi. Aksincha, meni go‘yo qandaydir gunoh ish bilan shug‘ullangan odamday faraz qilishib, yozuvchilik bilan shug‘ullanayotganim uchun qattiq koyishdi. Hammalari faqat «ishga kir» deb ta‘kidlashdi.

Ruf e'tiroz bildirmoqchi bo'lganday bir harakat qildi.

– Ha, ha, – deb gapida davom etdi Martin, – faqat siz ish haqida emas, jamiyatdagi mavqeim haqida gapirgan edingiz. «Ish» so'zi ham mening yozuvchilik bilan shug'ullanishim singari sizga yoqmasdi. Bu so'z chindan ham xiyla qo'pol! Lekin sizni ishontirib aytamanki, mening narimda, go'yo eng ashaddiy jinoyatchini to'g'ri yo'lga solmoqchi bo'lganday, meni ishga kirishga da'vat etishlaringiz, o'sha «ish» so'zidan ham qo'polroq edi. Xo'sh, keyin nima bo'ldi? Kitoblarimning matbuotda paydo bo'lishi va xalq meni yozuvchi deb e'tirof etishi sizning hissiyotlaringizda o'zgarish hosil qildi. Ilgari siz Martin Idenga turmushga chiqishdan bosh tortgan edingiz, holbuki, uning hamma asarlari o'sha paytdayoq yozilib bo'lgan edi. Sizning unga bo'lgan muhabbatigiz unchalik kuchli emas edi, shuning uchun ham unga xotin bo'lishga jur'at etolmagandingiz. Endi esa muhabbatigiz yetarli darajada kuchli bo'lib qolibdi, bu ajoyib o'zgarishning boisi, aftidan, aynan mening shuhrat qozonganimdan bo'lsa kerak. Daromadlarim haqida hozir gapirmoqchi emasman, balki siz ular haqida o'ylamagandirsiz ham, vaholanki, ota-onangiz uchun eng muhim narsa shu daromadlarim ekanligi muqarrar.

Bular menga manzur bo'ladigan narsalar emas! Eng yomon tomoni shundaki, meni muhabbatga, muqaddas muhabbatga shubha bilan qarashga majbur etadi! Nahotki muhabbat shon-shuhrat va olomonning e'tirofi bilan tirik bo'lsa? Chama-

si, shundayga o'xshaydi! Bu to'g'rida shu qadar ko'p o'yladimki, boshim aylanib ketdi.

– Sho'rlik bosh! – deb Ruf mehribonlik bilan Martinning sochini siladi. – Hecham aylanmasin endi. Boshqatdan boshlaymiz, Martin! Bilaman, oyimning gapiga kirib, yengiltaklik qilib qo'ydim. Oyimning gapiga kirmasligim kerak edi. Lekin siz o'zingiz zaif insonlarga shafqat qilish haqida ko'p gapirar edingiz-ku. Menga ham shafqat qiling. Xato qilib qo'ydim. Meni kechiring!

– O, kechiraman! – dedi Martin toqatsizlanib, – kechiradigan narsa bo'lmaganda, kechirish juda oson! Sizning qilgan ishingiz kechirimga muhtoj emas. Har kim o'ziga ma'qul tushgan ishni qiladi. Axir men ham xizmatga kirmaganim uchun sizdan uzr so'rab o'tirmayman-ku.

– Sizga yaxshilik tilagan edim, – deb shoshapisha e'tiroz bildirdi Ruf. – Sizni sevganimdan keyin, yaxshilik tilamay turolmasdim-da!

– To'g'ri, lekin menga yaxshilik tilayman deb, nobud qilayozdingiz. Ha, ha! Mening ijodimni, istiqbolimni barbod qilayozdingiz! Men tabiatan realistman, burjuaziya madaniyati esa realizmni yoqtirmaydi. Burjuaziya qo'rqoq. U hayotdan qo'rqadi. Siz bo'lsangiz meni ham hayotdan qo'rqishga majbur etmoqchi bo'ldingiz. Siz meni torgina bir katakka qamab, mahdud, razil fikrlarni qabul qildirmoqchi bo'luvdingiz. – Qiz e'tiroz bildirmoqchi bo'lgan edi, lekin Martin imo bilan so'zini bo'ldi. – Razolat qanchalik samimiy bo'lmasin, har holda, razolat burjuaziya madaniyatining, nozik burjua madaniyatining asosi his-

oblanadi. Siz bo'lsangiz mening jo'shqin qalbimni poymol qilib, meni ham o'z odamlaringizdan biriga aylantirmoqchi, o'z sinfiy g'oyalaringizni, sinfiy axloqingizni, sinfiy bid'atlaringizni talqin qilmoqchi bo'ldingiz.

Martin ma'yus bosh chayqab qo'ydi.

– Siz hozir ham meni tushunmayapsiz, gaplaringa siz men bergan ma'nodan tamomila boshqacha ma'no beryapsiz. Mening gaplarim hammasi siz uchun xayoliy gaplardir. Men uchun esa haqiqat. Juda nari borsa, tubanlikdan chiqqan bu qo'pol yigit sizning sinfingizni tanqid qilgani va uni razil deb atagani sizga bir ovunchoqdek tuyuladi, sizni ajablantiradi.

Ruf horg'in boshini uning yelkasiga qo'ydi, qo'ydi-yu, yana asabdan dag'-dag' titray boshladi. Martin Ruf gapirmasmikin deb bir daqiqacha sukut saqlab turdi, so'ng gapini davom ettirdi:

– Endi bo'lsa, siz muhabbatimizni qayta tiklamoqchi bo'lyapsiz! Er-xotin bo'lishimizni istayapsiz. Siz meni xohlayapsiz! Lekin gapimni to'g'ri tushuning, axir kitoblarim nashr qilinmagan va hech kimning maqtoviga sazovor bo'lmagan bo'lishim ham mumkin edi, shunga qaramay, men qanday bo'lsam shundayligimcha qolgan bo'lardim! Lekin siz o'shanda hech qachon mening oldinga kelmagan bo'lardingiz! Yolg'iz shu kitoblar tufayli... la'nati kitoblar...

– So'kinmang, – deb uning gapini bo'ldi qiz.

Martin zaharxanda qilib dedi:

– Ha, balli! Butun baxtingiz qimorga tikilgandan keyin qo'pol so'z eshitishdan qo'rqasiz. Siz hali ham hayotdan qo'rqasiz.

Ruf bu so'zlarni eshitib seskanib ketdi, bu so'zlar bilan Rufning bu yerga kelishga undagan jur'ati bir pulga arzimaydi deyayotganday edi, qizning nazarida Martin uni nohaq ayblayotgan edi, shuning uchun undan ranjidi.

Ular bir muddat sukut saqlab o'tirdilar; qiz, nima qilsam ekan, deb o'ylab azob chekib o'tirgan bo'lsa, yigit o'zining barbod bo'lgan muhabbati haqida o'ylab o'tirdi. U Rufni hech qachon chinakamiga sevmaganini aniq tushundi. U o'z tasavvurida bunyod etgan samoviy xilqatni, she'riyatning ilhom bulog'i, nurafshon porloq siymo bo'lmish Ruf ismli malakni sevar edi. Ammo burjuaziya ruhi bilan sug'orilgan va burjuaziya saviyasi bilan cheklangan haqiqiy Rufni hech qachon sevgan emas edi.

Qiz birdan gapira boshladi:

– Aytgan gaplaringizning ko'pi haq ekanligini e'tirof etaman. Men chindan ham hayotdan qo'rqar edim. Men sizni unchalik kuchli sevmandim. Ammo endi chin muhabbat bilan sevishni o'rganib oldim. Men sizni qanday bo'lsangiz, shundayligingizcha sevaman, ilgari qanday bo'lgan bo'lsangiz, o'sha holingizcha sevaman, sizni hozirgi holga keltirgan sabab tufayli sevaman. Men sizni o'zimning sinfim kishilaridan ajratib turuvchi jami fazilatlarigiz uchun sevaman. Sizning fikrlaringizga ba'zida tushunmasam ham mayli. Ularni tushunib olaman. Fikrlaringizga tushunish uchun qo'limdan kelgancha harakat qilaman! Papiros chekishingiz ham, so'kishingiz ham bularning hammasi vujudingizning bir juz'idir va men sizni shuning

uchun ham sevaman. Men ko'p narsani o'rganib olaman. Hozir, o'n daqiqa ichida juda ko'p narsani o'rganib oldim. Ilgarilari bu yerga kelishga hech jur'at eta olarmidim? O, Martin!..

Ruf yuzini uning ko'ksiga qo'yib yig'lab yubordi. Martin uni bugun birinchi marta mehribonlik bilan quchoqladi. Qiz buni sezib, sevinch to'la ko'zlarini unga tikdi.

– Fursat o'tgan, – dedi Martin. U Lizzining so'zlarini esladi. – Men kasalman, Ruf... Yo'q, jisman emas. Ruhan kasalman, miyam kasal. Men uchun hech narsaning qadr-qiymati qolmadi. Ko'nglim hech nima istamaydi. Agarda bundan yarim yil oldin kelganingizda edi, hamma narsa boshqacha bo'lishi mumkin edi. Lekin endi kechikdingiz, judayam kechikdingiz!

– Yo'q, kech emas! – deb chinqirib yubordi qiz. – Men buni isbotlab beraman sizga. Mening muhabbatim qat'iy ekanligini, muhabbatim shu paytgacha hayotimda eng qadrli bo'lgan hamma narsalardan ham qadrliroq ekanligini sizga isbot qilaman. Men burjuaziya sajda qilgan hamma narsalardan voz kechishga ham tayyorman. Men endi hayotdan qo'rqmayman. Men otamdan ham, onamdan ham yuz o'giranman, nomimni tahqir girdobiga otaman. Men hoziroq shu yerda siz bilan qolishga tayyorman, agar istasangiz, bu erkin muhabbat bo'lsin, shuning o'zidan men mag'rurlanishim va quvonishim mumkin. Agar men ilgari o'z muhabbatimga bevafoqlik qilgan ekanman, endi shu muhabbatim tufayli ilgari meni bunday xoinlikka jalb qilgan hamma narsaga xiyonat qilishga tayyorman.

Ruf Martinning qarshisida turar, ko'zlari chaqnar edi.

– Kut yapman! – deb pichirladi qiz. – Martin, «ha» deb javob berishingizni kut yapman. Menga bir qarang.

«Naqadar soz, – deb o'yladi Martin qizning chehrasiga boqib, – Ruf o'zining o'tmishdagi xatolarini yuvdi, u chinakam ayol bo'ldi, nihoyat u burjuaziya urf-odatlarini kishanini parchalab tashladi. Bularning hammasi juda soz, muaz-zam, oliyjanob ish. Lekin menga nima bo'ldi?»

Qizning jur'ati Martinni hayajonlantirmadi, vujudini titratmadi. Martin faqat aql-idroki bilan Rufning xatti-harakatini taqdirlardi. Alangalanish o'rniga sovuqqina taqdirlash. Uning yuragi tez-tez urmadi ham, hirsini uyg'onmadi ham. Esigani yana Lizzining so'zlari keldi.

– Men kasalman, og'ir kasalman, – dedi Martin umidsizlik bilan qo'l siltab... – Bu qadar qattiq betobligimni shu paytgacha payqamagan ekanman. Ichimda bir nima uzilib ketgandek. Men hech qachon hayotdan cho'chigan emasman, lekin hayot lazzatidan mahrum bo'lishimni hech qachon tasavvur etmagan edim. Endi bo'lsa hayotdan to'nganim ma'lum bo'ldi. Mening qal-bimda hech qanday orzu-istakdan asar qolmadi. Men hatto sizni ham istamayman! Ko'ryapsizmi! Shunchalik kasalman!

U boshini kursi suyanchig'iga qo'yib, ko'zlarini yumdi, shunda, xuddi yig'lab turgan bola shaffof ko'z yoshlari orasidan quyoshga boqib bir zumda hamma alamlarini unutib yuborganday, Martin ham to'satdan ko'z oldida namoyon bo'lgan man-

zarani – quyuq yaproqlarni yorib oʻtgan quyosh nurini koʻrib, oʻzining kasalligini ham, Rufning shu yerdaligini ham, butun borliq olamni ham unutib qoʻygan edi. Yaproqlar yam-yashil, ular koʻzni qamashtirardi. Martin yaproqlarga qarab koʻzi ogʻirdi. Lekin oʻzi ham sababini bilmay, koʻzini yaproqlardan uzmay oʻtirardi.

U eshik bandining gʻijirlaganidan hushiga keldi. Ruf eshik oldida turardi.

– Bu yerdan qanday chiqib ketaman? – mungli ovoz bilan soʻradi u. – Qoʻrqaman.

– O, meni kechiring! – deb yubordi Martin, dik etib oʻrnidan turarkan. – Menga nima boʻldi, oʻzim ham bilmayman! Bu yerdaligingizni unutib qoʻyibman.

U peshanasini ishqadi.

– Oʻzingiz koʻryapsiz, judayam sogʻ emasman. Uyingizga kuzatib qoʻyaman. Biz orqa eshikdan chiqamiz. Hech kim sezmaydi. Faqat oʻrtigingizni yuzingizga tushirib oling.

Ular tor yoʻlaklardan oʻtib, gʻira-shira yoritilgan zinalardan tushib borisharkan, Ruf Martinning qoʻlini mahkam ushlab olgan edi.

– Endi bu yogʻi bexavotir, – dedi qiz, koʻchaga chiqqanda va qoʻlini tortib olmoqchi boʻldi.

– Uyingizga kuzatib qoʻyaman, – dedi Martin.

– Yoʻq, yoʻq, – deb eʼtiroz bildirdi qiz, – keragi yoʻq!

U yana qoʻlini tortib olishga urindi. Bu narsa birdan Martinni qiziqtirib qoʻydi. Goʻyo qiz xavf-xatar daf boʻlgan paytda bir nimadan choʻchi-yotgandek koʻrinardi. Qiz goʻyo tezroq oʻzini Martindan qutqarishga urinayotganga oʻxshar-

di. Martin buni asablarning buzilganidan deb o'yladi. Shuning uchun u Rufning qo'lini qo'yib yubormay, ularning uyi tomon burildi. Ular muyulishga yaqinlashganida, Martin birdan uzun palto kiygan bir odamni ko'rib qoldi, u shosha-pisha darvozadan kirib ketdi. Martin darvoza yonidan o'tib borarkan, ichkariga ko'z qirini tashladi-yu, notanish odamning yoqasi ko'tarilgan bo'lishiga qaramay tanidi, u Rufning akasi Norman edi.

Martin bilan Ruf deyarli hech nima haqida gaplashmay borardilar. Qiz ma'yus, Martin esa hamma narsaga beparvo edi. U Tinch okeani orollariga jo'nab ketayotganini aytdi, qiz esa bexosdan Martinning xonasiga bostirib kirgani uchun undan uzr so'radi. Vassalom. Ular Rufning eshigi oldida xuddi hech qanday voqea sodir bo'lmaganday xayrlashishdi. Bir-birlarining qo'llarini siqishib, «Yaxshi yotib turing», ham deyishdi. Martin yana odob yuzasidan shlyapasini bir oz ko'tarib qo'ydi. Eshik yopildi. Martin papiros tutatdi-da, so'ng mehmonxona tomonga qaytdi. U Norman yashiringan darvoza oldidan o'tib keta turib, shu yerda bir daqiqagina o'ygatolib turib qoldi.

– U meni aldabdi, – deb ovoz chiqarib o'yladi Martin. – O'z ixtiyorim bilan qo'rqmasdan ish ko'rdim, deb meni o'z so'ziga ishontirmoqchi bo'ldi, holbuki, akasi uni uyga qaytarib olib ketish uchun poylab turgan ekan. – Martin xoxolab kulib yubordi. – Obbo burjuylar-ye! Kambag'al vaqtida uning singlisiga yaqin ham yo'lay olmagan edim. Bankda pulim paydo bo'lgandan

keyin esa uning o'zi singlisini oldimga yetaklab olib kelibdi!

Martin endi yo'lida davom etmoqchi bo'lgan edi, birdan qandaydir bir sayoq unga to'qnash kelib, tirsagiga turtdi:

– Begim, 25 sent hadya qiling! Tunash uchun pulim yo'q, – dedi u.

Bu tanish ovozni eshitib Martin yalt etib qaradi. Bir zumdan keyin u Joning qo'lini mahkam siqib ko'risha boshladi.

– Esingdami, yana uchrashamiz, deb aytgan edim senga, – derdi Jo. – Ko'nglim sezgan edi-da. Mana, nihoyat uchrashdik!

– Ko'rinishing juda yaxshi-ku! – dedi Martin zavqlanib. – Hatto ancha semirib ham qolibsən.

– Semirganim rost, – deb tasdiqladi Jo uning gapini og'zi qulog'iga yetib. – Sayoq bo'lganimdan buyon hayotning lazzatini tatiy boshladim! O'ttiz qadoq semirdim, o'zimni juda yaxshi his qilyapman! Ilgarilari o'lgudek ishlab cho'p-ustuxon bo'lib ketgan edim. Chamasi, sayoqlik mijozimga yoqdi shekilli!


– Lekin tunagani pul so'rab yuribsən-ku, – deb uni mazax qildi Martin, – kecha xiyla sovuq!

– Hm! Tunashga pul so'rayapman! – Jo cho'ntagidan bir siqim chaqa pul oldi. – Menga shuning o'zi yetarli, – deb e'tirof etdi u, – lekin ko'rinishingdan juda saxiy odamga o'xshading. Shuning uchun seni mo'ljalga oldim.

Martin xoxolab kulib yubordi.

– Eh-he, bu pullaring ichkilikka ham yetadi-yu, – dedi Martin.

Jo jiddiy qiyofada pullarini cho'ntagiga solib qo'ydi.



– Bu menga to‘g‘ri kelmaydi! – dedi u, – ichishni tashlaganman. Ko‘nglim tortmaydi. Sen bilan vidolashganimdan keyin faqat bir marta qattiq mast bo‘ldim, o‘shandayam ahmoqlik qilib och qoringa ichib qo‘yganimdan shunday bo‘ldi. Men moldek ishlagan paytlarimda, molday ichardim. Endi odamlarga o‘xshab yashay boshlaganimdan buyon odamlarga o‘xshab ichadigan bo‘lganman! Ba‘zi-ba‘zida bir stakangina ichaman-u, bo‘ldi qilaman!

Martin Jo bilan ertasi kuni uchrashish to‘g‘risida kelishib olib, mehmonxonaga ketdi. U vestibyulga kirib, paroxodlar jadvaliga qaradi. Yana besh kundan keyin Taiti oroliga «Maripoza» paroxodi jo‘nab ketarkan.

– Telefon orqali menga kayuta oldirib qo‘ying, – dedi u portyega, – lekin yuqorida bo‘lmasin, pastda, chap tomonda bo‘lsin. Unutmaysiz-a? Yaxshisi, yozib qo‘ying: chap tomonda.

U xonasiga kirib o‘rniga yotdi va xuddi go‘daklardek bir zumda uxlab ketdi. Kechqurungi voqealardan uning miyasida asar ham qolmagan edi. Uning miyasi endi taassurotlarni singdirmas edi. Hattoki Joni uchratganida paydo bo‘lgan shodligi ham bir zumda o‘tib ketdi. Bu shodlik bir ongina davom etdi, undan keyin esa o‘zining sobiq o‘rtog‘ini uchratib qolganidan afsuslana boshladi, chunki u bilan gaplashishni ham istamagan edi. Besh kundan keyin o‘zi sevgan okeanga suzib ketishi ham uni sevintirmasdi. U huzur qilib ko‘zlarini yumdi, sakkiz soat xotirjam uxlatdi. U uyqusida betoqat bo‘lmadi, tush ham ko‘rmadi. Uyqu hamma narsani unutishga

yordam berardi, shuning uchun Martin uygʻonib ketganida har safar afsuslanardi. Hayot uning tinkasini quritar va qiynar, vaqt esa uni qattiq iztirobga solardi.

QIRQ OLTINCHI BOB

– Menga qara, Jo, – deb gap boshladi Martin ertasi kuni, – bu yerda, Yigirma sakkizinchi koʻchada bir fransuz bor. U picha pul jamgʻaribdi, endi Fransiyaga qaytmoqchi. Uning yaxshi jihozlangan kichkinagina kirxonasi bor. Agar bir joyda muqim yashash niyatida boʻlsang, bu sen uchun juda qoʻl keladi. Mana senga pul, oʻzingga durustroq kostyum sotib olgin-da, mana bu manzilga bor. Bu komissioner, unga aytib qoʻyganman, bironta durustroq joy topib beradi senga. U sen bilan borib, hammasini koʻrsatadi. Agar kirkxona senga yoqsa-yu, aytilgan bahosiga – oʻn ikki ming dollarga arziydi, deb hisoblasang, menga kelib ayt, u seniki boʻladi. Endi joʻnab qol! Men bandman. Keyin bafurja suhbatlashamiz.

– Menga qara, Mart, – Jo ichidan qaynab kelayotgan gʻazabini zoʻr-bazoʻr bosib, sekingina gapirdi, – men bu yerga sen bilan koʻrishgani kelganman. Bildingmi? Sendan sovgʻaga kirkxona olgani kelganim yoʻq! Oldingga eski qadrdonimni koʻray deb kelsam-u, sen boʻlsang tumshugʻimga kirkxonani tiqsang! Men senga bir gap aytaymi? Bor, oʻsha kirkxonang bilan birga qoʻshmozor boʻl!

Jo oʻrnidan turib, xonadan chiqib ketmoqchi boʻlgan edi, lekin Martin uning yelkasiga chang solib, oʻziga qaratdi.

– Gap shu, Jo, – dedi u, – agar menga shunaqa ohang qiladigan boʻlsang, eski odatim boʻyicha shunaqayam doʻpposlaymanki, onadan tugʻilganingga pushaymon boʻlasan! Bildingmi? Xoʻsh? Xohlaysanmi?

Jo bir silkinib, Martinni itarib yubormoqchi boʻldi, ammo uni ushlab turgan qoʻllar judayam baquvvat edi. Ikkovlari bir-birlariga yopishib, uy ichida chirpirak boʻlib aylana boshlashdi, yoʻl-yoʻlakay kursiga borib tushib, uni sindirishdi-da, nihoyat, polga dumalab tushishdi. Jo yerda chalqancha yotar, Martin esa tizzasini uning koʻksiga tirab ustida oʻtirardi. Martin Joni qoʻyib yuborganida u zoʻrgʻa nafasini rostlab oldi.

– Mana endi gaplashsa boʻladi, – dedi Martin, – koʻrib turibsanki, men bilan oʻchakishmaganing maʼqul. Men dastavval kirxona masalasini biryoqli qilmoqchiman. Ana oʻshandan keyin kelsang, eski qadrdonligimizni xotirlab boshqa narsalar toʻgʻrisida suhbatlashamiz. Senga ayt-dim-ku, hozir bandman deb. Oʻzing koʻr.

Xuddi shu payt lakey bir toʻp xat va jurnallar-ni olib kirdi, bu ertalabki pochta edi.

– Oʻzing oʻylab koʻr, ham suhbatlashib, ham shularning hammasini oʻqib boʻladimi? Borib kirxona masalasini hal qilgin-da, keyin shu yerga qaytib kel.

– Ha, boʻpti, – istar-istamas rozi boʻldi Jo. – Sen shunchaki, meni boshingdan soqit qilmoqchisan deb oʻylabman, endi koʻrsam, yanglishgan ekanman. Ammo lekin meni boksdan yenga olmaysan, Mart. Istagan narsangdan oʻynayman.

– Yaxshi, biz keyin qo‘lqop kiyib, kuch sinashib ko‘ramiz, – dedi kulib Martin.

– Albatta kuch sinashamiz! Oldin kirxonani sotib olay, – deb Jo mushtini do‘laytirib ko‘rsatdi. – Buni ko‘rdingmi? Hash-pash deguningcha yerga qulataman seni.

Jo nihoyat chiqib ketdi, Martin yengil nafas oldi. U odamovi bo‘lib qolayotgan edi. Odamlar bilan muomala qilish unga tobora qiyin tuyulardi. Oldida odamlar bo‘lsa, yuragi siqilar, ular bilan suhbat qurishga majbur bo‘lsa, zardasi qaynardi. Odamlar uning asabiga tegardi, shuning uchun Martin biron kishi bilan uchrashib ulgurmasdan, undan qutulish uchun bahona qidira boshlardi.

Jo ketganidan keyin, Martin kelgan xat va jurnallarga darrov qaramadi. U yarim soatcha kresloda hech nima bilan shug‘ullanmay o‘tirdi, uning miyasida, faqat ahyon-ahyonda, allaqanday uzuq-yuluq fikrlar lip etib o‘tar, mudragan aql misoli uchqundek chaqnab ketar edi.

Nihoyat, u turib kelgan pochmani ko‘zdan kechira boshladi. O‘ndan ortiq maktubning mazmuni avtograf yuborishni iltimos qilishdan iborat edi, bunday xatlarni Martin bir qarashda tanirdi; qolganlari moddiy yordam so‘rovchi bir zayldagi iltimosnomalar, doimiy harakatda bo‘luvchi mexanizm modelini qurgan ixtirochidan va yer sathi g‘ovak kurraning ichki qismidir, deb isbotlamoqchi bo‘lgan matematikdan tortib, kommunistik koloniya tashkil qilish uchun Meksikadagi Kaliforniya yarimorolini sotib olishga mablag‘ ajratishni so‘rovchi odamgacha,

har xil antiqa xayolparast odamlarning xatlari edi. Martin bilan tanishishni istagan ayollarning ham maktublari bor edi; u xatlardan birini o'qib turib jilmayib qo'ydi: maktub muallifi o'zining boadab va diyonatli ayol ekanligini isbotlash maqsadida maktub ichiga cherkovda doimiy o'rin uchun haq to'lagan kvitansiyasini ham solib yuboribdi.

Noshirlar va muharrirlar uni xatga ko'mib tashlar: jurnallar undan maqolalar so'rar, kitob nashriyotlari, yangi kitobingizni yuboring, deb yolvorishar edilar, hamma uning qo'lyozmalariga mushtoq edi, lekin bir zamonlar aynan shu sho'rlik qo'lyozmalarini tahririyatlarga yuborish uchun Martin bor bisotini garovga qo'yar edi. Maktublar orasida hech kutilmagan cheklar ham – kitobining inglizcha nashri uchun yuborilgan haq, xorijiy nashriyotlar yuborgan avanslar bor edi. Martinning Angliyadagi agenti Germaniyaga uning uchta kitobini tarjima qilish huquqi berilganini yozibdi; uning asarlari Shvetsiyada ham tarjima qilina boshlagan edi, lekin Shvetsiya Bern bitimida ishtirok etmagan edi, shuning uchun bu tarjimalar uchun hech qanday haq olib bo'lmas edi. Rossiyadan ham talabnoma keldi, u ham mutlaqo rasmiy edi, chunki bu mamlakat ham Bern bitimida ishtirok etmagan edi.

Martin gazeta qirqmalarini yuboruvchi shobadan kelgan birtalay paketlarni ochdi va o'zi haqida va nihoyatda tez o'sib borayotgan shuhrati haqida yozilgan maqolalarni o'qiy boshladi. U dadil bir harakat bilan xaloyiqqa butun hamma asarlarini namoyish qildi. Daf'atan

shuhrat qozonishning boisi ham shunda bo'lsa kerak. U zo'r kelib olomon diqqatini o'ziga qaratdi; Kipling ham xuddi shunday bo'lgan edi; u o'lim to'shagida yotganida olomon podaga xos savq tabiiylik bilan uning kitoblariga tashlangan edi. Oradan yarim yil o'tgach, yana o'sha olomon o'qigan kitoblarining hech yeriga tushunmay, Kiplingni oyoq ostiga olib loyga qorishtirib tashladi. Martin shularni eslab jilmayib qo'ydi. Kim bilsin, balki yarim yildan keyin u ham shu ko'ygga tushar. Lekin u olomoni aldaydi. U paytda Martin bu yerdan uzoqda, janubiy dengizda bo'ladi, o'zining qamish kulbasini quradi, marvarid va kokos mag'izi xarid qiladi, to'liqin ustida suv tagidagi qoyalardan sakrab o'tadi, akula tutadi, Tayoxae vodiysi yaqinidagi vohada yovvoyi echkilarni ovlaydi.

Xuddi shu payt u o'zining naqadar nochor ahvolda ekanligini yaqqol tasavvur qildi. U birdan o'zini ko'lankalar vodiysida, ajal vodiysida ekanligini angladi. Uning hayoti tugagan; umr quyoshi so'nib, xiralashib, bota boshlagan edi. U hozir juda ko'p uxlashini va uxlagan sari yana ko'proq uxlagisi kelishini o'yladi, holbuki, yaqinida uyqudan nafratlanardi. Uyqu uning hayotining eng qimmatli soatlarini o'g'irlardi. Yigirma to'rt soatning to'rt soatini uyqu bilan o'tkazish, to'rt soat kamroq yashash demak edi. O'shanda uyqudan juda bezgan edi! Endi esa hayotdan shunday bezgan! Hayot uni toliqtirar, hayot achchiq edi. Uning halokati ana shunda edi. Hayotga intilmaydigan odam o'limga yo'l axtara boshlaydi. Martinning qalbida bir vaqtlardagi o'z

jonini saqlashga intilish instinkti uygʻondi. Ha, tezroq joʻnab ketishi kerak. U xonaga bir-bir koʻz yugurtirib chiqdi-da, buyumlarni yigʻishtirish kerak, degan fikrdan taʼbi xira boʻlib ketdi. Lekin hali shoshilmasa ham boʻladi. Hozircha ul-bul xarid qilish bilan shugʻullansa boʻlardi.

U shlyapasini kiyib koʻchaga chiqdi va erta-labki vaqtini ovchilar doʻkonida oʻziga miltiq, patronlar va baliq tutish asboblari xarid qilish bilan oʻtkazdi. Oldi-sotdi uchun kerakli mollarni esa, Taitiga yetib olgandan keyin buyurtirmoq-chi boʻldi, chunki mollarga boʻlgan talab tez-tez oʻzgarib turardi. Mollarni Avstraliyadan yozdirib olsa ham boʻlardi. Xayoliga kelgan bu fikrdan Martin sevinib ketdi. Biron ish bilan mashgʻul boʻlish kerak, degan fikr unga haddan tashqari ogʻir koʻrinardi. Shuning uchun mehmonxonaga qaytarkan, uni kutib turgan rohatbaxsh kreslosi haqida oʻylab huzur qildi, lekin bu kreslosiga Jo joylashib olganini koʻrib, jahli chiqqanidan chin-qirib yuborayozdi.

Jo kirxonadan mamnun edi. Hamma gaplar kelishib qoʻyilgan, endi u ertadan boshlab kir-xonaning haqiqiy xoʻjayini boʻladi. Martin kara-votga choʻzilib, koʻzlarini yumganicha Joning gaplarini eshitib yotdi. Martinning xayoli allaqa-yoqlarda, deyarli ongidan tashqarida sangʻib yurardi. Oʻqtin-oʻqtin u oʻzini zoʻrlab Joga bi-ron nima deb javob qilishga urinardi. Axir Joni yaxshi koʻrardi-da. Ammo Joning qalbi haddan ziyod hayot zavqi bilan limmo-lim edi, bu esa Martinga juda ogʻir botar, uning horgʻin ruhini juda ogʻir yukdek ezardi. Jo bir kun emas, bir

kun albatta boks qo'loqlarini kiyib olishamiz deganida, Martin yuragida turgan sanchiqdan chinqirib yuborishga sal qoldi.

– Esingda bo'lsin, Jo! Sen kirxonangda, bir vaqtlar «Qaynar buloq»da aytgan tartiblaringni joriy qilishing kerak, – dedi u. – Hech qanday ortiqcha ishlash, tunda ishlash bo'lmasin. Odamlaringga yaxshi haq to'laysan. Keyin, hech qachon bolalarni ishga yollamaysan! Hech qanday ishga!

Jo bosh irg'ab, cho'ntagidan yon daftarchasini oldi.

– Bugun nonushta oldidan ish tartibini yozdim. Mana, eshit.

O'qiy boshladi, Martin esa ma'qullab «hm, hm» deb yotardi, lekin o'zi faqat: «Qachon axir daf bo'larkin bu Jo?» deb o'ylardi.

Martin uyg'onganida allamahol bo'lib qolgan edi. Asta-sekin u hushini yig'ib, bo'lgan voqealarni eslay boshladi. Xonada hech kim yo'q edi. Aftidan, Jo Martinning uxlab qolganini ko'rib, sezdirmay chiqib ketganga o'xshaydi. «Juda bodob ish qilibdi», deb o'yladi Martin. Keyin ko'zlarini yumib, yana uxlab ketdi.

Keyingi kunlarda Jo o'z ishlarini to'g'rilash bilan ovora bo'lib, Martinning g'ashiga unchalik tegmadi. Martinning jo'nab ketishi arafasida gazetalarda «Martin Iden, «Maripoza»da dengiz safariga chiqyapti» degan xabar bosilib chiqdi. U hamon o'sha jonini saqlashga intiluvchi instinktga itoat etib, o'zini doktorga ko'rsatdi, doktor uni sinchiklab ko'rib chiqdi. Hamma a'zolari soppa-sog', o'pka va yuragi juda ham yaxshi ekan. Tibbiyot

nuqtayi nazaridan uning hamma a'zolari bus-bu-
tun, sog'lom va me'yorida ishlayotgan ekan.

– Hech qanday kasalingiz yo'q, mister Iden,
– dedi vrach, – mutlaqo. A'zoyi badaningiz hay-
ron qolarli darajada sog'lom, havasim keladi.
Sihat-salomatligingiz juda yaxshi. Ko'krak qa-
fasingiz zo'r! Har qanday ovqatni ham hazm qila
oladigan me'dangizni e'tiborga olsak, bunday
organizm mustahkam sog'liq va kuch-quvvat
garovidir. Bunaqa odam mingtadan, hatto o'n
mingtadan bitta chiqib qoladi. Siz yuz yil ya-
shashingiz mumkin, agar bironta baxtsiz hodisa
yuz bermasa.

Lizzi unga to'g'ri tashxis qo'ygan edi, bunga
Martin ishondi. U jismonan soppa-sog' edi. Le-
kin uning ichida qandaydir dardi bor edi, u faqat
janubiy dengizlardagina bu dardiga davo topish
umidida edi. Eng yomoni shu bo'ldiki, u endi
safarga otlanganida birdan yo'lga chiqish ishti-
yoqi qolmadi. Tinch okeani nazarida, burjuaziya
madaniyatidan zarracha ham durustroq emasdi.
U sayohat haqida o'ylaganida hech qanday ruhiy
ko'tarinkilikni sezmasdi, bil'aks, oldidagi safar
uni azobga solar, shuning uchun tezroq kemaga
chiqa qolsam-u, ortiq hech nimaning tashvishini
qilmasam, hech nimani o'ylamasam, derdi.

Oxirgi kun Martin uchun chinakam azob-
uqubatli bo'ldi. Bernard Xigginbotam va Gertru-
da bolalari bilan, German Shmidt Meriyen bilan
gazetalardan Martinning safarga jo'nab ketayot-
ganini bilib, vidolashgani kelishdi. Undan keyin
Martin ba'zi ishlarni bitirish: cheklar bo'yicha
haq to'lash, shilqim muxbirlarning istagini ba-

jarish bilan band bo'ldi. Lizzi Konolli bilan kechki maktab ostonasida oyoq ustida xayrlashdi. Mehmonxonaga qaytib kelib, u yerda Joni uchratdi; Jo kun bo'yi kirxonadan chiqmay ishlab, kechqurun qo'li bo'shabdi-yu, g'izillagancha uning oldiga kelibdi. Bu hol Martinning sabr kosasini toshirib yuborgan bo'lsa ham, asab bilan kreslo yondorini changallagancha yarim soatcha oshnasining valaqlashiga quloq solib o'tirishga o'zini majbur etdi.

– Esingda bo'lsin, Jo, – dedi u gap orasida, – bu kirxonaga birov seni bog'lab qo'ygani yo'q. Ko'ngling istagan paytda uni sotib pulini ko'kka sovurib yuborishing mumkin. Qachonki, bu ish joningga tegsa-yu yana darbadarlik qilging kelib qolsa, darrov juftakni rostla. Ko'ngling qanday yashashni istasa, shunday yashashga harakat qil!

Jo bosh chayqadi.

– Yo'q, endi, men katta yo'llarda sargardon bo'lib yurmayman. Sayoq yurish juda yaxshi narsa-yu, ammo bir tomoni yomon-da, men qizlarni aytyapman. Qizlarsiz turolmayman! Xohlasang-xohlamasang shu. Lekin, o'zing bilasan, sayoq yurish uchun so'qqabosh bo'lish kerak. Ba'zida, musiqa sadosi eshilib turgan bironta uy oldidan o'tib qolasan, derazadan qarasang, do'ndiqqina oyim qizlar qordek oppoq ko'ylak kiyishib kula-kula raqs tushayotgan bo'ladi! Eh, padariga la'nat! Tug'ilganingga pushaymon bo'lib ketasan kishi. Men bog' sayrini, raqs tushishni, oydin kechada kezib yurishni va hokazolarni juda yaxshi ko'raman. Sayoq bo'lib yurish qayoqda-yu, kirxonaga xo'jayin bo'lib olib, bashang ki-

yinib, cho'ntakka har ehtimolga qarshi bir siqim dollar solib yurish qayoqda! Kecha men bu yerda bir do'ndiq qizni ko'z ostimga olib qo'ydim. Qani endi, hozirning o'zginasida uylanib ola qolsam, rost aytyapman. Kun bo'yi o'sha qizni eslaganimda, suyunganimdan yuragim qinidan chiqib ketay deydi. Ko'zlari chunonam muloyim, ovozi bo'lsa misli nafis musiqiy kuy. Oh, Mart, nega endi uylanmaysan-a? Shuncha pul bilan eng go'zal qizga uylanib olsang bo'ladi!

Martin jilmayib qo'ydi va nima uchun odamlarda uylanishga mayl tug'ilarkin, deb ich-ichidan taajjublandi. Bu narsa Martinga ham g'alati, ham tushunib bo'lmaydigan narsadek tuyuldi.

U safarga jo'nashi oldidan «Maripoza» palubasida turib, kuzatuvchilar orasida Lizzi Konollini ko'rib qoldi. «Qizni o'zing bilan olib ket», deb pichirladi unga doxiliy bir ovoz. «Axir oliyanoblik ko'rsatish nechog'lik oson, qizni esa behad xushbaxt qilgan bo'lasan». Martin bir soniya olib ketsammikin, deb o'ylanib qoldi, lekin shu zahotiyuq bu o'y vahimaga aylandi. Martinning charchagan qalbi norozilik bildirdi. U paroxod bortidan yiroqlasharkan; «Yo'q, azizim, sen juda og'ir kasalsan», deb pichirladi.

Martin o'z kayutasini ichidan berkitib oldi va to paroxod ochiq dengizga chiqquncha o'sha yerda o'tirdi, Ovqat paytida kayut-kompaniyada Martinni eng faxriy o'ringa – kapitanning o'ng tomoniga o'tqazdilar, shu onning o'zida Martin, «Maripoza»dagi yo'lovchilarning hammasi uni zo'r e'tibor bilan kuzatayotganini payqadi; sayohatga chiqqan ma'lum va mashhur shaxs odat-

da shunday e'tiborga sazovor bo'lar edi. Biroq bironta ham mashhur shaxsning o'z atrofidagi kishilardan Martinchalik hafsalasi pir bo'lmagan edi. Bu buyuk odam vaqtining ko'p qismini palubada ko'zini yumib yotish bilan o'tkazardi, kechqurun esa yotib uxlagani hammadan oldin kirib ketardi.

Bir-ikki kundan keyin yo'lovchilar dengiz kasalidan tuzalib o'zlariga kelishdi, endi ular ertalabdan kechgacha salonma-salon kezib yurishar, palubani aylanishardi. Martin ular davrasida qancha ko'p bo'lsa, shuncha asabiy-lashardi. Vaholanki, u o'zining nohaq ekanligini tushunardi. Har ne bo'lganda ham bular dilbar va xushfe'l kishilar edi, buni e'tirof etishga o'zini majbur qilgan bo'lsa ham, baribir, «ular hammasi burjuaziyaga o'xshash ma'naviy mahdud va aql bobida ojiz», deb ko'nglidan o'tkazib qo'yardi. Martin bu odamlar bilan suhbat qurganida zerikib ketardi, nazarida, ular omi va bema'ni odamlarga o'xshardi. Xushchaqchaq yoshlarning shov-shuvi uning asabiga tegardi. Yoshlar bir yerda jim o'tirisholmas: palubaning u boshidan bu boshiga yugurishar, ser-so²⁹ o'ynashar, delfinlarni maroq bilan tomosha qilishar, uchuvchi baliqlar galasini ko'rganda chinqirishib yuborishardi.

Martin ko'p uxlardi. U ertalabki nonushtadan keyin, shezlongga yetib qo'liga jurnal olar, ammo uni hech o'qib tugata olmasdi. Bosma satrlar uning ko'zini tindirardi. U odamlarning yozish uchun mavzu topganidan ajablanar va ajabla-

²⁹ Serso – gardish o'yini.

nib turib, o'z kreslosida tinchgina uxlab ketardi. Ikkinchi nonushtaga zang chalinganida uyg'onib ketib, uyg'onish kerakligidan achchiqlanardi.

Bir kun Martin uyqusini qochirish uchun kubrikka matroslar oldiga tushdi. Lekin uning nazarida matroslar ham u matros koykasida yotib yurgan paytdan beri o'zgarib ketgandek tuyuldi. U o'zi bilan bu merov, diqqinafas, molsifat odamlar orasida hech o'xshashlik topa olmay, umidsizlikka tushdi. U yerda – yuqorida, Martin Idenning hech kimga keragi yo'q edi, ammo bir vaqtlar o'zi yaxshi bilgan va sevgan o'z sinfi kishilari davrasiga ham endi qayta olmasdi. Bularning ham Martinga keragi yo'q edi. Ular ham birinchi darajali kayutalarda ketayotgan beaql yo'lovchilar singari uning asabini qo'zitardilar.

Ko'zi og'rigan odamni porloq nur qanchalik qiynasa, hayot ham Martinni shunchalik qiynoqqa solardi, hayot uning qarshisida parpirab turar va kamalak ranglarida tovlanarkan, Martinni azoblardi. Chidab bo'lmaydigan darajada azoblardi.

Martin Iden umrida birinchi marta birinchi darajali kayutada sayohatga chiqqan edi. Ilgarilari shunday kemalarda safarga chiqqanida yo vaxtada turar yoki qozonxonada qora terga tushib ishlardi. O'shanda u ko'pincha boshini lyukdan chiqarib, palubada sayr qilib yurgan, chaqchaqlashgan, suhbatlashgan, bekor sang'ib yurgan bashang passajirlarni tomosha qilardi; paluba tepasiga tortilgan chodir ularni oftob va shamoldan to'sib turardi; ular nimaiki narsani ixtiyor qilsalar, oyoq-qo'li chaqqon styuard-

lar darhol istaklarini bajo keltirardilar. Dim ko'mirxonadan chiqqan Martin uchun bu manzaralar allaqanday jannatni eslatardi. Mana endi bo'lsa, uning o'zi eng hurmatli yo'lovchi sifatida, ovqat paytida kapitanning o'ng yonida o'tiribdi, hamma unga ehtirom bilan tikilyapti-yu, ayni vaqtda, Martinning o'zi kubrik va qozonxonani yo'qolgan jannatdek qo'msaydi. U yangi jannatni topa olmadi, eskisidan esa tamoman ajragan edi.

Martin qisman bo'lsa ham biron narsa bilan mashg'ul bo'lish uchun paroxod xizmatchilari bilan suhbat qurib, o'z baxtini sinab ko'rmoqchi bo'ldi. U mexanik yordamchisi bilan gaplashgan edi, u ziyoli odam ekan, shu zahoti sotsialistik tashviqot yurgizib, Martinning cho'ntagini pamflet va varaqalar bilan to'ldirdi. Martin quloq solarkan, bir vaqtlar o'zi e'tiqod qilgan Nitsshe falsafasini esladi. Axir bularda bir ma'no bormi o'zi? U telba Nitsshening eng ahmoqona qoidalaridan birini esladi, mazkur qoidaga binoan u hamma narsani, hattoki haqiqatning o'zini ham shubha ostiga qo'yg'an edi. Nachora, ehtimol, Nitsshe haqdir. Ehtimol, haqiqat degan tushunchaning o'zi bema'nilikdir. Lekin bir zumda Martinning miyasi charchab qoldi, endi u yana kresloda cho'zilib yotib, mudray boshlaganidan xursand edi.

U paroxodda ketayotganidan qanchalik mashaqqat chekayotgan bo'lmasin, oldinda uni bundan ham beshbattar mashaqqatlar kutayotgan edi. Paroxod Taitiga yetib borganida nima bo'ladi? Qancha tashvish-u, qancha urinishlar! Mol xarid qilishi kerak, Markiz orollariga boradi-

gan shxuna topishi kerak, qanchadan-qancha har turli zarur va zerikarli ishlarni qilishi kerak. Har safar u o'zini ish haqida o'ylashga majbur etarkan, boshiga qanday musibat tushishini yaqqol anglay boshlardi. Ha, endi u o'zini Ko'lankalar vodiysida his qila boshlagan edi, lekin shuni si dahshatli ediki, u hech qanday qo'rquvni his qilmasdi. Agarda u ozgina bo'lsa ham cho'chisa, hayotga qaytishi mumkin edi, lekin u qo'rqmasdi, shunga ko'ra, tobora ko'proq zulmat qo'yniga kirib borardi. Uning ruhini hech nima, hattoki, bir zamonlar jon-dili bilan sevgan narsalar ham quvontira olmas edi. Masalan, Martinga ko'pdan yaxshi tanish bo'lgan shimoli-sharqiy garmsel «Maripoza» ro'parasidan esa boshladi, biroq ilgari go'yo sharobdek kayf bergan bu shamol endi uning g'ashiga tegardi, xolos. U o'tmish kunlar va tunlarda eng qadrdon hamrohi bo'lgan bu shamolning kutilmagan erkalashlaridan o'zini olib qochish maqsadida kreslosini boshqa yerga surib qo'yishlarini buyurdi.

Lekin «Maripoza» tropik iqlim doirasiga kirganida, Martin o'zini nihoyatda baxtiqaro his qila boshladi. Uning uyqusi qochib ketdi. U judayam ko'p uxlagan edi, endi esa beixtiyor bedor yurishi, hayotga tikilib, uning yaraqlashidan ko'zlari qamashishi lozim edi. U bezovta bo'lib, palubada sang'ib yurardi. Havo rutubatli va issiq edi, yomg'ir tez-tez yog'ib turgan bo'lsa ham salqin tushmasdi. Yashash Martin uchun azob edi. Ba'zida holdan tolib, kresloga o'zini tashlardi, lekin bir oz damini olib, yana o'rnidan turar va u yoqdan bu yoqqa tentirab yura boshlardi.

Nihoyat, u o'zini qo'lidagi jurnalni o'qib bitirishga majbur etdi va kutubxonadan bir necha she'r to'plamlarini oldi. Lekin diqqatini to'play olmay, yana sayr qilishini davom ettirdi.

Kechqurun Martin o'z kayutasiga hammadan keyin tushdi, biroq allamahol bo'lib qolganiga qaramay, uxlay olmadi. Dam beruvchi birdan-bir vosita ham o'z ta'sir kuchini yo'qotgan edi. Bu endi haddan ziyod og'ir dard edi! U chiroq yoqib, qo'liga kitob oldi. Bu Suinbernning she'rlari edi. Martin bir necha muddat kitobni varaqlab o'tirdi, shu payt birdan, uni qiziqib o'qiy boshlagani payqadi. U bir she'rni o'qib bo'lib, keyingisini o'qiy boshladi, lekin yana oldingisiga qaytdi. Nihoyat, u kitobni ko'ksiga tushirib yuborib, o'ygatoldi. Ha! Mana u! Men uchun zarur bo'lgan narsa shu! Taajjub, nega ilgari esiga kelmagan ekan-a? Kalavaning uchi bu yoqda ekan-u; u hech vaqt g'ayriixtiyoriy ravishda bu kalava uchini topa olmay kelardi, endi bo'lsa, Suinbern unga eng qulay chora topib berdi. Martinga orom kerak edi, orom esa, shu yerda, yonginasida edi. U illyuminatorga qaradi. Ha, u anchagina keng ekan. Juda ko'p vaqtlardan beri birinchi marta sevinchdan yuragi sho'x-sho'x tepa boshladi. Axiyri o'z dardiga davo topgan edi. U kitobni olib, ovoz chiqarib, salmoq bilan o'qidi:

*Horib, charchab doimiy ko'ngil xushlashdan,
Horib, charchab shohona bazmlardan ham,
Qo'rquv ne, orzu ne, bilmay bir boshdan –
Ilohlarga shukrona aytamiz bu dam.
Shukrona aytamiz, yurak manguga –*

*Talpinmay tin olgay, deb axir bir kun,
Shukrona aytamiz, dengiz suviga
Jamiki daryolar jo bo'lgani-chun.*

Martin yana illyuminatorga qaradi. Suinbern unga yo'l ko'rsatardi. Hayot uni toliqtirar, aniqrog'i, chidab bo'lmaydigan darajada toliqtiruvchi va yurakni siquvchi bo'lib qolgan edi.

*Shukrona aytamiz, yurak manguga –
Talpinmay tin olgay, deb axir bir kun!..*

Ha, buning uchun xudolarga shukrona aytilsa arziydi. Bu ularning dunyoda yagona xayrli ishi! Hayot toqat qilib bo'lmaydigan mashaqqatga aylanganda undan qutulish naqadar oson-a!

Nimani kutyapti? Vaqt yetdi.

Martin boshini illyuminatordan chiqarib, pastga, sutdek oppoq ko'priklarga qaradi. «Mari-poz» suvga yarim belidan botgan edi, shuning uchun, qo'lida osilsa oyog'i suvga tegishi mumkin edi. Suvga shaloplab tushmaydi. Hech kim eshitmaydi. Martinning yuziga suv sachradi. U lablarida sho'r suv mazasini mamnuniyat bilan his qildi. U hatto so'nggi qo'shig'imni yozsamikin, deb o'yladi! Lekin shu zahotiyoyq o'zini o'zi masxara qildi. Keyin bunga vaqti ham yo'q edi. U hamma narsaga tezroq barham berishni astoydil istardi.

Martin ehtiyot shart, kayutadagi chiroqni o'chirib, oyog'i bilan illyuminatordan chiqa boshladi. Yelkalari tiqilib qolgan edi, u bir qo'lini yoniga mahkam bosib siqilib chiqa boshladi.

Paroxodning bexosdan bir silkinishi unga yordam berdi, u illyuminatordan chiqib, qo'lida osilib qoldi. So'ng oyog'i suvga tegishi bilan qo'llarini qo'yib yubordi. Oppoq iliq suv uni o'z bag'riga oldi. «Maripoza», ba'zi illyuminatorlaridan yorug' tushib turgani uchun, xuddi tuynuklari bor ulkan qora devorga o'xshab, Martinning yonidan suzib o'tib ketdi. Paroxod tez suzib borardi. Martin es-hushini yig'ib ulgurguncha paroxoddan juda uzoqda qolib ketdi, so'ng okeanning ko'pik qoplagan sathida bamaylixotir suzib ketdi.

Martinning oq badanini ko'rib suzib kelgan qilich baliq uning badaniga sanchildi, Martin kulib yubordi. Og'riq uning nima uchun suvga tushganini eslatdi. U suvdan suzib chiqishga urinib, asosiy maqsadini unutib qo'yan edi. «Maripoza» chiroqlari uzoqda ko'zdan g'oyib bo'la boshlagan edi, Martin esa, go'yo bu yerdan yuz mil naridagi eng yaqin sohilgacha suzib etmoqchi bo'lganday, hamon suzib borardi.

Bu g'ayriixtiyoriy hayot instinkti edi. Martin suzishni to'xtatdi, lekin og'ziga suv kirishi bilan yana qo'llarini ishga soldi. «Hayotga ishtiyoq», deb o'yladi u va zaharxanda qildi. Ha, u irodali odam, uning astoydil harakat qilib, o'zini yo'q qilishga yetarli darajada mustahkam irodasi bor.

Martin suvda tik turdi. U sokin bulutlarga tikilarkan, ayni vaqtda o'pkasidagi butun havoni chiqarib yubordi. U suv qa'riga tezroq cho'kish maqsadida qudratli qo'l va oyoqlarini tez harakatga keltirib, suvdan beligacha ko'tarildi. U teran suv tubiga misoli oq marmar haykaldek qimir etmay cho'kishi lozim. Martin suv ostiga tushgach,

nafas olib, ichiga suv torta boshladi, bu harakati bilan tezroq hushdan ketish maqsadida narkotik dorini ichiga tortgan bemorni eslatardi. Lekin suv tomog'iga kirib, uni bo'g'a boshlagan edi, u beixtiyor, instinkt kuchi bilan suv betiga suzib chiqdi va boshi uzra porloq yulduzlarni ko'rdi!

Hayot ilinji, deb o'yladi nafrat bilan, nafas olmaslikka behuda urinarkan. Na iloj, boshqacha yo'l tutishga to'g'ri keladi. U chuqur nafas olib, o'pkasini havoga to'ldirdi. Ummon tubiga uzoqroq sho'ng'ish uchun shuning o'zi yetarli. So'ngra jahd bilan ag'darildi-da, bor kuchi va bor irodasini ishga solib, boshi bilan suvga sho'ng'idi. Chuqurroq, faqat chuqurroq. Ko'zlari ochiq, shuning uchun suvning shaffof jilvasida izidan kelayotgan qilich baliqlar ham ko'rinib turardi. Faqat unga tashlanib qolishmasa bo'ldi, bu zo'riqqan irodasini bukib qo'yishi mumkin. Biroq baliqlar to'dasi unga tashlanmadi va u so'nggi marhamati uchun hayotdan minnatdor bo'ldi.

Pastga va faqat pastga, oyoq-qo'llari allaqachon toliqib, arang suzib borardi. Albatta, hozir qariyb ummon tubiga yetdi. Suv bosimidan qulog'i shang'illab, boshi g'uv-g'uv aylana boshladi. Bularning bari chidab bo'lmas azobga aylandi, ammo u baribir qo'l-oyoqlarini yanada chuqurroq tushishga majburlayapti. Nihoyat irodasi bukildi va bo'g'zidan butun havo otilib chiqdi. Havo pufakchalari shitob bilan yuqoriga intilarkan, uning yonoqlariga, ko'zlariga urilar, ulardan asta sirpanib o'tib ketardi. So'ng og'riq keldi, u bo'g'ila boshladi. Bu azob o'lim emas, xiralashib borayotgan idrokida shunday fikr chaqin

urdi. O'lim azob emas. Bu dahshatli bo'g'ilish – hayot, hayot azobi, unga hayot berayotgan so'ngi zarba.

Qaysar oyoq-qo'llari kuchsiz, joniqib harakatlanar, tinimsiz yuqoriga talpinardi. Ammo Martin ularni dog'da qoldirdi; ularni harakatlanishga va kurashishga undovchi hayot ishtiyoqini ham dog'da qoldirdi. Endi u allaqachon juda chuqurlab ketgan. Ular uni suv yuzasiga olib chiqishga ulgurolmaydi. Nazarida, ummon ro'yolari oralab asta-sekin ketib borayotgandek edi. Har tomondan ranglar jilvalanib, ajib yog'du o'ynamoqda, uni qurshab, atrofini to'ldirmoqda. Bu nima ekan? Aftidan, mayoqqa o'xshaydi, lekin u miyasida – chaqnab, yorqin nur kabi ko'zni olmoqda. Oq chaqinlar tobora ko'paymoqda. Shiddatli va uzoq gumburlashdan Martin o'zini ulkan va cheksiz pillapoyadan pastga tomon qulab ketayotgandek sezdi. Mana, nihoyat uning qa'rida zulmat ichiga qulab tushdi. Buni elas-elas idrok qilardi. U zulmatga quladi. Buni anglab yetgan lahzada esa, ong-shuuri uzilib qoldi.

Adabiy-badiiy nashr

JEK LONDON

MARTIN IDEN

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Musahhih
Sunnat MUSAMEDOV

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: ANo 252, 2014-yil 2-oktyabrda berilgan.

Bosishga 2016-yil 20-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 19.0. Shartli bosma tobog'i 31.92.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma 47.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor – 8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 129-09-69; 129-09-71.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87.

Faks – 273-00-14.

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**Yangi asr avlodi» NMM
«Kamolot kutubxonasi» ruknida
quyidagi yangi kitoblarni nashr etdi:**

JEYN OSTIN

**«Andisha va gʻurur»
84x108 1/32 404 bet,
qattiq muqova**

Jeyn Ostin «Andisha va gʻurur» asarida qishloq dvoryanining qizi Elizabet Bennet bilan oʻzining kelib chiqishi, boyligi ila magʻrur boy pomeshchikning oʻgʻli Fistuilyam Darsi oʻrtasidagi sarguzashtlarni hikoya qiladi. Asar 1813-yilda nashr qilinib, adabiyot dunyosida katta shov-shuvga sabab boʻldi. Ushbu asar haqida oʻsha paytdagi «Britaniya tanqidchisi» jurnali shunday yozgan edi: «Asar shu paytgacha oʻquvchilar hukmiga havola qilingan bu turdagi hamma romanlardan yuqori turadi». Umid qilamizki, mazkur asar hurmatli oʻzbek kitobxonlariga ham manzur boʻladi.

CHINGIZ AYTMATOV

**«Kassandra tamgʻasi»
84x108 1/32, 296 bet,
qattiq muqova**

Buyuk adib ushbu falsafiy romanida butun sayyora, boringki, kosmos miqyosida keng va uzviy mushohada yuritgan. Bugungi shafqatsizlik, yovuzlik, vahshiylik urugʻlarini kelajakda qanday dahshatli mevalar berishini kosmik yuksaklikdan bashorat qilgan.

DANIYEL DEFO

«Robinzon Kruzoning hayoti va

ajoyib sarguzashtlari»

84x108 1/32, 208 bet,

qattiq muqova

Atrofingda sen bilan dardlashadigan, umuman, muloqot qiladigan kimsa yo'q, go'yo olamda faqat yakka o'zing va bir qancha jonivorlar. Barcha tashvishlar-u kulfatlarga faqat shu jonivorgina guvoh. Orzu-xayollar, iztiroblar, sog'inch hisi seni sira tark etolmaydi.

Kimsasiz, to'rt tomoni bepoyon ummon bo'lgan orolda yigirma sakkiz yil yashagan Robinzon Kruzoning sarguzashtlarga boy kechmishi kitobxonni befarq qoldirmaydi, shuningdek, voqealarning oddiy va kutilmagan holatlar bilan bayon qilinishi qiziqtirishi tabiiy.

Bir necha yuz yillardan beri qayta-qayta nashr etilib, qo'ldan tushmay kelayotgan dunyoga mashhur ushbu kitob siz azizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.



Jek London

(1876 – 1916)

Mashhur amerikalik yozuvchi.

1876-yil 12-yanvarda tug'ilgan.

Mustaqil hayotni juda erta boshlagan Jek keyinroq Kaliforniya universitetiga o'qishga kirgan va ko'p o'tmay o'qishni tashlab ketgan.

Jek London adabiy faoliyatini 1893-yildan boshlagan. Yozuvchining «Bo'ri bolasi» (1900), «Izg'irin bolalari» (1902), «Qor qizi» (1902), «Hayot uchquni» (1907), «Shimoliy Odissey» (1910), «Insonga ishonch» (1914), «Qadim dengizchilardek» (1917), «Chandiqli odam» (1900), «Oltin dara» (1905), «Olis o'lkada» (1899), «Ayol mardligi» (1900), «Gulxan yoqish» (1910), «Kish haqida qissa» (1904) asarlarida turli mavzular qalamga olingan. «Dengiz bo'risi» (1904) «Martin Iden» (1909), «Uch qalb» (1920) romanlarini bugun butun dunyo kitobxonlari sevib mutolaa qiladi.

Jek London 16 yillik ijodiy faoliyati mobaynida 19 ta roman, 18 ta to'plam (152 hikoya), 3 pyesa, 8 ta avtobiografik va publitsistik xarakterdagi asarlar yozgan. «Hayotga muhabbat» (1961), «Kish haqida qissa» (1962), «Martin Iden» (1968) va boshqa asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Jek London 1916-yilda vafot etgan.

